Идиоматика любого языка обладает как бы удвоенной индивидуальностью. Она индивидуальна как явление современного литературного языка, потому что каждый оборот является самостоятельной частью некогда активной речевой модели, которая со временем потеряла свою актуальность. Она индивидуальна и как отражение каких-либо национальных реалий, составлявших в свое время самобытность культуры того или иного народа. А индивидуальное – как это ни парадоксально – является особо прочной связью при взаимодействии народов и их культур, потому что именно индивидуальное и является национальной «валютой» при культурном взаимообмене народов. «Именно индивидуальные особенности народов связывают их друг с другом, заставляют нас любить народ, к которому мы даже не принадлежим, но с которым столкнула нас судьба, – подчеркивал Д. С. Лихачев. – Значит, выявление национальных особенностей характера, знание их, размышление над историческими обстоятельствами, способствующими их созданию, помогают нам понять другие народы.

Размышление над этими национальными особенностями имеет общее значение. Оно очень важно» [1, с. 65]. Каждое слово в каждом языке в определенный момент его развития входит в ограниченное количество более или менее устойчивых сочетаний слов, и в каждом языке в определенный момент находится ограниченное количество сочетаний. Общая цифра этих застывших или устойчивых сочетаний для каждого языка относительно невелика. В тоже время любая фраза, произнесенная или взятая из любого текста, полностью из них состоит. Эти выражения в большинстве своем не совпадают буквально с соответствующими выражениями в других языках: чаще всего они различаются по своей грамматической структуре; иногда они не имеют коррелятов в других языках и поэтому их нельзя перевести.

Идиоматичность проявляется по-разному. Идиоматическими являются наименования предметов материальной культуры (к примеру, бел. *хлуд, березовик, чыгунка, лядовня, носовка, свиток* и т.д.); действий и состояния (к примеру, бел. *усмаковать, блюзнить, посыреть* и др.); явлений природы, названий животного, растительного мира (к примеру, бел. *дзик, стародревина, перун*). Многие названия растительного и животного мира, приобретая в том или ином языке определенное культурологическое значение, выступают символом самой страны, народа. Так, название сакура ассоциируется в нашем сознании с Японией, лавр – с Испанией, тополь – с Украиной, береза – с Россией. Символом же белорусской земли стали василек, шиповник [4, с. 17]. В узбекской культуре – это хлопок.

Отличительные черты языка того или иного народа также четко отражаются в языковых оборотах. Это и обороты с особенностями управления и согласования (к примеру, бел. *смеяться с кого-то, пойти по грибы, болеть на грипп* и др.), и различные фразеологизированные формулы речевого этикета для выражения приветствий, пожеланий, благодарности и т.д., и фразеологические обороты (к примеру, бел. *За рубль жабу в Вильню погонит, Как коту наесться с жабиной пригоршни* и др.). Известны также многочисленные пословицы и поговорки, на которые особенно богат белорусский народ.

Каждый язык хранит в единицах, которые приобрели образно-метафорическое, символическое значение, культурно-значимую для носителей этого языка информацию, сохраняет культуру как историческую память народа. К таким единицам принадлежат и авторские высказывания, или афоризмы. Они могут направить человека на жизненный путь, успокоить в беде, подтолкнуть к борьбе с препятствиями. Также надо сказать и о воспитательной роли таких выражений: они расширяют духовный мир человека, формируют нравственные качества. Значительная экономичность слов, глубина семантики, яркая образность делают такие высказывания стилистическими шедеврами, что очень обогащает речь. В лингвистическом плане афоризмы обладают рядом черт, позволяющих отнести их к языковым явлениям. Это устойчивость, воспроизводимость, наличие художественно-стилистических средств, речевая

вариативность. Свидетельством того, что афоризмы относятся к системе культуры, являются такие свойства, как смысловая завершенность, образность и лаконизм выражения, принадлежность определенному автору, вхождение в культурное «наследие» личности.

Особенно ярко идиоматичность заметна в переводе текстов с одного языка на другой. Это означает, что буквальный перевод абсолютно невозможен. Разнообразные расхождения обусловлены спецификой лексико-грамматической системы того или иного языка.

Стилистическое богатство лексико-семантического уровня обусловлено не только большим количеством единиц, к нему принадлежащих, но и разнообразием их качества, а также сложной, многоярусной системой их стилистической организации. В пределах лексико-семантического уровня языка имеем, с одной стороны, единицы, обладающие единым значением и таким же конкретно-неповторимым стилистическим оттенком, с другой стороны, – абстрактные стилистические категории, охватывающие многие сотни слов и не уступающие по своей абстракции многим синтаксическим категориям. Наиболее ярко эти единицы можно увидеть только при анализе художественных текстов. Восприятие художественного текста нельзя свести только к пониманию его идеи и общего содержания, к выбору смысловой информации без глубокого анализа изобразительных и выразительных средств, при помощи которых эта информация складывается. Именно глубинный языковой анализ помогает увидеть взаимосвязь идеи и слова, когда приходит осмысление внутренних связей в содержании текста, осмысление его подтекстовых смыслов, освоение и «присвоение» внутренних переживаний, эмоций и мыслей автора. Языковой анализ помогает понять взаимосвязь идеи и слова через образ, он помогает осмыслить, как в фонетике, отдельных словах, метафорах, сравнениях, особенностях синтаксиса и в других языковых средствах и стилистических фигурах проявляется мировоззрение писателя, его идеи, мысли, оценки, чувства и т.д. Он учит правильно понимать смысл текста, включая этот текст в систему ценностно-культурных ориентиров нации; он объясняет не просто значение слов, из которых складывается текст, но художественное значение всего текста, его художественный смысл, понимание которого – это «значение через сопереживание» [5, с. 8]. Во все времена именно литература являлась и сегодня является важнейшим компонентом духовной культуры, одним из наиболее действенных средств воспитания молодежи, усиления интеллектуальных сил народа.

Таким образом, именно расширение сферы употребления национального языка во всех областях жизнедеятельности общества может, с одной стороны, дать довольно заметный импульс для развития всей системы национальной культуры, а с другой – послужить эффективным барьером на пути усиления негативных процессов сегодняшней глобализации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Лихачёв, Д. С. Заметки о русском / Д. С. Лихачёв. – М. : Сов. Россия, 1981. – 72 с.
2. Кривицкий, А. А. Белорусский язык для говорящих по-русски : А. А. Кривицкий, А. Е. Михневич, А. Н. Подлужный. – Минск : Высш.шк., 1990. – 368 с.
3. Комлев, Н. Г. Словарь иностранных слов / Н. Г. Комлев. – М. : ЭКСМО-Пресс, 2001. – 672 с.
4. Семешко, Л. И. Белорусский язык : учебник / Л. И. Семешко. – Минск, 1999. – 224 с.
5. Лопатин, В. В. Рождение слова: Неологизмы и окказиональные образования / В. В. Лопатин. – М. : Наука, 1973. – 152 с.

TA'LIM JARAYONINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

M.Mirqosimova,
p.f.d.,prof. "Turon" FA akademigi

Annotatsiya. Maqolada muallif o'quvchi-talabalarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalari va zamonaviy ko'nikmalarini pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish, ta'lim jarayonlariga SMART, comfort learning, self-study kabi o'qitish modeli va texnologiyalaridann foydalanishning ahamiyatini yoritgan.

Kalit so'zlar: tayanch kompetensiyalar, zamonaviy yondashuvlar, ko'nikmalar, pedagogik qadriyatlar, ta'lim jarayoni, SMART, comfort learning, self-study, o'qitish modeli, texnologiyalar.

Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarga ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni "4K" – kommunikativ, kritik, kreativ va kollabarativ ko'nikmalar asosida shakllantirishga qaratilgan STEAM ta'lim tizimining ham keng joriy etilishi bu borada yuqori natijaga erishishga zamin yaratmoqda. PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga kiritilgan "4K" ko'nikmalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan samarali ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalari, Soft Skills, "4K" ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, mazkur kompetensiyalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, pedagogik-diagnostik korreksiyalash faoliyatini tizimli amalga oshirish va o'quvchilarning individual-intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga doir metodikalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Respublikamizda bu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari allaqachon boshlangan: N.M.Egamberdiyeva, S.T.Yuldasheva, Sh.Z.Taylanova, D.R.Salixova, B.Xodjayev, N.I.Raxmonova, J.Tulenov, Sh.Q.Mardonov, Qurbonova M. tadqiqotlarida qadriyat mazmuni va

aksiologik yondashuvlar, o‘quvchi tarbiyasida qadriyatning zarurati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiq etilgan.[1] Xoriliy mamlakatlarda ham shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni, komunikativ, kritik, kreativ, kollabarativ ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik qadriyatlarni tarkib toptirishning metodik ta’minoti hamda innovatsion modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog‘liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o‘z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Bir millat va elat uchun qadrli bo‘lgan odatlar, an’analar va qarashlarni hurmat qilish, qadrlash ta’lim tizimida shakllantiriladi, metodik vositalar yordamida yosh avlodga o‘rgatiladi. Insonning o‘zini o‘zi hurmat qilishi, o‘z or-nomusi hamda obro‘sini saqlab qolishiga imkon beradi. Bu esa unga milliy o‘zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayonlarda shakllanib boradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadiryatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo‘lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob m a ’ n a v i y kuchdir. Uning o‘zi va atrofidagilar uchun foydali, samarali jihatlarining ko‘payib borishi atrofdagilar ma’naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib borilishiga ta’sir etadi. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko‘ra ijtimoiy mazmun kasb etadi. Qadriyat insonning ta’limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi. Pedagogik qadriyat o‘quvchida insoniylikni shakllantiradi, demokratik va diplomatik munosabatlar qurishda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni real vaziyatlarda qo‘llay olishga o‘rgatadi.

Pedagogik qadriyat tarbiya va intizom asosida o‘quv jarayonida shakllanadigan, shaxsning ijtimoiy munosabatlarni ma’naviy-axloqiy me’yorlar, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan ko‘nikmalar tizimidir. Buning ta’siri natijasida insonning nafaqat harakteri, balki uning hayotiy faoliyati ham yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi. Pedagogik qadriyat har bir o‘quvchiga milliy o‘zlikni anglash, o‘zbekona qadriyatlar asosida vatanga sadoqat ruhida ta’lim olish natijasida shaxsiy rivojlanish imkonini beradi. Bu esa, ularning zamonaviy potensiallarini oshirish bilan bir qatorda bag‘rikeng, mehribon, samimiy, adolatli, to‘g‘ri so‘z, sadoqatli, mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Milliy ta’lim konsepsiyasi sharqona ta’lim va tarbiya mazmunidan iborat bo‘lib, birinchi navbatda o‘quvchi tarbiyasi, odob-

[1] Қ.Назаров.Аксиология. Тошкент.Академия-2011, 20-21б; Имомназаров М.Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.Тошкент.Шарқ, 1998 – Б.131.; Xodjayev B.X. “Pedagogik aksiologiya” o’quv qo’llanma. T. “Fan va texnologiya”, 2011. - 156 bet.; Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2008. – Б. 11-12.; Қуронов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 1998. – Б. 363;

axloqqa xos sifatlar yetakchilik qilishiga e’tibor qaratiladi.
Insoniyatni shaxs sifatida yuksalishi avvalo uni ma'naviyati, ilmi va hunari, tanlagan kasbi bilan davlat rivojiga, jamiyat a’zolari, oilasi va mahallasiga beradigan hissasi va yordami hamda ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi.
Milliy ta’lim konsepsiyasining maqsadi rivojlangan davlatlar tomonidan tajribadan o‘tkazilayotgan, ta’limdagi xalqaro zamonaviy ta’limiy yondashuvlar sifatida tatbiq etilayotgan Soft skills, “4K” ko‘nikmalarini hamda tayanch kompitensiyalarini o‘quvchilarda shakllantirish, yangi avlod kadrlarida zamonaviy ta’limiy yondashuvlarga raqobatbardosh, pedagogik qadriyatlar asosida ma’naviy immunitetni oshirish trayektoriyasiga qaratilgan. Millat, xalq o‘z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Bir millat va elat uchun qadrli bo‘lgan odatlar, an’analar va qarashlarni hurmat qilish, qadrlash ta’lim tizimida shakllantiriladi, metodik vositalar yordamida o‘rgatiladi. Insonning o‘zini o‘zi hurmat qilishi, o‘z or-nomusi hamda obro‘sini saqlab qolishiga imkon beradi. Bu esa unga milliy o‘zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayonlarda shakllanib boradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadiryatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo‘lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma’naviy pokligini ta’minlovchi bir buyuk manbadir. Uning o‘zi va atrofidagilar uchun foydali, samarali jihatlarining ko‘payib borishi nafaqat uning o‘zini, balki atrofdagilar ma’naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib boradi. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko‘ra ijtimoiy mazmun mohiyatga egadir. Qadriyat insonning ta’limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi. Pedagogik qadriyat o‘quvchida insoniylikni shakllantiradi, demokratik va diplomatik munosabatlar qurishda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni real vaziyatlarda qo‘llay olishga o‘rgatadi. Pedagogik qadriyat tarbiya va intizom asosida o‘quv jarayonida shakllanadigan, shaxsning ijtimoiy munosabatlarni ma’naviy-axloqiy me’yorlar, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan ko‘nikmalar tizimidir. Buning ta’siri natijasida insonning nafaqat harakteri, balki uning hayotiy faoliyati ham yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi. Pedagogik qadriyat har bir o‘quvchiga milliy o‘zlikni anglash, o‘zbekona qadriyatlar asosida vatanga sadoqat ruhida ta’lim olish natijasida shaxsiy rivojlanish imkonini beradi. Bu esa, ularning zamonaviy potensiallarini oshirish bilan bir qatorda bag‘rikeng, mehribon, samimiy, adolatli, to‘g‘ri so‘z, sadoqatli, mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy shaxsni tarbiyalashda dunyo tajribasida keng qo‘ll a n i layotgan Hard skills va Soft skills tushunchalarini ta’lim mazmuniga singdirish alohida ahamiyatga ega. Qattiq ko‘nikmalar (hard skills) – kasbiy, texnik ko‘nikmalar. Har bir kasb egasi muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Ularni namoyish qilish, tekshirish va baholash asosida kasbiy ko‘nikmalari shakllanib boradi. Yumshoq ko‘nikmalar (Soft skills) – qo‘shimcha, universal ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar. Ular kasbga bog‘liq

bo‘lmaydi, lekin insonning hayotdagi ijtimoiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar bilan muomala qilish madaniyati, nizolarni hal qilish qobiliyati, odamlarni ishontirish mahorati, moslashuvchanlik, mas’uliyatlilik, puxtalik, har ishni o‘z vaqtida bajarish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi xususiyatlar “yumshoq ko‘nikmalar”ga misol bo‘ladi. Bunday ko‘nikmalar nafaqat ishda, balki hayotning barcha jabhalarida kerak bo‘ladi. Qattiq ko‘nikmalarni faqatgina aniq belgilangan ko‘rsatmalar yordamida egallash mumkin bo‘lsa, yumshoq ko‘nikmalar odamda yo tug‘ma bo‘lib, hayotiy vaziyatlar, ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradi.

Soft Skills bu inson hayoti va faoliyatida kerak bo‘ladigan universal ko‘nikmalar jamlanmasi bo‘lib, unga quyidagilar kiradi: insonlarni to‘g‘ri muloqot qilish; jamoaviy ishlash; emotsiya va stressni boshqara olish; liderlik qobiliyati; taym menejment; tizimli va strategik fikrlarash qobiliyati; muzokara olib borish; konstruktiv tandiqidiy fikrlash; muammolarni hal qilish; kreativlik; qaror qabul qila olish. Pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy shaxsni tarbiyalashda darsliklarning ahamiyati beqiyosdir. Zotan, zamonaviy darsliklar o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga yordam beradigan pedagogik vos ita bo‘lib xizmat qiladi.Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yaratilgan darsliklar va shu darslik mazmunidan kelib chiqib tashkil etiladigan darslar talabalarda universal, adaptiv va hayotiy ko‘nikmalar shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni pedagogik qadriyatlar sifatida “Tarbiya” darslarida shakllantirishning metodik imkoniyati katta. Namuna bo‘la oladigan hamda hayot yo‘lida bilimi, ilmi, iqtidori bilan muvaffaqiyat qozona olgan, hududdagi taniqli insonlar, ijtimoiy faol shaxslar tomonidan ochiq debat va trening tarzida o‘tilishi o‘quvchilarda pedagogik qadriyatlarga nisbatan ishonchni uyg‘otadi. Zamonaviy ta’limiy yondashuvlar o'quvchi - talabalarning faolligini, faol o'rganishini va motivatsiyasini oshiradi. Bu yondashuvlar vositasida ijodkorlik, tasavvur va innovatsiyalarni kuchaytirishi mumkin. Ular yoshlarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Дусчанова Н.С. Замонавий педагогик ёндашувлар: қиёсий таҳлил. Academic Research in Educational Sciences . Volume 3, Issue 3, March, 2022.

2.Turayev B.O, Ergasheva M.X, Raxmanov B.U va boshq. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo’lishi. –T.: “Navro’z”, 2017. - 360 b.

3.Turayev B.O, Sultonova G.S, Bozorov D.M va boshq. Sinergetika-2: nazariya va amaliyot.-T.: “Fan ziyosi”, 2022. - 404 b.

1-YO‘NALISH.TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH; MUAMMO VA YECHIMLAR

PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR SHAXSIYATI VA KASBIY FAOLIYATINING BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Asranbayeva Munojatxon Xalimjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Anotatsiya: Ushbu tezis professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini shakllantirish va mustahkamlash jarayonlaridagi psixopedagogik omillarni o‘rganishga qaratilgan. Tezisda pedagogik faoliyatning murakkabligi, zamonaviy ta’lim muassasalaridagi stress va professional yuklamalar, shuningdek shaxsiy resurslar va psixologik chidamlilikni oshirish usullari tahlil qilinadi. Professor-o‘qituvchilarning barqarorligini ta’minlashda motivatsion, emotsional va metodik komponentlar ahamiyati, shuningdek, ularning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta’siri ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Tezis shuningdek, xorijiy olimlarning psixopedagogik barqarorlik bo‘yicha tadqiqotlarini va amaliy tavsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Professor-o‘qituvchi, shaxsiy barqarorlik, professional barqarorlik, psixopedagogik asoslar, pedagogik faoliyat, emotsional chidamlilik, motivatsiya, ta’lim muassasalari.

Kirish: Ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligi bugungi kunda global ta’limning rivojlanish strategiyalari doirasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik muhit murakkab ijtimoiy, psixologik va metodik jarayonlarni o‘z ichiga oladi, bu esa professor-o‘qituvchilardan nafaqat yuqori darajada kasbiy kompetensiya, balki shaxsiy chidamlilik va barqaror psixologik holatni ham talab qiladi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy barqarorligi va professional o‘sishiga bog‘liq bo‘lib, bu omillar ta’lim sifatini oshirish va ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy strategik rol o‘ynaydi. Shaxsiy va professional barqarorlik tushunchalari psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillik ilmiy izlanishlar obyekti bo‘lib kelgan. Shaxsiy barqarorlik, asosan, insonning psixologik chidamliligi, stressga qarshi kurashish qobiliyati va emotsional muvozanatini saqlash salohiyati bilan belgilanadi. Professional barqarorlik esa pedagogning kasbiy kompetentsiyasi, pedagogik faoliyat davomiyligida o‘zini samarali boshqarish qobiliyati va doimiy professional o‘sish jarayonini anglatadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, professor-o‘qituvchilarning barqarorligi yuqori bo‘lsa, ular nafaqat o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishadi, balki

talabalar motivatsiyasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Pedagogik faoliyatning murakkabligi va psixologik yuklamasi professor-o‘qituvchilarda stress, emotsional charchoq va professional motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ularning shaxsiy va professional barqarorligini ta’minlash uchun psixopedagogik yondashuvlar zarurdir. Psixopedagogika ilmiy jihatdan o‘qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishini birgalikda o‘rganadigan kompleks yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. U shaxsiy salohiyatni aniqlash, emotsional intellektni rivojlantirish, stressni boshqarish va pedagogik jarayonlarda barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarini o‘rganadi. Shaxsiy barqarorlikni shakllantirishda bir qancha psixologik omillar muhim ahamiyatga ega[1]. Avvalo, bu o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy resurslarni boshqarish qobiliyati bo‘lib, professor-o‘qituvchiga murakkab pedagogik vaziyatlarda mantiqiy va konstruktiv qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, emotsional chidamlilik va stressga qarshi kurashish qobiliyati, shuningdek, shaxsiy motivatsiyani saqlash, pedagogning kasbiy faoliyatini davom ettirish va professional o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, shaxsiy barqarorlikni shakllantirish pedagogik faoliyatga bag‘ishlangan ijtimoiy va metodik ko‘nikmalar bilan chambarchas bog‘liq. Professional barqarorlik masalasi esa o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik tajribasi, metodik bilimlari va doimiy professional o‘sish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori professional barqarorlikka ega professor-o‘qituvchilar pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish, yangi ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash va pedagogik jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy va professional barqarorlik o‘rtasidagi integratsiyalashgan yondashuv pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, global ta’lim amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, professor-o‘qituvchilarning barqarorligini oshirishga qaratilgan psixopedagogik strategiyalar ularni ijtimoiy, emotsional va kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Masalan, kontinental va rivojlangan davlatlarda professor-o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar, mentorlik dasturlari, stressni boshqarish seminarlar va professional rivojlanish kurslari keng qo‘llaniladi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik faoliyatda barqarorlikni mustahkamlash va shaxsiy resurslarni oshirish imkonini beradi. Ushbu tezisning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy ta’lim muassasalari sharoitida professor-o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning psixologik va professional salohiyatini rivojlantirish, shaxsiy va professional barqarorlikni ta’minlash masalalari hali ham izlanishni talab qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish, professor-o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi, shuningdek, ta’lim sifatini va ta’lim muassasalarining barqarorligini ta’minlash strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy va professional barqarorlikni rivojlantirishda psixopedagogik asoslar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: pedagogning shaxsiy resurslarini aniqlash va rivojlantirish, emotsional intellektni oshirish, stressni boshqarish va pedagogik jamoada hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, professional malaka va kompetensiyalarni doimiy ravishda

oshirish. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy psixopedagogik tadqiqotlar, xorijiy tajribalar va pedagogik innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Kirish qismida shuni alohida ta’kidlash zarurki, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini oshirish faqatgina psixologik treninglar yoki metodik seminarlar bilan cheklanmaydi. Ular pedagogik faoliyatning barcha darajalarida – o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ta’lim sifatini baholash va talabalarga pedagogik yordam ko‘rsatish kabi faoliyatlarda barqarorlikni talab qiladi. Shu sababli, psixopedagogik yondashuvlar integratsiyalashgan, tizimli va doimiy bo‘lishi lozim. Ushbu jihatlar asosida, ushbu tezis professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini ta’minlashda psixopedagogik yondashuvlarning nazariy asoslarini, metodologik usullarini va amaliy tavsiyalarini kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot professor-o‘qituvchilarning psixologik chidamliligi, shaxsiy resurslari va kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan psixopedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi. Zamonaviy ta’lim muassasalari sharoitida professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligi ta’lim jarayonining sifatini, pedagogik jamoaning samaradorligini va o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. XXI asr ta’limi global tendensiyalar, texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan, professor-o‘qituvchilar faqat nazariy bilimlarni yetkazuvchi emas, balki murakkab pedagogik jarayonlarni boshqaruvchi, metodologik va psixologik kompetentsiyaga ega bo‘lgan mutaxassis sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu esa ularning shaxsiy va professional barqarorligini ta’minlash masalasini nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatli masala sifatida ko‘rsatadi. Shaxsiy barqarorlik, asosan, pedagogning stressga chidamliligi, emotsional intellekti, shaxsiy resurslarini boshqarish qobiliyati va qaror qabul qilish jarayonlaridagi samaradorligi bilan bog‘liq. Zamonaviy pedagogik faoliyat sharoitida professor-o‘qituvchilar ko‘plab murakkab vazifalarga duch keladi: innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etish, raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish, talabalarning psixologik va akademik ehtiyojlarini qondirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini davom ettirish va pedagogik jamoa bilan hamkorlikni rivojlantirish. Bularning barchasi professional va shaxsiy barqarorlikni talab qiladi. Masalan, universitetlarda ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanayotgan professorlar ko‘pincha yuqori psixologik yuklamaga duch keladi: grant loyihalarini tayyorlash, tezislarni nashr etish va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish kabi majburiyatlar ularning professional barqarorligini mustahkamlashni talab qiladi. Agar shaxsiy va professional barqarorlik yetarli bo‘lmasa, bu pedagogning motivatsiyasiga, ijodiy salohiyatiga va o‘quv jarayonidagi samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi. Global ta’lim tajribasi shuni ko‘rsatadiki, professor-o‘qituvchilarning barqarorligini oshirishga qaratilgan strategiyalar ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, Yevropa universitetlarida professorlar uchun maxsus psixologik treninglar, stressni boshqarish va emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar mavjud. Shunday dasturlardan biri sifatida Germaniyada Universitetlar pedagogik jamoasida muntazam “Resurs va chidamlilik

seminarlari” o‘tkaziladi[2]. Bu seminarlarda professorlar o‘z shaxsiy va professional resurslarini aniqlash, pedagogik stressni boshqarish va yangi ta’lim texnologiyalarini o‘z faoliyatiga integratsiyalash usullarini o‘rganadilar. Natijada, professorlar o‘z faoliyatida barqarorlikni saqlab qolish va pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, professor-o‘qituvchilarning barqarorligini oshirishda mentorlik tizimi muhim ahamiyatga ega. Masalan, AQShning yetakchi universitetlarida yangi professorlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning professional rivojlanishini ta’minlash maqsadida mentorlik dasturlari joriy etilgan. Bu dasturlar professorlarni o‘z faoliyatida duch keladigan murakkab vaziyatlarda qo‘llab-quvvatlash, pedagogik va ilmiy faoliyatda tajriba almashish, shuningdek, shaxsiy resurslarni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mentorlik dasturlarida ishtirok etgan professorlar o‘z professional barqarorligini sezilarli darajada oshiradi va pedagogik faoliyatda yuqori samaradorlikka erishadi. O‘zbekiston konteksti ham ushbu masalani dolzarb qiladi. Mamlakatimiz ta’lim tizimi so‘nggi yillarda modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonidan o‘tmoqda[3]. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, innovatsion darslarni tashkil etish va talabalar bilan interaktiv muloqot qilish kabi yangi vazifalarga duch kelmoqda. Bu esa shaxsiy va professional barqarorlikni ta’minlashni dolzarb masala sifatida namoyon qiladi. Masalan, O‘zbekistonning yirik universitetlarida professor-o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar, ilmiy seminarlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlari joriy etilmoqda. Ushbu amaliyotlar professorlarning professional kompetensiyasini oshirish, pedagogik faoliyatdagi stressni kamaytirish va shaxsiy resurslarni rivojlantirishga qaratilgan[4]. Bundan tashqari, zamonaviy professor-o‘qituvchilar o‘quv jarayonida talabalar bilan hamkorlik qilishda ham barqaror bo‘lishi zarur. Masalan, talabalarning motivatsiyasi pasaygan yoki pedagogik jarayon murakkablashgan hollarda, professor-o‘qituvchi o‘z shaxsiy chidamliligi va pedagogik kompetensiyasi orqali vaziyatni samarali boshqarishi lozim. Bu esa ta’lim sifatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligi pedagogik jarayonning barcha darajalarida, jumladan o‘quv jarayoni, ilmiy tadqiqot, metodik ishlar va talaba bilan muloqotda bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omil hisoblanadi. Shaxsiy va professional barqarorlikni oshirish masalasida psixopedagogik yondashuvlar muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi[5]. Psixopedagogika professor-o‘qituvchining shaxsiy resurslarini aniqlash, emotsional intellektni rivojlantirish, stressni boshqarish va pedagogik jarayonlarda barqarorlikni ta’minlash usullarini ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqadi. Shu bilan birga, psixopedagogik yondashuvlar pedagogik jamoaning barqarorligini ta’minlash, professor-o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Dolzarblikni yanada misollar bilan yoritadigan bo‘lsak, universitetlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, barqarorlik darajasi past bo‘lgan professor-o‘qituvchilar pedagogik faoliyatda tez charchaydi, o‘z metodik yondashuvini samarali qo‘llay olmaydi va talabalar bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi.

Shu bilan birga, barqarorligi yuqori bo‘lgan professorlar innovatsion metodlarni tez va samarali integratsiyalash, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishga qodir bo‘ladi. Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini ta’minlash masalasi zamonaviy ta’lim muassasalari uchun strategik ahamiyat kasb etadi[6]. Bu nafaqat professor-o‘qituvchilarning o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi, balki ta’lim sifatini oshirish, pedagogik jamoaning samaradorligini yaxshilash va talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, psixopedagogik yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ta’lim tizimining uzluksiz rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini oshirishga qaratilgan islohotlar global va milliy miqyosda jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagogik samaradorlikni ta’minlash, professor-o‘qituvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning emotsional va psixologik chidamliligini kuchaytirish hamda pedagogik faoliyatdagi stressni kamaytirishga qaratilgan. Shu jihatdan, islohotlar ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: birinchisi – pedagogning shaxsiy resurslarini rivojlantirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish; ikkinchisi professional barqarorlikni oshirish va kasbiy kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar. Global amaliyotdan kelib chiqadigan bo‘lsak, ko‘plab rivojlangan davlatlarda professor-o‘qituvchilarning barqarorligini oshirishga qaratilgan islohotlar bir necha strategik yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida pedagogik jamoaning barqarorligini ta’minlash uchun “Lifelong Learning” (Uzluksiz ta’lim) konsepsiyasi joriy etilgan bo‘lib, u doimiy professional rivojlanish, shaxsiy o‘sish va psixologik qo‘llab-quvvatlashni birlashtiradi. Shu bilan birga, Germaniya va Finlyandiya universitetlarida professor-o‘qituvchilarga maxsus stressni boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish va pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan treninglar o‘tkaziladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuvlar professorlarning pedagogik faoliyatdagi chidamliligini oshiradi, ularning ijodiy salohiyatini kengaytiradi va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. AQShda esa professor-o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks tizimlar ishlab chiqilgan[7]. Bu tizimlarda mentorlik dasturlari, professional rivojlanish kurslari, psixologik konsultatsiyalar va emotsional intellektni oshirishga qaratilgan seminarlar mavjud. Masalan, MIT va Harvard universitetlarida yangi professorlar uchun maxsus mentorlik tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu tizim pedagogik va ilmiy faoliyatning murakkab jarayonlarida ularni qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, shaxsiy va professional barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, mentorlik tizimida ishtirok etgan professorlar o‘z kasbiy kompetensiyasini tezroq rivojlantiradi va pedagogik faoliyatda yuqori samaradorlikka erishadi. O‘zbekiston kontekstida ham so‘nggi yillarda professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Birinchidan, universitetlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratish borasida

ishlar olib borilmoqda. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti va boshqa yirik oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar uchun stressni boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish va pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus treninglar tashkil etilgan[8]. Ushbu treninglar professorlarning shaxsiy resurslarini rivojlantirish, pedagogik chidamlilikni oshirish va professional barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, professional barqarorlikni oshirish maqsadida doimiy malaka oshirish tizimi joriy etilmoqda. O‘zbekistonning yetakchi universitetlarida professor-o‘qituvchilar uchun ilmiy-amaliy seminarlar, innovatsion metodologik kurslar va xorijiy tajribalarni o‘rganishga qaratilgan treninglar tashkil etilgan. Bu dasturlar professorlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni samarali qo‘llash va ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Misol uchun, Andijon va Namangan davlat universitetlarida “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari joriy etilgan bo‘lib, bu professor-o‘qituvchilarga o‘quv jarayonida zamonaviy metodlarni qo‘llash va pedagogik jarayonni optimallashtirish imkonini beradi[9]. Uchinchidan, professor-o‘qituvchilarning barqarorligini oshirishda pedagogik jamoa bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Universitetlarda professorlar va o‘qituvchilar jamoasida muntazam seminarlar, tajriba almashish va interaktiv muhokamalar tashkil etilishi barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu amaliyotlar professor-o‘qituvchilarni pedagogik jarayonning murakkab vaziyatlariga tayyorlaydi, ularning emotsional chidamliligini kuchaytiradi va professional barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, Samarqand davlat universitetida yil davomida pedagogik jamoa uchun “Pedagogik forum” o‘tkazilib, bu professor-o‘qituvchilarga yangi metodlarni o‘z faoliyatiga integratsiyalash, muammolarni birgalikda hal qilish va professional barqarorlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, islohotlar doirasida professor-o‘qituvchilarni psixologik va emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimi ham joriy etilmoqda[10]. Bu tizimga psixologik konsultatsiyalar, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar va motivatsion dasturlar kiradi. Masalan, Toshkent shahridagi yirik universitetlarda professor-o‘qituvchilar uchun “Emotsional intellektni rivojlantirish” bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilgan bo‘lib, ular professorlarning shaxsiy va professional barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud bo‘lgan universitetlarda professor-o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligi va talabalar bilan muloqot sifati yuqori bo‘ladi.

Xulosa: Ushbu tezis professor-o‘qituvchilarning shaxsiy va professional barqarorligini ta’minlashning psixopedagogik asoslarini kompleks tarzda o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy barqarorligi emotsional chidamlilik, stressni boshqarish qobiliyati, shaxsiy resurslardan samarali foydalanish va motivatsiyaning barqarorligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, professional barqarorlik pedagogik kompetensiyalar, doimiy professional rivojlanish, pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va jamoaviy hamkorlik qobiliyati bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Bong M., Scofild N. (2003). Learning styles and motivation in higher education. Journal of Educational Psychology.
2. Desi E., Райан, P. M. (2000). The «what» and «why» of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry.
3. Розенберг, М., Мартин, Л. (2017). *Career motivation and learning in young adults*. Journal of Career Development.
4. Бельцова И.А. Концепция «успешное старение» как нормативный конструкт в формировании позитивного образа старости в демократическом обществе // Вестник экономики, права и социологии. 2012. № 1. С. 283-287.
5. Грин О. Старость во благо. URL: https://rusplt.ru/health/starost-vo-blago-15762.html (дата обращения 30.12. 2019).
6. Мелехин А.И. Психологические модели успешного старения // Психол. журн. Международного университета природы, общества и человека «Дубна». 2014. № 2.С. 44–61.
7. Преснякова, Л.Б. Социальный, материальный и эмоциональный климат в старости /Л. Б. Преснякова // Социологические исследования. – 2006.-№3.-С. 34-46.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLA DUNYOQARASHINING YUKSALISHIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VOSITALARINING O‘RNI

Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 1- bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Badritdinova Madina Baxromovna
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologik vositalarning shaxsning komil inson bo‘lib shakllanishida aqliy tarbiya berish va uning ilmiy dunyoqarashini kengayishida muhim o‘rin tutishi, ijodiy fikrlash qobiliyatlariga katta ta’sir ko‘rsatishi, analitik fikrlashni rivojlantirishi, ta’lim jarayonida osonlik va tezlikni, global hamkorlikni hamda yangi idealar shakllanishida ahamiyati yoritilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar uchun mo‘ljallangan.

***Kalit so‘zlar*:** aqliy tarbiya, global hamkorlik, ijodiy fikrlash, analitik fikrlash, raqamli ijodkorlik, ma’lumot almashish, sun’iy intellekt, tanqidiy fikrlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga binoan ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning to‘rtinchi va beshinchi boblari alohida ta’lim tarbiya masalalari, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ma’naviy taraqqiyot va inson manfaatlarini rivojlantirishga qaratilganligi mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor

yo‘nalishlaridan biri ekanligi va ta’limga e’tibor nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi. Jumladan, ushbu taraqqiyot strategiyaning 71–72 maqsadlarda Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish, Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish belgilab qo‘yilgan.[1; 32-b.].

Bugungi kunda, yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratishi bilan birgalikda shaxsning intelektual rivojlanishida pedagogik psixologik jihatdan dunyoqarashi kengayishida muhim o‘rin tutmoqda.

Hozir jadal rivojlangan jamiyatda yashovchi inson hayotining har bir davrida texnologiya muhim rol o‘ynaydi. Bu haqida ko‘plab yevropa va sharq olimlari o‘zlarining tadqiqotlarida turlicha mexanizmlar, manbalar, omillar (faktorlar) bilan bog‘lab tushuntiradilar. Jumladan, MIT Media Laboratoriyasi professori Mitchel Resnik o‘zining “Umrbod bolalar bog‘chasi: loyihalar, ishtiyoq, tengdoshlar va o‘yinlar orqali ijodkorlikni rivojlantirish” kitobida zamonaviy texnologiyalarning, xususan, kodlash va raqamli ijodkorlik bolalarning o‘rganishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan. Qolaversa uning fikricha zamonaviy texnologiyalar bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi deb takidlaydi.[3; 173-b.].

OAV nazariyotchisi Duglas Rushkoff “Dastur yoki dasturlashtirilgan bo‘ling: raqamli asr uchun o‘nta buyruq” kitobida raqamli texnologiyalarning ijtimoiy ta’siri va nazorat va agentlikni saqlab qolish uchun texnologiyani tushunish va faol ishtirok etishning ahamiyatiga murojaat qiladi.[3; 92-112b.]. U bu asarida “Dastur yoki dasturlashtirilgan bo‘ling” ya’ni bu hayotda texnologiya mahsulotlarini va har bir yangilikni tezlik bilan anglay oling, undan yaxshi maqsadlarda foydalana oling deb takidlagan. U bugungi asrda yashovchi har bir insonga raqamli asrni o‘rganishga chorlagan.

Taniqli rivojlanish psixologi Xovard Gardner – “Kelajak uchun beshta fikr” asarida nafaqat zamonaviy texnologiyalarga e‘tibor qaratgan bo‘lsa-da tez o‘zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo‘lgan kognitiv qobiliyat va moyilliklarni muhokama qiladi.[5; 7-41 b.]. Bu esa yosh ongni shakllantirishda texnologiyaning rolini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Tufts universitetining Eliot-Pirson nomidagi bolalarni o'rganish va inson rivojlanishi kafedrasi professori Marina Bers – “O‘yin maydonchasi sifatida kodlash: erta bolalik davrida dasturlash va hisoblash tafakkuri” kitobida zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa kodlash va hisoblash fikrlash, ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirish uchun yosh bolalarni tanishtirish mumkin.[5; 64-b.]. Ushbu mualliflar zamonaviy texnologiyalar bolaning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga qanday ta’sir qilishi haqida qimmatli istiqbollarni taklif qiladilar. Ularning ishlari texnologiyani ta'lim va

bolalik rivojlanishiga integratsiya qilishning mumkin bo'lgan afzalliklari va muammolarini ta’kidlaydi.
Bolaning ilmiy dunyoqarashini yuksaltishda zamonaviy texnologiyalarning tasiri haqida Richard Florida kreativlik klassifikatsiyasi bo‘yicha tahlil qilgan va uning natijalari quyidagilar:
1. Osonlik va tezlik. Olim zamonaviy texnologiyalar orqali ma’lumot almashish va ilmiy tadqiqotlar jarayonlarini osonlashtirish va tezlashtirish imkoniyatini ta’kidlagan. Internet, ma’lumotlar bazalari, 3D printerlar va boshqa texnologiyalar insonlarga dunyo bo‘ylab turli manbalar bilan aloqani osonlashtiradi va bu esa ilmiy dunyoqarashni yuksaltishda muhim rol o‘ynaydi.
2. Global hamkorlik. U zamonaviy texnologiyalar orqali global hamkorlikni kuchaytirishning ahamiyatini belgilagan. Ma’lumot almashish platformalari, onlayn konferensiyalar, ma’lumotlar bazalari va boshqa texnologiyalar olimlar bilan bir-birlari bilan hamkorlik qilish va yangi yechimlar yaratish uchun imkoniyatlarni ochadi. Bu esa ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
3. Yangi idealar va yechimlar. Uning fikricha, zamonaviy texnologiyalar orqali yangi ideyalar va yechimlar paydo bo‘lishining ahamiyati katta.[6; 117-b.].
Innovatsiyalar va texnologiyalar sohasidagi lider Peter Diamandis zamonaviy texnologiyalar orqali insonlarning dunyo bilimiga ta’sir qilishining katta potentsialini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, robotika, ishborilar, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda zamonaviy texnologiyalar foydali yechimlar yaratish uchun muhimdir.[7; 38-b.]. Qolaversa, Zamonaviy texnologiyalar va sun‘iy intellekt sohasidagi ekspert Elizabeth Whitworth zamonaviy texnologiyalar orqali insonlarning ilmiy rivojlantirishda yangiliklarni tezroq amalga oshirishining ahamiyatini belgilagan. Uning fikriga ko‘ra, sun’iy intellekt, genetika, nanotexnologiya va boshqa sohalarda zamonaviy texnologiyalar ilmiy dunyoqarashni yuksaltishda katta rolni o‘ynaydi.[8; 13-b.].
Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, raqamli texnologiyalar orqali ma'lumotlarning ko‘payishi bolalarga keng ko‘lamli ilmiy bilimlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu ularning ilmiy izlanishlar va kashfiyotlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi va ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishi mumkin. Insonning dunyoqarashi keng ilmiy jihatdan yuqori bilimlarga ega bo‘lsagina u ta’lim, ilm-fan, texnika, sanoat va ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda yetuk kadr bo‘lib yetishadi. Buning uchun esa insonning aqliy kamolotida ilmiy dunyoqarashni yuqori darajada o‘stirilishi kerak. Kompyuter savodxonligi shaxsda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va dalillarga asoslangan fikrlashni ta’kidlaydi. Insonda tanqidiy fikrlay olish qobiliyatining rivojlantirilishi uning kelajakka va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan ishtiyoqini rag‘batlantiradi va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishida yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar har bir jabhada yangi vosita va platformalarni taklif qiladi. Zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish interaktiv va qiziqarli ta’lim tajribasini yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Texnologik resurslarni amaliy tajriba, murabbiylik va tanqidiy fikrlash bilan uyg‘unlashtirgan muvozanatli yondashuv bolalarda har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurni tarbiyalash uchun

juda muhimdir. Qolaversa, zamonaviy texnologiyalar ilmiy dunyoqarashni yuksaltishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, insonlarga yangi sohalarda ishlash imkoniyatini beradi, yangi yechimlar yaratishga yordam beradi va ilmiy rivojlantirishni tezlashtiradi. Bular bilan birga, zamonaviy texnologiyalar ilmiy dunyoqarashni ko‘paytirishda odamlarga yangi imkoniyatlar ochadi va ularga ilmiy ishlarini yaxshilash uchun qulayliklar yaratadi. Bu esa ilmiy dunyoqarashni yangilashda va rivojlantirishda muhim bir qadam bo‘ladi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi. Bu bilan birga shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni va vatanga muhabbatni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Lifelong Kindergarten Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play” By Mitchel Resnick Published: The MIT Press. August 28, 2018
2. D.Abdullayeva “Shaxs intellektual kamolotida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari” “Raqamli iqtisodiyot davrida uzluksiz ta’lim: innovatsiya va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya” ikkinchi jildi
3. “Program Or Be Programmed: Ten Commandments for a Digital Age Paperback” by Douglas Rushkoff, Publisher:OR Books – May 28, 2024

“MAKTABGACHAYOSHDAGIBOLALARIJTIMOIY-HISSIY KO‘NIKMALARINIRIVOJLANTIRISHDAINDIVIDUALPEDAGOGIKYORDAMKO‘RSATISHAMALIYOTI”

Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi

ChDPU “Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasi magistri

Anatatsiya:Aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan bu maqolada bolalarning ijtimoiy hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda individualni pedagogic yordam ko‘rsatish va bolaning ijtimoiylashuvidagi muammolarini hal qilish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar:oila, ijtimoiylashuv, pedagogik yordam, ota-ona, bola, reabilitasiyasini, Diagnostika, pedagogik muammo.individual.

Ijtimoiylashuvda turli muammolarga uchragan bolalar bilan individual ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularni faoliyatga tatbiq etish pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Pedagogik yordam bolaga muayyan vaziyatdayetishmayotgan manbani beradigan (aktuallashtirish, kompensatsiya qilish va h. k.) tashqi harakatni nazarda tutadi. O‘zaro munosabatlar tiklangandan so‘ng, bolaning o‘zi bilan, shuningdek atrof-muhit bilan munosabatlari konstruktiv bo‘ladi,

bunda tarbiyachining yordami o‘z ehtiyojini yo‘qotadi.[2]O‘zining ijtimoiy shakllanishi yo‘lida inson yoshga bogliq uchta vazifani hal qiladi: tabiiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik. Ilmiy nazariya va amaliyotda ikki asosiy texnologiya profilaktika hamda reabilitasiya keng tarqalgan

Profilaktika — bola xulq-atvorida ijtimoiy me’yorlardan ogishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. U asosan, bolani o‘rab turuvchi muhitga bog‘liq bo‘ladi.

Profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirayotganda, ijtimoiy pedagog quyidagi qoidalarga tayanadi:

1. Ijtimoiy-madaniy me’yorni o‘zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida amalga oshadi. Inson qadriyatlar, g‘oyalar va boshqa ramziy tizimlar majmuasini o‘zlashtirmay, jamiyatning to‘la qonli a'zosi sifatida faoliyat yurita olmaydi;
2. Bolalarning ijtimoiy-madaniy va pedagogik qarovsizligi nafaqat bola rivojining gayri me’yoriy alomati, balki uning zimmasiga anomal ijtimoiy holatlarni yuklatishning natijasi sifatida qaraladi;
3. Bolalar qarovsizligining profilaktikasi nafaqat mavhum ijtimoiy madaniy me’yordan, balki muayyan sharoitda yashashga majbur bo‘lgan boladan kelib chiqishi lozim;
4. Bola reabilitasiyasini amalga oshiruvchi faoliyat sub’ekti, ijtimoiy sub’ekt va shaxs darajasida amalga oshirilishi kerak. “Profilaktika” atamasi o‘zi noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma’nosini bildiradi} Ijtimoiy ogishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olib, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ajratsa bo‘ladi:

— neytrallashtiruvchi;
— o‘rnini to‘ldiruvchi;
— ijtimoiy ogishlarga sabab bo‘luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi;
— o‘tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Bola ijtimoiylashuvidagi muammoli vaziyatlar nafaqat yosh muammosini balki atrof-muhitning salbiy ta’sirini o‘z vaqtida hal qilmaslik natijasida ham paydo bo‘lishi mumkin. **Reabilitasiya** (lot.rehabilitatio-tiklash)- organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora –tadbirlar majmuidir.

Reabilitasiya chora-tadbirlarini amalga oshirishga keng turdagi vazifalar, oddiy ko‘nikmalardan tortib, insonning jamiyatga to‘liq integrasiyalashuvigacha bo‘lgan masalalarni tizimli hal qilish sifatida qarash mumkin.

Reabilitasiya ob‘ektlariga quyidagilar kiradi:

[2]Социальное воспитание дошкольниковБрест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

1.Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar;
2. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar;
3.Nerv-psixologik sogligi buzilgan bolalar.

Maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarga individual psixologik pedagogik yordam ko‘rsatish muammolarini hal qilish zarurligini belgilaydi:

-bolalarning ruhiy salomatligini, shu jumladan ularning hissiy farovonligini himoya qilish va mustahkamlash;

- har bir bolaning boshqa bolalar, kattalar va dunyo bilan munosabatlar sub’ekti sifatida qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish;

- bolalarning yoshi, individual, psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish;

-oilani psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash va ota-onalarning bolalar salomatligi masalalarida malakasini oshirish

[3]Bolaga shaxsiy pedagogik yordamni amalga oshirishning asosiy bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda qurilgan:

Diagnostika bosqichi, birinchi navbatda, bolaga individual pedagogik yordam talab qiladigan vaziyatni qayd etish bilan bogliq.

Ikkinchidan vaziyatning xususiyatlari, bolaning xususiyatlari, shu jumladan uning vaziyatga munosabati ya’ni nafaqat muammoning mohiyatini, balki bolaning muammoga nisbatan pozitsiyasini ham aniqlash muhimdir.

Bundan tashqari, ushbu vaziyatlarda kattalar aralashuv zarurligini oqilona baholashlari kerak. Har qanday vaziyat pedagogik yordamni talab qilmaydi. Aksincha pedagogning eng kichik qiyinchilikda bolani “himoya qilish” istagi ***bolada infantil pozitsiyani shakllanishga olib kelishi mumkin.***

Shaxsiy pedagogik yordam turlari.

M. V. Shakurova yordamning bir nechta turlarini ajratib ko'rsatadi va har qanday turda yordamning “foydalilik darajasi” mavjud:

- o‘rnini bosuvchi yordam (bola uchun u yoki bu ishni bajarish:
har qanday hodisa yoki muammolarning sabablarini tushuntirish, mavjud vaziyatdan chiqish variantini shakllantirish, biroq bu yordam eng kam samaradorlikka ega);

- “men kabi qiling” tamoyili bo‘yicha yordam berish yoki namunani takrorlash (o‘qituvchi bolaga xulq-atvor, fikrlash, harakat namunalarini va bola uchun ko'rsatmalarni namoyish etadi; bu erda bolaning ijodiy qobiliyatlarini, individualligini rivojlantirish muammosi paydo bo‘ladi);

- hamkorlik shaklida yordam berish (bolaga tegishli bo‘lgan muammoli vaziyatni birgalikda muhokama qilishdan iborat);

[3]Социальное воспитание дошкольниковБрест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

– boshlash (M. Montessori usuli, “men uchun hech narsa qilmasdan o‘zim qilishimga yordam bering, yo‘naltiring, qaror qabul qilishga undang, qolganlarini esa men o‘zim qilaman”);

- oldini olish (pedagog tomonidan bola rivojlanishining salbiy yo‘nalishlarini bashorat qilish,noto‘gri qadamlarning oldini olish, yetarli yechimlarni tanlashda yordam berish).

Xulosa: bolalarning ijtimoilashuvidagi muammolarni hal etishda avvolo ota -onalar bilan so‘ngra tengdoshlar bilan ishlashni va iloji boricha bolangizning psixologiyasidagi o‘zgarishlarga e’tiborli bo‘lishlarini so‘rab qolardim. Shundagina bolaning ijtimoiylashuvida dolzarb muammolarga aylanadigan turli xil muammolarni oldini olgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN IJTIMOIY TA’LIM” Teshabayeva Zamira Sobirovna QO‘QON – 2023
2. “IJTIMOIY PSIXOLOGIYA “Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna S.N.Jo‘rayeva., A.U.Joldasheva. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Chirchiq, 2022. – 269

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘RGATISHDA STORYTELLING (HIKOYA) METODINING AFZALLIKLARI

Abdullayeva Madinabonu Akmaljon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili leksikasini o‘rgatish jarayonida hikoya metodidan foydalanishning afzalliklari xususida so‘z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: o‘quvchi, ingliz tili, ta’lim, tarbiya, Socrative dasturi, storytelling.

Dunyoda o‘quvchilarning til o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijtimoiy kommunikativligi va ijtimoiy lingvistik tayèrgarligini oshirish, ularning leksik kompetentsiyani rivojlanganlik darajasini aniqlash, o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarning leksik kompetentsiyasini rivojlantirishda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, loyihalashtirish, ingliz tilida kreativ fikrlashni o‘rgatish, so‘z boyligini to‘g‘ri, aniq va ravon so‘zlar bilan boyitib borish, til bilish texnikasini chuqur egallash kabi indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili leksikasini o‘rgatishning bir qator samarali usullari mavjud bo‘lib, ulardan biri Storytelling (hikoya) metodidir.

Storytelling (hikoya) metodining afzalliklari xususida ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Jumladan, ilgari, tasavvur va tajribaga to‘la hikoyalar odamlarni hayvonlardan ajratib turardi (Harari, 2014). Bu odamlar uchun o‘z ma’lumotlarini avloddan-avlodga yetkazishning an’anaviy va tabiiy usuli. Rubin (1990) hikoyani "adabiyot va folklorning og‘zaki talqini" deb ta’riflaydi, ya’ni hikoyaning tarkibiy

qismlari hikoya, hikoyachi, makon va tomoshabindir. (Cubukcu, 2014-yilda keltirilgan). Zamonaviy kontekstda Safdarian (2013) hikoya qilish - bu o‘qituvchilarning o‘quvchilarni har tomonlama ko‘nikmalarini oshirish uchun hikoyalar aytib berish orqali matnlarni taqdim etish jarayoni ekanligini tushuntiradi. Hikoyaning qaysi turi bo‘lishidan qat’i nazar, u faol, qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhitini, o‘quvchilar uchun mos grammatik murakkablik va lug‘at elementlarini jalb qiluvchi mavzularni ta’kidlashi kerak.

Stiven Krashenning "o‘zlashtirish" va “o‘rganish” nazariyasi tilni “o‘zlashtirish” ongli ravishda "o‘rganish" dan ko‘ra uzoq davom etadigan ongsiz ongda sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. O‘zlashtirish jarayonini faollashtirish uchun o‘quvchilar tushunarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Hikoyalar o‘quvchilar uchun mos keladigan ma’lumotlar bilan tasodifiy o‘rganish imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari, Krashen "affektiv filtr" haqida faraz qiladiki, tilni o‘zlashtirish jarayoniga o‘quvchilarning tashvish yoki salbiy munosabati to‘sqinlik qiladi. Affektiv filtr bartaraf etilgandan so‘ng, o‘quvchilar tilni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishadi (Lightbown & Spada, 2006). Hikoya o‘quvchilarning tashvishlarini kamaytirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va yoqimli muhit yaratishning samarali usuli hisoblanadi, chunki ko‘pchilik bolalar hikoyalarni yoqtirishadi. (Rokhayani, 2012). O‘qituvchilar hikoya aytib berayotganda, o‘quvchilar doimo tinglashga, voqea qanday kechayotganini bilishga, hikoyalardagi vaziyatni tushunishga, o‘zlari eshitishdan va hikoyalar kitobiga qarashdan zavqlanishadi.

Bundan tashqari, Cubukcu (2014) da ta’kidlanganidek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga hikoyalar aytib berishning bir qancha afzalliklari bor:

- Qiziqarli hikoya bolalar tasavvurini faollashtiradi. (Hoskission va Tompkins, 1987)
- Hikoyalardagi ma’lumotlar o‘quvchilarning dunyoni tushunishi va savodxonligi uchun muhim ahamiyatga yega. (Rubin, 1990)
- Hikoya o‘quvchilarni o‘qishga undaydi va turli madaniyatlar haqidagi bilimlarni kengaytiradi. (Pek, 1989)
- Hikoya bolalarning til qobiliyatini va adabiyotga bo‘lgan muhabbatini oshiradi, ularni savodxonlik tajribasiga jalb qilishga undaydi. (Tiedt, 1979; Norton, 1993)
- Hikoyalar o‘quvchilarning o‘zlari takrorlash orqali nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. (Strickland and Morrow, 1989).

Hikoyalar o‘quvchilarga yangi so‘z birikmalarini o‘rgatish uchun foydali usul sifatida ham ishlatilishi mumkin. Stachurska (2013) ga ko‘ra, hikoyalarni tinglash orqali o‘quvchilarning yangi so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoni rag‘batlantiriladi, chunki u yangi so‘zlarni turli yo‘llar bilan mashq qilish imkoniyatlarini taqdim yetadi. Hikoyalarni boshqa jismoniy faoliyat bilan birlashtirganda, o‘quvchilar ilhomlanib, so‘z boyligini o‘rganishda foydali ta’sirga yega bo‘lishi mumkin, deb ishoniladi (Mart, 2012). Elley (1991) bolalarni ertaklarda ko‘rsatish ularni tovushlarga taqlid qilish orqali yangi tilni tezroq o‘rganishini aniqladi. Bundan tashqari, Eck (2006) hikoyalar o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin deb hisoblaydi. CHunki mehr-muhabbat ularning bilim va faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘quv jarayoni uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Safdarian (2012) ta’kidlaganidek, ko‘plab tadqiqotchilar hikoya qilish xotiriani mustahkamlashga yordam berishini isbotlaydilar. Bundan tashqari, hikoya tuzilishga ega bo‘lganligi sababli, u o‘quvchilarga so‘zning ma’nosini osonroq topishga yordam beradi. (Graesser and Ottati, 1995).

Bundan tashqari, Wright (1992) tomonidan hikoyadan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga yangi so‘zlarni o‘rgatish uchun foydalanish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlash uchun ba’zi argumenlar keltiriladi:

- Hikoyalar o‘quvchilarga so‘zlarning kontekstini beradi. Lug‘atni o‘rganishda kontekst o‘quvchilarning tushunishini qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hikoyalar orqali yangi so‘z boyligini o‘rganish o‘quvchilarga mazmunli kontekstni taqdim qiladi. Hikoyalar syujetlari tufayli o‘qituvchilar so‘z boyligini osongina kontekstga solishlari mumkin, buning natijasida o‘quvchilar so‘zlarni yaxshiroq tushunadilar va eslab qolishadi. (Gomez, 2010).

- Hikoyalar o‘quvchilarga tabiiy takrorlashni taklif qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hikoyalarni tinglashganda, ular uning ma’nosini taxmin qilish uchun kalit so‘zlarga e’tibor berishadi. SHuningdek, ular hikoyalarni ko‘p marta tinglashni yaxshi ko‘radilar, shuning uchun yangi so‘zlarning chastotasi yuqori bo‘ladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologi kva shaxsiy xususiyatlarga ko‘ra, til qanchalik ko‘p takrorlansa, o‘rganuvchilar uni o‘zlashtirishga shunchalik oson erishadilar. Ellies and Brewster (1991) hikoya qilish o‘quvchilarning takrorlash orqali tilni egallash qobiliyatini kuchaytiradi, deb ta’kidlaydilar.

Meysonning 60 nafar o‘quvchi ishtirokida olib borgan birlamchi tadqiqoti (2004) shuni ko‘rsatadiki, hikoya qilish usulida unutilgan so‘zlarning foizi ro‘yxat bo‘yicha o‘rganish usulida o‘rgangan va unutilgan so‘zlarga qaraganda 2,5 baravar kam. Mello (2001) shuningdek, sakkizta tadqiqotning meta-tahlilini olib boradi va o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari ko‘p jihatdan, jumladan, so‘z boyligini egallashda yaxshilanadi degan xulosaga keladi.

O‘qitishdagi so‘z boyligiga ta’sir etuvchi omillar bilan solishtirganda, hikoya qilish Bhakati and Marwantoning o‘qitishdagi “tez-tez ta’sir qilish va takrorlash” va “o‘quvchilarga mazmunli taqdim etish” mezonlariga mos kelishini ko‘rish mumkin. Hikoya aytish Cubukcuning "so‘zlarga boy muhit", takrorlash va mashq qilish bilan bog‘liq lug‘at o‘rgatishning yaxshi xususiyatlaridan ikkitasini qondiradi. Agar hikoya qilish boshqalar bilan o‘zaro uzviylikda hikoyani to‘g‘ri tanlash bilan hamkorlik qilsa, u yangi so‘zlarni o‘rgatishning ideal usuliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harari Y.N.- https://www.ynharari.com/book/sapiens-2/:A brief history of humankind, 2014
2. Hoskisson, K., &Tompkins, G. (1987). Language arts: Content and teaching strategies. Columbus OH: Merrill.
3. Rubin, D. (1990). Teaching elementary language arts (4th ed.). Englewood Cliffs NJ: Prentice Hall.
4. Peck, J. (1989). Using storytelling to promote language and literacy development. The Reading Teacher, 43, 138-141.

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH

Akramjonova Feruza
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi stajyor -o'qituvchisi,
Abduqodirova Nozila Marifjon qizi
Namangan davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi MTM-BU-23-guruh 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish uchun amalga oshirish mumkin bo'lgan metodlar,jarayonlar,o'ziga xos holatlar tahlil etilgan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar; Maktabgacha ta'lim, samaradorlik, sifat, metod, vazifa, usul, bola, shaxs, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, bolalar psixologiyasi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni xalqning ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash,bolalarni maktabga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish,ularni muntazam ravishda maktab jarayoniga tayyorlash asosiy maqsad hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda.Respublikada joriy etilgan ta'lim tizimi,uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta'lim olishdagi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirib kelinmoqda.

Davlatimiz tomonidan ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo'llab-quvvatlanmoqda.Ayniqsa,bu o'rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish,ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va shu orqali bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga,ularni intellektual ma'naviy-axloqiy,etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga,shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'limda bolani har tomonlana rivojlantirish,uning umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo'ladi.

Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Davlat tomonidan ta'limga berilgan e'tibor va bu sohadagi yuksalishlar ota-onalar tomonidan e'tirof etilib,farzand ta'lim tarbiyasiga nisbatan ularni bu boradagi ma'suliyatini kuchaytirmoqda.

Ota-onalarimiz tomonidan bolaning ushbu yosh davrida farzandlari tezroq mustaqil o'qishni va yozishni bilishni istashlari haqida xohish-istaklarini bildiradilar.Shu o'rinda ta'kidlash lozimki,maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash-dolzarb masala.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,bola yosh rivojlanish bosqichlarida uning jismoniy,ma'naviy,imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib,uni intensiv mashg'ulotlar bilan maktab ta'limiga tayyorlovga o'rgatish mumkin emas.

Bolalarni maktabga tayyorlash uchun maktab ta'limining shakl va metodlarini qo'llamaslik kerak.Bolalarning yoshga bog'liq psixofiziologiyasi,ushbu yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'limga oid ish shakllari didaktik o'yinlardan,ko'rgazmali-predmetli mashg'ulotlardan,bolalarning amaliya va tasviriy faoliyatining turli shakllaridan keng foydalangan holda tarbiyaviy ishlar usullari qo'llagan holda amalga oshirilishi zarur.
Bolani maktabga tayyorlov davrida og'zaki nutq asosiy o'rinni egallaydi.
Nutq rang-barang ifodali tovushlar yig'indisidir.U bolani ertaga maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun zamin yaratadi.
"So'z boyligi-deb ta'kidlagan edi Q.Shodiyeva-bolaga barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim,tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi".
Bola nutqining rivojlanishi bevosita uning lug'atiga bog'liq.Albatta shuni ta'kidlash lozimki,bolaning lug'at boyligi bola dunyoni anglashi orqali ifodalanadi. Bola ma'lumotlarni atrof-muhitni kuzatish,ota-onalar,kattalar,tarbiyachilar,o'rtoqlari, kitoblar, filmlar, mashg'ulot va o'yinlar orqali oladi.Bularning barchasida bolaga ma'lumotlar og'zaki nutq orqali beriladi. Buning natijasida bolaning lug'at boyligi oshib borishi, u so'zlar, ularning ma'nosi, ularni qo'llab,gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishni,to'g'ri tovush tallaffuzini amalga oshirishi zarur.Bolaga bu ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi.Bu jarayon boladan aqliy faollikni talab etadi.
Bunda tarbiyachilar tomonidan bolani nutqini rivojlantirish va uni savodxonligini amalga oshirish bo'yicha tizimli ta'li- tarbiyaviy ishlar amalga oshirilishi zarur.
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta'limiga tayyorlash hamda unda savodxonligini rivojlantirish quyidagi talablarga bo'ysunadi.
-bolani rivojlantirishga qaratilgan qulay, do'stona, xavfsiz muhitni yaratish. Bolalar jamoasida do'stona munosabatni qadrlash.Bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuv asosida ta'lim-tarbiya berish,uzoq davom etadigan mashg'ulotlar bilan emas,balki bolada qiziqishni uyg'otadigan uni hayratlantiradigan o'yinlardan iborat ta'limiy jarayonlarni tashkil etish.O'yindan asosiy ta'limiy faoliyat sifatida foydalanish. Didaktik vositalarni keng qo'llash.
-bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, taffakurini inobatga olish. Bolada o'qishga nisbatan xohish, istak, qiziqish uyg'otish. Kattalar tomonidan bolaga bosim o'tkazish uning erishgan natijalaridan qoniqmaganlikni bildirish man etiladi.
-olib boriladigan ta'lim va tarbiyaviy jarayonlar ketma-ketlikda,oddiydan murakkablashib borishi zarur.
-tizimli ravishda bolada kichik yosh davridan boshlab so'zlarni to'g'ri talaffuzini rivojlantirish.Tarbiyachi o'z nutqiga nisbatan talabchan bo'lishi.
-bolalarda o'z nutqida to'g'ri talaffuz qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan va yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalana olishga bo'lgan ishonchni hosil qilish.

Bolalarni 6-7yoshda maktab ta'limiga tayyorlash,ularda ertaga maktab dasturlarini yaxshi o'zlashtirishlari, shuningdek ularning intilishlari, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda,maktabgacha yoshdagi bolalik inson tafakkuri va umuman inson shaxsini shakllantirish jarayonida alohida rol o'ynaydi,jamiyatimizning ongli avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi.Biish faoliyati,qiziqishlari,bola tafakkuri usullari, atrof, dunyo haqidagi anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar, tasavvurlar va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda,ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlarni va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim.

Shundagina,ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Высоцкий Л.С.Вопросы детской психологии.-М.:СПБ.1999.
2.Yusupova R."Maktabgacha tarbiya pedagogikasi "T."O'qituvchi 1993"y.
3. Hasanboyeva O.U va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.-Toshkent:Ilm ziyo, 2016.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH MUAMMOSI

Asranbayeva Munojatxon Halimjanovna
NamDPI dotsenti, PhD
Aminova Muxtasar Jamoliddin qizi
NamDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalari
Xusanova Sadoqat Akmaljon qizi
NamDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta’limni ndividuallashtirish muammosi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: individuallashtirish, ta’lim, optimal, idrok, xotira, hayol, tafakkur idrok, tafakkur

Ta’limni individuallashtirish har bir o‘quvchi individual, boshqalarga bog‘liq bo‘lmagan holda ta’lim oladi degan ma’noni bildirmaydi. Xususan tizimlashtirilgan ta’lim o‘z tabiatiga ko‘ra, individuallashtirilgan yuqorida aytib o‘tganimizdek, har bir o‘quvchi o‘rgatuvchi mashina yoki tizimlashtirilgan darslik bilan ishlaydi, har kim individual ravishda ta’lim oladi, bunda har xil tezlik bilan va ma’lum ma’noda turli yo‘l bilan harakat qiladi – o‘quvchi oldingi materialni o‘zlashtirganligini isbotlab berguncha mashina yoki darsliklar unin olg‘a qarab harakat qilishiga imkon bermaydi.

Bunday ish tizimida harakat qilish sur'ati har bir o‘quvchi uchun faqat individual bo‘lib qolmasdan, shu bilan birga optimal hamdir[4].

Ta'limni individuallashtirishning ma'nosi shuki, u o‘quvchining individual psixologik xususiyatlariga tayanadi, shu xususiyatlarni hisobga olgan holda quriladi. Shu nuqtai nazardan guruhdagi oddiy ta'lim qanday ro‘y berishini ko‘rib chiqamiz. Guruh rivojlanishi va tayyorgarlik darajasi bir xil bo‘lmagan o‘zlashtirish turlicha va o‘qishga munosabati har xil, qiziqishlari xilma xil bo‘lgan o‘quvchilardan tashkil topadi.

O‘qituvchi an'anaviy ta'limni o‘rtacha rivojlanishga, o‘rtacha tayyorgarlikka, o‘rtacha o‘zlashtirishga tadbiq qilgan holda olib borishga majbur bo‘ladi, boshqacha qilib aytganda, u ta'limni qandaydir afsonaviy «o‘rta» o‘quvchini ko‘zda tutgan holda tashkil etadi. Bu narsa muqarrar ravishda shunga olib keladiki, «kuchli» o‘quvchilar o‘z rivojlanishida sun'iy ravishda ushlab turiladi, o‘qishga qiziqishlari qolmaydi, o‘qish ulardan ko‘p aqliy kuch sarflashni talab qilmaydi, kuchsiz o‘quvchilar esa surunkasiga orqada qolishga mubtalo bo‘lganlar, ular ham o‘qishga qiziqmay qo‘yadilar, bu o‘qish ulardan ko‘proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. «O‘rtacha» darajaga kiruvchilar ham juda har xil bo‘ladilar, qiziqish va mayllari turlicha, idrok, xotira, hayol va tafakkur xususiyatlari xilma-xil bo‘ladi. Bir o‘quvchi ko‘rgazmali obrazlar va tasavvurlarga asosli ravishda tayanmog‘i zarur, ikkinchisi bunga kamroq ehtiyoj szadi: biri sekin fikrlaydi, ikkinchisi aqliy mo‘ljali nisbatan tezligi bilan ajralib turadi; biri tez esda saqlab qolsada, ko‘p narsani yodida saqlaydi; biri uyushgan holda ishlashga o‘rgangan, boshqasi kayfiyatiga qarab, asabiylashib notekis ishlaydi; biri astoydil, ikkinchisi majburan shug‘ullanadi.

Ta'imni individuallashtirish tamoyili o‘qitishda o‘quvchilarning real tiplariga tayanish zarurligiga asoslanadi. Bu tamoyilni biz ko‘rib o‘tganimizdek, dasturlashgan ta'lim juda yaxshi amalga oshiradi. Lekin, odatdagi ta'lim sharoitida ham bu tamoyilni tadbiq etilishi mumkin. O‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari ta'limni ayrim metodlari va usullarini tanlash hamda qo‘llash vaqtida uyga berilgan topshiriqlarni qismlarga bo‘lishda, guruh va nazorat ishlarining variantlarini aniqlashda hisobga olinadi.

Guruh bilan olib boriladigan umumiy ishni ayrim o‘quvchi bilan olib boriladigan individual ish bilan birga qo‘yish mumkin.

Hozirgi vaqtda psixologlar va pedagoglar guruh bilan olib boriladigan frontal ishni hamda o‘quv mashg‘ulotlarining individual shakllarini birga qo‘shishning optimal- eng qulay imkoniyatlarini topishga intilmoqdalar.

---

[4] G‘oziev E., Oliy maktab psixologiyasi, T.1997 yil, 18-27 betlar.

Shu bilan birga dasturning xuddi shu masalalariga o‘quvchilar qanday tayyorgarlik ko‘rganliklari, individual moyilliklari, qiziqish va qobiliyatlari hamda individual ish sur’atlariga qarab turlicha to‘lalik va teranlik bilan har kim darsda optimal darajada band bo‘ladigan qilib o‘rganadilar.

Boshqacha qilib aytganda, ta’lim metodlari turlicha bo‘lishi, o‘quvchining individual xususiyatlariga qarab o‘zgartirilishi kerak.

Lekin, bu 40 o‘quvchi bor bo‘lgan guruhda 40 xil individual yondashishni, ta’lim metodikasining 40 xil individual variantlarini amalga oshirish zarur degan ma’noni anglatmaydi. Odatdagi o‘quv faoliyati jarayonida bunday haddan tashqari individuallashtirish mumkin ham emas, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatining asosiy tiplarini hisobga olish kifoya qiladi.

Tadqiqotchilar o‘quvchilarning o‘qiy olishlik darajasi har xil bo‘lgan tiplarni ajratib ko‘rsatdilar.

Masalan: N.I.Menchiskaya va Moro arifmetikani o‘zlashtirish materiali sifatida ana shunday ikki tipni tasviflab beradilar.

Birinchi tipga ega bo‘lgan o‘quvchilar tez o‘zlashtirish sur’atiga egadirlar deb xarakterlanadi, bu sur’at tez umumlashtirish, analiz va sintezning yuqori darajasi, fikrlash jarayonining tezligi bilan bog‘liqdir.

Ikkinchi tip sekin o‘zlashtirish sur’ati bilan ajralib turadi. Bu hol umumlashtirishning sustligi analitik-sintetik faoliyatning past darajasi, tafakkurning inertligi bilan belgilanadi.(2.5.173)

Biroq, tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘qiy olishdagi individual farqlar shu qadar kattaki, hamma kategoriyadagi o‘quvchilar uchun bir xilda optimal bo‘lgan umumiy ta’lim sharoitlarini yaratib bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish va ular faoliyatini yanada samarali bo‘lishiga erishish uchun ta’limning eng ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil 29 avgust

2. Shcherbakov A.I., Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T. 1991 yil.

3. Gyunter Klaus, Vvedenie v differetsialnuyu psizologiyu ucheniya», M. «Pedagogika», 1987 yil.

4. Merlin V.S.Ocherk integralnogo issledovaniya individualnosti, M. 1986

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN TABIAT HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

Azizova Ziroat Bahodirovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda tabiat haqida tushuncha berish, bolalarni tabiat yordamida tarbiyalash haqida g‘arb pedagoglari, tabiat bilan tanishtirish dasturining tuzilishini shakllantirish masalasining ilmiy nazariy ahamiyati, uni o‘rganilganlik darajasi va xozirgi vaqtdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat, jonli tabiat, uy, makon, atrof-muhit, tabiatshunoslik, kuch, qobiliyat, tabiat bilan tarbiya uyg‘unligi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg‘ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda hamda mehnatda amalga oshiriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o‘tadigan mashg‘ulotlarda bolalarda dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobi- liyatlari ma’lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o‘yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig‘ilib boradi. Mashg‘ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

Bolalarni mashg‘ulotlarda o‘qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg‘ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko‘ra tanlanadi.

Mashg‘ulotlarning bir xillarida boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko‘rish, badiiy asarlarni o‘qish, hikoya, diafilm va kino- filmlarni ko‘rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg‘ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Aytib o‘tilgan metodlardan tashqari bu mashg‘ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdagi mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi — bilim- larni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik o‘yinlar, umumlashtiruvchi ku- zatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan bilimlarini mehnat va o‘yinlarda amalda qo‘llaydilar.

Mashg‘ulotlar kichik va o‘rta yosh guruhlarda bir oyda 2 martadan, katta guruhlarda esa haftada 1martadan o‘tkaziladi. Ekskursiyalar o‘rta guruhdan boshlab tashkil etiladi.

Barcha guruhlarda qo‘shimcha sifatida maqsadli sayrlar o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotga tayyorlanish. Mashg‘ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog‘liqdir. Tarbiyachi mashg‘ulot mavzusini va ahamiyatini belgilab, mavzu bo‘yicha tabiatshunoslik bilimlarini to‘ldirishi, so‘ng mashg‘ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim. Bunda tarbiyachi «Uchinchi mingyillikning bolasi» dastur vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak- atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg‘ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o‘rni (mashg‘ulotda boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish jarayoni sodir bo‘lyaptimi, yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo‘llash mashq qilinyap- timi va shu kabilar)ni aniqlash lozim. Bu o‘rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo‘llaydi. Tarbiyachi qanaqa metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, bir-birini to‘ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad — o‘rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan

qabul qilib olinishini yaxshi- lashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarning to‘g‘ri shakl- lanishiga xizmat qilishi kerak. Mashg‘ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiy, ehtiyotkorona, g‘amxo‘rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo‘llanadi.

Mashg‘ulotga tayyorlanish hamda uni o‘tkazishda uning tuzilishini to‘g‘ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta’limiy vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog‘liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishning yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko‘rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o‘simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma’qul. Kichik yoshdagi bolalar mashg‘ulotlarida kuzatish, o‘yin metodlaridan foydalaniladi. Og‘zaki metoddan, asosan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda foydalaniladi.

Tanlangan metod dastur vazifasining to‘liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta’minlashi lozim.

Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan o‘qitish metodlarining xilma-xilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi: hayvonlar, xonaki o‘simliklar, rasmlarni ko‘rish uchun bolalar yarim doira qilib o‘tqaziladi. Bu bolalaming mash- g‘ulotda faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Agar mash- g‘ulotda tarqatma materiallardan foydalanilsa, ya’ni har bir bolaning qo‘lida kuzatish obyekti bo‘lsa, bolalarning o‘z stollari atrofida o‘tirganlari ma’qul. Ba’zan guruh xonasida mehnat malakalarini tarbiyalashga bag‘ishlangan mashg‘u- lotlar o‘tkaziladi. Bunday holatda bolalarni to‘rtburchak shaklida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shunda bolalar tarbiyachi ko‘rsatadigan ish usullarini yaxshiroq ko‘rishga ega bo‘ladilar.

Tarbiyachi mashg‘ulot o‘tkazishdan oldin bir qancha ko‘rgazmali qurollar, yani jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariylar, yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalen- darlar, toshlar, foydali hasharotlar, o‘simliklar va ularning qismlari, mayda hayvon va boshqalar)ni tayyorlab qo‘yadi. Chunki ko‘rgazmali qurol bolalarga o‘rganilayotgan narsani bir necha sezgi a’zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya’ni ular narsani ko‘ribgina qolmasdan, uning xu- susiyatini (masalan, tirnab ko‘rish, bolg‘acha bilan urib ko‘rish orqali narsaning mo‘rtligini, egish bilan qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar.

Mashg‘ulot so‘ngida tarbiyachi bolalarning malaka va ko‘nikmalarini, ularning mashg‘ulotga munosabatlarini, qi- ziqishlarini pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning dif- ferensiyalashuvi bolalarning yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Bolalarni tabiat yordamida tarbiyalash haqida g‘arb pedagoglari

Tarixda pedagogika nazariyasi asoslarini shakllantirishda qadimiy Gretsiyaning atoqli filosoflari Platon va Aristotel, italiyalik pedagog Mark Fabi Kvintilianlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Lekin yoshlarni tabiat elementlari vositasida tarbiyalash eng avvalo g‘arbdagi ilg‘or pedagoglarning tarixidan boshlandi. Ilmiy pedagogikaning rivojlanishini boshlab bergan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga katta e’tibor bilan qaragan g‘arb pedagoglaridan biri Yan Amos Komenskiy bo‘ldi.

Chexiyalik mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o‘rin olgan. U o‘zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o‘qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag‘ishlagan.

Uning fikricha, inson tabiatning eng go‘zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O‘zining “Buyuk didaktika”, “Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi”, “Fizika”, “Falakiyot”, “Onalar maktabi”, “Tinchlik farishtasi” kabi asarlarida o‘zining muhim pedagogik g‘oyalarini ifodalagan.

Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o‘xshatgan.

“Onalar maktabi” xushbo‘y o‘simliklar, g‘uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi.

“Ona tili” maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o‘xshaydi.

“Gimnaziya”da dalalar, bog‘ va terakzorlardagi mo‘l hosilni yig‘ib, uni “aql xazinasi”ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Va nihoyat, “Akademiya” yig‘ilgan hosilni umr bo‘yi sarflashni mo‘ljallab taqsimlayotgan qishiga o‘xshatiladi.

Ya.A. Komenskiy “Onalar maktabi”da 18 ta fandan ma’lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

- suv, yer, havo, olov, yomg‘ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o‘t, qush, baliq kabilarni;
- yorug‘lik va qorong‘ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;
- o‘zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog‘, vodiy, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизова, Зироат. "ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ФОРМ И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ." Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2.17 (2022): 77-80.
2. Baxodirovna, Azizova Ziroat. "INTERNATIONAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 458-461.
3. Азизова, Зироат Баходировна. "СИСТЕМА ГАРАНТИЙ ПРАВ РЕБЕНКА В УЗБЕКИСТАНЕ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.11 (2021): 575-578.
4. Bahodirovna Azizova Ziroatkhon. "Pedagogical Bases Of Preparation Of Future Educators For Implementation Of Social Protection Of Children." JournalNX 7.04: 399-402. 28. Ziroat, Azizova. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.5 (2022): 404-410

D.Xomidova
NamDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning ahamiyati, shakllari, kattalarning namuna ko‘rsatishlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bugungi davrdagi ekologik muammolarni oldini olish, jonli va jonsiz tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar ongiga muntazam singdirib borish zarurligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, tashqi muhit, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta’lim-tarbiya, tajriba, ekskursiya, didaktik o‘yin.

Bugungi kunda ekologiya tushunchasi har bir kishining ongiga singib bormoqda. Deyarli har kuni televideniya ko‘rsatuvlarida, radio va gazeta sahifalarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish to‘g‘risida olib borilayotgan sa’y-harakatlar haqida habarlar va ma’lumotlar beriladi.

Ekologiya tushunchasi - uy, makon degan ma’noni bildiradi. Tabiiy uyimizni o‘rganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni o‘rganish, ya’ni ushbu uyni yoki maskanni hayot uchun yaroqli holda saqlash kabi masalalar tushuniladi. U tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularni o‘zi yashab turgan muhit bilan o‘zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o‘rganadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo‘lib 1866-yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan.

Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. 1921-yilda amerikalik olimlar Bortes va Park tomonidan «Inson ekologiyasi» degan yangi fan kiritildi. Dastlab, inson ekologiyasiga tabiiy soha bo‘limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me’moriy-iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o‘rganildi. Inson ekologiyasi insonning atrof-muhitga va aksincha, atrof-muhitning insonga ta’sirini o‘rganadi. Inson ekologiyasini o‘rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keladi. Unga birinchi bo‘lib Raderik Mak Kenzil ta’rif bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali estetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o‘ta dolzarb muammolardan hisoblangan.

Tabiat bilan tanishish insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo‘lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go‘zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega. Shu nuqtai nazardan O‘rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an’anaga ega. Tabiatni asrab-avaylash, ardoqlash insonning burchi ekanligi haqidagi ta’limotlar Turoni Turkistondan yetishib chiqqan buyukolimlarning ta’limotlarida o‘z ifodasini topgan. Allomalar o‘z davrida tabiatdan foydalanish, ular bilan bog‘liq bo‘lgan voqea, hodisalar haqida boy ma’lumotlarni yozib qoldirganlar.

Tabiatga mehr, yuksak axloq – odobini tarbiyalash lozimligini o‘z asarida bayon etganlar. Yosh avlodga ekologik ta’lim-tarbiya berishda kattalar namuna

ko‘rsatishimiz, ularning ko‘z oldida salbiy holatlarni sodir etmasligimiz zarur, ba'zida oddiy xatti-harakatlar me'yorlarini e'tiborsiz qoldirib, biz plastik butilka, stakanlarni tashlab yuborishimiz mumkin. ko'pchilik shunday qiladi va bularning barchasi bolalar oldida sodir bo'ladi. Lekin biz maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash, ularning ekologik ongini uyg‘otishimiz kerak. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar xulq-atvorida ekologik madaniyat, ekologik bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, estetik tajribalar asosida shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bola tirik mavjudotlarga hamdard bo‘lishni o‘rganishi kerak, masalan, “jonli mavjudot xafa bo'ladi”, “uni sevish kerak”, “hayvonlarga ozor berish mumkin emas”, “tabiat yaratgan narsalarni yo‘q qilishga haqqimiz yo‘q” kabi. Biz bolalar ongiga o'zimizni o‘rab turgan olam, barchamiz yashaydigan ulkan uy kabi tuyg‘uni uyg‘otishimiz kerak.

Ekologik ta’imning asosiy shakllari:

• To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim-tarbiyaviy jarayon – ta’limiy faoliyat bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini tashkil etishning yetakchi shaklidir.

• Ekskursiyalar

• Ekologik bayramlar va hordiq

• Kundalik hayotda bolalarni tabiat bilan tanishtirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologik bilimlarni berishda o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar jarayonida bolalar tabiat hodisalari, o‘simliklar, hayvonlar to‘g‘risida o‘z fikrlarini aniqlaydilar, birlashtiradilar, ko‘rib chiqadilar.

Didaktik o‘yinlar bolalarga tabiat obyektlari bilan ishlashga imkon beradi, ularni taqqoslaydi, individual tashqi belgilaridagi o‘zgarishlarni qayd etadi.

Tajriba - bu maxsus tashkil etilgan sharoitda olib boriladigan kuzatuv. Tajriba nafaqat bolalarda tabiatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga yordam beradi, balki kuzatuvchanlikni, aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Har bir eksperimentda kuzatilgan hodisaning sababi aniqlanadi, xulosalar olib boriladi.

Ekskursiya - asosiy faoliyat turlaridan biri va maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash bo‘yicha ishlarni tashkil etishning maxsus shakli. Ekskursiyalarning afzalligi shundaki, ular bolalarni tabiiy sharoitda tabiat obyektlari va hodisalari bilan tanishtirishga imkon beradi. Ekskursiyalarda bolalar o‘simliklar, hayvonlar va shu bilan birga ularning yashash sharoitlari bilan tanishadilar, bu esa tabiatdagi munosabatlar to‘g‘risida birlamchi g‘oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni estetik tarbiyalashda, ularning tabiat hodisalari va obyektlariga estetik munosabatini shakllantiririshda didaktik o‘yinlar, tajribalar va ekskursiyalarning o‘rni katta.

Ijtimoiy ekologiyaning maqsadi inson bilan atrof-muhit o‘rtasidagi xususiy bog‘lanishlarni o‘rganishdan iborat. Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o‘rganilayotgan obyekt yoki tizimning atrof-muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi. Biosfera va inson ekologiyasi fanining obyekti bo‘lib bir hujayrali sodda tuzilishdagi bakteriyalar, zamburug‘lar, o‘simlik va hayvonlar hamda ularning jamoalari xizmat qiladi. Ekologiya tabiat

bilan tirik organizmlarning uzviy bog‘lanishini ifoda etar ekan, u shubhasiz tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Asosiy adabiyotlar

1. Джанпеисова Г.Э., Расулхўжаева Табиат билан таништириш.
Т.; Инновация Зиё, 2020.- 320 б.
2. Содиқова Ш.А. Мактабгача педагогика. Т.: Тафаккур бўстони 2013.
3. Юсупова П.А. Мактабгача ёшдаги болаларга экологик тарбия бериш. Т: Ўқитувчи. 1995.
4. Расулхўжаева М.А. Болаларни ҳайвонот олами билан таништириш орқали аҳлоқий сифатларини шакллантириш технологияси. Т.: "Илм-Зиё-Заковат", 2020 й
5. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi. T. 2022 yil

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY MUNOSABATLAR JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Farhodov Fozilbek Bahrom o‘g‘li
Namangan davlat universiteti mustaqiil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyasi talabaning ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo‘lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmasligi, oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, tarbiya texnologiyasi, tarbiyaviy tadbirlar, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyati, identifikatsiya, dramatizatsiya, ogohlik, sublimatsiya, repressiya.

Bizga yaxshi ma’lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo‘lib, u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta’lim texnologiyasi talabaning ta’lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo‘lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo‘lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o‘ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g‘oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- tarbiyani tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag‘bat);
- tarbiya maqsadi;
- tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);

- tarbiyachi faoliyati;
- tarbiyalanuvchi faoliyati;
- tarbiya samarasi (natija).

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish aniq maqsadga va ijtimoiy g‘oyaga asoslangan hamda tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir.

Ta’lim jarayonidan farqli ravishda, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonning samarasini qisqa muddat oraligida ko‘ra olish imkoniyati yo‘q. Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas’uliyatli yondashish zarurligini taqozo etadi.

Masalan, umumiy oliy ta’lim muassasalari amaliyotidan ma’lumki, uzoq yillar davomida mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning ko‘pchiligi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan ”tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o‘tkazishga majburman” kabilida yondashib kelganlar. Ularning asosiy e’tibori o‘zlari rahbarlik qilayotgan auditoriya yoshlarini avvaldan tayyorlangan stsenariyni yod olish va unga qat’iy amal qilishga majburlash, shuningdek, ”ta’lim muassasasi ma’muriyati hamda jamoasi oldida izza bo‘lib kolishga yo‘l qo‘ymaslik” tamoyiliga muvofiq tarbiyaviy tadbirni uyushtirishga karatilgan edi. Endilikda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan bunday yondashuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirlarni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub’ektlari bo‘lgan yoshlar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadilar. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

1. yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;
2. yoshlarda mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;
3. yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta’minlashga yo‘naltirilganligi haqida emas, balki auditoriyaning ta’lim muassasasi jamoasi oldida ”soxta obro” orttirish uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi boskichlarda kechadi:

1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materialni yig‘ish;
2) tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
4) tarbiyaviy tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;

5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;

6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;

7) yoshlar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (yoshlarni bu haqda xabardor qilmasdan) baholash;

8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash;

9) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish jarayoni;

10) tarbiyaviy tadbirning o‘tkazilish xolati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv mohiyati yoshlar mustaqilligini ta’minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e’tiborni qaratishni ham taqozo etadi:

- yoshlarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag‘batning mavjudligi;

- yoshlarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari;

- tarbiyaviy tadbir g‘oyasining yoshlar ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Ta’lim muassasalari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish va shu asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish ularning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlab qolmay, balki yoshlarda ularning o‘tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ma’naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishi uchun qulay sharoitni hosil qiladi.

Tarbiya mexanizmlari deganda shaxsning atrof-muhit va pedagog bilan o‘zaro munosabatda bo‘lganida sodir bo‘ladigan va shaxsda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga ta'sir ko‘rsatadigan jarayonlar tushuniladi. Ma'ruzaning ushbu qismida ta'limning asosiy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi (bu mexanizmdan foydalanadigan pedagogning mexanizmlari, vazifalari va pozitsiyasi qisqacha tavsiflanadi):

– Identifikatsiya.
– Dramatizatsiya.
– Ogohlik.
– Sublimatsiya.
– Repressiya, tasvirni chiqarib yuborish.

OTMda tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda tarbiyaviy jarayonlarning natijaviyligi aniqlanib, ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy o‘qitish vositalari, eng qulay va samarali hisoblangan metodlar va yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish hamda talabalarning tarbiyaviy faolitga tayyorgarligi, tarbiyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishga moyilligi va imkoniyatlarini inobatga olgan holda belgilangan vazifalarni tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida qayta aloqa ta’minlanadi.

Belgilangan vazifalarni yangilash va takomillashtirish bo‘yicha qayta aloqa nafaqat o‘rganilishi rejalashtirilgan barcha mavzular o‘tib bo‘lingandan keyin, balki har bir mavzuning o‘rganilish samaradorligiga, yaratilayotgan yangiliklarning

mazmun-mohiyatiga va vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko‘ra, ya’ni zaruriyatga qarab muntazam amalga oshirib borilishi mumkin. Bunda qayta aloqa tarbiyaviy munosabat jarayonlarini takomillashtirish vositasi sifatida vujudga keladi va u vaziyatlarga ko‘ra mazkur jarayonlarning samaradorligini ta’minlash uchun zarur hisoblanadi.

Munosabatlarnig muayyan darajasi uchun dolzarb hisoblangan vazifalarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rta muddatli maqsadlarni belgilash tarbiyaviy munosabatlarni rivojlantirish jarayonining optimalligini ta’minlovchi vositalar majmuini aniqlashtirishga imkon beradi. OTM professor-o‘qituvchilari tomonidan ham va o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi talaba tomonidan ham belgilanadigan joriy maqsadlar vositalar to‘plamidan eng samaralisini ajratish va ularni tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kenjayeva D.T. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida barkamol shaxsni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.: Ped. f.n. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – 22 b.

2. Kahharova M. Jamiyatda ma’naviy–ahloqiy muhit: muammo va yechimlar// Avtoref. ...fal.fan.dok.-T.,2012.-56 b.:

3. Komilov N., Begmatov A., Quronov M. Rahbar va xodim. – Toshkent: Akademiya, 1998. – 170 b.

4. Mirzaolimov B.Sh. Yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari («Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati misolida).: Ped. f. n. ... diss. avtoref. – T., 2005. – 22b

SHARQ ALLOMALARINING TARBIYAVIY MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARUVGA OID ILG‘OR QARASHLARI

Farhodov Fozilbek Bahrom o‘g‘li

Namangan davlat universiteti mustaqiil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma’naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o‘z qarashlarini bayon qilib berganliklari, shuningdek, bir necha Sharq allomalarining tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish va boshqaruvga oid ilg‘or qarashlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. ma’naviyat, axloq-odob, rostgo‘ylik, halollik, xushyorlikka, faol harakatlanish, diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, axloqiy-huquqiy qarashlar.

O‘tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma’naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o‘z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo‘lamiz.

Mana shunday allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham

pedagogika faniga beqiyos qo‘sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo‘lmoqda. “Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari talaba shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisq-u fasod ishlardan o‘zini olib qochishga undaydi”.

Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonidagi tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg‘inoniydir. Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari shaxsni har tomonlama va uyg‘unrivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta’limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Alloma Marg‘inoniy o‘zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosimadaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen xoh unga adab o‘rgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur. Kaykovus 44 bobdan iborat bo‘lgan “Qobusnoma” asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o‘zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo‘pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning mas’uliyati kata ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg‘u beriladi[5].

Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etishda ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish – ta’lim jarayonida tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish va boshqarishning muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda odob-axloq mavzuiga bo‘lgan qiziqish anchagina ortdi. Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, tarixiy va madaniy merosimizni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma’naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g‘oyalarni bilishga bo‘lgan talabalar qiziqishlarining ortib borayotganligidir.

Ta’lim-tarbiya tizimi insonparvarlik yo‘nalishini tubdan o‘zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir. Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy

merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi. Taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deb yozgan edi[1].

Mashoyixlarning aytishlaricha, “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”. A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari yangi usul ta’lim muassasalarining yuqori auditoriyalarida ta’lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o‘qitilgan[1]. A.Avloniyning asarini chuqur o‘rganar ekanmiz, biz o‘sha davrda ta’lim muassasa lari talabalariga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi, Qur’on oyatlari, hadislar, shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko‘ramiz. Masalan, “Yaxshi xulqlar” qatoriga kiruvchi “Sabr” mavzusida: “Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobrlarni madh qilishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur”. Shul xususda so‘ylanmish bir hadisi sharifning ma’nosi “ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur,” - deyilishi. Arablar “assabru miftohulfalah”- sabr shodlig‘ning kalitidur deyurlar. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo‘llarini topish asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilm-u ma’rifat, san’at va amaliyot asosiy rol o‘ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma’rifatli bo‘lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to‘g‘rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do‘stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go‘zallikka intilish kabilardir.

Darhaqiqat, ajdodlar merosi o‘zligimiz, ma’naviyatimiz, aslimizdir. Tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o‘z asarlarida dasturilamal qilgan ajdodlar ijodi tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkir olimlardan yana biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy o‘z qarashlarida ta’limda talabaning shaxsiy kuzatishlariga katta e’tibor bergan. U sezgi orqali bilish – qisman bilish, mantiqiy bilishni esa haqiqiy bilish deb hisoblagan.

Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shgan. U insonni aqliy kamolga yetkazishda ilm-fan va ta’lim-tarbiya birlamchi deb hisoblagan.

Abu Nasr Farobiy esa komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan.

Farobiy fikricha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa, deydi alloma, faqat foydali bilimlarni o‘zida jamlash orqali erishish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho‘qqisi – bilim olish jarayonidir.

Insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari tashqi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun kishining insoniy sifatlarini shakllantirishda maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o‘rin egallaydi, deydi Farobiy.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy ta’limotida bilim oluvchilarga qalbingni yomon illatlardan, inson o‘zi sezishi mumkin bo‘lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, ochko‘zlikdan va shon-shuhratdan saqlashi lozimligini aytadi.

U barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda, deb bilgan. Bilimlarni o‘zlashtirishda kishida bilimga intilish, qiziqish va ijtimoiy muhit o‘rnini alohida ta’kidlaydi.

Beruniy faxrlanishni yaxshi xulk ma’nosida ishlatib, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida shunday deydi: “Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulq va oliy fe’llar oldin ketishi, ilmu-hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi”[2].

Ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining komil inson to‘g‘risidagi qarashlarini falsafiy, ijtimoiy fikrlari bilan bog‘liq holda ifodalagan. Olimning ijodida “komil inson tarbiyasi to‘g‘risida”gi qarashlariga to‘xtalsak.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga erishishni da’vat etadi. Buning sababi shundaki, ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson duch kelinadigan qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi.

“Ey birodarlar: Odamlarning botiri mushkilotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”[4]. Zero bilimli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o‘rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etishini uqtiradi. Shu bois ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarur deb hisoblaydi.

Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya va ahloqqa oid qaysi asariga ahamiyat bermaylik bu asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizning ta’lim-tarbiyasida, ularning zamon talablariga javob bera oladigan dono, bilimli va kuchli bo‘lishlaridagi ahamiyati kattaligiga amin bo‘lamiz.

Biz, Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma’naviy merosini o‘rganish asosida allomalarimizning, barkamol, komil insonni tarbiyalash xususidagi tarbiyaviy munosabatlarning o‘rni haqidagi qarashlari bilan tanishib chiqib, undagi ilgari surilgan g`oyalar, bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun naqadar zarurligini angladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1992. -160 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent, 1968. – 151b.
3. “Avesto” – Tarixiy-adabiy yodgorlik: Asqar Mahkam tarjimasi. – T. Sharq, 2001. – 400 b
4. Ibn Sino.Tibbiy o‘gitlar – T.: «Mehnat» 1991.–192.
5. Kaykovus. Qobusnoma. -Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2006.– 205 b.
6. Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNI TASHKIL ETISH

G.M.Nazirova

Qo‘qon DPI Pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) dotsent

Anotatsiya. Ushbu maqoladatabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari, ekskursiya va uning turlari, sayr va ularni tashkil etish uslubinishakllantirishmasalasining ilmiy nazariy ahamiyati, uni o‘rganilganlik darajasi va xozirgi vaqtdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mashg‘ulot, yangi bilim beruvchi, bilimlarni aniqlovchi, bilimlarni mustahkamlovchi, noa’anaviy mashg‘ulot, o‘simlik, hayvonlar, o‘yin, mehnat, oddiy tajribalar, maqsadli va maqsadsiz sayr, suhbat.

Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda atrof muhit tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida o‘tadigan mashg‘ulotlarda guruxlarning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq oddiy ilmiy bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma’lum tizim hamda izchillikda o‘stiriladi Kundalik hayotda kuzatish, o‘yin mehnat vaqtida bolalarning shaxeiy bilimlari qo‘yib boriladi. Mashg‘ulotdar ularni aniqlash, tizimga solish imkonini beradi. Bolalarni mashg‘ulotlarda o‘qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Uslub mashg‘ulotning turiga, uning maqsadiga ko‘ra aniklanadi. Ayrim mashg‘ulotlarda boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko‘rsatish, badiiy asarlarni o‘qish, diafilm, kinofilmlarni kursatishdan foydalanadi. Boshka mashg‘ulotlarda esa bilimlar aniklanadi, kengaytiriladi, chukurlashtiriladi. Yuqorida keltirilgan usullardan tashkari mazkur mashg‘ulotda bolalarning tabiatdagi

mehnatidan ham foydalaniladi. Mashg‘ulotning yana bir muhim vazifasi - bolalar bilimini umumlashtirish tizimga solish.
Mashg‘ulotlar barcha yosh guruxlarda kichik va urta guruxda, oyda ikki marta kapa, tayyorlov guruhlarida haftada bir marta o‘tkaziladi.
Mashg‘ulotga tayyorlanish hamda uni, o‘tkazishda mashg‘ulotning tuzilishi uslubini to‘g‘ri tanlash ta’limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob’ektlarning xususiyatlari va bolalarning yoshiga bog‘likdir. Masalan yovvoyi hayvon haqidagi bilimini shakllantirish yaxshisi diafilm, kinofilm ko‘rsatish hayvonlar. o‘simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma’qul. Kichik yoshdagi bolalarning mashg‘ulotlarida kuzatish o‘yin uslubidan foydalanib amalga oshiriladi. Og‘zaki uslubdan asosan maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan bo‘ladigan mashg‘ulotlarda foydalaniladi. Tanlangan uslub dastur vazifasining to‘liq, bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatlarini ta’minlashi lozim. Mashg‘ulot o‘tkazishga tayyorlanar ekan tarbiyachi ishlash uchun qanday ko‘rgazmali kurollar tanlashni rasmlar, gerbariylar, tabiat kalendarlarni tuzishni rejalashtiradi.
Qanday o‘simlik yoki hayvonni parvarish kilish, ekiladigan ekinning nimaga kerak bo‘lishini o‘ylab ko‘radi. Shundan keyingina u mashg‘ulotning borishi ustida fikr yuritadi.
Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish ularning tabiat bilan tanishtirishdagi mustaqilligini fikr doirasini oshirishda va o‘ta faol bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday qobiliyat bolalarga tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo‘lish sabablarini bilishga imkon beradi Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatini hosil kilish ma’lum tizim asosida amalga oshiriladi. U bolalarni tabiatda bo‘ladigan voqea, hodisalarni ko‘rish, taxlil qilish asosida turli faoliyatlardan boshlanadi. Shundan keyin bolalarda fikrlash qobiliyati shakllanadi.
Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish ularning tabiat bilan tanishtirishdagi mustaqilligini fikr doirasini oshirishda va o‘ta faol bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday qobiliyat bolalarga tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo‘lish sabablarini bilishga imkon beradi Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatini hosil kilish ma’lum tizim asosida amalga oshiriladi. U bolalarni tabiatda bo‘ladigan voqea, hodisalarni ko‘rish, taxlil qilish asosida turli faoliyatlardan boshlanadi. Shundan keyin bolalarda fikrlash qobiliyati shakllanadi. Turli muammolar paydo bo‘ladi. Bolalar bu muammolarni echishni uylab mulohaza yuritadilar Natijada bolalar tabiatda buladigan o‘zgarishlar. Ob-havo, uning o‘zgarishlari, sabab-oqibatlari haqida tabiatdagi o‘zaro bogliqliklar haqida ilmiy tushunchalar paydo bo‘ladi. "Bolalar bogchasida ta’lim-tarbiya dasturida" belgilangan bolalarga singdirish uchun bolaning bilishga bo‘lgan faolligini va amaliy faoliyatini oshirish zarur. Buning uchun tarbiyachi dasturdan izlanuvchanlik faoliyati yo‘li bilan o‘rganiladigan tabiat haqidagi bilimlarni ajratib olmog‘i kerak.
Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi ish shakllaridan biridir Ekskursiya davomida bolalar o‘simlik va hayvon hamda jonsiz tabiat bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiya jarayonida bolalar tabiatning go‘zalligini ko‘rib katta taassurot olib hissiyotlari rivojlanadi. Shu asosda jonajon O‘zbekiston ona tabiatiga muhabbat, unga

ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish tarbiyalanadi. Ekskursiyadan mashg‘ulot turi sifatida o‘rta, katta, tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo‘lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Ekskursiya mashg‘ulotlarining afzalligi shundaki, unda bolalar o‘simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘zaro aloqdlar haqida dastlabki dunyoqarash tasavvurlarini, olamny ilmiy tushunishni shakllantirish imkonini yaratadi. Urmon, dala, daryo, ko‘l qirg‘oqlariga uyushtirilgan ekskursiya bolalarning dikkatini jalb kiladi. tarbiyachi rahbarligi ostida guruh hamda tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlar turli-tuman materiallar to‘plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni urganishga qizik, ish usadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning x.tskshterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadi.

Tabiatning go‘zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg‘otadi, o‘chmas taasurotlar koldiradi. Estetik hissiyotlarning o‘sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish Vatanga muhabbat shakllantiriladi.

Tabiatshunoslik ekskursiyaga kirish suhbati, jamoa bo‘lib kuzatish, bolalarning yakka mustakil kuzatishlari va tabiatga oid materiallar tuplash bolalarning e’tiborini tabiatning umumiy ko‘rinishiga jalb etadi. Ekskursiya qismlarining mikdori va ularni utkazish izchnlligi ekskursiyaning maqsadi, ob-havoga qarab o‘zgartiriladi. Bolalar ekskursiyalarda predmetlarning xarakterli xususiyatlariga oid bilimlarni mustahkamlaydilar, ularning belgisini so‘z bilan ifodalaydilar, o‘simlik, hayvonlarning qismlari nomlarini yodda tutadilar. Ekskursiya insonning tabiatga qanday ta’sir etishini, o‘simliklarni qanday o‘stirishi va hayvonlarni qanday parvarish qilishni ko‘rgazmali ko‘rsatip. imkonini beradi Bu erda bolalar asosiy mehnat qismlarini bi; qanchasi bilan tanishadilar. Bu ekskursiyaning o‘ziga xoslip shundaki. bola inson faoliyatyni ham, u ta’sir etayotgan tabiatni ham kuzatish i mumkin. Qishloq xo‘jalik ekskursiyalarini katta mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida utkaziladi. Ekskursiyani uyushtirif guruxdagi mashg‘ulotni uyushtirishdan murakkabroq. Shuning uchun uning muvaffaqiyatlp bo‘lishi tarbiyachi va bolalarning unga puxta tayyorlannshlariga bog‘liqdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda sayrdan keng foydalaniladi. Sayr vaqtida tasavvurlarni shakllanishi uchun uzoq, muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo‘ladi. Tabiat hodisalariii kundalik kuzatishlar tasodifiy bo‘lmasligi lozim, Bularni tarbiyachi oldidan rejalashtirishi lozim. Sayr vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni mashg‘ulot maqsadiga ko‘ra uyushtiriladi.

Ikkinchi kichik guruxdan boshlab maksadli sayr uyushtiriladi. Bu sayrlarda bolalarni yorqin tabiat hodisalari bilan tanishtiriladi. O‘rta, katta guruhlarda bir necha kun, ba’zan xaftalab davom etadigan hodisalarni kuzatish mumkin. Bu kuzatishni uzok, muddatli kuzatish deyiladi. Sayrlarda ob-havonn, osmonni, o‘simliklar gullarni, xazonrezlik, hayvonlar hayotidagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu turdagi kuzatishlar uzoq muddatli kuzatishlar deyiladi. Katta, tayyorlov

guruxdarining bolalari sayrdagi kuzatishlarini tabiat kalendarda aks ettiradilar. Ular bu kalendarda jonsiz tabiat, hayvonlar. o‘simlik. hayotidagi yorqin mavsumiy o‘zgarishlarni, kishilarning mehnatlarini aks ettiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.G.Malikovna CONTENT AND PEDAGOGIKAL CONDITIONS FOR THE DEVELEOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENSE OF TEACHERS AND EDUCATIONAL ORGANIZATIONS International journal of socials cience interdisciplinary research ISSN 2022
2. N.G.Malikovna Formation of a sense of national pride amonig in oider preschool children through oral foik art-as a socio-pedagogical necessity Science and Innavation 1 (8) 2067-2077,2022
3. N.G.Malikovna . “Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o'rni”.Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari 1 (2) 100-105,2023
4. Азизова, Зироат. "ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ФОРМ И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ." Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2.17 (2022): 77-80.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA YO‘NALTIRILGAN ESTETIK PEDAGOGIK JARAYONNIG O‘ZIGA XOSLIGI.

Hakimov Abbosxon Oribjon o‘g‘li

NamDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalar rivojlanishiga tasir ko‘rsatuvchi psixologik omillar maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablari, estetik rivojlanish ularning maktabgachga tayyorlov guruh bolalarni o‘qish savodxonligini rivojlantirishiga tasiri, estetik, ijtimoiy muxitning o‘ziga xosligi bolalarni kuzatish, rivojlanish maktab ta’limiga tayyorgarligi aqliy,bilish,jismoniy,psixologik tamonlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Rivojlanish,muloqot, etika,estetika,nafosat tarbiyasi,savodga o‘rgatish, faoliyat, kuzatish, tahlil, rejalashtirish, qo‘llash, anglash, shaxs, qiziqish, ehtiyojlar, savodxonlig, o‘qish, aqliy.

O‘zbekiston respublikasida ta’lim sohasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikada joriy etilgan ta’lim tizimi, uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta’lim olishdagi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirib kelinmoqda. Davlatimiz tomonidan ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa bu o‘rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va shu orqali bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuk, barkamol farzand voyaga yetkazish hamma davrlarda ham katta siyosiy mohiyat va ahamiyat kasb etib kelgan. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi,

insoniyat istiqboli, kishilarning hayot vaturmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.
“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasi qonunining 8–moddasida: Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko‘rsatilgan. Yoshlarni kamolga yetkazish ta’lim tizimida axloqiy va estetik bilimlar orqali amalga oshadi, ularning ijtimoiylashuvi esa insonni bevosita hayotga va voqelikka yaqinlashtiradi. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan axloqiy-estetik madaniyatning o‘zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan o‘sib kelayotgan yoshlarni estetik tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat standarlari va umumiy o‘rta ta’limga qo‘yiladigan davlat standatrlarida savodxonlikka o‘rgatish hamda san’at markazlarida mashg‘ulotlari o‘tish belgilab qo‘yilgan maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat standartlarida savodxonlikka o‘rgatish haftasiga bir marta belgilangan, shu bilan birga nutq o‘stirish mashg‘ulotlari ham birgalikda olib boriladi va ular o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiradi. Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o‘sishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun bolaga o‘rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim. Pedagog tarbiyaviy nuqtai nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to‘liq namoyon bo‘lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo‘lini to‘g‘ri belgilashi mumkin. MTMda o‘tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta’sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o‘ziga xosligi uning g‘oyaviy va estetik mazmuni san’atning turli ko‘rinishlari bilan bog‘liq bo‘lishidadir.Tayyorlov guruhlarida savodga o‘rgatish hamda san’at markazlarida mashg‘ulotlarini tashkil qilishda tovush va harflar bilan tanishtirishda ko‘proq didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Umumiy o‘rta ta’limga qo‘yiladigan davlat standartlarida esa savodga o‘rgatish darslari sentabrdan dekabr oyigacha olib borilib haftasiga to‘rt marta o‘tiladi.Maktabgacha ta’limda savodxonlikka o‘rgatish metodikasi va boshlang‘ich sinflarda savodga o‘rgatish metodikasi kitoblarida bolada savodxonlikni shakllantirish bo‘yicha o‘zaro uzviy bog‘liqlik mujassamlashgan.Masalan „Savodga o‘rgatish“ tarbiyachi kitobi va boshlang‘ich sinflarda „Ona tili o‘qitish metodikasi“ kitoblarida savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlari va darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tilgan.Berilgan metodikalarni o‘rganib chiqish va shu asosda mashg‘ulot jarayonlari uchun ishlanmalar tayyorlash, mujassam mashg‘ulotlarni tashkil etish hozirgi kunda tarbiyachidan yaratuvchanlikni va izlanuvchanlikni talab etadi.
Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan xalqaro tajribalar hisobga olinib, 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktab ta’limiga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi. Ushbu

dastur 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq, bolaning rivojlanishidagi 5 muhim soha : bolalarning jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalarini har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda bola ta’limiy faoliyatning yetakchi ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Dastur talablari bolani har tomonlama rivojlantirib, maktab ta’limiga tayyorlaydi, unda turli xil ko‘nikmalarni shakllantirishda xizmat qiladi. Bu yoshda bolani savodxonligi bo‘yicha olib boriladigan ta’limiy jarayonlar bolalarda nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish sohasi va bola rivojlanishining barcha sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bolaning so‘z boyligi oshadi, nutqqa nisbatan qiziqish uyg‘onadi, unda mazmunli gapirish, boshlang‘ich til bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lish, badiiy adabiyotga muhabbat shakllanadi. Jamoada o‘zini tutish, savollarga javob berish, kattalar bilan muloqotga kirishish va ular oldida so‘zlash, shaxsiy qarorlarini qabul qilish, boshqalarga namuna bo‘lish, qiyin vaziyatlarda amaliy yechim topish uchun intilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bolada qo‘l barmoqlari mayda motorikasi rivojlantirilib, yozuv malakalari shakllanadi. Ular qog‘ozda to‘g‘ri chiziqlar, so‘zlar va qisqa gaplarni yozadi, yozuv qatorini aniqlay oladi, qo‘lni uzmasdan nuqta chiziqlarni birlashtirib rasm chizish malakalari shakllanadi.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdagi muhim ishlardan biri, bu bolalar MTTda va oilada bolani savodga tayyorlashdan iboratdir. Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari va birinchi sinf o‘quvchilari bilan hamkorlikda bayram tadbirlarini tayyorlash ham maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini maktab hayoti, o‘quvchilar bilan yaqinlashtiradi. Tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish mobaynida tarbiyalanuvchilar birinchi sinf o‘quvchilari bilan muloqotda bo‘ladi, yaqindan tanishadi, o‘rtoqlashadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bayramlarda tarbiyalanuvchilar uchun o‘z qo‘llari bilan sovg‘alar tayyorlashadi.tayyorlagan sovg‘alarini bolalarga bayram tuhfasi qilib berishadi. Maktabda o‘qish jarayoni albatta tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun birmuncha qiyinchilik to‘g‘diradi, shu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida bolalarni maktab hayoti bilan, o‘quvchilar bilan yaqinlashishiga muloqotda bo‘lishiga sharoit yaratib berishimiz zarur.Bolalar maktab hayotining o‘ziga xos xususiyatlari tanishishlari va kirish darslarini o‘tkazish uchun maktab o‘qituvchilari bo‘lajak birinchi sinf o‘quvchilari uchun maktabga kirishdan oldin ma’lum muddat kirish darslarini o‘tadilar.Bu o‘z navbatida tarbiyalanuvchilarni maktabga tez moslashib ketishini ta’minlaydi.

XULOSALAR

Shuni inobatga olish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar bu yoshdagi bolalar organizmi xali o‘sishini davom ettirayotganligini doimo xisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o‘rgatish xali barmok muskullari tulik rivojlanib bo‘lmaganligi sababli ularga ma’lum darajada zarar keltirishi yoki uning chiroyli yoza olmasligi, o‘z-o‘zidan bolani o‘ziga nisbatan ishonchini yoki

o‘kishga nisbatan qizikishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Bola kitobdagi rasmlarni qaytaqayta o‘z o‘rtoqlariga, kattalarga, qo‘g‘irchog‘iga «o‘qib» berish bilan uning mazmunini o‘z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Kattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, do‘stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo‘lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.Ikkinchi tayyorgarlik bu aqliy tayyorgarlikdir. Kupincha aqliy tayyorgarlik deganda bolaning ma’lum bir dunyokarashi jonli tabiat, insonlar va ularning mexnatlari xaqidagi bilimlari tushuniladi. Beradigan ta’limga asos bulishi mumkin, lekin suz boyligi, ma’lum xatti-xarakatlarni bajara olish layokati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish,taxlil eta olish, umumlashtira olish, ma’lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini amalga oshadi. Ushbu bilimlar bolalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishi orqali o‘qish savodxonligini rivojlantiradi va kattalar bilan muloqotchanligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-sonli Farmoni.
2. Ahmedova H. Va boshqalar. Bolangiz maktabga tayyormi? –T.: “Ma’rifat-Madadkor” nashriyoti, 2000 y. -320-b.
3. Anna Golubeva, D.Shankar, V.Nazarova, Y.Narolskaya, M.Ismoilova, Li Dong Vuk.
4. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat o„quv dasturi. Toshkent-2018.-107 b.
5. “Ilm yo‘li“ variativ o‘quv dasturi.Toshkent-2019.
6. M.R.Is’hoqova, M.Z. Fayzullaeva,J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M. Sultonova. “Savodxonlikka o‘rgatish“ Tarbiyachi kitobi

«РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА»

Ивницкая Анастасия
Наманганский государственный педагогический институт
студентка 1 курса кафедры методики дошкольного образования
Абдукаримова Шахноза Набиевна
Преподаватель Наманганского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье раскрыты цели и задачи развития личностных качеств дошкольников.

Ключевые слова: личностные качества дошкольников, развитие ребёнка,

квест-технологии, метод, наблюдение, наглядность.

На сегодняшний день одной из актуальных задач в дошкольном образовании является задача развития личностных качеств детей дошкольного возраста.

Личностное развитие ребёнка – это формирование качеств, ценностей, убеждений, мировоззрений, отношений с внешним и внутренним миром. Этот процесс длится всю жизнь, но наиболее активное становление происходит в дошкольный период. Исследования показали, что большинство родителей считают главными задачами дошкольного образования, это умение ребёнка читать, писать, считать. Но на самом деле это не так. Основной результат дошкольного образования – это гармоничное всестороннее развитие личности ребёнка, а не знания, умения, навыки.

Личностное развитие дошкольников невозможно без общества. Дети до 2-х лет нуждаются только в общении со взрослыми, уже к 3-4 годам у них развивается игровая деятельность, которая к 5-летнему возрасту перерастает в ролевые игры. Если ограничить круг общения только взрослыми, то ребёнку дошкольного возраста будет не доставать социальных навыков, возникнет страх перед детьми, излишняя привязанность к родителям.

Ведущей целью должно быть формирование у дошкольников таких качеств, как:

- Инициативность и самостоятельность в разных видах деятельности - игре, общении, конструировании;
- Уверенность дошкольника в своих силах, открытость внешнему миру, положительное отношение к себе и к другим, обладание чувством собственного достоинства;
- Умение ребёнка активно взаимодействовать со сверстниками и взрослыми, участвовать в совместных играх;
- Развитие крупной и мелкой моторики рук;
- Способность к волевым усилиям в разных сферах деятельности;
- Стараться разрешать конфликты, умение подчиняться разным правилам и социальным нормам.

Известный детский психолог Юлия Гиппенрейтер утверждает, что для становления личности необходимо позволить ребёнку самостоятельно справляться с теми задачами, которые он способен выполнить, и как можно раньше обучать его различным навыкам.

Для успешного становления личности важно учитывать следующие педагогические направления:

1. Создание условий для формирования чувства защищённости, уверенности в себе;
2. Развитие понимания, что ребёнка слышат, с ним советуются, он принимает участие в жизни семьи;
3. Привитие ответственности за свои поступки, слова;

4. Формирование навыков поведения в обществе;
5. Воспитание уважения к старшим;
6. Развитие умения становления целей, планирования; определения приоритетов.

Огромную роль в развитии важнейших качеств личности педагоги отводят игре. Игра является ведущей деятельностью в дошкольном возрасте. В игре ребёнок знакомится с разнообразными чувствами, овладевает и своими эмоциями, учится ими управлять. В игре развиваются такие психические процессы, как память, мышление, внимание, воображение, речь, формируются реальные отношения детей в коллективе, умение подчиняться и руководить, организовывать совместные действия, преодолевать конфликтные ситуации. А также для гармоничного развития ребёнка, большое значение имеет совместное чтение книг. Среди книг, адресованных детям, особое место занимают сказки. Ведь очень важно помочь ребёнку принять и преодолеть какие-то трудности в жизни, а не убегать от них. Именно об этом говорят многие сказки:

«Трудности в жизни неизбежны, но если герой не струсит, то он преодолеет все преграды и станет победителем».

Задача педагога – создать условия для развития личностных качеств детей дошкольного возраста. В этом может помочь quest -технология, которая является эффективным средством личностного развития. Quest-технологии в образовании и воспитании детей широко начали применяться с 1995 года, когда профессор образовательных технологий университета Сан-Диего Берни Додж предложил использовать в процессе обучения некую поисковую систему, в которой предполагалось находить решение поставленной задачи с прохождением промежуточных стадий, на каждой из которых требовалось выполнить какое-то действие или найти ключ для выхода на следующий уровеньДанная технология воздействует на ребёнка комплексно и даёт возможность развивать творческие способности и коммуникативные навыки, синтезировать полученные знания, обеспечивает связь теорий с практикой. Использованиеquest- технологии позволяет обогатить формы взаимодействия педагога с детьми.Quest- технологии можно разрабатывать по всем областям развития дошкольников: речевой, познавательной, социально-коммуникативной, художественно- эстетической и физической.

Общие задачи по развитию личностных качеств детей в процессе quest-технологии:

- Развивать познавательную активность и любознательность дошкольников;
- Развивать творческие способности;
- Побуждать детей к проявлению личной инициативы.

Виды квест-игры

Квесты по числу участников:

¬ одиночные;

¬ групповые.

По содержанию:

¬ сюжетные;

¬ несюжетные.

Преимущество данной технологии в том, что она не требует какой-то специальной подготовки воспитателей, покупки дополнительного оборудования или вложения денежных средств. Главное – огромное желание педагогического коллектива заложить основы полноценной социально успешной личности в период дошкольного детства. **Роль педагога-наставника** в quest-игре организационная, т.е. педагог определяет образовательные цели квеста, составляет сюжетную линию игры, оценивает процесс деятельности детей и конечный результат, организует поисково-исследовательскую образовательную деятельность.

Основная литература:

1.Ильина Т.Н. Активные методы обучения педагогов в ДОУ.
2.Болотина Л.Р. Дошкольная педагогика.
3.Власенко Н.Н. Проектная деятельность дошкольников.
4. Асмолов А. Г. Ребёнок в культуре взрослых .
5. Бацкалева В.В. Духовно-нравственное воспитание дошкольников.
6. Габова М.А. Дошкольная педагогика.
7. Гогоберидзе А.Г. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLAR ASOSIDA BOLALARNI INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH

Ismailova Nozima Umaraliyevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning tutgan o‘rni hamda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning nima sababdan qo‘llash kerakligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarni integratsiyalashgan ta’lim asosida bolalarning intelektini rivojlantirish haqida ko‘plab ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashgan ta’lim, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, psixik jarayonlar, strategik maqsadlar, tafakkur, iroda, differensialangan tizim, o‘qitish metodlari.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarning asosi keng qamrovli tushunchalarni o‘quvchilarga o‘rgatilishidir. Tushunchalarning turli jabhalarda qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini orttiradi. Qiziqish bu - olingan bilimlarni xotirada uzoq muddatga saqlanilishini kafolatlaydi. Qiziqish-shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o‘ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli,

puxta, barqaror, anglagan holda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo‘lishida, o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini o‘zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqishlar shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo‘ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o‘z ichiga oladi.

Odamlarni shaxsiy qiziqishini idora qilishga o‘rgatish, bu yo‘nalishda mashqlantirish, treninglar, testlardan foydalanish intiluvchan, to‘liqmas xislatlarni shakllantirishga yordam beradi [1]. Shaxsning individual xususiyati bo‘lgan qiziqish-havaslar uning hamma psixik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishining qobiliyatlarining o‘sishi ham ma’lum darajada undagi qiziqishlar bilan belgilanadi. Bizdagi idrok etish, esda qoldirish, esga tushurish, xayol, tafakkur va iroda jarayonlari qiziqish orqali faollashadi. Qiziqish kishi diqqatining kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam qiladi, bizning tuyg‘u-hissiyotlarimizning, shuningdek, qiziqishlarimizning ham kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam beradi [3]. Integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarning psixik jarayonlari haqida ko‘plab olimlar izlanishgan. Maktab ta’limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida olim Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalari- ning hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lib voyaga etishlarini ta’minlashdek, ezgu maqsad mujassamligi, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan dastur” da keng ko‘lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim-tizimida qayta ishlangan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”2, “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining e’lon qilinishi, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya” qonuni O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi yangilanishi fikrimiz dalilidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan etuk va ma’naviy jihatdan shakllangan etib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu maqsadda, ertaklar orqali bolalar nutqini o‘stirish va ularning ma’naviy kamolotini shakllantirish uchun MTT tarbiyachilari quyidagi kabi integrallashtirilgan mashg‘ulotlarni olib borishlari mumkin. Tayyorlov

guruhida “Ertaklar yaxshilikka etaklar” mavzusida integrallashtirilgan mashg‘ulot Maqsad: ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu hislatlarni tarbiyalash hamda insoniy fazilatlarni targ‘ib etish bilan ularning axloqiy sifatlariga ijobiy ta’sir etish, bolalar o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatni shakllantirish va mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish.
Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan interfaol usullar: - muammoli vaziyat, tushuntirish, aqliy hujum metodi, enerjayzer, “Bog‘dagi gullar” amaliy ish, so‘z o‘yini, M. Montessori metodi.
Hozirgi globallashuv davrida boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni ilm olish jarayonlarini va bosqichlarini yanada takomillashtirish uchun xorijiy tajribalar o‘rganilib kelinmoqda hamda eng saralari bugungi kunda boshlang‘ich sinf maktab doirasida tatbiq etilyapti. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatib kelmoqdaki, boshlang‘ich sinflardagi fanlarni o‘zaro bog‘lab, umumlashtirib o‘tish ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Fanlararo o‘zaro bog‘liqlik ya’ni fanlarni integratsiya qilish o‘quvchilar faolligini oshirishda, darsni yananda qiziqarli olib borishda, yangicha metodlardan foydalanishga olib keladi. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarga bir nechta fanlar bo'yicha(chegaradosh va asosiy fanlar) asosida o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish qilish uchun o'quv kurslari orasidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi. Ushbu oliy ta'lim konsepsiyasi ta'lim sohasidagi mutaxassislarni fan fanlarini birlashtiruvchi faoliyatni rag'batlantirishga undaydigan integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish dasturining bir qismini tashkil qiladi. Yosh bolalardan yangi va ilgari kashf etilmagan kontentga yaqinlashganda, oldingi o'rganishlari va bilimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishlari integratsiyalashgan darsning sifat va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Integratsiya hamda integratsiyalash so‘zining ma’nosiga keladigan bo‘lsak, (lot.dan) - qayta tiklash; tizimning alohida differensiyalangan qismlari va funktsiyalarining bir butunga o'zaro bog'lanish holati, shuningdek, bunga olib keladigan jarayon hisoblanadi.Integratsiya tushunchasini biz nafaqat ta’lim vositasi sifatida balki sifatli ta’limga erishishning eng oson yo‘li sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham boshlang‘ich sinflar doirasida integratsiyalashgan darslar keng tus olib bormoqda. Eng quvonarlisi shundaki, bu usul orqali boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni o‘qitish har jihatdan ustuvorlikni beradi. Ular quyidagicha: Birinchidan, Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun qiyin deb hisoblangan fanlar integratsiyalashgan darslar yordamida hamda qo‘llaniladigan metodikalar orqali yana ham oson va tushunarli bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun tabiiy fanlarga nisbatan ham qiziqish uyg‘onadi desak adashmagan bo‘lamiz. Ikkinchidan, Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar doimo diqqatlarini bir nuqtaga qarata olmaydilar. Bu jarayon uzog‘i bilan 10-15 daqiqani olishi mumkin. Shunday vaziyatlarda biz mana shu vaqt oralig‘ida 1 ta fanga oid bo‘lgan tushunchani 2-3 ta bir-biriga aloqador bo‘lgan fanlarni ham birlashtirib o‘tishimiz mumkin. Qisqa vaqt ichida bolaga o‘zi bilmagan holatda ko‘p ma’lumotni singdirishimiz mumkin. O‘qitish metodikalari haqida gap borganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun foydalanishimiz mumkin bo‘lgan metodikalar ro‘yxati juda ham katta. Biz o‘qitish metodikalarni tanlagan vaqtimizda

ham eng avvalo, bolaning yoshini, sinfini, qiziqishini inobatga olishimiz zarur.Shu o‘rinda zarur bir eslatmani aytib o‘tmasak bo‘lmaydi. Bir o'qituvchi uchun samarali bo'lgan yondashuv yoki yechim boshqa metodist uchun foydali bo'lishi shart emas, chunki har bir usul, vosita va uslub o‘z shakl va mohiyatiga ega, umumiy ta'lim maqsadlariga erishish uchun turli xil vositalar va usullardan foydalanadi. Shuning uchun ko'plab o'qituvchilar turli xil yondashuvlardan ba'zi g'oyalarni ajratib olishga harakat qiladilar, ularni aralashtirib, o'quvchilar va maktab ehtiyojlari va boshqa holatlarga qarab yagona o'qitish usuliga qo'shishadi. Bu har doim ham to‘g‘ri yechim emas.Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qitadigan metodist va o‘qituvchilar yagona o‘qitish usuli bilan cheklanib qolmasliklari kerak.Har bir dars o‘zgacha yondashuv, kreativlik hamda zamon bilan hamnafas tarzda o‘tilishi kerak.

Yosh bolalarga ma'lumot va bilim o'rtasidagi kognitiv aloqalarni rag‘batlantiradigan keng ko'lamli fanlarni o'rganish imkoniyatini berish orqali biz o'quvchilarga ularning kattalar hayotiga va keyingi ta'lim sayohatlariga o'tadigan asosiy ko'nikmalarni, yo‘l-yo‘riqlarni beramiz. Shu o‘rinda Irlandiya maktablaridagi o‘qitish tizimini aytib o‘tmasak bo‘lmaydi. Bu davlatdagi boshlang‘ich ta’lim maktablarini muvaffaqqiyat siri shundaki, o‘qituvchilar ma’lumotni aniq o'rgatmasdan va ajratmasdan, bir qator mavzu g'oyalarini o'qitishga yaxlit yondashuvni qo'llash o'rganish uchun tabiiy asos yaratadi. Shuningdek, ular yangi mavzu doirasidagi yangi bir termin yoki tushunchani yarmini aytib yoki qiziqarli joyida to‘xtatishadi, bunday vaziyada kichik maktab yoshidagi bolalarda shu ma’lumotni tezroq bilish va o‘rganish istagi paydo bo‘ladi. Integratsiyalashgan ta'limni sinfga qanday kiritish mumkin? Farzandlarimizga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rgatishda biz ko'pincha yaxlit yoki umumiy bo‘lgn mahorat to'plamiga hissa qo'shadigan muayyan elementlar ustida ishlash uchun ko'p vaqt sarflaymiz. Misol uchun, biz til o'rganishni o'rganayotganimizda, biz o'qish, yozish, tinglash va gapirish qobiliyatlariga e'tibor qaratishimiz mumkin, ammo bu to'rtta asosiy savodxonlik ko'nikmalari samarali muloqot qilish qobiliyatimizga hissa qo'shishiga qaramay, muqobil vaqtda va alohida. Agar biz o'quvchilarimiz o'z ta'lim imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlarini va turli xil vositalar orqali ajoyib kommunikator bo'lishlarini istasak, biz ushbu asosiy elementlarni haqiqiy o'rganish tajribasiga birlashtirishimiz kerak. Masalan, gapirish va tinglash qobiliyatlarini oling. Bu ikki ko'nikma ham qabul qiluvchi va biz tinglaganimizda va keyin javob berganimizda miyaning turli qismlarini jalb qilishimizni talab qiladi. Yakka holda o'qitilganda, biz o'quvchilarga ikkalasi o'rtasida kognitiv bog'lanishni qiyinlashtiramiz. Biroq, integratsiyalashgan usulda o'qitilganda, biz o'quvchilarga boshqalar bilan muloqot qilishda ko'pincha haqiqiy dunyoda foydalanadigan asosiy ko'nikmalarni kontekstuallashtirish imkoniyatini beramiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan dars har jihatdan sifatli va samarali vosita hisoblanadi.Integratsiyalashgan fanlar tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan hamda xorijiy mamlakatlarning o‘quv rejalariga kiritilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlarga ko‘proq e'tibor qaratilganligini anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham tabiat-jamiyat munosabatlarni uyg‘unlashtirish masalalari, murakkab fanlararo aloqalarni

o‘rnatishning o‘quv rejalari va dasturlarida atrof-muhit bilan mamlakatimizning umumta’lim maktablari katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://happynumbers.com/blog/list-of-teaching-methodologies-primaryschool/
2.2017-2021 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabr. PQ-2707-sonli Qarori.
3.“O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomi hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qarori. 2017-yil 21-noyabr. 929-son qarori. Ilk qadam. – Toshkent, 2018.

GLOBALLASHAYOTGAN JAMIYATDA TA’LIM-TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING DUNYO TAJRIBASI. MENTORLIK FAOLIYATI, MENTORGA MUROJAAT QILISHNING SAMARALARI.

Ismailova Nilufar Isroildjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Raimkulova Dildora Rustam qizi
Maktabgacha ta’lim,2-kurs talabasi.

Annotatsiya; Mentorlik - bu biz oliy o‘quv yurtlarida, professional treninglarda va muvaffaqiyatga erishgan kompaniyalarning ofislarida tez-tez eshitadigan so'zdir. Lekin bu aslida nimani anglatadi? Ushbu maqolada biz mentorlikning mohiyatini ochib beramiz, uning asosiy tamoyillari bilan tanishamiz va u qanday qilib shaxsiy va professional o'sish uchun asosiy vositaga aylanishi mumkinligini bilib olamiz.

Kalit so‘zlar; mentor, ment, Individual mentorlik, guruh mentorligi, Ta'lim bo'yicha mentorlik, rasmiy, tabiiy, tengdosh, murabbiylik, vaziyatlilik.

XXI asr muhim o'zgarishlar davri. Bu yangi madaniyat asri, shaxsga yangilangan ong darajasida talablar qo'yadigan, yangi imkoniyatlarni tushunadigan yangi texnologiyalarni joriy etish asri. Jamiyat rivojlanishining yangi shartlari, birinchi navbatda, eng muhim ijtimoiylashuv instituti – ta'lim makoniga ta'sir qiladi.

Mentorlik - bu katta tajriba va bilimga ega bo'lgan shaxs muayyan sohada rivojlanish va o'z g'oyalarini takomillashtirishga intiladigan boshqa shaxsga (ment) maslahatchi va ustoz rolini o'z zimmasiga oladigan ta'lim jarayonidir. Mentorlik bir necha oy davomida o'qitish, ma'lumot almashish va ma'lum bir loyiha uchun shaxsiy

va professional maqsadlar yoki natijalarga erishishda yordam berishni o'z ichiga oladi.
Ment - o'rganish va rivojlanishni xohlaydigan odam. Bu talaba, intiluvchan mutaxassis yoki biron bir sohada rivojlanishni xohlaydigan kishi bo'lishi mumkin. Ment ko'proq o'rganish, yangi ko'nikmalarga ega bo'lish va qilayotgan ishiga ko'proq ishonch hosil qilish uchun mentorlar bilan ishlaydi.
Zamonaviy mentor maslahat va yo'l-yo'riqlar beradi, o'z bilimi va tajribasi bilan o'rtoqlashadi, boshqa odamga shaxsan yoki professional darajada o'sishiga yordam beradi. Bu yuqori darajali hamkasb yoki o'qituvchi sizga qiyin narsani tushunishga yoki yangi narsalarni o'rganishga yordam beradi, qo'llab-quvvatlaydi va savollarga javob beradi, shunda siz oldinga siljishingiz va maqsadlaringizga erishishingiz mumkin. O'zaro munosabatlar ishonch va o'zaro hurmat asosida quriladi. Mentorlik rasmiy bo'lishi mumkin, aniq belgilangan chegaralar va mashg'ulotlar yoki norasmiy bo'lishi mumkin, bu yerda muloqot va bilim almashish yanada erkin va tabiiy ravishda amalga oshiriladi - har qanday holatda ham siz ustozdan yordam olasiz.
Mentorlik turlari; Mentorlik turli xil shakllarda bo'ladi va ularning har biri turli vaziyatlarga mos keladi. Har bir turning o'ziga xos afzalliklari bor va sizning afzalliklaringizga qarab foydali bo'lishi mumkin. Asosiysi, sizga yoqadigan va kerakli natijaga erishishga yordam beradigan ko'rinishni topish.
Shakl bo'yicha:
-Individual mentorlik - bitta mentor bitta ment bilan ishlaydi. Bu o'qituvchi va talabaga o'xshaydi. Ular yakkama-yakka uchrashib, masalalarni muhokama qiladilar, vazifalar ustida ishlaydilar, yo‘nalishlar belgilab beradilar. Ment mutaxassisning to'liq e'tiborini oladi va ular birgalikda mavzuga chuqur kirib borishlari mumkin. Bu o'zlari va o'z mahoratlari ustida intensiv ishlashni xohlaydiganlar uchun yaxshi.
-Guruh mentorligi - bitta murabbiy bir vaqtning o'zida bir nechta mentorlar bilan ishlaydi. Vaqti-vaqti bilan uchrashadigan doira yoki qiziqishlar klubini tasavvur qiling. Barcha ishtirokchilar birgalikda o'rganishlari, tajriba almashishlari, qo'llab-quvvatlashlari va yordam olishlari mumkin. Mentor guruhni boshqaradi, ishtirokchilarning muloqot qilishiga yordam beradi va hamma bilim va yordam olishini ta'minlaydi. Bu murabbiylar va guruh dinamikasi bilan muloqot qilishni yoqtiradiganlar uchun ajoyib imkoniyatdir.
-Ta'lim bo'yicha mentorlik - bu muayyan ko'nikmalar yoki bilimlarni o'rgatishga qaratilgan bo‘lib, u master-klass, loyiha yoki bir qator darslar bo'lishi mumkin. Mentor/ustoz bu yerda o‘z bilimlarini mentchilar guruhiga yoki alohida talabaga o‘tkazuvchi o‘qituvchi vazifasini bajaradi. Ushbu turdagi ish tezda yangi narsalarni o'rganish yoki ma'lum bir sohada o'z mahoratini oshirishga muhtoj bo'lganlar uchun javob beradi.

Mentor roli bo'yicha:

Rasmiy - hamma narsa oldindan tashkil etiladi: maktabdagi kabi uchrashuvlar jadvali, aniq rejalar mavjud bo‘ladi.
Tabiiy - odamlar bir-birlarini o'zlari topishganda va munosabatlar do'stlik kabi tabiiy ravishda rivojlanadi.

Tengdosh - bu bir xil darajada, lekin turli sohalarda bo'lgan odamlar o'rtasida bilim almashish, masalan, kitob almashish.
Vaziyat - sizga ma'lum bir masala yoki vazifa bo'yicha maslahat kerak bo'lganda, o'tayotgan odamdan yo'nalishni qanday so'rash kerak.
Murabbiylik – mentor muzeydagi tasvirlar haqida gapiradigan git kabi kerakli manbalar va bilimlarni topishga yordam beradi.
Nega mentorga murojaat qilish kerak?
Murojaat qilish shaxsiy va professional o'sish yo'lidagi asosiy qadam bo'lishi mumkin va shuning uchun;
Birinchidan, mentor sizga o'zingiz qilishingiz mumkin bo'lgan ko'plab xatolarni chetlab o'tadigan, boshqa birovning tajribasidan saboq olish uchun eng noyob imkoniyatni taqdim etadi.
U siz bilan qanday qilib karyera qilish, o'sish uchun qanday qadamlar qo'yish va qanday tuzoqlardan qochish kerakligi haqidagi bilimlarini baham ko'rishi mumkin. Bundan tashqari, mentor sizning kasbiy rivojlanishingizga va yangi yutuqlarga hissa qo'shadigan foydali ko'nikmalarni o'rganishda sizning shaxsiy o'qituvchingiz bo'lishi mumkin. Bu sizga nafaqat texnik bilimlarni beradi, balki muloqot va jamoaviy ish kabi muhim nozik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.
Mentorlik motivatsiya elementini ham o'z ichiga oladi. Sizning mentoringiz, ayniqsa shubhalangan va ikkilangan paytlaringizda ilhom va qo'llab-quvvatlash manbai. U sizga kerakli yordamni ko'rsatish orqali o'zingizga va qobiliyatlaringizga ishonishingizga yordam beradi.
Stiv Jobsga Apple kompaniyasining birinchi investorlari va top-menejerlaridan biri Mayk Markkula mentorlik qilgan.
Esda tutingki, mentorlik siz uchun o'z professional tarmog'iga eshiklarni ochishi mumkin. Bu sizning ufqlaringizni kengaytiradi va martabangiz o'sishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Uning yordami bilan siz aloqalarni o'rnatishingiz va muammolarga yangi burchakdan qarashingiz mumkin, bu ko'pincha kutilmagan va samarali echimlarga olib keladi. Nihoyat, mentor sizning maqsadlaringizni aniqlashga va ularga erishish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi., lekin siz jismoniy mashq qilish o'rniga, ongingizni, ko'nikmalaringizni mashq qilasiz.
Esda tutingki, mentorlik o'zaro hurmat va bir-biridan o'rganish istagini talab qiladigan munosabatlardir. Shuning uchun, siz o'zingizning mentoringiz/ustozingiz/maslahatchini qayerdan topsangiz ham, bu munosabatlarni shartlarning ochiqligi, vakolatlarning foydasi, ishonch va halollik asosida qurish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Mentorlik nima va u nima uchun hammaga kerak? Менторство — что это простыми словами, кто такой ментор и для чего он нужен (tutortop.ru)
2.«Элементы Менторинга: 65 ключевых элементов», Брэд Джонсон и Чарльз Ридли.
3.«Наставничество 101: Что нужно знать каждому лидеру», Джон Максвелл.
4.«Элементы стиля», Уильям Странк-младший и Элвин Брукс Уайт.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINING O‘QUVCHI SHAXSINI TARBIYALASHDAGI O‘RNI

Jumanyazova Muhabbat Xusinovna
Urganch davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qish savodxonligi darslarining o‘quvchi shaxsini tarbiyalashdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. O‘qish savodxonligi darslarining mohiyati va vazifalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi darslari, o‘qish malakalari, axloqiy tarbiya, o‘quvchi shaxsi, kasbiy mahorat.

Yosh avlodni boshlang‘ich sinflardan ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalash muhimdir. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinfdagi ona tili ta’limining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda og‘zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o‘stirish, ularni shaxs sifatida shakillantira borishni amalga oshirish hamda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobilyatlarini o‘stirish hisoblanadi. Bolalarni aqliy va nutqiy qobilyatlarini muvaffaqiyatli o‘stirish kelgusida fanlarni puxta o‘zlashtirishga imkonyat yaratadi.

Shuning uchun ham ona tili ta’limiga o‘quv fani sifatida emas, balki butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta’kidlash joizdir. Boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish savodxonligi darslari og‘zaki va izchil nutqni o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga o‘quvchilarda kitobxonlik va nutq madaniyati, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi darslari quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish;
- mutolaaga muhabbat uyg‘otish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish;
- o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish;
-axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;
- nutqi va tafakkurni hamda o‘quvchining fikrlashini o‘stirish. [1]

Hozirgi davrda, ya’ni ta’lim tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilayotgan davrda maktablarimizda ta’limning maqsadi o‘quvchilarga jahon andozalariga mos bilim va malakalarni singdirishdan iborat bo‘lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot (bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o‘zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat) bilan tanishtirish dan iboratdir.

“O‘qish savodxonligi” darsliklarida berilgan deyarli barcha ilmiy-ommabop va badiiy asarlar o‘quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, poklik, do‘stlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Bu jihatdan “O‘qish savodxonligi” darsliklarida har bir mavzuga doir asardan so‘ng berilgan savollar, topshiriqlar, maqol va hikmatli so‘zlar

bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ma’nosini uqib, kundalik ishlari, hayotiy faoliyatlarida qo‘llashga, ularga rioya qilib ish yuritishga ko‘maklashadi. Xususan, 4-sinflardagi “Yagonadir vataning sening!”, “Ona tilim”, “Yetti xazinaning biri”, “Hunarli mingni yengar”, “Kitob va boylik” kabi mavzular [2], 3-sinflardagi “Kitob –aql qayrog‘i”, “Tabiatni asraylik”, “Bola boshidan”, “Oila- kichik Vatan” singari bo‘limlar [3], 1-sinflardagi “Aziz Vatan-jonajon Vatan”, “Kitob bilim bulog‘i-o‘quvchining o‘rtog‘i”, “Bahor keldi- keladi Navro‘z” kabi bo‘limlarda [4] berilgan asarlar bolalarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirib, soflik va ezgulikka chorlaydi.

O‘quvchilarni faqat pand-nasihat bilangina tarbiyalab bo‘lmaydi, balki amaliy mashqlar, kundalik turmush tarzi misolida ibratli ishlarga taqlid etishga undash maqsadga muvofiqdir. Maktabda tarbiya surunkali, izchil olib boriladigan jarayondir. Darsda qaysi asar o‘qitilmasin, o‘quvchilar diqqati ko‘proq uning tarbiyaviy tomoniga qaratilishi lozim.

O‘quvchilarning xulqini shakllantirish va irodasini tarbiyalashda har bir narsa haqida keltiriladigan misollar ularga ta’sir etishi, ularni hayajonlantirishi, quvontirishi kerak bo‘ladi. O‘qish savodxonligi darslarining muhim jihatlaridan biri bolalarni yuksak e’tiqodli, ma’naviy yetuk, mas’uliyatni his eta biladigan inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Bu fazilatlarni yosh avlodga singdirishda o‘qituvchining kasbiy mahorati, ijodiy faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, o‘qish savodxonligi darslari o‘quvchi shaxsini tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi.

O‘qish savodxonligi darslari bolalarning ongli, to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qishlarini ta’minlash bilan birga, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini tarkib toptirishda, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo‘lish kabi zarur malakalarni hosil qilishda ham muhim sanaladi, o‘quvchilarni axloqiy, estetik ruhda tarbiyalashga, nima yaxshi-yu nima yomonligini farqlashga, yaxshi ishlarga ergashish va illatlardan yiroq bo‘lishga o‘rgatadi, mehnat malakalarini egallab, jamoa hayotida faol ishtirok etishlariga yordam beradi.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘rganiladigan asarlar o‘quvchilar qalbida chuqur iz qoldiradi, ularni sevintiradi, iztirobga soladi, o‘ylab mushohada yuritishga undaydi. Shuningdek, “O‘qish savodxonligi” darsliklaridagi rasmlar bolalar tafakkurini, nutqini o‘stirishga hamda ularni ijodiy tahlil qilishga mo‘ljallangan. O‘quvchilar rasmlarni tomosha qilib, tasvirlangan narsa, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildiradilar, ulardan zavq oladilar, o‘zlari ham ijodiy ravishda asar mazmuniga mos rasmlar ishlashga, o‘z taassurotlarini ifodalashga o‘rganadilar.

Darsliklarda berilgan har bir matn o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o‘zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilib, ulardagi eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo‘lish kabi fazilatlarni o‘zlashtirib borishga qaratilgan. Ayniqsa, o‘qilganlarni mazmunli qilib gapirib berish, fikrni jamlash, uzviylikka e’tibor berish ham o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda zarur bo‘ladi.

O‘qituvchi bolalarni darslikka nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga, undan ijodiy foydalanishga, mundarijasiga qarab, kerakli asarni tez topa olishga, o‘qishga kirishish uchun ruhan tayyorlanish va boshqa shu kabi talablarni bajarishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning o‘quv dasturi talablarini o‘zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ularni darsda faol qatnashishga undash, o‘zlashtirish sur’atlari va imkoniyatlariga qarab qo‘shimcha vazifalar berish, darsning qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun mos vazifalardan unumli foydalanish, dars jarayonida bolalar jamoasi e’tiborini jalb qilgan holda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini topish, o‘quvchilarning bilim, malakasini baholash, uyga beriladigan vazifalarni me’yorlash, ulardagi zo‘riqishlarining oldini olish lozim.

Darsni tashkil etishda bolalar e’tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, tasviriy san’at asarlarini maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo‘sinda asosiy mavzuga o‘tish lozim.

O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda, ko‘rgazmali qurollar tayyorlashda o‘quvchilarning didini, nafosat tarbiyasini o‘stiradigan materiallar tanlashi, uning o‘zi esa darsga hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o‘quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. Bunday sifatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zaruriy odatga aylanishi lozim.

Darsda bolalarga to‘la erkinlik berish, o‘qituvchi bilan bolalar o‘rtasida samimiy munosabat bo‘lishi, ishonch va hurmat tobora ortib borishi kerak. Shundagina o‘quvchilar shaxshi shaklana boshlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, uchunchi renessansga poydevor qo‘yishda ma’naviy-axloqiy tarbiya, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarning ongiga Vatan tushunchasini singdirish, ularning duyoqarashini to‘g‘ri shakllantirish, yoshlikdan elim deb, yurtim deb yashashga o‘rgatish, e’tiqodli, g‘ururli bo‘lib o‘sishlariga zamin yaratish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi.- Toshkent, 2023.

2. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi.- 4-sinf. I qism.- Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.-80 b.

3. O‘qish savodxonligi.- 3-sinf. II qism.- Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.-80 b.

4. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi.- 1-sinf. I qism.- Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.-80 b.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS SHAKLLARI

Jo‘rayeva Zilola Sayfiddin qizi
Namangan davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy

dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish borasida tushunchalar keltirilgan. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to‘g‘risida keng tasavvur va tushunchalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, odob, shaxs, rivojlanish, muhit, ma’naviyat, e’tiqod, fazilat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiya o‘zaro bog‘liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo‘lib, ma’naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy ta’lim bolalarga ma’naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo‘lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi zarur.

Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o‘rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning “poydevori” deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a’zosining xulqi-odobiga alohida e’tibor bilan qaraladi. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir.

Jumladan:

1. Axloqiy onglilik.
2. Axloqiy qadriyatlar.
3. Axloqiy his-tuyg‘ular.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi. Axloq – kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob-shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy kamolotida oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘rganiladigan topishmoq, topishmoqli ertaklarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviyaxloqiy tarbiyalashning samarali shakl va metodlari, maktabgacha yoshdagi ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining
hamkorligi yoritib beriladi.

Topishmoq azaldan xalq pedagogikasining oliy namunasi hisoblanadi. Zero, xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri ham topishmoq hisoblanadi. Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so‘z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza

qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Ular tarbiyalanuvchilarni ko‘proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yosh davrida bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish bolalarni faqatgina o‘sha aytilayotgan topishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o‘rtasida bir-biriga mehr, do‘stlik, o‘rtoqlik, hamjihat bo‘lib yashash kerakligi haqida fikrlar bildiriladi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilar tomonidan bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo‘nalishiga ko‘ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

-maqsadi, vazifasi va shakliga ko‘ra turli mashg‘ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish;

-modellashtirish, ya’ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni oldindan belgilash;

-yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko‘ra tarbiyalanuvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini nazorat qilish, ibrat, namuna ko‘rsatish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag‘batlantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda sanab o‘tilgan pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash uchun pedagogik yondashuvni tatbiq qilish zarur.

Maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanashida eng muhim boshqichidir. Shu davrda ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya-tarbiya ta’sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo‘ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab ma’naviy - axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg‘ulotlarda va mashg‘ulotlardan tashqari

vaqtlarda amalga oshirish. Turli xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o‘yin, ommaviy axborot vositalari – oynai jahon, radio va boshqalar bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o‘yin mashg‘ulotlarida yaxshi o‘zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o‘zlashtirib olingan tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib etishlari dastlab mashg‘ulotlarda, keyinchalik o‘yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat uyin mashg‘ulotlarida yaxshi o‘zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o‘zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg‘ulotlarda, keyinchalik o‘yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, musatqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi[2].

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy tarbiya metodlari - bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o‘rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o‘rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o‘rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e’tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo‘l deganingiz bilan yaxshi bo‘lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to‘g‘ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalarni yaxshi ishlar qilishga o‘rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg‘azib qo‘yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo‘yish, yupatish, o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o‘yinchog‘ini o‘rtog‘iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko‘rsatish, eng muhimi boshqalarga ko‘rsatilgan xizmatdan xursand bo‘lishga o‘rgatish. Kamtarlik, to‘g‘rilik, halolik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog‘lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oliyjanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo‘qotib borish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarini boshqa bolalardan ustun qo‘yishga urinadilar, ba’zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday xolatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to‘g‘risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o‘rtog‘iga o‘rgatish kerakligini, o‘z-o‘zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi. Sofdillik va rostgo‘ylikni tarbiyalash yolg‘onchilik va vijdonsizlik paydo bo‘lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog‘liqdir. Ba’zi bolalar o‘zlari to‘qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko‘rgandek qilib ko‘rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan “Ertak” to‘qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak[3].

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalardagi harakterning ijobiy na’munalarini, ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda axloqiy

tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Myxtasar qilib aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida bolaning har tomonlama rivojlanishi, ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bundan ko‘rinadiki, barcha rivojlanish markazlarini talab darajasida to‘g‘ri tashkil etish boshlang‘ich kompetensiyalarni, ya’ni bola shaxsini har tomonlama shakllanishi, ma’naviy-axloqiy sifatlarni uyg‘un rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son.

2.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. - T.,”Ma’naviyat”.2013

3.Xasanboyeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta’lim pedagogika .T.: Ilm ziyo. 2006.

4.Usmanova S.E. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy tarbiya asosida ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish. Education and innovative research 2021. № 1 -92-b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA BOLALAR BILAN ISHLASHDA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Komilova Sarvinoz Turdimatovna

Chust tuman 20-sonli DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Bolalar bilan ishlashning asosiy vositasi pedagogik izlanishdir. Pedagog bolalarga tayyor bilim bermasligi yoki ularga haqiqatni ochib bermasligi, aksincha uni topishga o'rgatishi kerak. Ushbu maqola maktabgacha ta’limda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish tajribasini o'zlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar*:* maktabgacha ta’lim, innovatsiya, dolzarblik, tendensiya,innovatsion ta'lim texnologiyalari,shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim,drama-germenevtika, korrektsion texnologiya

KIRISH.

Hozirgi vaqtda texnik aloqa vositalarining faol takomillashtirilishi tufayli hayotiy innovatsion dasturlar tezda zamonaviy ta'limning umume'tirof etilgan shakl va usullari toifasiga o'tmoqda, ularning negizida innovatsion texnologiyalar paydo bo'lib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga hissa qo'shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni misolida ko‘rsak, innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish (axborot ma’lumotlar bazasini va multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish, uy ta’limi va ota-onalarning ma’lumot olishi uchun raqamli ta’lim resurslarini tatbiq etish, respublikaning barcha

MTMlarini kompyuterlar bilan ta’minlanishini va Internet tarmog‘iga ulanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish) vazifasi alohida belgilangan.[1]

Innovatsion ta'lim texnologiyalari - bu haqiqiy hayotga yangi va yaxshiroq ta'lim shakllarini joriy etish va faol foydalanish imkonini beradigan, ushbu sohada eng maqbul dasturlar va texnologiyalarni tanlash va ularni ommaviy ravishda targ'ib qilish imkonini beradigan o'ziga xos vositadir.

Ta’limdagi innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni jadal rivojlanayotgan dunyomizda hayotga tayyorlashdan iborat. Bunday treningning ma'nosi ta'lim jarayonini inson salohiyatiga yo'naltirish va ularni amalga oshirishdir.

Ta'lim innovatsion faoliyat usullarini ishlab chiqishi, hayotiy muammolarni ijodiy hal qilishga yordam berishi va ijodiy jarayonni insoniyat jamiyati mavjudligining kundalik shakliga aylantirishi kerak. Ilgari noma'lum bo'lgan ta'lim va ta'lim dasturlarini qo'llash orqali innovatsion faoliyat o'qitishni sifat jihatidan yaxshilashga imkon beradi, standart usullarga nisbatan bolaning shaxsiyatini tubdan yaxshi tomonga o'zgartiradi.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Zamonaviy mahalliy tadqiqotlarda innovatsiyalarni tasniflash bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. L. I. Danilenko quyidagi tasnifni beradi:

1) psixologik-pedagogik innovatsiyalar: ta'lim, tarbiya va boshqaruv jarayonlaridagi innovatsiyalar;

2) ilmiy-ishlab chiqarish: kompyuterlashtirish, telekommunikatsiya, moddiy-texnikaviy jihozlash

3) ijtimoiy-iqtisodiy: shaxsni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari, ta'lim tizimini huquqiy ta'minlashdagi innovatsiyalar, ta'lim iqtisodiyotidagi innovatsiyalar [4].

Ta’lim tashkilotining innovatsion ta’lim faoliyati ta’lim jarayoni rivojlanib boruvchi faoliyat, an’anaviy ta’lim faoliyati esa ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlovchi faoliyatdir.

Agar biz I.Dichkovskaya fikricha pedagogik innovatsiyalarni ko'rib chiqsak, bu turli xil pedagogik muammolarning original, nostandart yechimlarini ijodiy izlash natijasidir. Pedagogik innovatsiyalar o'qitishning yangi texnologiyalari, o'ziga xos ta'lim g'oyalari, o'qitish va tarbiyalash shakllari va usullari, ta'lim modellari va natijada boshqaruvga nostandart yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keladi [2].

Innovatsiyalarni boshqarish uchun innovatsiyalar banki (pedagogik g'oyalar) bo'lishi kerak.Hozirgi kunda bizda eng etishmaydigan narsa maktabgacha ta'lim tashkilotini innovatsion texnologiyalar tamoyillari asosida boshqarish bo'yicha malakali tajribadir [5].Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlarni amalga oshirish va undagi shaxsning o'rnini aniqlash boshqaruv faoliyatidagi o'zgarishlardan boshlanishi kerak. Vabu maktabgacha ta'lim tashkilotining innovatsion rivojlanishini boshqarishning yangi ochiq demokratik modellarini izlashni talab qiladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, birinchi navbatda, maktabgacha ta’lim tashkilotining innovatsion rivojlanishini boshqarishning yo‘llari va usullarini ishlab

chiqish, ularni boshqaruv jarayoniga amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish uchun shart-sharoit yaratishimiz kerak, deb hisoblayman.

METODLAR.

Maktabgacha ta’limdagi innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayoniga zamonaviy uslub va komponentlarni joriy etishga qaratilgan. Ushbu texnologiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarini modernizatsiya qilish va yuqori ta'lim natijalariga erishishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning ayrim turlari:

1.Salomatlikni saqlash texnologiyalari: Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun sharoit yaratishdir. U birinchi tibbiy yordam va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha bilimlarni o'z ichiga oladi.

2.Loyiha faoliyati uchun texnologiyalar: Loyihalar bolalarga tadqiqotlarda faol ishtirok etish, muammolarni hal qilish va o'z ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

3.Tadqiqot faoliyati texnologiyalari: Ushbu uslub bolalarda haqiqatga ilmiy va kognitiv munosabatni shakllantirishga yordam beradi.Maktabgacha ta’limda loyiha faoliyati bola tomonidan pedagog bilan birgalikda amalga oshiriladi.Maqsad muammo ustida ishlash, buning natijasida bola savollarga javob oladi. Loyiha ustida ishlash jarayonida bolaning olgan bilimlari uning shaxsiy mulkiga aylanadi va uning atrofidagi dunyo haqidagi mavjud bilimlar tizimiga mustahkam o'rnatiladi.

Loyihalar quyidagi xolatlarda farqlanadi:

-ishtirokchilar soni bo'yicha: individual, juftlik, guruh, frontal;

-davomiyligi bo'yicha: qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli;

-ustuvor usul bo'yicha: ijodiy, o'yin, tadqiqot, axborot;

-mavzu bo'yicha: bolaning oilasi, tabiati, jamiyati, madaniy qadriyatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim loyihalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

"O'yin" - o'yinlar, raqslar va qiziqarli o'yin-kulgilar shaklida guruhda o'tkaziladigan tadbirlar.

"Ekskursiya" - maqsadi atrofdagi dunyo va jamiyatni har tomonlama va ko'p qirrali o'rganish bo'lgan loyihalar.

"Hikoya qilib berish", bu orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini va taassurotlarini nutq, muloqot, namoyish qilish va hokazolar yordamida tushuntirishni o'rganadilar.

"Konstruktsiyalash", bolani o'z mehnati bilan foydali narsalarni yaratishga o'rgatish: qush uyini qurish, gul ekish va hk.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim texnologiyalari bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishiga hissa qo'shadi, uning o'ziga va o'z kuchiga ishonishiga, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishiga yordam beradi. O‘g‘il-qizlar dunyoni quvnoq o‘rganadi, olgan bilimlarini amalda qo‘llashga harakat qiladi.

4.Rivojlantiruvchi texnologiyalar: Ular bolalarning intellektual, jismoniy va hissiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.An'anaviy ta'limda bolaga o'qish uchun tayyor mahsulot, harakat namunasi taqdim etiladi.Rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida

bola o'z harakatlarini tahlil qilish natijasida mustaqil ravishda bir fikrga yoki muammoni hal qilishga kelishi kerak.
5.Korreksion texnologiyalari: Alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda foydalaniladi.Ularning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixo-emotsional stressini bartaraf etishdir. Turlari: ertak terapiyasi, rang terapiyasi, musiqa terapiyasi.
6.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: o'rganish va o'zaro ta'sir qilish uchun kompyuterlar, interfaol doskalar va boshqa vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
7. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar;Shaxsga yo'naltirilgan va o'yin texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolaning individualligini rivojlantirishga yordam beradi. Bu butun ta'lim jarayoni uchun o'ziga xos asosdir. Asosiy e'tibor bolaning shaxsiyati va uning o'ziga xos xususiyatlariga qaratiladi.
Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyaning maqsadi - bola va pedagog o'rtasida demokratik, sheriklik, insonparvarlik munosabatlarini yaratish, shuningdek, bolalarning shaxsiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash. Bolaning qobiliyatiga qarab, pedagog bolaning iste'dodini maksimal darajada oshirish va rivojlantirishga yordam beradigan o'quv o'yinlarini tanlaydi. Bu yerda majburlash, o‘z fikrini o‘rnatishga o‘rin yo‘q. Guruhda, qoida tariqasida, sevgi, o'zaro hurmat va hamkorlik muhiti mavjud.Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar bolaning individualligini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.
8.O'yin texnologiyalari.O'yin texnologiyalari barcha maktabgacha ta'limning asosidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risidagidavlat standarti asosida bolaning shaxsiyati birinchi o'ringa chiqadi va endi butun maktabgacha bolalik o'yinga bag'ishlanishi kerak. Shu bilan birga, o'yinlar ko'plab kognitiv va tarbiyaviy funktsiyalarga ega. O'yin mashqlari orasida biz ob'ektlarning xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradiganlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: ya'ni ular taqqoslashni o'rgatadi; ob'ektlarni ma'lum belgilarga ko'ra umumlashtirishga yordam beradigan; bolaga badiiy adabiyotni haqiqatdan ajratishga o'rgatadiganlar; jamoada muloqotni rivojlantiradi, reaktsiya tezligini, zukkolikni va boshqalarni rivojlantiradi.
Ijodkorlikni birinchi o'ringa qo'yadigan TRIZ texnologiyasini (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi) eslatib o'tish kerak. TRIZ murakkab materialni bolalar uchun oson va tushunarli shaklga joylashtiradi. Bolalar dunyoni ertaklar va kundalik vaziyatlar orqali bilib oladilar.
Drama-germenevtika - bu innovatsion texnologiya bo'lib, u o'z izdoshlariga yagona uslub, model, texnikani o'rgatishni o'z ichiga olmaydi, lekin ularning har biri o'ziga xos, individual uslub, texnikalar tizimini, o'ziga xos metodologiyasini. O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish - bu bolalarga ham, pedagoglarga ham tegishli shior.
"Teatr pedagogikasi" atamasi XX asrning 80-yillarida mutaxassislar va amaliyotchilar tomonidan ko'proq qo'llanila boshlandi. Bu vaqtda teatr sinflari paydo bo'la boshladi.Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishga drama-germenevtik yondashuv mashg‘ulotida barcha bolalar faol, quvnoq va pedagogga emas, balki bir-biriga "murojaat" bo'ladigan tarzda tuzilishini ta'minlaydi. Bunga ta'lim faoliyatining

o'yin shakli va bolalarni kichik guruhlarga tashkil etish orqali erishiladi. Ularning har birida bolalar bir-birlari bilan rollarni o'zgartiradilar va mashg‘ulot davomida "kichik guruh" da joylashadilar. Ta'limga bunday yondashuv bilan bolalarning bevosita ta'lim faoliyati psixologik salomatligiga zarar etkazmasdan sodir bo'ladi.

XULOSA;

Hozirgi kunda mashhur bo'lgan bolalarni erta rivojlantirish usulining muallifi Sessil Lupan o'zining "Farzandingizga ishoning" kitobida shunday yozgan edi: "Yodda tutingki, bolaning bilimning biron bir sohasida erishgan muvaffaqiyatlari barchaning rivojlanishiga yordam beradigan, umuman qobiliyat va bu unga keyinchalik boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi."

Pedagogning innovatsion faoliyati rivojlantiruvchi innovatsiyalarni o‘zlashtirishga kirishish, ta’lim jarayoniga yangi shakllar, usullar, uslublar, vositalar, texnologiyalar, dasturlarni joriy etishdan iborat. Amalda qo'llagan va o'rganib, shaxsiy tajriba va bilimingizdan bolalarni har tomonlama rivojlantirishda foydalansangiz ta’lim taraqqiyotiga, barkamol shaxs tarbiyasiga munosib xissa qo‘shgan bo‘lasiz.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni amalda qo‘llab quyidagi natijalarga erishish mumkin;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning cheksiz va ijodiy fikrlay oladigan ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash;

-tashabbus, qiziqish, iroda, ijodiy o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil faoliyat turlarida bolalarning kommunikativ, kognitiv, o'yin va boshqa faolligini rag'batlantirish;

-jamiyatda shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga va intellektual fikrlash va ijodiy tasavvur darajasini oshirishga qaratilgan zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bolalar ko'nikmalarini rivojlantirish.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni o‘zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlashdan iborat. Bunday o'qitishning mohiyati ta'lim jarayonini inson salohiyatiga yo'naltirish va ularni amalga oshirishdir. Ta’lim innovatsiyalar mexanizmlarini ishlab chiqishi, hayotiy muammolarni hal etishning ijodiy yo‘llarini topishi, ijodkorlikning inson mavjudligi me’yori va shakliga aylanishiga hissa qo‘shishi kerak

Foydalanilgan adabiyotlar;

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni PF-4312

2.Дичкивская И. М. Инновационные педагогические технологии / И. М. Дичковская. — М.: Академиздат, 2012. — 352 с.

3.Инновационный потенциал образования: сборник статей. — М.: Высь, 2018. — С. 5–6.

4.Мармаза О. И. Инновационные подходы к управлению учебным заведением / О. И. Мармаза. — Х.: Основа, 2019. — 240 с.

5.Образовательный менеджмент: учеб.пособ. / под ред. Л. Даниленко, Л. Карамушки. — М.: Школьный мир, 2016. — 400 с.

6.N.I.Ismailova.
Maktabgachayoshdagibolalarnikitobbilanishlashmalakalarinirivojlantirishijtimoiyzar uratsifatida.INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION (NOVEMBER) 2022

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Komilov Xusniddin Shamsiddin o‘g‘li
Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani 4-DMTT

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘l mehnati orqali zamonaviy, qiziqarli hamda foydali buyum, o‘yinchoqlar yasashni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi bolalar ijodkorligini rivojlantirish; maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada ularni oddiy qog‘oz, karton, tabiiy va keraksiz materiallarni qayta ishlash texnikasi bilan tanishtirish; bayram, turli ko‘ngilochar tadbirlar uchun jihozlar va ko‘rgazmali ashyolar tayyorlash; matolardan narsa-buyumlar tikish va mazmunli applikatsiya yaratish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

Kalit so‘zlar: qo‘l mehnati, qayta ishlash texnikasi, qo‘l mehnatining, qo‘l gimnastikasi, bolalar ijodxonasi, qo‘g‘irchoq teatri

Eng avvalo bolalar ijodkorligi ularning qo‘l mehnati tarbiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi har bir yosh guruhida oddiy qog‘ozdan turli qirqish usullari yordamida ajoyib o‘yinchoqlar yasash va ularni bevosita mashg‘ulot soatlari, sayrlar va bayram tadbirlarida qo‘llash samarali natija beradi. Shuningdek, turli tabiiy va yaroqsiz materiallardan esdalik sovg‘alari yasash, tarbiyachi ko‘magida mustaqil ijodiy ishlar bajarish bolalar qobiliyati, tasavvurlarini kengaytiradi va ularning mehnatga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantiradi.

Bugungi kunda pedagog-tarbiyachilar ongida “yangilik kiritish”, “yangi pedagogik texnologiyalar” degan tushunchalar mustahkam o‘rin egallagan. Ushbu ibora zamirida boy mazmun mavjud. Tarbiyachilarning yangiliklarga qiziqishi, yaratuvchanligi bolalarni faol ruhda tarbiyalashga zamin yaratadi. Tarbiyachi har bir faoliyat turi bo‘yicha mahoratli bo‘lishi zarur.

Bolalarning erkin ijod, san’atga bo‘lgan iqtidor va qobiliyatlarini maktabgacha yoshdan boshlab rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ularni yangiliklar olamiga olib kirish lozim. Bolaning ijodkorligi chizgan rasmlari, qo‘l mehnati bilan loy va plastilindan yasagan ishlarida namoyon bo‘ladi. Bola o‘zi bilmagan holda o‘zi uchun yangilik yaratadi, ijod qiladi, yaratgan ijodidan quvonib, g‘ururlanib qo‘yadi. Bolalarning bajargan mehnat faoliyatini rag‘batlantirib borish va ajoyib ko‘rgazmalar tayyorlash, ya’ni muntazam ravishda har bir yosh guruhida ularning ijodiy kechinmalari haqida “Bolalar ijodi”, “Mening tasavvurim” deb nomlangan suhbatlar o‘tkazish samaralidir.

Tasviriy faoliyat va ustaxona mashg‘ulotlarida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tarbiyachilar tomonidan qo‘llanilishi bolalarning mustaqil mehnat qilishi, ishlashi, o‘ylashi, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Ularni hayot

uchun foydali mahsulot yaratishga undaydi.
Bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida mehnat faoliyatiga undashda rivojlantiruvchi muhit yaratib berish zarur. Buning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida:
— qo‘l mehnati xonasi;
— bolalar ijodxonasi;
— qo‘g‘irchoq teatri;
— texnika vositalari bo‘lishi lozim.
Montessorining aytishicha, “qo‘l mehnatining qo‘l gimnastikasidan farqi shundan iboratki, bunda qo‘l uchun mashqlar qilinadi, birinchisining maqsadi esa haqiqatan ham umumfoydali mashg‘ulotni nazarda tutuvchi muayyan ishning ongli bajarilishidir. Biri shaxsni shakllantiradi, boshqasi esa muhitni foydali boyitadi, ammo mehnat ham, bunisi ham bir-biri bilan bog‘liq, zero, faqatgina o‘z qo‘lini mukammallashtirgan insongina foydali mahsulot yaratishi mumkin”.
Quyida bolalarning ijodiy faoliyatini boyituvchi ajoyib o‘yin mashg‘ulotlarini tavsiya qilamiz:
“Ishni oxiriga yetkazing yoki rasmni almashtiring”
Bu o‘yin orqali bolalar boshlagan ishini oxiriga yetkazish, toza va ozoda ishlash, shuningdek, tez va oxirigacha puxta bajarishga o‘rganadi. Bu mashg‘ulotda ikki nafar bola ishtirok etadi, tarbiyachi tomonidan biror mavzuda rasm chizish yoki tayyor rasmni bo‘yash tavsiya etiladi. Bunda ular rasm chizishni boshlagach, tez-tez chizayotgan rasmlarini o‘zaro almashtirib, bir-birining ishini davom ettirishi kerak bo‘ladi.
“Kimning ishi chiroyli?”
Bolalar yasagan o‘yinchoq buyumlarning har biri oq qog‘ozga bir xil joylashtiriladi, so‘ngra ular xattaxtaga bir qator qilib yopishtiriladi. Chizilgan rasmlarga bolalarning o‘zlari baho berishadi. Kimga qaysi ish yoqsa, har bir bola bittadan belgi qo‘yib chiqadi. Kimning ishiga ko‘proq belgi qo‘yilgan bo‘lsa, ana shu ishtirokchi mashg‘ulotning g‘olibi hisoblanadi.
Maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada bola qancha ko‘p yangidan yangi g‘oyalar kashf etsa, o‘yinlar o‘ynasa, tashabbuskor, uddaburon bo‘lsa, kichik-kichik hikoya va ertaklar ayta olsa, ularni sahnalashtirib, o‘zini va do‘stlarining iqtidori va qobiliyatini ko‘rsatishga harakat qilsa, demak, bola ijod qilyapti, ijodkor bo‘lishni xohlayapti…
Bola ijodi tuganmas buloq, sehrli olam, savodxonlik debochasi, kitobxonlik maskani, ajoyib va g‘aroyib narsalar kashf qilish, o‘zgacha muhit yaratish, o‘ziga xos beg‘ubor manzarani namoyish etishdir. Bolalar quvnoq parovozda sayr qilish, ertaklar olamiga kirib borish va qiziqarli bilimlarga ega bo‘lishni juda xohlaydi.
Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi har bir o‘yin va mashg‘ulotlar bolajonlarni o‘ylash, fikrlash, eng muhimi, ijod qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Takomillashtirilgan Ilk qadam Davlat o‘quv dasturi” Toshkent 2022-yil.
2. Maktabgacha Pedagogika Toshkent-2019 Sh.A.Sodiqova

3. F.Qodirova,Sh.Toshpo‘latova,M.A’zamova “Maktabagcha Pedagogika” Toshkent Ma’naviyat 2013
4. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi N.A.Muslimov,Q.A.Abdullayeva Toshkent 2013
5. Nurali Mavlonov “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining axborot kompetentligini rivojlantirish” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining Ilmiy-metodik jurnali Xalq ta’limi 2020-yil, 6-son Toshkent.106-b

MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISHNING TUZILISHI VA MAZMUNI

L.K.Narimbayeva
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tashkilotlarini boshqarishning vazifalari, tashkilotini boshqarish tamoyillari, funktsiyalari va prinsiplari hamda usullari keltirilgan. Shuningdek "boshqaruv,faoliyat" va "jarayon" tushunchalari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Boshqaruv tamoyillari, funktsiyalari, usullari**,** mexanizm, faoliyat, kadrlar tayyorlash, prognoz, mehnat bozori, ehtiyoj, sifat, baholash.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'limning rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda.

O‘zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta’limni tashkil etishning asosiy bosqichlari, asosiy xususiyatlari va maktabgacha ta’lim bo‘yicha yuqori malakali rahbar tayyorlash vazifalari, usul- uslublari, maktbgacha ta’lim bo‘limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, tashkilot ustaviga muvofiq amalga oshiriladi va yagona boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish tamoyillariga asoslanadi.

Ushbu masala bo'yicha bir qancha tadqiqotchi olimlar F. Teylor, A. Fayol, L. Urviklar tomonidan boshqaruv muammosi o‘rganilib, boshqaruv nima ekanligini , boshqaruvning asosiy tamoyillarini , funktsiyalari va usullarini belgilaganlar. Bundan tashqari, ular zamonaviy boshqaruv tizimining asosi bo'lgan "mehnatni ilmiy tashkil etish" tushunchasining mohiyatini shakllantirdilar.

Zamonaviy boshqaruv tizimi K. Yu. Beloy, V. S. Lazarev, M. M. Potashnik, T. I. Shamova, T. M. Davydenkolar tomonidan o'rganilganda, maktabgacha ta'limni boshqarish muammosini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Hozirgi kunda boshqaruv faoliyatining funktsiyalari, uning natijalariga ko'ra tashkilot faoliyati sifati, ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlari, ilmiy yondashuvlar va faoliyatni rejalashtirish, rivojlanish, boshqaruv faoliyati -madaniyati mahalliy ilm-fanda "boshqaruv" atamasi quyidagicha talqin etiladi:

-bir tizimning boshqasiga, bir kishining boshqasiga yoki guruhga ta'siri sifatida;

- faoliyat sifatida;
- sub'ektlarning o'zaro ta'siri sifatida [4]

T. I. Shamova menejment so‘zining ma’nosini, ta'lim muassasasi rahbarlari o'quv jarayonining bajarilishi uchun javobgar shaxs sifatida qaraydi.

A. Burganova esa boshqaruvni, bir tomondan, "faoliyat" va "jarayon" tushunchalari orqali, boshqa tomondan - "ta'sir" toifasidan foydalangan holda ochib beradi. L. A. Burganov boshqaruv ostida boshqaruv tizimining (boshqaruv sub'ekti) boshqariladigan tizimga (boshqaruv ob'ekti) ta'siri bo'yicha maxsus tashkil etilgan faoliyatini tushunadi, bu ta'limda maqsadlarni belgilash, maqsadga erishish va maqsadni o'lchashning birligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlashga qaratiladi degan fikrni ilgari suradi[3].

Boshqaruv deganda rejalashtirilgan natijaga (maqsadga) erishish uchun boshqaruv va boshqariladigan quyi tizimlarning maqsadli o'zaro ta'siri tushuniladi, umuman boshqaruv ob'ektini ta'minlash, shakllantirish, barqarorlashtirish, optimal ishlashi va majburiy rivojlanishiga qaratilgan barcha sub'ektlarning maqsadli faoliyatidir.

Boshqaruv-bu barcha sub'ektlarning har bir ta'lim muassasasining, barcha bo'g'inlarning va umuman ta'lim tizimining shakllanishi, maqbul ishlashi va majburiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha maqsadli faoliyatidir.

Boshqaruv ob'ektlari jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va jarayonlar bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tizimlardagi boshqaruv boshqa tabiatdagi tizimlardagi boshqaruvdan sezilarli darajada farq qiladi: ularda inson boshqaruvchi va boshqariladigan bo'lib, odamlarni boshqarish birinchi o'ringa chiqadi.[2]

Ta'limni boshqarish organlarining vakolatlarini ko'rib chiqsak.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari:

-ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

-ta’lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

-ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;

-ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish, nodavlat ta’lim tashkilotlariga ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish vakolatli organni ushbu sohada faoliyat boshlash to‘g‘risida xabardor qilish, ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarga apostil qo‘yish tartibini belgilaydi;

pedagogik kadrlarni ta’lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi;

-xorijiy davlatlarning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga doir ruxsatnomalar beradi;

-xorijiy davlatlarda olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi;

davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar berish tartibini belgilaydi;

-eksternat tartibida o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini tasdiqlaydi va boshqa vakolatlarga ega.[1]

Shahar, tumanning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim sohasidagi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish vakolatlariga quyidagilar kiradi::

- shahar tuman ta'lim tashkilotlarida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha bepul maktabgacha ta'lim berishni tashkil etish;
- bolalarni nazorat qilish va ularga g'amxo'rlik qilish, bolalarni ta'lim tashkilotlarida ta’lim olish uchun sharoit yaratish;
-nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish, ta'lim tashkilotlari ta'sischilarining funktsiyalari va vakolatlarini amalga oshirish;

Shunday qilib, ta'lim organlari "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, Markaziy organlar (vazirliklar) birinchi navbatda o'z faoliyatini uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish mafkurasi va strategiyasini ishlab chiqishga, uning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga, yirik ijtimoiy-pedagogik eksperimentlarni o'tkazishga, jamoatchilik fikrini tahlil qilishga yo'naltirishlari kerak. Ta'limni rivojlantirishning holati, muammolari va istiqbollari to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish. Quyi boshqaruv organlari yuqori organlar tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar va siyosatni amalga oshirish bilan shug'ullanishi kerak .

Ta'lim tizimini boshqarish qonuniylik, shaffoflilik , ta'lim tizimining axborot ochiqligi va jamoatchilik fikrini hisobga olish tamoyillari asosida amalga oshiriladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. Nosirova. R.X, Gaynazarova G.A, Narimbayeva L.K “Maktabgacha ta’limda rahbarlik” «Malik print co» nashriyoti. Chirchiq 2021y
3. Хомерики О.Г., Поташник М.М., Лоренсов А.В. Развитие школы как инновационный процесс / - М., 1994
4. Чумичева Р.М. Управление дошкольным образованием : учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / - М.: Издательский центр «Академия», 2011. - 400 с

TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Metinqulov Javlon Tulqin o‘g‘li
Jizzax poltexnika instituti asisenti
Eshbo‘riyev Zokir To‘yli o‘g‘li
Jizzax poltexnika instituti talabasi

Annotatsiya. Qadriyatlar plyuralizmi kontekstida kollejlarda estetik tarbiya ichki va tashqi inqirozlarga duch keladi, bu esa estetik tarbiyaning akademik sohadan amaliylikka, ya'ni G'arb falsafasi kontekstida g'arb ma'rifatparvarlik kontseptsiyasiga o'tishi bilan tavsiflanadi. milliy hayotga ta'sir qiluvchi tizimli amaliyotga estetika. Umumiy muammolar estetik ta'limni isloh qilishning yomon moslashuvi, o'quv dasturlari tizimining tarqoqligi va parchalanishi, estetik qobiliyatning professional

bilim amaliyotiga ishonchi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu maqola o'qituvchilarning ushbu noxush holatlarga olib kelishidagi funktsiyalarini o'rganishga, shu tariqa estetik ta'lim siyosatini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga, kasbiy rivojlanishni cheklovchi to'siqni yo'q qilishga va asoslash va nazariya o'rtasidagi ziddiyatni engishga harakat qiladi. asossiz Ushbu maqolada estetik tarbiyani tatbiq etishni “mega estetik ta’lim” falsafasini kelib chiqishidan boshlab qayta qurishdan boshlash, shu bilan birga universitetlarda estetik kurslar uchun o‘quv-tadqiqot bazasini yaratish, estetik kursni o‘qitishni raqamlashtirishga ko‘maklashish zarurligi ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Qadriyat plyuralizmi, Oliy ta’limda estetik tarbiya, Amaliy islohot.

Ta'lim - bu san'atga intilish. Estetik idrok san'at va ta'lim asosining umumiy elementidir. Estetika idrok etish, tahlil qilish va o‘rganishni osonlashtirsa, insonparvarlik va hayotni hurmat qiluvchi qadriyatlarni ham rivojlantiradi.Shu jihatdan estetika tarbiyaning asosi hisoblanadi; Estetik asosga ega bo'lmagan ta'lim etarli darajada samarali va foydali emas[1].

Estetikani muzeylar va san’at asarlari bilan cheklab bo‘lmaganidek, ta’lim-tarbiya muhiti ham maktablar va ularning atrofi bilan cheklanmaydi. Ta'lim - bu o'yinda, ko'chada va hamma joyda, shuningdek, maktabda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan estetik xarakterdagi hodisa. Maktab joylari haqiqiy ta'lim uchun cheklangan joylardir, chunki ular shaxsiyat rivojlanishi, iste'dod, inson va atrof-muhit munosabatlari nuqtai nazaridan umuman etarli emas[2].

Bolaga har bir hodisadan bilim beradigan, uning shaxsiyatini boyitib, iste’dodlarining yuzaga chiqishiga hissa qo‘shadigan eng muvaffaqiyatli maktab ta’lim tizimidir. Haqiqiy ta'lim - bu talabaga mustaqil ravishda o'rganish, tadqiqot qilish va kashf qilish qobiliyatini beradigan usullar va vositalarni taqdim etadigan ta'lim. Maktab ta'limi o'quvchiga qandaydir bilim berishdan oldin, qanday o'rganishni o'rgatish va o'rganishni osonlashtirishdir; U qabul qilish qobiliyatini, idrok etish va hissiy kuchni, voqealarga ko'p qirrali yondashuv bilan muammolarni hal qilish uchun kashfiyot qobiliyatini ta'minlashi kerak. Bu qobiliyatlarning barchasini estetik idrok va estetik tajriba bilan amalga oshirish mumkin[3].

O‘quv dasturiga san’at, ayniqsa, badiiy ijodni kiritishning ahamiyati shundaki, o‘quvchilar o‘z fikrlarini turli konstruktiv usullarda ifodalashga o‘rganadilar. Tarix, matematika va tabiatshunoslik kabi boshqa fanlarda o‘zimizni ifodalash vositalarimiz, g‘oyalarimiz va his-tuyg‘ularimiz nihoyatda cheklangan. Kurslar ko'pincha talabalardan yaxshi baho olish uchun materialni yodlashda mashq qilishni talab qiladi. Bunday mavzular bo'yicha tadqiqot faoliyati, odatda, kiritilmaydi. Boshlang‘ich maktab davrida, bolalarning til ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, san’at o‘zini ifoda etish shakli sifatida qiziqarli va qiziqarli lug‘atni taklif etadi. O'sib ulg'aygan va yangi his-tuyg'ular paydo bo'lganida o'zini ifoda etishda qiynalayotgan yoshlar uchun san'at dam olish muhitini va ular xohlagan o'zini namoyon qilishni taklif qiladi[4].

Badiiy fanlarni o‘quv dasturiga kiritish o‘quvchilarning axloqiy rivojlanishiga ham foydali bo‘ladi. Masalan, ertaklar bolalarga axloqiy qoidalar va to'g'ri odob-axloq

qoidalarini o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantiruvchi turli dalillar axloqiy odatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Abstrakt rasmlar va ba'zi musiqiy asarlar shu xususiyatga ega. Musiqa va she’riyatning axloqiy tarbiyaviy imkoniyatlari borligi ozmi-ko‘pmi ma’lum. Hikoyalar va tasvirlar ham his-tuyg'ularni va g'oyalarni rag'batlantirish orqali harakatga turtki beradi[5].

O'zimizni tushunishimizni chuqurlashtirish uchun san'at va adabiyotning kuchi; U insoniy fazilat, xarakter va sezgirlikni axloqiy va estetik jihatdan shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.

Badiiy shaklda ko'nikmalarni rivojlantiradigan talabalar o'z imkoniyatlarini kashf etadilar. San'at bolalarga ilmiy mavzulardan farqli o'laroq tushunish imkonini beradi. Ular to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar mavjud bo'lmagan hududda bo'lganlari uchun ular tadqiqot va tajribada qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashadilar. Bu maydon, shuningdek, introspektsiya qilish va shaxsiy ma'nolarni topish mumkin bo'lgan joy.

Ta'limning maqsadi o'quvchilarni avtonom, tajribaga boy hayot kechirishlari uchun eng yaxshi holatda qo'llab-quvvatlashdir. Bunday hayot va tajribalar uchun badiiy-estetik tarbiya muhim o‘rin tutadi. Estetik tarbiya bo‘lmagan, san’atga munosib baho berilmagan ta’lim dasturi fazilatli insonlarni tarbiyalashdan uzoqdir[6].

Ta'limda estetikani qanday qo'llash mumkin Ta’limdagi estetika san’at va musiqa ta’limi bilan chegaralanib qolmaydi, chunki u ta’lim muhiti va jarayonlarini go‘zallashtiradigan, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya va qiziqishni oshiradigan yondashuvdir. O‘quvchilarning ta’lim jarayoniga badiiy va estetikani qo‘shish orqali ularning fikrlash, idrok etish va ifodalash qobiliyatlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. U matematikadan fangacha, til o‘rganishdan tortib ijtimoiy fanlargacha bo‘lgan barcha sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Ta'lim tizimida estetik tarbiyani qo'llashning ba'zi usullarini quyidagicha sanab o'tish mumkin:

1. **Ta’lim muhitini loyihalash va jismoniy obodonlashtirish:**
   - Sinf xonalarida va o'quv joylarida ranglarning ta'siriga ko'ra foydalanish; Sinf yo‘laklarini san’at asarlari va o‘simliklar bilan boyitish, jumladan, ergonomik dizaynlar o‘quvchilar e’tiborini jalb qilishi va ularning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishi mumkin.
   - Tabiiy yorug'likdan foydalanish, ortiqcha shovqinni yo'q qilish va sinfni qulay jihozlar bilan ta'minlash kabi jismoniy muhitni sozlash o'quv tajribasini yanada yoqimli qilishi mumkin.
2. Sinf xonalari, koridorlar va maktabning boshqa joylarida talabalar tomonidan yaratilgan san'at asarlari va loyihalari; Talabalar uchun toza va keng muhitni ta'minlash; Baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan keraksiz narsalarni yo'q qilish ta'lim muhitini yaxshilaydi[7].
2. **Estetiklashtirish kursi materiallari va taqdimotlari:**
   - O‘quvchilarning tilimizni eng yaxshi yo‘l bilan o‘rganishiga yordam beradigan turk tili darsliklari va manba kitoblarini tayyorlash va ulardan foydalanishni ta’minlash, ularda go‘zal turkcha foydalanish namunalari ko‘p.

- Vizual va audio materiallardan foydalangan holda kurs mazmunini yanada jozibador qilish. U turli xil videolar, taqdimotlar va interfaol doskalar bilan ta'minlanishi mumkin.
- Darsliklardan tashqari boshqa o‘quv materiallarini o‘quvchilar e’tiborini tortadigan tarzda loyihalash (aqliy intellekt o‘yin vositalari va boshqalar).
- San'at, musiqa, jismoniy tarbiya kabi kurslarni keraksiz deb hisoblamang yoki ushbu kurslarda o'quv darslarini dars mazmuniga mos jihozlardan foydalangan holda samarali o'tkazishga harakat qilmang.
- Ushbu dalillarni bolalar o'yin va ritm orqali osonroq o'rganishiga asoslangan holda akademik darslarda qo'llash[8].

3. **San'at va kashfiyot qobiliyatini targ'ib qilish; Madaniy tadbirlarda ishtirok etish:**

- Talabalarga o'rganayotgan mavzularini badiiy asarlar, hikoyalar, drama yoki musiqa orqali ifodalash imkoniyatini berish. Bu talabalarga mavzularni chuqurroq tushunishga va kashfiyot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Talabalarga muammoni echish ko'nikmalarini oshirish va ularni hal qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga imkon berish uchun estetika orqali muammolarni taqdim etish (dramalardan foydalanish)

1. O‘quvchilarning muzey, teatr, kino kabi madaniy tadbirlarda ishtirokini tegishli darajada rag‘batlantirish o‘quvchilarning estetik qarashlarini yaxshilashi mumkin.
2. Maktabda tashkil etilgan badiiy tadbirlar (tuproq va loydan kulolchilik, ebru ishlari va boshqalar) o‘quvchilarning o‘z badiiy iste’dodlarini kashf etishlariga imkon beradi, shuning uchun bunday muhitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega[9].
4. **O'quv jarayonida sezgilar va texnologiya ta'siridan foydalanish:**

- Sezgi yordamida darslarni tushunarliroq qilish uchun teginish, hidlash, ko'rish va eshitish kabi turli sezgilarga qaratilgan faoliyatni tashkil qilish. Masalan, empatiyani rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlarni o'ynash (ko'r odamning his-tuyg'ularini tushunishga oid o'yinlar va dramalar).
- O‘simliklarning o‘sish bosqichlarini kuzatish, bog‘dorchilik ishlari, tabiatshunoslik darslarida turli tajribalar o‘tkazish; matematika darsida o'yinlardan foydalanish; geografiya darslarida mamlakatimizda o‘sadigan o‘simliklar va urug‘larni o‘rganish; Talabalarga texnologiyadan foydalangan holda virtual haqiqat ko'zoynaklari yoki xaritalar yordamida mavzuni boshdan kechirishlariga imkon berish.

5. **O'qitish usullarini diversifikatsiya qilish va tanqidiy tahlilni targ'ib qilish:**

- Muhokama, hamkorlik, loyihaga asoslangan o'rganish va o'yin o'tkazish kabi turli xil o'qitish usullarini qo'llash orqali o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qilish.
- Muammolarni yechish, loyiha asosida o‘qitish va muhokama qilish kabi usullar orqali talabalarning ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Talabalarga o‘rgangan mavzularini badiiy loyiha yoki taqdimot orqali ifodalash imkoniyati beriladi; Ko'rgazmalar orqali o'z asarlarini taqdim etish imkoniyatini berish

- **O'quv dasturlarini boyitish:**

6. San’at, musiqa, adabiyot kabi darslarni o‘quv dasturiga integratsiyalashuvini kuchaytirish talabalarning estetik hissiyotlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.
7. Hatto fan va matematika kabi "sobit" deb hisoblangan kurslarda ham, san'at va estetikaning ahamiyatini ta'kidlaydigan bo'limlarni qo'shish bu kurslarga boshqacha nuqtai nazar olib kelishi mumkin.
8. Sinab ko'rish darslari qo'shilmoqda
9. **O'qituvchilar tayyorlash:**
7. Muntazam malaka oshirish dasturlari orqali o‘qituvchilarga estetik tarbiyaning ahamiyati va amalga oshirilishi haqida ma’lumot berish.
8. O'qituvchilarning badiiy va estetika bo'yicha o'zlarini takomillashtirishlari uchun seminarlar, seminarlar va treninglar tashkil etish.
9. O‘qituvchilar malakasini oshirish fakultetlari kurslariga estetika va badiiy ta’limni qo‘shish[10].

Ta’limda estetikani qo‘llash o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va intilishini oshiradi, o‘quv jarayonini mazmunli va doimiy qiladi. Ushbu yondashuv talabalarga akademik muvaffaqiyatlarini, shuningdek, tadqiqotchi fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, estetik tarbiyani amalga oshirish o‘quvchida empatiya, hamkorlik, vijdonli tuyg‘u kabi fazilatlarni egallashiga xizmat qiladi.

Xulosa. Universitetlarda estetik tarbiyaga markaziy hukumat tomonidan katta ahamiyat berilgan, ammo yangi davrda qadriyatlar plyuralizmi sharoitida universitetlarda estetik tarbiya amaliyoti ichki va tashqi inqirozga yuz tutmoqda. Bir tomondan, bu inqiroz estetik ta'limning akademik sohadan amaliylikka, ya'ni G'arb falsafiy estetika kontekstidagi G'arb ma'rifiy kontseptsiyasidan fuqarolarning kundalik hayotida harakat qiladigan tizimli amaliyotga o'tishi bilan ifodalanadi. Boshqa tomondan, noxush holatlar estetik ta'limni isloh qilishning yomon moslashuvi, o'quv dasturlari tizimining tarqoqligi va parchalanishi, yangi davrda estetik qobiliyatning professional bilim amaliyotiga takomillashtirilishi bilan namoyon bo'ladi. Buning sabablarini o'rganar ekan, tadqiqotda hukumat, universitetlar va professor-o'qituvchilar oliy o'quv yurtlarida estetik tarbiya amaliyotining dolzarb muammolarini keltirib chiqaradigan uchta asosiy hissa qo'shmoqda, deb hisoblaydi. O'ziga xos ko'rinishlar estetik tarbiya siyosatining darbog'i, estetik ta'lim rivojlanishining fazoviy chegaralanishi, "substantizatsiya" va "desubstantializatsiya" o'rtasidagi ziddiyatdir. Estetik tarbiyani targ‘ib qilish uchun (1) mafkuraviy kontekstdagi “meg-estetik ta’lim”ning amaliy ongini yangi davrda qadriyatlar plyuralizmi kontekstida qayta shakllantirish tavsiya etiladi; 2) oliy o‘quv yurtlarida estetik tarbiya bo‘yicha o‘quv va ilmiy-tadqiqot bazasi yaratilishi; (3) estetik ta'lim o'quv dasturlarini raqamlashtirishni faol targ'ib qilish kerak.

Adabiyotlar

1. Metinqulov, JT, & Irisboyev, FB (2023). O'CHIMCHI VA BO'LMAGAN XOTIRA QURILMALARI. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 2 (10), 116-119.

2. Metinqulov, J. va Xalilova, NM (2024). C++ da fayl kiritish/chiqarish operatorlari. Izohlar va tadqiqotlar .
3. Metinqulov, JT (2024). BIR FAZALI INVERTORLARDA KUCHLANISHNI NAZORAT QILISH.
4. Metinqulov, J. T. (2024). VOLTAGE CONTROL IN SINGLE-PHASE INVERTERS. Modern Science and Research, 3(1), 82-87.
5. Metinqulov, J. T. (2024). LIQUID CRYSTALLINE ON DISPLAY DATA RELEASE. Modern Science and Research, 3(1), 57-60.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI ISH SHAKLLARI

Normurodova Sabina Laziz qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab va oila hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning, shakllari va ularni tashkil etish usullari haqida fikrlar bayon etilgan.
Shuningdek farzand tarbiyasida pedagogik bilimlarni takomillashtirish, yaxlit tarbiya tizimini amalga oshirishda oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktabning hamkorlik ish shakllari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, oila, hamkorlik, ota-ona, bola tarbiyasi, samarali muloqot, maktab,ish shakllari, tavsiya, taqdimot, jamoa.

So‘ngi yillarda yurtimizda tarbiyachi-pedagoglar bilim salohiyatini yanada oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga sifatli ta’lim berish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hali yechimini kutayotgan kamchiliklar talaygina. Bunday masalarni bartaraf etishda maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilalarning hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yosh ota-onalarga metodik tavsiyalar berib borish, ota-onalar ishtirokidagi mashg‘ulotlar, bayram tadbirlari, seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. [5;]
Barcha ota-onalar bolalari uchun eng yaxshisini ravo ko‘rishadi shuningdek ular farzandlarining orzu umidlariga bo‘lgan qiziqishlarini ustun qo‘yishadi. Shu bois maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonini biz to‘laqonli ravishda jamoat birlashmalari bilan bo‘ladigan hamkorlikda olib borishimiz muhimdir. Bunday hamkorlik to‘rtta birlashma orqali amalga oshirilsagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. [4;]
1. Ota-onalar va oila a’zolari.
2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti
3. Mahalla.
4. Maktab.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini olib borish bola hayotidagi ta’lim va tarbiyaning uzviyligi hamda muqobilligini taminlaydi deb o‘ylaymiz. Chunki yosh avlodning aynan maktabgacha yoshidagi davrida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari keyingi ta’lim bosqichlari uchun poydevor bo‘la oladi.

Quyida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligining an’anaviy shakllarini keltirib o‘tamiz:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotining taqdimoti; Ushbu ish shakli natijasida ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkilotiining ustavi, o‘quv dasturi va pedagoglar jamoasi bilan tanishadilar, bolalar bilan ishlashning mazmuni, pullik va bepul xizmatlar haqida foydali ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

2. Maslahatlashuvlar; Odatda konsultatsiyalar tizimi tuziladi, ular alohida yoki ota-onalarning kichik guruhi uchun amalga oshiriladi. Guruh maslahatlariga bir xil muammolarga ega bo‘lgan yoki aksincha, ta’limda muvaffaqiyat qozongan turli guruhlardagi ota-onalar taklif qilinishi mumkin. Maslahatlashuv shakllari mutaxassisning ma’ruzasi, so‘ngra muhokama yoki konsultatsiyaga taklif etilganlarning barchasi tomonidan oldindan o‘qilgan maqola muhokamasi tarzida bo‘lishi mumkin.

3. Vizual tashviqot; Ko‘rgazmali pedagogik targibotning an’anaviy vositalari ota-onalar uchun turli xil stendlar va burchaklardir.

4. Ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar; Ota-onalarga muayyan ta’lim masalasida o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish.

5. Suhbatlar ham individual, ham guruh shaklida olib boriladi; Ikkala holatda ham maqsad aniq belgilangan: nimani aniqlash kerak, qanday yordam berishimiz mumkin. Suhbat mazmuni ixcham, ota-onalar uchun mazmunli bo‘lib, suhbatdoshlarni gapirishga undaydigan tarzda taqdim etiladi. Tarbiyachi nafaqat gapirish, balki ota-onalarni tinglash, ularning qiziqishini, xayrixohligini bildira olishi kerak.

6. Farzand tarbiyasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ota-onalar bilan uchrashuvlar; Ularni seminarlarga taklif qilish tavsiya etiladi. Ishning ushbu shakli o‘rganish va ko‘rsatishga imkon beradi: kitobni qanday o‘qish, rasmlarga qarash, o‘qiganlari haqida gapirish, bolaning qo‘lini yozishga qanday tayyorlash, artikulyatsiyani qanday mashq qilish va boshqalar. [4;]

MTTni ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. “Zero bolalarni tarbiyalash bu kelajakni tarbiya qilmoqdir”. Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro munosabatlariga yangi yondashuvlar, axborot almashinuvi va pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishdagi hamkorlikdan dialogik yo‘nalishdagi ota-onalar bilan tarbiyachining shaxslararo muloqoti sifatida hamkorlikka o‘tishda asosiy tushuncha dialog bo‘lib, u shaxsiy teng muloqotni, birgalikda tajriba orttirishni anglatadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini qabul qiliib, bolaning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta’limga jalb etish maqsadida turli xil to‘garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig‘ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatdir.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning birdek xissasi bor. Chunki bola oilada ilk bor ta’lim-tarbiya olsa, maktabgacha ta’lim tashkiloti uni yanada shakllantiradi. Har bir ota-onada pedagogik bilimlar mujassam bo‘lishi ota-onalarning bolalarni yosh va individual xususiyatlarini bilishga, xulqini to‘g‘ri tahlil qila olishga, uning tarbiyasi uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi-T.:Tib-kitob, 2010.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.

3. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (STEAM ta’lim texnologiyasi asosida) T-2021 yil

4. Abdullayeva Dilnoza Ravshanjon qizi “ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА” Научный электронный журнал. 2022. 05. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila, mahalla va maktab bilan hamkorlikni amalga oshirish metodikasi”.

5. Asqarova Dilorom Qurbonovna Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi Toshkent-2020 95-97 b

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION TA’LIM-TARBIYA BERISHDA FANLARARO ALOQADORLIKDAN FOYDALANISH

Norova Nargiza Xalmamat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxasisligi II bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida innovatsion ta’lim-tarbiya berish usullaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Fanlararo aloqadorlikning mohiyati, uning ahamiyati haqida faktlar berilgan, taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, innovatsion ta’lim, fanlararo aloqadorlik, dars, hamkorlik, tarbiya.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim sohlariga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Har bir sohasini yanada rivojlantirish uchun ko‘plab qaror va qonunlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 466-sonli qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorlarida so‘zimizning isbotini ko‘rishimiz mumkin.

Bolalarga ta’lim va tarbiya berishning eng asosiy bosqichi boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Negaki, bolalar maktabgacha bo‘lgan davrda o‘yin va mehnat faoliyatida ko‘proq bo‘lishadi. Maktabga chiqqanliklaridan so‘ng o‘qish va mehnat faoliyati asosiy o‘ringa chiqadi. Bu davrda bolalarga to‘g‘ri va aniq ma’lumotlar berishda juda ehtiyotkor bo‘lish lozim, chunki bolalar hayoti davomida kerak bo‘ladigan eng asosiy bilimlarni boshlang‘ich sinflarda egallay boshlashadi. Boshlang‘ich sinflarda bilim berishda ularga dunyoning yaxlitligi haqida tushuncha va tasavvurlar hosil qildirish, kelajakda o‘rganayotgan bilimlarni oson o‘zlashtirishga asos bo‘ladi. Bunda boshlang‘ich sinflarda o‘tilayitgan darslarni fanlararo aloqadorlikdan foydalanish asosida kutilayotgan natijalarga erishish mumkin. Bu vaziyatda alohida e’tiborni fanlardagi darslarning o‘zaro moslik jihatlariga qaratish lozim. Aks holda bolada tushunmovchiliklar yuzaga kelishi, darsga qiziqishi so‘nishi mumkin. O‘zaro bir-biriga mos jihatlar aniqlangandan so‘ng, ularni dars davomida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi va o‘qituvchi mahorati namoyon bo‘ladi. Fanlararo aloqadorlik bir necha fanlarda keltirilgan o‘xshash yoki davomli ma’lumotlarni birlashtirishni nazarda tutadi. Integratsiya bolani mustaqil ravishda bilim olishga o‘rgatish, o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish va uning intellektual darajasini oshirish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinflarda u o‘ziga xos xususiyatlarga ega va tabiatan kollektivdir, ya‘ni. “Hammasi haqida bir oz” O‘quvchilar ta‘limning dastlabki bosqichidayoq ko‘plab hodisalar, tushunchalar, ob’ektlar bilan tanishadilar, ammo ular haqida eng oddiy g‘oyalar mavjud. Ular o‘rgangan sari ko‘proq yangi bilimlarni oladilar, mavjudlarini to‘ldiradilar va kengaytiradilar [3]. Fanlarni o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan bilimlari mustahkamlanadi, dunyoqarashi kengayadi. Ammo boshlang‘ich sinflarda dastlabki yillarida integratsiyadan foydalanilmagan maqsadga muvofiq. Negaki, o‘quvchilar endigina maktab ostonasiga kelishgan, yozish, o‘qish, hisoblash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish ham ulardan katta kuch va mas’ulyatni talab qiladi. Sinf bosqichlariga qarab darslarni integratsiyalashga e’tibor berish kerak. Ikkinchi sinfda ikkita fanlar o‘rtasida aloqalarni yo‘lga qo‘yish joiz. Bu vaziyatda o‘quvchilarda chalkashliklar yuzaga kelishini oldi olinadi. O‘zlashtirish oson kechadi, mavzuni yaxshi tushunishadi.

Fanlararo integratsiya nafaqat fanlararo aloqalarga asoslangan o‘quv fanlarining bloklar, komplekslar yoki modullarga an’anaviy kombinatsiyasi bilan belgilanishi kerak. Zamonaviy sharoitda fanlararo integratsiyaning yangi mohiyati (globallashuv,

axborotlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, mehnat bozori dinamikasi va boshqalar) universitetning o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini (maqsadlari, natijalari, mazmuni, shakllari va o'qitish metodikasi) amaliy yo‘nalishini mantiqiy muvofiqlashtirishdan iborat va o‘quv fanlarining bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati mazmuni va texnologiyalari, dolzarb ilmiy va amaliy muammolari bilan mazmun-texnologik aloqasi bilan tavsiflanadi [1].

Fanlararo aloqadorlik ikki yoki undan ortiq ilmiy fanlarni o‘zaro uyg‘unlikda bog‘lashdir. Uning ahamiyati shundaki, turli darslarda qo‘llaniladigan bilimlarni o‘zida musjassamlashtiradi, yagona tizimga solish natijasida yangi fikrlar, g‘oyalar vujudga keladi. Fanlararo aloqadorlik turli fanlar miqyosida, o‘quv rejalar mosligi asosida tuziladi. Didaktik tamoyillar fanlarni birlashtirishni yuqori natijalarga olib chiqadi va fanni o‘zlashtirishda boshqa fani ahamiyatini kasb etadi. Bu izchillik natijasida o‘quvchilarda kasbiy komptensiyalar shakllanadi. Har bir qilayotgan ishiga, olayotgan bilimiga kompleks yondashishga o‘rgatadi. O‘quv dasturlaridagi fanlarni bog‘lash jarayonida o‘quvchilarda dunyoning yaxlitligi, biror narsa, voqea-hodisalarning bir-biriga bog‘liqligi haqida tushuncha va tasavvurlar paydo bo‘ladi.

Dars davomida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yishda o‘qituvchidan alohida tayyorgarlik talab qilinadi. Fanlararo aloqadorlikning amalga oshirishga quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- O‘tilayotgan darsning mazmun-maqsadini hisobga olgan holda, yondosh mavzularni topish va o‘xshash jihatlarini aniqlab olish;
- Ular o‘rtasidagi aloqalarni jamlash va yetkazib berishda usullarni tanlash;
- Ma’lumotlarni tizimlashtirish va uning ahamiyatini ochib berish;
- Dars strukturasini tuzish, takrorlangan ma’lumotlarni olish, yangi manbalarni joylashtirish;
- Darslar o‘rtasida aloqadorlikni vujudga keltirish.

Fanlararo aloqalarning birinchi tasniflari vaqt mezonlariga asoslanadi: oldingi (dastlabki), hamrohlik qiluvchi va istiqbolli (keyingi). Keyinchalik bilimlar mazmunini element bo‘yicha tahlil qilish fanlararo aloqalarni o‘rnatish usuli sifatida rivojlana boshladi. Xronologik aloqalar bilan bir qatorda axborot aloqalari ham aniqlandi: faktik, kontseptual, nazariy. Muloqotning har qanday holati fanlararo aloqalarning uchta belgisi va turlarini o‘z ichiga olishi kerakligi, konstruktiv asosi yetakchi ilmiy g‘oyalar va ular bilan bog‘liq faoliyatning umumlashtirilgan usullari bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmualarini aniqlash zarurligi to‘g‘risida adolatli bayonot [2]. Fanlararo o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilayotgan muammolarning dolzarbligi o‘quvchilarda aqliy va jismoniy muhim bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga asos bo‘ladi. O‘qituvchi boshchiligidagi bilim berish jarayonida olinayotgan bilimlar kompetensiyaga asoslangan yondashuvning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ta’lim tizimida fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini mukammal tarzda tashkil etishni nazarda tutishimiz mumkin.

Fanlararo aloqa didaktik tamoyil sifatida ta’limni rivojlantirish texnologiyasi va metodologiyasiga kirishi, ushbu pedagogik tizimning nazorat ta‘sirini kuchaytirishi

kerak. Shu sababli fanlararo ta’lim zamonaviy o‘qitish tamoyiliga asoslangan ta’limni taqozo etadi, bu bir qator fanlar bo‘yicha o‘quv materialini tanlash va tuzilishiga ta’sir qiladi, o‘quvchilar bilimining izchilligini oshiradi, o‘qitish usullarini faollashtiradi, ta’limni tashkil etishning murakkab shakllaridan foydalanishga yo‘naltiradi, o‘quv materialini tanlash va tuzilishiga ta’sir qiladi. va birligini ta’minlaydi. U yoki bu tarzda fanlararo aloqalarni tizimli amalga oshirishda kasb-hunar maktabi o‘quvchilarida muayyan hodisalarni tushuntirishda bir mavzu doirasida cheklanmaslik zaruriyatini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘rganilayotgan har bir fanga oid bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish, o‘quvchilarni aniq bir xulosaga kelishga, muammolarga yechim topa bilishga, ma’lumotlarning asosli va uzviyligi haqida yagona xulosalarga kelishiga zamin yaratadi. Aqliy faoliyatni rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga va qaror qabul qilishga tayyorlaydi. O‘quvchilarda o‘zlashtirayotgan bilimlarini mantiqiy ketma-ketlikda davom ettirish, darslarga kompleks yondashuv qobiliyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Файзуллаева Нилуфар. (2024, March 31). МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ КАК УСЛОВИЕ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ. https://doi.org/10.5281/zenodo.10900658

1. Зникина Людмила Степановна, Стрельников Павел Алексеевич Междисциплинарное взаимодействие как основа формирования интегративных компетенций студентов вуза // Вестник КГУ. 2014. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdistsiplinarnoe-vzaimodeystvie-kak-osnova-formirovaniya-integrativnyh-kompetentsiy-studentov-vuza
2. Shamshimetova Dilafruz Mirzaxmetovna. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF MASHG‘ULOTLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYA SHAKLLARINI LOYIHALASHTIRISH. International Scientific and Practical conference "Topical Issues of Science", New York university. https://doi.org/10.5281/zenodo.6620259

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM MUTAXASSISLARINING AXLOQIY-EKOESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Oygul Ashurova Anvarjonovna

Farg‘ona Davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tizimida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini yaratish maktabgacha ta’limdan boshlanishi, tabiatga muhabbat bilan munosabatda bo‘lish tafakkurini bolalikdanoq shakllantirish kerakligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ekoestetika, axloqiy-ekoestetik bilim, ekologik-ekoestetik ta’lim omillari, ekologik ta’limning asosiy tamoyillari.

Bo‘lajak tarbiyachilarni axloqiy-ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda pedagogik jarayonni texnologik yondashuvga asoslanib, bir butunlikda tashkil etilsa samarali natija beradi. Ya’ni ekologik tarbiya va u asosida ekoestetik madaniyatini rivojlantirish borasidagi barcha ishlarni uzviy bog‘liq holda amalga oshirilsa va shu tadbirlarnining har biri bosqichma-bosqich bo‘lajak tarbiyachilarni ta’lim-tarbiya jarayonini mohirona, yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etishiga tayyorlasagina, u bir butun tizim sifatida aniq maqsadga erishadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning ekoestetik madaniyatini rivojlantirish jarayonida ularning kasbiy faoliyatga oid amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishlari bosqichma-bosqich, uzluksizligi ta’minlangan holda amalga oshirilishiga e’tibor qaratildi.

Bolalarga tug‘ilganda muloqot qilish, o‘rganish va rivojlanish uchun jismoniy, ijtimoiy, psixologik imkoniyatlar ijtimoiy muhitda yaratiladi. Bu imkoniyatlar o‘z vaqtida aniqlanib, qo‘llab-quvvatlansa, rivojlanib boradi. Bolalar bilan muntazam shug‘ullanish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davom ettiriladi va qobiliyatlarning rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Tadqiqotchilar, maktabgacha yosh davrini ijodkorlikka yo‘naltirishning oltin davri deb hisoblashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual moslashuvchanligi bevosita ularning ijodiy qobiliyatlari qay darajada shakllanganligiga bog‘liq. Shuningdek, ijobiy va muvaffaqiyatli natijalarni ko‘rsatishga bo‘lgan intilish ham bolalarda ijodiy fikrlash natijasida tarkib topishi kuzatuv va tajribalarda o‘z aksini topgan. Mana shu muhim jihatlarni hisobga olib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha mazkur variativ dastur orqali DMTTda qo‘llaniladigan ta’lim dasturlariga qo‘shimcha ravishda bolalarga yordam berish maqsadga muvofiqdir. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirish asosida ular tarbiyalaydigan bollarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tabiatdan ilhom olish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislariga estetik tarbiya berishdan maqsad – bo‘lajak kadrlarning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilish kabi xislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya’ni go‘zallikni his qilishni o‘rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g‘ichirlashi bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotini tarbiyalashda va o‘stirishda boy material bo‘lib xizmat qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg‘ularning o‘sishi esa, o‘z navbatida san’atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o‘rganish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarning ekologik-estetik dunyoqarashini tarbiyalash orqali ularning pedagogik mahoratini oshirish, bolalar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish maqsad qilinmoqda. Fikrimizcha, bolalarni tarbiyalashda

tabiat go‘zalligini, so‘ngra san’at go‘zalligini his etishga yo‘naltirish kerak. Tabiatdagi va san’atdagi go‘zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-tuyg‘ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bog‘cha yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg‘ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, ulardan bahramand bo‘lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg‘o-nishi uchun oylar, yillar kerak bo‘ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki bog‘cha hovlisidagi hushmanzara gullarni, chiroyli bog‘ hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 1-3-bosqich talabalarining pedagogik jarayonning uzluksizligi quyidagi kasbiy faoliyat jarayonlarini tashkil qilishga asos bo‘ladi.

bolalarni maktabga tayyorlash;
mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;
jismoniy va hissiy rivojlanish;
tasviriy faoliyat;
nutqni o‘stirish faoliyati.

Bo‘lajak tarbiyachilarni ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik jarayonning mazmundorligini oshirishga e’tibor qaratildi. Bo‘lajak tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan turli ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan:

Ekoestetik madaniyatini rivojlantirishga oid ma’ruzalar rukni tashkil etildi: “Ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy mohiyati” mavzusida baxs-munozara o‘tkazildi. Bahs-munozaraning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida tarbiyachilik kasbi va bu kasb egalari faoliyati uchun davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, ekoestetik madaniyatini rivojlantirish zarurati, ijtimoiy ahamiyati hamda maktabgacha ta’lim muassasalarini ijtimoiy himoyasi haqida ma’lumot berishga qaratildi. Sharafli kasbni tanlagan bo‘lg‘usi tarbiyachilarda o‘z kasbiga muhabbat uyg‘otish va mas’uliyatni oshirish masalalari hal etildi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashtirish mavzusida ma’ruzalar tashkil etildi. Ma’ruzalarning maqsadi: O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yangilash, takomillashtirish, moddiy ta’minotini rivojlantirishga qaratilganligi haqida ma’lumotlar berishdan iborat. Bo‘lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta’lim muassasalari DTS va sohaga oid barcha meyo‘riy hujjatlarni o‘zlashtirish, ulardagi talablar asosida ekoestetik madaniyatini rivojlantirish ko‘nikmalari shakllantirildi.

Bo‘lajak tarbiyachining axloqiy sifatlariga qaratilgan suhbat tashkil etildi. Suhbatning maqsadi: Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy va shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga qaratildi. Suhbat jarayoniga ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan, malakaviy tarbiyachilar ham jalb etildilar. Ular o‘z tajribalari asosida tarbiyachining shaxsiy sifatlari haqidagi fikr-mulohazalarini bildirdilar. Shu bilan birga bo‘lajak

tarbiyachi talabalar ham tarbiyachining odobi haqidagi mulohazalarini ifoda etdilar. Mazkur suhbat asosida bo‘lajak tarbiyachilarda quyidagi kasbiy sifatlarni shakllantirishga e’tibor qaratish zarur deb topildi hamda tarbiyachilarning kasbiy sifatlari va odobini tizim shakliga keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. Theoretical & Applied Science, (5), 425-427.
2. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1478-1484.
3. Ashurova, O. A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(05), 46-52.

ОБЩАЯ СИСТЕМА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

О. Н.Насиров
Ташкентский экономика-педагогический институт
Кандидат исторических наук, доцент

Аннотация: В статье рассматривается общая система народного образования Основные элементы системы народного образования являющиеся начальное, среднее, общее и профессиональное образование.

Ключевые слова: система, образование, структура, закон, практика, звено, дошкольный.

Под системой народного образования понимается совокупность учебно-воспитательных учреждений, предназначенных для осуществления целенаправленного обучения и воспитания населения каждой отдельной страны. Система народного образования возникает в период, когда образование становится достаточно распространенным, когда получают развитие не только учреждения для обучения и воспитания детей господствующего класса, но и появляются и различные школы для детей трудящихся. Системы народного образования начали складываться в первую очередь в экономически развитых странах примерно с середины XVIII в. Слово «система» предполагает наличие определенных элементов, ставляющих ее структуру, и различных связей между ними. Основными элементами (звеньями) системы народного образования являются начальное, среднее общее и профессиональное образование. Уже к середине XIX в. в большинстве развитых стран были изданы законы о всеобщем обязательном начальном обучении. Звено, дающее среднее образование, как правило, включает несколько типов школ. Некоторые из них обеспечивают только общее образование, в других — получение общего образования сочетается с какой-либо практической или профессиональной подготовкой.

Дошкольное образовательное учреждение – первое и самое ответственное звено в общей системе народного образования. Овладение родным языком является одним из самых важных приобретений ребенка в дошкольном детстве. Именно дошкольное детство особенно сенситивно к усвоению речи. Поэтому процесс речевого развития рассматривается в современном дошкольном образовании, как общая основа воспитания и обучения детей.

Овладение речью — одна из самых сложных и таинственных проблем детской психологии и педагогики. Остается непонятным, как маленький ребенок, не умеющий ни на чем сосредоточиться, не владеющий интеллектуальными операциями, всего за 1—2 года практически в совершенстве овладевает столь сложной знаковой системой, как язык.

Речь, как исторически сложившаяся форма общения развивается в дошкольном детстве. Путь, который проходит ребёнок в первые годы жизни, поистине грандиозен. Ребёнок пользуется речью для того, чтобы выразить свои мысли, чувства, т.е. воздействовать на окружающий мир. Речь маленького ребёнка формируется в общении с окружающими его взрослыми, а в дошкольном учреждении и на занятиях по развитию речи. В процессе общения проявляются его познавательная и предметная деятельность. Овладение речью перестраивает психику малыша, позволяет воспринимать ему явления более осознанно и произвольно.

К.Д.Ушинский говорил, что родное слово является основой всякого умственного развития и сокровищницей всех знаний. Своевременное и правильное овладение ребенком речью является важнейшим условием полноценного психического развития и одним из направлений в педагогической работе дошкольного учреждения. Без хорошо развитой речи нет настоящего общения, нет подлинных успехов в учении.

Развитие речи — процесс сложный, творческий и поэтому необходимо, чтобы дети, возможно, раньше хорошо овладели своей родной речью, говорили правильно и красиво. Следовательно, чем раньше (по мере возрастных особенностей) мы научим ребёнка говорить правильно, тем свободнее он будет чувствовать себя в коллективе.

Развитие речи — это целенаправленная и последовательная педагогическая работа, предполагающая использование арсенала специальных педагогических методов и собственные речевые упражнения ребенка.

В работе с детьми дошкольного возраста используются следующие средства речевого развития детей: общение взрослых и детей, культурная языковая среда, обучение родной речи и языку на занятиях, различные виды искусства (изобразительное, музыка, театр), художественная литература. Развитие речи в процессе ознакомления с художественной литературой занимает большое место в общей системе работы с детьми. Художественная литература является важнейшим источником и средством развития всех сторон речи детей и уникальным средством воспитания. Она помогает почувствовать красоту родного языка, развивает образность речи.

Традиционно в отечественной методике развития речи выделяется значение, которое объединяет большое разнообразие жанров произведения, сюда относятся сказки, рассказы, стихотворения, загадки и т.д. Воспитательные и образовательные возможности загадки многообразны. Особенности содержания и структуры загадки как литературного жанра позволяют развивать логическое мышление детей и формировать у них навыки восприятия.

Pronouns play a crucial role in language, reflecting the gender binary that exists in many societies. In English, pronouns such as "he" and "she" are used to differentiate between males and females. Arabic, on the other hand, utilizes separate pronouns depending on the gender of the speaker. For example, the pronoun "huwa" is used for males, while "hiya" is used for females. This distinction in pronouns reinforces gender differentiation in Arabic, whereas English has a more binary approach.

2. Gender Marking in Nouns:

Languages vary in their use of gender marking in nouns. In English, nouns are largely gender-neutral, whereas Arabic assigns genders to most nouns. For example, in Arabic, the word for "teacher" is "mu'allim" for a male teacher and "mu'allima" for a female teacher. This gender marking reinforces gender distinctions and can influence perceptions of gender roles within society.

3. Gender Agreement in Verbs and Adjectives:

Both Arabic and English have gender agreement in verbs and adjectives, but their approaches different. In Arabic, verbs and adjectives must agree with the gender of the noun being described. For example, "smart" in Arabic would be "dhakiyy" for males and "dhakiyya" for females. In English, gender agreement is less common, with adjectives and verbs often remaining the same regardless of gender. However, there are instances where gendered adjectives like "handsome" and "beautiful" are used, though they are not as pervasive as in Arabic.

4. Sociolinguistic Factors:

In both Arabic and English, sociolinguistic factors play a significant role in gendered expression. For instance, cultural expectations may influence language use. In Arabic-speaking societies, there can be a greater emphasis on honorifics and respectful language when referring to individuals of a higher social status or when addressing women. In English, sociolinguistic factors can manifest in terms of gendered language stereotypes or patterns of speech associated with particular genders.

In conclusion, the comparative analysis of gender linguistics in Arabic and English offers insights into how language reflects and shapes gender dynamics within a society. Arabic exhibits a higher level of gender marking and differentiation compared to English, reflecting cultural norms and reinforcing gender distinctions. Understanding the nuances of gendered language usage can lead to greater awareness of the societal structures and power dynamics linked to gender. This knowledge is crucial for promoting gender equality, challenging gender stereotypes, and fostering inclusive language practices within Arabic and English-speaking communities. In conclusion, the usage of gender in Arabic and English reflects cultural attitudes towards gender roles and stereotypes. While Arabic has a more prominent use of gendered nouns, adjectives, and verbs, English is moving towards a more gender-neutral language. The debate over the use of gender-neutral language reflects broader discussions about gender equality and inclusivity in society.

References

1. Cameron, D. (2008). The myth of Mars and Venus: Do men and women really speak different languages? Oxford University Press.
2. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2013). Language and gender. Cambridge University Press.
3. Lakoff, R. T. (1975). Language and woman's place. Harper & Row.
4. West, C., & Zimmerman, D. H. (1987). Doing gender. Gender & Society, 1(2), 125-151.
5. Pauwels, A. (Ed.). (2003). Women changing language. Routledge.
6. Sunderland, J. (2006). Language and gender: An advanced resource book. Routledge.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY TARBIYA ASOSIDA MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Sattorova Shaxlo Axadovna
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari, afzalliklari, muammo va yechimlari xususida so‘z yuritiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash holatini o'rganish muhim vazifa sanaladi. Shu boisdan ushbu maqolada biz maktabgacha yoshdagi

bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xorijiy mamlakatlar tajribasidagi integratsion yondashuvdan foydalanishning ahamiyati xaqida so'z yuritildi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, integratsiya, tarbiyachi, bolalar, ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya usullari, ijodiy barkamollikka erishish, intellektual, axloqiy tarbiya, estetik hislar, jismoniy rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta‟lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dastur»ning asosiy maqsadli vazifalari va yo‘nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Qarorga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etilgan hamda uning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilangan: maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish; mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb-hunarlarni egallashi, ma’nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” ustuvor vazifa etib belgilangan. Mana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizda maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish, uning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilind. Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolaning ongiga singdirilgan bilim va ma’naviy qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli o‘zaro va oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish, bolalar tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish, uyg‘un rivojlangan bola shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning

folklor san’atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma’lum. ... Folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa, bu – insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir». Yosh maktabgacha ta’lim davri bolalariga beriladigan ma’naviyaxloqiy tarbiya bevosita M.Koshg‘ariy, U.Kaykovus, A.N.Forobiy, al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, A.Navoiy kabi sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida keltirilgan alla, ertak, maqol, topishmoqlarga va xalq tilidan yozib olingan xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali singdiriladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi davr - bu 3-4 yosh oraligida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir; ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib ahloqiy o‘z–o‘zini boshqarish; uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat’iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta’sirida o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni integral tarzda ma’naviy axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi: Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ma’naviy-axloqiy me’yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Xulosa qilib aytganda bog‘cha yoshidagi davrining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakllanib ahloqiy xarakterning asoslari vujudga keladi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanılgan adabıyotlar:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. - T.:2018 y.
2. G.I.Xasanova “Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jizzax: 2020. 420 bet. 223- 225b
3. Xasanova, G. (2021). Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.

UMUMTA’LIM MAKTABLARI TIZIMIDA BADIIY TA’LIM MUAMMOLARI

Tursunov Shavkat Sharibjonovich
NamMQI “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda umumta’lim maktablari tizimida badiiy ta’lim muammolari atroflicha tahlil qilinib, bugungi ta’lim jarayonlarini zamon talablariga muvofiq rivojlantirishga oid fikrlar keltirilgan.

Kalit sozlar: umumta’lim, badiiy ta’lim, tasviriy san’at, chizmachilik, san’at tarixi, estetik tarbiya, qadriyat, hissiy-ahloqiy tarbiya.

Ta’lim har doim jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog‘liq holda mavjud bo‘lib kelgan. Axborot makonining doimiy tezlashishi, kengayib borishi va yangilanishi bilan ajralib turadigan zamonaviy madaniyat psixologik, ijtimoiy, madaniy, kasbiy jihatdan oldingi avlodlardan farq qiladigan yangi shaxsni yaratadi[1]. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy jamiyatda turli va o‘zgaruvchan postmodern makonda hayot uchun zarur bo‘lgan "kompas" sifatida shaxsning badiiy va estetik rivojlanishini dolzarblashtirish zarurligini sezmaslik qiyin. Shubhasiz, san’atni o‘rganish zarurati jahon va mahalliy madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘lish uchun insoniyat badiiy madaniyati asoslarini o‘zlashtirishning muhimligi bilan, o‘zlashtirilgan umumiy badiiy kompetensiyani kundalik hayot madaniyatida qo‘llash, shaxsiy va kasbiy madaniyatni rivojlantirishga yordam berish bilan belgilanadi.

Eng konservativ ijtimoiy tuzilmalardan biri bo‘lgan ta’lim tizimi bugungi kunda zamonaviy davr talablariga, jamiyatning ijtimoiy tartibiga javob beradigan doimiy o‘zgarishlarga majbur. Bu ijtimoiy tartib nima?

18-asr fransuz faylasufi Deni Didro: “Rasm chizishni ham yozishni o‘rgatgandek o‘rgatadigan mamlakat tez orada san’at, fan va hunarmandchilik bo‘yicha boshqa barcha mamlakatlardan o‘zib ketadi”[2] deb yozgan edi.

Bu yerda jiddiy muammo tug‘iladi: qaysi ta’lim fanlari muammoni hal qilishga qodir? Matematika yoki tabiatshunoslik fanlari ahloq va ma’naviyatni to‘liq tarbiyalashi, o‘quvchini madaniy qadriyatlar olamiga singdirishi, ijodiy salohiyatini rivojlantirishi dargumon. Bu vazifani faqat insonparvarlik va badiiy-estetik xarakterdagi ob’ektlar bajaradi. “Tasviriy san’at”, “Jahon san’at tarixi” (xozirgi ta’lim standartida yo‘q), “Chizmachilik” kursi inson shaxsiyatining hissiy va qadriyat sohasini rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy adekvatlikni shakllantirishga umuminsoniy va fuqarolik xulq-atvori sohasida, tabiatga, zamonaviy jamiyatga, madaniy merosga bo‘lgan munosabatlarda, hayotingizni qurishda yordam beradi.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarida DTS asosida olib borilayotgan tasviriy san’at darslari 1-sinfdan 7-sinfgacha haftasiga 1 soatni, 8-9-sinflarda Chizmachilik darslari haftasiga 1 soatni tashkil etadi. Ayni o‘smirlarni balog‘at davriga qadam qo‘yayotgan davri ya’ni 10-11-sinflarda esa na san’at, na chizmachilik dars soatlari mavjud. Demak biz bu orqali standartlarni ishlab chiquvchilarga o‘smirlar va yoshlarga san’at darslari shart va u orqali ularda go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirish, yuksak estetik didni shakllantirish, san’at asarlarini tushunish va

qadrlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradigan yagona ta’lim sohasi, tarixiy va me’moriy yodgorliklar, o‘z ona tabiatining go‘zalligi va boyligi, ya’ni mohiyatan belgilangan tarbiyaviy-ma’rifiy vazifalarni hal etish shart degan fikr uyg‘otishimiz zarur. Rivojlangan davlatlarning ta’lim standartlarini o‘rganish va mentaliltetimizga moslaridan foydalanish yoki o‘rganishning, qo‘llashning nima yomon tomoni bor.

Afsuski so‘ngi yillarda maktablarda tasviriy san’at va chizmachilik darslari soatlari kamligi sababli ushbu fan bo‘yicha mutaxassislarni ta’lim jarayonlaridagi faoliyati sezilmayapti. Birinchi muammo soatlarning kamligi bo‘lsa, ikkinchi muammo esa maktab rahbarlarining ushbu fanlarni o‘qitilishiga bo‘lgan sovuqqonligidir[3]. Chunki bu fan bo‘yicha soatlar maktablarda Zahira soat sifatida ushlab turiladi va qaysidir fan o‘qituvchisiga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha dars soati yetishmasa berildi. Natijada tasviriy san’at va chizmachilik darslari turli fan o‘qituvchilari tomonidan uquvsizlarcha olib boriladi. Muammoning yana bir jihati esa maktablardagi boshlang‘ich sinflardagi (1-4-sinflar) tasviriy san’at darlari garchi ushbu fan bo‘yicha mutaxassis bo‘lsada unga emas balki o‘sha sinflarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga beriladi.

Ma’lumki, maktab o‘quvchilari uchun chizmachilik kursi fikrlashning analitik va ijodiy (shu jumladan kombinatorik) tarkibiy qismlarini shakllantiradi va o‘quvchilarning statik va dinamik fazoviy tushunchalarini rivojlantirishning asosiy manbai hisoblanadi[4]. Hech kimga sir emaski, ko‘pchilik o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlari yetarli darajada rivojlangan emas. Maktab chizmachilik kursi maktab o‘quvchilariga atrofdagi dunyoni tushunish vositalaridan birini o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilarning umumiy va politexnik ta’limi uchun katta ahamiyatga ega, maktab o‘quvchilarini zamonaviy texnika va texnologiyalar sohasidagi muhandislik-texnik bilimlar elementlari bilan tanishtiradi. ishlab chiqarish, o‘quvchilarning texnik fikrlash va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

XXI asrda o‘zbek zamonaviy maktabi bu muammoni hal qilishda klassik fanlarga tayanib, badiiy ta’lim va estetik tarbiyani hayot va san’atdagi estetikani idrok etish va qadrlay oladigan bolaning ijodiy faol shaxsini shakllantirishning maqsadli jarayoni sifatida tushunishi va "go‘zallik qonunlariga ko‘ra" yaratishi va zamonaviy pedagogikada bu pozitsiyadan ta’lim va ta’lim jarayonini qurishda davom etishi kerak. Bu nuqtai nazarga qarshi chiqish qiyin, lekin shuni unutmaslik kerakki, zamonaviy o‘smirlar va yoshlar bugun, axborot jamiyatida, postmodernizm dunyosida yashamoqda.

Binobarin, san’atni o‘qitishda metodlar va pedagogik yondashuvlar o‘zgarishi kerak, eng muhimi, ushbu o‘quv fanlari mazmunini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Badiiy ta’lim mazmuni masalasi munozarali: nima muhimroq - klassik meros yoki zamonaviy badiiy tajribalar; dasturda an’anaviy va zamonaviy asarlar necha foizda aks ettirilishi kerak; Asarlarni tanlash va baholash qanday mezonlar asosida amalga oshiriladi?[5] Biz hozir bu savollarga javob bermaymiz; biz hali ham o‘ylashimiz, muhokama qilishimiz va maslahatlashishimiz kerak. Shunisi aniqki, maktab o‘quvchilarini zamonaviy san’at bilan tanishtirish kerak, chunki ular klassik

misollarning yopiq makonida emas, balki oson kirish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar va ruxsat beruvchi global jamiyatda yashaydilar. Shu sababli, bugungi kunda badiiy ta’limning vazifasi maktab o‘quvchilarini zamonaviy madaniyat hodisalaridan ajratib qo‘yish emas, balki ularni tushunishga, "madaniyatni singdirishga" (D.S.Lixachev ta’biri bilan aytganda) o‘rgatishdir, shunda yoshlar mustaqil ravishda tushunishlari mumkin. taqdim etilgan badiiy va psevdobadiiy mahsulotlarning sifati.

Biz taklif qilayotgan “Jahon san’ati tarixi” kursi o‘quvchilarga jahon badiiy madaniyati haqida yaxlit tushunchaga ega bo‘lishga yordam beradi, uning hayot bilan, insoniyat jamiyati tarixi bilan, barchaning, shu jumladan badiiy madaniyatning rivojlanishini belgilaydigan sinflar kurashi bilan bog‘liqligini tushunishga yordam beradi. Kursning asosiy maqsadi, o‘rta umumta’lim maktab o‘quvchilarining shaxsini, dunyoqarashining asosini tashkil etuvchi g‘oyaviy-axloqiy e’tiqodlarini shakllantirishda turli san’at turlarining ta’sir kuchidan, hayotiy pozitsiyasidan foydalanishdan iborat.

Barcha muammolarga qaramay, ta’limning turli darajalarida badiiy-estetik ta’lim sohasi mavjud. Aynan badiiy-estetik siklning sub’ektlari maktab o‘quvchilarining san’atni idrok etishiga, badiiy madaniyatning an’anaviy shakllarini aniqlash va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, shaxsning hayoti davomida madaniy o‘zini o‘zi rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Турсунов, Ш. Ш., & Уматалиев, М. С. (2017). ПСИХИЧЕСКО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ, ВОЗМОЖНОСТИ, МЫСЛИ И ПОИСКИ ХУДОЖНИКА В ТВОРЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ СОЗДАНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ. *Научное знание современности*, (3), 292-296.

2. Ломоносова М.Г. Графика и живопись. М.: 2003. – 207стр.

3.Турсунов, Ш. Ш., & Бегматов, Д. К. (2015). Факторы развития художественно-эстети-ческого воспитания в процессе обучения. *Высшая школа*, (7), 33-34.

4. Турсунов, Ш. Ш., & Махкамов, Г. У. (2016). использование современных педагогических технологий в процессе обучения в целях развития знаний молодежи об изобразительном искусстве. *Science Time*, (5 (29)), 661-664.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISH VA IJODIY FIKRLASH LAYOQATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARDAN FOYDALANISH

Urmonova Toshxon Ibragimovna

Toshkent pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish va ijodiy fikrlash layoqatlarini shakllantirishda zamonaviy ta’lim tizimida keng tarqalgan interfaol ta’lim metodlaridan foydalanishning afzalliklari haqida bayon etiladi. Shunungdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiyaviy jarayonini tashkil etishda pedagoglardan innovatsion ta'limning shakli sifatida

interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish ko'nikmarini shakilantirishga doir ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh davri, “Men” obrazi, interfaol ta’lim, Davlat talablari, rivojlanish markazlar, “Mikrofon”, “Juftlikda”, “Noto‘g‘ri ertak”,“ Reklama”, “Bashorat qilish”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalaridan biri o‘z ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatlarga, muomalaga o‘rgatish orqali ijodiy fikrlashga o‘rgatishdir.Chunki bola kichik yoshidan boshlab ijodiy fikrlar ekan kelajakda mustaqil hayotiy masalalarni yengillik bilan yechadi, muammoli vaziyatlarga bir necha muqobil, ijobiy yechim topa olishni o‘rganadi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim tarbiyasiga yangidan-yangi talablarni qo‘ymoqda. Jumladan, o‘sib borayotgan bolani shaxs sifatida hayotga tayyorllash, unda hayotiy muhim masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan, intellektual bilimlar va ahloqiy me’yor hamda qadriyatlarni o‘zlashtirish, tengdoshlari, kattalar bilan muloqot qilish, o‘zining shaxsiy “Men” obrazini namoyon qilish, murakkab vaziyatlarda ijodiy fikrlash orqali konstruktiv chiqish yo‘llarini topish uchun turli-tuman faoliyat usullarini shakllantirishni nazarda tutadi. [2;]

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning ijodiy nutqini o‘stirish ishining asosiy vazifalari - bolalar nutqini o‘stirishda eng samarali vositalarini ilmiy - pedagogik jihatdan to‘g‘ri tanlash va qo‘llashdan iboratdir.

Ma’lumki bola atrof olamni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar hamda nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo bolalarda intellektual, ya’ni bilish jarayonlari (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va h.k.) shunchaki bola organizmining o‘sib borishi va rivojlanishi bilangina shakllanmay, balki nutqinining rivojlanishi bilan paydo bo‘ladi va takomillashib boradi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to‘g‘ri gapirishga (so‘zlashishga) o‘rgatib borilsa, bunday bola meyorda rivojlanadi, ya’ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo‘ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan hamohang ravishda iroda kabi shaxsiy sifatlar ham takomillashib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning to‘laqonli shaxs sifatida rivojlanishi ma’lum bir tayanch dastur va yo‘nalishni belgilashni talab etadi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturiga muvofiq shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda bolani rivojlantiruvchi muhitlarning o‘rni alohida ko‘rsatilgan.Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitlarni tashkil etishda bolalarning o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etgan.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini quyidagicha tashkil etilgan.

1.“Til va nutq” markazi;

2.“Qurish - yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi;
3.“San'at” markazi;
4.“Syujetli -rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” markazi;
5.“Fan va tabiat” markazi. [4;]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi muhit madaniy-tarihiy qadriyatlar: milliy va hududiy an’analar; tabiat, iqlimidan kelib chiquvchi hususiyatlarga mos bo‘lishi kerak. Shuningdaek, muhitning mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning ijtimoiy moslashuviga yordam berishi, ichki ijodiy layoqatlarini o‘stirishga xizmat qilishi kerak. [4;]

Ushbu vazifalarni hal etishda doimiy qo‘llanuvchi vositalar, o‘qitishning hilma-hil shakllaridan tashqari inrerfaol ta’lim metodlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol ta’lim-ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan xarakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’limdir. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat(dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning borishlarini ifodalaydi. [2;]

Quyida ana shunday inrerfaol ta’lim metodlaridan namunalar keltiriladi.

Mikrofon - bolalar tarbiyachi bilan birgalikda doira bo‘lib o‘tiradilar. Bolalarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishlari so‘raladi. Ketma- ketlikda bola o‘yinchoq mikrofonni ushlab berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini aytib, mikrofonni keyingi ishtirokchiga uzatadi. Masalan, bola mikrofonni olib o‘zi haqida bir nechta gap aytadi va keyingi bolaga mikrofonni beradi. Barcha aytilgan gaplar qo‘llab - quvvatlanadi, tanqid va muhokama qilinmaydi.

Juftlikda - bolalar ikki juft bo‘lib o‘tirib oladilar, berilgan topshiriqni birgalikda bajaradilar. Masalan; sur’atni birgalikda ko‘rib tahlil qilish va tasvirlash taklif etiladi.

Noto‘g‘ri ertak - bolalar ikki guruhga bo‘linadilar va ikki guruhga alohida – alohida topshiriq beriladi. Birinchi guruh o‘zlari yaxshi bilgan ertakni ma’nosini o‘zgartirgan holda hikoya qilib beradi. Ikkinchi guruh esa shu ertakni asl holati bo‘yicha to‘g‘rilab, hikoya qilib beradilar. Masalan: birinchi guruh “Qadimda dehqon va boy bo‘lgan ekan. Boy ekin ekayotib yaralangan sichqonni ko‘rib qolibdi va uni uyiga olib kelib parvarishlabdi. Sichqoncha tuzalibdi va uyiga ketibdi. Boyga uchta tuhum beribdi. Boy ularni yerga ekkan ekan, ular tezda pishib, yetilibdiar. Boy uni so‘ygan ekan ichidan bir dunyo pishloqlar chiqibdi”. Ikkinchi guruh ertakning nomi “Oltin tarvuz” ekanligini aytib, uni asli holatida aytib beradilar. [3;]

Reklama - bolalar ikki komandaga bo‘linadilar. Har bir komandaga alohida - alohida buyum beriladi. (Buyumni bolalar o‘zlari ham tanlashlari mumkin). Bolalar olgan buyumlarini barcha ijobiy tomonlarini, xususiyatlarini, vazifalarini ta’riflab boshqalarning diqqatini unga jalb qilishadi.

Bashorat qilish - tarbiyachi bolalarga biror bir mavzu bo‘yicha ma’lumot berishlarini so‘raydi. Bolalar mavzu bo‘yicha ma’lumot berish bilan birgalikda aynan shu mavzu bo‘yicha, shaxsiy tajribalaridan kelib chiqqan holda bashorat qilish variantini ham beradilar. Masalan, mavzu “Kuz”. Bolalar kuz oylarining nomini

aytadiar. Kuzning har bir oyining o‘ziga hos hususiyatlari haqida ma’lumot beradilar. Shuningdek, aynan kuz oylarida o‘zlariga taaluqli bo‘lgan ma’lumotlarni ham bashoratlaydilar. (Kuz oyida mening tug‘ilgan kunim bo‘ladi. Menga dadam men orzu qilgan kitobni sovg‘a qiladilar). Oyning keying bosqichida masalan, bolalar sentyabr, oktyabr, noyabr oylari rollariga kirishib har bir oy o‘zining aniq hususiyatlari haqida ma’lumot beradilar. ”Men - kuzning birinchi oyi sentyabr bo‘laman. Men iliq oy hisoblanaman. Meni barcha bolalar yaxshi ko‘radilar, chunki menda maktablarda o‘qish boshlanadi. Men - oktyabr oyiman. Meni ham hamma yaxshi ko‘radi. Oktyabr oyida “O‘qituvchi va murabbiylarlar kuni” nishonlanadi. [3;]

Hulosa o‘rnida shuni aytish joizki maktabgacha yoshdagi bola juda qisqa vaqt ichida ham jismoniy, ham psixiologik jihatdan hayotga moslashish, tevarak atrofdagi borliqni qabul qilish, unda hayot kechirish haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi kerak. Buning uchun esa ta’lim-tarbiyaviy jarayonda o‘qish va o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini shakllantirishni ichiga oluvchi interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash kutilgan natijaga erishishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Bolalar o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.J.G.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Zamonaviy pedagoogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T.-2008 yil.63-71 betlar

2. D.Ro‘ziyeva. M.Usmonboyev, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi Metodik qo‘llanma.Toshkent-2013yil 4-5 betlar.

3.A.Meliboyev, Sh.Zarmasov,L.Lurakulov. Maktabgacha ta’lim jarayonini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.”Fan va texnologiyalar” 3-4 betlar.

4.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022 16- 17 betlar

5.И.Р.Кузмина. Инновационные технологии для развития речи дошкольников. М. 2017 г. 1-2 стр.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xo‘jamberdiyeva Shaxnoza Ko‘paysinovna,
NamDU dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik xususiyatga ega jarayon ekanligi, bu jarayon o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra bolalar dunyoqarashini asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar orqali rivojlantirishni ko‘zda tutishi, maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga qiziqishni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. bolalar adabiyoti, hikoyalar, ertaklar, mashg‘ulotlararo integratsiya, adabiy asarni idrok etish, an’anaviy resursrlar, zamonaviy yangi avlod elektron o‘quv adabiyotlari, ilyustratsiya va demonstratsiya usuli, estetik qabul qilish.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, mavjud adabiyotlarda aks etgan ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni innovatsion yondashuvlar asosida bola ongiga singdirish, bolalarda og‘zaki nutq va badiiy tasavvurlarni tizimli hamda maktab ta’limi uchun yetarli darajada shakllantirish bo‘yicha yangicha ilmiy konsepsiyalarga asoslangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borishga zarurat kuchaymoqda. Shu bilan birga maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish va muassasada faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning kasbiy bilim va tayyorgarligini oshirish, MTTlarni yetuk kadrlar bilan to‘liq ta’minlash hamda tarbiyalanuvchilarning aqliy, ruhiy va jismoniy kamol topishiga ko‘maklashish vazifalari eng dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaldagi o‘qitish va tarbiyalash tizimi muassasalarda faoliyat yuritayotgan kadrlarning kasbiy malakalarini oshirishni, ularga yaqindan ko‘mak berishni, yangi metodikalar bilan qurollantirishni ko‘zda tutuvchi o‘quv didaktik ta’minotga ehtiyoj sezilmoqda. Ma’lumki, maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashishni, uni shaxs sifatida hurmat qilishni, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalashni, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi. Mazkur vazifalar badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoniga hamohangdir. Bu jarayonga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda ham pedagog, ham ota-onalar, ham hamkor tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim mazmuniga joriy etilayotgan yangiliklar, zamonaviy metodlar bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik xususiyatga ega jarayondir. Bu jarayon o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra bolalar dunyoqarashini asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar orqali rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha ta’lim davrida bolalar qanchalik badiiy adabiyot bilan muttasil va izchil tanishsalar, ular shunchalik keyingi yosh davrlarida ulkan adabiy merosni tushunish va uning qimmatini anglashga tayyor bo‘ladi. Ma’lumki, bolalar adabiyoti hikoyalar, ertaklar ko‘rinishida bola hayotining ilk davrlaridan hamroh bo‘ladi. Madaniy meros va ma’naviy qadriyatlarning sehrli olamiga olib kirishda maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘rni va ta’siri kattadir. Agar tashkilotda o‘quv-tarbiyaviy jarayon mos adabiyotlardan foydalangan holda tashkil etilsa, bolalarda kitobga qiziqish, uni asrashga intilish erta paydo bo‘ladi.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiluvchi barcha turdagi mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Amaliyotni kuzatish asosida biz shuni guvohi bo‘ldikki, pedagoglar aynan nutq o‘stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg‘ulotlaridagina badiiy asar bilan alohida tanishtirish ishlarini olib borishadi. Agarda boshqa turdagi mashg‘ulotlarda, masalan, yasash-qurish mashg‘ulotida maketi, nusxasi yasalayotgan hayvonni qaysi ertakda uchrashi va u nimalar qilganini suhbat davosida ayttirishga e’tibor qaratilsa, mashg‘ulotlararo

integratsiya va jarayonning hayot bilan bog‘liqligi ta’minlanadi. Bolalar bu davrda rasmli matnlarga duch keladilar. Dastlab, bola sahifalarni varaqlashga, kattalarning u uchun asarni o‘qib berishiga, o‘qilgan matnni tinglashga, rasmlarni ko‘rib chiqishga qiziqadi. Demak, badiiy adabiyot bolalarning yosh xususiyatlari hamda DS talablari darajasida tanlanishi lozim. Masalan, bolada rasmga qiziqishning paydo bo‘lishi bilan, o‘z-o‘zidan matnga qiziqish paydo bo‘ladi. Natijada badiiy asarni o‘zlashtirishga motivatsiya uyg‘onadi. Keyinchalik asardagi qahramonlarning xatti-harakatlariga o‘ziga tortadi. Bolalar tomonidan ijobiy harakatlarni sidqidildan ijro etishga intilish kuchayadi. Chunki bolalar tomonidan adabiy asarni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu qahramonlarga va ularning harakatlari oqibatlariga hamdard bo‘lishdir.

MTT pedagogining oldiga muhim vazifa qo‘yiladi. Bu vazifa mazmuni shuki, asarni idrok etishga bolalarni undash va bu uchun mos o‘zlashtirish muhitini yaratishdir. Ma’lumki, idrok juda faol bo‘lishni taqozo etadigan jarayondir. Ta’limda idrok etishga undovchi qo‘zg‘atuvchi vositalarga ehtiyoj tug‘iladi. Faol xarakterdagi bolalar asarni eshitgan va ko‘rgan zahoti, o‘zini qahramonning o‘rniga qo‘yadi, aqliy harakat qiladi, qahramonning dushmanlari bilan lutfan kurashadi. Tarbiyachi pedagogning yana bir asosiy vazifalaridan biri bu passiv bolalarni bu jarayonga tortishdir. Buning uchun bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi, ularning materialni o‘zlashtirish uslublari kuzatiladi. ya’ni, bola axborotni qanday o‘zlashtirishni xush ko‘rishi aniqlanadi. Vizual, audial va kinestet bolalar tipologiyasi bo‘yicha tarbiyachida ma’lumotlar bo‘lishi talab etiladi. Shu tipologiya bo‘yicha tarbiyachi asarni tushuntirishda tegishli o‘quv vositalarini tayyorlashi ko‘zda tutiladi. Chunki bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning vazifalari asarlarni idrok etishga va tushunishga bo‘lgan qiziqishini payqash va yo‘naltirish hisoblanadi. Shu bilan birga bolalarning idrok etish va asarni anglash xususiyatlarini bilish asosida badiiy adabiyot bilan tanishtirishning vazifalari aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tayyorlangan elektron badiiy adabiyotlardan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish quyidagi bir qator pedagogik tamoyillarga asoslanadi.

1. Modullilik tamoyili: o‘rganilayotgan hafta yoki kun mavzusiga mos tanlangan mavzular manbayining hajmi bo‘yicha kichik, ammo tarkibi bo‘yicha bir butun bo‘lgan modullardan (bo‘limlardan) iborat bo‘lgan bo‘laklarga bo‘lib chiqish lozim, ya’ni har bir guruh uchun tanlangan bir nechta faoliyat markazlari uchun alohida bo‘limlarning mavjudligidir.

2. To‘liqlik tamoyili: har bir guruh uchun yaratilayotgan badiiy adabiyotlarning bo‘lim (modul)lari quyidagi tashkil etuvchi hadlardan: nazariy bilimlar berishga yo‘naltirilgan manbalar, rasmlar, animatsiyalar, mustaqil yechish uchun savolli yoki rasmli topshiriqlar va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, kichik amaliy tajribalar, sharhlar ko‘rsatmalarning mavjud bo‘lishi.

3. Ko‘rgazmalilik tamoyili: har bir guruhlar uchun tavsiya etilayotgan badiiy adabiyotlar (modulda) yangi tushunchalarni o‘rgatish, ijodiy tasavvurlarni shakllantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish kabi vazifalarga hal etishga

yo‘naltiruvchi manbalarni rangli tasvirlar, rasmli ko‘rgazmalar shaklida berilishi bayon etilayotgan fikr hamda uslublarni tushunarli bo‘lishini, oson o‘zlashtirilishini, bolalar uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

4. Boshqaruvchanlik tamoyili: elektron badiiy adabiyotlarda tarbiyachilar o‘rganilayotgan oy, xafta yoki kun mavzularini tushuntirish jarayonida ekrandagi kadrlarni almashuvini o‘zlari mustaqil boshqara olishlari, istalgan mavzu yoki ma’lumotlarni, illyustratsiya materiallari va multimedialar ko‘rinishidagi tushunchalar hamda fikrlarni, tasvirlarni bola ko‘z o‘ngida ekranga chiqarish imkoniga ega bo‘lishlari kerak.

5. Moslashuvchanlik tamoyili: elektron adabiyotlardan foydalanish har qanday sharoitga mos, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga, yoshga xos rivojlanish qonuniyatlari, huquqiy me’yoriy talablar darajasidagi ko‘rsatmalarga mos holda tuzilishi, o‘rganilayotgan materialning chuqurligi va murakkabligini hamda ta’lim oluvchining kelgusi ta’lim bosqichilariga bog‘liq holda amaliy yo‘naltirilganligini o‘zgartirib borishga imkoniyat yaratishi kerak.

6. Texnik imkoniyatga egalik tamoyili: bu tamoyilda tarbiyachilar ta’lim oluvchilarni aqliy faoliyatlarini rivojlantirish jarayonida mavzu mohiyatini tushunish uchun bolalar diqqatini jalb etishga undovchi animatsiyalar, multimedialar, rasmli topshiriqlarni taqdim etishda kompyuterdan foydalanishlari samarali natijaga erishishni kafolatlaydi.

7. Yig‘iluvchanlik tamoyili: elektron badiiy adabiyotni muallif tomonidan yangi bo‘limlar va mavzular, fan-texnika yangiliklari bilan kengaytirib hamda to‘ldirib borish imkonini mavjudligi

8. Faoliyatga yo‘nalganlik tamoyili: maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o‘yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o‘zlashtiradi. Elektron badiiy adabiyotlarda mazkur faoliyatlarga yo‘naltiruvchi topshiriqlar, ijodiy va harakatli o‘yinlar o‘z aksini topgan bo‘lib, tarbiyachilar bolalarning yoshiga mos, bir nechta funksiyalar (maftunkorlik, kommunikatsiya, davolovchilik, tashxis, kommunikatsiya, millatlararo muloqot, ijtimoiylashuv)ni bajaruvchi o‘yinlar aks ettirilgan bo‘lishi zarur.

Bugungi kunda o‘qitish samaradorligini, xususan, badiiy adabiyot bilan tanishtirish orqali bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash, ularda ijtimoiy ko‘nikmalarni tizimli shakllantirishda sanab o‘tilgan tamoyillarning o‘rni va roli kattadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda didaktik ta’minotning ham ahamiyati kattadir. Chunki pedagogning manbalar bilan ishlashi va bu manbalarning bolalar yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi ta’limdan kutilgan natijalarga erta va samarali erishish imkoniyatini

kengaytiradi. Mazkur tamoyillarning amaliyotga keng joriy etilishida adabiy resurslarning ta’minlanganligiga bog‘liqdir. **Resurslar** esa, modelning muhim komponenti sifatida tavsiflanadi. MTTda adabiy resurslarning quyidagi shakllari qo‘llanilmoqda. Bular:

1) an’anaviy resursrlar (matnli ko‘rinishdagi adabiyotlar, rasmli tarqatmalar, darsliklar);

2) zamonaviy yangi avlod elektron o‘quv adabiyotlari (multimediali (ko‘p axborotli), animatsion elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, elektron dasturlar, ma’lumotlar banki va boshqalar).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini kognitiv, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida joriy etilgan “mantiqiy fikrlashni o‘rganamiz”, “aqlli bolajon”, “Bobomning ertaklari, “O‘zbek xalq ertaklari” hamda boshqa bir qator badiiy adabiyot namunalarini animatsiyali, tasvirli elektron ko‘rinishda taqdim etilishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun bir qator qulayliklarni yaratadi.

Elektron badiiy adabiyotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, tanishtiruv jarayonini qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, animatsiyali, ovozli, tasvirli va rasmli ko‘rinishga ega bo‘lganligi bilan ana’anaviy manbalardan farq qiladi.

Elektron badiiy adabiyotlarni bolalar ongiga yetkazishda tasvir (illyustratsiya) va namoyish (demonstratsiya) metodlarning o‘rni beqiyosdir. Bizga ma’lumki, illyustratsiya o‘rganilayotgan asar mazmuniga doir hodisalar va jarayonlarning ramziy ko‘rinishlarini – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishga imkon beradi. Namoyish (demonstratsiya) metodi orqali esa o‘rganilayotgan obyektning harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishiga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

3D adabiyotlari aynan ilyustratsiya va demonstratsiya usulida o‘rganuvchilar ongiga yetkazib berilishi, bolalarning obrazli tafakkurlari va tasavvurlarini yanada ko‘proq shakllantirish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

MTTda bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonini samarali tashkil etish uchun qator mezonlarni ham ajratib ko‘rsatdik. Bular: 1. Bolalar kitobining g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan bola yoshiga va milliy qadriyatlarga mos bo‘lishi. Bu mezon adabiyotning axloqiy tarbiya vazifalariga, Vatanga, odamlarga, tabiatga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalashga muvofiqlikni belgilaydi. Qahramonning axloqiy xatti-harakati kitobning g‘oyaviy-mafkuraviy xususiyatini belgilaydi.

2. Badiiy jihatdan hayotiy va jozibador bo‘lishi. Ya’ni badiiylikdir. Mazkur mezoni asar mazmuni va uning shaklan uyg‘unligini ko‘zda tutadi. Bundan tashqari asarning tili, nutqiy bezalishi, ohangdorligi kabilar ham mazkur mezonni tashkil etuvchi sifatlardandir.

3. Adabiy asarning bolalarning yoshi, hayotiy tajribasi va psixologik xususiyatlariga mosligi. Asarni tanlashda bolalarning diqqati, xotirasi, fikrlash xususiyatlari, qiziqishlari doirasi hisobga olinadi.
4. Asar syujetida ko‘ngilochar epizodlarning borligi, kompozitsiyaning soddaligi, ravshanligi, predmetlar bilan boyitilganligi. Bu mezon asarning bola tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlashda alohida o‘rin egallaydi.
MTT ta’lim jarayonining maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun ijobiy muhit, tegishli sharoitlar yaratishdan iborat. Biz tadqiqotimiz doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish metodik tizimini ishlab chiqildi. Mazkur taklif etilgan model o‘zining amaliyligi va metodik jihatdan unikalligi bilan ahamiyatlidir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish modeli bu jarayonda rioya etilishi lozim bo‘lgan qoidalarni ham o‘zida mujassamlashtirdi. Mazkur qoidalar quyidagilar:
Bolaning shaxsini shakllantirish, undagi badiiy ijodga doir layoqatlarni rivojlanishini ta’minlashda o‘qish va hikoya qilish hamda ijro faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun badiiy asarni to‘g‘ri tanlash.
Badiiy asarni tanlashda umumdidaktik tamoyillarga rioya etish.
Badiiy asar mazmunini hayot bilan bog‘liq ravishda tushuntirish va bu tushuntirishlar ravon, ifodali va bola tajribasiga mos tilda bo‘lishiga e’tibor qaratish.
Asarning anglanganligini bola tarzda tahlil qilish.
Tarbiyachi-pedagoglar kitoblarni tanlashda shuni yodda tutishi kerakki, adabiy asar kognitiv, estetik va axloqiy funksiyalarni bajarishi kerak, ya’ni adabiyot aqliy, axloqiy hamda estetik tarbiya vositasini o‘tash darajasida mazmundor, o‘ziga tortish borasida rang-barang bo‘lishi kerak. Kitoblarni tanlashda tarkib va shaklning birligi ham hisobga olinishi muhimdir. Aksincha bo‘lsa, modelning bir komponenti o‘z vazifasini bajarmaydi va bolalar asar bilan tanishishda muayyan to‘siqqa uchraydilar.
Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyatlari o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlantirib boriladi. Bu faoliyatlardagi asosiy yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integratsiyalashgan rejalashtirish asosida, ma’lum yondashuvlar shaklida olib boriladi.
Ma’lumki, kichik guruhdagi bolalarning adabiy asarlarni idrok etishi juda qiyin. Har bir bola tasvirlangan voqealarda bevosita ishtirok etishi qiyin kechadi. Rol ijrosiga ularni chorlash murakkab jarayondir. Katta va maktabga tayyorlov guruhlari bolalari esa, asarga mansusb rollarni bajarishdan tortib, adabiy asarni estetik idrok etishgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi.
Ma’lumki, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, bolaning sog‘lom va mustaqil fikrini shakllantirish, qobiliyatini ro‘yobga chiqarish hamda bilim olishga intilishini rivojlantirish kabi maqsadlar yo‘lida ish olib boradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda joriy etish, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, ularni o‘quv-uslubiy, didaktik materiallar bilan ta’minlash hamda pedagog xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha muhim maqsad va vazifalar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda tarbiyachining shaxsiy namunasi muhim o‘rin tutadi. Chunki hayot ostonasida turgan jajji bolakaylar har sohada tarbiyachiga taqlid qiladilar, tarbiyachi ta’siri ostida dunyoni asta-sekin teran nigohlari bilan anglay boshlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayoniga bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida ta’rif berilsa, tarbiyachining kasbiy standarti — maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmuyi ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Estetik qabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun asarlarni mavzusiga qarab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli asarlarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir asar doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo‘nalishlarini ko‘rib chiqishda kontekstlarni o‘zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o‘zaro bog‘liqligini (so‘z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi.

Shuningdek, badiiy asarlar bilan tanishtirish shakllari sifatida quyidagilarni ham amalga oshirish mumkin: tarbiyachi bolalarga asarlar guruhini tanishtiradi va ular asosida ishni bolalarning ochiq turdagi universal bilish muammolarining (tirik va o‘lik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik muammolari) turlicha obrazli yechimlarini qidirishlariga yo‘naltiradi. Ravshanki, qidiruv jarayonida muammolarning o‘zlari umumlashtirilgan ko‘rinishda shakllanmaydi, balki faqat turli adabiy obrazlar va syujetlar, shuningdek, bolalarning o‘zlari tomonidan vujudga keltiriladigan vaziyatlarning birgalikdagi muhokamasi ro‘y beradi, xolos.

Tarbiyachi bolalarning adabiy asar bo‘yicha ijodiy dialogda, muammoli vaziyatlarni hal etishda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bolalar bir-birlarini to‘ldirganlari holda adabiy asar mazmunini birgalikda tasvirlaydilar, muhokama jarayoniga talqin elementlari va ta’riflangan voqealarni, adabiy qahramonlarni va ularning xatti-harakatlarini baholashni olib kiradilar. Dialogik muhokama jarayoniga tarbiyachi adabiy mazmunni muammolashtirish elementlarini, ya’ni: talqinlarning bir xil emasligi, ochiq turdagi savollarni qo‘yish va ular bo‘yicha mulohaza yuritishni (masalan, ertakni aytib bo‘lgandan so‘ng undan nima qoladi?) olib kirishi zarur.

Tarbiyachi o‘z ishining samaradorligini nafaqat bolalarning mashg‘ulotlarda o‘zlarini qanday tutishlari bilan baholaydi, balki u ularning erkin faoliyatdagi xulq-atvorini kuzatadi: adabiy mavzudagi o‘yin va suratlar syujetlarini qayd etadi, bolalarning fikrlarining mazmuniga, ularning mustaqil so‘z ijodkorligiga e’tibor beradi;

bolalarning kitoblar bilan harakatlarini — yakka tartibda yoki birgalikda uni ko‘rib chiqishlari, o‘qishlarini rag‘batlantiradi. Tarbiyachi bolalar savollariga javob beradi va ularga yoqib qolgan asarlar (dasturdagi va dasturga kiritilmagan) mazmuni bo‘yicha ular bilan yakka tartibda suhbatlashadi.

Tarbiyachi bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, ular tomonidan o‘ylab topilgan she’rlar va ertaklarni to‘plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o‘zlari tomonidan “kitob” yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to‘qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo‘shiqlar, sanoq she’rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to‘plami, qo‘lyozma jurnali va komikslari bo‘lishi mumkin.

Guruhda bolalar suratlari, o‘qib chiqilgan variativ syujetlar, improvizatsiyalar va to‘qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo‘lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid “kitoblar” ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Tarbiyachining bolalarga o‘zining qaysi adabiy asarlarni yoqtirishini ma’lum qilishi, o‘zining badiiy ijodga layoqati va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy asar bilan o‘zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish potensialini amalga oshirish imkonini beradi. Badiiy adabiyot bilan tanishuv bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirishga, tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug‘atiga, ravon nutqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, tarbiyachining e’tibori, bolalar ta’lim-tarbiyasiga to‘g‘ri yondashuvi tufayli ularning kelajak poydevori mustahkam quriladi.

Maktabgacha yoshdagi davrni kitobsiz, voqeani emotsional ifodalashsiz tasavvur qilish qiyin. Aynan shu jarayon bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni bolada tasavvurni rivojlantiradi, ona tilining ajoyib namunalarini his qildiradi. Agar bola tanish ertak, she’rni tinglab, qahramonlar bilan birga emotsional yaqinlashsa, ularda hayotiy voqealarga shaxsiy munosabat shakllanadi. Natijada, bola badiiy asarlarni tushunishni o‘rganadi va shu orqali shaxs sifatida shakllanadi. O‘sib ulg‘aygan sari bolalar badiiy asarlarni tahlil qilishga ham jalb etiladilar. Masalan, xalq ertaklari orqali bolalarda ona tilining aniqligi va ekspressivligi namoyon bo‘ladi. Hikoyalarda bolalar so‘zning ixchamligi va aniqligini o‘rganadilar. She’rlarda esa, ular nutqning ohangdorligi va ritmini his qiladilar. Biroq, badiiy asar bola tomonidan to‘liq qabul qilinib, idrok etilishida yosh xususiyatlariga mos tanlangan usul muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun bolalarning e’tiborini badiiy asarning ham mazmuniga, ham uning ifodali vositalarga boyligiga qaratish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish faqat bola manfaatlariga, dunyoqarashiga, ma’naviy istaklari va ehtiyojlariga mos keladigan muhit yaratilgandagina yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi yondashuvlarni to‘g‘ri tanlay olishi, zamonaviy elektron adabiyotlarni yangi avlodini jamlash zarurdir. Chunki badiiy adabiyotlardagi insoniy xislatlar,

shaxs va tabiat, jamiyat munosabatlari kabi mavzular bolalarni ma’naviy-axloqiy, estetik, hatto, irodaviy jihatdan tarbiyalashga yaqindan ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr
2. Сухомлинский В.А. О воспитании. Изд. 2-е, М., Изд-во политической литературы. 1975. - С. 272.
3. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное воспитание детей от первого проявления сознания до школьного возраста. СПб.,1901.-с. 319-322.
4. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHI

Xurvalieva Tarmiza Latiovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga oid psixolog olimlarning qarashlari, bola shaxsini shakllanishida o‘yinning roli xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bolalarda bilish jararyonlari va shaxsiy sifatlarni rivojlanishi muammosi yuzasidan ilmiy-nazariy g‘oyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: psixik taraqqiyot, ijtimoiy hayot, ijtimoiy muhit, faoliyat, psixik xususiyat, qobiliyat, intellekt, rivojlanish, atrof-olam, so‘z-mantiq tafakkur, intensiv, motiv, muloqot.

Turli yosh bosqichlarida tarbiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bolaning rivojlanishi uchun maktabgacha ta’lim muassasasida yaratilgan pedagogik-psixologik sharoitlar va mazkur sharoitlar muloqot hamda faoliyatiga mos kelishiga e’tibor berishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshda bolalarda narsa va buyumlar, voqea-hodisalarni idrok qilish orqali turlarga ajrata oladi. Bolalar predmetlarni xususiyatiga ko‘ra rangi, shakli va katta, kichikni tartib bilan qo‘ya oladi. Kichik maktabgacha yoshda (3-4 yosh) rangi va shaklini taqqoslay oladi. Katta va maktabga tayyorlov guruhida esa, murakkab ob’ektlarni sodda shakllarini topadi va ulardan oddiy perdmetlar yasay oladi. Fazoni idrok qilish rivojlanadi ya’ni oldi, orqa, yuqori va pastni farqlaydi. Eng muhimi diqqat va xotira rivojlanadi. Kattalarni yordamida kichik yoshdagi bolalar ayrim so‘z va iboralarni eslab qoladi, buyumlar nomi, jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi. Mustaqil ravishda she’r va hikoya, ertaklarni so‘zlaydi. 3-4 yosh bolada hissiyot rivojlanadi. Atrofdagilar bilan kommunikativ munosabatda bo‘ladi. Atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga hissiyotlarini ifodalaydi. O‘z-o‘ziga ishonch mustahkamlanadi. Mustaqilikka intilish rivojlanadi, o‘z harakatlarini erkin bajarishga intiladi va g‘ururini ifodalaydi. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, kattalardan ma’lumot oladi. O‘z harakatlarini boshqaradi, epchillik, jismoniy faollik oshadi, turlicha harakatlarni bajarishga urinadi.

5-6 yosh bolalarda xotira xajmi kengayadi, qator narsa va buyumlarni nomini eslab qoladi. Bu yoshda bolalarda tashabbuskorlik paydo bo‘ladi va ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Kattalar va tengdoshlarini hissiyotlarini anglaydi va qayg‘uradi. Ular bilan o‘zaro faol muloqotda bo‘ladi. Atrofdagilar bilan ijobiy munosabatda bo‘ladi. O‘zining istak va hoxishlarini jamiyat qabul qilgan me’yorlarga mos ravishda amalga oshirishni anglaydi. Shaxsiy tashabbusini namoyon qiladi. Shaxsiy identivlik asoslari shakllanadi va hayotiy tajribalarini namoyon etadi. Asta–sekin bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi, xotiraga tayangan holda o‘quv topshiriqlarini bajara boshlaydi, mustaqil ravishda maqol va xikoya, qisqa satrli she’rlarni yodlab oladi. Barqarorlik rivojlanadi xamda diqqatni taqsimlanishi va ko‘chishi ro‘y beradi. Katta maktabgacha yosh bolalarda ko‘rgazmali-obrazli va ko‘rgazmali-harakat tafakkuri yetarlicha rivojlanadi. 5-6 yoshda nafaqat topshiriqlarni namuna asosida bajara oladi, balki mustaqil ravishda noa’nanaviy shaklda tasvirlab beradi. Sabab-oqibatlarni muhokama qiladi va tushuntira oladi. 6-7 maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda barqaror motivlar shakllanadi va maqsadga yo‘nalgan harakatlarni bajaradi. Emotsional xayratlanish xodisasi ro‘y beradi, voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildiradi. Bolalar o‘zini baholaydi va xatti-harakatini tahlil qiladi. O‘z-o‘zini anglash va boshqarish rivojlanadi.Turli vaziyatlarga o‘z fikrini bildiradi. So‘z-mantiq tafakkur intensiv ravishda rivojlanishni boshlaydi. Bolalar murakkab bo‘lmagan vazifalarni oddiy chizma va tasvirlardan foydalangan holda ifodalaydi. Namuna asosida labirint topshiriqlarni bajara oladi. Ko‘pincha ko‘rgazmali va mantiqiy tafakkur asosida mushohada yuritadi. Asosiy hissiyotlar sababini tushunadi, kimnidir xafa qilsa, o‘zini aybdor his qiladi, yaxshi yoki yomon xulqqa baho bera oladi. Tengdoshlari bilan o‘yin mobayida g‘oliblikdan quvonishni biladi. Yaqin insonlari va do‘stlari bilan o‘z hissiyotlari va kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Eng muhimi qo‘rquv va xavfni tushunadi. O‘ziga tanish bo‘lgan tushunarli asarlarni qiziqish bilan tinglaydi va ularga hissiyotlarini namoyon etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik rivojlanishida o‘yin katta ahamiyatga ega. Aksariyat olimlar bolalarni shaxs sifatida shakllanishi va xulq-avtorini rivojlanishida, nutq va bilish faoliyatida o‘yinning ta’siri muhim ekanligini asoslaydi. Jumladan D.B. Elkonin o‘yin faoliyati elementlarini aniqlagan. Ularni quyidagicha tavsiflagan:

-syujet- ya’ni bola qanday rol o‘ynayapdi
-mazmuni- qanday o‘ynaydi
-rol- vaziyatni ifodalash
-qoidalar va o‘yin harakatlari
-o‘yindagi munosabatlar[5; 47-48]. O‘yinda vaziyatni ifodalash axamiyatga ega emas, balki bolalar o‘zining xulq-avtorini namoyon etishga imkon beriladi. O‘yin qoidasiga rioya etgan holda yashirin xatti-harakatlarni ko‘rsatadi.

Olim nafaqat o‘yin tuzulishi elementlarini va bosqichlari, balki bola shaxsi sifatlarini shakllanishini xam asoslaydi. Maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat o‘yin ekanligini ilmiy nuqtai nazardan asoslab bergan [5; 67-66]. O‘yin bolalarda refleksiya va ixtiyoriylikni rivojlanishiga turtki beradi. O‘zini tashqi tomondan ko‘ra oladi, rol

ijro etish jarayonida muvaffaqiyatga erishish haqida tengdoshlarining fikrini eshitadi, o‘z-o‘zini tushunish va anglashga yordam beradi, o‘z-o‘zini ob’ektiv baholay olishiga imkon beriladi.

O‘yin ishtirokchilari sheriklari tomonidan berilgan maslahat bo‘yicha ijro etadigan roli va o‘z hatti-harakatlarini to‘g‘ri bajarishga harakat qiladi. O‘yin o‘ynash natijasida bolalarda nutq va refleksiya rivojlanadi. Maktabgacha yosh davrida atrofdagi voqea-hodisalarga bog‘liq bo‘lmagan holda, ularning xulq-atvori motiv asosida shakllanadi.

L.I.Bojovich fikricha “ushbu yoshda bolalar ijtimoiy munosabatlarning sub’ekti ekanligini anglaydi, jamiyatdan qoniqish hosil qiladi, ularda ichki qarashlar shakllanadi”[1]. Bolalarda bevosita motiv va istaklari kattalar tomonidan turli xil cheklovlar bilan cheklangan holatlarda pasayadi. Kichik maktabgacha yosh davrida xulq-avtor impulsiv harakatlar natijasida yuz beradi, biroq irodaviy sifatlar rivojlana boshlaydi, maktabgacha katta yosh (5-6 yosh) da o‘z hissiyotlarini tahlil qilib, boshqaradi. Harakatlari maqsadga muvofiq ravishda amalga osha boshlaydi. 4-5 yoshda esa bolalar oila , maktabgacha ta’lim tashkiloti va boshqa joylarda ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘zlashtiradi va faollashadi. Emotsional reaksiya kengayadi, nafaqat yaqinlari balki, yaqin tanishlari, tengdoshlari, tabiat, hayvonlarga munosabat bildiradi, muloqotga kirishadi. Faoliyatini erkin ravishda o‘zi tashkil etadi. Tengdoshlari bilan munosabatga kirishish alohida ahamiyat kasb etadi. Kattalarni hurmat qiladi, tengdoshlarini tan oladi va ularga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Tengdoshlari, tanishlari bilan muloqot ko‘nikmasi takomillashadi va kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyati rivojlanadi.Jismoniy imkoniyatlarini anglaydi, “MEN” konsepsiyasi shakllanadi. O‘zini mustaqil shaxs sifatida his qiladi. Qiziquvchanlik rivojlanadi, atrofdagi narsa va buyumlardan foydalanishni o‘rganadi. Ichki hissiyoti rivojlanadi va qo‘rgazmali obrazli tafakkur va xayol rivojlanadi. Kattalarni yordamida yaxshi va yomon harakatlarni ajrata boshlaydi. Ilk bora estetik hislar paydo bo‘ladi va ijodiy mustaqil faoliyatga ehtiyoj ortadi. keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, ta’kidlash joizki bola psixik rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bu samarali ta’lim-tarbiyadir. Rivojlanish va ta’lim bir-biriga mutanosib bo‘lish bilan birga har xil jarayondir.Rivojlanish o‘z-o‘zini harakatlantiruvchi ichki qonuniyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Ta’lim esa bolada inson uchun tarixan tegishli bo‘lgan xususiyatlarni rivojlantirish jarayonida bilim va ta’lim olishga bo‘lgan ijtimoiy zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Божович*, Л.И. *Личность и её формирование* в детском возрасте.М.: Просвещение, 1968. – 278 с.
2. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o‘quv metodik qo‘llanma).T.: 2004-129 bet
3. Виготский Л.С. Психология развития человека.-М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005-1136 с.
4. Марцинковская Т.Д. История детской психологии: Учебник для студ.пед.вузов.-М.: Гуманит.изд. центр ВЛАДОС, 1998.-272 с

РОЛЬ ДИДАКТИЧЕСКОЙ ИГРЫ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ

З.Х. Насирова
Чирчикский государственный педагогический университет,
старщий преподователь
С.Б.Абдулхакимова
Студентка 3-го курса, факультет "Дошкольного образование"

Актуальность применения дидактической игры в развитии речи и воспитании детей дошкольного возраста обусловлена тем, что игра занимает важное место в жизни ребенка. Все большее количество родителей и педагогов заинтересованы в интеллектуальном развитии своих детей. А между тем, дидактическая игра является важным средством и творческого развития детей, и развития их социальных навыков.

Дошкольное детство представляет собой начальный этап формирования личности, ценностной ориентации в окружающем его природном и социальном мире. Дидактические игры как и любая развивающая каждая игра, представляет собой вид деятельности, который организуется педагогом с целью обучения или развития речи детей. Ее особенностью является то, что она позволяет узнать что-то новое, она активизирует психические процессы, вызывает интерес к процессу познания.

В дошкольном возрасте игра имеет важнейшее значение в жизни ребенка. Она является ведущим видом деятельности. В игре удается привлечь внимание детей к таким предметам, которые в обычных неигровых условиях их не интересуют и на которых очень трудно сосредоточить внимание. Потребность в игре и желание играть у дошкольников необходимо использовать и направить в целях решения определенных учебных воспитательных задач. Наиболее приемлемой для развития познавательной активности и формирование предпосылок к учебной деятельности, на наш взгляд, является дидактическая игра. Задача, стоящая перед воспитателем, существенно отличается от задачи учителя школы: она состоит в приобщении детей к материалу, дающему пищу воображению, затрагивающему не только чисто интеллектуальную, но и эмоциональную сферу.

Дидактическая игра «аквариумные рыбки» дает возможность решать различные педагогические задачи в игровой форме наиболее доступной и привлекательной для детей. Уточнение предстовление о том, что в аквариуме живут рыбки, улитки, расстения. Рыбки плавают, улитки ползают, расстения растут и все они живые. Развивается речь, новый словарный запас,развитие чувства,сопереживание и эмоциональной отзывчивости к обитателям аквариума.

В младшей группе детского сада все дидактические игры рассматриваются как обучения детей сюжетно-ролевым играм. Чтение сказок превращается в маленький театр, где воспитатель может использовать маленький, но уже опыт

детей, тем самым активно могут активно включать их в познавательный процесс. Например, в сказке «Лиса и петух» воспитатель может попросить детей прокукарекать, как петушок, тихонечко пройти, как лисичка. Подобный вид игры, способствующие сенсорному воспитанию, игры на развитие и усвоение родного языка, игры, отражающие явления природы. С каждым годом игра усложняется, увеличивается объем знаний и навыков, манипуляций с подручным материалом.

Структура дидактической игры состоит из следующих компонентов: в дидактической игре всегда присутствуют игровой замысел, игровые действия и правила. Игровой замысел - задача - зачастую выражен уже в самом названии дидактической игры. Дидактическая задача осуществляется через игровую задачу.

Дидактические игры в ДОУ способствуют активизации познавательных способности детей. Они основаны на какой-либо интеллектуальной задаче, при решении которой и заключается познавательный и развивающий смысл игры. Дидактические игры - это группа игр с правилами, которые дают возможность систематически упражняться в определенных навыках, что очень важно для физического и умственного развития, для воспитания характера и воли. Без них в ДОУ трудно было бы проводить воспитательную работу. Родителей необходимо активно привлекать к участию в дидактической игре. Семья может активно использовать формы дидактической игры в общении с ребенком. Но этой форме деятельности порой родители, к сожалению, не всегда уделяют должное внимание, а жаль. Именно в дидактических играх развиваются органы чувств ребенка. Конечно, содержание и правила дидактических игр составляются с дидактической или учебно-воспитательной целью. Но дидактическая игра, хотя и является эффективным методом закрепления знаний, не должна превращаться в занятие. Это означает, что в ней должен присутствовать игровой момент.

Дидактическая игра в ДОУ увлечет ребенка только тогда, когда она интересна, когда она принесет детям радость и удовольствие. В формировании интеллектуальной готовности дидактическая игра должна давать упражнения, полезные для умственного развития детей и их воспитания.

Литература:

1.Гвоздьев Е.И. Дидактические игры и занятия ДОО. - М., 2011

2.Ушакова О. С. Методика развития речи детей дошкольного возраста : учеб.-метод. пособие для воспитателей дошк. образоват. учреждений / Ушакова О. С., Струнина Е. М. - М., 2018.

3.Кадырова Ф.Р. Развитие речи детей .-Ташкент 2001 г.

UNVEILING ENVIRONMENTAL METAPHORS: EXPLORING THE SYNERGY OF LANGUAGE AND ECOLOGY THROUGH ECOLINGUISTICS

Zafar Abdullaev

Senior teacherat JSPU
Abstract: Ecolinguistics, an interdisciplinary field at the intersection of linguistics and environmental studies, provides a lens through which to examine the profound relationship between language and ecology. This paper investigates the application of ecolinguistic principles in uncovering environmental metaphors within linguistic expressions. Through a synthesis of theoretical insights and practical applications, we explore how language shapes perceptions, attitudes, and behaviors towards the environment. By examining linguistic expressions through an ecolinguistic lens, we reveal the profound influence of language on ecological discourse and environmental consciousness. Furthermore, this study advocates for the integration of ecolinguistic insights into environmental communication strategies, education, and policy-making, thereby fostering ecological literacy and environmental stewardship.
Keywords: *Ecolinguistics, Environmental Metaphors, Language and Ecology, Environmental Communication, Ecological Literacy, Environmental Stewardship*

Introduction:

Ecolinguistics, a dynamic interdisciplinary field, offers a unique perspective on the intricate interplay between language and ecology. While traditionally, ecology and linguistics may seem disparate disciplines, ecolinguistics illuminates the intricate ways in which language both reflects and influences our understanding of ecological concepts and the environment at large. Language, as a cultural and cognitive phenomenon, plays a pivotal role in shaping human interactions with the environment, informing our perceptions, attitudes, and behaviors towards ecological issues. Through the lens of ecolinguistics, we embark on a journey to explore the nuanced connections between language and ecology, with a particular focus on the identification and analysis of environmental metaphors within linguistic expressions.

Exploring Environmental Metaphors:

Environmental metaphors permeate linguistic expressions across diverse contexts, reflecting underlying cultural beliefs, cognitive frameworks, and socio-environmental dynamics. These metaphors, often deeply ingrained in everyday language, serve as powerful vehicles for conveying complex ideas and shaping our understanding of ecological phenomena. From metaphors equating nature to a nurturing mother to those portraying the environment as a battleground, linguistic expressions mirror societal attitudes and perceptions towards the environment. By delving into linguistic data through an ecolinguistic framework, researchers uncover the intricate web of metaphorical associations related to the environment. Through detailed analysis, we elucidate the multifaceted nature of environmental metaphors and their implications for environmental discourse and action.

Implications for Environmental Communication and Education:

The insights gleaned from ecolinguistic analysis have profound implications for environmental communication and education. By understanding the metaphorical nuances embedded within language, communicators can craft messages that resonate with diverse audiences and evoke meaningful responses. Moreover, integrating ecolinguistic principles into environmental education curriculum enhances ecological

literacy and fosters a deeper appreciation for the interconnectedness of language and ecology. By fostering a holistic understanding of environmental issues, ecolinguistics contributes to the cultivation of environmentally responsible behaviors and practices. Furthermore, ecolinguistics informs environmental communication strategies, enabling communicators to navigate complex socio-cultural landscapes and effectively convey messages that inspire positive environmental action.

Conclusion:

In conclusion, ecolinguistics offers valuable insights into the intricate relationship between language and ecology. By uncovering environmental metaphors within linguistic expressions, ecolinguistics enhances our understanding of how language shapes perceptions and influences actions towards the environment. Moreover, by advocating for the integration of ecolinguistic insights into environmental communication strategies, education, and policy-making, we can foster ecological literacy and promote environmental stewardship on a global scale. Ecolinguistics serves as a powerful tool for creating a more sustainable and harmonious relationship between humans and the natural world, paving the way for a future where language serves as a catalyst for positive environmental change.

References:

1. Fill, A., & Penz, H. (2017). The Routledge Handbook of Ecolinguistics. Routledge.
2. Gorlach, M. (2017). Ecolinguistics: The State of the Art. Routledge.
3. Phillips, L. J. (2012). Language and Ecology: A Sociolinguistic Perspective. Routledge.
4. Svennevig, J. (2016). Ecolinguistics: A Review. Language Sciences, 54, 50-64.

MTT TARBIYACHISINING RIVOJLANISH MARKAZLARIDA TA'LIMIY FAOLIYATGA RAHBARLIK QILISH METODLARI

Zulfiya Mahmudova
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgach ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda rahbarlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi vazifalar, Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi o'ziga xos jihatlari haqida ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *tarbiya; tarbiya jarayoni; tarbiya turlari; aqliy tarbiya; sensor tarbiya; jismoniy tarbiya; axloqiy tarbiya; estetik tarbiya; mehnat tarbiyasi; ekologik tarbiya; huquqiy tarbiya; iqtisodiy tarbiya; ma'nan yetuklik; intellektual rivojlantirish.*

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Davlat standartida maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ilk va

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda “Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi” asosida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.
Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagilar ko‘rsatiladi:
- maktabgacha ta’lim tashkilotining ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an’analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo‘lishi lozim;
- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim. Albatta maktabgacha ta’limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.
Maktabgacha ta’lim tashkilot (MTT)lari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.
Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:
- o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.
Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo‘lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo‘lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta’lim va bilimlarga muhtoj bo‘ladi.
STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o‘yin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM - ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan.
Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunad ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashadi. SHuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar: legotexnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - can’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:
- muammolarni keng qamrovli tushunish;
- ijodiy fikrlash;
- muhandislik yondashuv;
- tanqidiy fikrlash;
- ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
-dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, YAponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta’lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘prik va yo‘llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayt sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi.

Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi. Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo‘rqmaslikka o‘rganadilar.

Ko‘pincha, stol atrofida o‘tirmaydi, o‘zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o‘tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do‘stlari bilan muloqot qilish bilan band bo‘lishadi. Texnik fanlar bo‘yicha qiziqishlarni rivojlantirish.

Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi STEAM ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo‘yicha, qilgan ishni yaxshi ko‘rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir.

STEAM - bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo‘lib, bolalarning zerikishlariga to‘sqinlik qiladi. Ular vaqt o‘tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko‘priklar, osmono‘par binolarni qurish, elektron o‘yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va

texnologiyaga qiziqishi ortib borada. Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.
STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O‘z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi.
Shunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo‘llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin. Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi.
Tarbiyachi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda etkazadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagogik jamoasining o‘rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo‘yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak.
Bola rivojlanishining o‘ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib etish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma’lum bosqichlarini bosib o‘tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o‘xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim.
Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta’kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o‘ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya’ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma’naviy etuklik darajasi nazarda tutiladi.
Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalarini tajribada sinab ko‘rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e’tibor berish avtomatik tarzda faollashadi.
Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko‘p axborot bilan chalg‘itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo‘llarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning o‘zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar.
Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o‘ylab topadiki, unda barchaga birdek ko‘rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holdaa o‘zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat

bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug‘ilib qolsa topshiriq va materiallarni o‘zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

“Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida MTTlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- qurilish va konstruksiyalash markazi
- syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi
- til va nutq
- ilm-fan va tabiat markazi
- san’at markazi
- musiqa va ritmika markazi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san’at markazida bir bola qog‘oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog‘ozdan qaychi bilan o‘zi o‘ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar markazida bir bola to‘rtta yog‘och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo‘lakli karton qog‘ozli tasvirni tuzishni ma’qul ko‘radi.

Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so‘ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam beradi. Bunday yo‘l tutish tufayli bola yaxshi sur’atda o‘sib-ulg‘ayishi mumkin.

Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o‘ynaydilar, mashg‘ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta’min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar.

Kun tartibi turli mashg‘ulot turlarini o‘zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg‘ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o‘rganadilar, o‘z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar).

Bolalarning o‘z tanlovlarini amalga - oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, indivdual maqsad qo‘yishi va unga erishishni bilishlari lozim.

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik bepul tayyorgarlik ko‘rish uchun barcha guruhlarda rivojlanish markazlari, shu jumladan maktabgacha ta’limda kun bo‘yi bo‘lish uchun tayyorgarlik guruhlari mavjud.

Maqsad: bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o‘qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta’minlash uchun sharoit yaratish.

Vazifalar:

- Bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish;
- individual manfaatlarni qo‘llab-quvvatlash;
- fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish;
- rivojlanish faoliyati;
- Nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish;
- tashabbuskorlikni rivojlantirish, o‘z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish;
- vizual - majoziy idrokni rivojlantirish;
- xotirani, nozik vosita ko‘nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish;
- kommunikativ ko‘nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish;
- bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollarini kengaytirish;
- barkamol shaxsni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta’lim, rivojlantiruvchi, o‘qitish, rag‘batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak.

Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi kerak.

Gurux xonasidan moslashuvchan va o‘zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo‘lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo‘lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o‘yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo‘lishi va bolalarning yoshiga mos bo‘lishi kerak. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o‘zgarishi kerak.

Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o‘z o‘zi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

Tematik rejalashtirishga ko‘ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o‘yin uskunalari bilan ta’minlash ustida o‘ylashi va to‘ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to‘ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi.

- **Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi:**
  har xil qurilish to‘plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o‘ynash uchun didaktik o‘yinlar va boshlang‘ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o‘quv materiallarlari.
- **Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi:** teatrning barcha turlari uchun atributlar va o‘yin materiallarlari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o‘yinlari, shlyapalar - maskalar, o‘yin to‘plamlari va burchaklarda o‘ynash uchun o‘yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do‘kon" o‘yinlari atrebutlari.
- **Til va nutq markazi**: didaktik o‘yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko‘ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to‘plami, "Rasmli Alifbo" kubiklari.
- **Ilm, fan va tabiat markazi**: atrof-muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallarlar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo‘yicha maketlar, tabiiy materiallarlarning xususiyatlarini o‘rganish uchun materiallarlar, to‘plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to‘plamlari, o‘ynash uchun o‘yin mavzular to‘plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.
- **San’at markazi:** tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san’at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

Markazlardagi bolalar faoliyati: o‘yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, mehnat, musiqiy va badiiy faoliyat.

Pedagogning rahbarlik faoliyati:

- bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani o‘rgatish;
- mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga bo‘lgan ehtiyoj, o‘rganish va rag‘batlantirish, shu bilan birga sub’ekt bo‘lish;
- Bolalar bilan birga uyushgan tadbirlar tashkil etish;
- qiyinchiliklar yuzaga kelganda, bolaga beg‘araz va o‘z vaqtida og‘zaki va amaliy yordam ko‘rsatish;
- bolaning shaxsiy qiziqishini rag‘batlantirish;

Rivojlanish markazlarida o‘quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o‘yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy

adabiyot o‘qish ensiklopedik adabiyotlarni o‘qish, ko‘rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish.

Bolaning rivojlanishi faqat o‘quv faoliyatida emas, balki o‘yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi.

Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, echimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo‘lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta’lim asosida yotadi.

Guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 6 ta markazlar bo‘lib, ularning har birida izlanish va o‘yinlar uchun etarli miqdordagi materiallar saqlanadi.

Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan xolda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu erda juda ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi.

Bu erda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko‘ra ko‘plab turli narsalarni – o‘yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo‘laklarini qo‘shib qo‘yish mumkin.

Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik naμia ko‘rinishlarini o‘ynashga xoxish-istak uyg‘otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo‘lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo‘layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o‘z o‘rinlarini tushunib etishlariga yordam beradi.

Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o‘quv qurollari mavjud bo‘ladi. Bu tinch burchak bo‘lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o‘qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu erda tarbiyachi yoki ko‘ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o‘qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o‘z qo‘llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig‘ishi va bo‘laklarga ajratishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lishi lozim. Bu erda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o‘yinlar ham bo‘lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko‘chadan topilgan narsalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun foydalaniladi.

San’at markazi bolalarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va amalga oshirishga rag‘batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu erda bo‘yoq, qog‘oz, qaychi, bo‘rchalar, qalamlar, gazlama bo‘laklari va kesish hamda elimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog‘och, barg, qum-tuproqni ham qo‘shib qo‘yish foydadan xoli emas. Ushbu markazdagi mashg‘ulotlar ijodiy qobiliyat, so‘z orqali va so‘zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Musiqadan va ritmika markazi butun kun davomida mashg‘ulotlarni birlashtirish uchun foydalanish mumkin. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o‘yinlar, musiqa asboblari chalish va yozilgan kuy-qo‘shiqlarni tinglash har qanday dasturni yaxshigina to‘ldiradi. Musiqaviy mashg‘ulotlar zehnni charxlaydi, ritmga, sanashga o‘rgatadi va nutqni rivojlantiradi; umumiy va nozik harakatlanishni (motorikani) rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatni namoyish etishga imkon beradi.

Pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo‘lgan qiziquvchanligini rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o‘z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlar uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so‘ng, qaysidir ko‘nikmalarga alohida e’tibor berish uchun ishlab chiqiladi.

Ota-onalar va oilaning boshqa a’zolari mashg‘ulotlarga kelar ekanlar, ular o‘z farzandlarida ishtiyoqning ortib borayotganligini, intilishning o‘sayotganligin his etadilar va ta’lim jarayoni qanday ketayotganligini, kelajakda bilimli, ijodkor kishilar bo‘lish uchun bolalar qanday o‘zaro muloqot qilayotganliklari, kelishayotganliklari, izlanayotganliklari, tanlayotganliklari va bilim hamda ko‘nikmalarni egallayotganliklarining guvohi bo‘ladilar.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigotskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

A.N.Leontev o‘yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi.

Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A.SHmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi.

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – “ijod maydoni”ga ega bo‘ladi.

O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi.

O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar.

O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub’ekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi.

O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta’biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

o‘ynash uchun olingan rollar;

bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;

predmetlarni, ya’ni haqiqiy narsalarni shartli, o‘yin narsalari o‘rnida qo‘llash;

o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari;

o‘yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi.

O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘limini o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.
O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.
O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llanadi.
O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.
O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.
Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.
Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.
Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud.
Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar “o‘yinli pedagogik texnologiyalar”ni tashkil etadi.
Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi.Pedagogik o‘yinlar asosida bolalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.
G.K. Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.
Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o‘yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

A.A. Verbitskiy tadbirkorlik o‘yinlariga o‘qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o‘yinlarida mashq qilish faoliyati va bo‘lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun’iy va tabiiy tizim sifatida o‘zaro nisbatlanadi. SHu tufayli tadbirkorlik o‘yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari,

ya’ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbitskiy oliy o‘quv yurtining vazifasini bunday o‘qitishda, ya’ni bolani bir etakchi faoliyat tipi (uquv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan (o‘zlashtirilgan) holda o‘tkazishni ta’minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o‘yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:
ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o‘quv materiali mazmunining izchilligi;
o‘yinli o‘quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
o‘quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug‘dirish va ularni amalda qo‘llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
o‘yinning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligi yi g‘indisi;
o‘yinni olib boruvchi o‘qituvchining bolalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan bolalarning o‘z xatti- harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o‘tishini ta’minlashi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o‘yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat’i nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:
kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi, o‘yin imitatsiyasiga taalluqli bo‘lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo‘lishi, mustaqil tashkil etishga yo‘nalganligi, o‘qitishning muammoliligi, metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta’minlanganligiga ega bo‘lishi lozim.

Tashkiliy o‘yin aslida tobora takomillashib boruvchi o‘qitishni ta’minlashi kerak. SHu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to‘liq davriyligi imitatsiyasi amalga oshiriladi, ya’ni qandaydir vaziyat echimiga bo‘lgan yondashuvdan topilgan echimning umumlashtirilgan bahosi o‘tiladi.

A.A. Tyukov o‘yin davriyligining quyidagi bosqichlarni qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o‘yinning asosiy syujet mavzusi bo‘yicha o‘yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi;
- amaliy guruhlarning ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;
- o‘yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;
- echimni tashkil etish bosqichi.

Tadbirkorlik o‘yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarni tanlash;
- rollarni taqsimlash;
- o‘yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- ijtimoiy psixologiya bo‘yicha umumnazariy bilimlarni egallash;
- nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish;
- shaxsiy tayyorgarlik.

Tadbirkorlik o‘yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1.O‘quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig‘i shaklida qo‘yish:
bo‘lg‘usi tadbirkorlik o‘yinining maqsadini aniqlab olish;
muammoli vaziyatni anglab etish;
bolalarga navbatdagi tadbirkorlik o‘yini haqida dastlabki ma’lumotlar berish;
2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish:
bolalarning o‘qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;
bajarilishi lozim bo‘lgan ish to‘g‘risida bolalarga yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatish;
olingan bilim, o‘zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;
o‘z-o‘zini nazorat qilish;
3. Tadbirkorlik o‘yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

Navbatdagi ishni rejalashtirish:

ularga avval ma’lum bo‘lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;
avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o‘z ijodi uchun zarur bo‘lgan yangi metodlarni qidirish;
rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.
5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o‘yinlaridagi o‘z mavqeini aniqlash.
6. O‘zlaridagi bor bilim, malaka va ko‘nikmalar asosida reja bo‘yicha ishlarni bajarish:
yangi bilim va malakalarni hosil qilish;
o‘z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish.
qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;
belgilangan rejalarni (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;
yakuniy natijalarni tekshirib ko‘rish va tahlil qilish.
7. Bolalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko‘nikmalarini nazorat qilish va joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.
8. Bolalarning tadbirkorlik o‘yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko‘rish.
9. Bolalarga tadbirkorlik o‘yinlarini o‘tkazish va unda qatnashish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish, ularni rol o‘ynash bo‘yicha taqsim qilish, zarurat tug‘ilganda har biriga qo‘shimcha yo‘l-yo‘riqlar berish.
10. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo‘yicha bolalarning tadbirkorlik o‘yinlari.
11. O‘yin ishtirokchilariga joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.
12. O‘yin ishtirokchilarining o‘yin davomida o‘zi o‘ynagan rollariga baho berishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi.
13. Tadbirkorlik o‘yini natijalarini muhokama qilish va bolaning o‘quv-o‘yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, tadbirkorlik o‘yinlari materiallarni yangi bilimlarni egallash, o‘tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni echishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o‘yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud:

Imitatsion o‘yinlar. Bunday o‘yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o‘tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin. Ssenariyda bunday o‘ynash to‘la tuzilmasi yozib chiqilgan va imitatsiya qilinadigan ob’ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeiy) o‘yinlar. Bunday o‘yinlarda aniq o‘ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o‘yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o‘yinlari. Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o‘z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o‘ynaladi. Bu o‘yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo‘ljalni to‘g‘ri baholay olishni o‘rgatish, o‘zining xulqiga to‘g‘ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqot o‘rnata olishga o‘rgatishdir.

Psixodrama va sotsiodrama. Bu ham o‘ziga xos “teatr”, lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko‘zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o‘zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни. *Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон*. https://lex.uz/docs/4646908/
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги 802-сонли Қарори. 2020 йил 22 декабрь.
3. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A’zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: “Tafakkur”. 2019 y -684 b.
4. Шахсга йўналтирилган ёндашув асосида таълим жараёнини режалаштириш. Методик қўлланма. А.В.Шин, Ш.Ш.Мирзиёева, И.В.Грошева ва бошқалар. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги Мувофиқлаштириш кенгашининг 2020 йил 17 июлдаги 1-баённомаси. Тошкент-2020.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Zulfiya Mahmudova
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Hamroqulova Laylo Sanjarbek qizi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi shaxsi va unga qo‘yiladigan talablar bilan tanishtirish usullarini ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: Iste'dod, iqtidor, tarbiyachi, nutq faoliyati, notiqlik, nutq texnikasi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi uchun ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Tarbiya - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat - yo razolat masalasidur" - deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak». Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;

- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnata olish qobiliyati;
- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta’sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi - tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan botishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish - pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma’lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1.Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan bo'lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka,

ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;
4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;
5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;
6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;
7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;
8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatIar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;
9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi;
10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.
Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojiantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq, Shu qobiliyat tufayli o'qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi o'qituvchining nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalarni pedagog-tarbiyachi unutmasligi kerak:
1. Nutq madaniyati o'qituvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.
2. Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.
3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.
4. Nutq madaniyati — bu, avvalo, o'qituvchilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egalash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni ifodali o'qiy olishi, radio va televideniye eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.
6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh o'qituvchilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz-murabbiylarning nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin.Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:
- Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish;
Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi - o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur. Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatiaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir.
Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi - tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu - tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek, tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchini teng huquqli hamkor, hamfikr deb qarash lozim.
Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.
Tarbiyada izchillik va tizimlilik - tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday

pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.
Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shaxsning shakllanishiga hayot, ijtimoiy jamiyat ta’sir etadi. Bu bir tomondan bo'lsa, ikkinchidan bolalarni tarbiyalashdan maqsad uni turmush uchun mustaqil hayot uchun tayyorlashdir, Shunday ekan, maktab va tarbiya muassasalarida olib boriladigan bo'lishi kerak.
Tarbiyani mehnat bilan bog'lab olib borish. Mehnatning tariyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unummehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiya uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhiy, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning izi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog‘langan.
Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish - o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsni hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatim kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishiga, qayerdaki o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsagina u yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'Iadi. Bolalarga hurmati muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.
Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi.
Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tariyaviy ishlarni amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi. Yaxshi uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy uchga ega bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma vaqt o'quvchilar

jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Maktabgacha pedagogika [Matn] darslik / F.R.Qodirova - Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA'zamova- Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b.

2. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b.

3. Tosheva Nurzoda Toshtemirona, Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. [Matn]: darslik / N.T. Tosheva / - Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI"MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022. -396 b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IJODIY MASHQLAR BILAN ISHLASHNING SAMARADORLIGI

G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo'lim o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ijodiy mashqlar bilan ishlash orqali bolalarni mustaqil fikrlash, keng tasavvur va dunyoqarashga ega bo'lish, shaxsiy rivojlanishga yo'naltirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili va o'qish savodxonligi, ijodiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy mashq, o'quv materiallari, idrok, zehn, tafakkur, o'yin texnikasi, faollik, matematik nutq, kompetensiya, pedagogik texnologiya.

Boshlangich sinfda bolalarda ona tili savodxonligi darslarida keng mulohaza yuritish, mustaqil fikrlash, vaziyatga munosabat bildirish kabi ko'nikmalar to'liq shakllanmagan bo'ladi. Birinchi sinfdan boshlab mashqlar bilan ishlash bola tafakkurining rivojlanishi uchun zamin yaratadi. O'quvchilarni harakatga keltiradigan mashqlardan foydalanish aqliy rivojlanish salohiyatini yuksaltiradi. Bunda mashqlarni bajarish o'qituvchi ko'rsatmalari bilan bolaga to'g'ri yo'naltiriladi. Bugungi kun talabi ham mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega kelajak avlodni tarbiyalashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirishda o'quvchilarni "Kreativ fikrlash" (o'z maqsadlarga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish)ga yo'naltirish muhim omillardan biridir.

Ona tili savodxonligi darslarida berilgan mashqlar oquvchilar tafakkur doirasini ostirish, ogzaki va yozma nutqni erkin bayon qila olishga undaydi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili va ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish

boshlang‘ich sinflarda ona tili savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlar quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni belgilashga imkon beradi:
- boshlang‘ich sinflarda yuzaga kelgan o‘quv muammolari o‘zida qandaydir hayotiy vaziyatni namoyon etmog‘i lozim. Dars jarayonida o‘quvchilar e’tiborini jalb etish uchun ijodiy topshiriqlarni berish lozim.
- Ona tili savodxonligining o‘quv predmeti sifatidagi ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan aloqasiga ko‘ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir.
- Faqat boshlang‘ich sinflarning ona tili savodxonligi darslari uchun xarakterli metodik usullarda ish ko‘rishda.
- O‘quvchilarga o‘quv materialining hissiy ta’sir etishida.
- Faqat ona tili savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish jarayonida.
- Boshlang‘ich sinflar ona tili savodxonligin ta’limida ijodiy topshiriqlardan foydalanish, balki unga tayyorgarlik haqida ham gap boradi, chunki o‘quvchilar bunday topshiriqni qabul qilishga oldindan psixologik, mantiqiy tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishlari kerak;
- Boshlang‘ich sinflardagi ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning doimiy ravishda mashg‘ul bo‘lishi bilan bog‘liq. Mashg‘ul bo‘lish ijodiy topshiriqlarni bajarish holatiga olib keladi.
Bolalar qiziquvchan va ozgacha tasavvurga ega boladilar. Bolalar bilan ijodiy oylash mashqlaridan foydalanish muammoni hal etishga ruhlantirish, doimiy oylash muhitidan chiqish, jamoa bolib ishlash, oziga bo‘lgan ishonchni orttirish uchun ajoyib usuldir.
Quyida ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan ta’lim usullaridan namunalar keltiriladi:
1.“Matn (hikoya, ertak, rivoyat..)ni davom ettiring” topshirig‘i asosida
biror matn eshittirladi va kulminatsion nuqtaga yetganda to‘xtatilib, “Nima deb o‘ylaysiz yakuni qanday bo‘ladi? Davom ettirib yakunlang” kabi topshiriq berilib, har bir o‘quvchining ijodiy yondashuvi eshitiladi.
2.Rasmlar asosida hikoya, ertak, she’r, masal to‘qish vazifasi asosida ham o‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltirgan holda iqtidor va iste’dodlarini namoyon qilishlariga imkon beramiz.
3.Bayon yozish orqali ham o‘quvchilardagi kreativ fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirishimiz mumkin.
4.Mavzular asosida rasm chizish, yasash, yaratish orqali ham o‘quvchilarning ijodiy jarayondagi kreativ yondashuvlarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.
5. O‘quvchilar nutqida faolga aylangan so‘zlar va lug‘at bilan ishlash jarayonida o‘rganilgan so‘zlar asosida bog‘lanishli matn tuzish. Bunda o‘quvchilar so‘zlarni ma’no jihatidan bir biri bilan bog‘lashni, fikrini namoyon etishni, tasavvurida vaziyatni shakllantirishni o‘rganadi.
O‘quvchilarda ijodiy fikrlash yo‘nalishlari quyidagilar asosida shakllanadi:
- Qobiliyat;
- Iste’dod;
- Muloqotqatchanlik;
- Kasbga yo‘nalish;

- O‘zaro hamkorlik;
- Dunyoqarash kengayishi;
- O‘zligini namoyon qilish imkoni va hokazola

Xulosa qilib aytganda o‘sib kelayotgan avlodni erkin va mustaqil fikrlovchi hamda o‘z tasavvur va keng dunyoqarashga ega qilib shakllantirishda ijodiy mashqlardan bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanish samarilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug‘i.
2. Begetto, R. and J. Kaufman (2010), Nurturing creativity in the classroom, Cambridge University Press.
3. A. A. Ismoilov,X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”.Toshkent- 2021.
4. Safarov, B.N. (2022). Pirls-xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganish bo‘yicha taraqqiyot. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , (5), 134-138

MARIYA MONTESSORI PEDAGOGIKASINING G‘OYALARI VA TAJRIBASI

Sh.Dosbayeva

NamDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Montessori pedagogikasining g‘oyalari va tajribasi, Mariya Montessori pedagogikasini ta’lim tashkilotlarida amalga oshirish tarixi va nazariy qarashlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, ta’lim texnologiyalari, o‘qitish texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, texnologik jarayon, tizimli yondoshuv, metodika, didaktik loyiha, tashkiliy funksional elementlar.

Ta’limga innovatsion va bolalarga yo‘naltirilgan yondashuvi bilan mashhur bo‘lgan Montessori tizimi boshqa pedagogik texnologiyalar va usullar bilan bevosita aloqada rivojlanadi. Montessori pedagogikani turli xil ta’lim texnologiyalari bilan birlashtirish orqali o‘qituvchilar ikkalasining ham kuchli tomonlaridan foydalanib, yanada dinamik va shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribasini yaratishlari mumkin. Montessori tizimi va ushbu texnologiyalar o‘rtasidagi potensial rivojlantirish talaba va o‘quvchilarga ta’lim jarayonida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Ushbu hamkorlik yanada yaxlit va boyituvchi ta’lim sayohatiga yo‘l ochadi.

M.Montessori o‘zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- ❖ insonparvarlik;
- ❖ shaxsiy yondashuv;

❖ muloqot mahorati;
❖ oila pedagogikasining qo‘shimcha imkoniyati;
❖ o‘quv faoliyati.

M.Montessori texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Miqdoriy baholashdan ko‘ra sifatli baholashga urg‘u beriladi, ya’ni tavsif, natijalar paketi, o‘z-o‘zini baholash kabi. Hozirgi kunga qadar bolaga nisbatan eng insonparvar munosabat va yondoshuvni amalga oshirish hamda uni ommalashtirish bo‘yicha M.Montessorining samarali faoliyati davom etmoqda.

Mariya Montessori pedagogikasi kontekstida an'anaviy Montessori yondashuvi jismoniy sinf muhitida amaliy, tajribaviy o‘rganishni ta’kidlaydi, bu esa onlayn ta’lim muhitiga o‘tishda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Biroq, onlayn ta’limning keng tarqalishi bilan ko‘plab o‘qituvchilar va maktablar Montessori tamoyillarini raqamli landshaftga moslashtirdilar.

Onlayn ta’lim muhitida Mariya Montessori pedagogikasi bilan bog‘liq ba’zi g‘oyalar va tajribalar:

1. Raqamli Montessori materiallari: o‘qituvchilar Montessori materiallari va faoliyatining raqamli versiyalaridan foydalanishlari mumkin, bu esa talabalarga ob'ektlarni boshqarish va amaliy o‘quv tajribalari bilan shug‘ullanishga imkon beradi. Montessoriga asoslangan interaktiv faoliyatni taklif qiluvchi ko‘plab raqamli platformalar va ilovalar mavjud.

2. O‘z-o‘zini o‘rganish: Montessori falsafasiga muvofiq, talabalarga o‘z tezligida o‘rganish erkinligini ta’minlash juda muhimdir. Onlayn sharoitda bunga oldindan yozib olingan darslarni taklif qilish orqali erishish mumkin, bu talabalarga kerak bo‘lganda materiallarni qayta ko‘rib chiqishga va o‘quv dasturi orqali o‘z tezligida o‘tishga imkon beradi.

3. Shaxsiy ko‘rsatma: videokonferentsaloqa vositalari orqali o‘qituvchilar har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlari va o‘quv uslubiga moslashtirilgan yakka yoki kichik guruh ko‘rsatmalarini taqdim etishlari mumkin. Ushbu individual yondashuv Montessori usulining har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish bosqichi va qiziqishlariga mos kelishiga olib keladi.

4. Hamjamiyat va hamkorlikni ta’kidlash: onlayn bo‘lsa-da, talabalar o‘rtasida hamjamiyat va hamkorlik tuyg‘usini rivojlantirish muhimdir. O‘qituvchilar Montessori ta’limining ijtimoiy jihatini aks ettirib, virtual guruh loyihalarini, tengdoshlarning o‘zaro aloqalarini va kooperativ ta’lim tajribalarini osonlashtirishi mumkin.

6. Ota-onalarning ishtiroki: Montessori onlayn rejimida ota-onalar farzandining ta’lim safarida muhim rol o‘ynashi mumkin. O‘qituvchilar Montessori ta’limida ta’kidlangan hamkorlikdagi yondashuvga mos ravishda ota-onalarga farzandining ta’limida faol ishtirok etishlari uchun resurslar, ko‘rsatmalar va vositalarni taqdim etishlari mumkin.

Umuman olganda, Mariya Montessori pedagogikasi dastlab jismoniy muhit uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, uning tamoyillarini onlayn ta’lim muhitiga

moslashtirish va integratsiyalashning ko‘plab usullari mavjud bo‘lib, ta’limga yaxlit va bolalarga yo‘naltirilgan yondashuvni rivojlantiradi.

Mariya Montessori pedagogikasining g‘oyalari va tajribasi. Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bu «bolaga ergashish». Montessori o‘qituvchilar bolalar o‘z suratini o‘rganish va o‘z manfaatlarini ko‘zlash uchun ruxsat berilishi kerak. Ushbu yondashuv bolalarga o‘zlari uchun kashf qilish erkinligi berilganda eng yaxshi o‘rganish bo‘ladi degan ishonchga asoslanadi.

Montessori usulining yana bir muhim jihati-amaliy, tajribaviy o‘rganishga urg‘u berish. Montessori sinflari odatda bolalarni dunyoni o‘rganish va o‘rganish uchun his-tuyg‘ularidan foydalanishga undash uchun mo‘ljallangan maxsus mo‘ljallangan o‘quv materiallari bilan to‘ldiriladi. Ushbu materiallar til, matematika va amaliy hayotiy ko‘nikmalar kabi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun ehtiyotkorlik bilan tanlangan.

Montessori pedagogikasi, shuningdek, tayyorlangan muhitning ahamiyatiga katta e'tibor beradi. Montessori sinf xonalari mehmondo‘st, tartibli va chiroyli bo‘lishi uchun ehtiyotkorlik bilan yaratilgan bo‘lib, bolalarga ularning tabiiy qiziqishi va o‘rganish istagini qo‘llab-quvvatlaydigan o‘quv muhitini taqdim etishga qaratilgan.

Umuman olganda, Montessori usuli bolalar o‘z bilimlarini boshqarishga qodir va buning uchun erkinlik va yordam berilishi kerak degan fikrga asoslanadi. Ushbu yondashuv bolalar uchun bir qator afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan, jumladan, ko‘proq mustaqillik, o‘rganishga bo‘lgan muhabbat, o‘ziga ishonch va o‘zini hurmat qilish hissi.

Jismoniy faollikni rivojlantirish. Montessori jismoniy faollik bo‘yicha quyidagi imperativni ilgari surdi: na harbiy, na murakkab gimnastikaga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu munosabat bilan bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun uchta turdagi gimnastika taklif qilindi: apparatdagi gimnastika, erkin gimnastika, ta’lim gimnastikasi.

Gimnastika apparatlari bolalarning jismoniy xususiyatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Masalan, o‘ziga xos gimnastika asboblari mavjud: uchta parallel dumaloq doira ikkita yog‘och ustunga biriktirilgan. Biri eng pastki qismida, ikkitasi tepada, bir-biriga yaqin. Bola tutqichlari bilan yuqori doiralarning birinchi yoki ikkinchi qismini oladi, ularning bo‘yiga mos ravishda pastki qismiga paypoq qo‘yadi va u o‘ngdan chapga harakat qiladi; shu tarzda harakatlanib, u oyoqlarga tana bosimini pasaytiradi, shuning uchun u oyoq mushaklarini nisbatan charchamasdan va zaif suyaklarini butun tana vazniga ortiqcha yuklamasdan mashq qilishi mumkin.

Yana bir qurilma — bu kichik bolalar belanchak turi. Bu belanchak shunday joylashtirilganki, uning ustida o‘tirgan bolaning oyoqlari cho‘zilgan holatda bo‘ladi. Belanchak yaqinida devorga osilgan taxta bor. Belanchakda tebranib, bola har bir belanchakda oyoqlarini taxtaga itaradi va shu tufayli oyoqlarini tanasining og‘irligi bilan yuklamasdan mustahkamlaydi.

«Absorbent ruh» - bu ruhiy energiya. Montessori chaqaloq rivojlanishining mohiyati bu o‘z-o‘zini o‘rganish deb hisoblaydi, bu tabiat tomonidan unga kiritilgan dasturga to‘liq mos keladi. Va bu jarayonning psixologik va fiziologik asosi u erta

bolalikning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uni «changni yutish aqli» deb ta’riflagan. Uning fikriga ko‘ra, agar kattalar aql yordamida bilim olsalar, u holda bola uni aqliy hayoti orqali o‘zlashtiradi. Shunchaki yashab, u o‘z xalqining tilida gapirishni o‘rganadi va «uning ongida qandaydir kimyoviy jarayon sodir bo‘ladi». Bolada taassurotlar nafaqat ongga kirib boradi, balki uni shakllantiradi. Go‘yo unda mujassamlangan. Uni o‘rab turgan narsalar yordamida chaqaloq o‘zining «aqliy tanasini» yaratadi.

Shuning uchun, Montessorining so‘zlariga ko‘ra, kattalarning vazifasi «bolaning ongi rivojlanishi ustida ishlashda» yordam berishdir, chunki u juda katta ijodiy energiyaga ega. Va aynan shu energiya yordam berishi oddiy og‘zaki ta’lim bilan emas, ongsizlikdan ongga o‘tish jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashish bilan o‘z kuchini ko‘rsatadi deb aytadi Montessori.

Shunday qilib, Montessori bolalar ruhiyatining xususiyatlariga, uning kattalar ongidan farqiga diqqat bilan e'tibor berishga chaqiradi. Montessori kattalar atrof-muhitdan ma’lumot olish va keyinchalik uni qayta ishlash uchun fikr va iroda kuchidan foydalanadi, ammo yosh bola hali bunday qobiliyatni rivojlantirmagan deb keltiradi. Buning o‘rniga, tabiat bola uchun psixikaning o‘ziga xos xususiyatiga ishora qiladi, bu bolaga atrofdagi voqelikning obyektlari va hodisalarini farq qilmasdan yaxlit idrok etishga imkon beradi deb aytib o‘tadi.

«Mneme» – bolaning xotirasi. M.Montessori «saqlovchi aql» tushunchasining ma’nosini bola ruhiyatining xotira kabi fenomeni bilan ham bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, kichkina bolani atrofdagi dunyoga moslashtirish jarayoni ongli yodlash bilan bog‘liq emas, balki xotiraning boshqa shaklida, ya’ni dunyo rasmini ongga singdirish, ya’ni bu yerda xotira voqealar va tasvirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saqlashning aqliy funksiyasi bilan bog‘liq.

«Mneme» tushunchasidan foydalanib, Montessori tabiiy, tabiiy va mnemonikani (sun'iy assotsiatsiyalarni shakllantirish orqali xotirani saqlashni osonlashtiradigan va xotira hajmini oshiradigan usullar va usullar to‘plami) ajratib ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, u organik xotira funksiyalari va madaniy yodlash usullarini farqlaydi. Shu munosabat bilan, u bolaning faol ixtiyoriy xotirasini yanada rivojlantirishda atrofdagi voqelikka moslashish jarayonida xotiraning organik asosining alohida ahamiyatini ta’kidlaydi. Montessori tavsifiga ko‘ra,»mneme» maxsus turdagi xotira sifatida nafaqat insonning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishga yordam berish, balki ularning asosini shaxsning ongida faol holatda saqlash qobiliyatiga ega. Bola bolalikda nimani shakllantirsa, uning shaxsiyatida abadiy qoladi.

Ushbu hodisa bilan Montessori odamlarning turli tarixiy davrlarga moslashishini tushuntiradi. Bola tug‘ilish paytida topadigan madaniyat darajasiga moslashadi. Italiyalik olim bolalikning vazifasi shaxsni atrof-muhitga moslashtirishdan iborat degan xulosaga keladi, u yerda u o‘z xatti-harakatlarining modelini shakllantiradi deb hisoblaydi.

Montessorining «mneme» ning o‘ziga xos roli haqidagi mulohazalarini L.S.Vgotskiyning asarlarida topish mumkin, xususan, «bu jismoniy boshlang‘ich

qobiliyatlarida, nutqni oson o‘zlashtirishda, juda ko‘p sonli mavzularni ushlab turishda va umuman olganda aniq namoyon bo‘ladigan bolalarning ajoyib yodlanishini ibtidoiy xotira bilan izohlaydi» – dev keltiradi u.

Montessori «Mneme «asosida bola nutqni o‘zlashtiradi va uning xotirasining keyingi rivojlanishi allaqachon ma’lum bir so‘zning ma’nosi bilan bog‘liq, ya’ni «mneme intellektualizatsiyasi» sodir bo‘ladi, mnemonik yodlashga o‘tish boshlanadi” – deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daminova M., Adambyekova T. «O‘yin mashg‘ulotlari» T.: «O‘qituvchi» 1993y
2. Logipova V.I. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» T.: «O‘qiuvchi» 1992y
3. Yusupova G. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». T «O‘qituvchi» 1993
4. Fausyek Yu.U. Motessori bolalar bog‘chasi. T.: «Yangi asr avlodi» 2007y

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO‘NIKMALARI SHAKIIANTIRISH

Sharipova Nodira Botir qizi

CHDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yosh davrida bolalarda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari shakiiantirishning omillari hamda bolalar ijtimoiylashuvida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilanining ta’siri haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha, yoshg davri, o‘yin, emotsional holat, vegetativ buzilish, hohishni cheklash, adaptasiya, tanlash, muloqot, uyqu.

Bola xayotining ilk yilidagi xarakterli tomonlari uning jismoniy va psixologik shiddat bilan rivojlanishidir. Bolaning muloqot mazmuni kengayib atrof bilan muloqot va so‘z boyligi oshishi jarayonida bolada vaziyatdan tashqari nutqiy muloqotga ehtiyoj ham shakllanadi.

Bola xayotini birinchi yilidayoq bolada tanlash shakllanadi. Bola juda erta o‘zinikini begonalardan ajratishni boshlaydi, ba’zi ota-onalr o‘zlari hoxlab yoki hoxlamay bolada yaqinlariga bo‘lgan bog‘liqlikni mustahkamlaydilar uning muloqot doirasini toraytiradilar, boshqa kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirishga urinmaydilar.

Shunday hollar ham booladiki bolada begonalarga nisbatan salbiy munosabatni uyg‘otadilar. “Mana amaki kelyapti seni olib ketadi” “qara qanaqa yomon xola ekan, agar yig‘lasang seni unga berib yuboraman” degan gaplarni qanchalar zararli ekanligini ota-onalar bilmaydilar. [1].

Bola uchun har bir yangi vaziyat alohida muhim xodisadir.

Ma’lumotning yetishmasligi, xayot tajribasi kamligi, voqeani tanqidiy tushunib olmasligi bolaning bog‘chaga borishini kattalardan ko‘ra umuman boshqacha tasavvur qilishiga sabab bo‘ladi.

Adaptatsiya bu-organizmining tashqi muhit bilan adekvat aloqalarining shakllanish xususiyati. [2].
Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashish davrida jismoniy va psixologik hususiyatlari:
Avvalam bor shuni esda tutish lozimki yosh bolaning organizimi xali funksional yetilmagan bo‘ladi. Atrof muhitning o‘zgaruvchan sharoitiga, jumladan temperatura o‘zgarishlariga ko‘nikuvchanlik mukammal bo‘lmaydi shu sababdan bola shamollash kasalliklariga duchor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun u judda ehtiyotkor muomalaga, parvarishga muhtoj. [1].
Agar bola tez-tez kasallansalar ularning atrof muhidga qiziqishlari kamayib, tez asabiylashib yig‘loqi bo‘lib qoladi bu esa harakatlar, predmetlar bilan ammalar rivojlanishini anchayin sekinlashtiradi, natijada fikrlash, dunyoni qabul qilish va nutq o‘sishi sekinlashadi. Shuningdek bolada yangi muhitga moslashish jarayoni ham qiyin kichadi. Muloqot doirasi qanchalar tor bo‘lsa, bolaning yaqinlari qanchalik kam bo‘lsa, bolaning muloqot tajribasi ham shunchalik kam bo‘ladi va begonalar bilan aloqa o‘rnatish shunchalik qiyin bo‘ladi. Tarbiyachi bola bilan birinchi kuniyoq aloqa o‘rnatishi lozim lekin bolada notanishlar bilan muloqot tajribasi bo‘lmasa u tarbiyachining barcha harakatlariga salbiy javob qaytaradi: yig‘laydi tarbiyachidan uzoqlashishga harakat qiladi.Kichik yoshdagi bolalar tez charchaydilar. Bolaning charchashi uning o‘zini tutishida turli o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin, shakllangan ko‘nikmalar buziladi, kattalarga bo‘lgan salbiy munosabat va o‘z tengdoshlariga nisbatan agressiv munosabat belgilari paydo bo‘ladi. Salbiy odatlar namoyon bo‘la boshlaydi ya’niy barmog‘ini so‘rish va shunga o‘xshash odatlar. Bolada ishtaha yo‘qoladi, uyqusi yo‘qoladi, kerak bo‘lsa stol oldida uxlab qolib, kerak paytda uxlamasligi mumkin, shu sababdan ortiqcha charchoqning oldini olishning eng yaxshi sharti kun tartibini tashkillashtirishdir. Ikki uch yosh bolalarda faol bo‘lib yurish muddati katta bolalarga nisbatan qisqaroq bo‘ladi. Faollik muddatini keragidan ko‘paytirib yuborish uyquni kamayishiga, bolada ortiqcha asabiyikka, bo‘shashish va injiqlikka olib keladi. Shunday ekan bolani guruhga olayotgan paytda u uyda qanday va qancha uxlaganiga qiziqish lozim va shunga mos tarzda bolaning bog‘chadagi va oiladagi kun tartibiga o‘zgartirish kiritish lozim. Ortiqcha charchash nevro‘z paydo bo‘lishiga olib kelishi yoki bolaning nerv tizimi chidamliligi juda past bo‘lishi mumkin. Ajoyib pedagog K.D.Ushinskiy aytganidek “bolani to‘laqonli tarbiyalash uchun, uni to‘laqonli bilish lozim”. [1].
Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki- bola bamisoli nihol uni tarbiyalash va sog‘lom voyaga yetkazish bu ota-ona va tarbiyachi nafaqat bunda mahalla ham mas’uldir. Bola bog‘chaga oson ko‘nikishi uchun bolani bog‘chaga sayir qildirish va tanishtirish, bog‘chaga qiziqish uyg‘otish bog‘cha haqida iliq so‘zlar aytish, bog‘chaga borishda o‘zi hohglagan kiyimlarini kiyib borishga ruxsat berish bola fikrini inobatga olib qiziqishlariga etibor berish kerak. Bolani uyqu vaqtini nazoratga olib, tengdoshlari orasida ajrab qolmasigi uchun etibor berish va har xil o‘yinlar bilan mashg‘ul qilib asabiylashishiga yo‘l qo‘ymaslik, va bola uchun tarbiyachini kayfiyati ta’sir qilmasligi va tarbiyachi bolajon bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teshabayeva Z.S.“Bolangiz bogchaga tayyormi” Toshkent: MALIK PRINT nashriyoti 2022 y. 47-54 b
2. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
2. Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.
3.SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo‘llanma T: “HILOL- NASHR” 2022y 355 b
4. Ibraimov, X., G Gaynazarova, g. (2023). the content of preparing students for professional activity in the process of individual education. science and innovation, 2(b12), 330-333.

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHISINING ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNI EKSPERMENTAL O‘RGANISH

G‘afurova Gulbahor

Namangan Davlat Universiteti 1-kurs PhD

Annotatsiya: Hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan ta’lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda estetik madaniyatni tarbiyalash talabalar o'rtasida ijodkorlik, hamdardlik va tanqidiy fikrlashni oshirish kundan kunga eng dolzarb masalalrdan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning estetik sezgirligini shakllantirish uchun innovatsion yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar keltirilgan. Ta'lim, psixologiya va estetikaning fanlararo istiqbollariga asoslanib, tadqiqot kelajakdagi o'qituvchilarning estetik ongini oshirishda eksperimental aralashuvlarning samaradorligini o'rganish uchun aralash usullardan foydalanilshi bayon etilgan. Ushbu eksperimental tadqiqot tajribali o'rganish va aks ettirish amaliyoti orqali bo'lajak o'qituvchilar orasida estetik sezgirlikni rivojlantirish jarayonini o'rganadi. Tadqiqot kelajakdagi o'qituvchilarning estetik ongini shakllantirish va ularning o'qitish amaliyotiga san'at, ijodkorlik va madaniy qadrlashni singdirish qobiliyatini oshirishda eksperimental yondashuvlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan.

tutadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarga ruxiy va jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus muassasalarda ish olib boradigan mutaxassislar faoliyatining mazmuniy-korreksion va tashkiliy-metodik asoslarini egallashga yordam beradi.Rivojlantiruvchi tayyorgarlik funksiyasi shundan iboratki, maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallash kasbiy tafakkur, nutq, pedagogik qobiliyatning rivojlanishi bilan uyg‘un bog‘liqlikda kechadi. Bu surdopedagog-mutaxassisga maxsus muassasalarda ta’lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondoshish imkonini beradi. Koordinatsiyalovchi (muvofiqlashtiruvchi) tayyorgarlik funksiyasi uning talabalar tomonidan korreksion pedagogika, psixologiya va maxsus metodikalarni kelajakda o‘rganish, shuningdek maxsus kurslar va maxsus seminarlarga tayyorlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, bo‘lajak surdopedagoglarga o‘qitiladigan metodikalar boshqa fakultetlar o‘quv rejalaridagi metodika kurslariga qaraganda ko‘proq o‘ziga xos ichki mazmuni bilan ajralib turadi. Demak, bo‘lajak pedagog-surdopedagogning didaktik tayyorgarligi uning butun bo‘lajak kasbiy tayyorgarligining poydevorini tashkil etadi.Tayyorgarlikning asosiy tuzilmaviy komponentlari (maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy) o‘zaro aloqada yaxlit holda amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teshaboyeva F. R. Oliy ta’limda surdopedagoglarga “Ona tili o‘qitish maxsus metodikasi modulini o‘qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari” Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2022.-24 b;
2. Qalandarova S.T.Nolisoniy mutaxassislik talabalarining lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish Diss. …avtoref. ped.fan. bo‘yicha falsafa dok. − T., 2020.− 11 b.

3. Qo‘ysinov O.A. “Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorliginirivojlantirish texnologiyalari”. Ped.fan.doktori...diss. - T., 2019 43-b.

4. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim jarayonida zaif yeshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish. ped. fan. bo‘yicha dok. (DSc) diss. avtoref.Toshkent:TDPU.2020. -78 b.

ADABIY TA’LIM JARAYONIDA ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Mamarajabova Zulfiya Narbaevna

Nizomiy nomidagi TDPU, pedagogogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada maxsus maktabda adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tizimning tamoyillari va usullari yoritiladi. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishning ijobiy samarasi ochib beriladi

Tayanch so‘z va tushunchalar: eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, adabiy tayyorgarligik, badiiy asar, korreksiyalash, rivojlantirish, o‘qish darsi, adabiyot darsi, nutq, nuqsonlar, *asar mazmuni.*

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni nutqini muloqat quroli sifatida shakllantirish va rivojlantirish ularni abilitatsiya va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyat va omillarini aniqlashtirish, adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishning metodik-pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish, takomillashtirish muxim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Adabiy talim jarayonida eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining yaxlitligi tashqi va ichki omillar bilan ifodalandi.Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni nutqini rivojlantirish samaradorligi ta’lim jarayonida uchta turdagi didaktik, maxsus va o‘ziga xos tamoyillarni amalga oshirish bilan belgilanadi[2]. Ularni tasniflash eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ruhiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklari, maxsus maktab o‘quvchilari nutqini shakllantirishning butun o‘quv jarayoniga ta’sir o‘tkazadigan xususiyatlari, o‘quv fani sifatida adabiy ta’limning o‘ziga xosliklarini hisobga olish bilan ifodalanadi. Shunga ko‘ra pedagogik tizimning alohida komponentlarini ishlab chiqishda, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va munosabatlarni aniqlashda, ilmiylik, tushunarlilik, ko‘rgazmalilik, izchillik va tizimlilik, faollik va mustaqillik kabi o‘qitish jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradigan didaktik tamoyillarga asoslandi. Didaktik tamoyillardan tashqari eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning xususiyatlarini aks ettiradigan maxsus tamoyillar guruhi ajratildi. Bu guruhga surdopedagogikada ma’lum bo‘lgan kommunikatsiya, nutqiy amaliyotni maksimal darajada boyitish, o‘qitishning vaziyat bilan bog‘liqligi, nutq va tafakkurni o‘stirishning birligi, ta’limni nutqning holati haqidagi ma’lumotlar asosida qurish tamoyillarini kirildi.Spetsifik (o‘ziga xos) tamoyillar maxsus tamoyillarning o‘qishning o‘quv fani sifatidagi o‘ziga xosliklari bilan belgilanadigan o‘ziga xos tarzdagi aniqlashtirildi. Pedagogik tizim doirasida adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni nutqini rivojlantirishni reglamentlovchi (tartibga soluvchi) o‘ziga xos tamoyillar tizimiga adabiy-badiiy tamoyilning kiritilishi adabiy o‘qish darslarida adabiyotning barcha, eng avvalo, matnlarni so‘z san’ati hodisalari sifatida idrok qilishga undash va o‘quvchilarni muallif asarlari olamiga g‘arq qilish, hissiyotlar, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish mumkin bo‘lgan muhitni yaratishda namoyon bo‘ladigan estetik funksiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq**[4].**Navbatdagi spetsifik tamoyil – *badiiy asarni yaxlit o‘rganish* tamoyili, bunda badiiy asarning har bir ahamiyatli lementi badiiy yaxlitlik tiklanishi va rivojlanishining ma’lum momenti sifatida qaraladi, adabiy o‘qish darslarida adabiy matn tahliliga qarashlarni o‘zgartiradi. O‘qishga o‘rgatishning an’naviy metodikasi sharoitida matn tahlilida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchining e’tibori matnni qurish qonuniyatlari va o‘ziga xosligini anglash emas, balki ko‘proq muallif matnini uzatish, undan nusxa olish va qayta yaratishga qaratiladi. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimida badiiy asarni yaxlit o‘rganish natijasi kitobxonlarning badiiy-ijodiy faoliyati bo‘ladi, u badiiy asarni va o‘z fikrlarini

yaratish jarayonini idrok qilish qonuniyatlari bilan belgilanadi. *Badiiy asarni o‘rganishning tizimliligi tamoyili o‘quvchilar badiiy asar matni bilan ishlaganda egallaydigan adabiyotshunoslikka oid bilimlar va adabiy-ijodiy malakalar tizimini nazarda tutadi*. Bu tamoyilni amalga oshirish o‘rganilayotgan badiiy material bilan uni tushunish uchun zarur bo‘lgan, adabiy ta’lim jarayonida nutqni rivojlantirish pedagogik tizimi bosqichlarida shakllantiriladigan, kitobxonlik hamda adabiy-ijodiy malakalarni o‘rtasida muvofiqlikka erishishni nazarda tutadi[5]. Adabiy o‘qish darslarida o‘rganishning asosiy birligi badiiy matn bo‘lgani sababli adabiyotshunoslik va tilshunoslik materialini saralash boshqa bir spetsifik tamoyil – *matnning adabiyotshunoslik va tilshunoslik fenomeni sifatidagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish* asosiga qurildi. Adabiy matnlar bilan tanishishning nazariy asosini quyidagi tushunchalar guruhlari tashkil qildi: “asar olami”, “janrlar”, “matn”, “nutq tiplari”, “nutq uslublari”, “tilning obrazli vositalari”. Ajratib ko‘rsatilgan tushunchalar eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni badiiy asar bilan tanishtirishga ko‘maklashadi, faqat amaliy darajada kiritiladi va bolalar tomonidan o‘zlashtiriladi. *Emotsionallik spetsifik tamoyili* bolaning tabiati va faoliyatidan kelib chiqadi. Intellektual emotsiyalarni faollashtirish adabiy ta’lim jarayonida nutqni rivojlantirish pedagogik tizimi sharoitida o‘quvchilarda mutolaa bo‘yicha o‘quv-bilish faoliyatida intellektual-emotsional ehtiyojlarni shakllantirishga ko‘maklashadi. U o‘quvchi shaxsining emotsional sohasi rivojlanishini rag‘batlaydi, ta’lim jarayonida mustaqil ijodiy faoliyatdan estetik qoniqishning tiklanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim jarayonida zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish.. Ped. fan. doktori. dis. (DSc) avtoref.…– Toshkent:TDPU.2020.
2. Mamarajabova Z.N. Ona tili o‘qitish maxus metodikasi.-T.,2020.
3. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim texnologiyasi T.,2023.

4. Pay Ф.Ф. Устная речь глухих. - М.: Педагогика, 2013. - 302 с.

5. Болдарева В.М. Понимание взрослыми глухими самостоятельно прочитанных художественных текстов — М., 2019,-с. 59-60.

6. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха.–М.: Просвешиение, 1998. – 18 с.

MAKTABLARDA INKLYUZIV TA’LIM MADANIYATI VA O‘QUVCHILARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI

Malikaxon Mamanabiyeva Axunjonovna

Andijon vilayati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv talim nogironligi bo‘lgan bolalarga qanday imkoniyatlar beradi. Maktablarda inklyuziv ta’lim madaniyatini qanday yo‘llar bilan shakllantirish kerak hamda inklyuziv ta’limda bolalarning o‘zaro munosabatlari haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv, milliy qadriyat, «aysberg modeli» didaktik, paraolimpiya.

Inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan bolalar uchun juda katta shart sharoitlarlarni yaratib beradi. Ularni bor iqtidorlarini namayon etish uchun qulay sharoitlarni ochib beradi. Nogironligi bo‘lgan bolalar sog‘lom bolalar bilan birga o‘qish mobaynida o‘zixam jamiyatda o‘rni bor ekanligini anglab yetadi dunyoqarashi kengayadi hamda hayotda o‘z o‘rnini topish uchun sog‘lom bolalarga qarab xarakat qiladi.

Inklyuzivlik ta'lim jarayoni barcha subyektlariga ta'sir qiladi:

-ta'limga ehtiyoji yuqori bo‘lgan shaxslarga ularning ota-onalariga, o‘qituvchilarga, ta'lim sohasidagi boshqa mutaxassislarga, qo‘shimcha ta'lim tuzilmalariga, oddiy o‘quvchilarga, ularning oilalariga.

Inklyuziv madaniyati:

1.Maxsus falsafa, unga ko‘ra qadriyatlar, inklyuziv ta'limdagi bilim va mas'uliyat ushbu jarayonning barcha ishtirokchilari o‘rtasida qabul qilinadi va taqsimlanadi;

2.Inklyuzivlik qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy maktab madaniyatining bir qismi, uning yuqori darajasi, umuman inklyuziya jarayonining samaradorligiga hissa qo‘shadi;

3.Oilalar va maktablar o‘rtasidagi o‘zaro bog'liq munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan va nizoli vaziyatlardan va jarayonning har bir ishtirokchisiga mumkin bo‘lgan zararni oldini oladigan noyob ishonch mikroiqlimi;

4.Maxsus inklyuziv muhit, bunda amalga oshirilgan o‘zgartirishlar ma'lum bir maktab ehtiyojlariga moslashtiriladi va uning umumiy tuzilishiga organik tarzda to‘qiladi va o‘qituvchilarga ma'muriyat tomonidan ham, boshqa o‘qituvchilar tomonidan ham turli xil yordam olish imkoniyati beriladi.

Inklyuziv madaniyatini tushunish uchun «aysberg modeli»

1) Oson seziladigan madaniyat elementlari, ongli, ko‘rinadigan elementlar

2) Ongsiz xulq-atvor qoidalari, ijtimoiy normalar, qadriyatlar va ularning ierarxiyasi, og'zaki bo‘lmagan muloqot normalari va boshqalar. Ular inson xatti-harakatlarini belgilaydi.

"Havo qismi"

-ta'lim maydonini foydalanish imkoniyati va xavfsizlik tamoyillariga muvofiq tashkil etish;

-moslashtirilgan ta'lim dasturlari,

- ta'lim va tarbiyaning maxsus usullari,

-darsliklar,

-o‘quv qo‘llanmalari,

-didaktik materiallar,

-texnik vositalar,

-mutaxassislar jamoasi va boshqalar.

"Suv osti qismi"

-ta'lim jarayoni sub'ektlari o‘rtasidagi munosabatlar normalari.

Bu guruh uchun umumiy bo‘lgan va guruh barqarorligining sharti bo‘lgan g'oyalar, qoidalar, munosabatlar, qadriyatlar va xatti-harakatlar tizimi.

Bu inklyuziyaning yuragi bo‘lgan "suv osti qismi".

Inklyuziv madaniyatini shakllantirish.

Dastlabki bosqichlarda inklyuziyani muvaffaqiyatli amalga oshirishga quyidagilar yordam beradi:
-Paraolimpiya sportchilari, shuningdek, imkoniyatlari cheklanganiga qaramay, yuqori natijalarga erishgan shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etish.
-mehribonlik darslari
-ijodiy festivallar va tanlovlar
Bola ta'lim muassasasi madaniyatiga kiritilgandagina ta'limni inklyuziv deb atash mumkin. Madaniyatning uch turi mavjud bo‘lib, ular bola uchun muhim ahamiyatga ega:
-o‘rganish madaniyati;
-parvarish madaniyati (bolaga o‘z-o‘zini parvarish qilishda yordam berish);
-tengdoshlarning xulq-atvor madaniyati;

Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda

1) O‘qituvchilar tarkibini qanday qilib to‘g'ri baholash kerak:
xilma-xillik g'oyasiga tayyor;
rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga bag‘rikenglik va hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
yuqori, ammo real standartlarni belgilashga qodir
2) Quyidagilarni inobatga olish kerak :
Maktab direktori o‘zini inklyuziv maktab madaniyatini shakllantirish va o‘zida mujassamlashtirgan yagona mas'ul deb hisoblamasligi kerak.
Shakllangan madaniyat an'analar xarakterini oladi va o‘zgarmas bo‘lishi kerak, deb o‘ylamaslik kerak.
Maktab inklyuziyasi har doim ham hamma tomonidan qabul qilinmaydi.
Inklyuziv muhitni shakllantirishda ma'muriyatning asosiy vakolatlari:
qo‘shimcha maqsadlarini aniqlash;
-har qanday imkoniyatda uni targ'ib qilish (nashrlar, ota-onalar hamjamiyati bilan muloqot,
-inklyuzivlikni faol qo‘llab-quvvatlovchilarning hissasini jamoatchilik va norasmiy baholash unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi;
-zarur resurslarni (material, kadrlar, uslubiy) jalb qilish;
-maktab qoidalari, talablari va boshqa tartib-qoidalariga alohida ehtiyojli talabalarni moslashtirish;
-inklyuziv madaniyatni rivojlantirishdagi yaxshilanishlarni, uning o‘quvchilarning o‘quv faoliyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ijobiy ta’sirini kuzatish va kuzatish;
- yashirin va ochiq qarshilikni yengish.

O‘qituvchilar eslashlari va amalda qo‘llashlari kerak bo‘lgan qoidalar:

-Bolalarning tajribalarini tushunish.
-Bolani tengdoshlar muhitiga kiritish.
- O‘quvchining turli kayfiyatlarini qabul qila olish va uning his-tuyg‘ulariga to‘g‘ri javob bera olish.
-Barqarorlik, takrorlanuvchanlik, xavfsizlik, iliqlik, hamdardlik, qo‘llab-quvvatlash, tegishlilik, adolat va xotirjamlik muhitini yaratish.

-Sinfdagi barcha o‘quvchilarda ularning sinf jamoasi uchun ahamiyati haqida tushuncha yaratish.
-Bir bolaning boshqasi tomonidan manipulyatsiya qilinishini oldini olish.
-Har bir o‘quvchiga sinfda muhim rolni ajratish.
-Tanglikni bartaraf etish uchun hazildan foydalana olish.
-Bolaning o‘z imkoniyatlarini nafaqat o‘rganishda, balki xulq-atvorida ham to‘g‘ri baholash uchun maqsad qo‘yishga yordam berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Образование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий./ ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015.
2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2014 y.
3.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni / O‘RQ-637-son 23.09.2020 y.
4.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni/“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-son 15.10.2020 y.
5.O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2017 yil 1 dekabr, PF-5270-son.

MAXSUS MAKTABDA O‘QISH DARSLARIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING IJOBIY SAMARASI

Muhitdinova Diyoraxon Ulug‘bek qizi,
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida o‘qish darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirish mazmuni yoritilgan. Maxsus maktabda o‘qish darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ijobiy samarasi tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish darslari, eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, kommunikativ konpetensiya, kitobxonlik, adabiy-ijodiy faoliyat, texnologiya, metodlar

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida o‘qish darslari jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qitishga o‘ziga xos bo‘lgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat bo‘lib, o‘yin usullarini ta’lim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab ta’lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o‘zining samarasini bermoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda maxsus maktab uchun o‘quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya o‘qitishga o‘ziga xos yangicha yondashuvdan iborat bo‘lib, o‘yin yangicha, ilg‘or, shu bilan birga samarador usullarini ta’lim tizimiga dars jarayonida tatbiq etilishi

muhim ahamiyat kasb etadi.Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘qish malakasini shakllantirishdan ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko‘nikmalar egallashda ahamiyatli ekanini dalillamoqda[2.-56.b.].

Ta’limni motivlash o‘quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushoxada qilishga, nutqning rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg‘otadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta’minlovchi ta’lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir.

Hozirgi vaqtda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘qish malakasini rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda o‘qituvchi va o‘quvchilar guruhi (o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatishlari zarurligi ma’lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro muloqot Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda fikr almashish va so‘zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi[1.-24.b.].Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar shaxsiy sifatlari shakllanishida, o‘qish malakasi va nutqiy muloqotni amalga oshirishda interfaol o‘yinlarning ahamiyati katta. Ma’lumki, rolli o‘yinlar obyektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o‘yinlar eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O‘yin o‘quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishda mashg‘ulotlarni yosh hususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtirishga e’tibor berilmoqda. Haqiqatan ham, bola har qanday mashg‘ulotga qaraganda, o‘yinga tez intiladi va qiziqadi.Rollarga asoslangan o‘yin ta’lim usuli sifatida o‘quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o‘yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so‘rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farkli ravishda, rolli o‘yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o‘yinda qatnashayotgan o‘quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishoralaridan o‘qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar.O‘quvchilar o‘yinni aniq maqsadga yo‘naltirgan holda amalga oshirsa, kutilgan natijaga erishishi mumkin[3.-21.b.].Rolli o‘yin o‘quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo‘lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O‘quvchi o‘yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirok etishi mumkin, lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda rolli -o‘yin ta’limning an’anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘yin jarayonida emas, balki undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni yangi material bilan

tanishtirishda, oldin o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, ularning so‘z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘quvchilarga individual yondoshib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o‘stirishni ta’minlaydi. O‘quvchilar diqqatini topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish, ularni belgilariga qiziqishlarini oshirish joiz. Bu ulardagi ijodkorlik hususiyatlarini rivojlantiradi. Ta’kidlash joizki, soddalik, bir xillik, hoxishsiz takrorlashlar bolalarni toliqtirib, befarq qilib qo‘yadi. Uyin davomida «Kim tez bajaradi?» - deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar g‘olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko‘rsatish hissi bilan harakat qiladilar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar og‘zaki nutqini shakllantirish, o‘zaro bog‘liq gaplardan matn tuzish malakasini hosil qilish, erkin fikr yuritish, munosabatini bemalol bayon qilishga o‘rgatish uchun R.Djonson, D. Djonson usuli uch-to‘rt o‘quvchining bir vazifani bajarishga asoslangan usul-nihoyatda samaralidir.Masalan, sinfdagi bir o‘quvchi qura tanlash yo‘li bilan tanlanadi. Sinf o‘quvchilari muayyan qoidaga ko‘ra (soniga ko‘ra, ihtiyoriga ko‘ra) ikkiga bo‘linadi, har bir o‘quvchi bir bo‘lak qog‘ozga ta’rifga asoslangan bir jumla yozadi. Bir guruh o‘quvchilari ijobiy baho, ikkinchi guruh o‘quvchilari salbiy baho berishadi. Masalan: Nafisa a’lochi o‘quvchi. Nodira jaxldor o‘quvchi va shu kabi. Har bir guruhdan bir o‘quvchi oqlovchi, qoralovchi vazifasida chiqadi. Har ikki guruh o‘quvchilari raqib guruhga xos fikrining aksini isbotlashga urinadilar.
O‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriq mohiyatini tushuntirishda og‘zaki-daktil va imo-ishora nutqidan foydalanadi. Agar eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi topshiriqni og‘zaki nutq vositasida bayon etishga qiynalsa, imo-ishora yoki daktil nutqi vositasida bayon etadi, so‘ng o‘qituvchi o‘quvchini vazifani og‘zaki nutq vositasida bajarishga undaydi.Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar yozma bog‘langan nutqini rivojlantirish, o‘quvchilarni qiziqtirish va e’tiborini bir nuqtaga jalb etish uchun kuyidagi topshirik beriladi. O‘quvchi yonida o‘tirgan sherigiga o‘z tilaklarini bildirishi kerak. Bu topshiriq shaklini biroz o‘zgartirish mumkin. Ota-onasiga, boshka mamlakatda yashovchi do‘stiga maktub yozish topshiriladi. Bunda, albatta xat matnida ko‘llangan gaplarning mazmuniy xususiyatlari aniqlanishi lozim bo‘ladi.Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar og‘zaki nutqini muloqat quroli sifatida shakllantirishda klaster metodi unumli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur[4.-32.b.]. Klaster metodi umuman bir tushunchaga oid turli tushunchalarni birlashtirib tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, o‘kuvchilarga muayyan tushunchani berib, uning sifatlovchilarini aniqlash topshirilishi mumkin. «O‘zbekiston qanday davlat?» so‘rog‘i «mustaqil», «boy», «xuquqiy», «buyuk», «ilg‘or», «yetakchi», «demokratik), «obod» kabi sifatlarni birlashtiradi. Bu so‘zlar, shuningdek, tuzilishiga ko‘ra ham guruxlashtirilishi mumkin. Yoki o‘kuvchilarga tanish bo‘lgan asar, teatr, kino, multfilm qahramonlarini sifatlash topshiriladi. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagi kahramoni Zumradga shunday ta’riflar berish mumkin; «jabridiyda», «bardoshli», «chidamli», «kuchli», «ishonuvchan», «mehribon», «go‘zal», «g‘amxo‘r». Bu ta’riflarning nechog‘li asosli yoki asossiz ekanligi dars jarayonida

baxs munozara vositasida aniqlanadi.Ta’lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni amalga oshirish ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonining asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg‘ulotlarni rag‘batlantirish, qiziqarli tashkil etish bilan birga talabalarni fikrlashi doirasini, tafakkurini kengaytiradi, o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim jarayonida zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish.. Ped. fan. doktori. dis. (DSc) avtoref.…– Toshkent:TDPU.2020.
2. Mamarajabova Z.N. Ona tili o‘qitish maxus metodikasi.-T.,2020.
3. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim texnologiyasi T.,2023.

INCORPORATION OF INCLUSIVITY IN EDUCATION SYSTEM AS A WHOLESOME INNOVATION OF 21 CENTURY

Mirsalikhova (Mirsalixova) Robiya

Student of Uzbekistan State World Languages University

Second Faculty of English

Annotation. The relevance of implementing inclusive education in the development of a modern educational system is beyond doubt. It is common knowledge that the modern special education system is undergoing changes. The article intended to discuss the changes in working with children with special educational needs in different directions. When analyzing the processes of inclusive development, one should highlight the important role of the development and implementation of innovations aimed at ensuring equal opportunities and accessibility to the fruits of progress.

Keywords: inclusive education, special education, implementation of innovations, diversity of the community, equal opportunities and accessibility

The relevance of implementing inclusive education in the development of a modern educational system is beyond doubt. It is common knowledge that the modern special education system is undergoing changes. These changes focus on working with children with special educational needs in different directions. When analyzing the processes of inclusive development, one should highlight the important role of the development and implementation of innovations aimed at ensuring equal opportunities and accessibility to the fruits of progress.

It is generally accepted that inclusive education is a process of development of general education, implying the availability of education for all, which ensures access to education for children with special needs. The term “inclusive education” is more modern, reflecting a new look not only at the education system, but also at the place of a person in society. An important step towards the formation of an inclusive approach in education is the model of educational and social integration of students with special educational needs into the education system.[1]

Inclusive education occupies a very special place in realizing this goal. Since the advent of inclusive education, quite a lot of publications have appeared concerning its implementation in educational organizations. A significant part of these publications are devoted to highlighting the successful unique experience of introducing inclusive education in these organizations or describing the problems associated with inclusive education. At the same time, there are few publications about the impact of inclusive education on the organization of the educational process in universities as a whole and about the possibilities of extending the learning experience of students with disabilities to students with normal health conditions. Meanwhile, the introduction of inclusive education has become not only an industry innovation, but also part of global innovations that permeate all spheres of society. Inclusive education is given significant attention all over the world, therefore the introduction of inclusive education in Uzbekistan affects the humanitarian image of our country, its contribution to the treasury of world pedagogical experience. [2]

The incentives for innovation in the field of inclusive education were: the needs of integration of people with disabilities into society; philosophical ideas that consider human life as the highest value; the development of science and technology, promoting the introduction of assistive aids and technologies, the use of which can expand the capabilities of people with disabilities in the process of obtaining information and adapting them to the conditions of the educational process; achievements of pedagogy that make it possible to train individuals with special educational needs together with other students.[3]

The introduction of inclusive education has been carried out for ten years and is currently of a modifying nature, constantly improving the learning conditions for people with disabilities. In its essence, the introduction of inclusive education is a systemic innovative process of an educational organization, covering many components of the organization of the educational process.

The introduction of inclusive education has an impact on the organization of the entire learning process:

– guarantee the development of flexible forms of training;

– promotes individualization of the learning process for all students;

– promotes the search and development of mechanisms for individualization and personification of the learning process;

– directs the organization’s teaching staff to search for new teaching technologies;

– contributes to improving the qualifications of teaching staff; [4]

Education in inclusive educational institutions is beneficial both for children with special educational needs and for ordinary children, family members and society as a whole. Research shows that in inclusive classrooms, the emphasis is primarily on developing children's strengths and talents, rather than focusing on their problems. Interacting with other children promotes the cognitive, physical, speech, social and emotional development of children with special needs. [5] At the same time, children with a typical level of development demonstrate appropriate behavior patterns for children with special educational needs and motivate them to develop and

purposefully use new knowledge and skills. Interaction between “healthy” children and children with special needs in inclusive classes contributes to the establishment of friendly relations between them. Thanks to such interaction, children learn to naturally perceive and tolerate human differences; they become more sensitive and ready to help each other.

Inclusive education for society:

- ✓ allows us to understand the needs and abilities of all students;
- ✓ ensures the school reflects the true diversity of the community;
- ✓ demonstrates the social value of equality;
- ✓ promotes the civil rights of all people.

Most children with special needs are in preschool age together with their peers, the smallest proportion of integrated students with special educational needs is in high school.

The development of inclusive education is a natural process of improving education. In modern conditions, the globalization of education is taking place, when universities no longer compete within national borders, but at the international level. To attract applicants, it is not enough to have a high rating or a big name; it is necessary to create such learning conditions that would satisfy the individual needs of a potential student, not only today’s, but also those of the future, since education turns into continuous and lifelong education throughout life.

To make inclusive education a reality for a large number of children and their families. It is possible that these studies will help to create a climate more favorable to “education for all” in society, and that children who may have been excluded from education in the past will have an easier time accessing it. In Uzbekistan, significant work is being done to create living conditions and education for people with disabilities. A legislative framework has been created to create conditions for the further development of persons with disabilities. In particular, there are currently 58 disabled students studying at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, as well as disabled scientific researchers and teachers. Until today by scientists and researchers. [6]

Overall, the creation of conditions for the full upbringing and education of people with disabilities and people with limited health capabilities, adequate to their health status, in particular, the introduction of inclusive education is highlighted as one of the priorities of social policy in the world. Inclusive education is a global trend in the development of general education, which involves the inclusion of all children, regardless of the differences between them (including children with special needs of psychophysical development), into a single educational process

References

[1] https://www.unicef.org/education/inclusive-education

[2] https://yuz.uz/ru/news/utverjdeno-polojenie-ob-inklyuzivnom-obuchenii-v-shkolax-uzbekistana

[3] https://www.light-for-the-world.org/news/2023-gem-report-how-can-technology-support-inclusive-education/

[4] Blackorby, J., Knokey, A.-M., Wagner, M., Levine, P., Schiller, E., & Sumi, C. (2007). What Makes a Difference? Influences on Outcomes for Students with Disabilities. Menlo Park, CA: SRI International. Retrieved from http://www.seels.net/designdocs/SEELS_W1W3_FINAL.pd

INKLYUZIV TA'LIMDA ART PEDAGOGIKADAN VA ART TERAPIYADAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha amalga oshirigan islohotlar hamda inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda ART- terapiya va ART- pedagogikadan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, islohotlar, inklyuziv ta'lim, ART- terapiya, ART- pedagogika, alohida ta'lim ehtiyoji, individual ehtiyojlar

Mamlakatimizda barcha sohalarda islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, alohida ta'lim ehtiyoji bor insonlarga Hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu borada "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida:
"Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi" hamda 20-moddasida: "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi" deb belgilab qo'yigan.[1]

Respublikamizda jahon tajribasi va milliy tajribalar asosida inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Inklyuzivlik- inglizcha so'z bo'lib, **inclusif-** qo'shish, birlashtirish kabi ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ta'lim muassasalarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda ta'lim- tarbiya jarayonini amalga oshirishni ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim - bu alohida ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim maktablarida ta'lim olish sharoitida, oddiy bolalar bilan birgalikda o'qitish jarayonini tavsiflash imkonini beradigan tushuncha. Shuningdek, inklyuziv ta'lim deganda har qanday bolaga mavjud jismoniy, ijtimoiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, umumiy ta'lim va tarbiya jarayoniga qo'shilish, boshqa bolalar bilan uyg'un ravishda rivojlanish imkoniyatini beradigan ta'lim tushuniladi.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning aksariyati idrok, e'tibor, aqliy faoliyat va xotirani rivojlantirish kabi muammolarga duch kelishadi, bu shuningdek, vosita rivojlanishi va hissiy funksiyalar bilan bog'liq turli darajadagi qiyinchiliklarni

o‘z ichiga oladi. Ularda yuqori darajada va tez- tez charchash kuzatiladi. Bolani o‘quv jarayoniga jalb qilish uchun dasturda individual yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni o‘z ichiga olgan maxsus yondashuvlardan foydalanish kerak.

Innovatsion texnologiyalar deganda, o‘ziga xos xususiyatlari yuqori samaradorlik va foydalanishning yangiligi bo‘lgan usullar tushuniladi, ular pedagogning intellektual faoliyatining yuqori ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qiladi.

Art- pedagogika - innovatsion, amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogika yo‘nalishi bo‘lib, bunda ta’lim, tarbiya, shaxsni rivojlantirish, undagi mavjud nuqsonlarni korreksiya qilish san’at vositalari orqali amalga oshiriladi.

Art- pedagogika pedagog va ta’lim oluvchining hamkorlikdagi ijodkorligini nazarda tutadigan ta’lim faoliyatidir.

Uning vazifalari va funktsiyalari mavjud badiiy ta’lim dasturlaridan farq qiladi, chunki o‘qitish va tarbiyalash jarayonida maqsad bolani chizishga o‘rgatish hisoblanmaydi (“to‘g‘ri”, “xuddi shunday” va boshqalar).

Art- pedagogikaning metod va uslublari bolaning nozik hissiyotlariga e’tiborni qaratadi va kuchaytiradi, uni o‘zini namoyon qilish va o‘zini- o‘zi bilish imkoniyatini beradi; bolaga muloqot ko‘nikmalarini va jamoada ijodiy ish tajribasini egallashga yordam berish, ularda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Art- pedagogikaning mohiyati bolalarni (jumladan, muammoli) tarbiyalash, o‘qitish, badiiy ijod vositalari orqali rivojlantirish, ularda badiiy madaniyat asoslarini shakllantirish va badiiy faoliyatning turlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

Art- pedagogikaning vazifalari:

1.Ta’lim oluvchilarda ichki erkinlikni rivojlantirish, o‘z taqdiriga befarq bo‘lmaslik, o‘z- o‘zini anglash, his qilish, o‘z- o‘zini namoyon qilish, o‘z shaxsini hurmat qilish qobiliyatini tarbiyalsh.

2.Ularni Vatan, xalq madaniyati, boyliklarini aks ettiruvchi qadriyatlar, umuminsoniy madaniyat tizimi bilan tanishtirish.

3. Bolalarning mavjud yashirin qobiliyatlarini faollashtirish va ularni namoyon bo‘lish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish.

“Art Therapy” atamasi ikkita so‘zning qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. “Art” inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib-“san’at”, “Terapiya” so‘zi esa yunoncha “therapeia” so‘zidan olingan bo‘lib - davolash degan ma’noni anglatadi.

Art terapiya- san’at bilan davolash demakdir. Art terapiya- bu san’at va ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaning eng yosh va jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsning psixologik muammolarini davolashni o‘z ichiga oladi.[2]

“Art terapiya” (art-terapiya) tushunchasi esa Z.Freyd va C.Yung g‘oyalari kontekstida vujudga kelgan va psixoterapevtik amaliyotda terapevtik ta’sir usullaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, u badiiy (tasviriy) ijodkorlik orqali, ruhiy kasallarga o‘zlarining yashirin psixotravmatik kechinmalarini rasmlarda ifodalashda va shu bilan ulardan xalos qilishga yordam bergan.

Keyinchalik, bu konsepsiya shaxsiy rivojlanishning uyg‘un modellarini o‘z ichiga olgan kengroq kontseptual asosga ega bo‘ldi (K. Rojers, A. Maslou). [3]

Art-terapiyadan foydalanishning asosiy maqsadi bolalarning hissiy farovonligi uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va shaxsiyatini uyg‘unlashtirishdir.

Zamonaviy art-texnologiya quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Izotexnologiya - tasviriy san'at yordamida terapevtik ta'sir: rasm, modellashtirish, badiiy hunarmandchilik va hokazolar;
- imotexnologiya - obraz, teatrlashtirish, dramatizatsiya orqali ta'sir o'tkazish;
- musiqiy terapiya - musiqani idrok etish orqali ta'sir o'tkazish;
- ertaktexnologiya - ertak, masal, afsona orqali nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqiga ta'sir o'tkazish;
- kinestik texnologiya - raqs va harakat orqali ta'sir;
- dramatexnologiya- imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida teatr pyesasini sahnalashtirishga o‘rgatish;
- qum texnologiya- qum orqali imkoniyati cheklangan bolalarning nutqi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirishdan iborat;
- fototexnologiya- rasmga tushirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirish, bolalarning diqqatini, nutqini rivojlantirish;
- tuzatuvchi ritm (harakatlar bilan ta'sir), xoreotexnologiya;
- o‘yin texnologiyasi va boshqalar.

Art-terapiya - bu ma’lum bir san’at turiga mansub janr va psixokorreksiya terapevtik qo‘llanilishining yo‘nalishi va texnologiyasi bilan belgilanadigan farqlar va xususiyatlarga ega bo‘lgan psixokorreksiya usullari to‘plami hisoblanadi.

Pedagoglar yuqoridagi usullardan foydalanishda alohida ehtiyojli bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari zarur. Bu jarayonda ota- onalar bilan hamkorlikni izchil yo‘lga qo‘yish ham ijobiy natijalarga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda art pedagogika va art terapiya usullaridan samarali foydalanish ularni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga hamda rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020- yildagi O‘RQ-637-son.
2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Darslik.: Chirchiq – 2022. 218- 220- b.
3. Арт-педагогика и арт-терапия в специальном образовании: Учебник для вузов / Е.А. Медведева, И.Ю. Левченко, Л.Н. Комиссарова, Т.А. Добровольская. - М.: Академия, 2001. – 248 с.

IJTIMOIY-MAISHIY YO‘NALISHDAGI DARSLARDA ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING TARBIYALASH -TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Niyazaxunova Nargizaxon Boymirzayevna
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning axloqiy tarbiyasi mazmuni yoritilgan. Ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyalash -tadqiqot obekti sifatidagi tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Surdopedagog, kar bola, zaif eshituvchi bolalar,ijtimoiy-maishiy yo‘nalish, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, ijtimoiy maishiy hayot, yo‘naltirish, muloqot, tamoyillari

Ijtimoiy-maishiy tayyorgarlikning asosiy maqsadi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning maktabda egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarini mustaqil hayot qo‘llashi, unga muvaffaqiyatli moslashishiga va aqliy faoliyatini uning o‘ziga ishonchli ravishda shakllantirish hisoblanadi. Ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyasi uzoq davom etadigan uzluksiz jarayon sanaladi. Ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyasi o‘quvchilarning individual tinologik tafovutlariga, ularning hayotiy va ma’naviy tajribasiga, shaxsiy munosabatiga bog‘liq[1.-65.b.]. Shuning uchun bir xil tarbiyaviy ta’sirning o‘zi «shaxsning hissiy larzaga kelishiga» olib kelsa, ayni vaqtda boshqa bola ma’naviy dunyosiga ta’sir qilmasligi mumkin.Ko‘pincha eshituv analizatorining funksiyasi buzulganligi eshituv bilan bog‘liq bir qator funksiyalarni to‘liq rivojlanmasligiga olib keladi. Xususiy ruxiy rivojlanishini buzulishi kar va zaif eshituvchi bolaning ruxiy rivojlanishini tormozlaydi. Defitsator tipda iarxik kordinatsiya va funksional aloqalarning buzulishi kuzatiladi[3.-89.b.]. Bu qisqa saqlanilgan tizimda perseptivtizimlarni rivojlanmaganligida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyasida to‘siq – bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzulishdagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga to‘sqinlik qila boshlaydi. Buzilishlarning barcha tiplarida bolaning ruxiy rivojlanishida o‘ziga xos qonun – qoidalarni tasniflash mumkin.Buzulishning barcha tiplarida ma’lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo‘llash qobiliyatini pastligi kuzatiladi[4.-88.b.]. Ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyasi – eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda axloqiy xulq-atvorni to‘g‘ri yo‘naltirish va tizimli shakllantirish jarayonidir. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning jamiyatga ijtimoiy moslashishi ko‘p jihatdan axloqiy rivojlanish darajasiga bog‘liq. Eshitishida nuqson bo‘lgan bolalarning axloqiy tarbiyasiga oila, jamiyat muhim ta’sir qiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning axloqiy tarbiyasida maktab asosiy o‘rin egallaydi.Axloqiy tarbiyaning mazmuni va vazifalari eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarning maktab-internati bolalar axloqiy odatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bir necha vazifalarni hal qiladi.Axloqiy odatlarning ba’zi birlarini eshitishida muammosi

bo‘lgan bolalar ta’lim muassasasiga joylashgunga qadar o‘zlashtirib olgan bo‘ladilar. Bular asosan gigiyenik malakalardir. Xulq-atvor madaniyati, yashash malakasi madaniyati, jamoada ishlash kabi ko‘pgina axloqiy odatlar to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Surdopedagogning vazifasi axloqiy odatlarni aniqlash va ularning ko‘lamini kengaytirishdan iborat. Maktabda mehnat va dam olishni ko‘rib chiquvchi yagona kun tartibini o‘rnatish muhim shartlardan biri hisoblanadi[4.-12.b.]. Maktab-internatda o‘quvchilarning faoliyati turlichadir: sinfdagi navbatchilik, sanitar majburiyati, maktab uchastkasidagi ish, bayramlarga tayyorgarlik ko‘rish, kun tartibini nazorat qilish, ichki tartib-intizomga bo‘ysunish va boshqarish, o‘rtoqlarining harakatlarini tekshirish va rejalashtirish malakasini o‘zlashtiradilar. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish gigiyenik va mehnat malakalarini takomillashtiradi. Hamkorlikdagi mehnat faoliyati murakkab axloqiy odatlar: jamoada o‘zini tutish, jamoa munosabatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.Axloqiy odatlarni shakllantirish pedagogik yordam va har kungi mashg‘ulotlarni talab etuvchi uzoq davom etuvchi jarayondir. Kar va zaif eshituvchilarda rivojlanganlik sharoitida har bir yangi harakat nomlanishi talab qilinadi.Ayni paytda axloqiy odatlarning ko‘lami kengayadi, nutq rivojlanadi (lug‘at boyiydi, muloqot uchun sharoit yaratiladi) so‘z talab etilayotgan harakatni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi, “yaxshi”, “yomon” kabi boshlang‘ich axloqiy tushunchalarni shakllantiradi. Maxsus maktabda ijtimoiy-maishiy yo‘nalishdagi darslarida o‘qituvchi kar va zaif eshituchi o‘kuvchilarning faoliyatini turli tomondan tahlil qilishga erishish uchun, albatta, o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda, amalda qo‘llay bilishlarini e’tiborga olishi zarur.

Adabiyotlar

1. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta’lim jarayonida zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish.. Ped. fan. doktori. dis. (DSc) avtoref.…– Toshkent:TDPU.2020
2. Sadirova K.G‘. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni tasviriy faoliyatini rivojlantirish ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDPI, 2023. – 28 b.
3. Temurova G.X. Zaif eshituvchi o‘quvchilarning mehnatga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2022. – 24 b.

TURLI FANLARNI O‘QITISHDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLISH

N.A.Valixanova

“University of economics and pedagogy”

NOTM dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Inklyuziv ta’lim ta’limni bolalarga moslashtirish muammosini o‘rganadi. Ya’ni bolani emas, ta’lim mazmunini o‘zgartirishni taqozo qiladi. Bola o‘z imkoniyati darajasida o‘ziga xos yondashuv asosidagi ta’lim mazmunini egallashi nazarda tutiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, ko‘rishdagi nuqsonlar eshitishdagi nuqsonlar, tiflografika, Barelefli rasmlar, Relyefli chizmalar Daktil alifbosi.

Inklyuziv ta’lim – rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga olib kirish ma’nosida qo‘llanib, integratsiyadan farqli ravishda, rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar barcha sog‘lom bolalar bilan birgalikda ta’lim olsalarda, o‘z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta’limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning o‘z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o‘sib ulg‘ayishlari ta’minlansa, sog‘lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo‘lgan bolalarning imkoniyatlarini ko‘rib, ular ham nuqsonli emas, balki o‘zgacha rivojlanishga ega bo‘lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo‘ladi. Shu sababli ham bunday ta’limning g‘oyasi - «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan.

Inklyuziv maktablarda inobatga olinishi kerak bo‘lgan nuqsonlar:

- ✓ Ko‘rishdagi nuqsonlar;
- ✓ Eshitishdagi nuqsonlar;
- ✓ Harakat-tayanch a’zolaridagi nuqsonlar;
- ✓ Nutqdagi nuqsonlar.

Bu kabi nuqsonli bolalarni o‘qitishda asosan korreksion fanlarda farqlar mavjud. Biroq boshqa fanlarda ham farqlar mavjud. Masalan, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda “Amaliy fanlar” fanlarda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar “Filologiya fanlari” o‘qitishda bolalarning o‘ziga xosliklarini inobatga olishimiz kerak.

Shuningdek, inobatga olinishi kerak bo‘lgan o‘ziga xosliklar abstrakt tafakkur bilan bog‘liq. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘rtasida o‘xshashlik shundan iboratki, ikki toifadagi bolalarda ham abstrakt tafakkur rivojlanmagan bo‘ladi.

Abstrakt tafakkur – bu jismoniy dunyoda mavjud bo‘lmagan narsalar, tamoyillar va g‘oyalar haqidagi tafakkurdir. Abstrakt tafakkurda predmetlar timsollar, metaforalar va analogiyalar bilan almashtiriladi.

Ko‘rishda muammosi bo‘lgan bolalarga maktab va maktab-internatlarida o‘qitiluvchi amaliy fanlar:

- Musiqa madaniyati;
- Tiflografika (tasviriy san’at va chizmachilik);
- Texnologiya;
- Jismoniy tarbiya.

Musiqa madaniyati – o‘rishda muammosi bo‘lgan bolalarda musiqiy xotira juda rivojlangan hisoblanadi. Shuning uchun muqisa madaniyati fanida ular ko‘p qiyinchiliklarga uchramaydilar. Hattoki professional dararajada musiqa bilan shug‘ullansalar ham bo‘ladi.

Tiflografika (tasviriy san’at va chizmachilik) – ko‘zi ojiz bolalar maktabida bo‘rtma rasm chizish, relef chizish va boshqa o‘quv fanlarini o‘rgatishda o‘quv va ko‘rgazmali qurol sifatida ishlatiladigan bo‘rtma chizmalar va chizmalarni qurish nazariyasi.

Ko‘zi ojizlar maktablarida uch turdagi relyef chizmalaridan foydalaniladi.
Konturli chizmalari obyektning faqat tashqi konturini etkazadi. Uni idrok etgan holda, ko‘zi ojizlar rasmda tasvirlangan obyektning tasvirini qayta yaratadi. Kontur chizmalarini o‘qishni o‘rganishda o‘quvchilar kontur hosil qilish tamoyilini o‘zlashtirish uchun ko‘pincha uzunlik bo‘ylab kesilgan obyektni ko‘rsatish yoki undan quyma ishlatishadi.
Applikatsion chizmalari nafaqat konturni, balki obyekt yuzasining to‘liqligini ham beradi, bu esa taktil idrok etish uchun muhim vizual belgidir. Ushbu turdagi chizma odatda qalin qog‘ozdan kesilgan, qog‘oz varag‘iga yoki planshetga yopishtirilgan siluet shaklida amalga oshiriladi.
Barelefli rasmlar tasvirlangan obyektning shaklini haykaltaroshlik yordamida beradi. Ular gips, metalldan yasalgan, so‘ngra perfokarta qog‘oz yoki plastmassaga bosim ostida taassurot qo‘yish, shuningdek, kimyoviy relyef usuli bilan amalga oshiriladi.
Relyefli chizmalar taktil idrok etish talablariga javob beradigan ortogonal proyeksiyalar usuli bo‘yicha quriladi: obyekt qo‘lda turli tomondan tekshiriladi va shunga mos ravishda chizmada takrorlanadi. Yassi relyef chizmasi bilan solishtirganda, u ko‘plab yordamchi chiziqlardan tushiriladi, ishlatiladigan chiziq turlarining soni qisqartirildi va ba’zi yangi belgilar kiritildi. Ba’zan relyef chizmalar aksonometrik proyeksiyalarda chiziladi. Ko‘pincha yuklamalarning asta-sekin o‘sishi bilan ketma-ket relyef chizmalari qo‘llaniladi.
Ko‘zi ojiz bolalar tomonidan relyef chizmalari va chizmalarini mustaqil ravishda bajarish N. A. Semevskiy tomonidan ishlab chiqilgan tiflografik qurilmada amalga oshiriladi. Qurilma qog‘ozda bo‘rttirma nuqtali chiziqlarni, shuningdek, maxsus qoplama bilan qoplangan planshetda bo‘rttirma tasvirlarni olish imkonini beradi. Foydalanish usuli bo‘yicha planshet oddiy shifer taxtasiga mos keladi. Selofanga relef chizish usullari ham qo‘llaniladi. Ba’zan chizmalar maxsus yopishtirilgan igna ustidagi shnurni tortib olish orqali amalga oshiriladi.
Texnologiya – ko‘rishda muammosi bo‘lgan bolalar ko‘pgina mehnat faoliyati bilan shug‘ullana olmaydilar. Texnologiya fanlarida texnika xavfsizligiga qat’iy rioya qilish juda zarur hisoblanadi.
Jismoniy tarbiya – eng muhimi, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar maktabda MJT (moslashtirilgan jismoniy tarbiya) dasturini tuzgan holda amalga oshirish o‘quv materialini eshitish orqali idrok etish uchun mo‘ljallangan maxsus ko‘rgazmali qurollar va jihozlardan, shuningdek, alohida xususiyatlarni hisobga olgan holda MJT mashg‘ulotlarini tashkil etishning maxsus texnika va shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi.
MJT mashg‘ulotlari maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi uchun asos yaratadi.
Moslashtirilgan jismoniy tarbiya bolalarda quyidagilarni rivojlantiradi:
- harakatlarning korreksiyasi, chunki ko‘rishda nuьsonlari bo‘lgan bolaning harakatlari cheklangan va muvofiqlashtirilmagan;
- ko‘rish idrokning korreksiyasi;
- qaddi qomadni tik tutish va yassi oyoqlikni korreksiyalash;

- jismoniy xislatlarni rivojlantirish;
- vaqt, kuch, makon, harakatning aniqligi va boshqalarni farqlash.

Ushbu ish dasturi harakat buzilishlarini korreksiyalashga yordam beradi. MJTning barcha mashg‘ulotlari sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda sport zalida yoki ochiq havoda o‘tkaziladi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga maktab va maktab-internatlarida o‘qitiluvchi filologiya fanlari:


- Ona tili va adabiyoti
- O‘zbek tili \ rus tili

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga o‘qitiluvchi filologiya fanlari ichida ingliz tili fani mavjud emas. Chunki, kar va zaif eshituvchi bolalar eshitilgan gaplar va so‘zlarni yaxshi idrok eta olmaydilar, bu esa o‘z navbatini tilni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarni tug‘diradi. Shuning uchun ham kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida chet tillari fani o‘qitilmaydi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga “Ona tili va adabiyoti” va “O‘zbek tili” yoki “Rus tili” fanlari o‘qitiladi. Biroq, bu fanlarni o‘qitishda ham mavhumlik mavjud. Chunki “Ona tili va adabiyoti” fanini o‘qitishda Ruboiy va G‘azal kabi tushunchalarni bolalarga tushuntirish juda murakkab hisoblanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar muloqot qilishda Daktilema va Imo-ishora nutqidan foydalanadilar.

Daktil alifbosining elementlari yozma tildagi harflarga o‘xshaydi. Daktilemalar (daktil alifbosidagi harflar) – barmoqlarning turli pozitsiyalari alifbosiga funktsional jihatdan o‘xshash belgilarni takrorlaydi va konturda ularning ko‘pchiligi bosilgan harflarga noaniq o‘xshaydi (xususan, “o”, “m”, “g”, “sh”).



Rasm. Daktil alifbosi.

Imo-ishora nutqi – imo-ishoralardan tashkil topgan mustaqil til bo‘lib, ularning har biri yuz ifodalari, og‘iz va lablarning shakli yoki harakati, shuningdek tananing pozitsiyasi bilan birgalikda qo‘llar bilan amalga oshiriladi. Ushbu nutq asosan kar va zaif eshituvchi odamlarda muloqot qilish uchun ishlatiladi. Eshitish qobiliyatini

yo‘qotmagan odamlar tomonidan imo-ishora nutqidan foydalanish ikkinchi darajali hisoblansada, ammo juda keng tarqalgan. Aksariyat hollarda zaif eshituvchilar bilan muloqotda ham imo-ishora nutqidan foydalanish zarurati tug‘iladi.

Imo-ishora nutqi haqidagi asosiy noto‘g‘ri tushunchalardan biri shundaki, ular qandaydir tarzda og‘zaki (tovush va yozma) tillarga bog‘liq yoki ulardan kelib chiqqan, bu esa nutq eshituvchilar tomonidan ixtiro qilingan degan fikrga olib keladi, biroq bu unday emas. Darhaqiqat, imo-ishora nutqi og‘zaki tillardan deyarli butunlay mustaqil va ular rivojlanishda davom etmoqda: yangi imo-ishoralar paydo bo‘ladi, eskilari o‘ladi va ko‘pincha bu og‘zaki tillarning rivojlanishi bilan deyarli bog‘liq emas. Mamlakatdagi imo-ishora nutqlari soni og‘zaki tillar soniga bog‘liq emas. Hatto bir nechta og‘zaki tillarga ega bo‘lgan bitta mamlakatda ham bitta umumiy imo-ishora tili bo‘lishi mumkin va ba’zi mamlakatlarda, hatto bitta og‘zaki tilda ham, bir nechta imo-ishora tillari birga yashashi mumkin.

Masalan, bizning Respublikamizda imo-ishora nutqi borcha hududlarda turlicha va uni shevaga o‘xshatishimiz mumkin. Turli hududlarda o‘zining shevasi bo‘lgani kabi imo-ishora nutqi ham shu kabi hududlarda o‘zisha xoslik bilan farqlanadi.

Ovozli aloqa o‘rniga imo-ishoralardan foydalanish ovoz orqali ma’lumot almashish imkoni bo‘lmagan yoki ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradigan ko‘p holatlarda afzalroq bo‘lishi mumkin. Biroq, bunday imo-ishora tizimlarini ibtidoiyligi sababli shakllangan imo-ishora nutqi deb atash mumkin emas. Og‘zaki tildan foydalanish imkoniyati bo‘lmasa, odam instinktiv ravishda imo-ishoralardan foydalana boshlaydi. Demak, nogironligi bo‘lgan bolalarni o‘qitishda yuqorida aytib o‘tilgan o‘ziga xosliklarni inobatga olish juda muhim hisoblanadi. Aynan shu o‘ziga xosliklarni inobatga olish inklyuziv ta’lim jarayonining muvaffaqiyat garovi bo‘lishi mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta’lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.

2. Инклюзивное образование. Выпуск 1. – М.: Центр «Школная книга», 2010. – 272 с.https://narfu.ru/upload/iblock/0f1/inklyuzivnoe-obrazovanie-vypusk-1.pdf

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR NUQSONINING KELIB CHIQISH SABABLARI

O.U.Rahmonaliyeva

Namangan davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

***Annotatsiya*:** Ushbu maqolada eshitish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar patalogiyasi, ruhiy jarayonlari, tekshirish usullari, karlikning turlari, kar bolalar bilan ishlash jarayonlari va eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqini rivojlantirishni chora tadbirlari haqida yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar. eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola, karlik, zaif eshituvchilik,nutq, eshitish, idrok, artikulatsion apparat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2017- yil 19-iyuldagi «Maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida»gi nizomda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta’limiga tayyorlash, jamiyatda moslashuviga ko‘maklashish talablarlari qo‘yilgan.

Eshitish- odam va hayvonlar organizmining tovush tebranishlarini qabul qilish xususiyati. Mexanik retseptor va nerv tuzilmalaridan tashkil topgan eshitish analizatori faoliyati tufayli ro‘y beradi. Tovush ta’sirida odamda tovush signallari parametrini aks ettiruvchi eshitish sezgisi paydo bo‘ladi. Buning natijasida tovush tebranishlari chastotasi, tovush balandligi tarzida qabul qilinadi. Bola tug‘ulganidan boshlab uning barcha sezgi organlari rivojlana boshlaydi. Sezgi organlari orqali bola tashqi muhitda bo‘layotgan voqea va hodisalarni anglaydi va tushuna boshlaydi shu orqali bolada ko‘nikma paydo bo‘la boshlaydi. Bolalar bir yoshga to‘lar-to‘lmas dada, aya, kabi ochiq bo‘g‘inli so‘zlarni eshitib taqlid orqali ayta boshlaydi.

Turg‘un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabalariga ko‘ra tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Olimlarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo‘lganligiga va og‘ir-yengilligiga bog‘liq. Eshitishida nuqsoni bor bolalarning kasalligining kelib chiqish sabablari asosan bolalarda turli infeksion kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skormotika, otit, gripp kasalliklarini infeksion-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish buzilishlari ichki, o‘rta, tashqi quloqlarni shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shkastlangan bo‘lsa, ko‘p holatlarda karlik, agar o‘rta quloq shikastlangan bo‘lsa eshitish pasayishi kuzatiladi. Maktab davrida ovoz tassurotlarining yuqori chastotasi ham eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga xomiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o‘ynaydi (qizamiq, grip). Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug‘ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaxarlanish, tug‘ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta’sirotlarining akustik ta’siroti bo‘lishi mumkin. Eshitish buzilish o‘rta quloqni o‘tkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qat’iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollashish) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chog‘ida jiddiy xavf soladi. Eshitish pasayishiga ta’sir qiluvchi omillar orasida ototopsik preporatlar asosan antibiotiklar muhim o‘ringa egadir. Eshituv funksiyasi buzilishi asosan chaqaloqlik davrida ko‘p uchraydi.

Rus olimi L.V. Neymanning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarning 25-30% tug‘ma, 70 %ni bolaning 2-3 yoshlarda kuzatiladi. Bola hayotining keyingi yillarida eshitishni pasayishi kam kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ta’lim – tarbiyasidagi buzulishlarni bartaraf qilinishi uchun uzoq muddat, kuch talab etadi. Ta’lim jarayonidagi dastlabki to‘siq – bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzulishdagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga to‘sqinlik qila boshlaydi. Buzulishning barcha

tiplarida ma’lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo‘llash qobiliyatini pastligi kuzatiladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi fan surdopedagogika fani hisoblanadi. Surdopedagogika- (lotin-“surdos”-kar) bu maxsus pedagogikaning tarkibiy bo‘limi bo‘lib, surdopedagogikaning umumiy maqsadi muloqot va bilish subyekti sifatida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoy sifatlarini rivojlantirishdir. Surdopegogika fanida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kar, zaif eshituvchi, kech kar bo‘lgan bolalar guruhiga bo‘lib o‘rganiladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni eshitish idrokini va nutqini rivojlantirish ishlari bilan surdopedagoglar ish olib boradi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar alohida yordamga muhtoj hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maxsus maktablarda ta’lim-tarbiya oladilar.

Eshitish qobiliyatining pasayishi natijasida bola nutqida kamchiliklar kuzatiladi. Lug‘at boyligi juda kambo‘lib, bundan tashqari so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaydi, so‘zlarni bir biriga bog‘lay olmaydi, so‘z yasovchi qo‘shimchalarni to‘g‘ri ishlata olmaydi, tovushlarni bir-biriga adashtirib yuboradi. Bunday bolalar bilan to‘g‘ri korreksion ishlar olib borilsa albatta natija bo‘ladi. Agar bizning oldimizga eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola kelsa biz uni pedagogik tekshirib ko‘rishimiz mumkin. Keyin albatta audiolog vrach qabuliga jo‘natishimiz kerak.

Audiometriya –eshitishni tekshiruvchi asbob hisoblanadi. Eng keng tarqalgan eshitish testi bu audiometrik test bo‘lib, u bemorning tovushni idrok eta oladigan ditsebaldagi chegarani aniqlashga qaratilgan. Bu tekshirish ovoz o‘tkazmaydigan xonada amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan to‘g‘ri korreksion ishlar olib borilsa albatta natija bo‘ladi. Hatto kar bolalarda ham eshitish apparatlari yoki koxlear implant apparati yordamida eshitisg idrokii rivojlantirish yoki qayta tiklash mumkin. Buning uchun ota-ona va surdopedagog bevosita bolalar bilan to‘g‘ri korreksion ishlarni olib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.

Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.

Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Preparation of preschool children with cochlear implants for independent learning." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 159-161.

INKLYUZIV TA’LIMDA ALOHIDA TA’LIMGA EHTIYOJI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR OTA-ONALARI BILAN HAMKORLIKDAGI FAOLIYAT

S. O. Oripova

KIUT Namangan filiali magistranti

Inklyuziv ta’limda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar ota-onalari bilan hamkorlikdagi faoliyat Ma’lumki, bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuviga xizmat qiladigan asosiy oila va oiladagi shaxslararo munosabatlardir. Shu bois bola tarbiyasi va ta’limi samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ota-onalarning ijtimoiypsixologik moslashuvi darajasi bilan belgilanadi. Bu ularning o‘z farzandlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, aqliy rivojlanish sifatining asosiy xususiyatlari va ularning yosh me'yorlariga muvofiqligi va hissiy-ijobiy ijtimoiy roli hisoblanadi.

Oilaning pedagogik va psixologik xususiyatlari, bola tarbiyasida oila va oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini A. I. Gersen, P. F. Kapterev, A. C. Makarenko, P. F. Lesgaft, V. A. Suxomlinskiy, S. T. Shatskiy, K. D. Ushinskiy, Ye. A. Flerina kabi olimlarning ilmiy-tadqiqotlarining obekti bo‘lgan. Bola tarbiyasida oilaning rolini o‘rganib, mazkur olimlar oila tarbiyasi ahamiyatini takidlab o‘tganlar. I. P. Volkova, Ye. V. Korotayeva, A. B. Mudrika, A. A. Raduginaning ilmiy tadqiqotlarida oilaviy tarbiya ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tarbiyaning asosiy omili sifatida o‘rganilishini e’tirof etganlar.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolaning rivojlanishi ko‘p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma’naviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil ta’lim ta’siriga bog‘liq. Oddiy sharoitlarda bola harakatchanligi, ko‘ngil ochishi va hokazolar tufayli juda ko‘p sonli ogohlantiruvchi manbadir. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola ham o‘qituvchisi uchun tugallanmaydigan manba bo‘lib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola ko‘proq mehanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni talab qiladi va boladan javob, quvonchli qoniqish juda kam bo‘lib, bu bir tomonlama charchoqqa olib keladi. Biz oilada majburiyatlarni bo‘lishishga harakat qilishimiz natijasida esa bunday bolalar jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari kerak.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ota-ona va o‘qituvchining teng hamkorlikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. YUNISEFning inklyuziv ta’lim bo‘yicha tavsiyalaridagi “Oilaning alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar ta’limida butun hayoti, ayniqsa, rivojlanishining ilk davrlaridagi ishtiroki muhim rol o‘ynashi”, “Ota-onalar va mahallaning jalb etilishi sinfda va sinfdan tashqarida ham inklyuziv ta’limning sifati uchun muhim” ekanligi va “Ota-onalar va maktab o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarning bolalarning hayotiy pozitsiyasi va ta’lim sohasidagi yutuqlariga ta’sir etishi”, “Bu nafaqat alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar, balki ota-onalar, sinfdoshlar, pedagoglar va maktab uchun ham foydali” ekanligi kabi qator omillar inklyuziv ta’lim sharoitida maktab va ota-onalar hamkorligining dolzarbligidan dalolat beradi3 .

Ilmiy jihatdan olib qaraganda, “Ota-onalar jamoasi inklyuziv ta’lim muhitida o‘zining tarkibi, manfaatlari, mavqei va ehtiyojlari bo‘yicha turlichadir, munosabatlar va aloqalari bo‘yicha mazkur jamoa o‘zining ichida ham doimiy uyg‘un shakllanmaydi. Bu o‘z navbatida inklyuziv ta’limning getorogenligi va polisub’ektivligi bo‘yicha xos xususiyatlarini belgilab beradi”[1].

Ota-onalar o‘z farzandlarini tarbiyalashga harakat qilishadi, uning asabiylashuvidan, egosentrizmdan, ijtimoiy va aqliy infantilizmdan qochib, unga tegishli mashg‘ulotlar, keyingi ish uchun kasbga yo‘naltirish berishadi. Bu otaonalarning pedagogik, psixologik, tibbiy bilimlarining mavjudligiga bog‘liq, chunki bolaning moyilligini, uning nuqsoniga munosabatini, boshqalarning munosabatiga bo‘lgan qarashlarini aniqlash va baholash, unga ijtimoiy moslashishda yordam berish, o‘zini-o‘zi anglashni maksimal darajaga ko‘tarish uchun maxsus bilim kerak.

Uy bolaning tarbiyalaydigan asosiy maskani hisoblanadi. Agar bola uyda o‘zini yaxshi his qilsa, u maktabda ham o‘zini dadilroq his qiladi. Ota-onalarga inklyuziv ta’limga jalb etilgan bolalarni oilaviy tadbirlarga va oilaning kundalik hayotiga qay tarzda jalb qilishni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etuvchi masala hisoblandi. Oilaning barcha a’zolari alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bola bilan muloqotda bo‘lishlari lozim. Ota-onalarga bolaning javobini kutishga, uning fikrini bolani mustaqil tanlovga va qarorlar qabul qilish hamda rag‘batlantirishga o‘rgatish lozim.

Alohida ta’lim ehtiyojga ega bolalarni uy ishlariga jalb qilish daxldorlik va mas’uliyat hislarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Eng og‘ir rivojlanish buzilishiga ega bola ham nimanidir amalga oshirishi-qo‘lidan kelgancha buyumlarni tartibga keltirishda, idish-tovoqlarni yuvishda, taom tayyorlashda, ko‘chatlar ekishda va hokazo ishlarda qatnashishi mumkin.

Ota-ona dars mashg‘ulotlarida ham ishtirok etib, bolaning yutuqlaridan quvonayotganligini, unga bo‘lgan ishonchini amaliy tarzda namoyon etishi kerak. Olib borilayotgan ta’lim jarayoniga o‘z munosabatini bildirish, farzandining olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishiga ko‘maklashishi ota-onaning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek ota-onalarning faolligini oshirish maqsadida ta’lim maskanida trening mashg‘ulotlari, davra suhbatlari ham maktab hayotida muhim o‘rin tutadi. Bunday mashg‘ulotlarni ko‘p marotaba o‘tkazish natijasida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga va oilaning muqaddas ekanligiga oid bilimlari rivojlanadi. Sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘zaro do‘stona muhit yanada mustahkamlanadi.

Inklyuziv ta’limni tizimli, samarali joriy etish ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakllari, usullari, ko‘lami va sifati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasalaridan alohida mas’uliyat va innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-6155-sonli Farmoni.
2. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent. - M: “O‘zbekiston”. 2016.- B.120.

BOSHLANG‘ICH INKLYUZIV TA’LIM SINFLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Roziqova Malika Olimovna
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv sinfda ta’lim oluvchi alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bolalar ta’lim sifatini oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv, kompensator, didaktik, texnologiya, implant, koxlear.

Hozirgi kunda jahon miqyosida keng targ‘ibot qilinayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi yani bu - o‘sishi va rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, qolaversa tarbiyalash masalasi yurtimizda ham dolzarb muammo sirasiga kiradi. [3]

Inklyuziv ta’lim va umuman ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini kiritish bu zamon talabiga aylanmoqda. Stiv Djobs aytganidek, “21-asrda muvaffaqiyatga erishish uchun ijodkorlik va texnologiyani uyg‘unlashtirish kerak”, aynan axborot-kommunikatsion texnologiyalarining uyg‘unlashuvi bizni ta’limda yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarining uchta asosiy o‘rni mavjud:

- **Kompensator** — an’anaviy ta’lim faoliyatini bo‘lgan o‘qish va yozish osonlashtirish uchun texnik yordam;
- **Didaktik** — barcha jarayonlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish va shu bilan birga o‘qitish yondashuvlarining o‘zgarishi. Bu jarayonda mos o‘quv muhitini yaratish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan didaktik vositalar sifatida foydalanishning ko‘p imkoniyatlari mavjud;
- **Kommunikatsion** — bunda qo‘llab-quvvatlovchi muqobil aloqa tizimlaridan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan boshqa ta’lim jarayonlariga qaraganda ko‘proq foydalanish kerak. Negaki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining aksariyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- Shaxsiy kompyuter (planshet yoki smartfonlar);
- Interaktiv doska;
- Multimedia vositalari;
- Internet-resurslaridan foydalanish imkoniyati.

Bu holatda xulosa qilishimiz kerakki, inklyuziv ta’lim maxsus ta’lim va umumta’lim maktabidagi ta’lim jarayonidan ham yaxshiroq bo‘lishi kerak va albatta, yuqorida aytib o‘tilgan axborot-kommunikatsion texnologiyalarining imkoniyatlari inklyuziv ta’lim jarayonida bo‘lishi uning samaradorligini ta’minlaydi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni nuqsonlarini korreksiya va kompensasiyalovchi axborot-kommunikatsion texnologiyalar misol keltirish mumkin:

“Go Talk” nutq trenajeri. Qurilma o‘qituvchining yordamida va mustaqil ravishda nutq malakalarini o‘zlashtirish, rivojlantirish yoki tiklash uchun mo‘ljallangan. U nutqiy trenajer va elementar nutq vositasi vazifasini bajaradi. Qurilmaning asosiy vazifalari - ovoz yozish moslamasining mavjudligi, uning yordamida oldindan yozilgan tovushlarni, bo‘g‘inlarni, so‘zlarni, jumlalarni yozib olib eshitish mumkin. O‘zlashtirilganlarni o‘chirish yoki yangi tovushlar, so‘zlar bilan to‘ldirish mumkin.

Qurilmani sog‘lom bolalar nutqini rivojlantirish uchun ham qo‘llash mumkin, shuningdek, aqliy rivojlanishda nuqsonlari va nutqida nuqsonlari (afaziya, alaliya, dislaliya, dizartriya) bo‘lgan bolalarni nutqidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun ham qo‘llash mumkin. Bundan tashqari, kattalarda uchraydigan miya shikastlanishi, insultdan keyingi reabilitatsiyasi jarayonida ham qo‘llash mumkin.

Duxbury Braille Translator (DBT) – Bu ikki tomonlama tarjimani amalga oshiruvchi dastur: oddiy shriftni Brayl alifbosiga va aksincha tarjima qiladi. Bundan tashqari, DBT to‘laqonli matn muharriri bo‘lib, uning yordamida istalgan hujjatni Brayl alifbosida bir necha tillarda, turli xil kodlashlarda chop etish mumkin.

Duxbury BrailleTranslator (DBT) xususiyatlari**:**

- fayllarni MS Word, WordPerfect, HTML formatiga aylantiradi;
- DBT muharririda ham matn yaratish mumkin;
- Uslublar, formatlash kalitlari va matnlar to‘plami shablon sifatida saqlanishi va keyinchalik boshqa hujjatlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin;
- 300000 ta so‘zdan iborat orfografik lug‘atni o‘z ichiga oladi;
- «Quick Find Misspelling» funksiyasi orfografik xatolarni tezda topish va bartaraf etishga yordam beradi;
- DBT dasturini Brayl yozuvida chop etuvchi printer modellarining deyarli barchasiga ulash mumkin.

Eshitish apparati - bu turg‘un eshitish kamchiliklari shakllarida tibbiy ko‘rsatmalar bo‘yicha ishlatiladigan elektron ovoz kuchaytirgich qurilmasi.

Eshitish apparatlari eshitish buzilishlarini haqiqatan ham tuzatishga qodir emas - ular tovushlarni yanada erishimli bo‘lishiga yordam beradi halos.

Koxlear implant - jarrohlik yo‘li bilan o‘rnatiladigan tibbiy protez bo‘lib, eshitish zaifligini kompensatsiya qilish imkoniyatini beradi.

Eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bemorlarning aksariyati uchun eshitish apparatlari kasallikning o‘rnini qoplash uchun etarli, ammo ba’zida ulardan foydalanish etarli darajada samarali emas. Koxlear implant - eshitish qobiliyatini yo‘qotish, eshitish vositalarining samarasizligi yoki samaradorligi past bo‘lgan hollarda ishlatiladigan eshitishni protezlash orqali to‘ldirish vositasi.

“Koxlear implant” atamasi ostida protezlanadigan qism va butun “koxlear implantatsiya tizimi” tushuniladi. U quyidagi qismlardan iborat:

implant - teri ostiga implantatsiya qilingan qabul qiluvchi va elektrod majmuasi (jarrohlik operatsiyasi orqali chig‘anoq ichiga kiritilgan elektrodlar zanjiri);

nutq protsessori - mikrofon, mikroprotsessor va transmitter (tashqarida, soch yoki teriga o‘rnatiladi);

batareya yoki akkumulyator bo‘linmalari;
masofadan boshqarish pultlari (agar mavjud bo‘lsa) va boshqa qo‘shimcha aksessuarlar. Ikki apparatlarning o‘rtasidagi farqlar shundan iboratki, eshitish apparati faqatgina zaif eshituvchilar uchun koxlear implant bo‘sa zaif eshituvchilar kabi karlar ham foydalanishi uchun mo‘ljallangan. Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan va umuman olganda bolalarni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko‘pgina kompyuter va telefon ilovalari mavjud. Sanab o‘tilgan barcha yordamchi texnologiyalar nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’limdagi imkoniyatlarini oshirishga va ularni rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan boshqa ta’lim jarayonlariga qaraganda ko‘proq foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta’lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.
2. Бадарч, Дендева. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: монография / Бадарч Дендев/ Москва: ИИТО ЮНЕСКО, 2013. – 320 стр. **https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214728.pdf**
3. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(1), 92-94.
4. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *2*(4), 185-192.

INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI

Xabibullayev Samandar Xabibullayevich
ChDPU katta o‘qituvchisi
Murodova Ruxshona Muzaffar qizi
ChDPU Jismoniy madaniyat HQS 23/1guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’limni tashkil qilish bosqichlari yuzasidan ko‘rsatma va takliflar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Bosqich, inklyuziv ta’lim, o‘quvchi, rivojlanish, natija, kognitiv, maktab, ta’lim.

Bugungi kunda bola tarbiyasini faqat oila ixtiyoriga topshirish mamlakatimiz siyosatiga to‘g‘ri kelmaydi, chunki bugun maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablar bilan hamkorlikda ta’limni davom ettirish imkoniyati mavjud. A.Avloniyning fikricha, “hukumat hamma narsaning otasidir. Bolalarni, O‘zbekistonning bo‘lajak fuqarolarini tarbiyalash kerak”, Tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu xalqlarning mentalitetiga ko‘ra, qadimdan barcha toifadagi (ko‘r, kar, soqov, albatta, qoloq) “nogironlarni qo‘llab-quvvatlash”, ularni ish bilan ta’minlash, ularga imkoniyat yaratish maqsadida o‘rnatilgan inshootlar mavjud bo‘lgan.. Islom dini vujudga kelganidan beri bolalarga, umuman, alohida ehtiyojli kishilarga nisbatan alohida, insonparvarlik va munosabatda bo‘lish har bir

musulmonning farzi bo‘lib kelgan va hisoblanadi. Ammo ta'lim va tarbiya masalasi asosan faqat uyda ta'limga, alohida ehtiyojli bolalarni oilaga, ijtimoiy an'analarga, xulq-atvor madaniyatiga, murojaat va muloqotga, o'z-o'ziga xizmat qilish majburiyatlariga va boshqalarga asoslangan edi. 1920-yillardan boshlab ta’lim masalasi isloh qilindi. Umumiy, inqilobiy buyruqlar va talablar, gender tengligi joriy etildi, bu juda oson ish bermadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim-tarbiyasi ham e’tibordan chetda qolmagan.

Birinchisi: Bola tug'ilgandan boshlab , bolaning rivojlanish muammolari va ehtiyojlarini aniqlash yo'lidagi birinchi qadam ota-onalar va shifokorlar zimmasiga tushadi va bu ikki tomon birinchi navbatda Endi, ota-onalar bu daqiqani kechiktirmasliklari kerak. Chunki u kechiktirilsa, bolaning sog'lom tarbiyasiga zarar keltiradi. Bolaning muammosi qanchalik tez aniqlansa, uni tezroq davolash mumkin, tuzatuvchi ta'lim yordami boshlanishi mumkin va kelajakni ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin.

Ikkinchidan, ustozimiz A.Avloniy aytganidek, “Ta’limni kim qiladi?”. Albatta, birinchi navbatda onadan boshlanadi. Faqat u bolaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni har tomonlama olib boradi. Sog'lom bolani tarbiyalashdan ko'ra nuqsonni tuzatishga ko'proq e'tibor beriladi. Bolaning kompensatsion imkoniyatlarini izlash kerak. Shu o‘rinda A.Avloniyning yana bir fikrini eslatib o‘tish o‘rinlidir: “Siz bilmayapsizmi, biz qanday onalar haqida gapiryapmiz? “O‘zlarida yo‘q ta’lim beradilar” degan fikrga qarshi bildirilgan e’tirozlarni alohida ta’kidlamoqchiman deya tushuntiradi atoqli ustoz A.Avloniy.

Darhaqiqat, ko‘plab ulug‘ allomalarimiz dastlabki ta’lim-tarbiyani “nodon”, “bilimsiz” deb hisoblangan ana shu onalardan olganlar, demak, farzandni dunyoga keltirgan onaning qudrati shunchalik kattaki, u himoya qilish imkoniyatini topa oladi. Uning bolasi, ya'ni, ta'minlash uchun boshlang'ich ta'lim . Bo'lajak ota-onalar maktabda o'rta ta'limni tamomlagan har bir o'g'il yoki qiz asosiy tibbiy bilimga va reproduktiv salomatlik asoslari bo'yicha bilimga ega. Oilada ular farzandlariga har tomonlama yordam berishga, ularni tug‘ilgan kundan boshlab tarbiyalashga tayyor.

Ushbu toifadagi bolalar uchun ta'lim berish ishlari boshlandi. Shunday qilib, 1920-yilda O‘rta Osiyoda birinchi marta rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktab-internat tashkil etildi. Kar, aqli zaif va ko‘zi ojiz bolalar tahsil oladigan maktab-internat ochildi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar darajasida rivojlanishda muammolari bo'lgan barcha toifadagi bolalarni tabaqalashtirilgan asosda ta'lim jarayoniga jalb etishga erishildi. O‘zbekistonda umumta’lim va maxsus ta’limning rivojlanishi davrida ta’limda sakrash bo‘lgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar amalga oshirildi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta’limning rivojlanishi inklyuziv ta’limning rivojlanishiga zamin yaratdi.

O‘zbekistonda 780 mingdan ortiq nogironlar istiqomat qiladi . Ularning 8,5 foizini I guruh nogironlari , 71 foizini II guruh va 20,5 foizini III guruh nogironlari

tashkil etadi . Nogironlar orasida bolalar ham bor 16 yoshgacha bo'lgan 97 ming kishi bor. Aholining ushbu qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kompleks xarakterga ega bo'lishi kerak, unga quyidagilar kiradi:

- erta aniqlash;
- tuzatuvchi harakatlarning erta ishlashi;
- inklyuziv ta'limga tayyorgarlik;
- maktabgacha inklyuziv ta'lim va tarbiya;
- maktab inklyuziv ta'lim.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlatning ijtimoiy siyosati asosida munosib darajada ta’lim olishi uchun shart-sharoit yaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi, shuningdek, UNICEFning “Bolaga do‘stona maktab”, JER Asia loyiha banki – “Inklyuziv ta’limni amalga oshirish” loyihalarini amalga oshirish jarayonida to‘plangan tajriba asosida inklyuziv maktablar tarmog‘i rivojlantirilmoqda. Inklyuziv ta’limni tashkil etish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish uchun sharoitlar yaratilmoqda .

Shu bilan birga, inklyuziv ta'limning asosiy vazifasi nogiron bolalarni jamiyatga integratsiyalashuviga, ijtimoiy va mehnatga moslashishga tayyorlashga qaratilgan ta'lim va tarbiyani yo'naltirishdir. Inklyuziv ta’lim “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun asosida barcha imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar bilan teng ravishda ta’lim tizimiga kiritish maqsadida qurilgan. So'nggi o'n yilliklarda integratsiya jarayonlarining kuchayishi va ekologik jarayonning salbiy ta'sirining kuchayishi munosabati bilan nogiron bolalar soni ko'paydi, ya'ni uch nafarga teng ta'lim va ijtimoiy hayotga tayyorlashga zamonaviy yondashuvlar joriy etiladi. Ushbu qoida ta'lim jarayonini tashkil etish va inklyuziv ta'lim g'oyasini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanova, K.I. O'qituvchilarning tayyorgarligi ta'limdagi inklyuziv jarayon muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida [Elektron resurs]/ K.I. Ivanova // INFOYROK.

2. Nazarova, N.M. Inklyuziv va maxsus ta'lim: to'siqlar, rivojlanish xavfi / N.M. Nazarova // shanba. 4-xalqaro nazariy-metodik seminarning ilmiy maqolalari. - M.: Logomag, 2012

3. Ponikarova, V.N. Inklyuziv ta'limga o'tish davrida o'qituvchilarning professional hamkorlikdagi xatti-harakatlarini o'rganish / V.N. Ponicarova // Cherepovets davlat universitetining xabarnomasi. - 2011. - No 4 (35). - T. 1. - B. 179- 182.

4. Penin, G. N. Inklyuziv ta'lim davlat siyosatining yangi paradigmasi sifatida / G. N. Penin // Inklyuziv ta'lim. – 2010. – No 9. – B. 41-47.

MAKTABGACHA TA‘LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta‘lim sifatini oshirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish hamda STEAM texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, estetik, lapbook**,** intellectual, ta’lim-tarbiya.

Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, bu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Davlatimiz rahbarining doimiy e‘tiborida bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta‘lim sifatini oshirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi."

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta‘lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Maktabgacha ta‘limda steam texnologiyasi fanining vazifasi - talabalarga STEAM ta‘lim texnologiyasidan foydalanish usullarini o‘rgatish, STEAM ta‘lim texnologiyasini ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llashda turli xil faoliyatlarni integratsiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash vazifalarini bajaradi.

STEAM bolalarda muammolarni tushunish, ijodiy va tanqidiy ffikrlash kabi xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM - ta‘lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar

rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta‘minlaydi. STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi. Agar biz an‘anaviy ta‘limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu maktab o‘quvchilariga nafaqat ba‘zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Agar biz an‘anaviy ta‘limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, STEM ta‘lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem- solving skills) qobiliyati shakllanadi. O‘zbekiston Respupblikasida STEM ta‘lim tizimini davlat ta‘lim tizimiga kiritish bo‘yicha o‘tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin xususiy maktablarda buning imkoni osonroq bo‘lsa, umumiy ta‘lim tizimiga STEM ta‘lim tizimini kiritishda bir qator muammolar borligi ta‘kidlanmoqda. 2019-yilning dekabr oyida Xalq ta‘limi vazirligi Xitoyda bo‘lib o‘tgan Shanghai International STEM Education Expo (STEAMEX) ko‘rgazmasida ishtirok etdi.

O‘zbekistonda STEM ta‘lim tizimini umumiy xalq ta‘limiga tadbiq etish borasida AQSH mutaxassisi jalb qilindi. Undan tashqari Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtizmida tashkil etilgan prezident maktablarida STEM ta‘lim tizimi orqali ta‘lim beriladi. Zamonaviy tadqiqotlar STEM tizimi maktab ta‘lim tizimiga oid bo‘lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, maktabgacha davrdan boshlab tadbiq etish muhim ekanligini ta‘kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Aslida STEM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog‘liqligi, ketmaketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta‘lim tizimida STEM tizimi bo‘yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi mumkin. STEM ta‘lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbiq etish muhim hisoblanadi.

Misol. STEM ta‘lim tizimini kitoblar orqali kichik yoshdagi bolaning hayotiga olib kirish samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.Bunda tarbiyachi tomonidan amaliy tarzda tayyorlangan “**Lapbook”** ya’ni cho‘ntak kitobini misol tariqasida keltirsak bo‘ladi. **Lapbook** nisbatan yangi o‘quv vositasidir. Birinchi marta amerikaliklar lapbuklarni yaratishni boshladilar. Lapbook - cho‘ntaklari, eshiklari, derazalari, yorliqlari va harakatlanuvchi qismlari bo‘lgan yig'ma kitob bo‘lib, unda bitta mavzu bo‘yicha materiallar mavjud. Laptop nimadan yasalgan? Noutbuk A3 jildidan iborat bo‘lib, unga cho‘ntaklar, yig'ma kitoblar, derazalar va noutbuk mavzusi bo‘yicha vizual ma'lumotlar joylashtirilgan boshqa tafsilotlar: qiziqarli o‘yinlardan tortib lug'at va taqdim etilgan ko‘plab mazali ma'lumotlarga qadar.

Zamonaviy talablarga javob berish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti o‘qituvchilari doimiy ravishda o‘qishlari, o‘z-o‘zini tarbiyalashlari va kasbiy mahorat darajasini oshirishlari kerak. Demak, ular uchun ta‘lim sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga munosib munosabatda bo‘lishni, hamfikrlar jamoasida ishlashni, o‘quvchilar bilan o‘quv-tarbiyaviy ishlarni malakali va samarali tashkil etishni, hamkorlik aloqalarini samarali yo‘lga qo‘yishni o‘rganish muhimdir. ota-onalari bilan ta'lim muammolarini hal qilish, ta'lim mazmunini mustaqil ravishda tanlash va uni moslashtirish, ma'lum bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim bo‘yicha Federal davlat ta'lim standarti talablariga e'tibor qaratish.

Maktabgacha ta'limning Federal davlat ta'lim standarti joriy etilishi munosabati bilan har bir o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlar, g'oyalarni izlaydi. Shunday qilib, biz mutlaqo yangi, qiziqarli, ajralmas o‘quv quroli – noutbukni o‘rgana boshladik va o‘z ishimizda foydalana boshladik. U bolalar bog'chasida ham, uyda ham qo‘llanilishi mumkin. Laptop qiziqarli va foydali, chunki u kattalar va bolalar tomonidan birgalikda yaratilgan. dolzarbligi Ushbu mavzuning mohiyati shundaki, lapbook loyiha yoki mavzu haftasi materiallarini birlashtirish va takrorlashning ajoyib usuli hisoblanadi. Laptop bolaga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ma'lumotni tartibga solishga va materialni yaxshiroq tushunishga va eslab qolishga yordam beradi (ayniqsa, bola ingl.)

Kelajakda bola mustaqil ravishda ma'lumot to‘plash va tartibga solishni o‘rganadi - insholar va kurs ishlarini yozish uchun yaxshi tayyorgarlik [37].

Kichik yoshdagi bolalar uchun tayyorlanadigan kitoblarni STEM ta‘lim tizimi doirasida qanday strukturalashtirish mumkin:

S-Science Kichik yoshdagi bolalarni fan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari, o‘simlik va hashoratlarni turli xil rasmlar ,applikatsiyalar yordamida,tabiiy maxsulotlar yordamida yasab yoki chizib ular haqida malumot berishimiz mumkin bo‘ladi

T-Technology Atrofimizda, bolalar xonasida, kundalik faoliyatimizda uchraydigan texnologiya buyumlari aks etgan qiziqarli kitoblar bolani texnologiya olamiga olib kiradi. Qaychi, g‘ildirak, mashina, oyisining kir yuvish mashinasi, telefon va hokazolarni kitobda ichini ko‘rsatgan holda namoyon qilish, buyumlar haqida hikoyalar o‘qish mumkin. Qiziqarli hikoya bilan namoyon bo‘lgan texnologik buyumlar illyutsrasiyasi bolani miyasida savollar paydo bo‘lishiga, tahliliy o‘ylashiga turtki bo‘lishi mumkin.

E-Engineering Injinerlik sohasiga bolalarni olib kirishni shakllarni o‘rganishdan boshlasa bo‘ladi. Shakllar, ularning atrofimizdagi buyumlarda aksi, shakllarning birbiri bilan munosabatini haqidagi biron shaklga ega bo‘lgan kitob foydali vosita bo‘ladi.

A – Art Bolani san‘at olamiga olib kirishni bolaligidan boshlash zarur. Milliy va dunyo miqyosida buyuk san‘at arboblari asarlari, san‘at namunalaridan tashkil topgan kitoblar, bolalar ko‘ziga yosh psixologiyasini inobatga olgan illyustrasiyalar STEM

ta‘limi tamoyiliga munosib bo‘ladi.mashg‘ulot o‘tilayotganda o‘rganilgan obyektni rasmlarini chizish orqali bolada tasavvurida uni yanada jonlantirish imkoni oshadi.

Adabiyotlar:

1. Takomillashtirilgan ―Ilk qadam‖ davlat dasturi T-2022
2. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi buxoro davlat universitetining pedagogika instituti, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘quv-uslubiy majmua i kurs uchun fan: ―maktabgacha ta‘limda steam texnologiyasi‖ buxoro – 2021
3. G.Bogdanovich. Dopolnitelnaya общerazvivayuщaya programma «Multstudiya «Moy mir» Sverdlovskaya oblast, 2018 g.
4. Master-klass dlya pedagogov «Sozdanie multfilmov vmeste s detmi» M., 2018

BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA DIDAKTIK O‘YINLAR

З.Х. Насирова

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, katta o‘qituvchi

***Annotatsiya*:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf etishda faol qo‘llaniladigan didaktik o‘yin turlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: didaktika, psixologiya, pedagogika, sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, nutq, kamchilik

O‘yin bolalarning har tomonlama kamol topishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘yin vaqtida bolalarning sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlari ishtirok etadi. O‘yinlar bolalarning aqliy faoliyatini o‘stirishga, ularning fikriy tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning xis tuyg‘ularini shakllantirishga, ayniqsa, ularning sezgi a‘zolari (ko‘rish, sezish, tinglash va .b) faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar xilma – xil materialllar asosida tashkil qilinadi. Masalan: qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar, rang – barang rasm va kartochkalar, turli geometrik shakllar, tabiiy materiallar shular jumlasidandir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta, bu o‘yinlarni keng qo‘llash bola tafakkuri, idroki, zehni, xotirasi, irodasi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va ehtiyojining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bolada atrof olamni bilishga bo‘lgan qiziqish ortadi, ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi tashabbuskorligi mustahkamlanadi. Bolalarda o‘yin orqali, kattalarning xatti – harakati orqali voqe‘likka munosabat shakllanadi, dunyoqarash, aqliy, axloqiy va jismoniy tomondan tarbiyalanadilar. O‘yinlar o‘z mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: Didaktik o‘yinlar; dramalashtirilgan o‘yinlar; syujetli – rolli; harakatli o‘yinlar.

Didaktik o‘yinlarda bolalarning aqliy jihatdan o‘stirish uchun kerakli bo‘lgan muhim sifatlar hosil bo‘ladi. O‘yinlar bolalarning yoshiga va ruhiy rivojlanishiga qarab tanlanadi. Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondashish malakasi o‘stirib boriladi. O‘yin ko‘rgazmalilik, oddiydan

murakkabga o‘tish usullari orqali olib boriladi. Tarbiyachi va logopedlar ta‘limiy o‘yinlarni o‘tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o‘yindan to‘g‘ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya‘ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolalar eshitish, ko‘rish, sezish a‘zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalarini, ularni bir - biriga taqqoslashni, guruhlarga ajratishni o‘rganadilar. Ta‘limiy o‘yinlar guruhlarda quyidagi xilda o‘tkaziladi.

O‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar-"Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko‘ylaklar" .

Stol ustiga qo‘yib o‘ynaladigan o‘yinlar- "Nima qayerda yuradi?", "Men aytgan narsani ko‘rsat", "Kimning qo‘lida nima bor?".

Og‘zaki usuldagi ta‘limiy o‘yinlar- "Qo‘g‘irchoq Lolaxonni cho‘miltiramiz", "Qo‘g‘irchoq Lolaxon mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", "Rangini top" kabi o‘yinlar kiradi.

Eshitish va ko‘rish a‘zolarini faollashtirish uchun "Xilini top", "Qaysi daraxtning mevasi?", "Nimaning pati", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "Yovvoyi va uy xayvonlari", "Ishlash uchun nima zarur", "Bu uychada qanday hayvon yashaydi","Bu kim yoki nima?" singari O‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, hayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim - kechak va boshqalar kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, ko‘rish va eshitish, esda saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi. Katta guruhlarda o‘ynaladigan "Ayting biz topamiz", "Topgan topag‘on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o‘yini", "Bog‘bonlar" o‘yinlari orqali bolalarda mehnatga muhabbat ruhi tarbiyalanib boradi.

Mazkur o‘yin jarayonida nutq muhim ahamiyat kasb etadi: u orqali bolalar fikr, his tuyg‘u va kechinmalar bilan almashinishadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar o‘rnatishadi. Nutq bolalarga tevarak – atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xil munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan didaktik o‘yinlar so‘z va gaplarni tahlil qilishga, so‘zlarda tovush va harflarning o‘rnini aniqlash, jumlalarni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatadi. Quyida bolalar bilan tarbiyaviy mashg‘ulotlarda, oila sharoitida, o‘yin faoliyatida olib boriladigan didaktik o‘yinlardan misollar keltiramiz:

Jonli so‘zlar o‘yini.

O‘yin guruh bilan o‘ynashga mo‘ljallangan bo‘lib, tarbiyachi dastlab doskaga uchta bolani chiqaradi va o‘yin qoidasini tushuntiradi:

Hozir siz bilan “Jonli so‘zlar” o‘yinini o‘ynaymiz. Bu bolalar so‘z bo‘ladilar. Demak, uch so‘zdan iborat bo‘lgan gap tuzamiz. Bolalar gap tuzadilar. Masalan, Lola – “bog‘da”, Jasur –“pishdi”, Aziz – “mevalar” degan so‘zni ifodalaydilar. Keyin tarbiyachi bolalarni chapdan o‘ngga qarata ketma - ket joylashtirib, gap yozishlarini taklif qiladi. Vazifa bajarib bo‘lingach, jonli so‘zlar o‘z so‘zlarini aytadilar, bolalar esa aytilgan gapni eshitadilar.

O‘yin gap va jonli so‘zlarni almashtirish orqali davom etadi.

O‘yinning 2 – turi

Sport va qadriyatlar sog'lom avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllanishi va uning istiqlol sari dadil borishi ijtimoiy-iqtisodiy, qurilish, raqamli texnologiya, siyosiy, madaniy ma'rifiy, sog'liqni saqlash va turizm sohalarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu yo'lda sog'liqni saqlash, fan va innovatsiyalar, madaniyat, texnika, iqtisod, taьlim-tarbiya,

maktabgacha va maktab, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarda chuqur islohotlar olib bormoqda. Malumki bu jarayonlarni hozirgi kun talablari asosida tashkil qilish va boshqarish asosiy maqsad hisoblanadi.

Mamlakatimiz aholisining salomatligini mustahkamlab borish, o'quvchi – yoshlar, talabalarning jismoniy va ma'naviy kamolotini oshirish, sog'lom avlod tarbiyasini takomillashtirish masalalari kelajagi buyuk davlat qurishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport xizmati ko'rsatish tashkilotlarida Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport, xalq milliy o'yinlari ta'lim tizimidan asosiy ta'lim-tarbiya vositalari sifatida mutahkam o'rin olmoqda. Ta'kidlash joizki, axolinnng salomatligini mustahkamlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarining hayotga tatbiq qilinishi, o'quvchi-yoshlar va talabalarning turli sport musobaqalari, 5- muxim tashabbus, Talabalar Ligasi, "Universiada", sport o'yinlari, xalq milliy o'yinlari festivallari hamda aholi istiqomat joylari, mehnat jamoalarida spartakiadalar, Vazirlar, viloyat, tuman prokrorlari, DXX rayisi, viloyat, tuman xokimlari kuboklari va birinchiliklarning muntazam tashkil etilishi e'tiborga mo slik ishdir.

Barcha hududlar va markaziy shaharlarda yirik sport inshootlari qad ko'tarmoqda, yangidan barpo etilgan sport maktablari, litseylar, professonal talim texnikumlari tashkil qilinmoqda. Sport jamoalarining turlari va sonlari tobora oshmoqda. Bunda ommaviy sog'lomlashtiruvchi va sport mahoratlarini oshiruvchi tadbirlarni maqsadli tashkil qilish mutaxassislar, jamoat idoralari va homiylardan katta tashkilotchilik, etibor talab etadi.

O'zbekiston sportchilariga xalqaro maydonlar eshigi keng ochildi. Sportchimiz O'zbekiston chempionatida g'olib chiqsa, to'g'ridan-to'g'ri jahon chempionatiga, 2-o'rin sohiblari esa Osiyo chempionati bahslariga chiqishmoqda. Vatan, g'urur, millat obro'si, bayroqning baland hilpirashi hamda madhiyamiz baralla yangrashi, ota-ona duosi, el-yurt mehri, ustozlar ishonchi-aynan mana shu muqaddas tuyg'ularni istiqlol tufayli teranroq his qilmoqdamiz. Aynan mana shu tuyg'ular sportchiga ko'pincha kuch beradi, uni qudratliroq qiladi.

Mamlakatimizda sport sohasiga berilaetgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bunday muvaffaqiyatlarning hamda qurayotgan demokratik jamiyatimizga munosib jismoniy va ma'naviy sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan komil avlodni tarbiyalashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Sportga rahbarlik qilish davlat darajasida amalga oshiriladi. U asosan ikki qismdan bazaviy va maxsus xizmat qismlaridan ibora bo'lib, bular uning samaradorli ishlashini taminlaydi.

1. Bazaviy qismga sport musobaqalari kiradi.

2. Maxsus xizmat qismiga - sport mashqi. Sportchilarni saralash, tayyorlash hakamlik va boshqalardan iborat.

Sport musobaqasi maqsadni belgilaydi va maxsus xizmatlarni yaxlit faoliyatga birlashtiradi. Sportning funktsional tuzilishi ana shunga asoslanadi va quyidagilardan iborat:

- Sport musobaqalari

- Sport musobaqalarini takomillashirish (musobaqalarning qoidalari, nizomi , taqvimi, hakamlar, tashkilotchilar va h.k.)

- Sport mashqi

- Sportchilarni tanlash va o'rinbosarlar tayyorlash

- Ilmiy-uslubiy ta'minot va h.k

Hozirgi zamon sporti insonni nafaqat katta jismoniy kuch sohibi, shu bilan birga mo'jizakor ma'naviy siymo ekanligini ham namoyon etmoqda. Insonning jismoniy kamoloti, ma'naviyati yetukligi, aqliy, ruhiy yuksakligi sport bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Sportchilarni maьnaviy, ilmiy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport murabbiylarining, ota-onalarning, jamoa raxbarlarining o'rni kattadir. Agar jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishlar muntazam olib borilsa, unda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida, ishtirok etish yoshlarni ijtimoiy ishlarga hamda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga ko'maklashadi.

Sport bilan shug'ullanishni dars va mehnat bilan birga qo'shib olib borish qiyin. Shu bois uyushganlik, intizomlilikni tarbiyalash, qat'iy tartibga o'rgatish sportchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda muhim o'rin tutadi. Bunda albatta ustoz-murabbiylarning o'rni bo'lakdir. Sportchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borayotganda sport faoliyati hamda jamiyatning, uning madaniyatini, kishilarning sog'lom-turmush tarzini takomillashtirish vazifalari bilan aloqadorligini tushuntirishga muhim o'rin ajratilishi lozim.

Sport bilan shug'ullanish ijtimoiy maqsadga egadir, jumladan, ular: - unumli mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlik;

- jismoniy, irodaviy hamda ahlokiy fazilatlarni har tomonlama rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya va sport uchun to'laqonli bo'sh vaqtni tashkil qilish;

- jamoa faoliyat malakalarini hosil qilish uchun shart-sharoitni ta'minlashdir.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va murabbiylar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Tadqiqod ishimizdan kelib chikib quyidagilarni tavsiya etamiz:

- yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, va ularni jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan sport maktablariga jalb etish,

- hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida sport tibbiyoti (travmatolog, dermatolog, sport psixologi v.blar) bo'limlarini tashkil etish;

- sportchilarining o'quv-mashg'ulot yig'inlari tashkil etish va ularga tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

- moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

- Respublika va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta’minlash;

- erishilgan natijalarni chuqur tahlil qilish va tizimli monitoring ishlarini olib borish;

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish kerakki, mamlakatimizning barcha hududlarida sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog’lomlikning asosi ekanini targ’ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o’z qobiliyat va iste’dodlarini ro’yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida»gi Qonuni 2015 yil 4 sentyabr, O’RQ-394-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

3. Nurmuhammedov K.I. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, Toshkent , 1991yil.

MAKTABGACHA TARBIYACHINING IJODKORLIGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ZARUR SHARTI SIFATIDA.

Abdukarimova Shaxnoza Nabievna

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Аннотация: Maqolada bo'lajak tarbiyachilarda maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va estetik rivojlanishini tashkil etishga tayyorlash muammosiga bag'ishlangan. O‘zbekiston Respublikasida badiiy ta’lim konsepsiyasining asosiy uslubiy jihatlari ochib berilgan. Badiiy ta'lim kontseptsiyasini amalga oshirish sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashdagi ba'zi pozitsiyalar tavsiflanadi.

KIRISH

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan ,Senat tomonidan 14-dekabrda ma’qullangan.Ushbu qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ta'lim va tarbiya ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Jamiyatga ijodiy faoliyatga qodir bo'lgan nostandart, ko'p qirrali shaxslar kerak. Ijodiy fikrlash qobiliyati faqat yozuvchi, dizayner yoki rassom kabi ijodiy kasblar uchun muhim degan fikr bor. Darhaqiqat, ijodiy qobiliyatlari rivojlangan odam o'zini anglay oladi va o'zi tanlagan har qanday kasbda eng yaxshi bo'ladi. O'zgarishlarga tayyorlik, harakatchanlik, nostandart ishlarni bajarish qobiliyati, qaror qabul qilishda mas'uliyat va mustaqillik - bu muvaffaqiyat tarbiyachining barcha

xususiyatlarini ochib beradi. Bu qimmatli fazilatlarni egallash pedagogning ijod makonining kengayishi mumkin.

V.O.Suxomlinskiy ham bolalarda bilimga chanqoqlikni faqat ijodkor o‘qituvchi yoqishga qodirligini, shuning uchun har bir o‘qituvchida ijodkorlikni rivojlantirish zarurligini, bu uning kasbiy malakasining asosiy ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlagan. Ijodkor shaxs yetarli darajada aql-zakovatga ega (bu yerda aqlning eng maqbul darajasi o‘rtachadan biroz yuqori), fikrlashning moslashuvchanligi va ichki harakatlantiruvchi kuch sifatida ijodkorlikka yo‘naltirilganligi, shu tufayli ijodkorlik hayotning barcha sohalarida namoyon bo‘ladi.ta ‘lim –tarbiya . Bugungi kunda ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatga ega insonlar juda qadrlanadi. Ijodiy tafakkurni yoshlikdan shakllantirib, shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirishga hissa qo‘shadigan pedagog zimmasiga ulkan rol yuklansa, yuksak darajaga erishish mumkin. Ta'lim tizimida ta'lim va ta'lim samaradorligini oshirish uchun asosiy narsa kasbiy mahorat va texnologiyalarni to'g'ri rejalashtirish, degan fikr hukmronlik qiladi. Shubhasiz, bu zaruriy shart, lekin shuni unutmasligimiz kerakki, o'qituvchining barcha sa'y-harakatlari faqat o'quvchilar uni individual xususiyatga ega shaxs sifatida qabul qilgandagina maqsadga erishadi.

Mavzuning dolzarbligi :Hozirgi davrda talabalarnng bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlar va o‘gitishning yangi shakl ,noan’anaviy metodlari orqali ularning kasbiy ijodkorlikni shakillantirish orqali ta’lim- tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud bo‘lib , ta’lim- tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqchiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Ijod –insonning moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratish faoliyatidir.Ijod dastlab inson tasavvurida tugiladi ,taaluqli masalalar yuzasidan izlnishlar olib boriladi.

USULLAR.

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma’lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli mualliflar tomonidan muammolar to‘grisidagi ilmiy maqolalar qayd etilgan.Ijodkorlik haqida fikr yuritar ekanmiz , avvalo ijodkorlikning mohiyatini mukammal tahlil qilib olish zarur.Ijodkorlik aytish joiz bo‘lsa o‘ta murakkab masala sanaladi.Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari individual v jamoa o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni o‘z ichiga qamrab oladi.

M.G.Yaroshevskiy fikricha ,ijodkorlik yangilik yaratish demakdir.Uni shunday tushunish kerakki ,sub’ektni tasavvurlari yangilanadi va hulq atvori ham yahshilanadi. M.G.Yaroshevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazavorligini aytish joiz.Ijodkorlik jarayoniga tizimli munosabat tarkib topadi .

Bizningcha ,ijodkorlikni aniqlashda S.L.Rubinshteyinning fikrlari aniq va lo‘nda bayon etilgan.U ijodkor yukslihi tarixiga yangilik kiritiladi.

Ijodkorlik «qayta shakllantirish»- mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir.Ijodkorlik bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tqazish – bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi ,chizmas,i tuzilmalari yuzaga keladi .Ijodkor shaxs qoidalar

yaratilishi bilanoq ularga suyangan holda yangi goidalar yaratish ustida ish boshlaydi.

Sharipov ihtirochilikni tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan taqidlanganligi ,texnik echimni ishlab chiqishga yunaltirgan.Pedagogikada ijodkorlik nazariyasining asoslarini ishlab chiqish ,faoliyat turlarida ijodkorlik jarayonlarinig qonuniyatlarini tadqiq qilishda psixologiya fani beqiyos axamiyat kasb etadi.

Birinchisi I.YA.Lerner nuqtai nazariga boglik ,unga ko‘ra, ijod bilan shugullanuvchi kishilarning fazilatlari chegarasini o‘lchab bo‘lmaydi ,ular haqida fikr aytish uchun shu faoliyat tabiatini anglamay ,unga monand hislatlarni bilmay aniqrogi uning ijodiy faoliyat jarayonlarini o‘rganmay turib gap yuritish mumkin emas.Shu munosabat bilan tadqiqotchi ijodiy faoliyatning prosessual chegaralarini ajratib ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi A.I.Popov yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini (ijodkorlikni) kasbiy jihatdan muhim ijodiy kompetensiyalar qatoriga kiritadi va shu guruhga tashabbuskorlik, tadbirkorlik ruhi va yetakchilik qobiliyatini ham kiritadi. Shunday qilib, ijodiy kompetentsiya deganda biz ijodkorlik, innovatsion faoliyat, innovatsiya, yangi narsalarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirishning aksini tushunamiz.

V.A. Buxvalov o'qituvchilarni pedagogik ijodda hamma narsaning boshlanishi o'qituvchining shaxsiyati va eng avvalo, butun umr davomida tarbiyalanadigan ijodiy fazilatlar mavjudligini unutmaslikka chaqirdi. – Har bir o‘qituvchi ijodkor inson bo‘lishga qodir, – deydi olim .

IA.V. Xutorskiyning fikricha - Ijodkorlik bu o'zaro bog'liq qobiliyat-elementlarning butun tizimini o'zlashtiradigan integratsion qobiliyat. Ijodiy qobiliyatlar xayolot, assotsiativlik, fantaziya, xayolparastlik bo'lib, o'zini quyidagicha namoyon qilishi mumkin: fikrlash tezligi, fikrlash va xatti-harakatlarning moslashuvchanligi; fikrlashning aniqligi, o'ziga xosligi; boy tasavvur; yuqori estetik qadriyatlarga sodiqlik; noaniqlikka qarshilik; o'zini tuta bilish va o'ziga ishonch; muammoli tasvirning batafsillik darajasi

"Ijodkorlik" va "kreativlik" sinonimlari .

Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratadigan faoliyat jarayoni yoki sub'ektiv ravishda yangisini yaratish natijasidir.

Kreativlik - bu insonning konstruktiv, nostandart fikrlash va xulq-atvor qobiliyati, shuningdek, o'z tajribasini bilish va rivojlantirish. Pedagogikada ijodkorlik - o'qituvchining o'qitish, dars tayyorlash va talabalar bilan muloqot qilishda nostandart yondashuvlarni topish va ulardan foydalanish qobiliyati. Ijodiy fikrlash tarbiyachiga materialni aniq o'quvchilarning ehtiyojlariga, ularning xususiyatlariga va qiziqishlariga osongina moslashtirish imkonini beradi. Bu o'quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Va bu bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan muhitni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy o'qituvchidir. Ko'p yoki kamroq darajada har bir insonda ijodiy g'oyalarni izlash uchun zarur bo'lgan moyillik mavjud. Tarbiyachi esa bu borada o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishga sola oladi.

Adabiyotlar:

1.Sharipov Sh.S.Talabalar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogic sharoitlari.Dis….ped.fan..nom.-T.2001-140 b

2. Выготский Л. С. Избранные психологические исследования.-М.Изд-во АПНР РССР1956.-С 438-452.
3 Лернер И.Я.Дидактические основы методов обучения – М.1981 –s 185

MTT TARBIYALANUVCHILARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI BOLALARNING AQLIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Abobakirova Zulayho Mirzohidovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistri,

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida bolalarga aqliy tarbiya berishda didaktik o‘yinlardan foydalanish ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: didaktika, maktabgacha ta’lim o‘yin, kommunikativ, bola, ijtimoiylashuv, aqliy qobiliyat, kognitiv jarayon, intelektual.

Yangi O‘zbekistonda tarbiyalanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar didaktik o‘yinlari hissiyotlarni rivojlantirishi atrofimizdagi dunyoni to‘liq anglash uchun bola uni his qilishi va idrok qilishi kerak. Didaktik o‘yinlarni ta’lim tarbiyaviy faoliyat jarayonlarida qo‘llash bolalar nutqini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bunday o‘yinlar bola so‘z boyligini boyitadi, ham faol, ham passiv, tovushlarni va butun so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni, jumlalarni tuzishni, o‘z fikrlarini aniq ifoda etishni o‘rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun didaktik o‘yinlar mehnat ta'limi funktsiyasini bajaradi. Darhaqiqat, bolalar o‘yin uchun materiallarni mustaqil ravishda tayyorlash orqali boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Besh yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalar rasmlarni, o‘yinlar uchun tabiiy materiallarni olishadi, kartalar, chiplar, o‘yinlar uchun qadoqlar tayyorlashadi. Agar bola o‘yin uchun atributlarni o‘zi tayyorlasa, ularga nisbatan munosabat yanada ehtiyotkor bo‘ladi. Didaktik material gigienik bo‘lishi kerak va iloji bo‘lsa estetik tarzda ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, yorqin, oqlangan o‘yinchoqlar har doim bolalarning e'tiborini jalb qiladi, ular bilan o‘ynash istagini uyg‘otadi, bu ular estetik tarbiya funktsiyasini bajarishini anglatadi.To‘g‘ri didaktik o‘yin yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Bolalar kattalar mehnati natijasida o‘yinchoqlarga, atrofdagi narsalarga g‘amxo‘rlik qilishni o‘rganadilar, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari, tengdoshlar va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlar, turli xil shaxsiy xususiyatlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun didaktik o‘yinlar mehnat ta'limi funktsiyasini bajaradi. Darhaqiqat, bolalar o‘yin uchun materiallarni mustaqil ravishda tayyorlash orqali boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Besh yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalar rasmlarni, o‘yinlar uchun tabiiy materiallarni olishadi, kartalar, chiplar, o‘yinlar uchun qadoqlar tayyorlashadi. Agar bola o‘yin uchun atributlarni o‘zi tayyorlasa, ularga nisbatan munosabat yanada ehtiyotkor bo‘ladi. O‘yinning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak o‘yin muammosi dastlab “Avesto”da so‘ngra Mahmud Qashg‘ariyni “Lug‘ati turk” asarida juda keng asoslab berilgan. Bolalarni ovunchog‘i o‘yinchoqlardir, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy, axloqiy rivojida katta ahamiyat kasb etadi. O‘yin–ma’naviy his–hayajonlar va tasavvurlarni, xulq

xatti–harakat va aqliy-axloqiy madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasidir. O‘yin ma’naviy his–hayajonlar va tasavvurlarni, xulqiy xatti–harakat va axloq madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasidir. Bola kattalarning hayotini o‘ziga ko‘chirma qilib olar ekan, ularning tashvishlari yetadi, ijtimoiy axloq normalarini o‘zlashtirib oladi. Ilk qadam o‘quv dasturida berilgan o‘yin kompetensiyasida bolalarning ijodiy o‘yinlar o‘ylab topishi,vaziyatni to‘g‘ri baholash va ijtimoiy hayotda bo‘layotgan voqea hodisalarga munosabatini angalaganligini kuzatishimiz mumkin.[5]

Aql - insonning fikrlash qobiliyati – aql aqliy rivojlanish darajasi. Intellektual rivojlanish ham jarayon, ham darajadir kognitiv faoliyat barcha ko'rinishlarida o'sib borayotgan shaxs: bilim, kognitiv jarayonlar, qobiliyatlar va boshqalar; u hayot sharoitlari va atrof-muhitning bolaga ta'siri natijasida amalga oshiriladi. Intellektual rivojlanishda etakchi rol tizimli intellektual ta'limga tegishli hisoblanadi. Bolaning intellektual rivojlanishi bolaning dunyoqarashi, aniq bilimlar zaxirasiga ega bo'lishini nazarda tutadi. Bola idrokni, o'rganilayotgan materialga nazariy munosabat elementlarini, fikrlashning umumlashtirilgan shakllarini va asosiy mantiqiy operatsiyalarni, semantik yodlashni o'zlashtirishi kerak. Bolalar bilan ishlashda tarbiyachi pedagogning asosiy vazifasi har bir bolaga o'z oldiga amalga oshirilishi mumkin bo'lgan vazifalarni qo'yishga yordam berish, ularni hal qilish usullarini o'zlashtirish va uning faoliyati natijalariga ariza topishga yordam berishdir.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy operatsiyalari usullarini shakllantirish (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, analogiya), o'z harakatlarini fikrlash va rejalashtirish qobiliyati.

2. Bolalarda o'zgaruvchan fikrlash, tasavvur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o'z bayonotlarida bahslasha olish, eng oddiy xulosalar chiqarish.[6]

Maktabgacha yoshdagi bolalar rang-barang harakatli, didaktik, o‘yinlarni o‘ynaydilar. Ular didaktik o‘yinlarni afzal ko‘radilar, chunki ularda bizni o‘rab turgan kundalik turmushdagi barcha narsalarni kishilarning hayot tarzi, mehnat faoliyatini, ularni o‘zaro munosabatlarini hamda hozirgi zamon voqealari tasvirlanadi. O‘yinda bolalar o‘zlarining kattalar hayoti ishtirokchilari bo‘lishga bo‘lgan qiziqishlarini, qizg‘in intilishlarini qoldiradilar. Huddi onasidek qizchalarini (qo‘ng‘irchoqlarini) tarbiyalaydilar, vrachdek ularni davolaydilar, o‘qituvchidek ularni o‘qitardilar va hakozo. Tanlangan roli bolani butunlay chulg‘ab oladi, ularning aqli va hissiyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Ona mehribon va g‘amxo‘r, vrach e’tiborli va ziyrak, kamandir adolatli va talabchan, sotuvchi xushmuomala va ochiq ko‘ngil, dengizchi qo‘rqmas va jasur. Agar bola bu rollarni qaysi birini tanlasa, u o‘shaning mag‘zini chaqib va obrazga kirib uni chuqur his qiladi. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” o‘quv

[5] Smolentseva A.A. "Matematik tarkibga ega bo‘lgan fan-didaktik o‘yinlar", Moskva, ma'rifat, 1987 yil

[6] . Shvaiko G.S. "Nutqni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari", M., ma'rifat, 1988 yil.

dasturining 4.1-bobida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o‘yinning roli va maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati haqida batafsil yoritilgan. Davlat o‘quv dasturida bolaning o‘yin o‘ynash huquqi tan olinadi, o‘yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi.[7] O‘yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O‘yin orqali ta’lim olish bolalarni ta’lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. Bolalar o‘yinini tashkil etishda pedagogning o‘rni quyidagilar :

-bolalar o‘yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar).

-bolalar o‘yinini rivojlantirish.

-bolalarning o‘yinda o‘zaro munosabatda bo‘lishiga yordam berish

-bolalarga o‘zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish.

Didaktik o‘yin bu xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga asos bo‘lib xizmat qiladi.Bolalarning tevarak–atrofdan olgan taassurotlari, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan bilimlari bu o‘yin orqali qayta ishlanadi, to‘ldiriladi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak–atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. O‘yinning syujeti o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqyea, hodisalar va ularning qatnashuvchilaridir. Rol–milliy o‘yinning asosiy negizi hisoblanadi[8].

O‘yin jarayonida juda ko‘p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to‘g‘ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va hayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Milliy o‘yinlarni mazmunini rang barangligi ularni tasvirlash va tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi.[9] Hozirgi paytda ko‘pchilik pedagog va psixologlar o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladilar:

1. Maishiy o‘yinlar
2. Mehnat mavzusidagi o‘yinlar
3. Ijtimoiy mavzusidagi o‘yinlar

O‘yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Bola o‘ynayotganda har- xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxtacha ustidan o‘tadi, engashadi, yuqoriga tirlashib chiqadi. Bu harakatlarning hammasini bola be’malol, o‘z hohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan

[7] “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2018

[8] “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” T.: 2018

[9] . Usmonxo‘jayev T.S. va bosh. Maktabgacha yoshdagilar sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyatida, gimnastika va massaj (o‘quv qo‘llanma). “Farg‘ona” nashriyoti. 2011 y – 137 b.

bo‘lib qoladi, jismoniy jihatdan chiniqib boradi.Milliy didaktik o‘yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilishga qiziqishini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O‘yinda bola o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, hamda topaganlikka o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy qobilyatlarini o‘sib rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yin faoliyati orqali shaxsning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi. O‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi. Bola shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi. Hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinichiliklarni engish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi. Didaktik o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash hamda aqliy qobilyatlarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Bola shaxsning aqliy va intelektual qobilyatlari shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smolentseva A.A. "Matematik tarkibga ega bo‘lgan fan-didaktik o‘yinlar", Moskva, ma'rifat, 1987 yil.
2. Shvaiko G.S. "Nutqni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari", M., ma'rifat, 1988 yil.
3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2018
4. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” T.: 201

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILADAGI OILA A’ZOLARI (KEKSA AVLOD VAKILLARI)NING O‘ZARO TA’SIRI

Artikova Muhayyo Botiraliyevna
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani, p.f.d.professor

Annotatsiya: Maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda oiladagi oila a’zolarining o‘zaro ta’siriga individual yondashib, pedagogik va psixologik ta’sir yo‘llarini o‘rganish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy–hissiy sifatlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, axloqiy sifatlar, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy–hissiy sifatlarlarini shakllantirish, bolalarning ijtimoiylashuvini faollashtirish masalalari dunyoning qator mamlakatlari pedagog-psixologlari tomonidan ilmoy-tadqiqot ishlari orqali o‘rganilmoqda.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaning barcha vakillari orasida axloqiy sifatlarni rivojlantirish va oilaning inson manfaatlari bilan bog‘liqligi hamda jamiyatdaoilaviy munosabatlar maromining o‘rnini ta’kidlash o‘ziga xos hamkorlikni

hisobga olishni ko‘zlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV bobida[10] Oila masalalariga alohida to‘xtalgan, jumladan 64-modda: Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. O‘zbek mintalitetiga tegishli bo‘lgan xususiyatlardan biri bolalar ota-onalarning ko‘z o‘ngida hamma vaqt tarbiyaga muhtoj bo‘lib ko‘rinadilar. Shuning uchun ular axloqiy tarbiyani doimiy ravishda davom ettirishadi va asrlar davomida shunday bo‘lib kelmoqda. Biroq, zamon talablari va insonlarning dunyoqarashining o‘zgarishi natijasida oilalarda axloqiy tarbiyaning berilishi borasida muammolar kelib chiqmoqda.

Ushbu muammo nafaqat O‘zbekistonda balki butun Yevropa mamlakatlarida ham qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. M.V. Gamezo, I. Yu. Kulagina, M.I. Lisina Muxina, L.F. Obuxova va shu kabi boshqa olimlar, tarbiyalanuvchi-bolalarning katta maktabgacha yoshdagi vaqtida xususiy aloqalar takomillashib borishi bolaning kattalarga bo'lgan munosabatining taraqqiy etishini belgilashi borasida bir qancha izlanishlar o‘tkazilgan va o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonqarori[11]ga Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi IV bobida: Oilalarda doimiy ma’naviy tarbiyani oshirish mahalla, oilalarda ota-onalar va maktabgacha yoshdagi bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy aloqalarini tahlil qilish asosida “Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti” meyorlariniko‘rsatish va shularnegizida mahalla, tuman, shahar, viloyat va respublika musobaqalarini tashkil etish vazifalari belgilangan.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishini yanada rivojlantirish, bolalarning sifatli, teng ta’lim olishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimining nodavlat sektorini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3955-son qarori[12]ga binoan:

- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga mostarzda maktabgacha ta’lim tizimidagi normativ huquqiy hujjatlarni yanada rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchi-bolalarniham aqliy, axloqiy, etik-estetik, shuningdek jismoniy rivojlanishiga sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta’lim tiziminini nazorat qilishnirivojlantirish,shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish haqqoniyligi va shaffofligini ta’minlash;

[10]O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2019 -yil

[11]Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori.

[12]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3955-son qarori

- maktabgacha ta’lim tizimi uchunshu tizim xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, saralab olish va takomillashtirishga mutlaqo yangi qarashlarni amaliyotga joriy etish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi, bolalarning tarbiyasidagi axloqiy sifatlarini pedagogik qarashlar asosida shakllantirish, hamda oila vakillarining, ayniqsa oiladagi keksa avlod vakillarining bolada axloqiy sifatlarini rivojlantirishi bugungi kunning ahamiyatli masalasiga aylanib bormoqda.

Axloqiy tarbiya bu: inson uchun eng muhim, ko‘p sharaf, yuksakmartaba beruvchi axloqiy tarbiyadur.

Biz oldingi darslarda tarbiya bilan dars oralig‘ida farqli, dedik chunki dars oluvchi – bilguvchi, tarbiya oluvchi – amalda bajaruvchi demakdir. Shuga tarbiya qilguvchi ustozlarning o‘zlari bilmlariga sababbo‘lib shogirdlariga ham yetkazib beradigan darslarini amaldagi ishlaribilan chuqurturub o‘rgatishlari kerakdir. Bu ravishda ta’lim bilanyetkazigan dars hamdabilim shogirdlarning ko‘ngliga tez singib, yaxshi pedagog bo‘larlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: “O‘z bilimiga amal qilmaydigan insonlar eng yomon insonlardir”,-deganlar. Agar tarbiya beruvchi muallif o‘zi olim bo‘la turib amalda bajarmasa, bu holat shogirtlarining axloqiy sifatlariga ta’siri ko‘p bo‘ladi “Ustozning o‘zi shu joyda shu ishni qildi.Lekin bizga bunday qilmanglar deb uqtiradi”,-degan fikr vashubha paydo bo‘ladi.[13]

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilik» [14]asarida esa shahar va qishloqlarda yashovchi xalqlarni ijtimoiy tabaqalarga ajratgan holda, hokimlar, hunarmandlar, bobodehqonlar, olim-u fuzalolar, shifokorlar va boshqa insonlar haqida aytib, ularning jamiyat hayotidagi o‘ziga xos joyiga bo‘lak to‘xtalib ketadi. Kasblardan bobdehqonchilik, hunarmandchilik hamda chorvachilik bilan bog‘liq fikrlarini aytib o‘tadi. Muallif bobodehqon, hunarmand va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchilarni jamiyat hayotining asosi, moddiy boyliklarini yaratuvchilari deya ta'rif beradi.

Axloqiy tarbiya-shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy xis-tuygu va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir. Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o‘zlarining boshqalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar; tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy xislarini, shaxsiy

[13] Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” (axloq va axloqiy tarbiya bandlari) 2016

[14]Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilik»

sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyaning vazifalari asosan quyidagilardir:

Bolalarda axloqiy xis-tuyg‘ular, tasavvurlar va hatti-harakatlarni tarbiyalash. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash. Shaxsda axloqiy xis-tuyg‘ularni tarbiyalash.Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish.

Bu umumiy vazifalar yosh guruhlari boyicha aniqlashtiriladi va o‘quv tarbiyaviy jarayonining mazmunida o‘z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni bog‘chadagi axloqiy tarbiya berishning asosiy printsiplari va pedagogik shart-sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar axloqiy tarbiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning prinsiplari ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. G‘oyaviy va tarbiyaviy ishning ma’lum maqsadga qaratilganligi;
2. Ta’lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan xola yondoshish;
3. Axloqiy tarbiya ishini xayot va zamon bilan bog‘lab olib borish;
4. Bolalarning faolligi;
5. Jamoada tarbiyalash;
6. Tarbiyaviy ishning sistemaliligi va izchilligi;
7. Ta’sirchanligi;
8. Oila, bog‘cha hamda kattalar tarbiyaviy ta’sirining birligi;
9. Boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
10. Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko‘zda tutish.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya metodlari-bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishiga, ularda ma’daniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy xis-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

I guruh axloqiy ongni, ya’ni axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xoxishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

II¬ guruh madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

III guruh axloqiy his-tuyg‘ular va munosabatlarni rag‘batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlardir.

Hamma guruh metodlari axloqiy his-tuyg‘ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta’minlaydi.

Bu guruh metodlariga qo‘yiladigan asosiy talablar: bolalarni yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi tasavvurlarini e’tiborga olish, axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o‘zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg‘usiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish.

Bolani noo‘rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e’tiborsizlik qilish qat’iyan man etiladi.Hamma metodlarda ma’lum izchillik bilan kompleks

ravishda foydalaniladi. Bu metodlarning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

bolalarda ijobiy, axloqiy xislarni qo‘zg‘ata olish, asar qahramonlariga hamdardlik bildirish, yutug‘idan quvonib, muvaffaqiyatsizligida birgalashib achinish;

-bolalarga tushunarsiz bo‘lgan ayrim axloq qoidalarning mazmunini ochib berish;

-axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg‘ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o‘z hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan joylarda ham foydalanish.

Shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi qizg‘in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida axloqiy xis-tuyg‘ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo‘llaydi, chunki u shunday qilingandagina yaxshi xulq namunalarini o‘rgatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. Toshkent:,O‘zbekiston, 1998.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi” PQ-3808. -T., 27.06.2018

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ-4312.-T.,08.05.2019.

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ERTAKLARDAN FOYDALANIB BOLALARNI AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASH VA AQLIY RIVOJLANTIRISH

Ashirova O‘g‘iloy Abduvali qizi

Guliston davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

Sirdaryo viloyati Sayhunobod tumani 2- sonli kasb- hunar maktabi uslubchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda axloqiy-estetik tarbiyani ertaklar orqali samarali rivojlantirish haqida ma’lumotlar berilgan. Mashg‘ulotlarning samardorligini ta’minlashda differensial yondashuv orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik hamda aqliy rivojlantirishda ertaklardan foydalanishning o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy-estetik tarbiya, differensial yondashuv, tarbiyachi, bolalar, olimlar, psixologlar, ertak.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha katta yoshdagi barcha bolalarni mulohaza jarayoniga jalb qilish, ularda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirish masalasi tarbiyachi oldida turgan muhim mammolardan biridir. Muammoning yechimini differensial yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotdan izlamoq maqsadga muvofiq. Differensial ta’limning nazariy asoslari G.K.Selevko tahriri

ostida yaratilgan “Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy”[15] o‘quv-uslubiy qo‘llanmada atroflicha yoritib berilgan.

Bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish turli yo‘llar, shakllar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. SHu jihatdan olib qaralganda, ertaklar – estetik tuyg‘ularni, bolalarning qiziquvchanligi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda qulay vosita hisoblanadi.

Axloqiy-estetik sifatlar bolalarda go‘zallik xaqidagi bilimlar, hayot voqeligi, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini, o‘zini tuta bilishni, muloqotga kirishuvchanlik, yaxshi-yomonni farqlash, o‘z-o‘ziga baxo berish kabilarni tarbiyalash masalasini o‘z ichiga oladi. Inson hayoti o‘z-o‘zini anglashdan boshlab, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi bilan tugallanadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili.

Yevropa va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari ilmiy amaliyotida ertak vositasida jamiyatda yashash mazmuni va estetik zavqni shakllantirish, ertaklar orqali bolalarda “yaxshi” va “yomon” tushunchalarini farqlashga o‘rgatish hamda axloqiy, ma’naviy va estetik tushunchalarni tarbiyalash, sabr, chidamlilik, boshlagan ishni nihoyasiga yetkazishga o‘rgatishdir.

Ertak - bu bola bilan unga tushunarli va tanish tilda muloqot qilish usuli, bu hayotdagi birinchi xavfsiz darslar sanaladi. B.Bettelxaym, E.Fromm, K.Yung kabi olimlar ertakning bola shaxsining rivojlanishiga ta’siri haqida fikrlar bildirishgan. A.V.Gnezdilov, T.M.Grabenko, O.V.Zashchirinskaya, T.D.Zinkevich Evstigneeva, M.A.Povalyaeva, N.Pogosova, D.Yu.Sokolov, S.A. Chernyaevava boshqalar ushbu muammoni o‘rganish orqali shu sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Ertaklar psixologik, terapevtik va rivojlanish ishlari uchun eng samarali usuldir. D.Yu.Sokolovning fikriga ko'ra, bola o'z shaxsiyatini ochish va o'rganish, resurslarini aniqlash va rivojlantirish uchun xavfsiz muhit yaratadi. Ko'pincha ertaklarda qo'llaniladigan sehr va ertak muhiti bolaning atrof-muhitini quradigan, uning diqqat markazini va imkoniyatlarini kengaytiradigan sun'iy ramka (chegara) dan tashqariga chiqishga imkon beradi. Bu voqealarni rivojlantirish va hayotiy muammolarni hal qilishning boshqa mumkin bo'lgan usullarini ko'rishga yordam beradi.[16]

Ertak voqealari tabiiy va mantiqiy ravishda bir-birini to‘ldirib boradi. Shunday qilib, bola bu dunyoda mavjud bo'lgan sabab-oqibat munosabatlarini, o‘zligini his qiladi va o'rganadi. Ertak, A.V.Gnezdilovning fikricha, ichki va tashqi dunyoni o'zgartirish, uning go'zalligi va o'ziga xosligini ko'rish va qabul qilish imkonini beradi.[17] T.D. Zinkevich-Yevstigneyev katta maktabgacha yoshdagi bola uchun, eng

---

[15] Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy. V 2-x t. T. 1. – M.: Narodnoye obrazovaniye

[16] С.Х.Жалилова “Мактабгача ёшдаги болалар психологияси” 2010 й. 49- б.

[17] Гнездилов А.В Авторская сказкатерапия. М.: 1991 75с

muhimi, uning ichki olamini, hissiy va kognitiv sohalarini rivojlantirish lozim deb biladi. Bu yosh davrida hissiyotlar bolaning faoliyatining asosiy tartibga soluvchisi hisoblanadi. Zero, u dunyoqarashni kengaytiradi, dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantiradi, rolli xatti-harakatlar ko'nikmalarini egallashga yordam beradi, axloqiy- estetik, kognitiv va hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatadi.

Ertaklarga o‘z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar ham murojaat qilganlar.

Asosiy qism

Maktabgacha yosh - bu ertak yoshi. Bu yoshda bola ajoyib, g'ayrioddiy hamma narsaga kuchli intilishni namoyon qiladi. Ertak har bir bolaning to'liq rivojlanishi uchun maqbul vositalardan biridir. To'g'ri tanlangan ertak bolaning hissiy holatiga ijobiy ta'sir qiladi, uning xatti-harakatlarini to'g'rilaydi va yaxshilaydi, shuningdek, bolaning o'zidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ertakka oshno qilishdan maqsad:

- bolalarda axloqiy- estetik tarbiyani rivojlantirish;
- ertak eshitish odobiga o‘rgatish;
- ertak eshitish jarayonida bolalarning nutqi rivojlanishidagi uzviylikni ta’minlash;
- xalqimiz yaratgan boy merosimizga bo‘lgan muhabbat hissini uyg‘otish;
- ertak asosan ota-onalar tomonidan aytilgani uchun, ota- ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi, ertak yakunida birgalikda hulosa chiqarishsa bu nafaqat farzandga ijobiy ta’sir qiladi, balki ota-onani korreksialashga ham yordam beradi.

Har bir ertak bolaning psixologiyasiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:

- tanlangan ertak bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo‘lsa bolada butun vujudi bilan uni eshitish va unga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi;
- ertak eshitish jarayonida ayrim bolalarda ertak qahramoniga nisbatan ruhi tetiklik yoki qo‘rqish, nafrat, ko‘ziga yosh olish yoki kulib yuborish kabi emotsional xolatlar namoyon bo‘ladi;
- ertak yakunida o‘tkazilgan suhbatda bolalar ertak haqida o‘zlarining taassurotlarini bayon qiladilar va xursandchilik bilan ertak qahramoni o‘rnida bo‘lishga xohish bildiradilar;
- bola uchun ertak shunchaki o‘ylab topilgan voqealar, fantastika emas, bu o'ziga xos voqelik, tuyg'ular olamidir;
- ertak bola uchun oddiy hayot haqidagi bilimlarini kengaytiradi;
- bolalar ertaklarni tinglab, qahramanlar hayotida yashaydilar, qahramonlarga chuqur hamdard bo'ladilar, ularga yordam berish va himoya qilish uchun ichki tuyg‘ular shakllanadi;
- maktabgacha yoshda ertakni idrok etish bolaning o'ziga xos faoliyatiga aylanadi, bu ajoyib jozibali kuchga ega bo'lib, bolaga erkin orzu qilish va xayol surish imkonini beradi.

- ertak yordami bilan bolalar o'z fikrlarini to'g'ri ifodalashni o'rganadilar, shuningdek, u muloqot va xatti-harakatlar asoslarini shakllantirishda eng yaxshi yordamchidir.

Bolalar ertaklardan juda ko'p bilim oladilar:

vaqt va makon haqidagi dastlabki bilimlar;

inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqida;

obyektiv dunyo bilan munosabat;

hamda ertaklar bolaga yaxshilik va yomonlikni ko'rish imkonini beradi.

Bola hayotining birinchi yillaridanoq ko‘r-ko‘rona eng yorqin va eng yaxshi narsaga erishadi, yorqin o‘yinchoqlar, rang-barang gullar va narsalar bilan qoniqadi. Bularning barchasi unga zavq, qiziqish uyg'otadi. "Chiroyli" so‘zi erta bolalar hayotiga kiradi. Hayotning asosiy yilidan boshlab ular qo‘shiq, ertak eshitadilar, rasmlarni tomosha qiladilar, bo‘yaydilar, chizadilar. Shundan haqiqat bilan san'at estetik idrok jarayonida ularning quvnoq kechinmalarining bulog'iga aylanadi. Voqelikni estetik idrok qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Tarbiyachi bolani go‘zallikni idrok etishdan, unga bo‘lgan hissiy munosabatidan, tushunishga, estetik g'oyalarni shakllantirishga, mulohazalar va baholashlarga yo‘naltirishi kerak. Bu juda mashaqqatli ish bo‘lib, undan bolaning hayotini muntazam hamda beg'ubor ravishda go‘zallik bilan baham ko‘rishni, atrof-muhitni har tomonlama bezatishni talab qiladi.

Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasi ma’lum o‘quv jarayonini qamrab oluvchi differensial ta’lim tashkiliy masalalari yechimi, metodi va vositalarining uyg‘unligi bilan tavsiflanadi. Differensial yondashuvni amalga oshirish bir tipdagi gomogen o‘quvchilar guruhlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatiladi.

O‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan bolalar uchun ularning intellektual ehtiyojlari darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish lozim. Bunday bolalar ertak mazmunini yaxshi o‘zlashtirgan holda kelishadi. O‘qilgan ertak yuzasidan o‘tkaziladigan an’anaviy savol-javoblar, davlat ta’lim standartlaridan kelib chiqqan holda egallangan bilimlar aniqlangach, tarbiyachining oldida bolalarning ertakni yanada chuqurroq anglashlariga yordam berish vazifasi turadi. Bu ishni bolalarning ertakni o‘qishga qiziqishlari yuqoriligiga ko‘ra juftliklarda yoki guruhlarda tashkil etish mumkin. Mashg‘ulot jarayonida tashkil etilgan bu davrada tarbiyachining faoliyati tayyor bilimlar tashuvchisidan bolalarning o‘zlashtirish faoliyatini tashkil etuvchiga aylanadi.

Ertaklar xavotirlikni yo‘qotib, o‘ziga ishonchni orttiradi. N.L.Kryajeva qizg‘anchiq egoist bolalarga, “Baliqchi va baliq” haqidagi ertakni qo‘rqoq bolalarga, “Qo‘rqoq quyonlar” haqidagi ertakni ishonuvchanlariga, “Buratinonaning sarguzashtlari”ni qaysar bolalarga, “No‘xat ustidagi malika” va “Etik kiygan mushuk” ertaklarini tinib-tinchimas bolalarga, aytib berishni taklif qiladi. Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o‘zimizning o‘zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi. “Zumrad va Qimmat” ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, “Ur to‘qmoq” ertagi yolg‘onchilikka, “Susambil” ertagi noahillikka qarshi kurashadi.

Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bola qalbiga ezgulik urug‘ini sochadi.

Differensial yondashuv aslida mashg‘ulotning istalgan bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Hattoki, yangi mavzuni o‘zlashtirishda ham foydalanish mumkin. Masalan, yangi ertak o‘qib bo‘lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. “Agar sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘lar eding?”, “Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega?”, “Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar?”, “Qahramonlarning xatti-harkatlari atrofdagilarga nima beradi – quvonchmi, qayg‘umi?” kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi. Yoki yangi mavzu asosida rasmlar chizish ham foydali faqat, bolalar diqqatini ortiqcha vazifalar bilan bo‘lmaslik maqsadida yangi mavzu yuzasidan beriladigan qo‘shimcha topshiriqlarni xohish bildirganlargagina berish talab etiladi. Nutq o‘stirishga qaratilgan faoliyat ham differensial yondashuv asosida tashkil etilishi mumkin. Bunda ertak uchun bir necha xil mavzularni tavsiya etishni ko‘zda tutish maqsadga muvofiq. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida past o‘zlashtiruvchilar uchun mulohaza yuritishga qaratilgan savollar berish ham maqsadga muvofiqdir. Mavzu yuzasidan fikr yurita olish ko‘nikmalariga ega bolalarga ilgari o‘rganilgan ertaklar bilan qiyosiy tahlilni amalga oshirish topshiriladi. Bunday iqtidorli bolalar alohida e’tiborga mashg‘ulot jarayonidagina emas, balki mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda ham individual konsultatsiya olishga ehtiyoj sezadilar. Tarbiyachi differensial yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy faoliyatini, axloqiy- estetik sifatlarini badiiy adabiyot namunalari vositasida rivojlantirishi mumkin.

Yakuniy xulosa.

Xulosa qilib aytganda, ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg‘urishga majbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to‘qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi. Aynan xotira bilan uyg‘unlashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to‘g‘ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xatti-harakatlarini misli ko‘rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba’zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o‘zidir. Bola o‘zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o‘z xatti-harakatlarida qo‘llashni o‘rganadi. Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg‘aytiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi bolalarga axloqiy-estetik tarbiyani ertaklar orqali hamda differensial yondashuv asosida samarali rivojlantirishi mumkin. Shu sababdan o‘z vatani kelajagiga befarq bo‘lmagan tarbiyachi har bir bolaning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlarni differensial yondashuv asosida tashkil etishga harakat qilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy. V 2-x t. T. 1. – M.: Narodnoye obrazovaniye.
2. С.Х.Жалилова “Мактабгача ёшдаги болалар психологияси” 2010 й. 49- b
3. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислоҳотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция.
4. Гнездилов А.В Авторская сказкатерапия. М.: 1991 75с
5. Buzrukova, D. M. M. (2023). Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotining kalit faktorlari. Oriental renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 793-797.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA AXLOQIY SIFATLARNING NAMOYON BO‘LISHI

Azizova Zulfizar Fazilovna

PhD, dotsent v.b., “University of economics and pedagogy” NOTM.

Annotatsiya. Mazkur maqolada qator olimlarning yosh davrlarini bosqichlarga bo‘lishi, bola aql-idroki psixik rivojlanish davrlariga tasniflari, bola xarakterining va individual xususiyatlar shakllanishi to‘g‘risida ma’lumotlarni uchratish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida axloqiy sifatlarning namoyon bo‘lishi, shuningdek, maktabgacha yosh davrida axloqiy tajriba orttirishning ahamiyati ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, maktabgacha yosh, shaxs shakllanishi, yosh davrlari, psixik rivojlanish, axloqiy sifatlar, axloqiy tajriba, bola xarakteri, Davlat talablari.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. U kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob - shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'Iadi. Qadimgi faylasuflar, allomalar axloq-odobni jamiyatning “poydevori” deb hisoblaydilar va bu esa ularning asarlaridagi dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - deya ta’kidladi Prezidentimiz.

Axloq so'zi - lotincha «myeros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bolada axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayonida ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, yosh davrlarini tabaqalash nazariyalaridan xabardor bo‘lishni talab etadi.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog‘cha yoshi uchun maktabgacha davr (o‘rta bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshilarga ajratish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

1. Go‘daklik davri - tug‘ilgandan 1 yoshgacha - yetakchi faoliyat - bevosita emosional muloqot;

2. *Ilk bolalik davri* - 1 yoshdan 3 yoshgacha - yetakchi faoliyat - predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;

3. *Maktabgacha davr* - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli o‘yinlar;

Fransuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1) homilaning ona qornidagi davri;
2) impulsiv harakat davri - tug‘ilgandan 6 oylikkacha;
3) his-tuyg‘u davri (emosional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha;
4) sensomotor (idrok bilan o‘z harakapshng uyg‘unlashuvi) davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha;
5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;
6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;
7) jinsiy yetilish va o‘spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Shveysariyalik psixolog J.Piaje bola aql-idrokiga quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

1) sensomotor intellekti - tug‘ilgandan 2 yoshgacha;
2) operasiyagacha tafakkur davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o‘zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo, keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo‘lish, o‘ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqini bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyojiga o‘tiladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘smirida qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o‘z navbatada bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo‘lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o‘rganadilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin;

- *birinchi davr* - bu 3-4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola emosional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘likdir:
- *ikkinchi davr* - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish;
- *uchinchi davr* esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat’iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta’sirida o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyatga juda kattadir.

Bolalar birinchi navbatda ma’naviy axloq me’yor va qoidalarini, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me’yorini egallaydilar. Bunday me’yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirishi uchun syujetli-rolli o‘yinlar yordam berish mumkin. Bog‘cha yoshining oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga

nisbatan diqqat-e’tibor, mehribon bo‘lishi xususiyatidir. Katta yoshdagi bolalar ko‘p hollarda o‘z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. O‘z-o‘zini anglash lyoqati katta bog‘cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab kurishga harakat qiladi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlari ega bo‘lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog‘cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo‘lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar ètadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivasion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Katta bog‘cha yoshidagi bolalarda burch hissi - “nima yaxshi-yu”, “nima yomon”ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog‘liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg‘ulari paydo bo‘lsa, biron tartib-qoidani buzib qo‘yganlarida xafalik, ta’bi xiralik hissi tug‘iladi. Bu yoshdagi bolalar asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq, me’yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me’yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda ma’naviy hissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o‘sadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo‘lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim - bosh kiyganlarida juda yaqqol ko‘rish mumkin.

Bola hayotining dastlabki yillari mobaynida individual xususiyatlar shakllanishi, ruhiy rivojlanishlar sodir bo‘lishidan kelib chiqib, ota-onalar va tarbiyachilar shu yosh davrida bolalarda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishda muloqotning identifikasiya (o‘zgalarning holatini anglash va hissiyotlarini farqlash), empatiya (kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qilish), xayrixohlik, samimiylik darajasini kengaytirish va kreativ (murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topish, amaliy yechim qidirish) xususan, faol muloqot, tashabbuskorlik, kreativlik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Davlat talablari asosida bolalarning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar sifat va miqdori ko‘rsatkichlarni qaydlab borish uchun har bir chorakda ularni baholab turish mezonlaridan kelib chiqishi kerak. Buning uchun esa tarbiyachi ma’lumotlarni to‘plab borishi va tahlil etishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.05.2019 й., 07/19/4312/3106-сон; 09.10.2020 й., 07/20/4857/1357-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 16 декабрдаги 595-сонли "Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида"ги Қонуни // https://lex.uz/docs/4646908.
3. **"**Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби**"** мавзусидаги анжумандаги Президент нутқи.
4. Давлетшин М.Г., Дустмуҳамедова Ш., Мавлонов М., Туйчиева С.. Ёш даврлари ва педагогик-психология. Ўқув методик қўлланма. 2004.
5. Норбошева М.А. Мулоқот жараёнида мактабгача ёшдаги бола шахсининг ижтимоий-психологик ривожланиш хусусиятлари. file:///C:/Users/USER/Downloads.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IDROKGA XOS KOGNITIV USLUB SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Badritdinova Madina Baxromovna
NamDPI v.b. dotsenti, PhD
Odiljonova Muslimaxon Jasurbek qizi,
Mamadrahimova Mohinur A'zamjon qizi
NamDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokga xos kognitiv uslub shakllanishining psixologik mexanizmlari hususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv, temp, uslub, idrok, diqqat, rivojlanish

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurilishi yangi hayotiy muammolarni samarali va g'ayrioddiy hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor faol shaxsni shakllanishini talab etmoqda. Shu bilan bog'liq ravishda zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri o'sib kelayongan yosh avlodni ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida barcha bilish jarayonlarini psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sohasini takomillashtirishni talab etadi.

O'quv materialini o'zlashtirishda his etiladigan, ko'rgazmali materialning, «jonli mushohadaning» roli kattadir. Ta'lim protsessida aktiv, uyushgan, rejali idrok qilishning, kuzatishning ahamiyatini inkor etish xato bo'lur edi. O'quvchilar bilimlarni egallar ekanlar, konkret predmetlar, hodisalarni, ularning tasvirini ko'zdan kechiradilar, konkret tasavvurlarga ega bo'ladilar. Psixologik nuqtai nazaridan predmetli, tasviriy va so'z ko'rgazmaliklari farq qilinadi. Predmetli ko'rgazmalilik o'quvchilarning narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishni nazarda tutadi. Tasviriy ko'rgazmalilik tasivriy vositalar rasmlar, mulyajlar, diapozitivlar yordamida amalga

oshiriladi. Biroq, psixologik kuzatishlar va eksperimentlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hissiy idrok qilish bosqichida ortiqcha to‘xtalib qolish faqat foydasiz bo‘libgina qolmay, abstrakt tafakkurning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Kuzatuvchanlikni tarbiyalash aktiv, uyushgan, aniq maqsadga muvofiq sistemali kuzatish ko‘nikmasini tarbiyalash sifatida juda muhimdir.

O‘quvchilarga kuzatish natijalarini so‘z bilan yoki ko‘rgazmali formada qayd qilishini o‘rgatish muhim ishdir[18].

Biz harakat qilgan paytda doimiy ravishda ma’lumot qabul qilamiz. Qabul qilish jarayonida faoliyatni boshqarish zarurdir. U hissiy organlar orqali amalga oshiriladi. Masalan: ko‘z faqat 350 dan 760 gacha bo‘lgan uzunlikdagi to‘lqinli elektromagnit nurlanishda ta’sirlanadi.

Endi o‘quv jarayonida qabul qilish sub’ektivligi nimadan iboratligini bilishga harakat qilamiz. Har qanday boshqa axborot kabi o‘quv axboroti ham vaziyatga qarab qabul qilinadi, shuning uchun o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi individual farqlar, ehtiyojlar, topshiriqlar va o‘quvchilarning maqsadlari mos bo‘lmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarni o‘quv axborotini qabul qilishlari bir xil bo‘lmasada, ularning o‘quv faoliyatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Endi qabul qilish jarayonining xususiyatlariga, ya’ni qabul qilishning individual shakllari va axborotlarni qayta ishlab chiqishga murojaat qilamiz. Psixologlar qabul qilishning 2 turini ajratishgan: analitik va sintetik. Birinchi turda diqqat e’tibor alohida mayda chuydalarga qaratiladi, ikkinchisida umumiy yaxlit holda qabul qilinadi. Ikkala turni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish psixologiyada hozirgacha saqlanib keldi, ammo turli yo‘nalish vakillari buni shunday ta’riflaydilar. Differentsial psixologiya uchun pertsentiv usullarni farqlash muhimdir, chunki bu barcha odamlarda bir xil emas. Bu turdagi individual xususiyatlar shaxsda umrbod o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi, ular ontogenez jarayonida rivojlanadi, nafaqat rivojlanish jarayonida, balki mashqlar, pedagogik ta’sirlar orqali o‘zgarib boradi. Tezlik orqali axborot qabul qilinadi va qayta ishlanadi. Uni an’anaviy taxistaskopik usul va ko‘z harakatini o‘lchash zamonaviy muolajasi yordamida aniqlash mumkin.

Taxistaskopik tajribalarning natijalari juda ko‘p shartlarga bog‘liq: sodda figuralarni bilish uchun murakkablarga qaraganda ozroq vaqt talab etiladi. Qabul qilish qobiliyati vka axborotni qayta ishlashga sinalayotgan odamning holati ham ta’sir etadi. Stenik kayfiyatdagi odamga qaraganda astenik holatda odam narsalarni odatda, sekin anglaydi. Charchoq holat ham ko‘p vaqt sarflanishiga sabab bo‘ladi. Xatto shart-sharoitlar bir xil bo‘lganda ham vaqt bo‘yicha katta individual farqlar mavjud. Taxistaskopik tajribalarga ko‘ra quyidagi shart-sharoitlarga ma’lum bo‘ldi. Insonlarda bir xil sharoit va

[18] Nemov “Na stolnaya kniga prakticheskaya psixologiya” Moskva 1979 g

bir xil vaqt ichida axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyati har xilligi kuzatilgan. Axborotni qayta ishlash tezligi va sifatini o‘rganishning ikkinchi metodik uslubi bu – ob’ektlarni ko‘rib chiqish va matnlarni o‘qish paytida amalga oshiriladigan ko‘z harakatlarini o‘lchash va belgilab qo‘yishdir.

Axborotni qabul qilish qayd etish paytida sodir bo‘ladi. Shuning uchun fiksatsiyalar davomiyligini o‘lchash axborot qabul qilishga qancha vaqt ketishini aniqlashga imkon beradi.

Ma’lumki, jismni ko‘rganzmali tahlil qilish va kuzatuvchining bilimi, tajribasi va kutishlariga bog‘liq. Rus psixologlari kuchli va kuchsiz sportchilar kuzatilganda nigohni fiksatsiya qilish davomiyligi va qaror qabul qilishdagi vaqtda farq borligini aniqlaganlar. Kuchsiz sportchilar kuchlilariga qaraganda nigohlarini tez va uzoq to‘xtatib turishgan, qarorni sekinroq qabul qilishgan, raqiblarining figuralariga emas, o‘z figuralariga ko‘proq e’tibor berishgan. Kuchli sportchi bir fiksatsiyada juda ko‘p axborot qabul qilgan, o‘yinning keyingi holatiga ahamiyat bergan, faol qidiruv axborotini amlga oshirgan

Xulosa shuki, axborot qabul qilish tezligidagi individual farqlar, o‘tkazilgan farqlarning aniqligidagi, qaror qabul qilishda odam uchun kerak bo‘ladigan axborotlarning sonidagi va ahamiyatidagi farqlar aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. I.A.Karimov ”O‘zbekiston mustaqillik ostonasida” Toshkent -2012
2. Nemov. ”Nastolnaya kniga prakticheskaya psixologiya” Moskva-2008
3. Krutetskiy ”psixologiya” Moskva-1979
4. E G‘oziyev ”Oliy maktab psixologiyasi” Toshkent-1999

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT BUZULISHINING SABABLARI

Badritdinova Madina Baxromovna
NamDPI v.b. dotsenti, PhD
Rustamova Madina Xurshidjon qizi,
Tursunboyeva Sevara Abdurahim qizi
NamDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarda diqqat buzulishining sabablari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv, temp, uslub, idrok, diqqat, rivojlanish

Respublikamizda zamon talabiga mos yangicha turmush tarzida yashab, faoliyat ko‘rsatadigan, ishlaydigan, mustaqil fikrlaydigan shaxsni, ozod mamlakatimiz fuqarosini shakllantirishda bugungi kunda bosh o‘rinni o‘qituvchining o‘quv-tarbiyaviy jarayoni egallaydi. O‘quvchi yoshlarning zamonaviy bilimlar olishini ta’minlash uchun butun pedagogik jarayonning negizi hisoblangan o‘qituvchi-pedagog o‘quvchilarning shaxsiy individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda hozirgi davr talablari darajasida tashkil etishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini

shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayoninig butun murakkabliklari, muammolari pedagogning mehnati mazmunida o‘z aksini topadi.

Muvaffaqiyatli o‘qishning muhim omillaridan biri diqqatni to‘planishidir. Darsda o‘qituvchi tinglay olmaydigan o‘quvchining diqqati tarqoq, doimiy ravishda u dasrga e’tiborsiz bo‘lsa, kelayotgan axborotni u qisman, sifatsiz qabul qiladi yoki butunlay qabul qilmaydi. O‘qituvchilar ko‘pinga mashg‘ulot paytida o‘z o‘quvchilariga e’tiborliroq bo‘lishlarini talab qilib: «diqqat qiling», «iltimos quloq soling», «bu yoqqa qarang» kabi iboralar bilan murojaat qiladilar. Ammo afsuski, bunday iboralar ta’siri uzoqqa bormaydi.

Bolalardagi diqqat buzilishi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

- O‘ngida tush ko‘rish (bola hayolan boshqa qayerdadir bo‘ladi, uni chaqirilganda u cho‘chib qo‘rqib ketadi).
- Harakatning giperfaolligi (bola bir daqiqa ham jim o‘tira olmaydi, serharakat bo‘ladi).
- Verbal giperfaollik (bola to‘xtamay gapiradi).
- Tez gapirish va xorish (avvaliga fikrni normal holatda jamlanadi, ammo uzoq vaqtga cho‘zilmaydi, odatda bunday bolalarning diktantlari yoki yozma ishlari oxirida xatolari ko‘payib ketadi).
- Diqqatning yengil ko‘rinishidagi bo‘linishi (qiyinchiliklar yuzaga kelgan holatda bola tirishqoqlikni to‘xtatadi va oldiga qo‘ygan maqsadga erishishga intilmaydi).

Bu belgilarning har biri bolada diqqat yetishmovchiligidan dalolat beradi.

Diqqatni jamlash bo‘yicha individual xususiyatlarni turlicha aniqlash mumkin. Eng avvalo, bir xil yoshdagi o‘quvchilarni diqqatini to‘plash darajasiga ko‘ra, ajratish mumkin, ya’ni ularning mashg‘ulotlardagi o‘zlarini namoyon qilishlariga qarab, «yaxshi», «o‘rta», «zaif» guruhlarga ajratish mumkin. Ammo bu aniq natija beradi deyish to‘g‘ri emas, chunki bolaning diqqat qilish holati topshiriqning turiga bog‘liq. O‘qituvchining fikricha, diqqat qilish qobiliyati yetarli rivojlanmagan o‘quvi bir darsda e’tiborliroq, boshqasida esa bee’tibor bo‘lishi mumkin. Ehtimol, u darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zini yanada e’tiborli va faol bo‘lib namoyon etishi mumkin. Bunday o‘quvchilar o‘zlari yoqtirmagan o‘qituvchining darslarida umuman e’tiborsiz bo‘lishi mumkin, yoqtirgan o‘quvchilarining darslarida faol ishtirok etishga harakat qiladilar.

Diqqat bo‘linishi turli odamlarda turli bo‘lishi mumkin. Kuzatishlarga ko‘ra, inson biror ish bilan shug‘ulanganda, har qanday tashqi ta’sirlardan qat’iy nazar diqqati bo‘linmaydi. Ammo boshqa bir kishining oddiygina harakati yoki tovushidan diqqati bo‘linadi. Bu xususiyat bola tug‘ilganidan mavjud bo‘lib, uzoq vaqt mobaynida o‘zgarmaydi. Bu inson temperamentiga bog‘liq, ammo bu xususiyat tug‘ma bo‘li, hech qanday ta’sirga bo‘ysunmaydi, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Aksincha, tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali, maqsad sari intilishlar yordamida, sistemali mashg‘ulotlar va foydali odatlarni ishlab

chiqish yordamida bu xususiyat asta-sekin xohlagan yo‘nalishda qayta qurilishi va o‘zgartirilishi mumkin[19].

Tarbiyachi pedagoglar, ota-onalar bolalarni o‘z-o‘zini nazorat qila olish va mutsaqil faoliyat qila olishga o‘rgatishlari lozim va muvaffaqiyatlari uchun ularni rag‘batlantirib turishlari lozim. Bolalar diqqat beqarorligidan tushkunlikka tushib qolmasligi lozim.

Diqqat o‘quv faoliyati muvaffaqiyatining ta’minlanishini muhim shartidir.

Ta’lim jarayonida diqqat takomillashib, ixtiyoriy yo‘naltiriladigan, uyushgan, tarbiga solingan, boshqariladigan bo‘lib boradi.

Diqqatsizlikning oddiy sabablari – fanga nisbatan qiziqishning yo‘qligi, materialni bayon qilishning quruq va noaniqligi, o‘quvchilarning charchaganligidir. O‘quvchilar diqqatini qo‘zg‘atishning asosiy vositalari – xilma xil usullarni qo‘llagan holda mashg‘ulotlarni dinamik tarzda olib borish, o‘quvchilar faolligini oshirish, bayon qilishning jonliligi, o‘quvchilarning bir faoliyat turidan ikkinchisiga o‘tishi, diqqatni chalg‘ituvchi qo‘zg‘atuvchilarga barham berishdan iborat. Albatta diqqatni faqat uni chalg‘ituvchilarga barham berish yo‘li bilangina emas, balki ularga qarshi tura bilish qobiliyatini tarkib toptirish, ularni chalg‘ituvchi ta’siriga qarshi ko‘rashish yo‘li bilan tarbiyalamoq kerak, aks holda noziklashgan, injiq diqqatni mutlaqo qulay sharoitlardagina ishlash odati vujudga keladi. Diqqatning xarakteriga o‘quv ishlarining sur’ati juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Sekin sur’at diqqatni tarqatib yuboradi, o‘quvchilarning faolligini pasaytiradi. Jadal sur’at ham noqulaydir; ko‘pchilik o‘quvchilar o‘qituvchining fikriga diqqat qilib ulgurmaydilar, charchaydilar, orqada qoladilar, buning oqibatida diqqat ham susayib, tarqoq holda bo‘ladi. Muayyan sinf uchun optimal ish sur’ati o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini jalb etishga harakat qilganda shu narsani nazarda tutish kerakki, ba’zi hollarda o‘quvchilar o‘z diqqatlarini oshirib, diqqat qilib, diqqat bilan qarab o‘tirsalar ham, lekin, ularning fikri boshqa narsa bilan band bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi diqqatning tashqi ifodasigagina e’tibor berib qolmasdan, faoliyat jarayonida aktiv idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy diqqat berilishiga erishmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” Toshkent-1997
2. I.A.Karimov ”O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”
3. E.G‘oziyev ”Psixologiya” Toshkent - 1994
4. A. Rahmonov, Yo Jumanazarov ”Yosh va pedagogik psixologiya” Namangan-2007
5. V.Karimova. ”Psixologiya” Toshkent – 2002

[19] A. Rahmonov, Yo. Jumanazarov “Pedagogik psixologiya” Namangan - 1997

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Джамолиддинова Дилноза Мирходжоддинова
Доктор филологических наук
Азизова Ханзодабегим Акмалкизи
студентка КГПИ

Аннотация. В данной статье освещены содержание и сущность эстетического воспитания, роль внеклассной деятельности в приобщении младших школьников к природе, а также особенности формирования эстетического воспитания, формирования эстетического воспитания учащихся в процессе обучения. На уроке использованы современные образовательные технологии, определена роль и эффективность естествознания в формировании эстетического воспитания учащихся младших классов, экологического мышления учащихся, их мировоззрения, поведения, всех форм обучения в развитии учащихся.

***Ключевыеслова*:**начальнаяшкола, эстетическоевоспитание, естествознание, охранаприроды, уголокживойприроды, эстетическоечувство, красота, скромность, нравственность, изысканностьвоспитания, эстетическийвкус, задачаэстетическоговоспитания, образование-экспериментальнаяплощадка.

Вопросы охраны природы и экологической безопасности стали общей глобальной проблемой мирового сообщества. В частности, наряду с реформированием всех сфер жизни общества в глобальном масштабе, создание экологически стабильных условий жизни граждан стало приоритетом государственной политики. Для достижения намеченной цели актуальное значение приобретают вопросы связи экологического образования с духовной жизнью общества, в частности, вопросы использования национальных ценностей в воспитании экологических знаний и понимания учащихся. На самом деле эти проблемы со студентами актуальны не только из-за изменения их отношения к природе (из-за чего природа повреждается и разрушается), но и из-за того, что исчезает естественная красота природы, что представляет угрозу для человека. жизнь отношения также очень актуальны. Младшим школьникам свойственно воспринимать окружающий мир с волнением. Несмотря на то, что дети все рассматривают, трогают руками, охотно слушают объяснения взрослых, они не могут заметить многих вещей в окружающих их событиях, поскольку обращают внимание на эффекты, вызывающие у них эмоции и интересы.

Соответственно, знакомя детей с объектами природы, особое внимание следует уделять их привлекательности и красоте. Одним из эффективных средств эстетического воспитания является использование копий картин известных художников при преподавании естествознания, а также интерпретация и объяснение фрагментов художественных произведений учителя, поскольку поэтическое восприятие природы, более глубокое понимание природы это и помогает почувствовать ее красоту. Особое значение демонстрация имеет для

адаптации учащихся к школьной жизни от игровой деятельности. Организация экскурсий на природу оказывает большое влияние на развитие эстетических чувств детей, на формирование их вкусов и расширение знаний. Изучение природы должно сочетаться с ее эстетическим восприятием. Потому что чем глубже ребенок воспринимает свою природу, тем больше это приносит ребенку радости, и природа проявляется перед ним во всех своих аспектах. Необходимо воспитывать у младших школьников творческое отношение к работе на природе (создание газонов, садов, парков). Этому может послужить уголок живой природы, работа на полигоне, оформление домашних и летних заданий, внеклассная деятельность (выбор книг для внеклассного чтения, организация выставки, утренники). Однако эстетическое воспитание не будет эффективным, если все внимание будет сосредоточено только на наслаждении природными объектами. Задача эстетического воспитания: - не только увидеть красоту в природе, но и воспринять ее, т. е. соединить эстетическое восприятие с восприятием; - создавать красоту в природе и охранять ее, то есть соединять культуру труда с эстетикой; - учить соблюдать правила поведения и культуру поведения в природе и в обществе, то есть соединять эстетику и этику.

В процессе обучения естественным наукам эстетическое воспитание должно осуществляться комплексно, системно, с учетом всех форм общения учащихся с природой. Эстетический вкус – одна из важных составляющих эстетического сознания, это единство чувства и мышления, оценка, выражающая личность человека. Человек с эстетическим вкусом рассматривает окружающее через такие критерии, как красота и уродство, величие и порочность, трагедия и веселье. Наличие высокого эстетического вкуса положительно влияет не только на самого себя, но и на окружающих. Хотя эта способность восходит к природным врожденным способностям, но проявляется она главным образом через образование и социальные отношения. Эстетический вкус представляет собой сочетание интеллектуального (понимания), морального (проницательности) и эмоционального воспитания. Эстетическое воспитание – это, прежде всего, воспитание у каждого художественного чувства и художественного вкуса. В процессе роста утонченности, вкуса, эмоций и навыков, основанных на научном мировоззрении, человек духовно обогащается, а его жизнь становится более осмысленной. Его любовь к времени, в котором он живет, возрастает. Все это формирует способность каждого человека отличать красоту от уродства и отвращения и в дальнейшем развивает ее. Эстетическое воспитание сегодня настолько важно, что вкус стал жизненной потребностью каждого человека в труде, производстве, повседневной практической деятельности.

При формировании эстетического воспитания в начальной школе на практике апробировались процессы сравнительного анализа, педагогического наблюдения, анкетирования, практических занятий, процессов организации экскурсий. В результате это служит созданию модернизированной, усовершенствованной системы формирования эстетического воспитания в

начальной школе [14]. Формирование эстетического воспитания в начальной школе, понимание его сущности, развитие навыков самостоятельного и творческого мышления учащихся считается актуальной проблемой современности. Среди них:

1. Определено, что формирование эстетического воспитания в начальной школе зависит от психологических особенностей учащихся, дидактических принципов и педагогического мастерства учителя, и можно обеспечить глубокие и основательные естественные знания.

2. Подобраны материалы, связанные с формированием эстетического воспитания в начальной школе, и разработаны рекомендации по их реализации. Определены избранные эффективные методы (дидактические, логические, устное изложение, наблюдение, самостоятельная работа, современные образовательные технологии), формы (уроки, внеклассная и внеклассная деятельность), средства (распределительные, дидактические, технические) [15]. Роль учебника естествознания в формировании эстетического воспитания младших школьников бесподобна. Прежде всего, учитель, преподающий этот предмет, должен изменить взгляды ребенка на природу с негативных на позитивные. Если каждый ребенок будет жить в любви к природе, его эстетическое воспитание будет высоким. Для этой цели будет уместно, если мы, педагоги, будем проводить воспитание и обучение вместе.

Список литературы:

1. Якубов С., Зокиров З. (2021). ЛЮБОВЬ К РОДИТЕЛЯМ И ПОЧИТАНИЕ IX-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ. Теоретическая и прикладная наука, (4), 439–442.
2. Азизова, Зироат. "ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ФОРМ И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ."Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2.17 (2022): 77-80.
3. Baxodirovna, AzizovaZiroat. "INTERNATIONAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 458-461.
4. Азизова, ЗироатБаходировна. "СИСТЕМА ГАРАНТИЙ ПРАВ РЕБЕНКА В УЗБЕКИСТАНЕ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.11 (2021): 575-578.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING O‘RNI

Dadaboyeva Nazira Axmadjonovna

Namangan Davlat Pedagogika instituti psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada tashkil etiladigan tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, estetik tarbiyada oilaning o‘rni, axloqiy tarbiyada oilaning muhimligi va hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishi hamda oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go ‘zallikni his

qilish, undan zavqlanish, hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarni ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.

***Kalit so‘zlar*:** oila, ota-ona, farzand, tarbiya, go‘zallik, estetik tarbiya, ahloqiy tarbiya,

Oila bu - asrlar davomida xalq urf-odatlar, milliy an‘analar, rasm-rusumlarni saqlab namoyon etib kelayotgan muqaddas makondir. Bilamizki tarbiyaning o‘chog‘i oilaga borib taqaladi. Oilada ota-ona farzandiga insoniy fazilatlardan estetik tarbiyada shakllantirmog‘I lozim. Avvalo ota-onaning estetik mas‘uliyatli va qat‘iyatli bo‘lmog‘i katta o‘rin tutadi. Estetik tarbiya asosan oilada ota-ona tomonidan, bog‘cha, maktab, akademik litsey hamda oliy o‘quv yurtlari hamda mahallalarda amalga oshiriladi. Bola yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o‘rin tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e‘tiborga molikdir. Estetik tarbiya bolaning ahloqiga, hulq-atvoriga kuchli ta‘sir qiladi va ota-onalarni ularni yoshligidan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi. Estetik ta‘lim-tarbiya umumiy tarbiya bilan bir-biriga bog‘liq jarayondir(1).Bolada go‘zallikni his etish tarbiyasi avvalo oilada shakllantirish, avvalo, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Ahloqiy va estetik qarashlar mazmuni o‘zgargan bir sharoitda oilada ahloqiy va estetik tarbiya to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bola yoshligidanoq soxta go‘zalliklar(yarimyalang‘och yoki yalang‘och badan, me‘yoridan ortiq qo‘llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik jarrohliklar, yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go‘zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim. Sababi farzand voyaga etib ijtimoiy jarayonlar bilan bo‘ladigan munosabatlarida go‘zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo‘lishini tushunishi zarur. Bu albatta go‘zallikning moddiy va ma‘naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rnida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki, go‘zalliknig har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan mushohada qilingandagina uning ihtimoiy- ma‘naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Vatanimiz ravnaqi yo‘lida milliy qadriyatlarga milliy iftixorni yuksaltirishga va albatta ezgu ishlarni ko‘lami kengaydi. Bunyodkorlik g‘oyasi go‘zallik tushunchasi bilan hamohang olib borilganligini, bilish, anglash tasavvur qilish qiyin emas.

O‘zbek oilasini barchasini barchasini savodxon, ma‘lumotli deb atasak, xato qilmagan bo‘lamiz, ana shu imkoniyatlar ta‘sirida o‘g‘il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovatli bo‘lib etmoqdalar.

Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma‘naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o‘zlari ham tarbiyaning o‘ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma‘nosiga doir eng yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lib turishlari kerak.

O‘z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog‘atda o‘tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko‘radilar, dillari also jaroxat azobini sezmaydi; o‘kinish hissiga duchor bo‘lmaydilar. Shu

to‘g‘risida o‘zbek xalqidagi quyidagi maqol darak beradi:” Toy ulg‘aysa, ot tinadi(ya‘ni ot minishdan qutqariladi)”.
Oilaning asosiy tayanchi bo‘lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko‘radi, o‘zinig bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlarida bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi.
Demak, oila hamma tarbiya turlarining boshlang‘ich nuqtasi. Farzand dunyoni go‘zal ko‘zlar bilan ko‘rishi uchun ota-ona o‘z farzandiga e‘tiborli munosabatada bo‘lishi, har bir narsa -hodisaning ijobiy tomonlarini ko‘ra olgan bolagina haqiqiy estetik jihatdan taraqqiy etgan, dunyoqarashga ega bo‘lib shakklana oladi. Farzand bamisoli loyga o‘xshaydi donishmandlarning fikricha, unda qanday tarbiya berilsa shu tarbiya bilan kamol topadi.
Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi, dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo‘lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topadi. Bola uchun oiladagi sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit, madaniy-ma‘naviy, estetik hamda ahloqiy qadriyatlar, an‘analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko‘nikma va malakalar manbaidir. Olida tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zalikkni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go ‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish,ularni hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Go‘zallikka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta‘limga ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvni tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Birinchi navbatda shaxsning go‘zallik bilan aloqador bo‘lgan me‘yor munosabatlarini uning qay darajada qonun-qoidalarni anglab olishga bog‘liqdir.
Demak oila, hamma tarbiya turlarining boshlang‘ich nuqtasi. Farzand dunyoni go‘zal ko‘zlar bilan ko‘rish uchun ota-ona o‘z farzandiga e‘tiborli munosabatda bo‘lishi, har bir narsa-hodisaning ijobiy tomonlarini ko‘rsata va singdira olishi kerak. Salbiy qarashlarning ijobiy tomonlarini ko ‘ra olgan bolagina haqiqiy estetik jihatdan taraqqiy etgan , dunyoqarashga ega bo‘lib shakllanadi.
Xulosa qilib aytganda har qanday tarbiyani ham oqilona tashkil qilish, bola tarbiyasiga e‘tiborsizlik qilmaslik darkor aks holda bu nafaqat oila uchun balki jamiyat, davlatimiz uchun ham salbiyoqibatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun farzandni mehr bilan, dunyoni sevish bilan, insonlarga g‘amxo‘rlik qilish, yordam berish, mushkulotda yaqinlaridan qochmaslik, do‘stga sadoqat tuyg‘ulari bilan, kattalarga hurmat saboqlari bilan tarbiyalamoq muhimdir, o‘shandagina biz kelajagi boy, ertangi kuni ravshan, estetik madaniyati shakllangan komil insonni voyaga etkazishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. K.Munavvarov “Oila pedagogikasi” T: “O ‘qituvchi” 1996-384-b
2. O.Xasanboyeva “Oilada ma‘naviy-ahloqiy tarbiya” T: “Sharq” 1998-368-b
3. M.Imamova .”Oliada bolalarning ma‘naviy axloqiy tarbiyasi” T: “O ‘qituvchi”. 1999 yil.

4. J.Hasanboyeva, X.A.To‘raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O‘.Usmanov “Pedagogika” “Noshir” T: 2011 yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARIDA DIZAYN FIKRLASHNI BADIIY ASARLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Dadamirzayeva Ma’mura Shokirjon qizi
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asar, bohslang‘ich sinflarda badiiy asar ustida tahlil olib borish hamda boshlang‘ich sinf o'quvchilarida dizayn fikrlashni badiiy asarlar vositasida shakllantirishning maqsad va vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. badiiy asar, badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, dizayn fikrlash, bog‘lanishli nutq, asar tahlili, tasavvur etish, estetik ta’sir etish.

Badiiy asar – adabiyot va san’atning voqea bo‘lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy mulokot vositasi hisoblanadi. Keng ma’noda badiiy asar san’atning u yoki bu turi (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr) mansub bo‘lgan, insonning go‘zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati maxsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlikni anglatadi, yani ma’noda alohida olingan musiqa asari ham, haykal yoki rang-tasvir ham, film yoki spektakl ham bari badiiy asar sanaladi. Termin faol qo‘llanuvchi tor manosida badiiy adabiyotga mansub bo‘lgan “Adabiy badiiy asar”ni bildiradi. Shu o‘rinda adabiyotga mansub etiluvchi asarlarning hammasi ham badiiy asar bo‘lavermasligini, “Adabiy asar” bilan “Adabiy-badiiy asar” tushunchalari farqlanishini ta’kidlash lozim. Ya’ni “Adabiy asar” tushunchasining qamrov doirasi keng bo‘lib, “Adabiy badiiy asar” uning tarkibiga kiradi hikoya, qissa, roman, memuar, sayohatnoma, esse janrlarida bitilgan asarlarning hammasi “Adabiy asar”, biroq sanalganlar ichida hikoya, qissa va romanga nisbatangina “badiiy asar” deyish mumkin. Shu ma’noda badiiy asarlar bilan tanishtirish ta’lim bosqichlarining har bir bo‘g‘inida muhim va zarur bo‘lgan jarayon hisoblanadi.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o‘qituvchi darsda o‘qish darslarining ta’lim-tarbiyaviy vazifalariga, san’at asari sifatida badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlariga va kichik yoshdagi o‘quvchilarning yoshlariga mos ravishda badiiy asarni idrok etish xususiyatlariga amal qilinadi. Badiiy asarni idrok etishda oldin tayyorgarlik ishlari bajariladi, ikkinchi sintezdan so‘ng esa o‘qigan holda asarga ijodiy xarakterdagi ishlar o‘tkaziladi. Agar o‘quvchilarda bunday bilim bo‘lmasa, asarni o‘qishdan oldin bolalar tasavvurini boyitish va unga aniqlik kiritishga qaratilgan tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi. O‘qituvchi biron bir hikoyani aytib berishdan oldin, bu hikoya nima haqida, qaysi yozuvchi qalamiga mansub, qisqa bo‘lsada shu yozuvchi yoki shoir haqida ma’lumot berish, uning sevgan mashg‘uloti, kasbi haqida o‘quvchilar saviyasiga mos hayajonli qilib aytib beradi. O‘qituvchining badiiy hikoyasi o‘quvchilarning badiiy asarga qiziqishini orttiradi.1-sinfda ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘qituvchi yozuvchi haqida juda

qisqa ma’lumot beradi, masalan: o‘qish kitobida Q.Hikmatning “Do‘stlik” haqidagi she’rni o‘qishdan oldin o‘qituvchi bolalarga shoir taniqli bolalar shoiri, she’rlarining asosiy qahramonlari kattalarning yordamchisi bo‘lgan bolalar hisoblanadi, deb shoirning kitoblarini ko‘rsatadi.O‘quvchilar asar mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari tasavvurga borliq haqida ma’lum darajada aniq bilimga ega bo‘lishlari zarur.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi, asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o‘quv malakalarini takomillashtirish topshirig‘i deb hisoblanadi.

2. Asarning g‘oyaviy asoslarini, uning obrazlari, syujet chizig‘i va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog‘lanishli nutqning o‘sishini ta’minlaydi.

3. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o‘qishga o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va atrofmuhit haqidagi bilishlarini kengaytirish hamda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektni mazmun va subyektiv bahoni konkret materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifani o‘quvchilarda asarni tahlil qilish bilan barcha amalga oshiriladi. O‘qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o‘zaro bog‘liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab turadi. Maktabda ya’ni o‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, bu jarayon har bir sinfning xususiyati hisobiga olingan holda amalga oshiriladi, o‘quvchilarda tasavvur etish, estetik his-hayajonni rivojlantirishni ta’minlaydigan turli metodlar qo‘llaniladi, badiiy adabiyotning har biri badiiy asarning o‘ziga xos xususiyati shuni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf O‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish o‘quvchilarda biron bir hikoyani tanlab o‘qish bilan belgilanadi. Bunda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab natija bog‘lanishini belgilash badiiy xususiyatlarni ochish o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda badiiy so‘z katta o‘rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, afsonalar, dostonlar, hikoyalar eshitishni yaxshi ko‘radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo, o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarning go‘zalligi, tilning ifodaliligi, she’riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta’sir ham ko‘rsatadi. Badiiy asarni o‘qib berishdan, hikoya qilib berishdan, she’r yod olishdan avval albatta tayyorgarlik ishlari o‘tkazilishi kerak. Ko‘pgina muallimlar, olimlar badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg‘ulotini yangi so‘zlarni o‘zlashtiruvchi manbaga aylantirib yubormaslikni uqtiradilar. Badiiy adabiyotlarni foydalanilgan mashg‘ulotlar g‘oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, badiiy asar mazmunidagi hech bir narsa bola e’tiboridan, eshitishidan

chetda qolmasligi kerak. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalar yangi, hajmi jihatidan katta, tili jihatidan sermazmun bo‘lgan asarlar bilan tanishtirishning “so‘zlarni o‘zgartir” (tushuntir) degan mashq tarzida belgilash yaxshiroq. Bu mashq o‘qituvchiga bolalar u yoki bu so‘zlarni qanday tushunadilar, so‘zlarni sinonimlar bilan almashtira oladilarmi va shunga o‘xshash holatlarni aniqlab olishga yordam beradi. Ayniqsa, eng asosiysi-bu mashq bolalar uchun yangi so‘z bo‘lgan so‘zlarni, jumlalarni esda saqlab qolishga, voqea va xodisalarni aks ettiruvchi so‘zlar asosida ularning xotira va nutqini boyitishga yordam beradi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo‘lgan muhim omillardan biri uning o‘quvchilarga hissiy ta’siridir. O‘quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o‘quvchida fikr ko‘zg‘atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to‘g‘ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go‘zalligi ham alohida qayd qilib o‘tiladi. O‘qish darslari o‘quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o‘qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O‘quvchilar adabiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g‘oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar adabiy tushunchalarni o‘rganish natijasida badiiy adabiyot san’atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Boshlang‘ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari − sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a va adabiy janr turlari − ertak, hikoya, masal, she’r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda o‘z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o‘qish ko‘nikmasi o‘stiriladi, asar g‘oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o‘quvchilar nutqi rivojlantiriladi. Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkir syujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o‘qib bo‘lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur. Ertaklarda o‘xshatishlar, jonlantirish va mubolag‘alardan foydalanilgan. O‘quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o‘rgatish zarur. Asar o‘qib bo‘lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma’nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko‘chma ma’noli so‘zlardan ko‘p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlar asarni o‘qishdan oldin tushuntiriladi. Topishmoqlarda ham jonlantirish va o‘xshatishlar juda ko‘p. Masalan, “Ayoz bobo novvot sotdi, Olgan edim, qo‘lim qotdi” topishmog‘ida o‘xshatish, “Chiq-chiq” ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi» topishmog‘ida jonlantirish qo‘llangan.

O‘quvchi har qanday badiiy asarning mohiyatini tushunibgina qolmasdan ushbu jarayondan unumli tarzda foydalangan holda, tatbiq tishni ham o‘rganishi

lozim. Ya’ni badiiy asarni o‘qish davomida olgan zavq-shavq va hissiyotlarini boshqa jabhalarda ham qo‘llay olishni bilishi kerak. Ya’ni o‘quvchilarda dizayn fikrlash ko‘nikmasini shakllantira borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: 2009
2. Safarova R. Ona tili o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: 2016
5. Motivatsiya (quvvat bilan maqsadlarga erishish istagi).

Golemanning ta'kidlashicha, yuqori hissiy intellekt boshqa muhim yetakchilik xususiyatlarini osonlashtiradi. Masalan, boshqa odam nimani his qilayotganini aniqlik bilan tushunish qobiliyati (hamdardlik) bu tuyg‘uni va undan kelib chiqadigan har qanday xatti-harakatlarni boshqarishga imkon beradi. Shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlar yetakchilik uchun muhim, ammo hissiy intellekt - yosh, tajriba va o‘z-o‘zini aks ettirish bilan o‘sib boradi. Yangi va intiluvchan rahbarlarga tajribali kishilar maslahat beradi; birgalikda, o‘tmish va kelajak jarayonlarini, turli javoblarini va hissiy nuqtalarini muhokama qilishadi. Shu tartibda hissiy yetuklikni oshirishga intiladi. 1999-yilgi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xizmat ko‘rsatadigan ko‘p tarmoqli kompaniyaning hissiy intellect bo‘yicha yuqori ball olgan hamkorlari boshqa hamkorlarga qaraganda 1,2 million dollar ko‘proq foyda keltirgan. Boshqa tadqiqotlar hissiy intellekt va samaradorlik o‘rtasidagi o‘xshash bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Aftidan, hissiy muvozanat tijorat muvaffaqiyatining asosiy omilidir.

Miloddan avvalgi 400 yillar avval yashagan faylasuf Aflotun har qanday o‘rganish hissiy asosga egaligini ta’kidlagan.

1930-yillarda amerikalik psixolog Edvard Torndik “ijtimoiy intellekt” tushunchasini boshqa odamlar bilan til topishish qobiliyati ta’riflaydi.

1983-yilda AQSh psixologi Xovard Gardner odamlarning bir nechta aql-zakovatga ega ekanligini, jumladan, shaxslararo, musiqiy, fazoviy-vizual va lingvistik ekanligini ta'kidladi.

1990-yilda amerikalik psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer hissiy intellektning birinchi rasmiy nazariyasini nashr etdilar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 1995-yilda Daniel Goleman “Emotional Intelligence: Why It Can Matter Than IQ” nomli kitobini nashr etdi va u xalqaro eng ko‘p sotilgan kitobga aylandi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g‘azab, nafratimizni uyg‘otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg‘otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot - kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning "Bolalar psixologiyasi" o‘quv qo‘llanmasida

hissiyot deb - tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo‘lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg‘unov muallifligidagi lug‘atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G‘oziev muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot- odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob'ektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo‘llaniladi.

Bulardan anglashiladiki, hissiy intellekt har bir sohada o‘ziga xos o‘ringa ega. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda, bolaning bilim olishida hissiy intellect o‘z ta’siriga ega. Sababi o‘z hisiyotini boshqara bilgan bola ta’lim olishda ham qiynalmaydi. Bunday bola bilan o‘qituvchining ham munosabat o‘rnatishi oson bo‘ladi. Ular bir-birilarini juda oson tushunishadi. Nimani qaysi vaziyatda, qanday o‘rganish va o‘rgatish zarurligini bilishadi.

Shu sababli ham boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarning hissiy intellektini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Cosnier, J. (2007). The Psychology of Emotions and Feelings. Affections, Emotions, Feelings, Passions (Introducere in psihologia emotiilor si a sentimentelor. Afectele, emotiile, sentimentele, pasiunile). Bucharest: Polirom

2.Ekman, P. (2011). Emotions Revealed. Understanding faces and feelings (Emotiile date pe fata. Cum sa citim sentimentele de pe chipul uman). Bucharest: Trei

3.Goleman, D. (2001). Emotional Intelligence (Inteligenta emotionala). Bucharest: Curtea Veche

4.Jo‘rayeva S.N. O‘qituvchi imidji mas’uliyati bilan o‘zaro aloqadorlik uyg‘unligi // «Psixologiya». 2021. No2. B. 65-69.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING EMOTSIONAL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola emotsional kompetensiya va uning xususiyatlari haqida yoritilgan. Tarbiyachilar faoliyati davomida emotsional his-tuyg‘ularini boshqarishni bolalar bilan muloqotda esa ularning mimik harakatlarini tushunib olishlari va xoxishlarini qo‘llab quvvatlashlari, tarbiyachining emotsional kompetensiyalarini shakllantirish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Emotsional kompetensiya, hissiyot, innovatsion faoliyat, intellekt, neyron, ijtimoiy intellekt.

Emotsional kompetentsiya - bu o‘z his-tuyg‘ularini, shuningdek, boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish va qabul qilish, o‘zini o‘zi rag‘batlantirish, o‘z ichidagi va boshqalar bilan munosabatlarda his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyatidir. Inson o‘zining va boshqa atrofdagilarining his tuyg‘ularini qabul qilish va boshqarish

qobiliyati hissiy kompetensiya yoki hissiy intellekt (EQ) deb ataladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi ijtimoiy va tarbiyaviy innovatsiyalar jarayonida shakllangan ta’lim faoliyatining innovatsion salohiyatiga asoslanadi. Tadqiqotchilar A.V.Lorensov, M.M.Potashnik, A.I.Prigojin, O.G.Xomeriki ta’lim muassasalari faoliyatiga nisbatan “innovatsion faoliyat” tushunchasini ta’lim mazmunini va o‘quv jarayonining tashkiliy-texnologik asoslarini maqsadli o‘zgartirish sifatida qarash mumkin, deb hisoblaydilar, ta’lim xizmatlari sifatini, ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.[23] [1]

Bu terminni birinchi marta fanga 1920 yilda Edvard Li Torndik kiritgan va fanda “Ijtimoiy intellekt” tushunchasi paydo bo‘ldi. XX asrning oxirida amerikalik psixolog Daniel Goleman tomonidan ommalashtirdi va u “Hissiy intellekt” kitobini nashr etdi. Nima uchun bu IQ dan muhimroq bo‘lishi mumkin. “Goleman o‘z ishida mustahkam professional ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan ko‘ra, o‘z his-tuyg‘ularini tan olish va nazorat qilish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga ta’sir qilish qobiliyati muhimroq ekanligini ta’kidlaydi.[24]

Keyinchalik, psixologiya professori va London psixometrik laboratoriyasining asoschisi Konstantinos Petrides menejerlarning hissiy intellektini o‘rganishni davom ettirdi. U eng yaxshi menejerlar - bu ajoyib hissiy moslashuvchanlikka ega, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda etadigan va boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini o‘qiy oladigan, shuningdek, jamoada yaxshi kayfiyatni yaratishga qodir bo‘lgan odamlar ekanligini aniqladi.[25]

Hissiy ifodalar insoniy munosabatlarning juda muhim qismidir. Ayniqcha bolalar bilan o‘zaro muloqotda ularning hissiy ifodalarni to‘liq anglash bolalar bilan yaqin aloqa o‘rnatishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Emotsional hissiyotlar instinkt bilan bog‘liq – notanish insonni ko‘rganda u bilan suhbatlashganda inson yuzida tabassumning paydo bo‘lishi, yoqimli odam bilan uchrashganda qoshlarning beixtiyor ko‘tarilishi suhbatdosh tomonidan xayrixohlik sifatida o‘qiladi.

Ammo hissiy qobiliyat tug‘ma qobiliyat emas. Insonlar bolalik chog‘idan boshlab his-tuyg‘ularni tan olishni o‘rganadi va olimlarning fikriga ko‘ra, ko‘z neyronlari hamda nerv hujayralari bunga yordam beradi. Bu nerv hujayralari biz kino ko‘rganimizda uning qahramoniga hamdard bo‘lishimiz yoki kimdir limon iste’mol qilganda ko‘z yumishimizga sababdir.

Biroq, ushbu tizimning ishlashida bir muammo mavjud: oyna neyronlari faqat his-tuyg‘ularning taxminiy ifodalariga javob beradiva aks ettiradi. Shunday qilib, agar biror kishi issiq choynakni ushlab, keyin qo‘lini kuch bilan tortib, yuzini burishtirib, barmog‘iga puflay boshlasa, bizning miyamiz uning og‘riqni boshdan kechirayotganini tan oladi. Ammo agar u kulishni boshlasa, unda bizning ko‘zgu

---

[23] Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании.: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с

[24] https://www.psychologies.ru/articles/emocionalnaya-kompetentnost-kak-ponyat-i-prinyat-emocii-okruzhayushikh/

[25] https://www.psychologies.ru/articles/emocionalnaya-kompetentnost-kak-ponyat-i-prinyat-emocii-okruzhayushikh/

neyronlarimiz faol bo‘lmaydi: harakat va his-tuyg‘u o‘rtasidagi bu munosabatlar biz uchun aniq emas.

Pedagogning ijtimoiy kompetensiyasi pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, zamonaviy sharoitda yangicha mazmun kasb etmoqda. Shu bois pedagogning, shu jumladan bo‘lajak tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish, milliy qadriyatlarga, milliy-madaniy an’analarga da’vat etish, o‘z-o‘zi va ijtimoiy voqelik bilan mutanosib munosabatlar o‘rnatishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda [4].

Tuyg‘ularning nomlarini o‘rganishning o‘zi etarli emas, ularni o‘zingizda kuzatib borish muhimdir. Buni odat qilish uchun siz kun davomida bir nechta signallarni o‘rnatishingiz va hissiy holatingizni tekshirishingiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining hissiy emotsional kompetensiyalarini shakllantirish uchun quidagi qoidalarga amal qilishlari lozim:

- Hissiy lug‘atingizni kengaytiring;
- Insonlar bilan muloqotni yo‘lga qo‘ying;
- Tuyg‘ularni tan olishni va boshqarishni o‘rganing;
- Sizga yoqmagan biror ish yoki insonga nisbatan yoq deb javob qaytarishni o‘rganish;
- Men hozir qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechiryapman degan savollarni o‘ziga tez tez berish va tahlil qilishni o‘rganish;
- Siqilish, tanglik, tanadagi o‘zgarishlarning oldini olish choralarini izlash;
- Ichingizdagi nozrozilik va qarshilik belgilarining tashqi qiyofangizda aks etishiga imkon bering;
- O‘zingizga baxtli yashash imkonini bering.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании.: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с
2. https://www.psychologies.ru/articles/emocionalnaya-kompetentnost-kak-ponyat-i-prinyat-emocii-okruzhayushikh/
3. https://www.psychologies.ru/articles/emocionalnaya-kompetentnost-kak-ponyat-i-prinyat-emocii-okruzhayushikh/
4. N.Djamilova - Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T.,2019 y. – 13-14.

OILADA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA FARZANDLARNI TARBIYALASH

M.A.Yakubova

JDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti

Begimova Muxlisa

JDPU maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada xalq ogʻzaki ijodi namunalari vositasida farzandlarni tarbiyalash jarayonida qoʻllaniladigan uslublar, xalq tarixi, ma'naviy-axloqiy qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Xalq ogʻzaki ijodi, xalq tarixi, ma'naviy-axloqiy qarashlar, oʻzbek xalqi mentaliteti, ruhiy-ma'naviy dunyo, axloqiy-estetik dunyoqarash.

Xalq ijodi xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyatidir. Yaratilishi va ijodiy jarayonida koʻpchilikning ishtiroki boʻlgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga oʻtib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat kasbiylik xususiyatiga ega boʻlgan, jonli ijro shaklida va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Inson nutqi shakllanishi bilan xalq ogʻzaki badiiy ijodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining ogʻzakiligi va unda koʻpchilikning ishtirok etishi xalq badiiy ijodining asosiy xususiyatidir. Folklor namunalari ogʻzaki yaratilib, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida ogʻizdan-ogʻizga tarqalar hamda ommaviy repertuardan keng oʻrin olar ekan, bunda badiiy shakllarning barqarorligi, matndan-matnga oʻtuvchi umumiy oʻrinlarning qat'iylashganligi, oʻxshash sayyor syujetlarning koʻpligi imkoniyatini yaratadi. Xalq ogʻzaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turli-tuman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bogʻliq. Ist'edodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga ogʻzaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba'zan yangilarini ham yarata oladilar. Biroq bunda barqarorlashgan va qat'iylashgan jamoaviylik an'analari yetakchilik qiladi.

Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qoʻshiq, askiya, ogʻzaki drama va boshqalar xalq ogʻzaki badiiy ijodining asosiy janrlari boʻlib, ular soʻz san'ati namunalari boʻlish bilan birga muayyan ijtimoiy-maishiy, ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradilar.

Folklor janrlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bogʻliq. Xalq hayotidagi ijtimoiy oʻzgarishlarga koʻra, ular ham oʻzgara borgan. Janrlarning bosqichli taraqqiyoti tarixiy-tipologik nuqtai nazardan qaraganda, eng qadimiy davrlardanoq turli xalqlarda miflar, urugʻ va qabilalar haqida afsona va rivoyatlar, topishmoq va maqollar, olqish va qargʻishlar, mavsum-marosim folklori namunalari, mehnat qoʻshiqlari sifatida keng tarqalgan. Keyingi davrlarda esa, ertaklar, eposning arxaik shakllari yuzaga kelgan. Patriarxal-urugʻchilik munosabatlarining yemirilishi va davlatchilikning shakllanishi davrida qahramonlik dostonlari yaratilgan. Keyinchalik romantik epos, lirik va tarixiy qoʻshiqlar, ogʻzaki drama, latifa va loflar paydo boʻlgan.

Xalq ogʻzaki badiiy ijodi milliy madaniyat va ma'rifatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy, ta'lim-tarbiyaviy qiymatga ega. U xalqning tarixi, urf-odatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, orzu-umidlari haqida keng ma'lumot berib, yoshlarni ezgulikka undaydi. Xalq ogʻzaki badiiy ijodida xalq badiy didi voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan. Estetik sezgilar rivojida,

go‘zallik, badiiy so‘z qadri-qimmati, ona tili boyliklarini o‘zlashtirishda uning ahamiyati beqiyosdir.

Tarixchilar tarixiy voqealar xalq og‘zaki ijodida qanday aks etganligi, etnograflar muayyan milliy-ma’naviy qadriyatlarning tarkib topishiga xos ayrim jihatlar, san’atshunoslar folklordagi musiqa, raqs, o‘yin kabilarning xususiyatlari, tilshunoslar uning lahja, shevalari, til boyliklari, adabiyotchilar xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyot bilan munosabatini tadqiq etganlar.

Pedagogika fani xalq og‘zaki ijodining ta’lim-tarbiya sohasidagi ahamiyatini o‘rganib, xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashni, Vataniga sodiq, fidoyi inson bo‘lib shakllanishini ko‘zlaydi.

Bolalar kichik yoshdan boshlab xalq og‘zaki ijodi namunalari, ayniqsa, «Yoriltosh», «Ur to‘qmoq», «Dehqon bobo», «Qizil gul» va boshqa ertaklarni sevib tinglaydilar va mutolaa qiladilar. 3-5 yoshli bolalar ertak, sanama kabilarni qiziqib tinglaydilar, 5–6(7) yoshli bolalar esa tez aytishlarini alohida e’tibor bilan o‘rganadilar.

Shu jihatdan olganda, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida oilada bolalarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda, ayniqsa, buvi va bobolarning o‘rni muhimdir.

Xalq og‘zaki ijodi vositalari orqali atrof-muhit, xalq tarixi, ma’naviy-axloqiy qarashlari, umuman o‘zbek xalqi mentaliteti haqidagi tasavvur va bilimlari shakllanadi, ular bolalarning ruhiy-ma’naviy dunyosi, fikrlari, qarashlari, axloqiy-estetik dunyoqarashining shakllanishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari - ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, topishmoqlar, laparlar, sanamalar, qo‘shiqlar, termalar, dostonlar, loflar, askiyalar kabilarda xalq turmushining tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy-ma’naviy qirralari, an’ana, urf-odatlari teran aks etadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ifodalangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar o‘quvchida milliy o‘zlikni aglash, o‘z xalqining tarixi, qahramonlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini tarkib toptiradi.

Mutaxassislar tomonidan qayd etilishicha, xalq og‘zaki ijodi mazmuni, tuzilishi, maishiy-hayotiy, ta’lim-tarbiyaviy vazifalari, ijro xarakteriga ko‘ra:

1) epik tur –ertak, og‘zaki hikoya, latifa, tarixiy qo‘shiq, rivoyat, afsona, doston va boshqalar;

2) lirik tur – xalq qo‘shiqlarining barcha janrlari;

3) dramatik tur – og‘zaki dramalar, askiya, lapar, aytishuv, masxarabozlik, qiziqchilik va boshqalar;

4) maxsus tur – xalq donoligi ifodasi bo‘lmish xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va topishmoqlar kabilarga ajratiladi.

Oila tarbiyasida kitobxonlik, ma’naviy suhbat, xalq og‘zaki ijodiga oid ertak, qo‘shiq, afsona kabilardan foydalanish ota-onalar, bobo-buvilar tomonidan farzandlarni axloqiy-estetik tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun kattalar ota-ona, buvi yoki buva tomonidan aytib berilgan

ertaklar ularning hissiyoti, dunyoqarashi, borliqni badiiy-estetik idrok etishiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy manbadir.

Oilada bir yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ona «Alla»sining tarbiyaviy ahamiyati muhimdir.

X asr Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur mutafakkiri va xalq tabobatining buyuk namoyondasi Abu Ali ibn Sino ona «alla»sining tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr bildirib, bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qullamoq kerak, chunonchi: biri - bolani asta-sekin tebratish; ikkinchisi-uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa – ona allasi zarurdir, deydi.

Ona allasida volidaning o‘z farzandiga beqiyos muhabbati ifodalanadi. Uning so‘zlari ham o‘ta samimiy, sokin va betakrordir. Unda onaning ruhiy kechinmalari, farzandi kelajagidan umidvorligi, bolasiga baxt va iqbol tilashi aks etadi:

Xo‘sh arslon bilaklim,
Botir, qoplon yuraklim.
Yaxshi-yomon kunimda
Menga juda keraklim.
Alla, bolam, alla-ey,
Jonim bolam, alla-ey.

Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri ertaklar bolaning ilk yoshidanoq uni quvonchli tuyg‘ularga oshno qiladi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislarga «sayohat qiladi». U yerdagi hayot bilan tanishadi. Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o‘stiradi. Ertakning ravon, obrazli til uslubi bola nutqini rivojlantiradi. Yorqin, hayotiy obrazlar uning hissiyotlariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. U aqlli, oqko‘ngil, ijobiy qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo‘liqqanida qayg‘uradi, g‘alaba qilishganida, yovuz va xasis kishilarni jazolaganlarda xursand bo‘lishadi. Ertakning ishonchli axloqiy g‘oyalari bolani fikrlashga, o‘z xatti-harakatini sevimli ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan qiyoslashga undaydi, qahramonlar timsolida bolalar qo‘rqmas va rostgo‘y bo‘lishga o‘rganadilar. O‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yish, unga erishish uchun harakat qilish, turli to‘siqlarni yengib o‘tish, do‘stlariga yordam berish, o‘rtoqlariga sadoqatli bo‘lish kabi sifatlarni bosqichma-bosqich egallab borishadi. Bola 2-3 yoshidanoq ertaklarni qiziqish bilan tinglaydi. Ertak bolaning yoshiga mos bo‘lishi zarur. Ertakni sekin-asta, shoshmasdan, ifodali o‘qish, obrazlar qiyofasini bola ko‘z oldida gavdalantirish zarur. Farzand bilan birgalikda ota-onalar ham ertakka mos chizilgan syujetli rasmlarni tamosha qilishlari, ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga unchalik murakkab bo‘lmagan savollar berish, uni ertak yoki rasmni qayta so‘zlab berishga undash amaliy pedagogik jihatdan juda foydalidir. Bu bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantirib, o‘qilgan narsaga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bolaning hayotiy tajribasi bu davrda xali juda oz bo‘ladi. Ertak va real olam uning nazarida mutlaqo farq qiladi. Bola «chindan ham jodugar kampir, dev, uchar gilam bo‘lganmi?» kabi savollarni beradi. Bunday paytda ota-ona hushyorlik bilan ertaklar bilan moddiy borliq orasida aloqadorlikni hamda farqlarni tushuntirib borishi lozim. Aks holda uning faraz qilish qobiliyatiga putur yetadi. Ertaklarga ishonchsizlik bilan

qaray boshlaydi. Natijada ularga bo‘lgan qiziqishi so‘nib boradi. Masalan, uchar gilamlar o‘rniga fan-texnika, davr taraqqiyoti natijasida samolyotlar, oynai jahon o‘rniga televizor ixtiro qilinganligini ehtiyotkorlik bilan tushuntirish lozim. Bola ulg‘aygan sari ertak va real olam o‘rtasidagi aloqadorlikni yaxshi anglab boradi hamda ulardagi axloqiy-estetik qarashlarni chuqurroq o‘zlashtirib oladi.

Ertak kichik yoshli bolalarga tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. A.Navoiy va Oybek kabi buyuk shaxslarning shakllanishida oilada onalar, buvilar tomonidan aytib berilgan ertaklar muhim ahamiyat kasb etgan. Ertak – xalq poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta’minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta’limiy-estetik vazifani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea-hodisalarni hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig‘ida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra, ertaklarni 2 guruhga – xayoliy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklar, hayotiy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklarga bo‘linadi. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertaklar syujeti mo‘jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertaklar syujeti esa hayotiy tarzda bo‘lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertaklar janri obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, tili va uslubiga ko‘ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo‘linadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. «Susanbul», «Bo‘ri bilan tulki», «Tulkining taqsimoti», «Ikki boyqush» kabi majoziy ertaklarda syujet asosida ko‘chma ma’no, allegorik obrazlar yotadi. Ota-onalar shu obrazlar asosidagi falsafiy fikrlarni sharxlab berishlari lozim. Masalan, laqmalik va qonxo‘rlik bo‘ri orqali, ayyorlik va tilyog‘lamalik tulki orqali ifodalangan. Sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘ladi. Bularda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi. Masalan, «Yalmog‘iz», «Semurg‘», «Devbachcha», «Kenja botir» kabilar. «Quloqboy», «Qandalak polvon», «Uch yolg‘onda qirq yolg‘on» va boshqa ertaklar komik, ba’zilari hatto hajviy xarakterga ega. Maishiy ertaklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi. Uch-og‘a ini botirlar», «Oygul bilan Baxtiyor», «Zolim podsho» kabilar. Masalan, «Uch og‘a-ini botirlar» ertagi odatdagidek, ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs, boshqa variantlarida esa shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida mol-mulk to‘plash yo‘lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan. Masalan, quyidagi ertak bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Bola kitoblarni mustaqil mutolaa qila boshlagach, uning shaxsiy kutubxonasida turli xalqlarning ertaklari, jahon adabiyoti oltin fondiga kirgan xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lishiga oila a’zolari alohida e’tibor qaratishi lozim. Masalan, rus, hind, arab xalq ertaklari va hokazo. Ertaklarning o‘ziga xos jihati ularning aksariyat qismi hajm jihatdan qisqa bo‘lib, ma’naviy – axloqiy yo‘nalishdagi suhbatga badiiylik bag‘ishlashi, bolalarning ichki olami, hissiyotiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Masalan, yozuvchi Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asarida bobo aytib bergan Shohdor ona bug‘i haqidagi ertakning qahramoni bolakayga ko‘rsatgan ta’siri salmoqlidir. Ushbu ertak uni yovuzlik va ezgulikni farqlash, ular o‘rtasidagi tafovutni anglash, insoniyat va jonzotlarga qiron keltiradigan qabihlikdan jirkanishga o‘rgatadi. Ushbu hissiyot uni shu qadar o‘ziga maftun etgan ediki, bolakay ezgulik yo‘lidagi har qanday chekinish va xiyonat, hatto bobosi o‘z qizining kelajagini o‘ylab noilojlikdan qilgan «yaltoqligi»ni, «muqaddas ona bug‘u» go‘shtini chaynab huzur-halovat topayotgan qarindoshlarining «badkirdorligi»ni singdira olmadi, bola o‘z hayolida yaratgan orzular mamlakatiga suzib ketdi. Suvning sovuqligi, qiyinchiliklar uni muqaddas orzularidan voz kechishga majbur eta olmadi. Kattalar nazdida o‘limni ixtiyor qilgandek ko‘ringan bola aslida o‘zi duch kelgan razolat va pastkashliklardan bezib, orzusidagi go‘zallikka oshifta bo‘lgan edi. Bolaning ruhiy dunyosiga bobosi so‘zlab bergan Xizr buva haqidagi rivoyatlar ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Axir nihoyatda dono va ulug‘vor bo‘lgan bu afsonaviy inson xalq orasida o‘zini bildirmay yuradi. O‘zining bilmagan har bir insondan Hazrati Hizrning qiyofasini axtar. U bilan qo‘l berishib, ochiq chehra bilan so‘rashgin, chunki Hazrati Hizrning qo‘lini ushlagan har bir inson kelajakda baxtli bo‘ladi, deb uqtirgan rivoyat bolaga ma’naviy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bolaga bobosining katta-kichikka birdek xushmuomalada bo‘lishi, el xizmatida yugurib-elishi yoqadi. U boshqalar o‘ylagandek, bularni bobosining yoshiga nomunosib xatti-harakat sifatida baholamaydi.

Ertak, rivoyat, hikoyatlar kabilarning bola dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatishining asosiy sabablaridan biri unda real voqelikning bola yoshi va dunyoqarashiga mos tarzda afsonaviy, tushunarli talqin qilinishidir. Bola ruhiy olamiga yaqin kuchli va adolatli insonlar, yoqimtoy jonivorlar xalq og‘zaki ijodi qahramonlari sifatida namoyon bo‘ladi. «Har bir xalqning ertaklarida mazkur xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, sinfiy munosabatlari, turmushi ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi» J.Razzoqovning. «Uch og‘ayni botirlar», «Ziyod botir», «Zumrad va Qimmat» kabi o‘zbek xalq ertaklari bolalarda, mehnatsevarlik, olijanoblik hislatlarini shakllantiradi va mardlik, dovyuraklikka o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli Qarori.

3.Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. T; 2010. B. 707.

BOLALARNI XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA TARBIYALASHNING MAZMUNI

M.Usmanova, *JDPU dotsenti*

Sh.Mamadaminova,

maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni xalq og‘zaki ijodi vositasida tarbiyalashning mazmuni, jumladan Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati haqida fikrlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi**,** maqol, rivoyat, urf-odat, axloqiy-estetik tarbiya, til va nutq madaniyati.

Farzandning dunyoga kelishini barcha zo‘r quvonch bilan qarshi oladi. Bu jarayonda turli xil urf-odatlarga rioya qilinadi. Masalan, tuzli suvda cho‘miltirish, yog‘lash, tanasini chiniqtirish va hokazo. Shuningdek, inson hayoti davomida bolaligidan boshlab hayyuv (o‘zbek tilida ona allasi), tulkichak (bolalar qo‘shig‘i), naql-maqollar, yoramazon, hao‘jar (yor-yor), bet ochar (kelin-salom) qo‘shiqlari, hamda insonni so‘nggi yo‘lga kuzatuvchi yo‘qlovlar aytilib kelingan.

Jumladan, **«Beshik jiri»** deb ataladigan «hayyuv, bolam» turkumidagi qo‘shiqlar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va mukammal janrlaridan biridir.

Bola tarbiyasida muhim o‘rin egallagan «Beshik jiri» yoki «hayyuv-hayyuv» qo‘shig‘i qadimdan ijro qilib kelingan. Onalar tomonidan g‘oyat go‘zal tuyg‘u ila kuylanadigan «beshik jiri» o‘zida yaxshi niyat, farzand kelajagiga orzu-umid, pand-nasihatlarini mujassamlashtirgan xalq durdonasi hisoblanadi. Chunki “ona qo‘shig‘i (hayyuvi)” farzandga ona suti bilan kiradi, degan ibora bejiz aytilmagan.

Tafakkur mahsuli sifatida yaratilgan bu ibratli so‘zlar xalqimizning barcha ma’naviy va madaniy merosini abadiyatga dahldor qilgan. Bunday namunalarni xalq orasidan yetishib chiqqan yuksak fazilatli insonlar yaratgan. Milliy meroslarimizda ona qo‘shiqlari, bolalar o‘yinlari va boshqalar o‘z ifodasini topgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan bo‘lmish kuy, qo‘shiqlar bolaning go‘zal hayotga intilishiga madad bo‘ladi.

Bola dunyoga kelgandan so‘ng unga atab aytiladigan milliy poeziya bilan musiqa ona suti bilan bola ulg‘aygan sari qon tomirlariga singib boradi va ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan,

Aynalanayin oppog‘im
Qo‘zi junli kolpog‘im
Qo‘zim mening gul bulgay
Iykkanim tuy bulgay

Shu tarzda bitilgan muayyan qo‘shiq ko‘ngilga yoqimli kuy bilan uyg‘unlashib, hatto injiq tabiat bolalarni yupatadi va shirin uyquga chorlaydi. Onaning o‘z farzandiga bebaho tuhfasi sanalmish bu bitiklar norasidaning vujudiga singib, uning hali yaxshi rivojlanmagan ongini odob-axloq tuyg‘ulari bilan boyitib boradi va hayotining so‘nggi damlarigacha hamrohiga aylanadi. Ona va bola munosabatlarida boshlangan bu lirik satrlar bola ulg‘aygan sari takomillashib boradi. Onaning beshik tebratib aytgan qo‘shig‘i «hayyuv» deb boshlansa, bolani beshikka belash, beshikdan yechib olish, yog‘lash, kiyintirish, toy-toy (achom-achom) yuritmoq, tushovini kesish va shular kabi rasm-rusumlar, shuningdek ertaklar, pand-nasihat so‘zlar kichkintoylar uchun og‘zaki adabiyotning ilk namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodining ixcham shakliga, ammo chuqur mazmuniga ega bu qo‘shiqlar mehr-oqibat, yuksak xulq-atvor, go‘zal odamiylik fazilatlarni shakllantirishda o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Beshik tebratgan ona har qancha ta’riflansa ham oz. Shu asnoda mu’tabar zot, ulug‘ tabib Ibn Sinoning ona haqidagi fikrini eslab o‘tish joizdir. Alla aytib o‘tirgan ona g‘azabnok va yoqimsiz hissiyotlardan holi bo‘lib, butun borlig‘i bilan bolasining kelajagi uchun kuylaydi. Ona misoli shoira, yaxshilik nuri, kungil ochar chashma buloq kabi farzandiga eng ezgu niyatlarini tilaydi. Chunki onalar kechagi aytgan qo‘shig‘ini bugun, bugungi qo‘shig‘ini esa qayta takrorlamagan, chunki «hayyuv» onaning go‘zal qalb istaklaridir. Shuning uchun ham onalar «hayyuv»i(allasi) doim yangilanib rivojlanib boruvchi ijodiy asar turi hisoblanadi.

Onalar qo‘shig‘i navo va so‘z durdonalari bilan kuylanadi. Shu jihatdan qaraganda, onalarning «hayyuv»i–baxshilarning dostonlariga o‘xshab ketadi. Bu qo‘shiqlar bolani yupatish, ko‘nglini ko‘tarish, uxlatish uchun har xil mavzudagi orombaxsh navolar hisoblanadi.

«Beshik jiri» dan keyingi dasturlardan biri-bolaning tushovini kesish udumi hisoblanadi. Ko‘pchilik turkiy xalqlarga mansub bu udumda bolaning ona bag‘ridan chiqib, o‘zi bemalol tengdoshlariga aralashib yugurib ketishi yaxshi tilak-istaklar ila bayon qilingan

Ota-onalar, ertak, rivoyat, hikoyatlarni bolalariga so‘zlab berishganlarida ularda tinglay olish ko‘nikmasini shakllantirishlari zarur. Buning uchun ular voqea-hodisalarni obrazli, ta’sirchan qilib bolaga yetkazish layoqatiga ega bo‘lishlari lozim. Bolaga yoshlikdan boshlab kichik hajmda turli tovushlar, qo‘shiqlarga boy ertaklarni so‘zlab berish kerak. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagi bilan tanishish jarayonida bolalar bolta ovoziga taqlid qilib «taq-taq», shamol ovoziga taqlidan «gu-u-u-v-gu-u-u-v», eshik ovoziga taqlidan «g‘iyq-g‘iyq», xo‘roz ovoziga taqlidan «qu-qa-re-qu» kabi ovozlarni qiziqib tinglaydilar. Chol boboning ovozi yo‘g‘on bo‘lishi, Zumradning so‘zlashidan uning odobi va muloyimligi, o‘gay opa yoki uning erkatoy qizi gapirganida esa qo‘pollik va tantiqlikning sezilishi bolalarda qiziqish uyg‘otish bilan birga, ularni yaxshi va yomonni farqlash, ijobiy odatlarga taqlid qilishga o‘rgatadi.

Oila tarbiyasida kitobiy dostonlardan ham unumli foydalanish mumkin. Kitobiy dostonlar yozma adabiyot ta’sirida yaratilgan xalq og‘zaki poetik asarlari turlaridan

biridir. Kitobiy dostonda o‘ziga asos bo‘lgan manbaga ko‘ra, romantik yoki qahramonlik dostonlariga xos xususiyat saqlangan bo‘lishi mumkin. Unda dostonlarga xos bo‘lgan jangovorlik xususiyati kamroq bo‘lsada, oila va jamiyat ziddiyatlari bilan kelisha olmagan muhabbat mavzui asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom» dostonlarining xalq variantlari Navoiy asarlari asosida «Vomiq va Uzro» yunon romanlari mavzui asosida yuzaga kelgan. Ba’zi kitobiy dostonlarda aniq bir adabiy manba, balki muayyan kitobiy syujetlar ta’sirida yaratilgan «Sanobar», «Zevarxon», «G‘arib Oshiq», «Malikai Dilorom», «Tohir va Zuhra» kabi dostonlarda xalq og‘zaki hamda yozma adabiyotdagi turli shakllar, an’analar o‘zaro qorishib ketgan. Baxshilar, xalq dostonchiligi ijrosidagi kitobiy dostonlarda xalqning ishq-muhabbat, sadoqat, ezgulik va boshqa ma’naviy-axloqiy fazilatlar haqidagi ilg‘or qarashlari, orzulari aks etgan bo‘lib, oida tarbiyasida ulardan samarali foydalanish lozim. Bolalar uchun tashkil etilgan oila kutubxonasida xalq dostonlariga alohida o‘rin ajratish talab etiladi.

Oilada bolalarga nafosat tarbiyasi berishda ularda ruhiy ko‘tarinkilikni hosil qilishda xalq og‘zaki ijodidan musiqiy folьklor asarlari ham alohida ahamiyatga ega. Shunday asarlardan biri laparlardir. Laparlar voqeabandligi va kuy tuzilishi jihatidan uncha murakkab bo‘lmagan, tor diapazonli, naqoratsiz, cholg‘u jo‘rligisiz aytiladigan qo‘shiqlarga yaqin. Bunday qo‘shiqlarni oilada asosan onalar, buvilar bolalarga kuylab berishlari kerak. Laparlarning ikki turi mavjud: to‘y marosimi, xalq sayili, hashar kabi yig‘inlarda yigit va qizlar tomonidan tarafma-taraf bo‘lib dialog shaklida ijro etiladigan lapar. Bunda davradagi qizlar navbatma-navbat xohlaganiga «lapar soladi», bunga yigit javob qaytarishi kerak. Mos javob qaytarilsa, dastro‘mol, belbog‘ kabi sovg‘alar beriladi. Laparni maxsus laparchi ayollar boshqarib boradi. Marosim laparlarining kuylari, ko‘pincha, epik tusda, nutqdosh yoki kuychan ohanglarda bo‘ladi. Bularda, asosan, yigit va qizning muhabbat kechinmalari, orzu-umidlari aks etadi, shunigdek, yengil hajv va yumor ham qo‘shilib ketadi.

Oilada bolalarga axloqiy-estetik tarbiya berishida matallar ham samarali vosita hisoblanadi. U muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z kabi badiiy vositalardan foydalaniladiki, bu bolaning nutqini rivojlantiradi va uning jozibador bo‘lishini ta’minlaydi.

Majoziy iboraning o‘z asl ma’nosi bilan ko‘chma ma’nosi o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim. Matal bir yoki bir nechta jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. Masalan, «shamol bo‘lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas», «qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» va boshqalar.

Tarix – asrlar guvohi bo‘lganidek, xalq milliy ruhining aksi hisoblanmish maqollar ota-bobolarimiz so‘zi sifatida avloddan-avlodga yetib kelgan xalq og‘zaki ijodini boyitib turuvchi durdonalardir.

“Otalar so‘zi-aqlning ko‘zi” hisoblangan maqollarning kundalik hayotda, odamlarning bir-biri bilan bo‘lgan muomalasida ishlatilishi, kishining zehni o‘tkir, farosatliligidan dalolat beradi.

Xalq maqollari yosh avlodning ma’naviyatini o‘stirishda, nutq madaniyatining yuksalishida va barkamollashuvida milliy manbadir.

Kelajagimiz davomchilari – o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat, ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otish, ota-bobolarimiz merosi – milliy qadriyatlar, milliy an’analar, g‘urur-iftixorni tarbiyalashda xalq maqollari alohida o‘ringa ega.

Maqollar xalqning tarixiy tajribasida muhim tarbiya vositasi sifatida e’tirof etilgan. Ulardan kundalik hayotda tez-tez foydalanilib turiladi. Ayniqsa, oilaning katta a’zolari bolalarni yaxshilik, ezgulik, qanoat, ozodalik, mehnatsevarlik kabilarga undaydilar. Masalan,

«Tilga e’tibor – elga e’tibor», «Gapni oz so‘zla, Ishni ko‘p ko‘zla», «Boshinga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir» va xokazo. Maqol qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap bo‘lib, u bolani mustaqil fikrlashga undaydi. Lo‘nda va aniq fikr bayon qilishga o‘rgatadi. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli Qarori.

5. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. T; 2010. B. 707.

O‘YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HISSIY HOLATIGA TA'SIRI

Maripova Nodira Xamidovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Shoraxmetova Dilshoda Qutbitdin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

Orifxo‘jayeva Mohiraxon Bahromxo‘ja qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘yinlarning maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning hissiy holatiga ta’siri haqida so‘z boradi.

Tayanch iboralar: his-tuyg‘u, tarbiya, o‘yinlar, faoliyat, , didaktika, psixo-emotsional rivojlanish,

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ta’lim-tarbiyasida yetakchi faoliyat turiga o‘yin kiradi. O‘yin turlari xilma-xildir, bularga didaktik o‘yinlar, erkin o‘yinlar, sport o‘yinlari, estafeta o‘yinlari va hokazolar kiradi.O‘yinlar orqali biz

maktabgacha ta’lim yoshdagi bolajonlarimizga ta’lim va tarbiyani amallga oshiramiz. Demak, ta’lim-tarbiyani jarayonida biz o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga o‘yinlarning kata ta’siri borligini e’tirof etishimiz mumkin.

O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat bolaning shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash uchun, balki uning ruhiy holatini oldini olish va tuzatish uchun ham ishlatilishi mumkin.

Rus pedagogi Pletneyeva Elena Borisovnaning o‘z maqolalarida his-tuyg‘u va o‘yin haqida shunday fikrlarni bildirib o‘tgan : "O'yin-bu despotizm va kattalarning bosimidan xalos bo'lgan hayoliy dunyo, ko'chirilgan istaklarni kashf etish dunyosi, amalga oshirib bo'lmaydigan narsalarni amalga oshirish dunyosi" , A. S. Spivakovskaya.

Chin dildan quvonish, odamlarning his — tuyg'ulari va hissiy holatlarini tushunish, o'z xohish-istaklarini aniq ifoda etish va odamlar bilan muloqot qilish, san'at va hayot namoyonlarini qabul qilish qobiliyati-bularning barchasi bolaning hissiy jihatdan qanday shakllanishiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy sohasi qanday rivojlanganligi kichik odamning dunyoni anglashiga va u bilan muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlarga ta'sir qiladi.

Tuyg'ular-bu insonning psixologik holatining o'ziga xos turi, ular kayfiyat va his-tuyg'ular shaklida namoyon bo'ladi. (quvonch, qayg'u, qo'rquv va boshqalar).

Hissiy ta'sir orqali tarbiyalash juda nozik jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yini turli xil his-tuyg'ular, hayrat, hayajon, quvonch va zavq bilan to'la. Bu o'yin faoliyatidan nafaqat bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va tarbiyalash, balki uning ruhiy holatini oldini olish va tuzatish uchun ham foydalanish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasini rivojlantirish xususiyatlari:

- ular hali o'zlarining his-tuyg'ularini, tajribalarini boshqara olmaydilar (0 dan 1 yilgacha)
- ular hissiyotlarning namoyon bo'lishining ijtimoiy shakllarini o'zlashtiradilar (1 yoshdan 3 yoshgacha)
- ularning his-tuyg‘ulari ko‘proq tafakkur va idrok bilan bo‘g‘liq bo‘ladi (3-4 yoshgacha);
- maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori tuyg'ular shakllana boshlaydi (5-6 yoshdan boshlab-estetik, axloqiy, intellektual).

Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi empatiyaning rivojlanishi, ya'ni hamdardlik va boshqa odamlarning tajribalari va his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatidir. Empatiyani rivojlantirgan bola har doim u yoki bu odamning ichki holatini his qila oladi va unga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiyani shakllantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qish, uning oson ijtimoiylashuvi, muammosiz muloqotining kaliti hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha quyidagi ikki yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishi kerak:

1. Tuyg'ularni ajrata olish va taqqoslash qobiliyatini shakllantirish: qiziqarli, zerikarli, qayg'uli, xotirjam, qo'rqinchli, qiziqarli va boshqalar;

2. Tuyg'ularni to'g'ri ifoda etish va boshqa insonlarning boshdan kechirgan his-tuyg'ularni to‘g‘ri ajarta olish qobiliyatini shakllantirish.

Bolalarga hissiy ta'sirni quyidagi vositalar yordamida amalga oshirish mumkin:

- syujetli rolli o‘yinlar orqali;
- psixogimnastik o‘yinlar;
- harakatli o‘yinlar;
- erkinlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar va vazifalar;
- tasavvurni rivojlantiruvchi o‘yinlar;
- o‘yin mashqlari;
- musiqa tinglash va uni muhokama qilish;
- ertaklar va hikoyalarni o'qish.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra shunday xulosa qilish mumkin: qanday bo‘lmasin o‘yin turlarining barchasi maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulaini rivojlanishida katta o‘rni bor. Shunday ekan, o‘yinlarni tanlashda albatta maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshini, xarakterli xususiyatlrini inobatga olish va muntazam ravishda ulardan foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Methodology for teaching the image of a portrait of preschool children
MN Khamidovna - Academic research in educational sciences, 2020
Cited by 1 Related articles All 2 versions
2. Возможности использования кластерного подхода в образовании дошкольников во взаимодействии семьи и махалли Н.Х.Марипова
Образование наука и инновационные идеи в мире Выпуск журнала №-38 Часть–1_ Февраль –2024
3. Maripova N.X. Innovatsion muhitda bo‘lajak tarbiyachilarni eksperimental faoliyatga tayyorlash. Ta’lim, fan va innovatsiya. 3-son, 2022-yil
4. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. М.: Издательство Смысл, 2004 – 512 с.
5. Додонов Б.И. Эмоции как ценность. М.: Политиздат, 1978 – 272 с.

O‘QUVCHI- YOSHLARDA MA’NAVIY- AXLOQIY QADRIYATLARNI TARBIYALASHDA “MANAS” EPOSINING AHAMIYATI

Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Gafforova Zulayho Umarjanovna
Qirg‘iziston Respublikasi, Jalal- Abad viloyati
46- sonli maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchi- yoshlarda ma’naviy- axloqiy qadtiyatlarni tarbiyalashda “Manas” eposidan foydalanish va uning ahamiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan

Kalit so‘zlar: “Manas” eposi, madaniy meros, qahramonlik, mardlik, do‘stlik, hamjihatlik, insoniy fazilatlar, ma’naviy- axloqiy qadriyatlar

Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida turkiy xalqlar o‘z tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Tarixdan ma’lumki o‘zbek, qirg‘iz millati vakillari bir- birlari bilan yaqin qo‘shnichilik, o‘zaro hamjihatlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishgan.

So‘nggi yillarda ikki qardosh xalqinig Davlat rahbarlari tomonidan o‘tkazilgan yuqori darajali uchrashuvlarda gumanitar hamkorlik masalalari muhokama qilinar ekan, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari an’analari, madaniyati va qadriyatlari mushtarakligi ta’kidlandi. O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi. Bizning tilimiz, dinimiz, tariximiz va merosimiz bir. Bu jihatlar madaniy-gumanitar aloqalar rivojida muhim omil bo‘lmoqda. O‘zbekistonda qirg‘iz tili va madaniyati, Qirg‘izistonda o‘zbek tili va madaniyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasida oltita markaz – Andijon, Jizzax, Sirdaryo, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida va ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi O‘zbekiston qirg‘iz milliy madaniy markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu markazlarda milliy madaniyat, an’analar, urf-odatlar va tilni rivojlantirish maqsadida xalq og‘zaki ijodiyoti hamda milliy va jahon madaniyatining gavhari bo‘lmish «Manas» dostoniga katta e’tibor qaratiladi. Markazda muntazam ravishda musobaqalar, O‘zbekiston va Qirg‘izistonning taniqli fan va san’at arboblari bilan uchrashuvlar, kitoblar taqdimotlari o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 2-apreldagi Qaroriga asosan, 2018-yilda O‘zbekistonda buyuk yozuvchi va jamoat arbobi Chingiz Aytmatovning 90 yilligi keng nishonlandi. Toshkentdagi markaziy ko‘chalarning biriga yozuvchining nomi berildi va barelyef o‘rnatildi, Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 33-umumiy o‘rta ta’lim maktabida Chingiz Aytmatovga byust o‘rnatildi. O‘zbekistonda Chingiz Aytmatov faoliyati haqida ko‘plab kitoblar nashr etilgan va bir qator hujjatli filmlar suratga olingan.[1]

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’lim qirg‘iz tilida olib boriladigan 56 ta maktab faoliyat ko‘rsatadi va ular uchun qirg‘iz tilida darsliklar chop etiladi. O‘zbekistonda yashovchi qirg‘izlarning hayoti haqida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining qirg‘iz va boshqa tillarda efirga uzatiladigan «Aychurek», «Yagona oilada» teleko‘rsatuvlari va «Eleman», «Min kiyal» radiodasturlarida hikoya qilib boriladi.

Ommaviy xalq sayillari va bayramlarini o‘tkazishda milliy folklor ansambl markazlari qoshida tashkil etilgan – Andijondagi «Do‘stlik», Sirdaryodagi «Jan-Janay», Namangandagi «Suluvqiz» ansambllari tomonidan ijro qilinadigan qo‘shiqlar va raqslarga qiziqish katta. Markazda Navro‘z, Hayit kabi milliy va diniy bayramlar juda qiziqarli, rang-barang o‘tkaziladi. Markazning sa’y-harakatlari bilan qadimgi urf-odatlar: beshiktoy- chaqaloqni beshikka yotqizish, tushokesu- bolaning qo‘ygan birinchi qadamiga bag‘ishlangan va boshqa xalq marosimlari qayta tiklandi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston mustaqillik kunlari esa haqli ravishda o‘zbek-qirg‘iz do‘stligining yorqin namoyishi sifatida nishonlanadi.

Jumladan, o‘quvchi- yoshlarni ma’naviy- axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda, ularda mardlik, shijoat, mehnatsevarlik, Vatanni sevish, millatlararo

dos‘tlik, totuvlik tuyg‘ularini sigdirishda qirg‘iz xalqining buyuk “Manas” eposi katta ahamiyatga ega.

“Manas”- qirg‘iz xalqining uzoq o‘tmishini yorituvchi yorqin sahifa. Manasning nomi hamisha qirg‘izlar uchun tabarruk. Qadimdan Urxun, Oltoy, Enasoy, Olatog‘un makon tutgan, juda ko‘p qirg‘inbarotlarni boshidan kechirgan ota-bobolarimiz ulkan imoratlar, ko‘rkam shaharlar, mustahkam qal’alar qurishga imkon topolmadilar. Ular ona yurtni yovdan himoya qilib, ot yo‘lida gurung qilib ajoyib so‘zlar vositasida buyuk yodgorlik bunyod etdilar. Ulug‘ shoirlar, ajoyib dostonchilar avloddan-avlodga mahnaviy meros qilib bu yodgorliklarni XXI asrgacha olib keldilar.

Manas- tabarruk so‘zlar gavharidan iborat buyuk doston. Unda elning tarixi, quvonch va qayg‘usi, omonlik va yomonlik, g‘aroyib taqdirlar o‘z ifodasini topgan.

Bu ulkan doston o‘zbek tiliga atoqli shoir Mirtemir, Sulton Akbariy va Tursunboy Adashboyev kabi shoirlar tomonidan hozirga qadar uch bora tarjima qilingan.

Ikki xalqning sevimli shoiri Tursunboy Adashboyev vaqtli matbuotda, nashriyotda va har ikki respublikaning Yozuvchilar uyushmalarida xizmat qiladi. Shuningdek, jahon bolalar adabiyotining eng yetuk vakillari asarlarini maromiga etkazib tarjima qilgan. Qirg‘iz xalq eposi — «Manas»ning nasriy variantidan tortib S. Eraliev, S. Jusuev, T. Qosimbekov, J. Mavlonov, B. Sarno‘g‘aev, N. Alimbekov kabi ijodkorlarning o‘ttizga yaqin asarlari o‘zbek tilida bosilib chiqqan.[2]

Manas eposi - dunyodagi eng katta epos. Qirg‘iz xalqining ulkan madaniy merosi bo‘lib, Xalqning tarixini, madaniy va maishiy hayotini aks ettiradi.

Eposda vatanparvarlik, qahramonlik mardlik, hamjihatlik, do‘stlik, o‘zaro mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni asrab- avaylash, o‘z Vatanini sevish, ko‘z qorachig‘iday asrab- avaylash kabi insoniy fazilatlar ulug‘lanadi.

“Manas” epik trilogiyasi uch qismdan (“Manas”, “Semetey”, “Seytek”) iborat bo‘lib, ular birgalikda 60 dan ortiq variantlarni o‘z ichiga oladi. Birgina Sayakbay Karalayev variantida 500 553 misra she’r bor. “Manas” dostoni tarixiy-etnografik manba hisoblanadi. Olim va tadqiqotchilar xalq og‘zaki ijodi, doston va rivoytlarning etnikshunoslikda, yilnomalar yaratish va milliy tarixni yozishda, tarixiy fakt va voqealarni qayd etishdagi ijodiy o‘rni haqida ijobiy fikr bildirdilar. [3]

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun asos bo‘lishida Manasning yetti ahdi muhim ahamiyatga ega. Bular quyidagilar:

1. Millatlar birligi, jipsligi.
2. Millatlararo totuvlik, do‘tlik va hamkorliklik.
3. Mehnat va bilim farovonlik shartidir.
4. Milliy or- nomus va vatanparvarlik.
5. Insonparvarlik, saxovatlilik, bag‘rikenglik.
6. Tabiat bilan uyg‘unlikda sog‘lom turmush tarsi.
7. Qirg‘iz davlatchiligini mustahkamlash va himoya qilish.

Nasrda qirg‘iz xalqining tarixi, Manasning qahramonligi, insoniy fazilatlari, haqiqat uchun olib borilgan kurashlari ko‘z o‘ngimizga yaqqol gavdalanadi. Oloy va

Oltoy o‘rtasida tariqdek tirqirab ketgan, kindik qoni to‘kilgan yeridan mosuvo bo‘lgan, keyinchalik bir-birini topib qaddini tiklagan qirg‘iz xalqining qahramonlik dostoni o‘zbek millatining ham sevimli dostonidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, “Manas” eposi o‘quvchi- yoshlarda mardlik, do‘stlik, hamjihatlik, vatanparvarlik, saxovatlilik, estetik, ekologik ong, oilaviy qadriyatlar, hissiyotlarni, o‘z hatti-harakatlarini to‘g‘ri boshqarish, shaxsning ijtimoiylashuvi kabi yuksak ma’naviy- axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur doston yosh avlodni xalqning tarixiy o‘tmishini unutmaslikka, uni e’zozlashga, qadrlashga, eslashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 2- apreldagi “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-3645-son qarori.
2. Barakaev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar.-Toshkent: Akademnashr, 2014. – 160 b.
3. Эшиев Асылбек. Эпос Манас и исторические источники: параллели, аналогии, сходства.- Бишкек 2021
4. Matjonov S. Ikki el ardog‘ida. Tursunboy Adashboyev portretiga chizgilar.-Toshkent: Musiqa, 2009, - 44 b

AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY ADABIYOTNING O‘RNI

Muxtorova Umida Tolib qizi,

Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya: O‘zbek xalqining bir necha asrlik ma’naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o‘zida jamlagan islom madaniyatini tiklash, jamiyatning diniy asoslari, axloqiy qadriyatlarini anglash, milliy g‘urur, madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo‘lish yo‘lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Hamma davrlarda ham har qanday milliy adabiyot din va ilohiyotga doimo kuchli ehtiyoj sezgan va undan oziqlashib kelgan.

Kalit so‘zlar: ilohiyot, rukn, moziy, globallashuv, dialektika, diniy-mifologik, motiv, interpretatsiya, Kobon, badiiy sintez.

Sharq adabiyoti tarixida diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan badiiy adabiyotning integratsiyalashuvi, ya’ni Qur’oni karim va hadisi sharif ta’siri natijasida umuminsoniy g‘oyalar va axloqiy konsepsiyalar aks etgan turli xil janrdagi asarlar mavjud.

“Bu olamning kaliti – Islom dini ruknlari va qur’oni karim kalomi. Qur’oniy mavzularning jahon va xususan o‘zbek adabiyotiga singib o‘tishi faqat diniy nuqtai nazardangina ibratli bo‘lib qolmay, balkim Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi o‘zbek adabiyotining islom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan bo‘lardi”.

“Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, xalqimizning o‘n to‘rt asrlik ma’naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o‘zida jamlagan islom madaniyatini tiklash o‘z taqdirini

o‘zi belgilash, tarixiy xotira, milliy g‘urur va madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo‘lish yo‘lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Qolaversa, har qanday milliy adabiyot dinning ruhoniyatiga doimo kuchli ehtiyoj sezadi, undan oziqlanadi”.

Biz uchun muqaddas bo‘lgan diniy qadriyatlar va an’analarni o‘zaro bog‘liqlikda qaytarish va tiklash jarayonida milliy adabiyotimizning muqaddas manbalar – Qur’oni karim va hadisi sharifdan olgan ta’sirini belgilash, diniy mavzularning adabiyotda ifodalanishini tadqiq etish o‘zbek adabiyotshunos olimlarini ham befarq qoldirmagan.

Jahon adabiyotida turli millat adabiyotlari aro aloqalar insoniyat ongini tanigan davrlardan buyon taraqqiyotning muhim shartlaridan biri o‘laroq talqin qilingan. Globallashuv kontekstida esa endi bunday munosabatlar taraqqiyot omiligina bo‘lib qolmay, umumiy qismat masalasiga ham aylandiki, qiyosiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar ham xalqaro munosabatlarning bir rukni sifatida yana ham dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, san’at, badiiy adabiyot, ilmu-fan va adabiy tanqidga e’tiborning kuchayishi ham ma’lum ma’noga ega. Chunki yuksak insoniy ideallar, taraqqiyotga xizmat qiladigan g‘oyalarning real hayotga tadbiqida bu sohalarning ahamiyati katta. Mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, avvalo, ana shunday o‘tkir ijtimoiy-ma’naviy zarurat bilan belgilanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiyot va hayot dialektikasi, avvalo, odamlarning kitobxonlik darajasi bilan tayin etiladi. Ya’ni jamiyat a’zolari badiiy adabiyotdagi oliyjanob ideallar, insoniy g‘oyalar bilan tanishishi, ulardan namuna olishi uchun avval-boshlab o‘sha asarlarni o‘qishlari lozim. O‘zbek nasri vakillari ham o‘z asarlari markaziga hamma zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan muhim ma’naviy-axloqiy masalalarni qo‘yganlar. Turli g‘ayriinsoniy illatlarning qanday fojialarga olib kelishini real hayotiy voqeliklar vositasida yaqqol ko‘rsatib berganlar. Ularning har bir asari odam bolasiga ko‘zgu va ibratdir. Mazkur tadqiqot spetsifik jihatdan ham dolzarbdir, chunki zamonaviy adabiyot miflarni interpretatsiya qilish orqali insoniyat tafakkurining vaqt kontekstidagi dialektikasini namoyon etadi.

O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarida jahon adabiyoti ta’sirida butun asar strukturasini diniy-mifologik rivoyatlar asosiga qurish, real voqelikni olis rivoyatlar parallelida badiiy idrok etish, mifologik obrazlarni real hayot voqea-hodisalari ichiga olib kirish kabi adabiy hodisalar keng yoyildi. Jahon adabiyoti, Ch.Aytmatov ta’sirida bu hodisa milliy adabiyotimizda ham yuz ko‘rsatdi. Jumladan, buni qisman zabardast o‘zbek yozuvchilari, navqiron qalamkashlar ijodida ham uchratamiz. O‘zbek adabiyotshunosligida o‘zbek yozuvchilari ijodini qiyosiy o‘rganish borasida ham, asarlarda rivoyatlarning qo‘llanishini qiyosiy o‘rganish borasida ham ma’lum ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ammo ikki qardosh xalq yozuvchilari asarlarida ilohiy motivlar va rivoyatlarning badiiy sintezi masalasining mushtarakligi hozirgacha qiyosan fundamental tadqiqot darajasida o‘rganilgan emas. Milliy adabiyotshunoslikdagi ana shu bo‘shliqni to‘ldirish zarurati ham bu mavzu dolzarbligini ko‘rsatadi.

Chingiz Aytmatov XX asr jahon prozasining eng yorqin vakillaridan biridir. Uning asarlari dunyo xalqlarining 170 dar ortiq tillariga tarjima qilingan, yuz milliondan ortiq tillarda nashr etilgan, nomzodi bir necha marta Nobel mukofotiga ilgari surilgan. Aytmatov ijodiga bag‘ishlangan katta-kichik turli tadqiqotlarning o‘zi kichik bir kutubxonani tashkil qiladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi, ularning hammasini sanab o‘tishning imkoni yo‘q. Chingiz Aytmatov ijodida mifopoetika va folklorizmlarga bag‘ishlangan, shuningdek, adib ijodining boshqa xalqlar adabiyoti va adiblari bilan qiyosiga bag‘ishlangan ishlar ham ko‘p.

Jahon adabiyotshunosligi tarkibida aytmatovshunoslik degan shoxobcha paydo bo‘lgan, desak yanglishmaymiz. Adib asarlari nafaqat filologlar, balki faylasuf, pedagog, psixolog, san’atshunos, siyosatshunos, sotsiolog, tarixchi, hatto tibbiyot sohasi olimlari tomonidan ham o‘rganilmoqda. E’tiborlisi shundaki, aytmatovshunoslikning ko‘pgina salmoqli tadqiqotlari o‘zbek olimlari va tadqiqotchilari hissasiga to‘g‘ri keladi. Chingiz Aytmatovning ko‘plab asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan mutarjim va adabiyotshunos Asil Rashidovning qator maqola va kitoblari e’tiborga loyiq. Adabiyotshunos Abdug‘affor Murod Xon ham Chingiz Aytmatov ijodini izchil o‘rganib keladi. U adib asarlarining badiiyati, falsafiy konsepsiyasi, adabiy ta’sir, tipologik o‘xshashliklar kabi muammolarni tadqiq etgan. Adabiyotshunos olim Ilhom G‘aniyev ham Aytmatov ijodini anchadan buyon tadqiq etib keladi. U ham ijodkor adabiy merosining g‘oyaviy-badiiy sathlarini o‘rgangan, shuningdek, Aytmatov asarlarini jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy tadqiq etgan.

O‘zbek shoir va yozuvchilari, publitsistlari ham buyuk turkiy adib ijodiga qiziqib, turli darajadagi tadqiqotlar yaratganlar. Bu borada Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, Ahmadjon Meliboyev, G‘affor Hotamov, Nazar Eshonqulning yozgan maqolalari e’tiborga molik. Shuningdek, Matyoqub Qo‘shjonov, Saydi Umirov, Pirmat Shermuhammedov, Rahmatulla Inog‘omov, Akmal Saidov, Suvon Meli, Dilorom Aliyeva, Anvar Jo‘raboyev, Omonullo Fayzullayev, Narzulla Shodiyev, Mamatqul Hazratqulovlarning ishlari ham buyuk turkiy adib ijodining turli qirralarini tahlil qiladi, asarlarining tarjimalarini baholaydi.

IX asrda yashab ijod etgan ulug‘ mutafakkir, buyuk insonparvar shoir Abu A’loal-Maarriy «narigi dunyo» to‘g‘risidagi diniy afsonalardan keng foydalanib, «Risolatul –ufron», «Risolatul maloik» dostonlarini yozib, ularda zamonasining johil, nodon ruhoniylarini, hovliqma, laqma odamlarni satirik tarzda mazah qilgan. Abu A’lo go‘yo u dunyoga sayohat qilib, o‘z muxoliflarini uchratib qoladi. Ularning ahvoli, do‘zax darvozaboni iblis Molik qilayotgan ishlarni bevosita kuzatadi. Va o‘zining yovo‘z, ikkiyuzlamachi nokaslarga nisbatan nafratini talqin etadi.

Sharqning atoqli san’atkorlaridan biri Abulmajid Sanoiyning «Sayrul ibod ilal maod» («Bandalarning sayr qilib, o‘z joylariga qaytishlari») dostoni buning yana bir yorqin misolidir. Tub mazmuni, obrazlari va tuzilishi bilan bu asar «Ilohiy komediya» va yana ham shaklan, ham g‘oyasi bilan yaqindir. Sharqshunos olim professor YE.Bertels o‘z vaqtida bu asarga ilmiy jamoatchilik e’tiborini qaratgan va ancha batafsil tahlil qilgan edi.

Qator falsafiy hamda orifona dostonlari bilan shuhrat qozongan Sanoiy Balxiy (XI-XII asrlar)ning mazkur asari 23 fasl, muqaddima va xotima boblaridan iborat. Unda shoirning xayolan nariga dunyoga sayohati tasvirlangan. «Do‘zax» qatlamlaridagi azob-qiynoqlar manzarasi chiziladi. Muqaddimada o‘simlik joni («nafsi numo‘ya»), hayron joni («ruhi hayvoniy»), insoniy ruh haqida fikr yuritiladi. Insoniy ruh olami asarda bir afsonaviy shahar sifatida tasvirlangan. Bu shahar ahli o‘zlari va o‘z avlodlaridan boshqani o‘ylamaydilar. Binobarin, o‘zaro kurashlar, urush va janjallar changalida yashaydilar. Shaharning tashqi ko‘rinishi go‘zal, ammo ichkarisi xunuk, jirkanchdir. Shaharning nur, olov va qorong‘ilikdan iborat uchta hokimi bor. Bular ham faqat o‘z manfaatlarini o‘ylaydilar. Ikkita otlari (kecha va kunduz) borki, ular o‘z suvoriylarini yeyish payida yuradilar. Bu bosqichda inson hayoti hayvoniy hayotga o‘xshashdir. Faqat nafsi go‘yo (ruhi notiqa)gina uni bu «birodarlari»dan xalos qila oladi.

Shoir qorong‘ulik olamida yuzidan nur yog‘ilib turgan mo‘ysafidni ko‘rib qoladi. Bu nafsi oqila (aql)dir. Mo‘ysafid shoirni ramziy mamlakat sayriga boshlaydi. Safar eng quyi unsur – yer (hayulo)dan boshlanadi. Bu joyda zulumot ham qorong‘ulik hukmron. Odamxo‘r maxluqlar, zaharli ilonlar, bo‘ri, ajdarho, g‘uj-g‘uj chayonlar vahima solib turibdilar. Ularning hammasini Kobon boshqaradi. Keyingi bobda yo‘lovchilar boshi bitta, yuzi yettita, to‘rt kaftli bahaybat afyun qiyofasidagi maxluqqa duch keladilar. Bu hirs, ochko‘zlik va xasislik timsoli. Sanoiy qo‘rqib ketadi, ammo mo‘ysafid bir ishora bilan uni daf etadi. Ilon yo‘ldan chetlashgach, shoir yana o‘z rahnamosi bilan olg‘a qadam bosadi. Bundan keyingi bobda ular tili yuragidayu, ko‘zi bo‘ynida bo‘lgan devlar (hasad ramzi) yurtiga kelib qoladilar. Sakkizinchi bobda ustini tutun qoplagan toshloq sahro ko‘rinishidagi ta’ma paydo bo‘ladi. Unda doimo yovvoyi hayvonlar hayronu sarson kezadilar. Ularning boshlari faqat ko‘zdan, qo‘llari nuqul badandan iborat. Bu viloyatdan keyin yo‘lovchilar o‘tishlari lozim bo‘lgan po‘rtanali dengizga duch keladilar. Sanoiy vahimaga tushar ekan, Mo‘ysafid: Agar sen hayvoniy hislarni orqada qoldirsang, bu dengizdan eson-omon o‘tasan, deb maslahat beradi. Demak, adib donishmandlik bilan chin insoniy fazilatlar silsilasini olg‘a surgan. Binobarin, yuksak insoniy ma’naviyatga erishish – ulkan, qo‘rqinchli dengizlardan suzib o‘tish kabi mashaqqatli vazifa ekanligini uqtirmoqchi.

Nihoyat, shoir nurlari ko‘zni qamashtiruvchi yurtga qadam qo‘yadi. Bu – Aqli mukamal bo‘lgan ibratlar mamlakatidir. Bilim, ma’rifat oshiqlari shu yerdalar. Sohibdil, solih darvishlar ham uning homiyligida baxtiyordirlar. Mo‘ysafid, shoirni yana olg‘a borishga undab, o‘zi orqaga qaytadi. Chunki bundan keyingi mmalakatlar safariga uning rahnamoligiga hojat yo‘q edi.

Sanoiy tariqat ahli bilan yuz ko‘rishadi, keyin, ularning maslahatiga ko‘ra, yana oldinga – Buyuk muhabbat dargohiga intiladi. Oxirgi bob esa Musaffo Xayrni madh etishga bag‘ishlangandir. Ye.Bertels Sanoiy asarini “Ilohiy komediya”ga o‘xshashligini ta’kidlaydi. Asosiy motivi, pafosi va yetakchi g‘oyalari bilan ham Dante poemasi «Sayr ul- ibod»ga yaqin.

Hamid G‘ulom aytganidek, «Ilohiy komediya» nainki faqat Dantening, binobarin butun o‘rtas asrlar g‘arb she’riyatining eng nodir asaridir. Osiyoda «Ramayana» va «Shohnoma», «Go‘ro‘g‘li» va «Xamsa» kabi buyuk asarlar dunyo madaniyati va she’riyatida qanday ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, «Ilohiy komediya» Yevropa madaniyati va she’riyatida shunday ahamiyat kasb etdi».

Adabiyotlar ro‘txati

1. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Romanlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 560 b.
2. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. – 70 bet.
3. Eshonqul J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2019. – 312 b.
4. Eshonqul N. Ijod falsafasi. (“Men”dan mengacha-2). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 416 b.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Н.Ж.Абдусаматова

НамДУ доценти

Аннотация. Мазкур мақолада мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш масаласининг долзарблиги, шарқ мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий тарбияга оид қарашлари ва улардан фойланиш йўллари хусусида сўз юритилади.

Таянч тушунчалар. маънавий-ахлоқий тарбия, мактабгача ёш, шарқ алломалари, тарбия усуллари, маънавий-ахлоқий тарбия усуллари...

Одатда Шарқ халқлари ҳақида гап кетганда уларнинг маънавияти хусусида узоқ ўтмишга бориб тақалувчи манбаларни тилга олиш мумкин.

Бу манбалар Шарқ алломаларининг ибратомуз ҳикматлари, дидактик асарлари, диний ва маънавий мазмундаги битиклар шаклида бугунги кунгача етиб келган. Улардан замонавий таълим-тарбия жараёнида, жумладан мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш жараёнида ҳам самарали фойдаланиш мумкин. Мазкур йўналишда мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиси фаолиятини ташкил этишда болаларнинг ёш гуруҳи ҳамда фаолият турларига монанд тарзда материал танлаши лозим бўлади.

Президент Шавкат Мирзиёев аждодларимизга бўлган чексиз ҳурматини қуйидаги; “ Ҳамма ўз тарихини улуғлайди. Лекин бизнинг мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ. Бу меросни чуқур ўрганишимиз, халқимизга, дунёга етказа билишимиз керак”- фикрлари орқали ифодалайди[1].

Ўзбек халқи тарихан таълим-тарбия соҳасида ўзига хос дорилфунун яратгани билан бутун дунёга машҳур ва маълумдир. VII-XII асрлар давомида Марказий Осиёда маданият, илм-фан бекиёс ривожлана борди. Ўша тарихий даврда ал-Хоразмий, Форобий, ал-Фарғоний, ал-Беруний, Ибн Сино, аз-

Замахшарий сингари қомусий олимлар дунёга келди. Улуғ мутафаккирлар инсон маънавий ва тафаккур дунёсини бойитишда, инсоният онгини, маданий-маърифий қарашларини ўстиришда ўз даврида ва кейинчалик ҳам асосий ўринни эгалладилар, инсон камолотига доир беқиёс таълимотни яратдилар.

Болалар мактабгача таълим ёшидаёқ Амир Темур ва унинг қудратини, Беруний, Ал-Хоразмий, Ибн Сино, Навоий, Бобур, Улуғбек ва уларнинг дунё илмидаги бой маънавий меросларини англай билишлари керак. Болаларга Бобур ҳақида сўзлай туриб, унинг бир умр Ватан соғинчи билан яшагани ҳақида айтиб бериш, шу аснода уларда Ватанга муҳаббат руҳини тарбиялаб бориш мумкин.

Мактабгача ёшдаги болаларда маънавий-ахлоқий сифатларни интеграциялашган ҳолда тарбиялаб бориши учун замонавий мазмун ва руҳдаги материаллар, Шарқ мутафаккирларининг фикрларига таянмоқ лозим. Чунки ахлоқий пок, шахси гўзал бўлган инсоннинг маънавияти ҳам юксак бўлади.

Чунончи, Шарқ меросида маънавий-ахлоқий фазилатларни болаларда тарбиялаш масаласининг ўзи интегратив характерга эга. Масалан, “Авесто”да ахлоқий тарбия инсоний фазилатларнинг эзгу мақсад йўлида ўзаро мувофиқлашган ҳолдаги ижодий жараёни сифатида баҳоланади [2]. Асарда эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал тамойилларини интеграциялаш орқали инсон камолотида ҳар учала омилнинг муҳимлиги таъкидлаб ўтилади.

Форобийнинг таъкидлашича, инсонда гўзал фазилатлар икки йўл - таълим ва тарбия усули билан ҳосил қилинади: “Таълим назарий фазилатларни бирлаштирса, тарбия эса туғма фазилат – назарий билимлар ва амалий касб-ҳунар, хулқ-одоб фазилатларини бирлаштиради, таълим сўз ва ўрганиш билан, тарбия эса амалий иш, тажриба билан амалга оширилади, ҳар иккаласи бирлашса, етуклик намоён бўлади”[3]. Демак, Форобий таълим-тарбияни узвий бирликда олиб бориш ғоясини илгари суриш билан бир қаторда уларнинг ҳар бирининг инсонни камолга етказишида ўз ўрни ва хусусияти бор эканлигини алоҳида таъкидлайди.

Улуғ мутафаккир Абу Али Ибн Сино ҳам болалар тарбияси ҳақида ўзинининг доно фикрларини айтиб ўтган. У таълим-тарбия ва ахлоққа оид бир неча асарлар яратган. “Тадбир ал-манозил”, “Рисола фи илм ал-ахлоқ”, “Рисола фи ал- аҳд”, “Китоб ал-инсоф” шулар жумласидандир.

Ибн Сино “Тиб қонунлари” асарининг “Тарбия тўғрисида” деб номланган бобида болалар тарбиясида таълим-тарбияни узвий боғлаган ҳолда олиб бориш керак, деб таъкидлашининг ўзи интеграцион ёндашувни кўрсатади. Мазкур китобда у ёш болаларда характерни қандай тарбиялаш кераклиги тўғрисида қимматли фикрларини баён қилган. Ёш бола тарбиясига катталарнинг таъсири тез ўтишини олим алоҳида уқтиради. Болалар ҳамиша ўзидан катталарга тақлид қилувчан бўлади. Улар одобли ва ақлли кишиларнинг таъсирида яхши тарбия топади.

Шунинг учун ҳам Ибн Сино уларга шахсан намуна кўрсатиш тўғрисида ота-оналарга ва улар тарбиячиларига маслаҳат беради.Улар ёш болаларга

эътибор билан қарашлари керак[4]. Чидамлилик – инсон бошига тушган ёмонликни тўхтатиб турувчи қувват. Ақллилик – бирор ишни бажаришда шошма-шошарлик қилишдан сақловчи қувват. Зийраклик – сезги берган нарсаларнинг ҳақиқий маъносини тезлик билан тушунишга ёрдам берувчи қувват деб таъриф беради.

Ибн Сино ўз асарларида инсонлар ўртасидаги дўстлик ва биродарликка алоҳида аҳамият бериб, одамларни бир-бирлари билан дўст иноқ бўлиб яшашга, пасткашликка олиб келадиган адоватни йўқотишга чақиради.

Ҳаётда ўз дўстига мехрибон бўлиш, қўлидан келадиган ёрдамларни аямаслик, дўстидан нуқсон ва камчиликларидан юз ўгирмаслик, аксинча уни йўқотишга ҳаракат қилиш кабилар Ибн Синонинг асарларида кенг ўрин олган.

Абу Райҳон Беруний ўз қарашларида билим олишни ахлоқий тарбия билан боғлайди. Зеро, инсонда комилликнинг муҳим мезони юксак ахлоқлиликдир дея таъкидлайди[5].

Беруний фикрича, инсоннинг энг асосий сифати ахлоқийлик бўлиши керак. Бу хислат бирданига таркиб топмайди. У кишиларнинг ўзаро мулоқоти, ижтимоий муҳит – жамият тараққиёти жараёнида таркиб топади.

Беруний ҳам ахлоқий тарбияга мусулмон дини талабларидан келиб чиққан холда таъриф беради. “Ахлоқийлик яхшилик билан ёмонлик ўртасидаги кураш натижасида намоён бўлади ва таркиб топади”, –дейди , у. Яхшилик ва ёмонлик инсоннинг хулқ-атворини белгилайдиган мезон сифатида қўлланилади.

У яхши хислатларга тўғрилик, одиллик, ўзини вазмин тутиш, инсоф, камтарлик, лутф, собитқадамлик, эҳтиёткорлик, сахийлик, ширинсуханлик, раҳбарликда адолатлилик, тадбиркорлик кабиларни киритади.

Ёмон иллатларга эса ҳасадгўйлик, бахиллик, носоғлом рақобат, ўз манфаатини кўзлаш, мансабпарастлик ва ҳоказоларни киритади.

Беруний фахрланишни яхши хулқ маъносида ишлатиб, “Ёдгорликлар”да шундай дейди: “Фахрланиш – ҳақиқатда яхши хулқлар ва олий феълларда олдин кетиш, илму ҳикматни эгаллаш ва имконият борича мавжуд нопокликлардан тозаланишдир. Кимда шундай сифатлар топилса, ҳукм унинг фойдасига ва кимда булар етишмаса, ҳукм унинг зарарига бўлади”.

Абу Райҳон Беруний эзгу тилакка етишга тўсқинлик қилувчи зиқналик, ёлғончилик, мунофиқлик, манманлик, такаббурлик каби нуқсонларни қорлайди, бойликка ружу қўйиш ва тамагирлик, ғазаб ва жоҳиллик инсон учун энг ашаддий душман деб қарайди.

Улуғ Алишер Навоий таъкидлашича, одоб одамнинг олижаноб фазилатларидан биридир. Одобли киши очиқ юзли, хушмуомала, ёқимли бўлади. Бундай кишилар учун икки юзламачилилик, қўполлик ётдир. Одобли одам доимо дўстларининг ҳурматида, иззатида бўлади. Ота-она, ака-ука, опа-сингил, дўстларни ҳурмат-иззат қилмоқ хар бир одобли кишининг бурчидар.

Алишер Навоий ҳар бир кишидан ёқимли, назокатли, очиқ чеҳрали ва хушмуомала бўлишни талаб қилади.

“Ҳар кимгаки даҳр ичра донолик эрур,
Ҳалим ила иш анга мажсис оролиқ эрур”[6].

Абдураҳмон Жомий ҳам XV асрда яшаган бошқа мутафаккирлар каби инсонни, унинг юксак ахлоқий хислатлари ва гўзал фазилатларини ўз асарларида тараннум этиш орқали уларнинг бахт-саодатга эришиш йўлларини баён этган алломалардан бири ҳисобланади. Шу боис етук ва баркамол инсонга хос хислатлар унинг барча асрларида кенг тараннум этилади. Масалан, ҳақиқий инсонга хос бўлган ахлоқий хислатлардан яхшилик, сахийлик, ширинсуханлик, камтарлик, сабр-қаноат, дўстлик, ростгўйлик, меҳнатсеварлик кабиларни тарбиялашга алоҳида диққат билан қарайди.

Жомий маънавий баркамол инсонни тарбиялашдаги муҳим бир жиҳати сифатида ахлоқий баркамоллик деб билди ва ахлоқийлик-юксак хулқ одоб-ахлоқ мезонлари сифатида инсонийлик, адолат, меҳнатсеварлик, саховат ва карам, меҳр-мурувват, чин инсоний муҳаббат, ростгўйлик, камтарлик, жасорат, мардлик каби хислатларни улуғлади ва такаббурлик, мол дунёга ҳирс қўйиш, ёлғончилик, жоҳиллик билан боғлиқ иллатларни қоралади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, шуни таъкидлаш лозимки, барча шарқ мутафаккирлари асарларида илгари сурилган, кишилар эгаллаши лозим бўлган энг яхши эзгу фазилатлар ҳозирги даврда ҳам ҳар томонлама етук инсонни камолга етказишда муҳим дастур бўлиб ҳизмат қила олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-bu-ulkan-manaviy-meros-musulmonlar-uchun-tabarruk-maskanning-tarihini-mukammal-organishimiz-zarur.

2. Иброҳимов А., Жўраев Н., Султонов Х. Ватан туйғуси – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б.111.

3. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши: Насаф, 2000.–Б. 80.

4. Донишмандлар одоб-ахлоқ тўғрисида.– Тошкент: Ўқитувчи, 1986. –134 б.

5. Абу Райҳон Беруний. Педагогика тарихи фанини ўрганиш бўйича маърузалар матни. Тузувчилар Надмиддинова Г.Н., Ибрагимов М. Б. – Тошкент. 2013.–Б.7-9.

6. Фармонова. М. Шарқ мутафаккирларининг маънавий меросида фарзанд тарбияси. – Тошкент: Тасвир нашриёт уйи, 2020. –Б.16.

HOZIRGI KUNDA O‘ZBEKISTONDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI

Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi
Qo‘qon Universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning an’ana va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirgan, axloqiy qadriyatlarni singdirish va estetik hissiyotlarni tarbiyalash uchun turli usullarini o‘rganadi. Madaniy merosni integratsiyalash, badiiy ifodani rag‘batlantirish, tajribaviy o‘rganishni osonlashtirish, texnologiyadan foydalanish va

hamkorlikdagi muloqotni rivojlantirish asosiy strategiyalardir. Ushbu sa'y-harakatlarning maqsadi halollik, hamdardlik va madaniy qadrlashni o'zida mujassam etgan fuqarolarni tarbiyalashga qaratilgan. Dinamik yondashuv orqali O'zbekiston o'z aholisini axloqiy murakkabliklarni yo'lga qo'yishga, xilma-xil istiqbollarni qadrlashga va barkamol jamiyatga ijobiy hissa qo'shishga tayyorlaydi, axloqiy chuqurlik va estetik go'zallik bilan boyitilgan porloq kelajakni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Madaniy an'analar, halolik, tarbiya, ta'lim, axloq, estetika, taraqqiyot, tashabbuslar, adabiyot, san'at.

Hozirgi O'zbekistonda axloqiy-estetik tarbiyaga intilish jamiyat taraqqiyoti va taraqqiyotining poydevori bo'lib turibdi. Boy madaniy an'analarga asoslangan va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida O'zbekiston bugungi kunda o'z fuqarolarida axloqiy ong va estetik qadrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodologiyalarining dinamik manzarasida harakat qilmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilayotgan ko'p qirrali strategiya va tashabbuslar, ularning xalqning axloqiy va estetik tuzilishini shakllantirishdagi samaradorligi va dolzarbligi o'rganiladi.

O'zbekiston ta'lim falsafasining zamirida uning tarixiy merosi va madaniy o'ziga xosligiga chuqur hurmat yotadi. Avitsenna, Al-Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek kabi nuroniylar ijodida o'z ifodasini topgan ko'p asrlik hikmatlarga tayangan holda, zamonaviy ta'lim amaliyoti an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy istiqbollar bilan uyg'unlashtiradi. Adabiyot, san'at va tarixiy hikoyalar orqali o'quvchilarda axloqiy saboqlar va estetik kechinmalar gobeleniga singib ketadi, inson borlig'ining go'zalligi va murakkabligini chuqur qadrlash tuyg'usini tarbiyalaydi.

Qolaversa, O'zbekiston ta'lim landshafti axloqiy fazilatlar va estetik hissiyotlarning intellektual o'sish bilan o'zaro bog'liqligini e'tirof etgan holda har tomonlama rivojlanishga intilishini aks ettiradi. O'quv dasturlarini takomillashtirish va darsdan tashqari mashg'ulotlar ilmiy mahorat bilan birga empatiya, halollik va madaniy xabardorlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadigan ijtimoiy xizmat loyihalaridan tortib, xilma-xillikni nishonlaydigan badiiy sa'y-harakatlargacha, talabalar inson tajribasining son-sanoqsiz o'lchovlarini o'rganishga, o'zlari va atrofidagi dunyo haqidagi tushunchalarini boyitishga da'vat etiladi.

Innovatsion pedagogik uslublar O'zbekistonning axloqiy va estetik tarbiya borasidagi sa'y-harakatlarini yanada kuchaytirmoqda. Interfaol texnologiyalar, tajribaviy o'rganish imkoniyatlari va hamkorlik platformalarini o'z ichiga olgan o'qituvchilar talabalarni eslab qolish va passiv qabul qilishdan ustun bo'lgan dinamik dialoglarga jalb qiladilar. Tanqidiy fikrlashni, ijodiy fikrlashni va axloqiy fikrlashni rag'batlantirish orqali bu yondashuvlar o'quvchilarga axloqiy dilemmalarni boshqarish, turli nuqtai nazarlarni qadrlash va jamiyatning madaniy gobeleniga mazmunli hissa qo'shish imkonini beradi.

O'zbekiston XXI asrda rivojlanishda davom etar ekan, uning barkamol va farovon kelajak haqidagi qarashlarida axloqiy va estetik tarbiyaga intilish markaziy o'rin tutadi. An'analar va innovatsiyalar uyg'unligi orqali xalq insoniyat tajribasiga

singib ketgan go‘zallikni chuqur qadrlaydigan, halollik, mehr-oqibat va mehr-muruvvat bilan sug‘orilgan fuqarolar avlodini tarbiyalashga intiladi.

Hozirgi O‘zbekistonda fuqarolar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy barkamollik va estetik tuyg‘ularni tarbiyalashga intilish xalqning madaniy merosi va ma’rifiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali sayohatdir. An’anaviy amaliyotlar va zamonaviy innovatsiyalar uyg‘unligi orqali O‘zbekistonda bugungi kunda aholi orasida axloqiy qadriyatlarni singdirish va estetik hissiyotlarni tarbiyalash uchun turli samarali usullar qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonning axloqiy-estetik tarbiyaga bo‘lgan yondashuvida markaziy o‘rinni madaniy merosni ta’lim o‘quv dasturiga kiritishdir. O‘zbekiston tarixiy shaxslar, adabiy asarlar va badiiy an’analarning boy gobeleniga ega bo‘lib, ular axloqiy izlanish va estetik boyitish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy she’riyati, Forobiy falsafiy mulohazalari kabi matnlar nafaqat o‘quv predmeti bo‘lib qolmay, balki abadiy axloqiy saboqlarni yetkazish, go‘zallik va ijodni chuqur qadrlashni tarbiyalash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Qolaversa, san’at O‘zbekistonning axloqiy va estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Musiqa, raqs, tasviriy san’at va teatr hissiyotlarni ifodalash va madaniy muloqot uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu o‘quvchilarga axloqiy mavzular va estetik tamoyillar bilan moddiy va visseral usullar bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Badiiy faoliyatda ishtirok etish orqali o‘quvchilarda empatiya, tasavvur va inson tajribasining boyligiga hissa qo‘shadigan turli nuqtai nazarlarni tushunish rivojlanadi.

Tajriba asosida o‘rganish O‘zbekistonda axloqiy va estetik tarbiyaning yana bir tamal toshi hisoblanadi. Jamiyatga xizmat ko‘rsatish loyihalari, atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslari va madaniy almashinuvlar talabalarga axloqiy tamoyillarni real sharoitlarda qo‘llash imkoniyatini beradi, ijtimoiy mas’uliyat hissi va fuqarolik ishtirokini rivojlantiradi. Ushbu tajribalarda faol ishtirok etib, talabalar nafaqat axloqiy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi, balki shaxslar, jamoalar va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq tushunishadi.

Axloqiy va estetik tarbiyaga texnologiyani kiritish O‘zbekistonda ham tobora kengayib bormoqda. Interfaol multimedia resurslari, onlayn platformalar va virtual haqiqat simulyatsiyalari talabalarni jalb qilish va axloqiy dilemmalar va estetik so‘rovlarni chuqurroq o‘rganishga yordam berishning innovatsion usullarini taklif etadi. Raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘qituvchilar turli xil o‘rganish uslublariga mos keladigan va tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantiradigan chuqur ta’lim tajribasini yaratishi mumkin.

Bundan tashqari, hamkorlikda o‘rganish va muloqot O‘zbekistonda samarali axloqiy va estetik tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ta’kidlangan. Guruhdagi munozaralar, hamkorlik loyihalari va tengdoshlarning o‘zaro ta’siri orqali talabalar o‘zlarining qadriyatlarini ifoda etishni, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilishni va konstruktiv muloqot qilishni o‘rganadilar. Ochiq muloqot va o‘zaro hurmat madaniyatini tarbiyalash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilar o‘zlarini ishonchli

va hamdardlik bilan murakkab axloqiy masalalar va estetik tushunchalarni o‘rganish imkoniyatini his qiladigan muhit yaratadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi O‘zbekistonda axloqiy va estetik tarbiyaga intilish xalqning o‘zida halollik, hamdardlik va madaniyatni qadrlaydigan fuqarolarni tarbiyalashga intilishidan dalolatdir. O‘zbekiston ta’lim tizimi an’anaviy amaliyotlar va zamonaviy innovatsiyalarning jadal o‘zaro ta’siri orqali aholi o‘rtasida axloqiy qadriyatlarni singdirishga va estetik hissiyotlarni tarbiyalashga intiladi.

Madaniy merosni o‘quv dasturiga kiritish, badiiy ifodani rivojlantirish, tajriba asosida o‘rganishni osonlashtirish, texnologiyadan foydalanish va hamkorlikdagi muloqotni rivojlantirish orqali O‘zbekiston o‘z fuqarolariga zamonaviy dunyo murakkabliklarida ishonch va hamdardlik bilan harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu ko‘p qirrali yondashuvlar nafaqat ma’naviy-axloqiy asosga ega va estetik jihatdan boyitilgan shaxslarni tarbiyalaydi, balki jamiyatning umumiy farovonligi va totuvligiga ham hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston XXI asrda rivojlanishda davom etar ekan, axloqiy muammolarga qarshi tura oladigan, xilma-xil nuqtai nazarlarni qadrlay oladigan va insoniyat madaniy gobeleniga ijobiy hissa qo‘shadigan kelajak avlodni shakllantirishda ushbu usullarning samaradorligi muhim bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston axloqiy va estetik tarbiyaga sodiqligi bilan yaxlitlik, hamdardlik va madaniy xilma-xillik tamoyillari asosida qurilgan jamiyatni rivojlantirish, kelajak avlodlar uchun yanada porloq va barkamol kelajakni ta’minlash tarafdorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekistonda axloqiy-estetik tarbiyaning samarali usullari an’ana va yangilik, nazariya va amaliyotning jadal uyg‘unligini aks ettiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimi madaniy merosni integratsiyalash, badiiy ifodani targ‘ib qilish, tajriba asosida o‘rganishni osonlashtirish, texnologiyadan foydalanish va hamkorlikdagi muloqotni rivojlantirish orqali nafaqat intellektual qobiliyat, balki ma’naviy barkamollik va estetik qadriyatga ega bo‘lgan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashga intiladi. O‘zbekiston rivojlanishda davom etar ekan, uning axloqiy va estetik tarbiyaga sodiqligi barqaror bo‘lib, kelajak avlodlar tobora murakkab va o‘zaro bog‘liq bo‘lib borayotgan dunyoda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy kompas va madaniy savodxonlik bilan jihozlanishini ta’minlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2024). JSTGA A’ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA’LIMGA IJOBIY TA’SIRI. Analysis of International Sciences, 2(1), 95-102.

2. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, O. (2024). BADIIY O ‘QISH VA DRAMA O ‘QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 27-32.

3. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(1), 6-15.

4. Maxliyoxon, O., & Mushtariy, M. (2024). SAHNALASHTIRISH FAOLIYATIDA BOLALARDA AKTYORLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 112-116.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО И НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Усманова Зулфия Мусаевна
Ферганский политехнический институт
Старший преподаватель кафедры «Экономика»
Иванова Елена Владимировна,
к.э.н, доцент, заведующий кафедрой менеджмента и отраслевой экономики ФГБОУ ВО "Сибирский государственный индустриальный университет"

Аннотация: в данной статье исследуются вопросы привития нравственных, моральных, эстетических и духовных ценностей в ходе образовательного процесса в целях развития человеческого капитала. Автор приводит выводы и рекомендации в рамках исследования.

Ключевые слова: нравственные ценности, духовные ценности, человеческий капитал, образовательный процесс.

На сегодняшний день особенно актуальными становятся вопросы нравственного и эстетического воспитания в образовательном процессе. Возникают вопросы как организовать воспитательный процесс именно в этом контексте? Какие проблемы возникают в ходе образовательного процесса именно с этой точки зрения? На эти и другие вопросы мы постараемся ответить в нашем исследовании.

С нашей точки зрения образовательный процесс должен осуществляться параллельно с воспитательным. Для становления глубоко развитой личности необходимо владение соответствующими навыками, которые опираются на определённые ценности нравственного и эстетического содержания.

Какие нравственные ценности может привить педагог в ходе преподавания той или иной дисциплины? Ответ на этот вопрос достаточно прост, ценности, которые он ставит во главу угла. Мы можем привести примеры из истории, когда педагоги прививали моральные, нравственные ценности своим воспитанникам. Яркий пример Александр Македонский, учителем и наставником которого являлся Аристотель. В настоящее время возникает угроза ценностям со стороны нашествия, так называемой «массовой культуры». Эта угроза актуальна для многих стран. Идёт стирание ценностей, пропаганда вседозволенности, уходят в прошлое ценности, национальные традиции и устои складывавшиеся веками. Как этому противостоять? С нашей точки зрения здесь уместно привитие любви к своей Родине, к семейному очагу, к национальным традициям и в определённой степени уровня

религиозной грамотности. Мы сталкиваемся с ситуацией когда начинающие педагоги сталкиваются с недостатком воспитания своих учеников.

В ходе образовательного процесса актуально привитие ценностей таких как моральные, нравственные и эстетические. Это любовь к родным, близким, сострадание к ближнему, чувство ощущения красоты природы и другие.

Мы живём в 21 информационном веке. В большинстве случаев среди людей идёт гонка в погоне за материальным достатком и превалируют именно материальные ценности, а духовные и моральные уходят на второй план. Задача педагога во время проведения занятий делать акцент на привитие обучаемым именно этих ценностей, то есть нравственных, духовных и моральных, которые внесут вклад в развитие человеческого капитала.

Актуальные вопросы воспитания для развития человеческого капитала охватывают различные сферы, такие как образование, социальные навыки, цифровая грамотность и т.д. Представим некоторые из таких вопросов:

Цифровая грамотность:

Как обеспечить всеобщее освоение цифровых навыков, необходимых для успешного участия в современном информационном обществе?

Как интегрировать обучение цифровым технологиям в школьные и университетские программы? Подготовка к будущим профессиям: Как адаптировать систему образования для учебных программ, соответствующих будущим требованиям рынка труда?

Как обеспечить более гибкие и инновационные методы обучения для развития многопрофильных навыков? Социальные навыки и эмоциональный интеллект:

Как развивать социальные навыки и эмоциональный интеллект у студентов, чтобы подготовить их к успешному взаимодействию в командной среде? [3].

Как обучение эмпатии и межличностным отношениям может способствовать формированию позитивного социального капитала?

Гендерное и культурное воспитание: как сделать воспитание более инклюзивным и справедливым с учетом гендерных и культурных различий?

Как поддерживать равноправие полов и содействовать развитию лидерских качеств у женщин? В направлении гражданской ответственности и устойчивости актуальны сдедующие вопросы:

Как воспитать гражданскую ответственность и активное участие в общественной жизни?

Как обеспечить воспитание в духе устойчивого развития и ответственного отношения к окружающей среде?

Адаптация к изменениям: как обучение студентов адаптации к постоянным изменениям в технологиях и обществе может подготовить их к быстрому реагированию на новые вызовы?

Как развивать у студентов гибкость и толерантность к неопределенности?

Этические и профессиональные стандарты:

Как интегрировать в воспитание этические нормы и стандарты для формирования профессиональной этики у будущих специалистов?
Как содействовать формированию ответственного и этичного лидерства?
Обучение на протяжении всей жизни: как разработать систему образования, способствующую постоянному обучению и развитию человеческого капитала на протяжении всей жизни?

Какие меры могут содействовать культуре обучения и развития, стимулируя людей к самообучению?
Решение этих вопросов требует усилий со стороны образовательных учреждений, правительственных органов, предприятий и общественных организаций для создания благоприятной среды, способствующей развитию человеческого капитала в соответствии с современными вызовами и требованиями [2].

На региональном уровне развитие человеческого капитала становится ключевым фактором для устойчивого экономического роста, социального развития и повышения качества жизни. Важно учитывать специфику региона, его потенциал и вызовы. Ниже представлены основные направления развития человеческого капитала на региональном уровне:
В рамках образования:
Доступность и качество образования: Обеспечение доступности высококачественного образования для всех слоев населения.
Развитие профессионального образования: Специализированное обучение и подготовка кадров в соответствии с потребностями регионального рынка труда.
Технологические навыки:

Цифровая грамотность: развитие цифровых навыков, необходимых для эффективного участия в современном информационном обществе.
Технологические инновации: Поддержка обучения технологическим инновациям, включая области искусственного интеллекта, блокчейна и других передовых технологий.

Поддержка предпринимательства:
Обучение предпринимательским навыкам: Развитие навыков предпринимательства и поддержка стартапов и малого бизнеса.
Инфраструктура для инноваций: Создание благоприятной инфраструктуры для инноваций и технологического развития [1].

В направлении социальной интеграции и равенства:
Борьба с социальным неравенством: Меры по снижению различий в доступе к образованию и возможностям для всех слоев общества.
Многообразие и включение: Поддержка многообразия и включения в образовании и на рынке труда.

В разрезе здравоохранения: Физическое и психическое здоровье: Программы по поддержке физического и психического здоровья населения.
Медицинское образование: Развитие системы медицинского образования и обеспечение доступа к квалифицированным медицинским услугам.

В контексте культурного и социального развития:
Развитие творческих отраслей: Поддержка культурных и творческих отраслей, способствующих разнообразию и развитию культурного капитала.
Социальные программы: Внедрение социальных программ, способствующих улучшению качества жизни и укреплению социального капитала.

В плане международного сотрудничества: обмен знаниями и опытом: развитие международного обмена в области образования и опыта в различных секторах.
Интеграция в мировое сообщество: Укрепление позиции региона в мировой экономике и общественной сфере.

Успешное развитие человеческого капитала на региональном уровне требует комплексного подхода, включающего сотрудничество между правительственными органами, образовательными учреждениями, предпринимательским сектором и общественными организациями.

Развитие человеческого капитала тесно связано с воспитанием и инновациями, поскольку эти аспекты влияют на уровень знаний, навыков и квалификации людей, что, в свою очередь, определяет их профессиональное развитие и способность адаптироваться к изменяющемуся миру.

Основа знаний и навыков: воспитание играет ключевую роль в формировании базовых знаний и навыков, начиная с раннего детства. Этот процесс создает фундамент для будущего обучения и развития.

Социальные навыки: Воспитание также влияет на развитие социальных навыков, коммуникации и сотрудничества, что является важным аспектом человеческого капитала в современном обществе и бизнесе.
Образование и профессиональное обучение:
Академические знания: Система образования формирует академические знания, необходимые для специализированной деятельности. Образование влияет на уровень общего и специфического человеческого капитала.

Профессиональные навыки: Профессиональное обучение и развитие направлены на формирование конкретных навыков, необходимых для успешной деятельности в рамках определенной области.

С точки зрения внедрения инноваций:

Постоянное обучение: Инновации требуют от людей постоянного обучения и адаптации. Чтобы успешно внедрять инновации, человеческий капитал должен быть готов к постоянному обновлению знаний и навыков.
Творческое мышление: Инновации также связаны с творческим мышлением, и чем более разносторонне воспитан и образован человек, тем выше его потенциал в создании новых идей и подходов.

Экономический рост:
Продуктивность и конкурентоспособность: Высокий уровень человеческого капитала стимулирует экономический рост, так как образованные и квалифицированные люди более продуктивны и способны справляться с вызовами быстро меняющегося рынка.

Следовательно, воспитание и инновации являются движущими силами, формирующими человеческий капитал, который в свою очередь влияет на социальное, экономическое и технологическое развитие общества.

Компании и государства, инвестируя в образование, обучение и стимулируя инновации, могут повысить уровень своего человеческого капитала и обеспечить устойчивость и процветание в будущем.

Литература:

1. Гаибназарова, З. Т. (2016). Развитие человеческого капитала для расширения возможностей трудоустройства в Узбекистане. Научно-аналитический журнал Наука и практика Российского экономического университета им. ГВ Плеханова, (4), 57-63.
2. Абдурахманов, К. Х. (2013). Тенденции развития человеческого капитала Узбекистана. Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова, (8 (62)), 80-83.
3. Абдурахманов, К. Х., Зокирова, Н. К., & Шакаров, З. Г. (2022). Управление человеческим капиталом в условиях цифровизации экономики Республики Узбекистан. Лидерство и менеджмент, 9(1), 219-232.

BADIIY ADABIYOT NAMUNALARI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH ASOSI SIFATIDA

Qanoatova Nazokat

Universitiy of economis and pedagogy NOTM

assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati va bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: nutq o‘stirish, mustaqil fikrlash, fikr bildirish, ertaklar, hikoyalar.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari nutq o‘stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish ta’limiy faoliyatlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni bugungi kunda tizimli ravishda amalga oshirish, bolalarni turli hayotiy vaziyatlarda, muommoli yechim talab qiladigan holatlarda o‘zlari xohlagandek xulosa chiqarish hamda fikr bildirishga odatlantirish bola shaxsini shakllantirishda yuksak natijalarni qo‘lga kiritishga asos bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda. Bugungi kunda o‘zbek bolasini mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatishda adabiy materiallar (ertaklar va turli hajmdagi hikoyalar, og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan rivoyat va dostonlar, she’r va handalar) va tasviriy san’at vositalaridan foydalanishning didaktik yangi namunalarini yaratish, ularni hozirgi davr amaliyotiga joriy etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish va badiiy adabiyot faoliyatlarini tashkil etish maqsadiga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida tarbiyachining adabiy materiallardan qanday foydalanishda. tarbiyachining o‘z sohasi bo‘yicha bilimliligi, kasbiy tajribasi, bir so‘z bilan aytganda, kompetentliligi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritish asosidir. Ushbu paragrafda tarbiyachilarga bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo‘naltirishda ularga metodik yordam ko‘rsatish va metodik jihatdan qo‘llab quvvatlash maqsadi nazarda tutilgan mazkur faoliyatning amaliy

namunasini ertak, hikoya, rivoyat va she’riy matnlar misolida ko‘rib chiqamiz. Masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarining nutq o‘stirish faoliyatlaridan birida bolalarga tanish bo‘lgan eng sodda va jo‘n o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” rasmlari ko‘rsatilgan holda o‘qib beriladi yoki bo‘lmasa uning multfilmi ko‘rsatiladi. Mazkur asarni o‘rgatishda tarbiyachi ta’limning suhbat metodi asosida amalga oshiriladi. Asarning mavjud matni bilan tanishtirish bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishning dastlabki bosqichidir. Ayni vaqtda bu bilim insonni anglash va bu jarayonda o‘zligini kashf etishni anglatadi. Bolalar ertakdagi qahramonlar timsolida, ularning fe’l-atvori, xatti-harakatlari misolida o‘zlarini anglaydilar, tabiatlaridagi yaxshi va yomon fazilatlarni farqlab o‘zlarini o‘zlari tarbiyalaydilar. Aslida oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan tarbiyaning asl mohiyati ham mana shundan iborat bo‘ladi. Ya’ni ota-ona va tarbiyachi bolalarga singdirishi lozim bo‘lgan sifat va hislatlarni ularning o‘zlariga anglatgan holda, o‘zlari tomonidan amalga oshirilishini ta’minlashdan iboratdir. Insonga tashqaridan keladigan tarbiyaning singib ketishi uchun shu hislatlarga nisbatan bolaning o‘zida ijobiy munosabat shakllangan bo‘lishi kerak. Aks holda bu tarbiya bolaning qon qoniga singib ketmaydi. Bolalar bir qator shu kabi hayotiy tajribalarni ertakning mazmuni misolida o‘zlashtiradilar. Ularda tabiiy ravishda har ikkala bosh qahramonga nisbatan salbiy yoki ijobiy ichki munosabat shakllanadi. Biriga nisbatan ijobiy, ikkinchisiga nisbatan esa, o‘zo‘zidan salbiy yondashuv paydo bo‘laveradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchida shakllangan mana shu dastlabki munosabatdan ular uchun oqilona foydalana bilishi va bolaning kelajakdagi yutuqlari uchun xulasalar chiqarishi maqsadga muvofiqdir. Buning asosiy yo‘li sifatida bolalarga mazmunan to‘g‘ri tashkil etilgan, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan savollar bilan murojaat qilish lozim. Avval soddaroq, mulohaza talab qilmaydigan savollar o‘rtaga tashlanadi. Sekin-astalik bilan savol va topshiriqlar murakkablashtirib boriladi. Ba’zi berilgan murakkab savollarga hamma bolalar ham javob bera olmasliklari mumkin va bu talab ham qilinmaydi. Anglab yetgan bola javob bersin, qolganlar uni eshitsin. Shu tinglash jarayoni ham ularning keyingi mashg‘ulotlarda ishtirokiga asos bo‘lishi mumkin. “Zumrad va Qimmat” ertagining matni yoki elektron varianti bilan tanishtirilgach, bolalarning taassurotlari esdan chiqmay turib, ularga dastlab jo‘ngina javob talab qilinadigan savol va topshiriqlar bilan murojaat qilinadi. Ma’lumki, suhbat metodining asosiy didaktik ashyosi savollardir: “Sizga qaysi obraz ko‘proq yoqdi? Zumrad yoki Qimmat obrazimi? Nimasi bilan yoqdi? Qay jihatlari yoqdi-yu qaysi jihatlari yoqmadi? Bu haqida o‘ylab ko‘rib javob bering”.

Albatta, o‘g‘il bolalar ham, qiz bolalar ham Zumrad va cholni ijobiy, kampir va Qimmatni salbiy obraz deya baholashadi. Ammo hammaning ijobiy va salbiy qarashlari bir-biridan farqlanadi. Zumrad yoqqanini, u yaxshi qiz ekanini aytishadi. Qimmatni esa aksincha, dangasa, ishyoqmas va qo‘pol bo‘lgani uchun yoqtirishmaydi va h.k. Buning sababi, avvalo, savolning o‘zi bolalardan shu javoblarni talab qilmoqda, qolaversa, bolalar bundan boshqacha javob bo‘lishi mumkinligini tasavvurlariga ham keltirmaydilar. Ular aytishlari kerak bo‘lgan

gaplarni tarbiyachilari, ota-ona, bobo-buvilari ularning ruhiyatiga singdirib yuborgan fikrlarni aytadilar. Barchamizga ma’lumki, har bir inson yaratganning alohida yaratig‘i (in’omi) va ertaklarning qahramonlari ham shu in’omning tipik obrazi hisoblanadi. Qaysidir bolada ijobiy yana qaysidadir salbiy fikr mulohazalarning ortiqroq bo‘lishi ular shakllangan va yashab o‘tayotgan muhitning, tomirlarida oqayotgan qon va ular kunsayin o‘zlashtirayotgan tarbiyaning mahsulidir. Tom ma’noda olganda yomon odam bo‘lmagani singari ideal darajadagi yaxshi odam ham bo‘lmaydi. Har bir insonning tabiatida o‘ziga yarasha ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Bolalarni bu haqiqatlarni farqlashga yo‘naltirish uchun ularning oldiga beriladigan savolni boshqacharoq shaklda: “Zumradning fe’lida qanday ijobiy fazilatlar mujassamlangan? Avvalo, shularni sanab bering,Ular Zumradda qachon, qanday qilib shakllanib borgan? O‘ylab ko‘ringchi, Zumradning fe’lida ham salbiy jihatlar bormi? Qimmatning fe’lida ijobiy sifatlar mavjudmi? Ular nimalarda namoyon bo‘ladi, sizningcha? Qimmatdagi, dangasalik qo‘pollik, ishyoqmaslik, ko‘ra olmaslik sifatlari qachon, qanday qilib paydo bo‘lgan? Buning sababchisi kim yoki nima deb o‘ylaysiz?” tarzida savollar bilan murojat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday vaziyatlarda bolalar o‘zlarining ongida avtomatlashib qolgan tayyor javoblarni emas, balki bu kabi vaziyatga o‘zgacharoq yondashgan holda, o‘zlari kashf etgan yangi javoblarni berishga majbur bo‘lishadi. Bu savollar mohiyatidagi g‘oyalar nafaqat bolalar, balki “tarbiyachi”larning o‘zlari uchun ham qiziq. Ular bu savollarga bolalar bilan birgalikda javob topadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.N.X.Begmatova Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimediya texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nomzodi .diss. – Qarshi, 2012.

2. Nurullaeva Sh.O‘. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari. Ped. fan. nomz diss. – Qarshi, 2005.

3. O.S.Ushakova, E.M.Strunina “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi”-M: Vlados, 2004 yil.

YOSHLARNI TARBIYALASHDA SPORT, MA’NAVIYAT VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Qayipnazarov Nurlan Baxitbay o‘g‘li
ChDPU III-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sportchilarining Olimpiya o‘yinlaridagi qo‘lga kiritgan yuqori natijalari bayon qilingan. Sport, ma’naviyat va qadriyatlarning yoshlarga tarbiyaviy axamiyati to‘g‘risida fikrlar yuritiladi. Kurashning qadriyat ekanligi maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Kurash sport turi, Olimpiya o‘yinlari, qadriyat, ma’naviyat, allomalar, olimlar , musobaqalar, terma jamoa.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishni, aholining, ayniqsa, bolalar va o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishning faol shakllarini ta’minlovchi amaliy tadbirlar bosqichma-bosqich

amalga oshirib kelindi. O‘zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog‘lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Respublikamizda oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitasiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatimizning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarda sportga bo‘lgan havas va intilishni, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko‘nikmalarni rivojlantirish, sport turlari bo‘yicha mamlakat terma jamoalariga sport zaxirasini tayyorlash, o‘quvchi va talabalarni sport mashg‘ulotlariga uzluksiz jalb etishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yurtimizda bir qator farmon va qarorlar chiqarildi, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 martdagi “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlarida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida hamda Mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyatlari va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turganligi ta’kidlangan. Mazkur vazifalarni ta’lim tizimi negizida amalga oshirish

Ma’lumki, barkamol avlod mustahkam sog‘likka ega bo‘lmog‘i lozim. Shuni hisobga olib, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga katta etibor berildi. MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida “Jismoniy tarbiya va sport” to‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi. Bu Qonun va qarorlar mazmuni va mohiyati jihatidan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda kurash sport turining roli va o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi kurashni jismoniy tarbiya va sportning muhim vositalaridan biri sifatida rivojlantirib kelmoqda. Bu borada ko‘pgina ilmiy va amaliy ishlar qilinmoqda. Kurash ilmining yetakchi mutaxassis – olimlari A.Atoyev, J.Tursunov, K.Yusupov, O‘.Ibrohimov, O.Toymurodov, J.Nurshin, A.Ilov va boshqa olimlarning ilmiy

izlanishlari natijasida kurashning hozirgi zamon ilmiy, nazariy va amaliy asoslari yaratildi, uning yangicha qonun-qoidalari ishlab chiqildi.

Ajdodlarimiz Alpomish, Rustam, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Pahlavon Mahmud va Bobur kabi afsonaviy tarixiy shaxslarning kamol topishida kurashning roli va o‘rni beqiyosdir. Ko‘rinib turibdiki, kurash O‘zbekistonning tarixiga ko‘ra juda qadim davrlarga borib taqaladi.

Kurash tili, dini, millatidan qat’iy nazar jaxon xalqlarining ko‘ngil to‘ridan joy oldi va ular xech ikkilanmasdan o‘z leksikalarida "Ta’zim", "Kurash", "Xalol", "Yonbosh", "Chala", "G‘irrom" kabi o‘zbek so‘zlaridan bajonidil foydalanmoqdalar.

Azal-azaldan jismoniy tarbiya va sport hayotimizning tarkibiy qismlaridan biri sanalgan va uning rivojlanishi har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘langan.

Ayniqsa, keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sportning barcha yo‘nalishlari beqiyos darajada o‘sdi. Buni sportchilarimizning Afina – 2004, Pekin-2008, London-2012, Rio-2016 Olimpiya o‘yinlaridagi ko‘rsatkichlari isbotlab turibdi.

Sportning ko‘plab turlari bo‘yicha respublikamizdagi terma jamo azolarimiz jahon miqqiyosidagi musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarlarni egallamoqdalar. Bugungi kunda jahon ahli Muhammadqodir Abdullayev, Mirjalol Qosimov, Armen Bagdasarov, Artur Taymazov, Abdulla Tangriyev, Rustam Qosimjonov, Abbos Atoyev, Yekatirina Xilko, Dilshod Mansurov, Rishod Sobirov, Xasanboy Do‘smatov, Shaxram Giyosov, Odil Axmedov, Muxsin Xisomidinovlarni serquyosh O‘zbekiston farzandlari ekanliklarini yaxshi biladilar. O‘zbekiston farzandining ismi, sharifi xorijiy sport mutaxassislari-yu, ishqibozlarining qalbiga mustahkam o‘rnashib qolmoqda.

Sportchilar musobaqalashuv jarayonlarida jasoratlilik, matonatlilik, jismoniy baquvvatlilik, iroda va qadriyatlilik kabi fazilatlar sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali amalga oshishini yaxshi biladilar va unga amal qiladilar. Yuqorida qayd etib o‘tilgan sportchilar va ularning natijalari fikrlarimiz isbotidir.

Ma’naviyat – xalq tarixi, madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunish orqali aylangan qudratli kuch bo‘lib, u har bir insonning, millatning, davlatning kuch-qudrat manbaidir. Ma’naviyat-qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishdir. Sport mashg‘ulotlari va musobaqalari jarayonidagi sportchi faoliyati maqsad yo‘lidagi harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, u qalb, vijdon, aql va qo‘l amri bilan mehnat qilishdir.

Shunga amal qilgandagina sportchi g‘alaba nashidasini suradi. Ma’naviyat bo‘lmagan joyda baxt-saodat ham, iymon-e’tiqod ham bo‘lmaydi va aksincha.

Azal-azaldan jismoniy tarbiya va sport hayotimizning tarkibiy qismlaridan biri sanalgan va uning rivojlanishi har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘langan.

Ayniqsa, keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sportning barcha yo‘nalishlari beqiyos darajada o‘sdi. Buni sportchilarimizning Afina – 2004, Pekin-2008, London-2012, Rio-2016 Olimpiya o‘yinlaridagi ko‘rsatkichlari isbotlab turibdi.

Sportning ko‘plab turlari bo‘yicha respublikamizdagi terma jamo azolarimiz jahon miqqiyosidagi musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarlarni egallamoqdalar. Bugungi kunda jahon ahli Muhammadqodir Abdullayev, Mirjalol Qosimov, Armen Bagdasarov, Artur Taymazov, Abdulla Tangriyev, Rustam Qosimjonov, Abbos Atoyev, Yekatirina Xilko, Dilshod Mansurov, Rishod Sobirov, Xasanboy Do‘smatov, Shaxram Giyosov, Odil Axmedov, Muxsin Xisomidinovlarni serquyosh O‘zbekiston farzandlari ekanliklarini yaxshi biladilar. O‘zbekiston farzandining ismi, sharifi xorijiy sport mutaxassislari-yu, ishqibozlarining qalbiga mustahkam o‘rnashib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sportchilarni tayyorlash o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Bu jarayon murabbiy yoki mutaxassisdan amaliy bilim va tajriba talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 martdagi “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi

3. Haydarbek Bobobekov v. b. “O‘zbek kurashi dovrug‘i” Toshkent 2002 y.

4. J.Tulenov. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. T, 1999 y.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH DARSLARIDA SHE’R O‘QITISH METODIKASI

Qodirov Umidjon Lapas o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Bu maqola boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida she'r o'qitish metodikasini muhokama qiladi. Bu metodika, o'quvchilarga she'rning mantiqiy va ma'naviy jihatlarini tushunish va uning tahlil qilish orqali shaxs ma'nolarini qayta tadbirlashni o'rgatishga qaratilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida she'r o'qitishning ahamiyati, muhimliklari va samarali usullari bayon qilinadi. Bu metodikalar o'quvchilarning til tushunchalari va mantiqiy tasavvurlarini rivojlantirish, ularning she'r matnlarini mohiyatliroq tushunishiga yordam beradi. Maqola o'quvchilarning she'rning turli aspektlariga qiziqishini oshirish, tarjimonlik, tahlil, muniqish va kreativ mashg'ulotlarni qanday qilib integratsiyalashni ko'rsatadi. Maqolada aynan qadam-ba-qadam usullar ko'rsatiladi va boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida she'r o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan muhimliklar ta'kidlanadi.

She'r o'qitish metodikalari boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida juda muhimdir. Quyidagi maqolada boshlang'ich ta'lim o'qitish darslarida she'r o'qitishning eng yaxshi metodikalari haqida ko'proq ma'lumot beraman:

"Boshlang'ich Ta'lim O'qish Darslarida She'r O'qitish Metodikalari"

Boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida she'r o'qitish metodikalari o'quvchilarga she'rning o'ziga xos jihatlarini tushuntirish va ularga she'r matnlarini tushunish, tahlil qilish va shaxs ma'nolarini qayta tadbirlashni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Quyidagi metodikalar boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida muvaffaqiyatli she'r o'qitish uchun foydalanilishi mumkin:

1. "Kontekstual tushunchalar bilan boshlash" : She'r matnlari o'quvchilar uchun tanish va ma'qul bo'lishi uchun o'zlarining hayotidan, muhitidan va ma'naviyatidan chiqishlar yaratish mumkin. She'r matnlarini bu kontekstda ta'lim etish, o'quvchilarning ular bilan bog'liqliklarini tushuntirishga yordam beradi.
2. "Interaktiv dars usullari": She'r matnlarini o'quvchilar bilan birgalikda o'qish, tahlil qilish va shaxs ma'nolarini izlash uchun interaktiv dars usullari foydalanish muhimdir. Mazmun bo'yicha muzokaralar, o'qish va tahlil mashg'ulotlari, dramatik adashishlar kabi interaktiv faoliyatlar o'quvchilarning ma'naviy tushunchalarini o'zlashtirishga yordam beradi.
3. "Comparative analysis (taqqoslash tahlili)" : She'r o'qishda o'quvchilarga bir necha she'r yozuvlarini taqqoslash va ta'lim berish yaxshi metod bo'lishi mumkin. Bu, o'quvchilarga she'rning murakkabliklarini va turli muammolarga qanday hal qilish kerakligini tushuntirishga yordam beradi.
4." Muvofiqlikning qo'llanilishi": Boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida she'r o'qishni yaratuvchi va qiziqarli qiluvchi qo'llanmalar, videolar, multimediyalı darsliklar va onlayn resurslar o'quvchilarga she'r dunyosini yanada yaqinroq ko'rishiga imkoniyat beradi.
5. "O'qitishning shakllantirilishi" : She'r o'qitish metodikasi xalqaro standartlarga muvofiq ravishda o'qitilishi kerak. Bu, o'quvchilarni she'r nazariyasiga tushirish va ularga she'rning madaniy va tarixiy mohiyatini tushuntirishga yordam beradi.
6. "Creative assignments (yaratuvchi vazifalar)": O'quvchilarga she'r matnlarini o'rganish uchun yaratuvchi vazifalar berish juda muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarga o'z she'rlarini yozish, she'r matnlarini tarjima qilish yoki ularning tahlilini yozish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning tushunchalarini chuqurroq tushuntirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida she'r o'qitish, o'quvchilarga til tushunchalari va tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatishga yordam beradi va ularning ma'naviy tushunchalarini rivojlantirishga qiziqarli va samarali usullardan biridir.

Xulosa shuki, “Boshlang‘ich sinflarda she’r yozishni o‘rgatish” loyihasining yaratilishi haqida qisqacha ma’lumot berishdan iborat. Ushbu kadrlar tayyorlash maktabim tumanidagi o'qituvchilarga boshlang'ich sinflarda she'r yozishni o'rgatish bo'yicha ma'lumot va yo'nalish berish uchun yaratilgan. She'r yozishga va she'riyatni o'rgatishga bo'lgan qiziqishim meni ushbu yozish shakliga oid ma'lumot va manbalarni topishga undadi. Ushbu ko'rsatma talabalarga ijodiy yozishni rivojlantirishda yordam berishi mumkin bo'lgan ko'plab afzalliklarni bilib olgandan so'ng. Boshqa o'qituvchilarga ham ushbu ma'lumotlardan foydalanishga yordam berish zarurligini his qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar
1.Barone, D. va Taylor, J. (2006). Talabalarning yozishni takomillashtirish, K-8: Ma'no yaratishdan yuqori stavkalargacha! Ming Oaks, Kaliforniya: Corwin Press.
2.But, D. va Mur, B. (2003). She'rlar iltimos! Bolalar bilan she'r bo'lish, Markham, Ontario: Pembroke Publishers.
3.Bridges, L. (1997). Yozish bilish usuli sifatida. York, ME. Stenhouse nashriyoti.
4.Kalkins, L. M. (1994). Yozishni o'rgatish san'ati. Portsmut, NH: Heinemann.
5.Kley, M. M. (1975). Men nima yozdim? Yozish harakatining boshlanishi. Portsmut, NH: Heinemann.

BOLALARNI UYG‘ONISHGA CHORLOVCHI SHE’RIYAT

Rahmatulla Barakayev,
Filologiya fanlari nomzodi, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Annotatsiya: maqolada istiqlol arafasi o‘zbek bolalar she’riyatida mavzu va talqindagi yangilanishlar haqida fikr yuritilib, XX asrning 80-yillari birinchi yarmida hurfikrlilikning keskin bo‘g‘ilishi bolalar she’riyatida ham majoziy fikr kuchayishi, ijodkorlar dardlari imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga ko‘chishi bilan xarakterlangan bo‘lsa, 80-yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi bolalar she’riyatida ilk bora tom ma’nodagi erksevarlik tuyg‘ularining ochiq-oydin namoyon bo‘lishiga olib kelgani hamda istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy qadriyatlarimiz tiklanishining o‘zbek bolalar she’riyatida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi bolalar she’riyatimiz yetakchi namoyandalari ijodi misolida tahlil va tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar she’riyati, hurfikrlilik, imo-ishoralar, ramzlar, majozlar, erksevarlik, qadriyatlar, qiyos, adabiy-estetik, ma’rifiy-tarbiyaviy.

Yer yuzida dastlabki ota-onaning birinchi farzandi dunyoga kelishi bilan bolalar adabiyoti ham maydonga kelishi inkor qilib bo‘lmas haqiqat. Chunki bolalar adabiyotining asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash manfaatlariga qaratilgandir. Binobarin, bolalar adabiyoti namunasi yosh avlodni ilm-ma’rifat nuridan bahramand bo‘lishga chorlaydimi, kasb-hunar o‘rganishga chaqiradimi, eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladimi, bulardan qat’i nazar, uning bosh vazifasi farzandlarimizni ma’naviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir. Demak uning asosiy o‘ziga xosliklaridan biri faqat adabiy-estetik emas, balki ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi bilan ham belgilanadi.

Biroq, har bir davr adabiyoti muayyan ma’noda shu davr ijtimoiy-siyosiy hayotining o‘ziga xos badiiy in’ikosi hamdir. XX asrning 80-yillari o‘zbek bolalar adabiyotini shu ma’noda dolg‘ali, qasirg‘ali davr adabiyoti deb baholash mumkin. Zero, 80-yillarning birinchi yarmida hurfikrlilikning keskin bo‘g‘ilishi dastlab badiiy adabiyotda, ayniqsa, she’riyatda majoziy fikr kuchayishi, ijodkorlar dardlari imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga ko‘chishi bilan xarakterlansa, 80-yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi badiiy

adabiyotda tom ma’nodagi erksevarlik tuyg‘ularining ochiq-oydin namoyon bo‘lishiga olib keldi. Inchunin, 80-yillar shu ma’noda uyg‘onish, tozarish fasli hamdir.

Yuqorida 80-yillar bolalar she’riyatida ramzlar, timsollar kuchaygani va uning ba’zi sabablari haqida fikr yuritgan edik. O‘zbekiston xalq shoiri, ushbu davr bolalar adabiotining ulkan namoyandasi Anvar Obidjon she’rlari, ayniqsa, bu borada alohida ahamiyatga molikdir. Uning she’rlarida istibdod tig‘i ostida bo‘yni egilgan bo‘lsa-da, erk his-tuyg‘ulari qalbini tark etmagan xalqimiz timsoli ramzlarga o‘ralgan holda tasvirlanadi. “Kumush uy” turkumidagi “Yaylovni sog‘ingan qo‘y” she’ri ana shunday asarlardan. Aslida, “Kumush uy”ning o‘zi ham Vatan ramzi. Zero, Ipak qurti qurgan eshigi-derazasi yo‘q kumush uy xalqimizni yetmish yil tentiratgan kelajagi qorong‘u, xayoliy sotsialistik tuzum bo‘lsa, “Yaylovni sog‘ingan qo‘y” istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni to‘q bo‘lsa-da, qadri yo‘q, boshi egiklar timsoli:

- Ishlar qalay, -
Desam, Qo‘y
Javob berdi
Surib o‘y:
- Kamchilik yo‘q
Oziqdan...
Bezor bo‘ldim
Qoziqdan [Анвар Обиджон. 1986; 24].

“Aka-uka” she’rida mustaqil Vatan kelajagi bo‘lmish o‘sib kelayotgan yosh avlod ramziy yo‘sinda kechagi kunimizdagi qo‘li bog‘liq, ko‘zi bog‘liq, istibdoddan yurak oldirib qo‘ygan katta avlodga qiyosllanadi. Akaning pastga, jarlikka “taka-puka termilishi” bejiz emas, chunki jarlik, aslida, tubanlik ramzi, ikkinchidan esa, uning ko‘z oldida xalqimizning mash’um qatag‘onlar qurbonlari bo‘lgan minglab farzandlari taqdiri turibdi:

Jar bo‘yida turishar
Aka-uka.
Aka pastga termilar
Taka-puka.
Yuksakdagi lochinga
Boqar uka,
Go‘yo ko‘kda jim qanot –
Qoqar uka [Анвар Обиджон. 1986; 23].

Ukaning nigohi ko‘kda parvoz qilayotgan lochinga tikilgani bejiz emas. Chunki ko‘k ham, unda parvoz qilayotgan lochin ham, aslida, erk ramzlari, ukaning esa parvozi baland, nigohi istiqlolning yorishib kelayotgan porloq nurlariga tikilgan. Shu bois uka yosh kitobxon ko‘z o‘ngida Lochin yanglig‘ erkin, erki uchun kurashga tayyor Inson timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Uchinchi polapon” she’rida “Aka-uka”dagi mavzu davom ettiriladi, yanada rivojlantiriladi. She’rda erkin qush – Lochin farzandlarining yovuzlik ramzi Oqilon bilan hayot-mamot jangi qalamga olinadi. Yovuz Oqilon onasini yordamga chaqirib

chinqirgan ikkita polaponni bnr zumda qoniga bo‘yaydi. Lekin inda Lochinning uchinchi polaponi ham bor. Garchi u norasida go‘dak bo‘lsa-da, uzoqlardagi onasini yordamga chaqirib yig‘lashdan manfaat yo‘qligini tushunib yetadi va o‘zini o‘zi himoya qilib, qattol dushmanni cho‘qib tashlaydi. She’r kelajakka yulsak ishonch ruhi bilan sug‘orilgan:

Ajdod qoni, o‘ch hissi
Berdi unga kuch, dalda.
Cho‘qib oldi raqibin
Bo‘yin cho‘zgan mahalda.
Cho‘chib o‘tli nigohdan
Yov to‘lg‘anar dovdirab,
Mag‘rur turar yosh Lochin
Boqmas ko‘kka jovdirab [Анвар Обиджон. 1986; 62-63]

satrlarida erk uchun kurashgan, dushmanga qarshi doimo omonsiz kurashib kelgan ajdodlar ruhi mard farzandlarga bir umr kuch, dalda berishi tuyg‘ulari yetakchilik qilsa, she’r:

U biladi,
Onasi –
Hozir olis bir joyda.
Bo‘m-bo‘sh ko‘kka termilib
Qichqirmoqlik befoyda.
O‘chkor boqar qotilga
Onaning mard Lochini...
Omon qolsa,
Bir kun u –
Yanchar Ilon boshini [Анвар Обиджон. 1986; 63]

satrlari bilan tugar ekan, undagi qotilga o‘chkor boqayotgan uchinchi polaponning bir kun Ilon boshiga yetishi, dushmanidan omonsiz o‘ch olishiga ishonch ruhi yosh kitobxon qalbiga ham ko‘chib o‘tadi, hayot uchun, erk uchun kurash tuyg‘ulari barhayotligiga ishonch tug‘diradi.

“Yantoqlar haqida qo‘shiq” she’ri ham ozodlik, erk uchun kurash tuyg‘ulari yetakchilik qilishi bilan e’tiborga molikdir. “Suvsizlikdan so‘lmasdan, garmseldan jon saqlab, yovuz sahroni yengib” yashayotgan “yantoqlar”, aslida, xalq ramzi. Garchi u “yovuz sahro”da “suvsizlikdan so‘lish”ga, “Garmsel”ning o‘tli shamollari ta’sirida asta-sekin o‘limga mahkum qilingan bo‘lsa-da, biroq “yantoqlar”ning chuqur o‘rnashgan, mustahkam ildizi har qanday sharoitda ham yashash uchun kurashga chorlaydi, shu bois ham yantoqlar doimo gullaydi, meva tugadi, kelajak avlodni yaratadi. Binobarin, zukko kitobxonning sinchkov nigohi bu she’rda xalqimizning istibdod tig‘i ostida o‘tgan keyingi yuzlab yillar mobaynidagi tarixi ramziy yo‘sinda aks ettirilganini darrov payqab oladi. Shoir:

Ezib o‘tdi yilqilar,
Ezib o‘tdi nortuya,
Tiklandingiz qaytadan

Olamda biz bor, deya,
Balli sizga, yantoqlar!
Yancholmadi bo‘ronlar,
Kuymadingiz otashdan
G‘animlar ham hayrondir
Bunday chidam, bardoshdan,
Balli sizga, yantoqlar! [Анвар Обиджон. 1986; 63]

der ekan, bu misralardagi “yilqilar” va “nortuya” ham yurtimizga bostirib kelgan turli g‘animlar timsoli yanglig‘ namoyon bo‘ladi. Chingizxon suvoriylarining yilqilari va arablarning tuyalari oyog‘i ostida ezilgan, toptalgan xalqimiz o‘zini baribir tiklab olgani, uni turli taloto‘plarning bo‘ronlariyu otashlari ham yo‘q qilolmaganidan g‘animlar-da hayronliklari ishonarli tasvirlangan. Ehtimol, yosh kitobxon bu imo-ishoralar, ramzlarni to‘la tushunmas, biroq ramzlar, timsollarga asoslangan asarlar shunisi bilan ham xarakterliki, ulardan har bcir kitobxon o‘ziga kerakli narsani uqib oladi. Barcha yoshdagi kitobxonlarga mo‘ljallangan bunday asarlar shu boisdan ham mazmunan ko‘p qatlamli bo‘ladi. Chunki “she’r – tuyg‘u suvrati. Unda emotsiya, ramz, obraz, badiiy san’at bo‘lishi kerak; she’rda shoir sub’ekti, individual uslubi, «men»i, o‘z ovozi aks etishi lozim” [Каримов Б. 2016; 86].

Miraziz A’zamning 2000-yilda chop etilgan “Qirq bolaga qirq savol” to‘plamidagi qirq savoldan iborat turkum shoirning bolalarga savollaridan iborat. Uning savollari nafaqat yosh kitobxonni, balki kattalarni ham o‘ylatib qo‘yishi bilan e’tiborga molikdir. Fikr dalili uchun ba’zi savollarga murojaat qilaylik. Birinchi savol:

Qaysi bog‘da qanday meva?
Qay chamanning gulisiz?
Elingizning oti nima?
Qaysi millat o‘g‘lisiz?
Yurtingizni sevasizmi?
O‘zbekmisiz, turkmisiz?
Elni obod etasizmi
Yo Vatanga yukmisiz? [A'zam, Miraziz. 2005; 186]

Shoir dastlabki savoldanoq masalani juda jiddiy qo‘yadi. Aslida, uning avvalgi she’riy to‘plamlarida ham yosh kitobxonlarga murojaat ularning fahm-farosatiga komil ishonch bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, shoir “bolalar hali yosh, bu gaplarga hali ularning aqli yetmaydi” demaydi, balki “yosh chog‘laridanoq ular bilan tengdosh singari, hurmatlarini joyiga qo‘yib, barcha mavzularda gaplashish mumkin, qaytaga bunday murojaat ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini yanada mustahkamlaydi, fikrlarini charxlaydi” deb hisoblaydi. Yuqoridagi dastlabki savol ham ayni shu jihati bilan e’tiborga molik. Shoir bolalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Elingizning oti nima // Qaysi millat o‘g‘lisiz?” deb savol beradi. Birinchi savolning sakkiz satrida bola (yosh kitobxon)ga bir-biridan jiddiy sakkiz savol bilan murojaat qilinar ekan, har bir savol keyingi qismga bevosita bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi, masalani yanada qat’iylashtiradi. Shaharlar ko‘cha-ko‘ylarida o‘zlarining go‘yoki madaniyatliroq ekanliklarini ko‘z-ko‘z qilish uchun hamrohlariga o‘zga tillarda murojaat qilayotgan

yigitchalar yoki qizlarga koʻzimiz tushar ekan, shoir ushbu savollarida naqadar haqligiga yana bir karra guvoh boʻlamiz.
Sakkizinchi savol ushbu nuqtai nazardan yanada xarakterli:
Nega bizning yurtimizda
Ozod degan bola koʻp?
Erkin degan undan-da koʻp,
Hurriyati yana koʻp.
Ozod, Erkin, Hurriyat deb
Ot qoʻyganda otalar
Ne xayolga borishdiykin?
Qaysi bola aytolar? [A'zam, Miraziz. 2005; 188-189]
Rostdan ham, nima uchun yurtimizda Ozod, Erkin, Hurriyat degan nomlar koʻp? Bu nomlarni qoʻyganda otalar bolalarimiz ozod, erkin boʻlsinlar, yurtimiz hurriyatga erishsin degan niyatlarni koʻzda tutmaganmikanlar? Shoir savollarni ana shunday ketma-ket qalashtirar ekan, ushbu satrlari bilan yosh kitobxonlar qalbida xalqimiz bir umr orzu qilgan ozodlik, erkinlik, hurriyat degan orzu-umidlar roʻyobga chiqishi uchun, ta'bir joiz boʻlsa, istiqlol binosining bitta mustahkam ustunini tiklashga harakat qiladi.
Oʻn yettinchi savol yosh kitobxonni bundan-da oʻylantirib qoʻyadi:
Shiroq bobo qanchalar hur, a?
Temur bobo qanchalar zoʻr, a?
Biz nimaga tobemiz, tarqoq?
Nima uchun qalbimiz qoʻrqoq? [A'zam, Miraziz. 2005; 191]
Ushbu she'r 1988 yilda, ya'ni ozodlik, erkinlik, hurlik degan tuygʻular qalbimizda endi nisbatan ochiqroq chechak otayotgan paytda yaratilgan. Shu sababli ham undagi barcha savollar yosh kitobxon qalbidan tobelik, tarqoqlik, qoʻrqoqlik singari illatlarni siqib chiqarishga, ana shu ritorik soʻroqlar orqali pokiza murgʻak qalblarni uygʻotishga xizmat qiladi. Nazarimizda, ushbu savollarni Anvar Obidjonning yuqoriroqda tahlilga tortilgan "Aka-uka" she'ri bilan qiyoslash ehtiyoji borday. Chunki, har ikkala she'rda ham turli istilolar oqibatidagi qirgʻin-barotlaru shoʻro davri qatagʻonlaridan yurak oldirib qoʻygan katta avloddan koʻra hali qalbi toza, yuragi "aka"lar qoʻrquvidan xoli, nigohi koʻkda erkin parvoz qilayotgan burgutga tikilgan yosh avlodga ishonch tuygʻulari barq urib turadi.
Bu oʻrinda shuni ham qayd etish kerakki, Anvar Obidjonning yuqorida tahlilga tortilgan she'rlarida ramziylik yetakchi oʻrin tutsa, Miraziz A'zamning "Qirq bolaga qirq savol"ida yosh kitobxonga toʻgʻridan toʻgʻri murojaat qilish tamoyili ustunlik qiladi. Nazarimizda, Miraziz A'zamning bolalarga ochiq murojaat qilish tamoyilining yosh kitobxon ongiga, uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sirining kuchi yanada yuqoriroq. Chunki bu savollarga javob izlash yosh kitobxon ongini, dunyoqarashini uygʻotadi, unda hayotga, oʻzi yashayotgan jamiyatga faol munosabat tuygʻusini shakllantiradi, "tasvir vositalari uygʻunligi, oʻzaro chambarchas bogʻlanib ketganligi, biri ikkinchisini keltirib chiqarganligi tasvir mukammalligini ta'minlaydi" [Йўлдошев Қ. 2019; 131].

Aslini olganda, qirq savolning barchasini mufassal tahlil qilishga ehtiyoj bor, chunki ular bir-biriga shu qadar chambarchas bog‘liqki, xuddi imoratga ketma-ket terilayotgan g‘ishtlar devorni mustahkamlagani singari yosh kitobxon fikr olamini charxlashga, uning qalbida ona-Vataniga, eliga, yurtiga, xalqiga, millatiga, ota-onasiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga, erk tuyg‘usini shakllantirishga, elimiz, yurtimiz ertasiga, o‘zining kelajagiga ishonch tuyg‘usini kamol toptirishga xizmat qiladi.

She’r shoirning o‘ziga xos xotimasi bilan yakunlangan:

Mana, bitdi hammasi –
Qirq bolaga qirq savol.
Topgan bola o‘lmasin,
Baxti bo‘lsin barkamol.
Endi qalbim kutadi
Qirq boladan qirq javob.
Yurt tanigan yutadi,
Topadi minglab javob.
Derki Miraziz A’zam:
Ko‘ravering tayyorlik.
Haq deb bosilgan qadam
Keltirar baxtiyorlik [A'zam, Miraziz. 2005; 194].

Ma’lumki, ma’naviyatimizda ijtimoiy-ma’naviy qarashlarning o‘zgarishi, yangilanishi davri bo‘lmish ushbu davr ijodkorlar oldiga yanada ulkan talablarni qo‘ydi. Uyg‘onish, tozarish fasli bo‘lgan ushbu davrda xalqimiz tom ma’noda uyg‘ondi, o‘zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e’tiqodlariga qaytdi. 80-90-yillar o‘zbek bolalar she’riyatining eng sara namunalari shu ma’noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg‘ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma’nodagi ona Vatan – kindik qoni to‘kilgan muqaddas Zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiati – qir-adirlarini, tog‘u o‘rmonlarini, bog‘-rog‘larini, daryoyu ko‘llarini avaylab-asrash tuyg‘ularini shakllantirishga; «O‘zbekiston» deb atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari – mutafakkir olimu shoirlari, ulug‘ Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdorlari sha’niga munosib farzand bo‘lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda H.Imonberdievning «G‘aroyibkent hangomalari» to‘plamidagi «Alla» she’ridagi quyidagi misralar beixtiyor yodga tushadi:

- Ana, Bo‘ri kelyapti!
Uxlay qol, ovunchog‘im.
Qo‘y shunday deb qo‘rqitib,
Uxlatar qo‘zichog‘in.
- Vuy, anovi ilonni!
Uxla tez, bolajonim, -
Chumchuq shunday qo‘rqitib,
Uxlatar polaponin.
- Uxla, Olabo‘jiyov

Ko‘rsatgan qorasini.
- Odam shunday qo‘rqitib,
Uxlatar bolasini.
Ona Burgut allalar:
- Uxla, kuchga to‘lib o‘s.
Ushbu tog‘-tosh, osmonning
Hukmdori bo‘lib o‘s!
Pisand etmay xatarni
Shundanmi polaponi,
Tushlarida charx urar
To‘ldirib keng samoni [Имонбердиев Ҳ. 1994; 21-22].

Bu she’r go‘yoki, biz har doim eshitib yurgan allaning boshqacha bir varianti. Aslida, ona bolasini uxlatish uchun uning ertaga ulg‘ayib, hamma havas qiladigan ajoyib inson bo‘lishini ta’riflovchi satrlardan iborat alla aytadi. Biroq bolaning uyqusi kelmay, injiqligi haddan oshaversa, endi ona uni qo‘rqitib uxlatishga majbur bo‘ladi. Bu she’rda ham xuddi shunday: shoir jonlantirishning ajoyib imkoniyatidan foydalanib, qo‘y va chumchuqni bolasiga alla ayttiradi. Dastlabki ikki to‘rtlikda qo‘y qo‘zichog‘ini uxlatish uchun uni o‘zining eng dahshatli dushman – bo‘ri bilan qo‘rqitadi, chumchuq polaponini uxlatish uchun undan ham dahshatli dushman – ilon bilan qo‘rqitadi. Uchinchi to‘rtlikda navbat insonga keladi: ona chaqalog‘ini uxlatish uchun uni afsonaviy olabo‘ji bilan qo‘rqitadi. To‘rtinchi to‘rtlikda kutilmaganda qarshilantirishga duch kelamiz. Ona Burgut polaponini uxlatish uchun uni qo‘rqitmaydi, balki “Uxla, kuchga to‘lib o‘s, // Ushbu tog‘-tosh, Osmonning hukmdori bo‘lib o‘s” deya alqaydi. Yakuniy to‘rtlik qissadan hissa, ona ta’rifidan ilhomlangan polapon hatto tushlarida ham keng samoni to‘ldirib charx uradi. Ma’lumki, qo‘y yuvoshlik, qo‘rqoqlik ramzi, chumchuq ham shunday, burgut esa qushlar hukmdori, erk timsoli, shu sababli uning polaponi qonida ham erk tuyg‘usi gupiradi. She’rdan kelib chiqadigan asosiy xulosa ham “qo‘rqoqdan emas, botirdan o‘rnak, ibrat ol”, ya’ni, ana shu yurt bizniki, demak, bizning farzandlarimiz “shu yurtning egalarimiz, shu yurtning ertasimiz” degan tuyg‘u bilan o‘sib-ulg‘ayishlari kerak.

Nazarimizda, ushbu kichik she’r ulkan ma’naviy-ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘zbek bolalar adabiyoti mustaqil O‘zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod tarbiyasiga mas’ul ekan, farzandlarimizning erksevar, mard, komil insonlar bo‘lib yetishuvi yo‘lida doimo baland pardalarda yangramog‘i kerak. Toki ijodkorlarimizning har bir asari yosh kitobxon qalbida ezgulik, insoniylikning bir niholi ildiz otishiga xizmat qilsin. Ana shundagina bolalar adabiyotimiz o‘z missiyasini muvaffaqiyat bilan ado etgan bo‘ladi. Ushbu she’r, dastavval, ana shu jihati bilan e’tiborga molik. Chunki, Ona Burgut polaponining qalbiga “ushbu tog‘-tosh, osmonning hukmdori bo‘lnb o‘sish”ni go‘dakligidan alla bilan singdirayotganligi sababli burgutcha hatto tushida ham keng samoni to‘ldirib charx uradi. Xuddi shuningdek, mustaqil Ona yurtimizning kelajagi bo‘lmish farzandlarimiz ham bolalikdan o‘zlarining shu aziz Vatan egalari, uning baxt-

saodatini, porloq kelajagini yaratuvchilar ekanliklariga komil ishonch ruhida tarbiyalanmoqlari lozim.

Istiqlol davrida xalqimiz tom ma’noda uyg‘ondi, o‘zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e’tiqodlariga qaytdi. Ushbu jarayonda o‘zbek bolalar she’riyatining ham kamtarona o‘rni, o‘ziga xos xizmati bor. Ushbu davr o‘zbek bolalar she’riyatining eng sara namunalari shu ma’noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg‘ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma’nodagi ona Vatan – kindik qoni to‘kilgan muqaddas Zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiati – qir-adirlarini, tog‘u o‘rmonlarini, bog‘-rog‘larini, daryoyu ko‘llarini avaylab-asrashga, «O‘zbekiston» deb atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari – mutafakkir olimu shoirlari, ulug‘ Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdorlari sha’niga munosib farzand bo‘lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анвар Обиджон. Жажжи-жажжи кулчалар. – Тошкент: “O‘қитувчи” НМИУ, 2013.
2. Анвар Обиджон. Масхарабоз бола. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986.
3. A'zam, Miraziz. Saylanma. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMU, 2005.
4. Имонбердиев Ҳ. Ғаройибкент ҳангомалари. – Тошкент: Чўлпон, 1994.
5. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016.
6. Йўлдошев Қ. Очқич сўз. –Тошкент: Тафаккур, 2019.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDA BOLA AXLOQIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI

Rahmatullayeva Zamira Olimjonovna

NamDPI pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishda trabiyachi va psixolog hamkorligining o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Psixolog, bola, psixologik qonuniyatlar, tarbiyachi, individual xususiyatlar, idrok, tarbya.

Kelajak avlod haqida qayg‘urish sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish zamondan-zamonga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimizdir. Har bir ota-ona o‘z farzandining baxtu-saodati, fazlu-kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi.

Insoniyatning Ko‘payishi tabiat qonuni bo‘lgani kabi, bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi ham bizning jamiyatimiz qonunidir. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o‘z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Ya’ni shaxsni tarkib toptirish oilaning ilk psixologik muhitidan boshlanib, bolaning ijtimoiy, emotsional, xulqiy va boshqa sifatlariga asos soladi, teran shakllantiradi, umumiy va hissiy rivojlanishini ta’minlaydi hamda uning mavjud imkoniyatlarini va aqliy

tafakkurini o‘stiradi. Shuningdek, bolada xarakter, iroda, urf-odatlar, fe’l-atvor, hulq, tevarak atrofga munosabat, e’tiqod, qarashlar, qobiliyat, qiziqishlar oilada vujudga keladi.

Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki bola tarbiyasi eng murakkab faoliyatlardan biri hisoblanadi. Agar bolani to‘g‘ri tarbiyalash amalga oshirilmasa, ayrim hatti-harakatlari kutilmagan ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bolaning oiladagi tarbiyasi bilan ta‘lim -tarbiya jarayonidagi munosabatlari orasida ko‘pgina tafovutlar kuzatiladi.

Chunki, ta‘lim muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilishidan qat‘iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bog‘cha va maktablar ta‘lim bersa va tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Shu bois ota-onaning xarakter xususiyati, xulq-atvori bola tarbiyasida hal qiluvchi omil bo‘lib, bola ularning har bir harakati, so‘zi va har bir qilmishidan ibrat oladi. Ota-onaning izchil tarbiyachilik mehnati ularni yaxshi farzandlarning ota-onalari bo‘lish sharafiga muyassar qiladi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojib aytganidek “O‘g‘il-qizlarning fe’l-xulqi yaxshi yoki yomon bo‘lsa, uning sababchisi otav a onadir”. Darhaqiqat ota-onalar va ularning shaxsiy ibrati namuna hisoblanib, ular bola hayotidagi ilk tarbiyachilardir.

O‘zbek oilasida bolani axloqiy tarbiyasi haqida gapirganda, keyingi avlodlarga boy meros qoldirgan buyuk mutafakkirlarimizni eslash muhimdir. Sharq mutafakkirlari merosida ta’lim -tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zamirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g‘oyasi yotadi.Ularning qimmatli fikrlari hozirgi kunlarimizda ham o‘z ahmiyatini yo‘qotmagan.

Jumladan, Ibn Sino oilada bolani tarbiyalash, ahvolidan qat‘i nazar, ota-onaning asosiy burchi deb hisoblagan, o‘z qusurlarini bartaraf qilgan kishigina boshqalarni tarbiyalashi mumkinligini ta’kidlagan. Ya’ni tarbiya bermoqchi bo‘lgan kishining avvalo o‘zi tarbiyalangan bo‘lmog‘i zarur ekanligigi ahamiyat qaratgan. Darhaqiqat bugungi kunda ayrim ota-onalarimiz axloqiy tarbiya haqida ko‘plab pandu-nasihatlar qilishadiyu lekin o‘zlari axloqiy tarbiyaga muhtoj hisoblanishadi. Masalan otalarimiz o‘gi’llariga ichma, chekma bu yomon odat deb aytishadiyu, lekin o‘zlari yarim tunda mast ahvolda uyga kirib kelishadi, onalarimiz esa g‘iybat qilish, yolg‘on gapirish gunohligini farzandlariga uqtirishadiyu, lekin o‘zlarida buni bartaraf etishmaydi. Balki shuning uchun ham farzandlariga berayotgan axloqiy tarbiyalari o‘z samarasini bermayotgandir.

Yana Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlarida oilaviy tarbiyaning umumiy asoslarini bayon etishga harakat qilgan. “Agar oila tarbiya usullaridan to‘g‘ri foydalansa, - deb yozgan edi olim, - o‘z hayotida baxtga erishadi”. Ibn Sino ahloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bola bilan, nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo‘lish, unga nasihat qilishni ma’qul usul hisoblaydi. Ibn Sino tarbiyada otaning rolini ifodalashga katta ahamiyat bergan. “Ro‘zg‘orshunoslik” kitobida “Otaning bolalarga munosabati” degan bob bor. Unda olim jumladan: “Onalar o‘z

tabiatlariga ko‘ra yumshoq ko‘ngildirlar va o‘zlarining erkalashlari bilan bolaning xarakterini buzadilar”, - deydi [3]. Ibn Sinoning fikricha, oilada asosiy tarbiyachi ota bo‘lishi, u maqsadga erishmoq uchun bolani ba’zan jazolashi, ba’zan rag‘batlantirish, vaqti-vaqti bilan maqtashi, ba’zan tanbeh berish, vaqtida qo‘rqitib qo‘yish, hatto jismoniy jazolashi lozim.

Ibn Sino bolada axloqiy xislatlarni mehnat, jismoniy va aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni bolani haqiqiy inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Oilada bolaning axloqiy tarbiyasi to‘g‘risida Alisher Navoiyning ham ko‘plab fikrlarini keltirishimiz mumkin. Navoiyning fikriga ko‘ra, eng muhimi bolalarni sevish, “Bolaga, degan edi ulug‘ shoir, - kichikligidan boshlab yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur”.[3] Navoiy axloqiy tarbiyani bolaning kichikligidan berilsa u bola hayotida chuqur iz qoldirishini ta‘kidlab o‘tgan edi.

Taniqli shoir va pedagog Abdulla Avloniy ham oilada bolalar tarbiyasi to‘g‘risida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ajoyib fikrlarni bayon qilgan. O‘zining «Yashnagan o‘lka va ahloq» degan kitobida, bolaning sog‘lig‘i va baxti avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining tozaligiga, e’tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo‘lishiga, uni g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlardan ogohlantirilishiga bog‘liq. Bolani tarbiyalashni tug‘ilgan kunidanoq boshlash zarurligi quyoshday ravshan va aniq, uning organizmini mustahkamlash, aqliy qobiliyatini donishmandlik nuri bilan yoritish, uni axloqiy kamol toptirish, xotirasini mashqlantirish kerak, -deb yozgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy esa ota-onalarning bolani tarbiyalashdagi rolini yuqori baholab, “avvalo ularning xulqi namunali, qusursiz bo‘lmog‘i, ular yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lishlari zarur”, - degan, farzandlarni tarbiyalash bilan shug‘ullanmaydigan hamda o‘zlarining nomunosib xulqlari bilan ularning axloqiy rivojlanishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ota-onalarni keskin tanqid qilgan edi. U o‘z farzandlarini tarbiyalamay, ularni faqat moddiy ta’minlanishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan ota-onalarga qattiq tanbeh berar edi. Bugungi kunda ham Hamza Hakimzoda Niyoziy aytganidek farzandlarini moddiy tomondan ta‘minlashga katta e‘tibor berib, axloqiy tarbiysiga e‘tibor bermayotgan ota-onalar ko‘plab topiladi. Hamza “O‘z bolalarini yomon tarbiyalagan onaning jazosi” hikoyasida bolalarni yomon tarbiyalashning fojiaviy oqibatini tasvirlaydi. Unda o‘g‘lining o‘g‘irlik qilishidan ko‘z-yumgan, aksincha, uni bu ishga rag‘batlantirgan, o‘g‘li qo‘lga tushib, osishga hukm qilingan onaning ayanchli ahvoli bayon qilingan. Hamza o‘z hikoyasini “Agar farzand yomon bo‘lsa, bunga ota-onalar sababchi”, - degan so‘zlarni aytgan.

Hamzaning ta’kidlashicha, axloqiy poydevor oilada qo‘yiladi va ota-onalar buning uchun javobgardir. “Agar, - deydi Hamza, - ota-onalar o‘z farzandlarini ilk yoshidan boshlab yaxshi tarbiya qilganlarida edi – zabonlarimizni yolg‘ondan, qo‘llarimizni jinoyatdan tiygan, quloqlarimizni tuhmat va g‘iybatdan asragan, ular bizni har qanday yomonlik va baxtsizlikdan saqlagan bo‘lur edilar”[3]. Darhaqiqat bolalarni axloqiy tarbiyalash – onaning burchi va otaning muqaddas majburiyatidir.

Atoqli ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat esa o‘z davrida, bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jismu tan, aql va axloqdir.

Farzandni jisman, aqlan va ahloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur, deb aytgan va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya haqida batafsil to‘xtalib, bunda oilaning ota-onaning o‘rni benihoya muhim va beqiyos ekanligini ta’kidlagan.Abdurauf Fitratning farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham dolzarb bo‘lib, ularning barcha ijobiy va ibratli tomonlarini hayotimizda qo‘llashimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan allomalar fikrlaridan ko‘rinib turibdiki bolada axloqiy tarbiya o‘z-o‘zidan shakllanib qolavermaydi. Ota-ona to‘g‘ri tarbiya olib borishga izlanish, o‘qish va tajriba orttirish orqali erishadi. Chunki boladagi barcha xislatlar axloq bilan kamolga yetadi. Shu bois tarbiya yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i kerak. Axloqiy tarbiyaga esa oilada asos solinadi. Oila tarbiyaning asosiy poydevoridir. Bolaning kim bo‘lib yetishishi asosan, oiladagi muhitga – tarbiyaviy ta’siriga bog‘liq. Bu to‘g‘rida atoqli pedagog A.S.Makarenko alohida to‘xtalib, agar biz farzandlarimizga yaxshi tarbiya bermasak, bu kelajakdagi achchiq ko‘z yoshimiz, noqobil farzand tufayli qon-qon yig‘lab yutadigan g‘amlarimiz alamlarimiz, deb ota-onalarni ogohlantirgan edi. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy esa “Tarbiya biz uchun yo hayo-yomamot, yo najot yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” [1] deb bejis aytmagan.

Demak oilalarning ravnaq topishida tarbiya benihoyat katta o‘rin tutadi. Ota-onaning o‘z farzandi tarbiyasiga e’tibor bermasligi, uni o‘z holiga tashlab qo‘yishi, bu sohadagi vazifalarga bir tamonlama qarash ota-onaning burchini, jamiyat oldidagi ma’suliyatini his qilmaslikdir. Har bir ota-ona o‘z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug‘ullanishi, buning uchun esa ta‘lim -tarbiya ishining o‘ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлоний А. “Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ” Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992 й.
2. Axatova D. “Abdurauf Fitratning oilaviy munosabatlarga oid qarashlari” “Xalq ta‘limi” jurnali Toshkent, 2006 y. 4-son, 62-65 b.
3. Иномова О. “Фарзанд-ниҳол, ота-она боғбон” Тошкент, “Ўқитувчи” 1994 й
4. Каримова В. Ижтимоий психология Т.2007
5. Зинченко В. П. Психологическая педагогика. Материалы к курсу лекций. Часть 1. Живое знание (2-е испр. и доп. изд.). Самара: «Самарский дом печати», 1998

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI O‘YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Raxmonova Iroda Samijonovna

NamDPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim omillari, tamoyillari xususida so‘z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar. maktabgacha yosh, ta’lim, refleksiya, rivojlantiruvchi o‘yin.

Maktabgacha ta’limda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Mashg‘ulotlarda tarbiyachi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida tarbiyalanuvchilarga yetkazadi, tarbiyalanuvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida tarbiyalanuvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan bilimlarni tushunish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarlarning hamkorligi asosida tarbiyalanuvchilarning mustaqil ishlashi, mashg‘ulotdan tashqari faoliyatida ham hal etiladi[1;152-b].

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi, shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan[2;182-b]. Ta’limiy maqsaddan kelib chiqib tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki nutqni rivojlantirish mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashadi, tasavvur doirasi kengayadi, vaziyatni tahlil qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’limda “Klaster”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy metodlar qo‘llanilmoqda, ulardan yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanilsa ijobiy natija beradi[3;44-b]. O‘yin-topshirig‘ining qaysi bir turini tanlash mashg‘ulotning turiga, turli yosh guruh tarbiyalanuvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganligi asosida namoyon bo‘ladi [4;50-b].

Bugungi zamon talabi tarbiyachidan ilg‘or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, olib borgan tadqiqotlarimiz asosida mashg‘ulotda o‘yin ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish tamoyillarini belgilab oldik. O‘ylaymizki, ular o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda pedagoglarga amaliy yordam beradi. SHuningdek, tarbiyalanuvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchisiga aylanadi. Tarbiyachilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishlari ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligi, bir tomondan

tarbiyachining kasbiy mahorati, ikkinchi tomondan esa bu jarayonda qo‘llaniladigan o‘yin texnologiyalarining mahsuldorligiga bog‘liq.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida tarbiyachi tarbiyalanuvchi munosabatlarining o‘ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya’ni refleksiv o‘yin muhitida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahliliy faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitlar, voqelik va tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida xulosalar chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida keltirilgan bir qator xususiyatlarni inobatga olgan xolda boshlang‘ich sinf tarbiyalanuvchilarida o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi *omillar*ni keltirib o‘tamiz:

-boshlang‘ich tushunchalar va uning faolligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda shug‘ullanadigan faoliyatlari;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faolligini ta’minlash vositalari;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning faoliyat turlariga bo‘lgan qiziqishi;

4. X.J.Jabbarova / Tabiat bilan tanishtirish metodikasi.-T:.2009.

JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Valixanov Saidjon Shoxobidinovich
ADU Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Sportdagi harakat go‘zalligini tushunish tomoshabin yoki shug‘llanuvchiga huzur baxsh etadi. Jismoniy tarbiya vositalari orqali estetik tarbiyaning alohida vazifalari hal qilinadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya vositalari, estetika, jismoniy mashqlar, gigiyenik omillar, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari.

Jismoniy tarbiya jarayoni orqali estetik tarbiyaning ham alohida vazifalari hal qilinadi:

1. Muomala estetikasini tarbiyalash. Gimnastika, sport, o‘yinlar, turizm, yuqorida bayon etilganidek, insonning barcha xususiy tomonlarini namoyon qiladi. Sportchilarning yurish-turishi sport hayotiy jarayoni va undan tashqarida havas qilgudekdir. Chunki uning asosida sharq xalqlari axloq normalari yotadi. Yomon muomala estetikaga zid deb baho beriladi.

2. Inson gavdasining ko‘rinishi, shakli-shamoyili tarbiyalanadi. Jismonan garmonik rivojlangan odam gavdasining chiroyliligi, sog‘lik hayotiy qobiliyatlarining yaxshiligi belgisidir.

3. Go‘zallikni qabul qila bilish qobiliyatini, sport texnikasi, harakatlar nafisligi ifodasida yashirin go‘zallikni his qila olishni tarbiyalash yotadi. Harakat texnikasi go‘zallik, harakat nafosati, uning mazmunini ifodalashning o‘zi ham go‘zal.

Ko‘p yillik jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy mashqlar, tabiatnining sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillardan jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo‘lib, u tarixan gimnastika, o‘yinlar, sport va turizm tarzida guruhlarga ajratilib, tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalanib kelindi.

Jismoniy mashq deb, jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi.

Sportchining jismoniy tayyorgarligini ortishi yoki uning gavdasi tuzilishi (anatomiyasi), boshqacha aytganda jismoniy rivojlanganlikni ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlarning turli-tumanligi (son suyagini kaltali yoki uzunligi, yelka suyagi o‘lchamining turli xilligi va h.k.) sport turi – jismoniy mashqlar bajarish texnikasini asosini uning zvenolari yoki detallarini o‘zgarishiga, almashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish davomida harakat koordinatsiyasi degan tushunchaga duch kelamiz. Bu sifatning shakllanish me’yorining buzilishi harakatlar tavsifini bilmaslik oqibatidandir.

Jismoniy madaniyat o‘qituvchilari, mutaxassis trenerlar, fizkultura faollarigina emas, balki mavjud jamiyat a’zolarining barchasi o‘z harakati va harakat faoliyatlarini tahlil qilibgina qolmay, kasbdoshi, tengdoshi, farzandi va boshqalarning harakatlarini ham tahlil eta olishi malakasiga ega bo‘lishi zarur.

Ayrim sport turlarida va jismoniy mashqlarda tananing umumiy holati bilan uning ayrim qismlari (bo‘laklari)ning holati biomexanik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘libgina qolmay (konkida figurali uchuvchilar, gimnastlar, akrobatlar, suvga sakrovchilar va badiiy gimnastikalar) harakatlarni kuzatayotganlarda yoki uni bajaruvchilarda estetik his tuyg‘uni shakllantiradi va ularga zavq beradi. Harakatlarning ravonligi, ketma-ketligi, erkinligi, qiyinchiliksiz bajarish inson jismining qanday holatdaligiga bog‘liqligi jismoniy mashqlar texnikasini egallashda,

harakatni o‘rgatish jarayonida, xatolarni aniqlash va ularni tuzatishda muhim rol o‘ynaydi.

Harakat ijobiy va salbiy ham bo‘lishi mumkin. Harkat yuqori tezlikda boshlanib, maromi tezlashib va sekinlashib tursa, bu kabi harakat keskin harakat deb nomlanadi. Odamda doimiy tezlik va tezlanish bilan bajariladigan harakatlar onda-sonda uchraydi. Bundan tashqari, texnikasi to‘g‘ri bajarilgan jismoniy mashqlarda birdaniga tez yoki sakrashlar bilan bajariladigan mashqlar bo‘lmaydi. Noto‘g‘ri bajarilgan mashqlar tezligi tez sakrashlar orqali bajariladi.

Havo, quyosh nuri, suv jismoniy tarbiya jarayonida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari tarzida jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Hayotiy sharoit, muhit insonni turli sharoitda moddiy ne’mat yaratish, yashashga majbur qiladi. Bunga ko‘nikish, unga tayyor bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tabiatning in’omi – havo, suv, quyosh nuri inson ish qobiliyatini oshirish, salomatligini mustahkamlashning asosiy vositasidir.

Jismoniy tarbiya jarayoni ochiq havoda, quyosh nuri ostida, suv va boshqalardan foydalanib jismoiy mashqlar bajarish samara beradi.

Cho‘milish, oftobda toblanish, havoning issiq-sovug‘i jismoniy mashqlar bilan inson organizmiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Mashg‘ulotlar davomida bu vositalardan tizimli foydalanishning muhim ahamiyat bor.

Ishni shunday tashkillash lozimki, jonajon Respublikamizning geografik, iqlimiy va ekologik holatini hisobga olib barcha viloyat va hududlarda tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish muammosi hal qilinishi lozim. Masalan, quyosh nuridan foydalanishda soat 10^{00} dan 12^{00} gacha alohida, 16^{00}-17^{30} gacha yoshi, jinsi va boshqa individual xususiyatlarini hisobga olinmasdan toblansa uning ta’siri turlicha bo‘ladi. Jismoniy mashqlarning me’yori, yuklamaning umumiy miqdori, mashqning intensivligini e’tibordan chetda qoldirish tabiatni sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishda salbiy natijalarga olib kelishni unutmasligimiz lozim.

Shug‘ullanuvchilarga quyosh vannasi, suvda chiniqishning nazariy bilimlari va ulardan tizimli foydalanish, havoning o‘zgarishi organizmning issiq-sovuqqa, keskin o‘zgarishlarga tez moslashishi individning yoshligidan yo‘lga qo‘yishni samarasi katta. Har tomonlama chiniqtirish tabiat omillarini turli jismoniy mashqlarni bajarish bilan qo‘shib olib borilishi tashqi muhitning salbiy ta’sirlariga organizmning qarshilik ko‘rsata olish qobiliyatini yanada oshiradi.

Jismoniy tarbiya jarayonida erishilgan chiniqishning samarasi “ko‘chuvchan” bo‘ladi, ya’ni u insonning boshqa faoliyati (asosan, mehnat, harbiy xizmat)da namoyon bo‘ladi va jismoniy tarbiyaning hayotiy-amaliyligini oshiradi. Qolaversa, ruhiy-irodaviy hislatlarini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, chayqalish, tebranish, me’yorsiz nagruzkaga chidash, vaznsizlik holatiga tez moslashishdek vazifalar oson hal bo‘ladi.

Gigiyenik omillar shaxsiy va jamoat gigienasi talablarini o‘z ichiga olib, mehnat gigienasi, ovqatlanish, dam olish va tashqi muhitning zararli faktorlari va boshqalar jismoniy mashqlarni bajarish (dars, mustaqil mashq qilish, trenirovka)

mashg‘ulotlarida gigienik talab va normalarga rioya qilishni taqazo etadi. Ular jismoniy mashqlar ta’sirchanligini, samaradorligini oshirishini ilmiy, amaliy jixatdan isbotlagan.

Gigiyenik sharoitni yetarli darajada ta’minlash, jismoniy tarbiya uchun foydalaniladigan moddiy-texnik baza, sport anjomlari, jihozlar va mavjud kiyim-boshning holatiga bog‘liq.

Jismoniy mashqlar, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillarni ratsional qo‘llash inson salomatligini mustahkamlaydi va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlari inson hayotiy faoliyatining organik qismiga aylansagina jismoniy tarbiya tizimining sog‘lomlashtirilishiga yo‘naltirilgan prinsipni amalga oshirishning imkoni bo‘ladi. Boshqa tomondan, kerak bo‘lgan gigienik normalarga rioya qilinsagina jismoniy mashqlar kerak bo‘lgan samarasini beradi. Jismoniy tarbiyaning maxsus vositasi hisoblanmasa ham gigenik omillar jismoniy tarbiyaning vazifasini to‘laqonli hal qilish uchun ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayon qanchalik puxta tashkillanmasin, ovqatlanish, uyqu kun tartibiga rioya qilinmasa, shuningdek, mashg‘ulotlar tibbiyot talablariga javob bermaydigan joy va jihozlar bilan o‘tkazilsa, ular albatta samarasiz bo‘ladi. Mana shuning uchun maktablardagi jismoniy tarbiya dasturlariga gigienaga oid bilimlar mazmunini ifodalovchi nazariy ma’lumotlar uchun mavzular tavsiya qilingan. Ular jismoniy tarbiya jarayonidan tashqaridagi insonning hayotiy faoliyatini tashkillovchi va jismoniy tarbiya jarayoni tarkibidagi vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Abdullayev, Sh. Xonkeldiyev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2005 -yil

2. Sarkizov-Serazini I.M. Tan-sihatlik, kuch-quvvat va uzoq yashash yo‘li. Toshkent. 1962 -y.

3. Usmonxo‘jayev T., Xo‘jayev F. Harakatli o‘yinlar. Toshkent “O‘qituvchi” 1992- y.

4. Q.T.Arabboyev. Jismoniy tarbiya va sportga oid derektiv hujjatlar. Namangan nashiryoti –2012 -yil

5. J.Yo‘ldoshev, S.Hasanov. Pedagogik texnologiyalar. Moliya-iqtisod nashriyoti. Toshkent nashriyoti – 2009- yil

6-7 YOSHLI BOLALARNI TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYAT JARAYONIDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASHNING SAMARALI USULLARI

Xamidova Samida Abdulhakim qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalar tarbiyasida axloqiy sifatlar va estetik qarashlarni rivojlantirishda teatr hamda dramalashtirilgan o‘yinlarning ahamiyati, samarali ,ta’sirchan usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, teatr, sahnalashtirish, qo‘g‘irchoq teatri, aktyorlik qobiliyati, axloqiy sifatlar, estetik qarashlar, xissiyot.

"Teatr-bu sehrli dunyo. U go‘zallik, axloq va odob saboqlarini beradi. Va ular qanchalik g‘oyaviy boy bo‘lsa, bolalar ma'naviy dunyosining rivojlanishi shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi... " (B. M. Teplov)

Maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi;

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan imkoniyatlar zamirida ertangi yosh avlod uchun zamin yaratmoqda. Yangi renesans davrida maktabgacha yoshdagi bolalarning kunlik faoliyatida teatrning o‘rni beqiyos.

Har birimiz bolaligimizni rolli o‘yinlar dunyosida o‘tkazamiz, bu bolaga kattalar qoidalari va qonunlarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Har bir bola o‘ziga xos tarzda o‘ynaydi, lekin o‘z o‘yinlarida ularning barchasi kattalarni, sevimli qahramonlarini nusxalashadi va ular kabi bo‘lishga harakat qilishadi. Bolalar o‘yinlarini improvizatsiya qilingan teatr tomoshalari deb hisoblash mumkin. Bolaga aktyor, rejissyor, dekorator, butafor, musiqachi rollarini o‘ynash imkoniyati beriladi. Bukletlar, dekoratsiya va kostyumlar tayyorlash bolalarning vizual va texnik ijodiyoti uchun imkoniyat yaratadi. Bolalar rasm chizadilar,yasaydilar, tikadilar va bu mashg'ulotlarning barchasi bolalarni hayajonlantiradigan umumiy rejaning bir qismi sifatida mazmun va maqsadga ega bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilishning asosiy maqsadi; sahnalashtirilgan o‘yinlar, teatr va dramalashtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolaning badiiy va estetik rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama rivojlangan ijodiy shaxsni shakllantirish, hayotni hissiy idrok etishga o‘rgatish, san’atga qiziqtirish, aktyorlik qobiliyatlarini, o‘z –o‘ziga ishonch tuyg‘ularini shakllantirish.

Teatr - bu shaxsni rivojlantirishning kuchli vositasi, uning madaniyatining umumiy darajasining ko‘rsatkichidir. Bir vaqtlar buyuk rus o‘qituvchisi K.D. Ushinskiy yozganidek, inson ma'naviyati dam olish madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Agar inson bo‘sh vaqtlarida nima qilishni bilmasa, uning "boshi, yuragi va axloqi buziladi". Yuqorida aytilganlar bo‘sh vaqtni bolaning rivojlanishi uchun vosita sifatida turli jihatlarini o‘rganishga qiziqishni oldindan belgilab beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatr faoliyati bo‘yicha mashg‘ulotlar

M. N. Maxaneva ("Bolalar bog'chasida teatrlashtirilgan mashg'ulotlar") fikriga ko‘ra, bolalar bog'chasida teatr faoliyati bo‘yicha mashg'ulotlar mazmuniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bularga quyidagilar kiradi:

- qo‘g'irchoq teatrlarini tomosha qilish va ular haqida suhbatlashish;
- dramatizatsiya o‘yinlari;

- turli ertaklarni sahnalashtirishga tayyorlash va ijro etish;
- ijroning ifodaligini rivojlantirish uchun mashqlar;
- axloq bo‘yicha alohida mashqlar;
- bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun mashqlar.
-estetik did va go‘zallikni xis qilish.

Tayyorlov guruhining bolalari bilan improvizatsiya (mavzuni, syujetni oldindan tayyorgarliksiz o‘ynash) kabi harakatlardan foydalanamiz. Ishning boshida, agar ularga u yoki bu sahnani o‘ynash taklif qilinsa, bolalar hayron bo‘lishlari mumkin. Chunki ularga tayyorgarlik kerak –mavzuni birgalikda tanlash, muhokama qilish, uni qanday tasvirlash, qanday rollar, xarakterli epizodlar bo‘ladi- bu jamoaviy hamkorlikda ishlash deyiladi. Keyingi qadam har bir ishtirokchi rolni o‘ziga xos tarzda tasvirlashiga imkon bering. Va yanada murakkab vazifa – bola rolni tanlaydi va uni o‘zi o‘ynaydi. Keyingi safar bolalar o‘zlari bir-birlariga mavzu va rollar berishadi.

Agar bu ertak bo‘lsa, qahramonlarning xatti-harakatlarini, bunday xatti-harakatlarning sabablarini muhokama qiling, ertak boshlanishidan oldin qahramonlar bilan nima sodir bo‘lganligini aniqlang, uning davomini o‘ylab topishga yoki hatto oxirini o‘zgartirishga undang.

Sahnalashtirish tufayli bola dunyoni nafaqat aqli, balki qalbi bilan ham bilib oladi, yaxshilik va yomonlikka o‘z munosabatini bildiradi. Bola aktyor sifatida qo‘rqoqlik, o‘ziga ishonchsizlik va uyatchanlikni yengishiga yordam beradi, bolani hayotda va odamlarda go‘zallikni ko‘rishga o‘rgatadi va hayotga go‘zallik va yaxshilikni olib kirish istagini uyg'otadi.

Bola uchun qo‘g'irchoq teatri qahramoni, birinchi navbatda, o‘yinchoq. ammo u o‘yinchoq oddiy emas. Bola bu qo‘g'irchoqlar yordamida spektakllar qanday ijro etilishini ko‘radi va ular ertak mazmunini qayta aytib berish uchun yaratilganligini tushuna boshlaydi. Faol bolalar har doim rollarni o‘ynashdan zavqlanadilar: kostyumlar kiyish, gapirish va zavq bilan harakat qilish kabi. Ammo ko‘plab bolalar uchun sahnaga chiqish jiddiy sinovdir. Ko‘pincha, qo‘g'irchoq nomidan bola birinchi marta sahnada so‘zlarni aytishga jur'at etadi. U psixologik jihatdan qo‘g'irchoq orqasiga yashirinsada, qahramon obrazini jonlantirgani muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 26 maydagi PF-6000-sonli Farmoni

2.N.Ismailova. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish.Darslik. 2023 yl.

3. D.R.Djurayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbita berishning zamonaviy tendensiyalari. T:, O‘ZPFITI 2015

4. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A’zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: “Tafakkur”. 2019 y -684 b.

BOLALARNING ATROF-MUHITGA ESTETIK MUNOSABATLARINI TARBIYALASH

Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna
Namangan davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasida estetik tarbiyaning mazmuni va ularning atrof-muhitga estetik munosabatlarini tarbiyalash haqidagi tushunchalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: estetika, estetik tarbiya, san'at, badiiy tarbiya, madaniy ahloq malakalari.

Estetik tarbiya borliq (tabiat, turmush, mehnat va ijtimoiy xayot) va san'at (musiqa, adabiyot, teatr, badiiy-tasviriy ijod asarlari) ta'sirida amalga oshiriladi. Bolalariing estetik faoliyatlarini tashkil qilish shakllari xilma-xildir. O'yinlar, mashg'ulotlar, ekskursiyalar, bayramlar, ko'ngil ochishlar shular jumlasidandir. Bolalarni estetik tarbiyalashning sistemasi g'oyaviy maqsadga yo'nalganlikni, axloqiy va estetik ideallarning uzviy birikishini, san'at va adabiyot xar xil turlarining o'zaro ta'sirini ko'zda tutadi. Bolaning badiiy qiziqishlari, ijodiy fantaziyasi va qobiliyatlarining o'sishi, ular tomonidan amaliy malakalarning egallanishi ilk bolalikdan boshlanadi. Tarbiyachining bu yo'nalishdagi ishi ilmiy asosga ega bo'lishi va san'atning har xil turlari rivojlanishining xozirgi darajasini hisobga olgan holda, talablarning asta-sekin, izchil murakkablashib borishi tamoyiliga rioya qilib, turli yoshdagi bolalarning bilim va ko'nikmalariga farqlab yondashishni nazarda tutadigan muayyan dastur asosida olib borilishi juda muhimdir.

Estetik qarash har bir bolada tabiat, turmush, mexnat, san'atga estetik munosabatni tarbiyalashda pedagogik ta'sir etishning turli forma va metodlarini ochib berishdir.

Maktabgacha pedagogika estetik tarbiyani hayot va san'atdagi go'zallikni idrok etish, his qilish, tushunish qobiliyatlarini o'stirish, atrof-muhitni go'zallik qonuniyatlariga muvofiq qayta yaratishda ishtirok etishga intilishni tarbiyalash, badiiy faoliyat bilan shug'ullanish va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishdir deb ta'riflaydi. Estetik tarbiyada san'atga alohida ahamiyat beriladi. U bolalarni ilhomlantirib va quvontirib, ularga hayot hodisalarining ijtimoiy ma'nosini ochib beradi, ularni atrof-muhitga sinchkovroq qarashga, birgalikda qayg'urishga, yomonlikni qoralashga undaydi. San'at vositalari yordamida estetik tarbiyalash "badiiy tarbiya" termini bilan ifodalanadi. Biz shuni yaxshi bilamizki, badiiy so'z, bo'yoqlar jilosi, toshdagi naqshlar, tovushlarning ohangdorligi zamondoshlarni ilhomlantiradi, qalbimizda avlodimiz to'g'risidagi, zamonamiz, uning yangiliklari va bunyodkorliklari to'g'risidagi xotiralarni kelajak avlodlarga yetkazadi, deb qayd etildi. Bolani insoniy munosabatlardagi yaxshilik va yomonlikni farqlay bilishga, shakl, chiziq, tovush, bo'yoqlar go'zalligini idrok eta bilishga o'rgatish — demak, bu uni yaxshiroq, sofroq, mazmundorroq qilish demakdir. Psixolog va pedagoglarning hamkorlikda olib borgan tadqiqotlari keyingi yillarda bolalarning aqliy hamda estetik faoliyatlari darajasi, axloqiy-irodaviy sifatlari sezilarli o'sganligini ko'rsatdi. Bu xislat ularning ilk yoshlik vaqtlaridanoq namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun bolalar bog'chasining

bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi roli va ahamiyati ortib bormoqda. Maktabgacha tarbiya mutaxassislari (L. Shleger, V. Shmidt, D. Lazurkina, E. Tixeeva, M. Sventitskaya, R. Orlova, A. Surovseva) ham, umumiy pedagogika, psixologiya, fiziologiya arboblari (S. Shatskiy, P. Blonskiy, E. Arkin, K. Kornilov, V. Gorinevskiy) ham o‘z nutqlarida estetik tarbiya sistemasining qimmatli tajriba va ijodiy izlanishlarini ochib berdilar. Estetik tarbiya masalalari bo‘yicha ma’ruzalar faoliyatlari tor metodik izlanishlar bilangina cheklanib qolmagan mutaxassislar tomonidan tadqiq qilindi.

Estetik tarbiya masalalarini ishlab chiqishda E. Flerina, N. Sakulinalar sezilarli rol o‘ynadilar. Ayrim nazariy qoidalar ko‘p yillar davomida o‘z aktualligini saqlab qoldi. Ayniqsa, bolaning badiiy kechinmalarini boshqarishning qiyinligi tufayli o‘qitishning o‘zi shubha ostiga olingan badiiy tarbiya batafsil tadqiq qilindi.

Badiiy tarbiyada ijobiy natijalarga erishish, asosan, faqat bolalarga rahbarlik qila bilish san’atini egallabgina qolmay, balki san’atning o‘zini xam yaxshi biladigan hamda tushunadigan pedagogning talantliligiga, mohirligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina pedagoglar turli yo‘llar bilan borib va xilma-xil vositalardan foydalanib, bolalarni badiiy jihatdan o‘stirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Mutaxassislar qo‘llanayotgan metodlarni tushuntirish va analiz qilishga, o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib berishga va barcha pedagoglarni bu bilimlar bilan qurollantirishga intilganlar.

Bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab to yetti yoshigacha psixik va jismoniy rivojlanishining birligini ko‘rsatishga, bola faoliyatini o‘yin va mashgulotlarda, turmush va mehnatda tashkil qilishning formalarini belgilashga, turli yoshdagi bolalarning badiiy qobiliyatlarini aniqlashga yordam berishga ilk bor urinib ko‘rilgan. Zamonaviy hayot tarzi, kishilarning mehnati, ijtimoiy munosabatlari, tevarak-atrofdagi tabiat bolani estetik rivojlantirish uchun zamin yaratadi. U turli xalqlarning ijodi, rassomlik va haykaltaroshlik, musiqa va raqslar, qo‘g‘irchoq teatrining spektakllari, multfilmlar va shu kabilar bilan tanishib san’at dunyosiga kirib boradi.

Ilk bolalikdagi badiiy taassurotlar juda kuchli bo‘lib, xotirada uzoq, ba’zan bir umr saqlanib qoladi. Bolani badiiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun pedagog bolalar mashg‘ulot va ko‘ngil ochishlarining turli forma hamda ko‘rinishlaridan ularning yoshlariga muvofiq tarzda to‘g‘ri foydalanishi zarur. Estetik tarbiya zamon bilan uzviy aloqada va ko‘p jihatdan u bilan belgilanadi. Borliqni estetik idrok etish hayotga yaqinlikni, borliqni, jamiyatni, tabiatni, predmetli muhitni o‘zgartirishga intilishni nazarda tutadi. Kichkintoylarning imkoniyatlari juda cheklangan bo‘ladi, biroq qo‘lidan keladigan mehnat, mashg‘ulot va o‘yinlar yordamida har bir bolani ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish imkoniyati mavjuddir. Bilish jarayoni estetik kechinmalar bilan qanchalik uzviy bog‘lansa, uning, ya’ni bilish jarayonining idrok etilishi shunchalik chuqurroq va natijalari to‘laqonliroq bo‘ladi. Garchi emotsiya (his-tuygu), xayol, intuitsiya (tuyish, faxmlash) ga taalluqli ko‘pgina hal qilinmagan muammolar mavjud bo‘lsada, atrof-muhitga estetik kechinmalar ko‘rinishidagi o‘ziga xos reaksiya asos bo‘lishi shubhasizdir. Har bir

bolada uning qobiliyatlarining o‘sishiga ta’sir etuvchi o‘ziga xos anatomik-fiziologik xususiyatlar mavjudir. Biroq, pedagoglar o‘z ishlarida akademik I. P. Pavlovning nerv sistemasining plastikligi xaqidagi ta’limotiga tayanib, tug‘ma qobiliyat va iste’dodni muayyan yo‘nalishda shakllantirish mumkinligini isbotlaydilar. Xozirgi kunda jahon pedagogikasida bu muammo bo‘yicha munozaralar olib borilmoqda. Ko‘pgina chet el psixologlari va o‘qituvchilari maqsadga muvofiq boshqarish (muayyan maqsad asosida tarbiyalash) spontan rivojlanishga qarama-qarshidir deb hisoblaydilar. Ularning ta’biricha, bolaning shaxsiy tajribasi tarbiyachining ta’siriga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘z qonuniyatlariga muvofiq shakllanib boradi. Tabiiyki, bevosita ta’sir qilish barcha bolalarning bir xilda rivojlanishiga olib keladi, deb o‘ylansa juda soddadillik qilingan bo‘lardi. Shaxsning individualligi har bir bolaga o‘z qobiliyatlarini har tomonlama to‘liq namoyon qilish imkoniyatini beruvchi badiiy ijodda ochiq ko‘rinadi. Biroq, barcha bolalarga qulay sharoitlar yaratib berilsa ularning har biri estetik faoliyatning o‘ziga tushunarliroq tajribasini muvaffaqiyatli egallaydi deb umid qilish mumkin.

Bolalar bog‘chasida estetik tarbiya yuzasidan olib boriladigan ish tarbiya jarayonining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni tashkil qilish formalari juda xilma-xil va uning natijalari faoliyatining har xil turlarida namoyon bo‘ladi. Bu ish:

— turmushdagi ijtimoiy va tabiat xodisalari bilan tanishtirish orqali, shuningdek mehnat, o‘yin jarayonida atrof-muhitga estetik munosabat tarbiyalashni;

— san’at vositalari (badiiy tarbiya, ijodiy qobiliyatlarii o‘stirish) yordamida estetik tarbiyalashni nazarda tutadi.

Atrof-muhitga estetik munosabatni tarbiyalash bola shaxsiga oid ko‘pgina sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Bu yosh bosqichlarini aniq belgilash juda qiyin bo‘lgan murakkab va davomli jarayondir. Bolalar bog‘chasidagi tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bolani maktabga tayyorlashdir. Shuning uchun maktabga tayyorlov guruhidagi (olti-etti yoshli bolalar) ishning mazmuni zamonaviy maktab talablari va uni rivojlantirish istiqbollari hisobga olingan holda tuzilishi kerak. Bolaning maktabga tayyorlanganligi faqat uning kerakli bilim va malakalar hosil qilishida emas, balki uning yangi vaziyatda bemalol yo‘l topa olishi hamda harakat qila bilishida ham namoyon bo‘ladi. Agarda pedagog o‘qitish va tarbiyaning xar bir bosqichida bolalar tomonidan egallangan bilim va malakalarga tayangan va ancha yuqoriroq bosqichda bola duch keladigan yangiliklarni mo‘ljallab ish ko‘rgan taqdirdagina yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Estetik tarbiyaga doir ishni to‘g‘ri tashkil qilishda har bir yosh guruhidagi bolalar uchun uning taxminiy mazmunini belgilash, tarbiyaning umumiy vazifalariga muvofiq keluvchi konkret talablarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bu estetik tarbiya vosita va metodlarini tanlashda tasodifiylik, stixiyalilik, bir tomonlamalikning oldini olishga imkon beradi, pedagoglarga ishni rejalashtirishga, materialni muayyan izchillikda taqsimlashga, uning pirovard natijalarini ko‘rishga yordam beradi. Dasturda estetik tarbiya ko‘rsatkichlari idrok, tasavvur, xotirani shakllantirishga hamda hayotga aktiv munosabatning paydo bo‘lishiga yordam beruvchi qiziqish, hissiyot, mayl va

qobiliyatlarni o‘stirishga qaratilgan. Bu sifatlarning namoyon bo‘lishini, ularning rivojlanishini kuzatish bilim va malakalarning konkret natijalarini kuzatishdan ko‘ra qiyinroqdir. Bu rivojlanishning izchilligini aniqlash muhimdir. Estetik tarbiya — murakkab jarayon. Shuning uchun ham biz ba’zan «bolalarni emotsional idrok etishga o‘rgatish», «lazzatlanmoq», «sevmoq va intilmoq», «qobiliyatlarini namoyon qilmoq» va shu kabi ifodalarga asoslanamiz, bunda u aynan, nimalarda namoyon bo‘lishini aniqlashtirib beramiz. Masalan, «musiqachilik va shoirlik qobiliyatini namoyon qilish» talab etiladi va ayni paytda buni qanday aniqlash mumkinligi hamda bolalardan nima talab qilinishi: to‘g‘ri intonatsiya, qo‘shiq to‘gri aytilganmi-yo‘qligini tinglab aniqlash, yuqori va past tovushlarni, ularning kuchi va balandligini, kuylashdagi, she’r o‘qishdagi tempning almashuvini farqlash» tushuntiriladi. Estetik tarbiya umumiy pedagogik jarayondan ajralib turmaydi. Estetik tarbiya bola hayotining ko‘pgina tomonlariga singib ketib, bolalarning axloqiy, aqliy, jismoniy rivojlanishlari bilan uzviy bog‘lanadi va ular faoliyatini tashkil qilishning asosiy formalarida: o‘yin, mashg‘ulot, turmush, mehnat, bayram va ko‘ngil ochishlarda amalga oshadi. Dastur talablari qatorida madaniy axloq malakalari — tartibli kiyinish hamda yechinish, tozalik, tashqi ko‘rinishni kuzatish va shu kabilar qayd qilingan. Bu talablar jismoniy rivojlanishga ham, madaniy-gigienik malakalarni egallashga ham taalluqlidir. Biroq axloqning elementar normalarini egallamay turib, bolaning estetik tarbiyasini tasavvur qilish mumkinmi? Bunday oddiy va kundalik axloq ko‘rinishlarini estetik sifatlarning shakllanishi deb hisoblash tabiiy emasmi? Natijada ular bolani ancha teran axloqiy kechinmalarga olib kelishga imkon beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda borliqqa bo‘lgan estetik munosabat o‘ziga xos formalarda, asta-sekin, ba’zan sezilarsiz tarzda sodir bo‘ladi. Masalan, agar uch yoshli bolalar syujetli o‘yinga tarbiyachining tashabbusi bilan kirishsalar va uning ko‘magida o‘ynasalar, to‘rt yoshli bolalarga tarbiyachi mustaqil o‘ynashni tavsiya qiladi, ular, xatto syujetni o‘zlari topa oladilar ham, besh yoshli bolalarga syujetni mustaqil topish va harakatni ochish tavsiya qilinadi, kattaroqlari buni o‘z tashabbuslari bilan xam qila oladilar. Tushunarli va oddiylardan boshlab, talablar asta-sekin murakkablashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar bog‘chasida estetik tarbiya N. A. Vetlugina taxriri ostida. Toshkent — «O‘qituvchi» — 1981
2. Kalinina, T. V., Urivskaya, N. S. Vliyanie detskoy xudojestvennoy literaturы na formirovanie lichnosti rebenka /T.V.Kalinina, N.S.Urivskaya // Molodoy uchenыy. — 2016. — №5. — S. 607-609.
3. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo‘latova, Nargiza Kayumova, Malohat A’zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik 5111800 - Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta ’lim yo‘nalishi taiabalari uchun TAFAKKUR" nashriyoti. Toshkent – 2019.

4-YO‘NALISH.GLOBALLASHAYOTGAN JAMIYATDA TA’LIM-TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING DUNYO TAJRIBASI.

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK AHAMIYATI

Ashirova Sojida Baxramovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta’minoti mavzusida yoritilgan bo‘lib maqolada metodik ta’minot tushunchasining mohiyati, metodik ta’minotning tarkibiy qismlari, ularning ahamiyati va ulardan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarda foydalanishning afzalliklari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: metodik ta’minot, o‘quv metodik ta’minot, dasturiy ta’minot, texnik ta’minot, didaktik ta’minot, tashkiliy ta’minot

Har qanday sohada ma’lum darajada muvafaqqiyatga erishish uchun o‘sha sohaning ta’minlanish darajasi yuqori bo‘lishi lozim. Bu mavzuga oid hayotiy haqiqatlarni biz har kuni hayotiy jarayonlarda ko‘ramiz. Inson faoliyatlarning asosiy mazmunini belgilovchi ta’lim sohasida ham bu masala har doim asosiy masalalardan bir sifatida e’tibor markazimizda turadi. Ta’lim tizimini metodik ta’minlash o‘qitish materiallari to‘plami bo‘lib u barchasi gumanitar fanlar va san’at sohasi, ijtimoiy fanlar, biznes va huquq, fan va muhandislik ishi, ishlov berish texnologiyasi va qurilish, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash sohalari uchun ham berdek ta’luqli masala hisoblanadi.

Mavzuga oid manbalarni o‘rganib chiqish natejasida maqola mavzusining asosiy mazmuni bo‘lgan “Pedagogik dasturiy ta‘minot” masalasi turli manbalarda turlicha talqin etiladi, ammo ko‘pchilik olimlarning fikrlari o‘xshashdir. Misol uchun, Kuxtin D. V “Pedagogik dasturiy ta‘minot ta‘lim tizimini o‘rganish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan alohida dastur va dasturiy paket hisoblanadi” deb ta‘riflaydi. N. N. Gorlushkina esa “Pedagogik dasturiy ta‘minot kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘quv jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlash” deb ta‘kidlaydi. Mazkur muammo ustida ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassislar fikriga ko‘ra pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o‘rgatuvchi dasturlar – talabalarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;
- mashq qildirgichlar - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- virtual o‘quv dasturlar-o‘qituvchi ishtirokidagi masofaviy o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlarni qamrab oladi;

O‘rganilgan dabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish natijasida shu narsa ayyon bo‘ldiki bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta’minotiga qo‘yilgan talablar mavjud:

Metodik ta’minotga qo‘yiladigan didaktik talab-ilmiylik, tushunarlilik, qat’iy bayon etilishi, uzluksizlik, yaxlitlilik, iterfaollik va boshqalar;

Metodik ta’minotga qo‘yiladigan metodik talab-har bir fanning o‘ziga xosligini hisobga olish, axborotning zamonaviy metodlarini o‘zaro bog‘lash, o‘zaro aloqadorlik, turli-tumanlik;

Metodik ta’minotga qo‘yiladigan psixologik talab-idrok etish, tasavvur, motivatsiya, xotira, tasavvur, yosh va individual xususiyatlarning hisobga olinishi;

Metodik ta’minotga qo‘yiladigan estetik talab-tartiblilik va ifodalilik, bezashning funksional talablarga mosligi;

Biz o‘rganayotgan ilmiy muammo mavzusiga oid bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasiga oid bo‘lgan darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalar sonni anchagina. Misol uchun Axmetjanov M. M. va boshq. tomonidan yaratilgan “Kasbiy ta’lim metodikasi” darsligi bo‘lib bu darslikda mualliflar kasbiy ta’limi metodikasining asosiy tushunchalari, uning asosiy qonuniyatlari va ta'lim jarayoni, o‘qituvchi va talaba shaxsi faoliyatini uyg‘unlashtirish texnologiyalari, ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari, kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari, o‘qitish vositalari va ularning qo‘llanishi, kasbiy ta'limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarini qo‘llash, talabalarda umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasiga tavsif berilganligi bilan ahamiyatli bo‘lib, bu darslik aynan mana shu mavzuga oid bo‘lgan dasturiy vosita bo‘la oladi [5]. A. I. Avazboyev va boshq. tomonidan yaratilgan “Kasbiy pedagogika” nomli qo‘llanmada kasbiy ta’limning maqsadi va vazifalari; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida kasblar va mutaxassisliklar klassfikatsiyasi, kasbiy ta’limning mazmuni, uni tanlash va tahlil qilishning ilmiy-usubiy asoslari; kichik mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish qonuniyatlari; kasbiy ta’lim sohasida xalqaro tajriba mavzulariga oid manbalar keltirilgan bo‘lib bu qo‘llanma ham bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga bo‘lgan tayyorgarligini rivojlantira oladigan metodik manba sanaladi. Bundan tashqari G. O. Ochilova tomonidan yaratilgan “Kasbiy kompetentlik” nomli o‘quv qo‘llanma mavjud mazkur o‘quv qo‘llanma kasbiy kompetentlik, zamonaviy pedagog modeli, kasbiy kompetentlikning metodologik asoslari, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik mahoratning o‘rni va roli, ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda kasbiy kompetentlikning ahamiyati, kreativ yondashuv asosida kasbiy mahoratni rivojlantirish yo‘llari haqidagi ma’lumotlar bilan boyitilgan bu qo‘llanma bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratni va kasbiga bo‘lgan muhabbatini shakllantirishda foydalaniladigan adabiyot bo‘la oladi.

Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mavzusida olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz uchun metodik

ta’minot bo‘la oladi. Ta’kidlab o‘tish joizki o‘rganilgan adabiyotlar va manbalar o‘rganilib chiqilishi natijasida aynan maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasiga oid darslik yoki o‘quv qo‘llanma mavjud emas. Ko‘rinadiki bu mavzu yuzasidan olib borilayotgan ilmiy ish natejalari amaliyotga tadbiq etilishi zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta’minoti sifat va saviya jihatdan yuqori darajada bo‘lishi zarur chunki bo‘lajak soha mutaxassislari tanlagan mutaxassisliklarining eng asosiy jihatlari, asosiy mezonlarini, kasbiy va shxsiy talablarini metodik ta’minotning tarkibini hosil qiluvchi darsliklardan, o‘quv qo‘llanmalardan, zamonaviy dasturiy vositalardan, texnik vositalardan hamda tashkiliy vositalardan foydalanish orqali egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. Xodjaboyev, I. Husanov “Kasbiy ta’lim metodologiyasi” o‘quv qo‘llanma T.: “Fan va texnologiya” 2007-yil 192 bet.

2. D. Elmuratova, N. Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet.

3. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o‘quv qo‘llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet

4. I. M. Sirojiddinova “Kasbiy ta’lim metodikasi” o‘quv qo‘llanma Andijon “Noshirlik” 2021-yil 220 bet.

5. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdona” 2020-yil 496 bet.

6. M. T. Axmedova “Pedagogik konpetentlik” uslubiy qo‘llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.

BOLANING MAKTABDA MUVAFFAQIYATLI O‘QIISHIDA JISMONIY TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI

Asqarova Dilorom Qurbonovna,
NamDU.Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti
Qurbonova Xurshida Abdulboqi qizi,
NamPI talabasi

Annotatsiya: Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o‘zgarishi, jiddiy o‘quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo‘r berishni talab qiladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tayyorlashning ahamiyativametod, vositalarining afzalliklari haqida ma’lumot berilgan.

Tayanch so‘zlar: Kun tartibi, chiniqtirish, muolajalar, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, harakatli o‘yinlar, jismoniy mashqlar, faol harakat rejimi, jismoniy tayyorlik.

Bolaning maktabda o‘qishga jismoniy tayyorligi o‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o‘zgarishi, jiddiy o‘quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo‘r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko‘pgina tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu, birinchi navbatda, bola salomatligining yaxshi bo‘lishi, organizmning chiniqqanligi, ma’lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko‘rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o‘rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy shartidir. Maktabga jismoniy tayyorlik,shuningdek, bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Jismoniy tayyorlik bolada maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog‘ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko‘rsatkichlar, suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir tizimining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko‘p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikning, «Maktabga yetuklik»ning asosiy ko‘rsatkichi va, eng avvalo, bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan tormozlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan, yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek, ikkinchi signal tizimning yetarlicha rivojlanganligi kiradi.

Bolalarni tekshirish ularni maktabda olti yoshdan o‘qishlari mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Bolalarning maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko‘pchilik bolalarda uning asosiy ko‘rsatkichlari me’yor atrofida ekanligini va hatto undan ilgarilashini ko‘rsatdi. Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, xilma-xil harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlar, faol harakat rejimi bolalarning maktabda o‘qishga jismoniy tayyorligini ta’minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug‘ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik vazifasini o‘tashini, oila yoki Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirip kerak bo‘ladi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik vazifasini utashini, oila yoki maktabgacha ta’lim tashkilotdagi ta’lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga utishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayok maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi: jismoniy;shaxsiy (ruhiy) aqliy; maxsus tayyorgarlik.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o‘zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo‘lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo‘lishi kerak. Bolaning maktabda (o‘qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o‘zaro bog‘langan jihatlar mavjud bo‘lib, ulardan muhimlari ma’naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Mashxur Yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: “Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi - go‘zallikdir” degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma’naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog‘lom, baqquvvat, iymon-e’tiqodli va sadoqatli bo‘ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo‘r omiliga aylanadi. Xalqning anna shunday baxt saodati uchun sog‘lom avlod kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino “Badan tarbiya – sog‘likni saqlashda ulug‘vor usuldir” deydiki, bu fikr “Kimki qilsa harakat – sog‘lig‘ida barakat”degan naqli eslatadi.

Qadimda xalqimiz badan tarbiyani riyozat deb atashgan. Ibn Sino “Tibbiy doston”asarida riyozat - badan tarbiyasi haqida to‘xtalib, uning bir necha xillari bo‘lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o‘rtacha shug‘ullanish sog‘liqqa foydali ekanligini, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yig‘ilishiga sabab bo‘lishini alohida uqtirib o‘tadi.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksizligini D.Adisson shunday ta’riflaydi: “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur”. Suqrot hakim esa bunday deydi: “Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to‘g‘rilab olaman”. Bolaga ta’lim - tarbiya berishda amalga oshiriladigan har qanday ishning muvaffaqiyatli bajarilishi bolaning sog‘lig‘iga

bog‘liq. Shuning uchun ko‘pchilik pedagogik ishlar bolaning jismoniy imkoniyati va sog‘lig‘ini e’tiborga olgan holda amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi, Toshkent-2022y.
2. Davlat ta’lim standartlari.
3. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
4. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.
5. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – Toshkent, 1997.

IMPROVING READING SKILLS THROUGH EFFECTIVE READING STRATEGIES

Azamova Zarnigor Rustamjon qizi
University of Economics and Pedagogy
1st degree student of English language and hilology
Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi
Teacher:

Abstract: Researchers have found that teaching reading strategies is a key element in developing student comprehension. However, many teachers lack a solid foundation for teaching these reading comprehension strategies. Therefore, teachers need to be prepared on how to design effective comprehension strategies and how to teach these strategies to their students. Therefore this study aims to study the effective reading strategies in order to improve reading skills in language classes. The study is an action research applied to a number of 14 students in an intermediate level integrated skills course. The main question of the study is “Would reading strategies help my students’ reading comprehension studies?” The results of the study indicate that the students had an improvement to a great extend have been tutored about the reading strategies.

Keywords: Reading strategies; predicting; visualizing; inferring; making connections; questioning; action research.

1. Introduction

Reading is a lifelong skill to be used both at school and throughout life. According to Anderson, Hiebert, Scott, Wilkinson, reading is a basic life skill. It is cornerstone for a child’s success in school and, indeed, throughout life. Without the ability to read well, opportunities for personal fulfilment and job success inevitably will be lost. Despite its importance, reading is one of the most challenging area in the education system. The over-increasing demand for high levels of literacy in our technological society makes this problem even more pressing. Students’ attitudes regarding the purposes for reading also influence their ability to read. If students want to get the most out of the materials they are assigned, they to learn to read critically or analytically. The idea here is that when we read something, we encounter two layers of reality: one that we can see and one we cannot see. Therefore, the purpose of

reading is to make the invisible layer, the underlying meaning, visible and clear. Teele asserts that the goal of all readers should be to understand what they read. Research shows good readers are actively involved with the text, and they are aware of the processes they use to understand what they read. Teachers can help improve student comprehension through instruction of reading strategies. Predicting, making connections, visualizing, inferring, questioning, and summarizing are strategies shown by research to improve reading comprehension. It is important to learn the strategies by naming the strategy and how it should be used, modelling through the think-aloud process, group practice, partner practice, and independent use of the strategy.

1.1 Predicting

In order to be a good reader, learners should set a goal for their reading; therefore good readers have a purpose for reading. One strategy for improving comprehension is predicting, which helps the reader set a purpose for their reading. Research has shown that good readers use their experiences and knowledge to make predictions and formulate ideas as they read. This strategy also allows for more students interaction, which increases students interest and improving their understanding of the text. It is important to compare the outcome in the actual text with the prediction process as it will lead the learner to improve his understanding. Without this aspect of the prediction process, it becomes meaningless to improving the student's comprehension. Some of the approaches for teaching predicting are teacher modeling, predicting throughout the text; with partners, with a graphic organizer, or using post-it notes throughout the text. Using the title, table of contents, pictures, and key words is one prediction strategy. Another key prediction strategy is to have students predict at specific points through the text, evaluate the prediction, and revise predictions if necessary.

1.2Visualizing

Another strategy that the good readers employ when comprehending a text is visualization. Visualization requires the reader to construct an image of what is read. This image is stored in the reader's memory as a representation of the reader's interpretation of the text. Teachers can motivate students to visualize settings, characters, and actions in a story and ask them to make drawing or write about the image that come to their minds after visualizing the text.

1.3 Making Connections

Making connections is another strategy that can be used in the reading process. By making connections, the learners can activate their prior knowledge and connect the ideas in the text to their own experience. Reading becomes meaningful when the reader connects the ideas in the text to their experience and beliefs, and the things happening in the outer world. "Text-to-Text, Text-to-Self, Text-to-World" is a strategy that helps students make connections. Students can make text-to-self connections through drawing, making a chart, or writing. Teachers might ask students if they have ever experienced anything like the events in the text. Students can make text-to-text connection through drawing, making a chart, writing, and graphic

organizers. These text-to-text connections could be based upon how characters in the story relate to each other, or how story elements relate between stories. Students can make text-to-world connection through drawing, making a chart, writing, or graphic organizers. Text-to-world connections could be done by comparing characters in a story to a characters today or comparing the content of the text to the world today. Giving a purpose to students' reading by asking them to find connections would help them comprehend the ideas better in the text.

1.4 Summarizing

The process of summarization requires the reader to determine what is important when reading and to condense the information in the readers own words. During the summarizing process, the students will be able to distinguish the main ideas from the supporting ideas. Distinguishing the related knowledge from the unrelated ones is another point in the summarizing process which will help students' capacity to improve text comprehension. Summarizing is a strategy which helps the students to organize the ideas even in the long reading passages which are usually perceived as threat for the students.

1.5 Questioning

• Limits of individual education; Digital educational technologies provide opportunities to stimulate and develop individual learning, but this leads to problems in the development of moral and aesthetic education of individual learning [3]. Students may be deprived of opportunities to work together with other students and construct their own learning processes.

• Ensuring personal development of students;

These problems are the problems that should be solved in order to facilitate the development of moral and aesthetic education in digital education. Digital learning technologies are facing these challenges and need to find the best ways to solve them.

We recommend using the following ***methods*** to solve these problems:

1. Explain the limits of human experience: Interactive programs and games can be created to explain the limits of human experience to students. These programs challenge students to connect themselves with others and analyze human problems.

2. Personal relationships and communication of students: Online forums, chat platforms and guides can be created to develop personal relationships and communication of students. Through this, students will have the opportunity to develop relationships with each other and improve moral and aesthetic education [4].

3. Ethical-aesthetic programs and materials: In order to create ethical-aesthetic programs and materials, educational materials should be compiled in forms with ethical-aesthetic content. These materials help students to understand and develop their understanding of human problems.

4. Limits of individualized learning: Personalized programs and platforms can be created to encourage and develop individualized learning. These programs encourage students to connect and collaborate with other students, and to create personalized learning experiences.

5. Provide personal development of students: Greater opportunities for mentoring and program support can be created to ensure personal development of students. It is important to collaborate with counselors and mentors who help students understand and prioritize moral-aesthetic content.

Using these methods, you can find a solution to the problems in the development of moral and aesthetic education of digital education. These methods will be useful in improving students' understanding of human problems and moral-aesthetic education.

Conclusion. Digital technology education plays an important role in the development of moral and aesthetic education. These technologies enable students to learn interactively, to be creative and creative, to help them understand their connections to the world, and to inspire them to innovate and create. Additionally, digital technologies attract the attention and interests of students, in general, through them, it is possible to develop their moral and aesthetic experiences. Education of digital technologies is reflected as an important tool in the development of moral and aesthetic education of students.

References:

1. Bobunova, A., Zhabo, N., & Avdonina, M. (2020, September). The concept of moral and aesthetic education in a modern foreign language classroom. In Proceedings of the 2nd World Symposium on Software Engineering (pp. 226-230).
2. Mahmudova, G. G. U., & Jumayeva, S. Q. Q. (2022). O‘quvchilarning estetik tarbiyasini rivojlantirish. Central Asian academic journal of scientific research, 2(10), 137-141.
3. Xusanov, B. (2024). Estetik tarbiyani klasterlashning ijtimoiy-ma’naviy zaruriyati. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 229-233.
4. Bazarova, U. M., Ashirmatova, M. J., & Alibekova, R. X. (2022). The content and pedagogical conditions of moral and aesthetic education of the younger generation. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

PIRLS TOPSHIRIQLARINI O‘RGATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (4K MODELI MISOLIDA)

Hasanova Sabohat Komil qizi
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qish jarayonida xalqaro baholash tadqiqotlari va 4K modelining afzalliklariga metodik tahlil-tavsiya berilgan.

Kalit so‘zlar: 4K modeli, PIRLS xalqaro baholash dasturi, topshiriqlar, mexanizm, tadqiqot, o‘qish savodxonligi, ko‘nikma, kommunikatsiya, kritik fikrlash, kollaboratsiya, kreativ fikrlash.

PIRLS xalqaro baholash dasturini ommalashib borayotgan so‘zi bilan qo‘lllash bugungi kunda noo‘rin bo‘ladi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, tadqiqot doirasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. O‘qituvchilar va o‘quvchilar dasturga moslashish jarayonida, o‘zlari ham tadqiqot ustida amaliy ishlar olib borilmoqda.



- fikrlashdan ko'ra xotiraga ko'proq e'tibor qaratish ("xotira maktabi");
- ijodkorlikni, mustaqillikni, faollikni rivojlantirishga ko'p hissa qo'shmaydi;
- axborotni idrok etishning individual xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmagan;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning subyektiv-ob'ektiv uslubi ustunlik qiladi

Yangi darsliklar zamon talabiga binoan, xalqaro baholash dasturining talablariga xos tarzda yaratilmoqda. Ularning metodikasi 4K modeliga asoslangan bo‘lib, an’anaviy ta’lim o‘qitish tizimidan tubdan farq qiladi. Bu jarayonni isbotlangan misollar bilan ko‘rib chiqamiz:

An’anaviy ta’lim tizimida ilmiy ustunlik o‘qituvchi tomonida bo‘lgan. Bugungi kunda 4K modeli o‘zida mujassamlashtirgan g‘oya, maqsad va vazifalariga ham ustoz yetakchilik qilgan. Bugungi zamonaviylashgan va integratsiyalashgan ta’lim

tizimida asosiy obyekt o‘quvchilarga qaratilmoqda. [1; 34-b] Bu jarayonda foiz ko‘rsatkichlari o‘zgarganiga guvoh bo‘lish mumkin:



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma vositasida tahlil qilindi. Erishilgan natijalardan ma’lum bo‘ldiki, PIRLS xalqaro baholash dasturida berilgan topshiriqlarda asosiy obyekt o‘quvchi hisoblanadi, ushbu toshiriqlarini bajarish orqali o‘quvchilarning kreativ fiklashi, tanqidiy tahlili, hamkorlik qobiliyati va ijtimoiy munosabatlari shakllantiriladi. [2; 35-b]

PIRLS hikoyalari zamonaviy ta’lim uchun ahamiyatlidir. Hikoyalarning mazmun-mohiyatini xulosalash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan birgalikda tarbiyaviy jarayonni ham tashkillashtirish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun o‘qituvchilardan ijodiy fikrlash talab etiladi.

PIRLS xalqaro dasturi talablaridan kelib chiqib tayyorlangan topshiriqlardan foydalanilganda, o‘quvchilarning qiziqishi, kreativligi, sezilarli darajada faollashdi.

4K modeli metodikasi quyidagilardan tashkil topgan:

-Kommunikatsiya; o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshini tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadilar.

-Kritik fikrlash; ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantishmi o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradilar.

-Kollaboratsiya; o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

-Kreativ fikrlash; ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion va ijodiy muammolardan hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. [3; 67-b]

4K modeli metodikasi bilan tanishar ekanmiz, zamon talabiga mos yetuk kadrlarni rivojlantirish maqsadi ilgari surilgan. Boshlang‘ich sinflarni 1-sinfdanoq xalqaro baholash dasturi tadqiqotlariga tayyorlab borish, kelajakda yuksak o‘rinlarni egallashga yordam beradi deb hisoblayman.

Ko‘pgina yosh o‘quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to‘plamlari yoki rasmli kitoblar) yoki o‘quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma’lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma’lumotli matnlardan iborat bo‘ladi. Yosh o‘quvchi uchun o‘qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o‘qish turini baholashda matnlarni teng bo‘lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Biblioterapiya va PIRLS taqdiqiqotlarini bog‘lab turuvchi muhim ahamiyat ham tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish, ijobiy harakterni shakllantirishdir. [4; 24-b]

Dars jarayonida 4K modeli va PIRLS tadqiqotlari integratsiyasi talab doirasida natija berishiga ishonaman va qo‘llab-quvvatlayman.

Yuqorida aytib o‘tilgan ma’lumotlar yuzasidan tahlil qiladigan bo‘lsak, tadqiqot doirasida hikoya tahlili va natijani ko‘rib chiqamiz.

Rayhon hidi

Boburjon supada yotib yulduzlarni tomosha qilar ekan, qalbini o‘rtab kelayotgan sog‘inch yuragiga nishdek sanchildi. Ha, o‘sha damlar baribir boshqacha edi. Yulduzlarga termulib, rayhon hidi ila buvisining hikoyalarini tinglar edi. Har tun bir quchoq bola supa yonida joylar to‘shab buvisining kelishini intizorlik bilan kutishardi. Bir hikoya qalbimda chuqur iz qoldirgan. Sening ham esingdami? – esimda, aka, hammamiz yig‘lagan tunni aytyapsizmi? Unutib bo‘larmikin. Onasi buyurgan ishlarni erinchoqlik qilib qilinmagan Boburjondan buvisi juda hafa bo‘ldi. Balki, shunday yoshdadir deb, nasihat qilib emas, tunda hikoya aytib ogohlantirishni diliga tugdi. Ha, mana rejalashtirilgan hikoyaning vaqti soati ham keladi. Barcha bolalar o‘z joyiga joylashgan, buvisining bugun qanday mavzuda hikoya so‘zlashlarini bahslashishar edi. Ohista va sehrli ovozlari ila hikoya boshlandi. Bir ayolning ikki farzandi bor edi: o‘g‘il va qiz. Ona bor mehrini berib farzandlarini boqib katta qilar ekan, bu ikki farzand esa noahilligi bilan onasini qalbiga ko‘p ozor berar edi. Sho‘rlik ona nasihat qilsada, hech kor qilmadi. Kunlardan bir kun kasal bo‘lib qolgan ona farzandlaridan suv so‘rabdi. Ikki bir-biriga sen olib kel, yo‘q sen olib kel deb talashib, tortishibdi. Bu holatni kuzatgan, suvsagan onaizor farzandlaridan hafa bo‘lib, oq qushga aylanibdi-da uchib ketibdi. Ikki farzandi zor-zor yig‘lab onasining ortidan yig‘lasa-da, onasi ortga qaytmabdi. Ko‘z qirini Boburjonga tashlab qo‘ygan buvisi bolalarning fikrini so‘rabdi. Ko‘zlari yoshga

to‘lgan besh bola bir-birini quchoqlab rosa yig‘labdi. Ammo, shunday bo‘lishiga qaramay hamma o‘z hayolida vijdoni bilan yolg‘iz qolgan edi. Buvisi jilmayib maqsadiga erishganini bildirib qo‘ydi va nasixat, dakkilarga hojat yo‘qligini angladi. Buvimni eslasam, o‘sha-o‘sha hikoyalar, rayhon ifori yodimga tushadi. O‘sha paytlar osmonga, yulduzlar bag‘riga uchar edim! Hozir bora-bora ahillik, oqibat, mehr yo‘qolib borayotgan vaziyatda qani endi buvim va yana o‘sha dimog‘imni egallagan rayhon ifori bo‘lsa edi… Aka-ukalar yana ko‘zlariga yosh oldi.

Savollar:

1.Boburjon kimni sog‘ingan edi?
a) dadasini
b) buvisini
c) ukasini
d) do‘stini
2.Yulduzlarga termulib nimalarni xotirladi?
a) rayhon hidi va buvisining hikoyalarini
b) ukasi bilan suv sepib o‘ynaganini
c) onasining allalarini
d) mazza qilib uxlaganini
3.Buvisi qanday inson edi?
a) shovqin yoqmas edi
b) ko‘p nasixat qilardi
c) oqila ayol edi
d) nevaralarini tergar edi
4.Nasixat o‘rniga qanday yo‘l tutildi?
a) hikoya
b) sayohat
c) uyqu
d) xarid
5.Hikoyadagi voqealarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring. Birinchisi siz uchun bajarilgan.
___ Ko‘zlari yoshga to‘lgan besh bola bir-birini quchoqlab rosa yig‘ladi.
___Yulduzlarga termulib, rayhon hidi ila buvisining hikoyalarini tinglar edi.
___Kunlardan bir kun kasal bo‘lib qolgan ona farzandlaridan suv so‘rabdi.
___ Aka-ukalar yana ko‘zlariga yosh oldi.
6.Rayhon ifori va buvisining ertaklaridagi bog‘liqlik haqida fikrlang.
7.Hamma o‘z hayolida vijdon bilan yolg‘iz qolganida nima haqida gaplashishgan edi?
8.Buvisining jilmayishida qanday maqsad bor edi?
9. “O‘sha dimog‘imni egallagan rayhon ifori bo‘lsa edi” jumlasini izohlang.
10. Hikoyani shaxslarini o‘zgartirib qayta hikoyalang. [5; 77-b]

Mazkur hikoyani o‘qib, tahlil qilar ekanmiz, o‘quvchilar savollarga javob berish jarayonida o‘z shaxsiy fikrini bildira oladi. Negaki, PIRLS ning kutayotgan natijasi ham aynan shunda. Matn mazmuni o‘quvchining shaxsiy fikridan kelib chiqib,

xolislik bilan baholanishi va tanqid qilinishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma’qullash, matn mazmuniga nisbatan betaraflikni bildirish kabilarni talab qiladi. Masalan, o‘quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e’tiroz bildirishi yoki boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar bilan matnda berilgan g‘oyalarni taqqoslashi mumkin.

Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o‘quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Yosh o‘quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg‘ularni o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o‘quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to‘qimaga asoslangan hikoyalardir.

Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni “badiiy tajriba orttirish”, “axborotni olish va undan foydalanish”ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi.

Bular:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ina V.S.Mullis va Micheal O.Martin, muharrirlar PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi Toshkent 2021
2. Hasanova Sabohat Komil qizi “Kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘zlashtirishida biblioterapiyaning o‘rni” Ta’lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: Nazariya va amaliyoti Respublika II ilmiy – amaliy konferensiyasida 2023
3. Hasanova Sabohat Komil qizi “Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturini takomillashtirish” Zamonaviy Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalar, muammolar va rivojlantirish istiqbollari xalqaro ilmiy- amaliy konferensiyada 2023

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G. Sh. Ibrohimova

NamDPI 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: PhD M. H. Asranbayeva

Annotatsiya: Davlat o‘quv dasturlari asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish yuqori sifatli ta’lim berish yo‘lidagi fundamental qadamdir. Ushbu maqola pedagogik jarayonni takomillashtirishning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan adabiyotlarning har tomonlama tahlilini taqdim etadi. Shuningdek, u pedagogik jarayonlarni davlat o‘quv dasturiga muvofiq takomillashtirish usullarini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik jarayonlar, o‘quv rejasi, metodikasi, o‘qituvchilari, o‘quvchilari, hamkorlik va o‘zaro ta’lim.

Pedagogik jarayonlar o‘qituvchilar tomonidan samarali o‘qitish va o‘rganish tajribasini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan strategiyalar, usullar va vositalarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar o‘quv dizayni, baholash usullari, boshqarishni tashkil etish va talabalarning faolligini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Davlat o‘quv dasturi o‘qituvchi va pedagoglar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi hamda unda talabalar har bir bosqichda egallashlari kutilayotgan o‘quv maqsadlari, mazmunlari, standartlari va ko‘nikmalarini belgilaydi. U ta’lim jarayonlarini tashkil etishni ishlab chiqish va ta’lim izchilligini ta’minlash uchun asos yaratadi. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish davlat o‘quv dasturining maqsad va talablariga yaxshiroq moslashish uchun mavjud jarayonlarni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘qitish metodologiyasini yangilashni, innovatsion o‘qitish usullarini o‘z ichiga olishi, texnologiyadan foydalanishni va o‘rganish tajribasini shaxsiylashtirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuningdek pedagogik jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha

adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish asosiy xulosalarni ochib berishi ham mumkin.

Differentsial ta’lim talabalarning turli xil o‘rganish ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga ega ekanliklarini tan oladi. Ta’limni individual talabalarga moslashtirish orqali talabalarning ta’lim natijalarini optimallashtirishi va talabalarning faolligini oshirishi mumkin. Differentsiallashtirilgan ta’lim turli xil talabalar profillarini moslashtirish uchun turli mazmun, o‘qitish strategiyalari va baholash usullarini o‘z ichiga oladi.

Faol ta’lim usullari talabalar ishtirokini, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. Guruhdagi muhokamalar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi ta’lim va so‘rovga asoslangan ta’lim kabi usullar o‘quvchilarning faolligini va mavzuni chuqurroq anglashini ta’minlaydi. Formativ baholash amaliyoti o‘quv qarorlarini qabul qilish uchun talabalarning taraqqiyoti haqida doimiy fikr-mulohazalarni yig‘ishni o‘z ichiga oladi. Muntazam ravishda o‘tkaziladigan testlar, sinfdagi kuzatishlar va o‘z-o‘zini baholash talabalarning kuchli tomonlari va yaxshilashga muhtoj bo‘lgan sohalari haqida tushuncha beradi. O‘qituvchi hamda pedagoglar ushbu ma’lumotlardan ko‘rsatmalarni sozlash va maqsadli yordam ko‘rsatish uchun foydalanishlari mumkin.

Pedagogik jarayonlarga texnologiyani integratsiyalash talabalarning faolligini oshirishi va interfaol ta’lim tajribasini osonlashtirishi mumkin. Multimedia taqdimotlari, simulyatsiyalar, onlayn resurslar va ta’limni boshqarish tizimlari kabi ta’lim texnologiyalari vositalari shaxsiylashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashi, hamkorlikni rivojlantirishi va keng doiradagi o‘quv materiallaridan foydalanishni ta’minlashi mumkin.

Davlat o‘quv dasturi asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish uchun pedagoglar quyidagi usullarni ko‘rib chiqishlari mumkin:

Mavjud tadqiqotlar, o‘qitish strategiyalari va ta’lim tendentsiyalari bilan yangilanib turish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlari bilan shug‘ullanish. Pedagogik mahoratni oshirish va boshqa pedagoglar bilan fikr almashish uchun seminarlar, konferentsiyalar va vebinarlarda qatnashish.

Eng yaxshi tajribalarni baham ko‘rish, muammolarni muhokama qilish va o‘qitishning innovatsion yondashuvlarini o‘rganish uchun hamkasblar bilan hamkorlik qiling. Professional o‘quv jamoalarida qatnashish yoki onlayn forumlarga qo‘shilish hamkorlikda o‘rganish va bilim almashish imkoniyatini beradi.

Pedagogik jarayonlarni davlat o‘quv dasturlari asosida takomillashtirish talabalarga samarali va tegishli ta’lim berishda muhim ahamiyatga ega. Differentsiallashtirilgan ta’lim, faol o‘rganish strategiyalari, formativ baholash amaliyotlari, texnologiya integratsiyasi va kasbiy rivojlanishda ishtirok etish orqali o‘qituvchilar o‘qitish va o‘rganish tajribasi sifatini oshirishi mumkin. Ushbu usullarni qabul qilish talabalarning faolligini oshirishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va davlat o‘quv dasturida ko‘rsatilgan o‘quv maqsadlariga erishishga yordam beradi. Oxir oqibat, bu yaxshi ta’lim natijalariga olib keladi va talabalarni tez rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek,

pedagogik jarayonni rivojlantirishda davlat ta’lim dasturlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat ta’lim dasturlaridan foydalanish samarali. Zero, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ma’lum dastur asosida ishlash va ta’lim jarayonini tashkil etish kutilayotgan natija sifatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.: 2022. – B.100.
2. Shodmonova Sh.S., Ergashev P.S. Qiyosiy pedagogika (Metodik qo‘llanma) – T.: 2005. –B.153.
3. Qodirova F. R., Toshpo‘latova Sh. Q., Qayumova N.M., A’zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur, 2019.–B.683.
4. Sodiqova Sh., Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.–B.290.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN ISHLASHDA INNOVATSION SHAKLLAR, USULLAR, TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti,

maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchi.

"Kelajakni yaratishga dadil, hayratlanarli va yorqin orzulardan ko'ra ko'proq hissa qo'shadigan hech narsa yo'q ..." Maktabgacha yoshdagi bolalar orzu qiluvchi va xayolparastdir. Pedagog sifatida ishlash bolalar bilan birgalikda tasavvur qilish va orzu qilish demakdir. Yaxshi pedagog - bu bolalarning orzularini maqsadga aylantiradigan va maqsadlarni ajoyib natijalarga aylantiradigan "yordamchi" dir. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish va uning yangi sifat bosqichiga o'tishni innovatsion shakllar, usullar, vositalar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos mazmuni bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, dasturning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi va muloqot, o‘yin, kognitiv tadqiqot faoliyatida, shuningdek, bolaning rivojlanish mexanizmlari orqali amalga oshirilishi mumkin.” Agar bola o‘zi hech narsa yaratishni o‘rganmasa, unda hayotda u har doim faqat taqlid qiladi va ko‘chiradi”- degan edi L.N. Tolstoy

Pedagogning innovatsion faoliyati ta'lim jarayonining zaruriy qismidir. Innovatsiyalarni joriy etish pedagoglarning o‘z faoliyatini o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish va ta’lim jarayonlarida nostandart usullardan foydalanish zarurligini bildiradi. O'qituvchining ishi faqat eski va tasdiqlangan usullar bilan cheklanmasligi kerak;

Har qanday texnologiya bolalar faoliyatini rag'batlantiradigan, faollashtiradigan va shakllantiradigan vositalarga ega. Ba'zi texnologiyalarda bu vositalar natijalarning samaradorligi uchun asosiy g'oya va asosni tashkil qiladi. Bunday texnologiyalarga o'yin texnologiyalari kiradi.

O'yin maktabgacha yoshdagi yetakchi faoliyatdir. O'yinning rivojlanish salohiyati uning tabiatida yotadi. O'yinning pedagogik ahamiyati shundaki, u eng kuchli rag'batlantiruvchi omilga aylanadi;
Hamma narsa juda oddiy va hayotiy: kattalar tartib o'rnatadi va bola bu tartib doirasida rivojlanadi, lekin faqat shaxsiy ehtiyojlariga qarab o'z ritmi va tezligida. Ushbu talablarning barchasi davlat o‘quv dasturiga mos keladi.



Soti Kaye - "Kaye uychalari” tizimi ixtirochi Viktor Avgustovich Kay tomonidan ixtiro qilingan.“Soti Kaye tizimini 3 yosh va undan katta bolalar bilan individual yoki guruh o'yinlari uchun ishlatilishi mumkin. Bu ko'p funktsiyali, o'zgaruvchan didaktik va o'yin tizimi. Ushbu o'yin tizimidan uyda ham, guruhda ham loyihalash, konstruktsiyalash, bolalar dizayni sohasida tajriba o'tkazish, geometrik shakllarni yaratish va domino o'ynash uchun foydalanish mumkin.

Ushbu texnologiya muallifi - texnik muhandis va ixtirochi Viktor Avgustovich Kaye. An'anaviy jumboqlardan farqli o'laroq, Kaye o'yinlari ochiq tizimdir - ular bir nechta o'yin variantlariga ega va juda ko'p turli xil yig'ish variantlari mavjud. Bundan tashqari, oddiy mozaikadan farqli o'laroq, ular nafaqat estetik tuyg'u va nozik vosita mahoratini, balki fazoviy fikrlashni ham rivojlantiradi va bu maktabgacha yoshdagi bolalarning ichki motivatsiyasining hosilalaridan biridir. Ushbu texnologiya ko'p qirrali va o'zgaruvchan.


Ko'p qirraliligi - bu to'plamdan chizmalar qismlaridan figuralarni yaratish uchun grafik dizayner sifatida, natijada olingan raqamlarni o'zgartirish uchun grafik transformator sifatida, tekis katta mozaika sifatida, boshqotirma sifatida foydalanish, loyihalash va tajriba o'tkazish uchun foydalanish qobiliyatidir. bolalar dizayni va me'morchiligi sohasida , bolalar dominolarini o'ynash uchun.
O'zgaruvchanlik - bu ikki, uch yoki undan ortiq elementlarni nisbiy joylashtirishning bir nechta variantlari, elementlarning nisbiy joylashuvining bir nechta ko‘rinishlari, elementlarni tekislikda ulashdan keyin olingan geometrik naqshlar va shakllarning turli variantlari (o'yin elementlari bir-biriga yon tomonlari bilan tegib turadi) .
Kaye asal ari uychalari ham deb atash mumkin, maktabgacha yoshdagi bolaga nima beradi? Birinchidan, ular ijodiy, fazoviy va assotsiativ fikrlashni shakllantiradi, fantaziya, ijodiy tasavvur, badiiy did va tengdoshlar jamoasida ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.







Klassik mozaikadan farqli o'laroq, chuqurchalar juda katta, shuning uchun ular o'yinchoqlar orasida yo'qolib qolishidan tashvishlanishingiz shart emas. Odatda, bolalar alohida qismlardan qandaydir katta tasvir hosil bo'lishini ko'rganlarida to'liq zavqlanishadi. Bola birlashtirilgan tasvirlarni yaratish tamoyilini o'zlashtirganda, u taklif qilingan namunalardan farqli o'laroq, o'ziga xos narsalarni qurishga harakat qilishi mumkin. Shunday qilib, u simmetriya tamoyilini, dizayn



mahoratini, shuningdek, xayoliy fikrlashni o'zlashtiradi. Bundan tashqari, bolalarga shakldagi ranglarni bir-biri bilan solishtirish va ularning hajmini aniqlash uchun topshiriqlar berilishi mumkin.Ms;Juji asalarida g‘aroyib sariq-ko‘k uychalar paydo bo‘ldi.U ikkita bir xil uychani qidiyapti, u topa oladimi? Bolalar Jujiga yordam berish uchun bir xil 2 ta katkchani topadilar va yonma yon qo‘yib, turli shakllar chiqaradilar. Xuddi shu kabi turli topshiriq shakllarini orqali o‘yinlar tashkil qilinadi.

Muammoni qidirish shaklida shakllantirish kerak, shunda bola javobni mustaqil ravishda topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko'k va sariq katakchalar bilan o'yinni ishlatiladi. Kichik guruhlarda bir xil sariq ranglilaridan foydalaniladi.Bu yerda siz "Kaye uychalari” (Соты Кайе) dan rasmni o‘zgartirish vazifalari bilan konstruktor sifatida foydalanishingiz mumkin. Tayyor naqsh elementlarini aylantirish yoki qayta tartibga solish orqali yangi naqsh xosil qilishingiz mumkin. Bir nechta qiyinchilik darajalariga qarab faqat bolalar uchun emas, balki kattalar uchun ham qiziqarli.

1. Bolalarda mantiqiy, ijodiy, assotsiativ fikrlash va sensorimotor muvofiqlashtirishni shakllantiradi.
2. Fantaziya, tasavvur, ko'z, ijodkorlik, individuallik va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
3. Aniqlik, diqqatni jamlash, qat'iyatlilik, sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.
4. Tashqi dunyoni mazmunli idrok etish, tekislikda va fazoda mo‘ljal olish, kompozitsiya, mutanosiblik, simmetriya, shakl va go'zallik hissini rivojlantirishga yordam beradi.



5. Konstruktiv faoliyatni shakllantirish, uning davomida bolalarning intellektual rivojlanishi sodir bo'ladi.
6. To'plam bolalar uchun didaktik vazifalarni qo'yish imkonini beradi: kattalar ko'rsatmalariga binoan yoki boshqa bolalar tomonidan berilgan misol bo'yicha kompozitsiyani yig'ish. O'z-o'zini tekshirish va o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro tekshirish, o'zaro nazoratni shakllantirishga yordam beradi.




7. Tanlovlar, musobaqalar, turnirlar o'tkazishingiz mumkin




Bu uychalarni shunday joylaginki, markazda ko‘k uchburchak xosil bo‘lsin.




Nimaga o‘hshadi? Bolalar peramida, tom kabi har xil variantlarni aytadilar.

Bu uychalarni shunday joylaginki, markazda ko‘k tasvir xosil bo‘lsin.








Xuddi shunday uychalarni joylashtiring, faqat 2 ta uycha kam bo‘lsin.





Xulosa;

Ushbu to'plam olti burchakli (taxminan 5 sm, ya'ni chuqurchalar shaklida) shakllangan va yumshoq ko'pikli polimerdan tayyorlangan 84 ta hajmli elementdan iborat. Bir tomondan, barcha "asal qoliplari" sariq rangga ega. Har bir olti burchakning orqa tomonida har bir turdagi 4 tadan jami 21 ta chizma mavjud; Bundan tashqari, to'plam uslubiy tavsiflar, misollar va vazifalar bilan qalin porloq sahifalar bilan yorqin albomni o'z ichiga oladi. SOTY KAYE o'quv ob'ekt-o'yin tizimi 3 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning individual va jamoaviy o'yinlari uchun mo'ljallangan. Bu ko'p funktsiyali, o'zgaruvchan didaktik va o'yin tizimi. U bolalar bog'chasida ham, uyda ham qo'llanilishi mumkin. Mozaik (yoki grafik dizayner) sifatida foydalaning. Tafsilotlar hayvonlar va narsalarning ko'plab siluetlarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Qo'llanmada bir necha o'nlab variantlar taklif etiladi. Bundan tashqari, boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalar uchun chuqurchaning faqat teskari (sariq) tomoni ishlatilishi mumkin. Bolalar "timsoh", "Cheburashka", "samolyot" va boshqalarni yig'ishni yaxshi ko'radilar.

Kayning o'quv o'yinlari nimani shakllantiradi?

Xotira. Mos keladigan dizaynga ega kartalarni topish vizual xotirani talab qiladi.

Diqqat. Faoliyat va o'yinlar davomida bola diqqatni jamlashni va uni uzoq vaqt ushlab turish qobiliyatini o'rgatadi.

Idrok. Bola aqliy ravishda butunni qismlarga ajratishni, o'xshash elementlarni turli figuralarda ko'rishni o'rganadi.

Fikrlash . Mustaqil dizayn g'oya va to'plamning imkoniyatlarini tushunishni talab qiladi va kombinatsion qobiliyatlar yaxshilanadi.” Coti Kaye" to'plami mashhur Zaytsev kublari, M. Montessori qo'llanmalari, Dienesh bloklari va Kyuizenera tayoqchalari bilan bir xil foydali va mashxur o‘yin materiali.

Foydalanildan adabiyotlar.

1.Преснухина Д.А. Методические разработка: «Использование инновационных форм, методов, технологий в работе с детьми дошкольного возраста. https://nsportal.ru/detskii-sad/vospitatelnaya-rabota/2021/10/28/ metodi cheskie-razrabotka-ispolzovanie-innovatsionnyh

2.Игры по методике М. Монтессори, с ними вы можете познакомиться по ссылке https://www.maam.ru/detskijsad/vnedrenie-i-ispolzovanie-inovacionyh-tehnologii-metodika-mari-montesori.html

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni PF-4312

4.Дичкивская И. М. Инновационные педагогические технологии / И. М. Дичковская. — М.: Академиздат, 2012. — 352 с.

5.Инновационный потенциал образования: сборник статей. — М.: Высь, 2018. — С. 5–6.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLAR ASOSIDA BOLALARNI INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH

Ismailova Nozima Umaraliyevna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning tutgan o‘rni hamda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning nima sababdan qo‘llash kerakligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarni integratsiyalashgan ta’lim asosida bolalarning intelektini rivojlantirish haqida ko‘plab ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashgan ta’lim, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, psixik jarayonlar, strategik maqsadlar, tafakkur, iroda, differensialangan tizim, o‘qitish metodlari.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarning asosi keng qamrovli tushunchalarni o‘quvchilarga o‘rgatilishidir. Tushunchalarning turli jabhalarda qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini orttiradi. Qiziqish bu - olingan bilimlarni xotirada uzoq muddatga saqlanilishini kafolatlaydi. Qiziqish-shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o‘ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo‘lishida, o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini o‘zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqishlar shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo‘ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o‘z ichiga oladi.

Odamlarni shaxsiy qiziqishini idora qilishga o‘rgatish, bu yo‘nalishda mashqlantirish, treninglar, testlardan foydalanish intiluvchan, to‘liqmas xislatlarni shakllantirishga yordam beradi [1]. Shaxsning individual xususiyati bo‘lgan qiziqish-havaslar uning hamma psixik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishining qobiliyatlarining o‘sishi ham ma’lum darajada undagi qiziqishlar bilan belgilanadi. Bizdagi idrok etish, esda qoldirish, esga tushurish, xayol, tafakkur va iroda jarayonlari qiziqish orqali faollashadi. Qiziqish kishi diqqatining kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam qiladi, bizning tuyg‘u-hissiyotlarimizning, shuningdek, qiziqishlarimizning ham kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam beradi [3]. Integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarning psixik jarayonlari haqida ko‘plab olimlar izlanishgan. Maktab ta’limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida olim Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalari- ning hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lib voyaga etishlarini ta’minlashdek, ezgu maqsad mujassamligi, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan dastur” da keng ko‘lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim-tizimida qayta ishlangan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”2, “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining e’lon qilinishi, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya” qonuni O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi yangilanishi fikrimiz dalilidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan etuk va ma’naviy jihatdan shakllangan etib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu maqsadda, ertaklar orqali bolalar nutqini o‘stirish va ularning ma’naviy kamolotini shakllantirish uchun MTT tarbiyachilari quyidagi kabi integrallashtirilgan mashg‘ulotlarni olib borishlari mumkin. Tayyorlov guruhida “Ertaklar yaxshilikka etaklar” mavzusida integrallashtirilgan mashg‘ulot Maqsad: ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu hislatlarni tarbiyalash hamda insoniy fazilatlarni targ‘ib etish bilan ularning axloqiy sifatlariga ijobiy ta’sir etish, bolalar o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatni shakllantirish va mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish.

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan interfaol usullar: - muammoli vaziyat, tushuntirish, aqliy hujum metodi, enerjayzer, “Bog‘dagi gullar” amaliy ish, so‘z o‘yini, M. Montessori metodi.

Hozirgi globallashuv davrida boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni ilm olish jarayonlarini va bosqichlarini yanada takomillashtirish uchun xorijiy tajribalar o‘rganilib kelinmoqda hamda eng saralari bugungi kunda boshlang‘ich sinf maktab doirasida tatbiq etilyapti. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatib kelmoqdaki, boshlang‘ich sinflardagi fanlarni o‘zaro bog‘lab, umumlashtirib o‘tish ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Fanlararo o‘zaro bog‘liqlik ya’ni fanlarni integratsiya qilish o‘quvchilar faolligini oshirishda, darsni yananda qiziqarli olib borishda, yangicha metodlardan foydalanishga olib keladi. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarga bir nechta fanlar bo'yicha(chegaradosh va asosiy fanlar) asosida o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish qilish uchun o'quv kurslari orasidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi. Ushbu oliy ta'lim konsepsiyasi ta'lim sohasidagi mutaxassislarni fan fanlarini birlashtiruvchi faoliyatni rag'batlantirishga undaydigan integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish dasturining bir qismini tashkil qiladi. Yosh bolalardan yangi va ilgari kashf etilmagan kontentga yaqinlashganda, oldingi

o'rganishlari va bilimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishlari integratsiyalashgan darsning sifat va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Integratsiya hamda integratsiyalash so‘zining ma’nosiga keladigan bo‘lsak, (lot.dan) - qayta tiklash; tizimning alohida differensiyalangan qismlari va funktsiyalarining bir butunga o'zaro bog'lanish holati, shuningdek, bunga olib keladigan jarayon hisoblanadi.Integratsiya tushunchasini biz nafaqat ta’lim vositasi sifatida balki sifatli ta’limga erishishning eng oson yo‘li sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham boshlang‘ich sinflar doirasida integratsiyalashgan darslar keng tus olib bormoqda. Eng quvonarlisi shundaki, bu usul orqali boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni o‘qitish har jihatdan ustuvorlikni beradi. Ular quyidagicha: Birinchidan, Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun qiyin deb hisoblangan fanlar integratsiyalashgan darslar yordamida hamda qo‘llaniladigan metodikalar orqali yana ham oson va tushunarli bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun tabiiy fanlarga nisbatan ham qiziqish uyg‘onadi desak adashmagan bo‘lamiz. Ikkinchidan, Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar doimo diqqatlarini bir nuqtaga qarata olmaydilar. Bu jarayon uzog‘i bilan 10-15 daqiqani olishi mumkin. Shunday vaziyatlarda biz mana shu vaqt oralig‘ida 1 ta fanga oid bo‘lgan tushunchani 2-3 ta bir-biriga aloqador bo‘lgan fanlarni ham birlashtirib o‘tishimiz mumkin. Qisqa vaqt ichida bolaga o‘zi bilmagan holatda ko‘p ma’lumotni singdirishimiz mumkin. O‘qitish metodikalari haqida gap borganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun foydalanishimiz mumkin bo‘lgan metodikalar ro‘yxati juda ham katta. Biz o‘qitish metodikalarni tanlagan vaqtimizda ham eng avvalo, bolaning yoshini, sinfini, qiziqishini inobatga olishimiz zarur.Shu o‘rinda zarur bir eslatmani aytib o‘tmasak bo‘lmaydi. Bir o'qituvchi uchun samarali bo'lgan yondashuv yoki yechim boshqa metodist uchun foydali bo'lishi shart emas, chunki har bir usul, vosita va uslub o‘z shakl va mohiyatiga ega, umumiy ta'lim maqsadlariga erishish uchun turli xil vositalar va usullardan foydalanadi. Shuning uchun ko'plab o'qituvchilar turli xil yondashuvlardan ba'zi g'oyalarni ajratib olishga harakat qiladilar, ularni aralashtirib, o'quvchilar va maktab ehtiyojlari va boshqa holatlarga qarab yagona o'qitish usuliga qo'shishadi. Bu har doim ham to‘g‘ri yechim emas.Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qitadigan metodist va o‘qituvchilar yagona o‘qitish usuli bilan cheklanib qolmasliklari kerak.Har bir dars o‘zgacha yondashuv, kreativlik hamda zamon bilan hamnafas tarzda o‘tilishi kerak.

Yosh bolalarga ma'lumot va bilim o'rtasidagi kognitiv aloqalarni rag‘batlantiradigan keng ko'lamli fanlarni o'rganish imkoniyatini berish orqali biz o'quvchilarga ularning kattalar hayotiga va keyingi ta'lim sayohatlariga o'tadigan asosiy ko'nikmalarni, yo‘l-yo‘riqlarni beramiz. Shu o‘rinda Irlandiya maktablaridagi o‘qitish tizimini aytib o‘tmasak bo‘lmaydi. Bu davlatdagi boshlang‘ich ta’lim maktablarini muvaffaqqiyat siri shundaki, o‘qituvchilar ma’lumotni aniq o'rgatmasdan va ajratmasdan, bir qator mavzu g'oyalarini o'qitishga yaxlit yondashuvni qo'llash o'rganish uchun tabiiy asos yaratadi. Shuningdek, ular yangi mavzu doirasidagi yangi bir termin yoki tushunchani yarmini aytib yoki qiziqarli joyida to‘xtatishadi, bunday vaziyada kichik maktab yoshidagi bolalarda shu ma’lumotni tezroq bilish va o‘rganish istagi paydo bo‘ladi. Integratsiyalashgan

ta'limni sinfga qanday kiritish mumkin? Farzandlarimizga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rgatishda biz ko'pincha yaxlit yoki umumiy bo‘lgn mahorat to'plamiga hissa qo'shadigan muayyan elementlar ustida ishlash uchun ko'p vaqt sarflaymiz. Misol uchun, biz til o'rganishni o'rganayotganimizda, biz o'qish, yozish, tinglash va gapirish qobiliyatlariga e'tibor qaratishimiz mumkin, ammo bu to'rtta asosiy savodxonlik ko'nikmalari samarali muloqot qilish qobiliyatimizga hissa qo'shishiga qaramay, muqobil vaqtda va alohida. Agar biz o'quvchilarimiz o'z ta'lim imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlarini va turli xil vositalar orqali ajoyib kommunikator bo'lishlarini istasak, biz ushbu asosiy elementlarni haqiqiy o'rganish tajribasiga birlashtirishimiz kerak. Masalan, gapirish va tinglash qobiliyatlarini oling. Bu ikki ko'nikma ham qabul qiluvchi va biz tinglaganimizda va keyin javob berganimizda miyaning turli qismlarini jalb qilishimizni talab qiladi. Yakka holda o'qitilganda, biz o'quvchilarga ikkalasi o'rtasida kognitiv bog'lanishni qiyinlashtiramiz. Biroq, integratsiyalashgan usulda o'qitilganda, biz o'quvchilarga boshqalar bilan muloqot qilishda ko'pincha haqiqiy dunyoda foydalanadigan asosiy ko'nikmalarni kontekstuallashtirish imkoniyatini beramiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan dars har jihatdan sifatli va samarali vosita hisoblanadi.Integratsiyalashgan fanlar tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan hamda xorijiy mamlakatlarning o‘quv rejalariga kiritilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlarga ko‘proq e'tibor qaratilganligini anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham tabiat-jamiyat munosabatlarni uyg‘unlashtirish masalalari, murakkab fanlararo aloqalarni o‘rnatishning o‘quv rejalari va dasturlarida atrof-muhit bilan mamlakatimizning umumta’lim maktablari katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.2017-2021 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabr. PQ-2707-sonli Qarori.

2.“O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomi hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qarori. 2017-yil 21-noyabr. 929-son qarori. Ilk qadam. – Toshkent, 2018.

3.“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2019-yil. 16-dekabr. O‘RQ-595-son

4.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘TKAZILADIGAN JISMONIY TARBIYA DAQIQALARI ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ismoilov Turobjon,
NamDU professori
Salijanova Orzixon,
NamDU magistri
G‘oyibova Yulduzxon,

NamDU magistri

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom, ruhan tetik, xar tamonlama yetuk va barkamol inson qilib voyaga etkazishda umumta’lim fanlari jarayonida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalarini ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, jismoniy tarbiya daqiqalari, aqliy mexnat, jismoniy mexnat, sog‘lomlashtirish tadbirlari, jismoniy faollik, toliqish.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash mamlakatimizning eng asosiy va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan biri bo‘lib xisoblanadi.

Xukumatimiz raxbariyati tamonidan respublikamizda mustaqillikga erishilgandan keyin kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni soglom qilib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. ”Jismoniy tarbiya va sport to‘grisida”gi qonun, “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirishtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi farmon oldimizga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [1;2;3].

Mamlakatimizning ertangi kuni va kelajagi uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishi asosan o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom, har tamonlama etuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga etishiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa Vatanimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma’naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo qiladi[4;5].

Go ‘zallik - bu avvalo harakatlarning sodda, engil, izchil va tugal bo‘lishidirki, o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham bunga intilsalar, nafosatga erishiladi. Albatta, jismoniy tarbiyaning vazifasi o‘quvchida faqat go‘zallikni idrok etishnigina shakllantirish bo‘lib qolmay, balki ularni kishi harakatidagi chinakkam go‘zallikni baholay bilishga ham o‘rgatishdir.

Odatda, uzoq muddatli aqliy mexnatdan so‘ng o‘quvchilarda ishlash qobiliyati sekin–asta pasayadi. Bu holat o‘quvchilarda tezda seziladi. Bolalar dars vaqtida betoqat bo‘lib, xaddan tashqari ko‘r harakat qilishlari, o‘tirgan joylaridan tez-tez turib ketishlari, bir-birlari bilan gaplashishlari, orqaga va yonlariga qarab o‘tirishlari, shovqin-suron ko‘tarishlari mumkin va xokozo. Ayniqsa, darsning 25-30 daqiqalarida o‘quvchilar diqqati sezilarli pasayadi, tushuntirilayotgan mavzuni o‘zlashtirish qiyinlashadi. O‘quvchilar o‘rganayotgan mavzularni bir necha martadan qayta-qayta takrorlashlariga to‘g ‘ri keladi. O ‘quvchilarda aqliy charchash bilan birga, qomatni tutib turuvchi bel, elka, bo‘yin muskullari ham toliqadi.

Toliqish natijasida bel egilib, elkalar pastga tushib, bosh oldinga egiladi, qomat muvozanati buziladi. Agar bu xolat takrorlanaversa, o‘quvchilarning ishlash qobiliyati pasayib, qomati buzilib, salomatligiga ham salbiy ta’sir etadi.

Aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan almashlab turish asosida bunday toliqishning oldi olinadi. Jismoniy tarbiya daqiqalari (jismoniy mashq daqiqalari) o‘quvchilarda faollikni oshiradi, susaygan ish qobiliyatini tiklaydi, kayfiyatni yaxshilaydi.

Jismoniy tarbiya daqiqalari darsning 25-30 daqiqalarida (3-4 tadan iborat bo‘ lgan mashqlarni) 2-3 daqiqa davomida bajariladi. Bunda bajarilishi oson, o‘tirib yoki o‘rindan turib, panjalarga, bo‘yin elka, bel va qomatning pastki qismiga ta’sir etadigan mashqlarni tanlash lozim.

Yozuv darslarida o‘quvchilarning panjalari, qo‘l muskullari tez toliqadi. Natijada yozuv tezligi pasayadi, husnixat buziladi. Bunday xollarda panjalarni bukib-yozish, qo‘llarni bukish, yonga oldinga uzatib, yuqoriga ko‘tarilib, bajariladigan mashqlar beriladi. Uzoq o‘tirish natijasida gavdaning pastki qismi qattiq toliqadi. Bu toliqishni tarqatish uchin tik turib, bajariladigan, oldinga, yonga egilish, o‘tirib turiladigan mashqlarni tanlash lozim.

Darsda jismoniy mashqlar sekin, aniq buyruq tarzida beriladi. Mashqning xar bir harakatini bajarish orasida turli-xil sho‘x, quvnoq musiqalardan foydalanilsa, ayni muddao bo‘ladi. Agar tanlangan jismoniy tarbiya daqiqalari she’r aytib bajarilsa o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ham yordam beradi.

Jismoniy tarbiya daqiqalari jarayonida boshlang‘ich sinflarda qo‘llaniladigan jismoniy mashqlardan ayrim namunalar keltiramiz.

1-mashq

-to‘g‘ri o ‘tirgan holatda, qo‘lni oldinga cho‘zib kaftlar yuqoriga qaratiladi.

biz hadeb yozaverib charchadi qo‘llarimiz,

bir, ikki, uch, to‘rt, bir, ikki,uch, to‘rt,

endi turib, o‘tirib, yana yozishga tushamiz.

Bajarilishi: she’rni aytayotganda navbat bilan panjalarni musht qilib-yoziladi, turib-o‘tiriladi.

2-mashq.

-o ‘rindan turib, qo‘llar chap elkada bolta ushlagandek holatda turiladi:

she’r:

biz o‘rmonga boramiz,

qo‘limizda boltamiz.

daraxtlarni kesamiz

1-2-3-4; 1-2-3-4

“Uf, charchadik!” mashqining bajarilishi:

-she’rni aytib, sanoqqa kelganda bolta chopgandek harakat qilinadi:

1-pastga, 2-o‘ng elkada, 3-pastga, 4-chap elkada

Sanoqni 2-3 marta takrorlagandan keyin, “Uf charchadik!” so‘zi aytilganda, qo‘llar pastga tushu rib silkitiladi.

3-mashq.

Partada yoniga chiqib, qo‘llar yuqoriga ko‘tariladi.

Bajarilishi:

- qo‘llar gavda bilan birga o‘ng va chap tomonlarga egiladi. Shu xolatda oldinga va orqaga egiladi.

4-mashq.

Partadan chiqib to‘g‘ri turiladi.

Bajarilishi:

1. Qo‘llar belda.
2. Qo‘llar yuqoriga ko‘tarilib, kaftlarga qaraladi, oyoq uchida turiladi.
3. Qo‘llar elkaga tushadi.
4. Qo‘llar pastga tushadi.
5. O'tiriladi.
6. Dastlabki holat.

Jismoniy tarbiya daqiqalari jarayonida bajariladigan jismoniy mashqlar xaddan tashqari uzoq davom etsa ham yaxshi natija bermaydi. Shuning uchun mashqlarni bolalarning ayni charchagan vaqtini va bajarish suratini pasayishini sezgan zaxoti to‘xtatish kerak.

O‘quvchilar bilan dars jarayonida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari uchin tanlangan mashqlar o‘tilayotgan fanga muvofiq bo‘lsa, uning samarasi yanada yahshiroq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya daqiqalarini o‘tkazishda bolalarning yoshi va ularning pedagogik xususiyatlarini ham hisobga olinsa, darsni o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir etadi. Bu esa o‘quvchilarni har tamonlama etuk va komil inson bo‘lib voyaga etishida katta ahamiyatga ega bo‘lib xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1.Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. –Тошкент, 2015. 5 сентябр.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомилаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2020. 24 январь, ПФ-5924-сон.

3.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис.... пед. фан. ном. – Тошкент: 2010. – 157 б.

4.Махкамжонов К ва бошқ. Спорт байрамларини ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси. Дарслик. –Тошкент. “Иқтисод-молия”, 2008. – 98 б

BOLALARNING DASTLABKI CHET TILI TA’LIMIDA INTELEKTUAL IJODIY YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH DASTURI

Jabborova Maftuna Komil qizi
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarning dastlabki chet tili ta’limida intelektual ijodiy yondashuvni shakllantirish dasturi haqida ma’lumot berilgan. Dastur bosqichlarining mazmun- mohiyati ochib berilgan hamda ularning qanday tartibda amalga oshirilishi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: indikativ refleks, motivatsion, fantaziya, fokal obyekt, tahlil, morfologik tahlil,baholash.

Rivojlanib borayotgan ta’lim jarayonining asosiy to‘ldiruvchi qismi sifatida bolalarning chet tillarini erta yoshdan boshlab o‘rganishlarini keltirishimiz mumkin. Bolalarning chet tillarini erta yoshdan boshlab o‘rganishlari nafaqat ta’lim sifatining oshishiga, balki ulardagi ijodiy qobiliyatlarning sahkllanishiga, intelektual

jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarning dastlabki chet tili ta’limida ijodiy yondashuvlarini shakllantirish ma’lum bir Dastur asosida amalga oshiriladi. Bu dastur bolalarning intelektual ijodiy yondashuvini shakllantirish jarayonining amaliy holatini ta’lim jarayoniga va bolalarning kundalik faoliyatiga targ‘ib etish asosida amalga oshiriladi.

Dastur quyidagi bosqichlardan iborat:



Axborotli bosqich. Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi ma’lumotlarni o‘rganish, tahlil qilish, qayta ishlash hamda ushbu ma’lumotlar asosida boladagi fikrlash jarayonlarini faollashtirishni amalga oshiruvchi bosqich hisoblanadi.

Motivatsion bosqich. Tabiiyki, ham ruhan ham jismonan sog‘lom bola atrofidagi dunyoni bilishga va o‘rganishga (tadqiq qilishga) qiziqadi. Bu xususiyatlarning barchasi psixologik nuqtai nazardan qaraganda, bolada *indikativ refleksni* namoyon qiladi va qiziquvchanlik, izlanuvchanlik kabi qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, *motivatsion bosqichning maqsadi*- ta’lim oluvchida hissiy qiziqishlarni shakllantirish, ijodiy muammolarni maqsadli hal etish, turli xildagi axborotlarni farqlash qobiliyatini shakllantirish hamda izlanish jarayoniga bo‘lgan muxabbatini oshirishga, undagi qarshiliklarni bartaraf etishga o‘rgatishdan iborat. Kelajakda har bir bola, turli hayotiy vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qila olish malakasiga ega bo‘lishi kerak. U muammolardan qochuvchi shaxs emas, balki yuqorida shakllantirilgan qobiliyatlari asosida ushbu muammolarni hal etishning samarali usullarini ishlab chiqishi lozim. Va bu muammolarni hal etish jarayonida bola shaxsida o‘z hayot yo‘lini qurishda ma’lim bir strategiya paydo bo‘lib boradi, hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini –o‘zi rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Ko‘zlangan maqsadga esa, chet tili materiallari asosida tayyorlangan o‘yinlar orqali erishamiz. Ularda bolalar sevib tomosha qiladigan mashhur animatsion filmlardan ya’ni multifilmlardagi ertak qahramonlaridan foydalanishimiz mumkin.

Bunga misol qilib, jamoaviy o‘yinlardan «Funny Residents of the Magic Land» (sehrli mamlakatning kulguli aholisi), «The voyage to the Fairy-tale Lands» (Ertaklar yurtiga sayohat), «Mysterious Letters» (Sirli xatlar); Syujrtli –rolli o‘yinlardan «Good or Bad»(yaxshi yoki yomon), «Modify the Fairy tales» (Ertaklarni o‘zgartir), «Decode the Fairy-tales»(Ertaklarni kodlash) hamda yana bir qancha ajoyib sarguzashtli kvestlar, viktorinalar, empatik o‘yinlarni keltirish mumkin

Muammoli-faoliyat bosqichiga o‘tish motivatsion bosqichdagi qo‘yilgan maqsadga erishish imkonini beradi. *Uning maqsadi***,** chet tili materiallari asosida bolaga nostandart muammolarni hal qilishning aniq usullarini o‘rgatish, noan’anaviy

fikrlash, moslashuvchanlik va fantaziya qilish qobiliyatini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvuri va dialektik fikrlash uslubining birlashishi natijasida bola fantaziyasini ishga soladi. Fantaziya qilish texnikasi orqali bola obyektning xususiyatlarini o‘zgartiradi, funksional va strukturaviy tuzilishini yangitdan kashf etuvchi g‘oyalar ishlab chiqadi. Bunda bolaning erishgan yutuq va kamchiliklariga asoslanib, yana bir qancha usullardan foydalanishimiz mumkin.

Chet tilidagi ertak syujetiga asoslangan o‘yin faoliyatida ijodiy ijodiy intelektni rivojlantirish uchun, *fokal obyekt* (tasodifiy tanlangan boshqa ob'ektlarning xususiyatlarini yoki xususiyatlarini qo'llash orqali yangi ob'ektni qurish) *sinektika, morfologik tahlil va aqliy hujum usuli* va boshqalardan foydalaniladi. Bundan tashqari ijodiy tasavvur va dialektik tafakkurni shakllantirishda topishmoqlardan foydalaniladi. Topishmoqlar mavzusi esa, *xorijiy tildagi didaktik materiallar* asosida amlga oshiriladi.(A.A. Nesterenko metodi bo‘yicha), adabiiy mavzularda “**ha- yo‘q**” topishmog‘ini tuzish(T.A.Sidorchuk), rasm asosida hikoyalar tuzish(I.N.Murashkovska) va boshqalar. Shunday qilib, ushbu muammo ustida ishlash, ta’lim jarayoni markazida operatsion komponentni tashkil qiladi va amalda ushbu mexanizmning ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Baholash bosqichi. Uning maqsadi- maktabgacha yoshdagi bolalarning intelektual ijodiy sohasini shakllantirishda axloqiy fazilatlarini tarbiyalash va bolalarni ularning xususiyatini baholay olishga o‘rgatishga iborat. Agar axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmasa, bolalarni jamiyatga foydasidan ko‘ra ko‘proq zarari tegadigan qilib qo‘yamiz. Ijodkorlikni shakllantiradigan metodlardan foydalanish axloqiy tarbiyani shakllantirishning yetakchi vositasidir. Shuning uchun bu bosqichda, bolada faol ijodkorlikni shakllantirish kerak, bolalarni jamiyat uchun halokatli emas, balki foydali shaxs qilib tarbiyalashda insonlar va uni o‘rab turgan dunyoni tahlil qilishga va baholashga o‘rgatish lozim. Jamiyatdagi insonlarning xulq- atvorini, fikrlarini va hatti-xarakatlarini, **“Mexribon- “Yovuz”; Yaxshi- yomon”** kabi tushunchalar bilan ajratib olishga o‘rgatish lozim. Bolalarni insonlarga yordam berishga bo‘lgan ichki dunyosini rivojlantirishga hamda o‘zining intelektual va ijodiy salohiyatidan yaxshilik uchun foydalanishga o‘rgatish muhimdir. Ushbu maqsadga, xorijiy va ona tilidagi hikoyalarni o‘qib, axloqiy xulosalar chiqarishni birgalikda olib borish, u yaratgan mahsulot yoki g‘oyalar atrofidagi odamlar uchun “Foydali” bo‘lishga bolaning e’tiborini qaratish orqali erishish mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, bolalarning dastlabki chet tili ta’limi jarayonida intelektual ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun ishlab chiqilgan dasturdagi muvofiqlashtirilgan bosqichlar bir-birini taqozo etadi. Hamda yagona integral kompleks tizim sifatida ko‘zlangan maqsadga erishishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Нестеренко А. А. Страна Загадок / А. А. Нестеренко. – Ростов-наДону: Изд-во Ростовского университета, 1993. – 185 с.

2.Малкина Н. А. Учим слушать и понимать сказки на английском языке / Н. А. Малкина // Дошкольное воспитание. – 2007. – № 1. – С.82–86.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA “AQLIY HUJUM” METODIDAN FOYDALANISH

Jiengalieva Sholpan, Aralova Ozoda, Artiqbaeva Beksuliw, Urinova Ayganim *Ajiniyoz nomidagi NDPI talabalari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, maktabda ta’lim jarayonini oshirisda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan interaktiv metodlardan biri bo‘lgan «Aqliy hujum»dan foydalanish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, aqliy hujum, interfaol, fikrlash, o‘qitish, g‘oya.

Ma’lum bo‘lishicha, hozirgi kunda pedagogik va axborot texnologiyalarini ko‘plab fanlarni o‘qitishda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin. Ta’limning bugungi kundagi vazifasi o‘quvchilarni xar kuni rivojlanib borayotgan axborot ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, fanlarni o‘itishda pedagogik texnologiyalarni samarali tadbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metod o‘quvchi (talaba)larni mavzu xususida keng va xar tamonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni xosil qilishga rag‘batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o‘ziga xos) echimlarni toppish imkoniyati tug‘iladi. Metod mavzu doirasida ma’lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.[1]

O‘qitish jarayonida ma’lum bir muammolarni hal etishda maqul va o‘zlashtirilish darajasa oson bo‘lgan interfaol metodlardan biri “Aqliy hujum”dir.

“Aqliy hujum” biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to‘g‘ri va ijodiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo‘llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a‘zosi fikrini tezda yig‘ish va umumlashtirish imkonini beradi. “Aqliy hujum”ni, o‘quvchilar muammo haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan hollarda ham qo‘llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy sharoitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar topish imkonini beradi.[2]

“Aqliy hujum” usulidan foydalanilganda, odatda mashg‘ulot ikki bosqichdan iborat bo‘ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi (“Aqliy hujum”ning o‘zi) va ikkinchi bosqich-tahlil hamda yechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o‘rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Aqliy hujum”ning birinchi bosqichini o‘tkazishga oid tavsiyalar:

Muammoni aniq va ravshan qo‘yish lozim!

“Aqliy hujum” o‘tkazish uchun asos bo‘lgan muammoning qisqacha mohiyatini katta qog‘ozga (yoki doskaga, o‘quv taxtasiga) katta harflar bilan yozib, hammaga yaxshi ko‘rinadigan joyga osib qo‘ygan ma‘qul.

“Aqliy hujum”-bitta muammo!-har bir “Aqliy hujum” faqatgina bitta muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Shartlashuv-“Aqliy hujum”ni o‘tkazish tartibi va shartlari ishtirokchilarning har biri uchun aniq-ravshan, tushunarli bo‘lishi kerak. Shartlar asosida mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari tuziladi va qisqa ifodalangan qoidalarni hammaga ko‘rinadigan joyga yozib qo‘yish lozim.

Demokratiya– “aqliy hujum”ga hamma teng huquqli ishtirok etadi. “Aqliy hujum” vaqtida bemalol, erkin ravishda muloqot yuritishni ta‘minlash uchun ishtirokchilarni davra shaklida joylashtirish tavsiya etiladi.

Bemalol, istalgan takliflarni taklif qilish va tanqid qilmaslik- “Aqliy hujum”ning birinchi bosqichida birorta ham taklif muhokama etilmaydi va tanqid qilinmaydi. Kutilmagan g‘oyalar taklif etish qo‘llab-quvvatlanadi. Bu usul yordamida muammo yechimiga oid yetarli darajada ma‘lumot tanlanadi. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi. Bildirilgan g‘oya va fikrlarni to‘ldirish va yanada kengaytirishga imkoniyat beriladi.

Asoslamaslik-biror bir g‘oyani taklif etgan kishi o‘z yechimini asoslamasligi va o‘zi ham o‘zgalar fikrini muhokama qilmasligi lozim. Chunki bu holat boshqa g‘oyalar tu‘'ilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Rasmiylashtirish-har bir fikr, taklif va g‘oyalar yozib borilishi lozim. O‘qituvchi birinchi bosqich davomida bildirilgan g‘oyalarni yozib boruvchi kotibni belgilashi lozim. G‘oyalarni doskaga yozib borish lozim. Vaqtni tejash hamda o‘z fikrini bemalol bayon etish uchun ishtirokchilarga o‘z g‘oyalarini qog‘ozga yozib, sinf doskasiga sketch yordamida yopishtirib qo‘yishni ham tavsiya etish mumkin. Bunda quyidagi tartibga amal qilish lozim: bir varaq-bitta g‘oya-bitta so‘z (ibora).

Vaqtni chegaralab qo‘yish-g‘oyani ifodalash uchun juda qisqa vaqt ajratilashi zarur.

Nazorat qilish va tartibga solish-“Aqliy hujum”ning birinchi bosqichi odatda kuchli emotsional-ruhiy vaziyatda o‘tkazilgani uchun, o‘qituvchi mashg‘ulotning borishini nazorat qilishi hamda o‘quvchilarning bir-birlari bilan bahslashish yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Ikkinchi bosqichda, ya’ni g‘oyalarni tahlil qilish bosqichida taklif etilgan yechimlar, qarorlar muhokama etiladi, guruhlarga ajratiladi. Takrorlangan fikrlar birlashtiriladi, eng asosiy 3-4 ta g‘oyalar saralanadi (makro saralash). So‘ngra tanlab olingan asosiy g‘oyalardan eng maqbullari yana saralanadi (mikro saralash). Mikrosaralash davomida ajratib olingan qarorlarning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va cheklangan tomonlariga baho berib chiqish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilgan mulaxozalardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz kerakki, shu va shu turdagi interfaol metodlar bilan o‘qitish, o‘qitish jarayonini yanada jadallashtiradi va o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ilmiy munosabatlarni yaxshilashi ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Интерфаол методлар: мохияти ва қулланилиши / Методик қулланма. Тузувчилар: Д. Рўзиев, М. Усмонбоев, З. Ҳолиқова. – Тошкент: Низоми номидаги ТДПУ нашриёти, 2013.-136 бет.

2.https://goaravetisyan.ru/uz/opisanie-interaktivnoi-tehnologii-pedagogicheskie-usloviya-ispolzovaniya/

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI

Jo‘rayeva Dilafro‘z Shuhrat qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Dinamik o‘zgaruvchan dunyo sharoitida inson hayotining barcha sohalariga yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65% kelajakda mavjud bo‘lmagan kasblarga ega bo‘lishiga ishonishadi. Kelajakda yosh mutaxassislar tabiiy fanlar va muhandislik kabi turli texnologik sohalardan ko‘nikma va malakalarga muhtoj bo‘ladi. Hozirgi vaqtda bolalarimizni maktabgacha ta’lim tashkilotida nimaga qiziqtirish mumkin? Aynan STEAM texnologiyasi bolalardan tadqiqotchilar, kashfiyotchilar, olimlar, texnologlar, rassomlar va matematiklaming avlodlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkon beradi. Olingan ma’lumotlami olish, qayta ishlash va amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish STEAM - ta’lim texnologiyasining asosini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: STEAM texnologiyasi, integratsiya, intellektual qobiliyat, tajriba, innovatsion texnologiya.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida “Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[1] Bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq tafakkurini o‘stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo‘yicha ta’lim berish dasturlari ishlab chiqildi. Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash, ta‘lim va tarbiyani yuksaltirish, yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqda va o'zgarib bormoqdaki, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi har doim ham ular bilan birga bo‘la olmaydi. So'nggi o‘n yillikda pedagogika har doim ham pedagogga tushunarli bo'lmagan yangi atamalar bilan to‘lib bormoqda. Bolalar uchun juda samarali resurs imkoniyatlariga ega bo‘lgan ta’lim yechimlari (qurilish to‘plamlari, raqamli laboratoriyalar, robot-to‘plamlar va o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari majmualari, mualliflik o‘yin vositalari, multistudiyalar va boshqalar) turlari ko‘payib bormoqda. Ushbu to‘plamlarning maqsadi: STEAM texnologiyalari haqidagi tushunchalarini aniqlashtirish va eng yaxshi natijalarga erishishdir. [2]

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko‘rinadi, lekin uni alohida ko‘radigan bo‘lsak sodda va aniq ekanini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san’ati, ijod, matematika.

Oddiy so‘z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko‘plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o‘zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika ta’limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o‘quv−tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi.

STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib-ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bundan ko‘rinadiki, STEAM ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar.[2]

STEAM yondashuvi bizning ta’lim va tarbiyaga bo'lgan qarashimizni o‘zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, bolalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim-tarbiya vazifasini tashkil etadi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM ta’lim texnologiyasi Amerika davlatida ishlab chiqilgan. XXI asr boshlarida AQSH iqtisodiyotida ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalari eng tez rivojlanadigan tarmoqlar hisoblandi.Shu asosda AQSH va uning yetakchi kompaniyalari butun dunyo bo‘ylab raqobatbardosh bo‘lishi uchun texnologik innovatsiyalami tatbiq etishda STEM ni ta’lim tizimiga integratsiya qilish harakatiga katta qiziqish uyg‘otdi.

Amaliy faoliyatda tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM ta’lim tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda art qo‘shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. Bolalar ushbu mavzular, aniqrog‘i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda ularning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi. Bundan ko‘rinadiki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va keyingi ta’lim jarayonini osonlashtiradi. STEAM texnlogiyasi bolalarga dunyoni tizimli

o‘rganish, atrofdagi hodisalaming o‘zaro munosabatlarini aniqlash va tushunish, yangi, g‘ayrioddiy va juda qiziqarli narsalami kashf qilish imkonini beradi. Yangi narsalar bilan tanishishni kutish qiziqish va kognitiv faoliyatni rivojlantiradi; o‘zingiz uchun qiziqarli vazifani aniqlash, usullami tanlash va uni hal qilish uchun algoritm yaratish, natijalami tanqidiy baholash qobiliyati - muhandislik fikrlash uslubini ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat qobiliyatini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta’minlaydi va kelajakda kasb tanlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi.[4]

STEAM ta’lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun bir vaqtni o‘zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg‘unligini ta’minlaydilar. Bunda “Aql va qo‘l” iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko‘rib tezda uqib, o‘zlashtirib oladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalaning 3-7 yosh davrida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanish juda qo‘l keladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning eng qulay davri ekanligini isbotlaydilar. Bola hayotining maktabgacha yosh davrida shaxsiy intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanish jarayoni hisoblanadi.[3]

An’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o‘qishni osonlashtiradi. Hozirda investorlar, biznes-homiylar, yirik biznes vakillarining ilmiy-innovatsion loyihalarga qiziqishi ortib boryapti. Ilg‘or ishlanmalarning paydo bo‘lishi uchun, shubhasiz, STEAM – markazlar yaratilishi, robot texnikasi kabi fanlar kiritilishi, dasturlashtirish asoslarini informatika faniga integratsiyalash, mavjud tajribadan pedagoglarni mavzuviy hamjamiyatlarga birlashtirish yo‘li bilan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori http://lex.uz//docs/-4327235
2. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma – Toshkent.: Tamaddun, 2022. 148b
3. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent 2017. “Faylasuflar” nashriyoti – 496b
4. Djurayeva B.R., Tojiboeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari.O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2016. “O‘zPFITI” nashriyoti - 110b

O‘QITUVCHI TA’LIM JARAYONINING TASHKILOTCHISI SIFATIDA

Lutfetdinova Ra’no Xusnetdinovna
Namangan davlat universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badiiy asarlarni o‘qishni targ‘ib etish, o‘quvchilarni kitob o‘qishday ijodiy mehnatga tayyorlash, didli kitobxonni shakllantirishga erishish va o‘quvchi yoshlarda yuksak ma’naviy sifatlarni tarkib toptirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, kitobxon, madaniyat, yuksak o‘quvchi, hulq-atvor, ilmlilik.

Tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab oilada, ta’lim maskanlarida amalga oshiriladi. Didli, saviyasi yuqori, kitobxonlik madaniyati yuksak o‘quvchi kitobxon ham ayni gushalarda shakllanadi. Bolaning xayoli cheksiz, tuyg‘ulari nozik va beg‘ubor. Bolalar ko‘pincha kattalardan, o‘z dunyosiga yaqin kishilardan, mehrini qozongan odamlardan ibrat olishadi. Adabiyotni anglash - hayratdan boshlanadi. Badiiy asarlar o‘quvchini hayratga solsa, adabiy qahramonlar ularning ong va tafakkurini, ko‘nglini zabt etolsa, hayrat, zavqu-shavq uyg‘onadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarni sarguzasht xarakteridagi ertak, hikoya, masal, doston va qissalar zavqdantirsa, o‘smir bolalarni fantastik asarlar yoki xayotiy ziddiyatlarga boy, serxayajon manzaralar, muhabbat tuyg‘ulariga hamohang holatlarni boshidan kechirgan qahramonlar qiziqtiradi. Keyingi davrlarda esa ularga xos yoshlik g‘aroyibotlari o‘rnini xayotga, odamlarga jiddiy munosabat egallab boradi. Kitobxonlik madaniyatiga erishgan yoshlar qo‘liga tushgan asarni pala-partish o‘qimasdan, o‘z qiziqishiga ko‘ra tanlashni o‘rganadi. Tanlab o‘qishga o‘rgangan o‘quvchida kitobxonlik didi shakllanib borayotganligini kuzatimiz mumkin.

Adabiyotning «ma’rifat suvi», «buloq, suvi» vazifasini bajarishi badiiy asarlarning ilmiy yoki metodik adabiyotlardan farqli obrazliligida ko‘rinadi. Badiiy asarlar bilim berish bilan birga zavq bagishlaydi, nafosat tarbiyasini amalga oshiradi, ongu tafakkurimizni, tuyg‘ularimizni yorqinlashtiradi va yuksak insoniy tuyg‘ularni shakllantiradi.

Badiiy asarning yetukligi, mukammalligi barcha muammolarni hal etmaydi. O‘quvchilar asar g‘oyasini anglash, mazmunini tushunish, obrazlar xarakteri va kechinmalari mohiyatini chuqur his qilishlari uchun yozuvchi ilgari surgan g‘oyani anglab, o‘zlashtirib olishlari lozim. Buning uchun muayyan adabiy tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tib, badiiy asarni chuqur his qilib anglashga, o‘z fantaziyasi va tafakkurida qayta jonlantirishga erishib borishlari talab etiladi. Shu tariqa bosqichma-bosqich o‘quvchilarning tafakkuri shakllanib boradi.

Badiiy asar o‘qishni targ‘ib etish, o‘quvchilarni kitob o‘qishday ijodiy mehnatga tayyorlash, oxir-oqibat, didli kitobxonni shakllantirishga erishish o‘quvchi yoshlarda yuksak ma’navii sifatlarni tarkib toptirish omilidir». [33]

[33] Manba: Safo Matchon. Kitob o‘qishni bilasizmi? T. O‘qituvchi, 1998 y. 24-bet.

Yaxshi bilamizki, har bir xalqning o‘ziga xos tarbiya usullari, odatlari, an’analari mavjud bo‘lib, shu xalq tarbiyashunosligining asosi hisoblanadi va ular bir-biridan ma’lum xususiyatlari bilan farq qiladi. Milliy pedagogikamizdagi boshqa xalqlar tarbiyashunosligidan farqli bo‘lgan asosiy jixatlar qator teran ildizlardan ozuqa olganligida ko‘rinadi. Ular quyidagilardir:

Xalq pedagogikasi, o‘zbek xalqnining qadimiy urf-odat va udumlari; milliy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlarini o‘zlashtirish.

Islom dinining bola tarbiyasi borasidagi qarashlari; «Qur’oni Karim» va «Hadisi sharif»dagi bebaho falsafiy qarashlar mohiyatini bugungi ta’lim va tarbiya mazmuniga singdirish.

Ertak, doston, rivoyatlarda keltirilishicha, kishilar o‘z farzandini davrining yetuk olimlariga, fozil kishilariga shogirdlikka topshirganlar. Xalq tarbiyachi - ustozlarni donishmand hisoblagan, chunki ulardan barcha o‘rnak olgan. Ustozlar o‘z mehri, saxovati, samimiyligi bilan shogirdlari va xalqning sevimli siymosiga aylangan.

Xalq ijodi namunalari hisoblangan ertak, rivoyat, hikoyat va dostonlarda ajoyib murabbiy ustozlar obrazlarini uchratish mumkin. Ularda ustoz doimo ezgu - fazilatli inson sifatida gavdalanadi. Ular tarbiyalagan shogirdlar el-yurt baxt-saodati yo‘lida jon fido etgan insoniy yuksak fazilatli kishilar sifatida tarannum etiladi.

Ustozdan eng yetuk insoniy hulq-atvor, odobi bilan shogirdlariga namuna bo‘lishi talab qilingan. Qur’onning «Baqara» surasi 25-oyatida ilmli bilan ilmsiz baravar emasligi ta’kidlanadi.[1] Ma’naviy fazilatlarga egalik ilmlilikning mezoni hisoblangan.

Milliy tarbiyada, pedagogikamiz tarixida bolalarni sevish ustoz uchun muhim fazilat hisoblanadi. So‘z san’atkori, ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy o‘zining «Maxbub ul-qulub» asarida ustozlarning shogirdlariga muhabbati, mehribonligi va samimiy munosabatini tarbiya ishida samarali omil hisoblagan.

Payg‘ambarimizning, «Kimki, yoshi kichiklarimizga rahmdil bo‘lmasa... u bizning qavmdan emas», - degan hadislari ham buni bir karra isbotlaydi. Navoiy fikricha, ustoz «go‘zal fazilatlarga ega bo‘lsagina shogird va tarbiyachilararo muhabbat rivoj topadi». Chunki, bolaga bo‘lgan muhabbat, kelajakka bo‘lgan muhabbatdir. Kelajak kishilariga chin muhabbat bilan yondashib tarbiyalanmasa, ulardan hurmat kutib bo‘lmaydi, degan fikr uqtiriladi. Bu haqda ”Kim mehribonlik qilmas ekan, mehribonlik ko‘rmaydur”, - deya ta’kidlanadi.[34]

O‘qituvchi nutqi boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun nafaqat namuna, balki ta’lim-tarbiya samaradorligi omillaridan biri. Mazmundor, ta’sirchan nutqni o‘quvchilarda

[34] Al Buxoriy. Al adab al mufrad. T., O‘zbekiston. – 1990. – 102-bet.

tarkib toptirish vositasi hamdir. O‘qituvchining mazmunli, ravon, tushunarli, ifodali nutqi albatta o‘quvchilar nutqiga ta’sir ko‘rsatadi, ularning yoqimli, mazmunli nutq egasi bo‘lib shakllanishlarini tezlatadi. Ammo shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi mahorati, uning ijodkorligi, ta’lim jarayoni mazmunini takomillashtirishga intilishi, ta’limni zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayanib tashkil qilish orqali o‘quvchilarni faollikka undash, ularda mustaqil fikrlash salohiyatini tarkib toptirib borishida namoyon bo‘ladi.

Bilamizki, ”O‘qish savodxonligi” darsligida har sohaga tegishli bo‘limlar mavjud. Bu o‘quv materiallari bolalarning o‘qish sifatini oshirish, ifodali o‘qish malakalarini egallash, badiiy matn ustida ishlash, she’r va kichik matnlarni yod olish, tushunganlarini ijodiy so‘zlab berish kabi ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Har bir bo‘lim bolalarni muayyan tasavvur tushuncha va bilim, malaka hosil qilishga, ularda voqea-hodisalarga qiziqish uyg‘otishga, rasmlarni kuzatish, xulosalar chiqarishga o‘rgatadi

Darslikdagi rasmlar bolalarning his va tuyg‘ularini, nutqlarini o‘stirishga hamda ularni ijodiy tahlil qilishga mo‘ljallangan. O‘quvchilar rasmlarni kuzatish jarayonida, tasvirlangan narsa, voqea-hodisalarga o‘z munosabatlarini bildiradilar, ulardan zavq oladilar, o‘zlari ham ijodiy ravishda asar mazmuniga mos rasmlar ishlashga, o‘z taassurotlarini ifodalashga o‘rganadilar.

Darslikda berilgan har bir matn o‘quvchilarning fikrlash doiralarini o‘stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o‘zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo‘lish kabilarni o‘zlashtirib borishga qaratilgan. Shuningdek, o‘qiganlarini mazmunli qilib gapirib berish, fikrni jamlash, uzviylikka e’tibor berishga alohida ahamiyat beriladi. Shunday qilinganda matn mazmunini o‘zlashtirish ancha oson bo‘ladi. O‘qituvchi bolalarni darslikka nisbatan qanday munosabatda bo‘lishga, undan ijodiy foydalanishga, mundarija bilan ishlashga, o‘qishga kirishish uchun ruhan tayyorlanish va shu talablarni bajarishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarning dastur talablarini o‘zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ularni darsda faol qatnashishga undash, o‘zlashtirish sur’atlari va imkoniyatlariga qarab qo‘shimcha vazifalar berish; darsning qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun mos vazifalardan unumli foydalanish, dars jarayonida bolalar jamoasi e’tiborini jalb qilgan holda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini topish, o‘quvchilarning bilim, malakasini baholash, uyga beriladigan vazifalarni me’yorlash, ularning zo‘riqishlarini oldini olish lozim.

”O‘qish savodxonligi” darslariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

— ta’lim va tarbiya maqsadining birligi;
— ta’lim va tarbiya vazifalarining birligi;
— ta’lim va tarbiya manbalarining uzviy bog‘liqligi;
— ta’lim va tarbiya metodlarining birligi.

Har bir dars pedagogik, psixologik, metodik tomondan to‘g‘ri tashkil etilishi, didaktik talablarga amal qilgan holda o‘tkazilishi kerak. O‘qituvchi darsda vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi, undan unumli foydalanishi zarur. ”O‘qish savodxonligi” darsi o‘zining mazmuni va mundarijasi jihatidan boshqa darslardan farq qilishi va ta’limda yetakchi ahamiyat kasb etishida ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi.

Darsni tashkil etishda bolalar e’tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, tasviriy san’at asarlarini maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo‘sinda asosiy mavzuga o‘tish lozim. O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda, ko‘rgazmali qurollar tayyorlashda o‘quvchilarning didini, nafosat tarbiyasini o‘stiradigan materiallar tanlashi, uning o‘zi esa darsga hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o‘quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. Bunday sifatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zaruriy odatga aylanishi lozim.

Darsda bolalarga to‘la erkinlik berish, o‘qituvchi bilan bolalar o‘rtasida samimiy, do‘stona munosabatning bo‘lishi, ishonch va hurmat tobora ortib borishi ularni faollashtirishda alohida ahamiyatga ega.

O‘rganilgan mavzuni so‘rashda ham, yangi mavzuni o‘rgatishda ham bolalarning xotirasini mustahkamlovchi omillardan foydalanish, sezgi a’zolarining ishtirokini kuchaytirish, ko‘rish va eshitish faoliyatlarini rivojlantirish, ularning faolliklarini ta’kidlab, darsda yanada yaxshi qatnashishga undash lozim.

Mavzuning oson yoki murakkabligiga qarab, dars jarayonida vaziyatni o‘zgartirish, muammoli o‘qitish usulini keng qo‘llash, interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda bolalar tomonidan darsning qanday o‘zlashtirilayotganini kuzatib, ularning idrok etish faoliyatlarini, hissiyotlarini faollashtirish kerak.

Shunday qilib, o‘quvchilarni shaxs sifatida kamol topishlarini ta’minlovchi barcha vositalarni qo‘llash orqali dars sifatining yaxshi bo‘lishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Safo Matchon. Kitob o‘qishni bilasizmi? T. O‘qituvchi, 1998 y. 24-bet.
2. Al Buxoriy. Al adab al mufrad. T., O‘zbekiston. – 1990. – 102-bet.

PEDAGOGIK KOOPERATIV TA’LIM ASOSIDA O'QITISH USULLARI

Ro‘ziboyeva Ma’mura Abdunabiyevna

University of economics and pedagogy. Pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'qituvchilarni tushunishda kooperativ ta'limning mohiyati muhokama qilinadi. Kooperativ ta'limda talabalar umumiy yoki umumiy maqsadga erishish uchun tengdoshlari bilan ishlaydi. Maqsadga yolg'iz ishlashdan ko'ra, barcha guruh a'zolarining o'zaro bog'liqligi orqali erishiladi. Har bir a'zo umumiy maqsadning natijasi uchun javobgardir.

Kalit so'zlar: kooperativ ta'lim; o'zaro ta'sir; o'zaro bog'liqlik; kichik guruh; ta'lim hamjamiyati; hamkorlik; raqobat.

Har bir talaba o‘ziga xos va har bir sinf kuchi har xil bo‘lgan gavjum ta’lim olamida bir ta’lim yondashuvi samaradorlik faoliyat sifatida ajralib turadi –

kooperativ o'rganish. Talabalar birgalikda ishlaydigan, fikr almashadigan va bir-birlariga muvaffaqiyat qozonishga yordam beradigan jarayon.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikda o'rganish quyidagilarga yordam beradi: Yuqori yutuq. Ko'proq eslab qolish. Ko'proq ijobiy munosabatlar va kengroq do'stlar doirasi. Kattaroq ichki motivatsiya. Yuqori o'z-o'zini hurmat qilish. Kattaroq ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Ko'proq vazifani bajarish. O'qituvchilarga nisbatan yaxshi munosabat.Seminar va o'quv seminarlarida kichik guruhlarda kooperativ o'qitish usullari faol qo'llaniladi. Kooperativ ta'lim-bu o'qituvchilar ma'lum bir maqsadga erishish yoki biron bir vazifani bajarish uchun guruhda ishlaydigan ta'lim shakli.

Ushbu ish shaklini qo'llash orqali biz ikkita maqsadga erishdik:

1) o'qituvchilarni eng samarali o'qitish;

2) o'qituvchilarga talabalar bilan ishlashning ushbu shaklining afzalliklarini namoyish etish.

Kooperativ ta'lim modeli raqobatga asoslangan modelga muqobildir. Raqobat bizning maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladi, bu holda asta-sekin rivojlanayotgan va o'rganishga qiziqmaydigan bolalar noqulay ahvolga tushib qolishadi. Kooperativ ta'limda talaba muvaffaqiyatli ishlaydigan guruhning a'zosi ekanligi, o'z natijalaridan qat'iy nazar, unga foydali ta'sir ko'rsatishi mavjud. Talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish o'qituvchining ishidir. Muammo shundaki, talabalaringiz material bilan shug'ullanishini ta'minlash uchun qanday usullar eng yaxshi ishlashini bilishda. Talabalarni o'rganishga jalb qilishning bir necha yo'li mavjud.

Kooperativ ta'lim-bu "yakka yoki raqobatbardosh ishlash orqali erishib bo'lmaydigan guruh maqsadlariga erishish" uchun birgalikda ishlaydigan talabalar (Jonson, Jonson va Xolubek, 1986).

Kooperativ ta'limning asosiy maqsadi talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilishdir. Bu talabalar tomonidan bilimlarni kashf etishni va talabalar bog'lashi mumkin bo'lgan tushunchalarga aylantirishni talab qiladigan jarayon. Ta'lim ijtimoiy muhitda talabalar o'rtasida dialog orqali amalga oshiriladi. Jamoaning har bir a'zosi materialni o'rganish va jamoaning boshqa a'zolariga o'rganishda yordam berish uchun javobgardir.

Dean va boshq. (2012) ijobiy o'zaro bog'liqlik va individual javobgarlik kooperativ ta'limning muhim tarkibiy qismlari ekanligini ta'kidlagan. Talabalar guruhning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'zlarining sa'y-harakatlari zarurligini va har bir shaxs o'z hissalari va o'quv maqsadlariga javob berishlari uchun javobgar bo'lishini tushunishlari kerak.

Kooperativ ta'lim-bu vari ishlatadigan metodologiya Oldindan amalga oshirish.Kooperativ ta'limni (CL) amalga oshirishga qaror qilgandan so'ng, eng katta qiyinchilik sinf va talabalarni CL uchun rejalashtirish va tayyorlash bo'ladi. Jonson, Jonson va Smitning (1991) so'zlariga ko'ra, o'qituvchi sinfda kooperativ ta'limni amalga oshirishdan oldin bajarishi kerak bo'lgan bir nechta vazifalar mavjud. Ushbu bo'limda ushbu vazifalar batafsil bayon qilinadi. Guruh hajmini aniqlang va talabalarni guruhlarga tayinlang. Guruh hajmi CL vazifasiga qarab ikkitadan

to'rttagacha talabani tashkil qilishi mumkin. Ushbu guruhlar bir hil yoki heterojen bo'lishi mumkin. C guruhlari Xona ajrating. O'qituvchilar o'z sinflaridagi bo'sh joyni optimallashtirishlari kerak, shunda talabalar/guruhlar xonada osongina muloqot qilishlari va harakat qilishlari mumkin. Guruh o'rindiqlari bir-biriga duch kelishi juda muhimdir.O'zaro bog'liqlikni targ'ib qilish uchun o'quv materiallarini rejalashtiring. O'qituvchi tanlagan o'qitish usullari va materiallari har bir kishiga guruhning muvaffaqiyatiga o'ziga xos va mazmunli hissa qo'shishga imkon berishi kerak. Ushbu noyob hissalarsiz guruhning tuzilishi va hamjihatligi xavf ostida qoladi.Guruh rollarini tayinlang. Ushbu qarorda o'qituvchi rol o'ynashi kerakmi yoki yo'qmi degan munozaralar mavjud. O'qituvchi guruh ichida rollarni tayinlashni tanlaydimi yoki yo'qmi, ular har bir talabaning alohida rolga ega bo'lishini ta'minlashi kerak. Shuningdek, o'qituvchi talabalarga kuchli tomonlarini ishlatadigan va zaiflik sohalarini yaxshilaydigan rollarni tanlashda yordam berishi yoki yordam berishi kerak. O'qituvchilar, shuningdek, talabalar bir xil rolni qayta-qayta tanlamasligini nazorat qilishlari kerak. O'qituvchi baholanadigan guruh-ish qobiliyatlari haqida xabar berishi kerak. Guruh bilan ishlash ko'nikmalarini va baholash vazifasini baholash uchun, ehtimol talabalarning yordami bilan rubrikani yaratish mumkin. CL vazifangizning maqsadlari sizga rasmiy yoki norasmiy baholash vositasi kerakligini aniqlaydi. Tuzilishi ijobiy o'zaro bog'liqlik va javobgarlik. Guruh hajmi kichik bo'lishi kerak, shunda har bir a'zo ishtirok etadi va guruhga o'ziga xos hissa qo'shadi. O'qituvchilar, shuningdek, ikkalasiga ham savollar berish orqali guruhlar va shaxslarni kuzatishi kerak. Guruhdan uning natijalarini birgalikda tushuntirishni so'rash kerak va shaxslar o'z pozitsiyalarini va umuman guruhning pozitsiyasini himoya qilishlari kerak.Kerakli xatti-harakatlarni belgilang. Kooperativ ta'lim muvaffaqiyatining muhim qismi talabalarga guruhda ishlashni o'rgatishdir. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi boshqalarni hurmat qilish usullari bo'yicha mini-darslar o'tkazishi mumkin. Amalga oshirish barcha tayyorgarliklardan so'ng, ishlashni boshlash vaqti keldi. Kooperativ ta'limni amalga oshirish bosqichida talabalar eng muhim rol o'ynaydi. Ushbu bosqichdagi ba'zi vazifalariga quyidagilar kiradi:

birgalikda ishlash;
bir-biringizni tinglash;
bir-biringizni so'roq qilish;
ularning ishi va taraqqiyotini hisobga olish;
baholash vazifasini (mahsulotni)ishlab chiqarish;
shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish / guruhga jalb qilish.

O'qituvchi ushbu bosqichda ham mas'uliyatga ega. Jonson, Jonson va Smit (1991) kooperativ ta'limni amalga oshirish jarayonida o'qituvchining bir nechta rollarini sanab o'tadilar.

Xatti-harakatni kuzatish. Kooperativ ta'lim paytida o'qituvchi har bir guruhga tashrif buyurib, xona bo'ylab aylanishi kerak. Bu so'roq qilish kabi shakllantiruvchi baholash strategiyalarini birlashtirish uchun ajoyib vaqt.

O'qituvchi har qanday guruh mojarosini yoki vazifadan tashqari xatti-harakatni

sezsa, ular aralashishi kerak. Kichik guruh mojarosini imkon qadar tezroq hal qilish kerak va talabalarga kelajakda muammolarni qanday oldini olish kerakligini ko'rsatish kerak. O'qituvchi guruh mojarosini hal qilish uchun nizolarni hal qilish ro'yxatidan foydalanishi mumkin. Ushbu nazorat ro'yxatiga guruhdagi barchani tinglash muhimligini tushuntirish, mas'uliyatni aniqlash, har bir insonning sovg'alarini qadrlash, mukammallikni modellashtirish va hazilni targ'ib qilish kabi narsalar kiradi.

O'qituvchi ushbu bosqichda ham mas'uliyatga ega. Jonson, Jonson va Smit (1991) kooperativ ta'limni amalga oshirish jarayonida o'qituvchining bir nechta rollarini sanab o'tadilar. Xatti-harakatni kuzatish. Kooperativ ta'lim paytida o'qituvchi har bir guruhga tashrif buyurib, sinf bo'ylab aylanishi kerak. Bu so'roq qilish kabi shakllantiruvchi baholash strategiyalarini birlashtirish uchun ajoyib vaqt.

Umumlashtirish orqali yopilishni ta'minlang. O'qituvchi butun talabalar guruhini qayta tiklashi kerak. Shu nuqtada o'qituvchi dars/birlikning muhim fikrlarini umumlashtirishi mumkin. Yana bir taklif-har bir guruh o'z ishlarini va muhim deb hisoblagan fikrlarini umumlashtirishi. Bu o'qituvchiga guruhlar qaysi bilim darajasida ishlayotganini aniq bilishga yordam beradi.Talabalarning bilimlarini baholang. O'qituvchi har bir guruhning baholash vazifasini baholash/baholash uchun rubrikadan foydalanishi kerak. Ular o'z guruhlari bo'yicha ham baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. X .Xodjayev Umimiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
2. I. J. Xusanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent-2021.
3. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). “Fan va texnologiya”,2008
4.http://www.genderi.org/ta-lim-texnologiyalari.html?page=80
5.Bekmurodova S.Texnologiya fanini o‘qitishda yangicha yondashuv.T.: 2017
6.Torrance E.R. Creativity and futurism ineducation: Retooling Education 1980. Vol 100 P

NURTURING MORAL AND AESTHETIC VIRTUES: UNRAVELING THE TEACHER'S ROLE, CHALLENGES, AND SOLUTIONS

Murtazina Diana Rakhibovna
Master of group 521-23 of direction "History and theory of pedagogy"
Jizzak State Pedagogical University
Murtazin Emil Rustamovich
Jizzak Polytechnic Institute

Abstract: This article explores the pivotal role of teachers in fostering the moral and aesthetic development of students, amidst challenges posed by time constraints, cultural diversity, resource limitations, and external influences. By serving as role models and integrating moral and aesthetic education into the curriculum, teachers can cultivate empathy, integrity, and appreciation for beauty. Innovative solutions, including curriculum integration, professional development, community engagement, technological utilization, and reflective practices, are proposed to overcome these challenges. Ultimately, through collaborative efforts and

unwavering commitment, teachers can fulfill their duty of nurturing virtuous individuals capable of navigating the complexities of the modern world.

Keywords: Teacher role, moral education, aesthetic education, challenges, solutions, curriculum integration, professional development, community engagement, technology, reflective practices.

Introduction:

In the realm of education, the teacher occupies a central role not only in imparting academic knowledge but also in shaping the moral and aesthetic qualities of students. This article delves into the multifaceted responsibilities of teachers in nurturing these essential dimensions of human development, highlighting the challenges they encounter and proposing effective solutions. Teachers are more than just instructors; they are mentors, guides, and exemplars of virtue. Beyond the transmission of information, they play a crucial role in molding the character and worldview of their students. Through their words, actions, and attitudes, teachers influence not only what students know but also who they become. The formation of moral virtues, such as empathy, honesty, and compassion, is fundamental to the development of responsible and ethical individuals. Likewise, cultivating aesthetic sensibilities, encompassing an appreciation for art, culture, and beauty, enriches lives and enhances cultural literacy.

However, amidst the noble endeavor of moral and aesthetic education, teachers face a myriad of challenges. Time constraints within an increasingly demanding curriculum, cultural diversity within classrooms, limited resources, and the pervasive influence of external factors such as social media pose significant obstacles to the realization of these goals. Nevertheless, solutions abound. By integrating moral and aesthetic education into the curriculum, providing continuous professional development opportunities, engaging with the community, leveraging technology, and fostering a reflective environment within the classroom, teachers can overcome these challenges and fulfill their mission of nurturing virtuous individuals. In this article, we will explore the indispensable role of teachers in the formation of moral and aesthetic qualities in students, dissecting the challenges they confront and offering practical solutions to empower them in this noble endeavor.

Understanding the Teacher's Role: Teachers are not merely disseminators of facts but facilitators of holistic development. They serve as role models, shaping students' perceptions of what is right, just, and beautiful. Through their words, actions, and attitudes, teachers influence students' moral compass and aesthetic sensibilities. By fostering empathy, integrity, and appreciation for beauty, educators lay the foundation for a compassionate and culturally enriched society.

Challenges Faced by Teachers: Despite the noble intentions of educators, several challenges impede their efforts to nurture moral and aesthetic virtues in students:

1. Time Constraints: With a curriculum packed with academic requirements, teachers often struggle to allocate sufficient time for moral and aesthetic education.

2. Conflicting Values: In a diverse classroom setting, teachers must navigate differing cultural backgrounds and value systems, which can pose challenges in promoting universal virtues.

3. Limited Resources: Schools may lack resources such as art supplies, literature, and cultural experiences, hindering teachers' ability to provide enriching aesthetic experiences.

4. External Influences: Peer pressure, social media, and societal norms often counteract the values instilled by teachers, creating a tug-of-war for students' moral allegiance.

Solutions to Overcome Challenges: Addressing these challenges requires a multifaceted approach that integrates innovative strategies and collaborative efforts:

1. Integration into Curriculum: Embedding moral and aesthetic education within the curriculum ensures its prioritization and systematic delivery, rather than relegating it to extracurricular activities.

2. Professional Development: Continuous training and workshops equip teachers with pedagogical skills and strategies to effectively integrate moral and aesthetic education into their teaching practices.

3. Community Engagement: Collaborating with parents, community leaders, and cultural institutions fosters a holistic approach to moral and aesthetic education, reinforcing values beyond the classroom.

4. Utilization of Technology: Leveraging educational technologies such as virtual museums, online literature platforms, and interactive media enhances students' exposure to diverse cultural expressions and ethical dilemmas.

5. Cultivating a Reflective Environment: Encouraging open dialogue and critical reflection within the classroom cultivates students' moral reasoning and aesthetic appreciation, empowering them to navigate complex ethical and artistic landscapes.

Conclusion:

In the intricate tapestry of education, the role of the teacher as a cultivator of moral and aesthetic virtues stands as a cornerstone of societal progress and human flourishing. Throughout this discourse, we have illuminated the profound impact teachers wield in shaping the character and cultural literacy of their students, while acknowledging the formidable challenges they confront in fulfilling this vital mission. Despite the constraints of time, cultural diversity, resource limitations, and external influences, teachers possess the ingenuity, dedication, and resilience to surmount these obstacles. By embracing innovative strategies, fostering collaboration, and upholding unwavering commitment to their noble vocation, educators can transcend the limitations imposed upon them and leave an indelible mark on the hearts and minds of their students.

As we navigate the complexities of the modern world, characterized by rapid technological advancements, cultural globalization, and ethical dilemmas, the need for moral and aesthetic education has never been more pressing. In an era marked by uncertainty and moral ambiguity, the values instilled by teachers serve as guiding

beacons, illuminating the path towards a more just, compassionate, and culturally enriched society. In closing, let us reaffirm our unwavering support for teachers, the unsung heroes of human civilization, who labor tirelessly to sow the seeds of virtue and beauty in the fertile soil of young minds. Through their steadfast commitment and transformative influence, teachers hold the power to shape a brighter future for generations to come, imbuing the world with the moral courage and aesthetic appreciation needed to transcend the trials of the present and soar towards the promise of a better tomorrow.

List of references

1. Муртазина, Д. Р. (2023). МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 139-145.
2. Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ. УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, 77.
3. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.
4. Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в цифровой коммуникации во время глобальной пандемии COVID-19. Молодой ученый, (21), 90-92.
5. Кузиев, Б. (2023). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.
6. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОПЕРЕЖАЮЩЕЙ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ

старщий преподаватель ***Маъмурова Феруза Тоджиматовна***
кафедра "Социальные науки"
старщий преподаватель ***Абдуллаева Нозима Хошимовна***
кафедра "Информационные технологии технических систем"
студент ***Дехканов Аброр Эркинбой угли***
студент ***Муродиллаев Рахматилло Носиржон угли***
Наманганский инженерно-строительный институт

Аннотация: Исследована система опережающей подготовки специалистов. Рассмотрены основы образовательной системы и наиболее важные аспекты ее применения при подготовке абитуриентов и специалистов. Приведены рекомендации и методы для усовершенствования системы подготовки с учетом современных особенностей институциональной среды. Также представлены особенности реализации индивидуальных профессиональных путей.

Ключевые слова: образовательная система, опережающая подготовка, программа "Шаг в будущее", профессиональная ориентация, малые группы, абилитация.

Одной из важнейших традиций высшей технической школы СССР является органичное включение системы производственной практики в учебный процесс. Это осуществляется на основе развития сети учебных мастерских, лабораторно-экспериментальной базы и оригинальных педагогических идей [1].

Современная многоуровневая система образования в университетах позволяет гибко организовать подготовку специалистов. Студенты имеют возможность формировать свои профессиональные пути в процессе обучения. Однако изменение индивидуального профессионального пути студента может привести к снижению уровня подготовки специалиста, нецелевым затратам на его обучение и увеличению времени подготовки.

Система опережающей подготовки специалистов предусматривает активное использование профессиональной ориентации на этапе предвузовского обучения. Поступая в университет, абитуриент четко представляет специфику выбранной специальности. Имея сильную мотивацию, студент стремится получить больше знаний по своей специальности и углубить их. Студент, проходящий обучение по системе опережающей подготовки, не меняет своего профессионального пути. Он контролирует свое движение по выбранному профессиональному пути, минимизируя время прохождения каждого этапа.

В рамках опережающей образовательной системы проводится целевая подготовка абитуриентов в рамках программы "Шаг в будущее" [2].
Опережающая система образования включает непрерывную подготовку школьников 10-11 классов, проходящих углубленную профессиональную ориентацию по выбранной специальности, а также обучение студентов соответствующих специальностей с использованием "русского метода" обучения [3,4], который предусматривает подтверждение полученных теоретических знаний на практике. Вовлечение обучающихся в решение практических задач осуществляется в малых группах.

Малые группы формируются для решения конкретных реальных профессиональных задач. В их состав входят работники предприятий, ведущие преподаватели университета, аспиранты и студенты старших курсов, обладающие специальными знаниями и опытом решения задач, которые реализуются предприятием, а также студенты младших курсов, имеющие фундаментальные знания по базовым дисциплинам и опыт участия в программе "Шаг в будущее". Работа в малых группах позволяет абитуриентам формировать индивидуальные профессиональные пути и уверенно реализовывать их, с учетом функции абилитации [5].

Успешность подготовки обучаемых на всех этапах определяется не только уровнем знаний и владением методами познания, но и комплексной подготовкой к профессиональной работе.

Совершенствование процесса опережающей подготовки осуществляется путем управления процессом формирования малых групп. Государственная потребность в молодых специалистах определяется на основе прогнозной информации о развитии отрасли и конкретного предприятия. Однако рыночные механизмы не всегда позволяют сформировать заказ, оптимальный для нужд государства. Поэтому университет формирует малые группы целевым образом под решение конкретных задач по запросу предприятий-партнеров.

В рамках системы опережающей подготовки специалистов целесообразно использовать информационные интеллектуальные технологии, базы данных и знаний, информационно-логические модели, средства глобального телекоммуникационного общения для создания сложных систем в творческой лаборатории одной личности.

Профессиональная ориентация реализуется с помощью специальных программ, проводимых в подшефных школах, а также в рамках программы "Шаг в будущее". Наиболее полная и глубокая профессиональная ориентация абитуриентов и отбор талантливой молодежи проводятся в процессе подготовки по программе "Шаг в будущее".

Программа "Шаг в будущее" предусматривает информирование о специальностях, требованиях на вступительных экзаменах, особенностях обучения и перспективах трудоустройства. После выбора специальности абитуриенту предлагаются соответствующие программы подготовки, которые помогут ему успешно реализовывать свою профессиональную траекторию.

Список литературы

1. Попович Л.Г., Гришин Д.С., Шарков А.А. Синтез институциальной среды в сфере обеспечения занятости с учетом функции абилитации. // Научное обозрение: гуманитарные исследования. - 2012 - №4. - с. 149-1541.
2. Эргашев Ш.Т. Система опережающей подготовки специалистов для промышленного комплекса Узбекистана. Наманган. Изд. LAP Lambert AcademicPablishing, 2023 – 202с.
3. Безлепкин В.В., Шумова Т.Р. Системогенез русского метода в университетском техническом образовании. // Материалы 8 международной научно-практической конференции «Научный потенциал мира», 2012, Том 10, - София, «Бял ГРАД-БГ» ООД. - с.10-11.(авторских 1с.)

GLOBALLASHAYOTGAN JAMIYATDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR.

Mustafoev Abduvohid Abduhafiz o‘g‘li
Jizzakh Polytechnic Institute,
assistant at the Department of Radioelectronics

Uralov Abubakr Azamat o‘g‘li
student Jizzakh Polytechnic Institute

Annotatsiya: Globallashuv jamiyatlarni tubdan o'zgartirib, turli jihatlarga, jumladan, ta'limga ham ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqola globallashayotgan jamiyatda ta'limni rivojlantirishning jahon tajribasini o'rganadi, yuzaga kelgan imkoniyatlar va muammolarni tahlil qiladi. Biz globallashuvning ta'lim olish imkoniyatini oshirish, bilim almashishni rag'batlantirish va kelajakka yo'naltirilgan ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini muhokama qilamiz. Aksincha, maqola teng bo'lmagan kirish muammolari, o'quv dasturlarini potentsial bir xillashtirish va miyaning ketishi muammosiga oydinlik kiritadi. Va nihoyat, biz xalqaro hamkorlikni ta'kidlagan holda, ta'lim tizimlarida tenglikni ta'minlash va moslashishni rivojlantirish yo'llarini taklif qilamiz.

Kalit so'zlar: Globallashuv, Ta'limni rivojlantirish, Ta'limga kirish, Bilim almashish, Global ko'nikmalar, Ta'limda tenglik, Brain Drain.

Kirish:

Dunyo tobora o'zaro bog'lanib bormoqda, bu globallashuv deb nomlanuvchi hodisa. Bu turli xil ijtimoiy jihatlarga chuqur ta'sir ko'rsatadi, ta'lim ayniqsa diqqatga sazovor sohadir. Ushbu maqola globallashuv sharoitida ta'limni rivojlantirishning jahon tajribasini ko'rib chiqadi, yuzaga kelgan imkoniyatlar va muammolarni yoritadi. [1-2]

Imkoniyatlar:

Globallashuv ta'limni rivojlantirish uchun bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi. Birinchidan, bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim olish imkoniyatini oshirishga yordam berdi. Hamma uchun ta'lim (EFA) kabi tashabbuslar xalqaro qo'llab-quvvatladi, bu esa butun dunyo bo'ylab savodxonlik darajasi va ta'lim darajasining oshishiga olib keldi.

Ikkinchidan, globallashuv bilim almashish va hamkorlikni rivojlantiradi. Onlayn ta'lim platformalari va universitetlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik butun dunyo bo'ylab talabalar va o'qituvchilarni bog'ladi. Ushbu almashuv turli nuqtai nazardan o'rganish, ta'lim tajribasini boyitish imkonini beradi.

Bundan tashqari, bir-biriga bog'langan dunyo muvaffaqiyatga erishish uchun yangi ko'nikmalar to'plamini talab qiladi. Ta'lim tizimlari tanqidiy fikrlash, jamoaviy ish, madaniyatlararo muloqot va raqamli savodxonlikni o'z o'quv dasturlariga kiritish orqali ushbu haqiqatga moslashmoqda va talabalarni global ishchi kuchiga yaxshiroq tayyorlamoqda.

Nihoyat, globallashuv global fuqarolik tushunchasiga yo‘l ochdi. Rivojlanish ta'limi talabalarni barqarorlik va tengsizlik kabi global muammolarni tushunishga undaydi, dunyo farovonligi uchun mas'uliyat hissini oshiradi. [3]

Qiyinchiliklar:

O'zining afzalliklariga qaramay, globallashuv ta'limni rivojlantirish uchun ham muammolarni keltirib chiqaradi. Resurslardan tengsiz foydalanish muhim muammo bo'lib qolmoqda. Raqamli tafovut va iqtisodiy nomutanosiblik ko'pchilikni, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda sifatli ta'lim olish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Yana bir qiyinchilik standartlashtirish va mahalliy kontekst o'rtasidagi ziddiyatdadir. Standartlashtirilgan test sinovlari va o'quv dasturlarini davlatlar bo'ylab moslashtirishga bo'lgan intilish mahalliy ehtiyojlar va madaniy kontekstlarni qondirish muhimligini buzishi mumkin.

Va nihoyat, globallashuv rivojlanayotgan mamlakatlardan o'qimishli shaxslar yaxshiroq imkoniyatlar uchun ko'chib o'tadigan miyaning ketishiga olib kelishi mumkin. Iste'dodlarning bunday chiqib ketishi vatandagi ta'lim tizimidagi taraqqiyotga to'sqinlik qilishi mumkin.

Oldindagi yo'l:

Globallashayotgan jamiyatda ta’limni rivojlantirishning jahon tajribasi imkoniyatlar va muammolarning murakkab o‘zaro ta’siridan iborat. Barcha uchun sifatli ta'limni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar resurslarni taqsimlash va bilim almashish kabi muammolarni hal qilishi mumkin. Bundan tashqari, ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Va nihoyat, ta'lim tizimlarida moslashuvchanlikni rivojlantirish ularga tez o'zgaruvchan globallashgan dunyo bilan bir qatorda rivojlanish imkonini beradi.[1]

Xulosa:

Globallashuv butun dunyo bo'ylab ta'lim rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U kirishni kengaytirish, bilim almashish va global ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etsa-da, tengsiz kirish, potentsial homogenizatsiya va miyaning ketishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Xalqaro hamkorlikka e'tibor qaratish, tenglikni qo'llab-quvvatlash va moslashishni rag'batlantirish orqali ta'lim tizimlari sifatli ta'lim barcha shaxslarga o'zaro bog'langan dunyoda gullab-yashnash imkoniyatini beradigan kelajakni yaratish uchun globallashuvning ijobiy jihatlaridan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo‘ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent. 2019.
2. 2. Караваева А.М. ИКТ в образовании: преимущества, трудности и вопросы организационного развития / А.М. Караваева // Образование и наука в России и за рубежом. – №16. – 2019 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.gyrnal.ru/statyi/ru/1914/
3. Mustafoyev, A. A. (2024). HETEROSTRUCTURED BIPOLAR TRANSISTOR BASED ON HIGH-VOLTAGE MULTILAYER EPTAXIAL STRUCTURE ALGAAS/GAAS. Ilm-fan va ta'lim, 2(1 (16)).
4. Mustafoev, A. A. (2024). ELECTRONIC SPECTROSCOPY OF HETEROSYSTEM SI/CU SURFACES WITH NANOSCALE PHASES AND FILMS. Modern Science and Research, 3(1), 74-77.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Nosirova Ra'no Xamidovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta'limi metodikasi” kafedrasi
pedgogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD)

Annotatsiya: maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish imkoniyatlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning metodik tizimi va uni amaliyotga tadbiq etish masalalari xususida fikr bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: psixologik maslaxat, innovatsion yondashuv, integratsiya, aqliy-intellektual, kognitiv, ko‘nikma, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimiga doir Farmonida “maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash”[1] vazifalarining belgilanishi soha xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Shaxsning har tomonlama shakllanishi, rivojlanishi va moslashuvi, bolalar rivojlanishining barcha yosh davrlarida psixologik salomatligini muhofaza qilish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi-bolani yaxshi bilishi, chuqur tushunishi, psixik rivojlanish qonuniyatlarini farqlay oladigan, turli yosh va individual xususiyatlarini bilishi lozim. Psixolog o‘z faoliyatida nafaqat bolalarning balki, katta yoshdagilar psixologiyasi haqida ma'lumotga ega bo‘lishi, ularning bolalarga bo‘lgan munosabati va qarashlarini aniqlay olishi zarur. Psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu psixologik maslahat hisoblanadi.

Psixologik maslahat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari va ota-onalarga bolalarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, rivojlanishdagi buzilishlar hamda kechikishlar, ularni korrektsiyalash, shuningdek, bolalarni boshlang‘ich sinfda o‘qishga va maktabga moslashuviga psixologik tayyorlash masalalari bo‘yicha maslahatlar berishdan iborat.

Psixologik maslahat turlari quyidagicha bo‘ladi.

- Bolalarning maktab ta'limiga borishi, boshlang‘ich sinfdan o‘rta sinfga o‘tishi, shuningdek, maktabni bitirish va bo‘lg‘usi kasb-hunar hamda ta'lim tashkilotini tanlash masalalarida o‘quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarga maslahatlar berish;

- Maktab-internatlar, mehribonlik uylari, shuningdek, yetim bolalar ta'lim olayotgan umumta'lim tashkilotlari xodimlariga ta'lim-tarbiya, bolalarning ijtimoiylashuvi va moslashuvini psixologik kuzatish masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;
- Bolalar, o‘smirlar va yoshlarga kattalar va tengdoshlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar, oilaviy muammolar, xulq-atvordagi og‘ishlarni bartaraf etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek, hayotiy va kasbiy o‘zligini anglash masalalarida maslahatlar berish;
- Maktabgacha ta'lim, umumta'lim tashkilotlari, mehribonlik uylari rahbarlariga pedagogik jamoani boshqarishni optimallashtirish, qo‘l ostidagi xodimlar bilan shaxslararo munosabatlar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish hamda sog‘lom psixologik muhitni ta'minlash masalalarida maslahatlar berish;
- Maslahat berish jarayonida tarbiyalanuvchilarda mustaqil ta'lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini korrektsiyalashga ijobiy munosabatlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ota-onalarda o‘z farzandlarini maktab ta'limiga tayyorlashlarida turli xil psixologik muammolar vujudga keladi, ya'ni bola kitob bilan ishlashni hoxlamasligi, topshiriqlarni bajarmasligi yoki boshqa sabablar. Mana shu jarayonda ota-onalarda ham psixologik zo‘rqish yoki farzandi bilan muloqot vaqtida muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Aynan shu masalada maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi ota-onalarga va bolalarga psixologik maslahat berishi zarur. Psixologik maslahat vaqtida psixolog imkon darajasida ota-onalarga muammoning yechimini o‘zlari topishlariga ko‘mak berishi hamda ularni to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga turtki berib turishi kerak.

Psixologga ota-onalar turlicha sabablar orqali murojaat qiladilar. Hayotda shunday murakkab vaziyatlar bo‘ladiki, hatto kattalar ham bunday holatlarni hal etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunga misol qilib yaqin odamidan ayrilish, ota-onalarni ajrimi, oila a'zolariga yangi odamni qo‘shilishini aytish mumkin. Har bir vaziyatda psixolog bolaning kuchli hayajonlanishi, havotirga tushishini aniqlay olishi lozim. Oilaga esa bunday vaziyatlardan chiqishlarida psixologik yordam ko‘rsatish kerak.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun bolalarda qo‘rqinchni yengish, o‘z-o‘zini anglash va boshqarish, o‘zligini namoyon etish malakalarini rivojlantirish lozim. Bolalarda qo‘rqinch va havotirni yengish va o‘z-o‘zini boshqarishlarida psixologik maslahatni to‘g‘ri tashkil eta olish talab etiladi. Bunda psixolog quyidagi vazifalarni belgilab olishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik xususiyatlarini chuqur bilish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarga maslahat berishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va aniqlash;

Bolalardagi qo‘rqish hissi muammosini hal etish yo‘llarini aniqlash.

Har bir boladagi qo‘rqish hissini oldini olish zarur, bunda oilada ota-onalar bolaga ishonchli munosabatda bo‘lishi, hissiy aloqalarni buzmaslik yoki hissiy tomondan o‘zlariga bo‘ysundurmasliklari lozimligi haqida psixologik ko‘rsatmalar beriladi. Yuqoridagi holatlarda psixolog ijtimoiy vaziyatlarni ham o‘rganish zarur bo‘ladi,

chunki bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelishi bilan shaxslararo munosabat muhiti yanada kengayadi.

Avvalo oilaviy muhit (to‘liq oila, noto‘liq oila, ona bilan o‘zaro munosabatning xususiyatlari, buvi va buvalar munosabati, onaning o‘z farzandiga e'tiborsizligi), bola va ota munosabati, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi birdamligi, hamfikrliligi, bir-birlariga tayziq o‘tkazmasligi chuqur tahlil qilinadi.

3-7 yoshli bolalarda asosiy faoliyat turlari syujetli-rolli o‘yin va muloqotni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola tengdoshlari bilan muloqotga kirisha oladi. Bola rolli o‘yin o‘ynashni hohlaydi va o‘yin orqali axloqiy, ma'naviy va estetik xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtiradi hamda rioya qilishga odatlanadi. Mana shu faoliyat turlarini amalga oshirishda uyda va maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning ehtiyojlarini qondirish ya'ni bola uchun shart-sharoit yaratish (bolaning dars tayorlashi va o‘ynashi uchun qulaylik yaratish stol-stul, o‘quv qurollari, ertak hamda rasmli kitoblar bilan ta'minlash) lozim. Bolalardagi ehtiyojni qondirish ularda faollikni, o‘zini boshqarish, psixologik himoyalanish, ijodiy moslashuvchanlikni yuzaga keltiradi. Bolalarga beriladigan psixologik maslahat asosida ularda ijtimoiy munosabatlarga kirishish (muloqotchanlik, o‘zaro hatti-harakat, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, tadbirlardagi ishtiroki, ijtimoiy munosabatlarda me'yorlarga amal qilish, kattalarga gap qaytarmaslik, ularning topshiriqlariga “xo‘p bo‘ladi” deb javob berish kabilar) ko‘nikmalari shakllanadi. Rolli o‘yin ijro etish bolalarning ichki dunyosini rivojlantiradi. Ularda “fikrlash dunyosi”, “his etish dunyosi”, “Men-kontseptsiyasi” rivojlanadi. Bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirish ijodiy faoliyatga undaydi va tasavvurni yanada kengayishiga turtki beradi. Bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda mashg‘ulotlarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish talab etiladi. Tasavvur va xayol bolalarda mantiqiy fikrlashni kengaytiradi shuningdek, bilim darajasini yuqorilashuviga olib keladi. Biroq ayrim holatlarda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarda xatoliklar uchraydi ya'ni ular:

-Bolaning yosh xususiyatlari va rivojlantirishning zaruriy shartlarini anglay olmaydilar;

-Bola bilan hamkorlik faoliyatini yetishmasligi yoki yaqindan muloqot qilmaslik;

-Bolaning ixtiyoriy hatti-harakatini hisobga olmasdan yuqori talablar qo‘yilishi;

-Ota-onalar farzandining shaxsiy yutuqlarini ko‘ra bilmasliklari yoki to‘g‘ri anglay olmasligi;

-Me'yorida tarbiyalanayotgan bolaga ortiqcha talablarni qo‘yish;

-Bola o‘ynayotganida yoki ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganida unga yordam bermaslik.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, psixologik yordam bo‘yicha ota-onalarning ko‘pchiligi murojaat qilmoqdalar. Shu boisdan psixolog olim J.Jorjning ota-onalar uchun ishlab chiqqan psixologik tavsiyalarini keltiramiz. Zero, ular farzand tarbiyasida hatoliklarga yo‘l qo‘ymasinlar. Hurmatli ota-onalar!

- Bolaning mustaqil ravishda rivojlanishiga halal bermang.
- Uni o‘z tasavvurlaringiz bo‘yicha qanday bo‘lishini talab qilmang va bir qolipga solmang.
- U qanday ish qilmasin (albatta ijobiy faoliyat) uni rag‘batlantiring va baholang.
- Uni ko‘z ostingizdan qochirmasdan erkin faoliyat qilishiga imkoniyat yarating.
- O‘zingizda ota-onalik qobiliyati borligiga ikkilanmang. Hech kim farzand tarbiyasini oxirigacha qanday bo‘lishini bilmaydi. O‘zingizga ishoning!
- Bolaning rivojlanishi faqat to‘g‘ri yo‘ldan iborat emas, unda turli xil to‘siq va burilishlar uchraydi buni unutmang.
- “Farzandimga faqat o‘zim tarbiya beraman” deyishdan yiroqda bo‘ling, chunki bolaning tarbiyasi va kelajagi uchun boshqalar ham qayg‘urishi ma'lum. Ammo sizni ta'sir kuchingiz juda zarur hisoblanadi.
- Bolangizda qobiliyat borligiga ishoning. U plastilin emaski, undan hamma narsa yasash mumkin bo‘lsa, u barcha narsani anglay oladi, unga kim ustoz bo‘lishini o‘zi tanlay oladi. Agar uning ishonchini yo‘qotsangiz, unga ta'sir ko‘rsatish juda murakkablik tug‘diradi yoki umuman bo‘lmasligi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda ota-onalar va maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik maslahat berishda yosh xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Oiladagi murakkab vaziyatlar bolalarni kattalar bilan muloqoti va bolaning mustaqil bo‘lishga intilishi, uning psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bolalarda yuz beradigan muammolar ota-onalarning oiladagi o‘zaro munosabatlariga ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligini e'tiborga olish kerak. Psixolog bolaga va ota-onalarga psixologik maslahatni baravar tashkil etishi maqsadga muvofiq. Ana shundagina bola tarbiyasidagi har qanday muammolarni hal etish osonroq kechadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi 595-sonli “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/4646908
2. Возможности практической психологии в образовании: Из опыта работы психологов УЦ «Перспектива». Вып.2 / Под ред. Н.В. Пилипко. - М.: УЦ «Перспектива», 2000.
3. Немов Р.С. Психологическое консультирование: Учеб. для студ. Педвузов.- М.:Гуманит.изд.центр ВЛАДОС, 2000.
4. Венгер А.Л. Психологическое консультирование и диагностика.-М.: Смысл, 2001.-145 с.
5. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений/ Г.В.Бурменская, Е.И.Захарова, О.А.Карабанова и др.- 2002.-416 с.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL O‘QISHGA PIRLS BAHOLASH TIZIMINI QO‘LLASH VOSITASIDA O‘RGATISH

Olimjonova O‘g‘ilxon Abdurasul qizi
Namangan davlat universiteti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1 bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil o‘qishga PIRLS baholash tizimini qo‘llash vositasida o‘rgatish, uning afzalliklari hamda bub o‘yicha olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, TIMSS, xalqaro o‘qish savodxonligi, ta’limga yangicha yondashuv, forum, chat, blog, ePIRLS onlayn o‘qish,

Yoshlikda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo‘lini belgilaydi. Baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas, balki o‘quvchilarni faollikka undovchi, rag‘batlantiruvchi vosita bo‘lib bundan ustozlar unumli foyalanishadi. Har bir o‘qituvchining o‘z ish uslubi, baholash metodi bor. Qaysidir o‘qituvchi uchun baho bu – rag‘bat yoki o‘quvchini 45 daqiqa ushlab turish vositasi. Shundanmi, bir sinfdan ikkinchi sinfga o‘tgan bolaning bahosida keskin o‘zgarish yaqqol namoyon o‘ladi. Yana pedagoglar orasida bahoni nisbatan yuqoriroq qo‘yuvchi yoki o‘quvchining bilim darajasi talabga javob bersa-da, “5” ni tejaydiganlari bor. Bu usullarning qaysi biri to‘g‘riligi esa doimiy bahstalab mavzu. O‘quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta’lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o‘quv yili davomida har bir ta’lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o‘tkazib boriladi. Uning natijasiga ko‘ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o‘qituvchilar salohiyati va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta’lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo‘lgani uchun Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari bilimini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya’ni o‘quvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o‘rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assesment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) kabi baholash dasturlaridan foydalanilmoqda.

2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [1]

PIRLS ning keng ma’nosi xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish bo‘lib, u turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunush darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, 2021-yil uchun mo‘ljallangan tadqiqotlarda O‘zbekiston o‘quvchilari ham ishtirok

etishi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga katta mas’uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchidan ta’limga yangicha yondashuvni, faollikni talab etadi. Shu o‘rinda o‘quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash mumkun degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. PIRLSga tizimli tayyorlashda sinfdan tashqari o‘qish, mustahkamlash, takrorlash darslari hamda to‘garaklarning o‘rni juda muhim.

Shu bilan birga yosh o‘quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta’lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya’ni badiiy tajriba orttirish, ma’lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni PIRLS ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan.

PIRLS xalqaro boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushish savodxonligini baholash dasturi o‘tkazish davrlarida zamonga moslashtirib, topshiriqlar mazmuni va mohiyatini takomillashtirib boradi. Masalan, 4-o‘tish davri (PIRLS-2016 yil)da o‘quvchilar topshiriqlarni kompyuterda onlayn tarzida o‘tkazilib, natijalari elektron hisoblashga o‘tkaziladi. 2021-yilda o‘tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida raqamli format, internet orqali muloqot qilishning ko‘p sonli turlari (forum, chat, blog), ko‘p hollarda matn o‘zaro bog‘langan veb-saytlar kabi raqamli shakllarga o‘tish rejalashtirildi. Lekin, shu bilan birga, an’anaviy format, ya’ni kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalardagi kabi an’anaviy yozuv shakllarida ham beriladi. O‘quvchilarga beriladigan materiallar rag‘batlantiradigan va bir butun samaradoralikni oishiradigan va qiziqarli va tasavvur qilish jihatdan yoqadigan sifatida taqdim etiladi.

PIRLS-2021 dasturida moslanuvchan dizayn qo‘llanildi. Bunda xalqaro dasturda qatnashayotgan mamlakatlar o‘quvchilari o‘qish va qismlarni boshqarishadi, har bir mamlakatda alohida turli xil darajadagi test shakllari moslashtirib beriladi. Mazkur yangi g‘oya boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining turli xil o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun o‘qish darajalarining PIRLS o‘lchovini takomillashtirib, o‘quvchilarning faolligini oshirib boradi. “Agar bu bolalar murakkab matnni o‘qishsa, unda ular faqat aniq tasvirlangan tafsilotlarni topib olishlari mumkin. Ammo agar bolalarga oddiy matn berilgan bo‘lsa yoki matn qismlarga bo‘lib taqdim etilsa, ular og‘zaki va noverbal tekshiriladigan ma’lumotni topib chiqarib (grafikalar yoki diagrammalar yordamida), voqealari va qahramonlar harakatlarining sabablari to‘g‘risida sodda xulosalar chiqarishlari, voqealar va asosiy g‘oyani sharhlay boshlaydilar. PIRLSning muhim maqsadi – to‘rtinchi sinfda o‘qish yutuqlari bilan bog‘liq uy, jamoat, maktab va o‘quvchi omillarini o‘rganish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o‘quv sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘quvchilar, shuningdek,

ularning otaonalari, o‘qituvchilari va direktorlari tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar orqali to‘planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarining qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko‘ra, o‘rtacha 500 dan 800 tagacha, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so‘zdan iborat bo‘ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o‘quvchiga unchalik tanish bo‘lmaydi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko‘ra, 50 ta mamlakat ichida Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo‘lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o‘quvchilar matnni o‘qish va tushunish bo‘yicha eng yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ushbu mezon bo‘yicha dunyoda yetakchilik qildi. Mazkur davlatlarda o‘qish savodxonligi bo‘yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog‘liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo‘lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o‘qish-yozishni o‘rganganligi hamda maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatkichining yuqoriligi. PIRLS tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyolar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli farmoni.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022.
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022.

4. A.B. Rakhmonovich, A.N. Bakhtiyorovna. The main motives and tasks of children's folklore. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)

TARBIYACHILARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi
ChDPU maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi
Sultonova Sarvinoz Muzaffar qizi
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotloti tarbiyachilarining faoliyatlar jarayonida pedagogik mahorati va uni takomillashtirish texnologiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, jarayon, mahorat, pedagogik texnologiya, takomillashtirish.

Yangi O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim tizimida va jarayonida qanday texnologiyalarni qo'llash samarali natijalarga erishishimiz uchun zamin yaratadi.Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladiga muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay,qisqa vaqt ichida yuksak va samarali natijalarga erishishdir.Qisqa vaqt mobaynida muayyan nazariy-ilmiy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish,ularda ma'lum faoliyat yuzasidan bilim,ko'nikma va malakalarni hosil qilish,shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish,ular tomonidan egallangan kompitensiyalarni baholash pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim muhitiga yangicha yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonini ilg'or va innovatsion tashkil etish,uni samarali boshqarish pedagoglarning oldida turgan eng asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarlarda quyidagi kompitensiyalar rivojlanadi:

- har tomonlama intelektual salohiyatli bugungi zamon talablariga raqobatbardosh bo'lishlarini taminlaydi;
- ta'lim va o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi
- bolalarda kreativ fikrlash va yangi g'oyalar shakllanadi
- innovatsion tajribalar va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi
- berilayotgan topshiriqlarga noodatiy yondashish usullarini o'ylab topishadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

— pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;

— o'qituvchi o'rtasida o'zaro jamoani qaror toptirishi;

— o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

— o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

— o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

— pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

A.S.Makarenko "Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg‘in va qat’iy talab bo‘lmasa jamoani tarbiyalashni boshlab bo‘lmaydi" degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yuliga boshlash uchun xizmat qilishi;

- talabning ijobiy bo‘lishi va bolaning hatti - harakatlariga to‘sqinlik qilmasligi;
- talabning aniq va tushunarli bo‘lishi;
- qo‘yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;
- talab ochiq chehra bilan, samimiy bir ohangda berilishi, iltimos, maslahat shaklida bo‘lib, bolani yaxshi niyatga chorlashi;
- talab bolalarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo‘lishi;
- talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo‘lmasligi va boshqalar.[35]

Xulosa o‘rnida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompitentligini shakillantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash avvalo kelgusida ham ta’lim va tarbiya beradigan dargohidan salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Yana shuni aytish mumkinki faoliyat jarayonini o‘zgacha yangicha usulda tashkil etish orqali vaqtni tejash va qisqa vaqt oralig‘ida ko‘proq ma’lumotlarni berish berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Shavkat Mirziyoyev Erkin va farovon,Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz’’.Toshkent - ,,O‘zbekiston’’-2016.

2. Xo‘jaev N.,Xoshimova M.,Hakimova M. va boshqalar. edagogika. (darslik) - T.: TDIU,2007.

3.Ismailova Z.K.Pedagogika.Darslik.T.:-Moliya,2008.

SINGAPUR MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI

Qambarova Dilfuza
“University of economics and pedagogy”NOTM
Pedagogika kafedrasi assistant-o‘qituvchisi
Fozilova Iltifot
“University of economics and pedagogy”NOTM
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Singapur maktabgacha talim tizimi va uning

[35] https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13254-o-qituvchi-mahoratini-takomillashtirish-yo-li-va-shart-sharoitlari

o‘ziga xosligi va Maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish jamoat tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga berilganligi, eng yirik maktabgacha ta’lim tizimining tarmog‘i xalq harakati Partiyasiga tegishli ekanligi, Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar eng kamida ikki tilda so‘zlashishga o‘rganishlari kabi ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Singapur, xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, aktyorlik mahorati

Singapurda maktabgacha ta’lim 3 yoshli bolalar uchun 3 yil davom etadi, ya’ni: kichik guruh, o‘rta va katta guruh. Bolalar bog‘chasi har xil binolarda joylashgan. Savdo markazlari binolarning bir nechta xonalarini yoki turar joy kompleksining alohida bir xonasini egallashi mumkin. Singapurda yer maydonining qimmatligi sababli, alohida o‘z maydoniga ega bo‘lgan bog‘chalar o‘yingoh maydonlari bilan ta’minlanmagan. Shuning uchun bog‘cha tarbiyalanuvchilari ko‘p vaqtini binoda o‘tkazishadi. Lekin saylgohlarda hamda turar joy komplekslarida bolalar o‘yingoh joylari mavjudligi sababli ota-onalar farzandlari bilan birga sayr qilishlari, ular bilan o‘z vaqtlarini toza havoda o‘tkazishlari har ikki taraf uchun foydali hisoblanadi. Singapurda davlat bolalar bog‘chalari mavjud emas. Maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish jamoat tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga berilgan. Eng yirik maktabgacha ta’lim tizimining tarmog‘i xalq harakati Partiyasiga tegishlidir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar eng kamida ikki tilda so‘zlashishga o‘rganadilar, ulardan biri – ingliz tili.

Singapurda ko‘pgina maktabgacha ta’lim muassasalari ingliz tilida ta’lim olib boriladi. Ayrim xalqaro bog‘chalarda istisno sifatida ta’lim mashg‘ulotlari nemis, fransuz tillarida, lekin ingliz tili ikkinchi til sifatida o‘rgatiladi. Rasm chizish, musiqa va qo‘shiq aytish, sanash, o‘qishni o‘rgatish maktabgacha ta’lim muassasasining namunaviy dasturida belgilangan. Aktyorlik mahorati hamda suzishni o‘rgatish bo‘yicha qo‘shimcha to‘lovlar amalga oshiriladi. Ta’lim mashg‘ulotlari o‘tilishi qanchalik bo‘lishidan qat’iy nazar barcha maktabgacha ta’lim muassasalaridan ta’lim sifati qoniqarlidir. Bolaning bog‘chadagi kun tartibi maktabgacha ta’lim muassasasi dasturiga binoan tashkil etiladi. Bola bog‘chada yarim kun yoki to‘liq kun davomida bo‘lishi mumkin. Yarim kun – bu ertalab yoki peshindan keyingi 4 yoki 4,5 soatlik mashg‘ulotlar va o‘yinlardan iborat bo‘lsa, to‘liq kunli vaqt 8-12 soatni tashkil etadi. Bu ertalabki soat 7:00 dan kechki 19:00 gacha davom etadi.

Singapurda maktabgacha ta'lim tizimi montesorri usulida faoliyat yuritadi. Modern Montessori International o‘z faoliyatini 1989 yil boshlagan. Bugungi kunda Modern Montessori International guruhiga dunyoning 14 mamlakati, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Gonkong, BAA, Malayziya va boshqa mamlakatlarda faoliyat yurituvchi 100 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalari kiradi.

Modern Montessori International maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda montesorri usulidan foydalanadi. Ushbu usul XX asrning I yarmida pedagog va shifokor Mariya Montesorri tomonidan ishlab chiqilgan. U bolaning mustaqilligi, ma'lum chegaralar doirasida erkinligi, uning tabiiy, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanish pritsiplariga asoslangan.

Singapurdagi eng nufuzli universitetlardan biri Nanyang texnologiya universiteti hisoblanadi. Singapurdagi barcha pedagog kadrlarni tayyorlab beradigan Nanyang universiteti tasarrufiga kiruvchi Milliy ta’lim universiteti va Erta rivojlanish milliy instituti faoliyatiga alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur universitet tomonidan neyropsixologiya, ta’lim berish mexanizmi va innovatsion texnologiyalar sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar kishida katta qiziqish uyg‘otadi. Erta rivojlanish milliy instituti rahbariyati tomonidan maktabgacha ta’lim tarbiyachilari, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarining boshlang‘ich tayyorgarligi va malakasini oshirish masalalari muhim masala sifatida muhokama qilinadi. Institut vakillari tomonidan maktabgacha ta’lim mutaxassislarini tayyorlash yo‘nalishlari va tamoyillari, Singapur maktabgacha ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud talablar va dasturlar muntazam tartibda ishlab chiqiladi. Mazkur institut pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘yicha bir qator davlatlar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzishga erishgan.

Singapurdagi Modern Montessori International ta’lim tashkiloti M.Montessori usuli bo‘yicha ishlaydigan sertifikatlangan tarbiyachi-mutaxassislarni tayyorlash markazi hisoblanadi. O‘zbekistonda ham Modern Montessori International ta’lim tashkiloti bilan hamkorlikda M.Montessori maktabgacha ta’lim muassasasini tashkil etish rejalashtirilgan. Singapur davlatida maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatiga katta ijobiy ta’sir etuvchi yana bir tashkilot Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi mavjud bo‘lib, mazkur vazirlik vaziri Desmond Li.

Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligining asosiy vazifasi mamlakat fuqarolarini qo‘llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash va jamiyatga g‘amho‘rlik ko‘rsatishdir. Mazkur vazirlik yosh bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni oilada tarbiyalash masalalariga alohida yondashadi. Shuningdek, muntazam ravishda fuqarolarga Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligining bolalarni erta rivojlanishidagi roli to‘g‘risida targibot tashviqot ishlarini amalga oshiradi. Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vaziri janob Desmond Li tomonidan vazirlik tajribasi quyidagicha ifodalanadi. Unga ko‘ra, rivojlantirish markazlarining sog‘liqni saqlash sohasidagi mutaxassislari, tarbiyachilari va psixologlari ota-onalarga farzandlarini tarbiyalash va ko‘maklashish maqsadida bolalarning oilalariga tashrif buyurishadi. Shu bilan birgalikda, muloqot chog‘ida idoralararo hamkorlik doirasida qurilish komplekslari uchun mas’ul tashkilot Milliy rivojlanish vazirligi bilan keng qamrovli hamkorlik yo‘lga qo‘yilganligi va har bir uy-joy qurilish jarayonida bolalar va maktabgacha ta’lim muassasalarining soni prognoz qilinadi.

Singapurning mashhur bolalar bog‘chasi hisoblangan “Mening birinchi maktabim” davlat bolalar bog‘chasida o‘quv faoliyati kishini lol qoldirmay qolmaydi. Ushbu bolalar bog‘chasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, asosan turli yoshdagi guruhlar va bolalar uchun tadbirlarni tashkil qilishda barcha imtiyozlar, didaktik materiallar bolalar bilan birgalikda tarbiyachilar tomonidan ishlab chiqarilishidir.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va Singapur maktabgacha talim muassasalarida tarbiya va o‘quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirishda o‘xshashliklar borligi qayd etildi. Xususan rivojlanish markazlari tomonidan amalga

oshirilgan:

- “Qurilish va dizayn”;
- “Til va nutq”;
- “Fan va tabiat”;
- “Sanat” kabi dasturlar O‘zbekistonda ham tatbiq etilgan.

Ma’lumki, Singapur Milliy universiteti dunyodagi yetakchi oliygohlardan biri sifatida tan olingan bo‘lib, u Osiyodagi eng yaxshi o‘quv muassasasi va eng kuchli tadqiqot markazi sifatida tanilgan. Shuningdek, Singapurda ko‘zga ko‘ringan tashkilotlardan biri Indorama Corporation kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniya tomonidan dunyoning turli mintaqalaridagi maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha ijtimoiy loyiha bo‘yicha hamkorlik shartnomalari tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://www.inca.org.uk/singapore-organisation-mainstream.html
2. http://dic.edu.ru/information/national_systems/1533/
3. http://english.people.com.cn/200505/13/eng20050513_184878.html

FACTORS OF ENSURING AND IMPROVING ORGANICITY AND CONTINUITY OF TECHNOLOGICAL SCIENCE

Roximova Nilufar Egamberganovna

Urganch State University

senior teacher of the department "Technological Education"

Annotation. The fact that the quality of training of teachers and pedagogues in the field of modern technology in existing higher education institutions does not meet today's requirements calls for a radical revision of the teaching of technology and updating it in accordance with the needs of the times.

Key words: education, continuous education, continuity, technology, program, workshop, methodological support, material and technical base, electronic textbook, distance education.

It is known that in the State Program for the implementation of the Strategy of Actions on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 in the "Year of supporting active entrepreneurship, innovative ideas and technologies" producing low about the “Education” in Uzbekistan Republic.

In our country, since the first years of independence, special attention has been paid to the fundamental reform of the education system, to ensure that our children acquire modern knowledge and skills at the level of world standards, grow up to be physically and mentally mature people, their abilities and Great work is being done to bring out the talent, intellectual potential, to raise the feelings of loyalty and dedication to the motherland in the hearts of the young generation. However, today's rapidly changing times, fierce competition in the world market and the growing demand for highly qualified personnel require the reform of this sector as well. In our country, which has entered the next stage of development, in the past two years,

important measures aimed at the fundamental reform of the education system are being implemented in accordance with the contents of the reforms implemented in all areas of our society.

Based on the suggestions of the general public and parents, 11-year compulsory school education was re-introduced in our country, based on the need for personnel, the secondary special and vocational education system is being reformed in a targeted and purposeful way. Admission quotas to higher education institutions have been increased, the system of nostrification of diplomas of prestigious higher education institutions abroad has been simplified, part-time education has been launched in a number of high-demand fields was installed, the system of state tests was improved.

At the same time, the system of post-higher education is being improved based on international standards, providing comprehensive support to scientists and creating wide conditions for their scientific and innovative activities.

In accordance with the decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 6, 2020 "On additional measures to further improve the education system", the inspection and the relevant ministries of education are instructed to provide preschool, general secondary, professional, tasks for ensuring the continuity of higher education curricula and subjects are defined. It is intended to ensure the coherence of preschool, general secondary, professional and higher education science programs and to introduce new curricula and plans into the educational process. Today, an appropriate road map has been developed to ensure the implementation of these tasks.

The lack of continuity of science programs in the continuous education system has a negative impact on the quality and efficiency of education. In particular, there are problems such as the repetition of interdisciplinary subjects, too many hours allocated to some subjects, the fact that the content of the subject is almost based on theoretical information, and international studies are not inculcated. In the analysis of the content of educational stages 10– The analysis showed that 15% of topics are repeated, and 50-60% of topics lack coherence.

In front of us are normative documents of the continuous education system, which serve to determine the content of education, analysis of the coherence of educational programs, work on preventing their repetition between stages in each subject, and science programs that ensure coherence based on it, there are urgent tasks such as coordinating the content of textbooks.

Enriching the spiritual world of students, realizing its integrity, non-repeatability and harmony in the perception of existence, developing their thinking by expressing their life vision in their practical activities, developing creativity, creating innovative ideas and teaching them to apply them to everyday life is carried out through the block module of applied sciences.

The fact that the quality of training of teachers and pedagogues in the field of modern technology in existing higher education institutions does not meet today's requirements calls for a radical revision of the teaching of technology and updating it

in accordance with the needs of the times. In addition, there are still problems that have not been solved for many years in the teaching of technology, that is, in conducting practical training.

The technical subject is to develop technical creativity, ability, and thinking in the students, to further strengthen career orientation by teaching natural, metallic and non-metallic materials processing methods on the basis of technology during the lesson, the basics of handicrafts, the basics of production and economics, electrical engineering work, the basics of electronics, creativity The project aims to develop the ability to apply the acquired knowledge, skills and qualifications in the field of technology, career guidance. By teaching the subject, special attention is paid to the development of students' technical creativity and creative skills.

To develop technological science, to create a system of teaching technological science at all stages of education, to develop the scientific methodical support of technological science, to strengthen the material and technical support of technological science, to provide modern equipment and technologies, to form an innovative infrastructure by introducing digital technologies and modern methods into the process of technological education, its interrelationship with general secondary education subjects and the organization of vocational guidance for students, professions taught within the subject and selected as promising for the economy of our country and serving as a base stage for the training of specialists, the content of the subject, its specific characteristics, qualification requirements and formed it is necessary to develop an evaluation system based on competencies.

It is necessary to strengthen the material and technical base of technology science. For this purpose, taking into account international experiences, building new types of modern training production workshops (laboratories) and converting pre-built training production workshops into modern workshops (laboratories) adaptation to the model, equipping with modern furniture, equipment, tools and equipment, educational materials, computer, interactive whiteboard, tablet and multimedia equipment, internet, video surveillance systems, updating them in time, for practical training in workshops (laboratory) it is necessary to provide necessary raw materials at the expense of the state budget, sponsoring organizations and extra-budgetary funds of the educational institution.

To create a system of posting information about educational-methodical complexes (textbook, exercise book, teacher's manual, multimedia application of textbooks) with the help of QR-code in order to download and copy electronic books on the subject of technology to mobile devices, to create distance education programs based on modern information and communication technologies. technology science for the electronic library system, which allows for organization, online monitoring and mastering of theoretical and practical training, as well as the use of platforms (Edu Market interactive-virtual educational program) and the use of "cloud technologies" in educational processes, which allows for remote access system of posting information about electronic resources using a QR code in order to place

educational-methodical complexes, electronic educational resources developed on would be appropriate to create.

If the above-mentioned requirements are fully implemented, students will be able to apply the knowledge, skills and qualifications acquired during the technological process in independent practical activities, be able to choose a profession, enter into social relations based on national and universal values, and have competencies that will be necessary in the labor market. they are formed as well-formed, technologically literate, critical, creative and systematic thinkers, who can make independent decisions, who can demonstrate their intellectual abilities, and who are spiritually mature. Technological science is the driving force of the integration of education, science and production, the backbone of Uzbekistan's economy. Globalization in the field of economy, social and cultural changes, improving quality indicators in personnel training, increasing the status and prestige of technology science, creating an atmosphere of creativity among students, identifying talented students, and forming a system for organizing the selection of intellectually mature students and young people on the national scale can be implemented.

Reference

1. Ilyos Saxatov. “Adolat” muxbiri“ Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun: yangi tahrirdagi loyiha ishlab chiqildi. Adolat gazetasi №17 2018 y.
2. “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari 2020 y.
3. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Texnologiya. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Respuplika ta’lim markazi. 2020
4. Roximova N.E.Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida Texnologiya darslarining mavjud holati va muammolari. Zamonaviy fan va ta’lim (ilmiy-metodik to‘plam).Toshkent.2023 y №1. B.110-115.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA LIDERLIK SIFATLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

N. Sh. Mullaboyeva

NamTSI dotsenti (PhD), Ijtimoiy fanlar kafedrasii mudiri

Mahsudaliyev Sherzod

Kokand Universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda kuzatiladigan psixologik va fizologik o‘zgarishlar, uning liderlik xususiyatlarini rivojlantirishidagi ta‘siri, nazariy asoslari hamda ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, yoshlar o’rtasidagi liderlik xususiyatlari mexanizmlarini takomillashtirish, unga ko‘ra liderlik tipologiyasi, faoliyat doirasi yoki faoliyat mazmuni bo’yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: lider, liderlik qobiliyati, ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlar, pedagogik jarayonlar, kompyuter texnologiyalari, interfaol usullar, tashkilotchilik, boshqaruvchanlik.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrida dunyo hamjamiyati hayotida iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlarning keskinlashuvi mamlakatlarning ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy hayotida integratsiyalashuvni ta'minlanishini taqozo etmoqda. Bu borada davlat va jamiyat barqarorligiga erishishning asosiy omili esa ta'limda chinakam lider bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Respublikamizda yoshlarni madaniyat, teatr, san'atga qiziqtirish, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanish, kitobxonlikni targ‘ib qilish, qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish maqsadida beshta muhim tashabbus ishlab chiqilgan bo‘lib, u esa o‘z navbatida, o‘\sib kelayotgan yosh avlodda liderlik qobiliyatini shakllanishida turtki bo‘ladi. Bu esa pedagogik jarayonlarda o‘smirlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari, asosiy jihatlari va funksiyalarini aniqlashtirishning muhim ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbeкiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbeкistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘grisida"gi PF-60-son Farmoni, Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish[36], 2017-yil 7-fevraldagi "O‘zbeкiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisida"gi PF-4947-son Farmoni, O‘zbeкiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisida"gi[37] PQ-2909-son Qarorilarning qabul qilinishi, mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomi, uni yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtgacha jahon miqyosida yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, sotsiologik va psixologik yo‘nalishlari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Rossiyalik tadqiqotchi A.V.Zorina tomonidan "liderlik" - shaxsning jamoada muvaffaqiyatli faoliyatni yo'lga qo'ya olishi, ijobiy muhit yaratishi, umumiy maqsadlarga erishishiga hissa qo'shishi bilan bog'liq jarayon sifatida tushuntirilgan. Liderlik kompetentsiyasi – bu kishilarni, jamoa a'zolarining xayrixohligi asosida ish faoliyatini foydali hamkorlik uchun

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2022 yil 28 yavardagi "2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni. Lex.Uz . O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev. 20.04.2017 yildagi Qarori bilan "2017-2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish" dasturidan - "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroridan.

tashkil etish qobiliyati, muayyan rahbarning nizolarni samarali hal etish va unga erishish jarayoni sifatida izohlanadi. Jumladan, amerikalik olimlar U.Bennis va B.Nanuslarning uzoq yillik ilmiy tahlillari natijasiga ko'ra, liderlikning 850 dan ortiq ta'rifi hamda ushbu mavzu doirasida minglab empirik izlanishlar olib borilgani ta'kidlab o'tilgan. Nyu-Yorkning Bingemton davlat universiteti professori, B.M.Bassning qayd etishicha, lider va liderlik xususida o'tgan asrning o'zida 11000 dan ortiq kitob va maqolalar chop ettirilgan.

Jamoadagi har qanday lider muloqotmand bo‘lishi zarur hisoblanadi. Ma‘lumki, muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. O‘zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Psixologiya lug‘atida muloqot tushunchasiga ta’rif beriladi: Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni. Chunki turli axborot almashuv jarayoni, qaror qabul qilish va jamoaga o‘z ta‘sirini o‘tkazishda bu muhim rol o‘ynaydi. Yaponiyalik olimlarning kuzatishicha, maktab va universitetda yuqori baholarda o‘qigan talabalar keyinchalik xizmat davomida unchalik yuqori lavozimlarga erisha olmaydilar. Tadqiqotchi T.Kono fikricha, bunga sabab, a’lochi talabalarning Yaponiya kompaniyalariga xos bo‘lgan guruh tabiatini o‘zlashtira olmasligidir. Aynan tashkilotchilik xislati ko‘pchilik menejerlarning lavozimda o‘sishi uchun asosiy omil bo‘lgan. Intellektning muvaffaqiyatli boshqaruvga ta‘sir etishida ko‘pgina omillar mavjud. Ulardan eng asosiylari - boshqaruvga bo‘lgan ishtiyoqning mavjudligi, rahbarlik sohasidagi boy tajriba, yuqori bo‘g‘in rahbar va xodimlar o‘rtasidagi ijobiy munosobat hisoblanadi. Demak Yaponiyada yuqori lavozimlarni asosan liderlik qobiliyati shakllangan va tashkilotchilik xislati bor insonlar egallagan. Bunga asosiy omil esa ko‘rib turganingizdek, ishtiyoq, tajriba va rahbar va xodimlar o‘rtasiga ijobiy munosabatlar hisoblanadi. Zamonaviy psixologiya fani, o‘z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiati va unga erishish yo‘l-yo‘riqlari haqida yetarlicha ma’lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo‘lgan jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin:

1) jamoa manfaatlariga yo‘nalganlik;

2) kasbiy mohirlik, har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o‘z bo‘yniga olish va ishni oxirigacha hal etishda tashabbuskor bo‘lish;

3) emotsional, hissiy jalb etuvchanlik xislatlari.

Yuqorida sanab o‘tilgan xislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o‘z mantig‘iga ega.

Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, hissiy jalb etuvchanlik odatda lider shaxsda juda yorqin ko‘zga tashlanishi shart emas ekan. Shaxsda bu ko‘rsatkichning o‘rta me‘yorda mavjudligi, uni liderlik darajasida tan olinishi uchun yetarlidir. Lekin insonga xos hissiy jozibadorlik ko‘rsatkichi pastligi ish yuzasidan o‘tadigan muloqot va muzokaralarga salbiy ta’sir etishi mumkin. Shaxsning liderlik imkoniyatini namoyon ettiruvchi yana bir asosiy tomon – jamoaning talab va istagiga mos kela olishidir. Turli mehnat jamoalari o‘z mas’uliyat darajasidan kelib chiqqan holda

turlicha istaklarni namoyon etadi va hatto, ba’zida jamiyat manfaatiga to‘la mos kelmaslik hollari ham kuzatiladi. Bunday jamoalarda esa, tabiiyki destruktiv, ya’ni buzg‘unchi xulqqa mos keluvchi liderlar ajralib chiqadi va ular guruhning yashirin motivlarini namoyon etuvchi o‘ziga xos kuchga aylanadi. Mazkur nuqtai nazar guruhdagi liderlikning xilma-xilligini tasdiqlaydi. Ushbu tushunchadan kelib chiqib, haqiqiy tashkilotchi, guruhning u yoki bu faoliyatining rahbari doimo lider deb hisoblanadi. SHunga ko‘ra, guruhdagi har bir muloqot vaziyati o‘zining vaziyatli liderini tayinlashi mumkin va yakuniy natijada guruh a’zolari qancha bo‘lsa, shuncha lider bo‘lishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, guruhda ko‘p rejali guruh faoliyatini yakka tartibda ta’minlaydigan universal yoki mutlaq liderning paydo bo‘lishi ehtimoli ham e’tirof etiladi. Qabul qilingan liderlik tipologiyasi, birinchi navbatda, faoliyat doirasi (universal yoki vaziyatli lider) yoki faoliyat mazmuni (lider-g‘oyalar generatori, lider-ijrochi va hok.) haqida gap borayotgani-bomayotgani haqidagi pozitsiyasini hisobga oladi. Liderning samaradorligi guruhdagi vaziyatni o‘z ichiga olgan va rahbarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini beradigan erkinlik darajalari bilan belgilanadi. Liderlikning bunday talqini laboratoriya tajribalarida yaqqol kuzatilgan tabaqalanishning tabiiy sharoitlarda ham xuddi shunday darajada sodir bo‘ladimi, degan shubha tug‘diradi, chunki faoliyat motivatsiyasi omilining o‘zi laboratoriyadagiga qaraganda ancha kuchli bo‘ladi. SHu sababli, muammoni hal qilishda guruhning eng samarali a’zosiga nisbatan adovatning namoyon bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. SHuning uchun, tabiiy vaziyatlarda, laboratoriya muhiti bilan taqqoslaganda, liderlik rollarni tabaqalash istagi ancha zaifroq bo‘lishini kutishimiz mumkin.

Umuman olganda, liderlar maqsadga intilishi, o‘ziga ishonchi, muayyan vazifani hal qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorligi, shuningdek, kompetentligi bilan ajralib turadi. Ko‘rib chiqilayotgan kontseptual sxema xislatlar nazariyasini to‘liq rad etmaydi, lekin lider asosan vaziyatning mahsuli ekanligini ta’kidlaydi. Vaziyat nazariyasi liderlikni shaxs yoki guruhning funktsiyasi deb hisoblamaydi, shaxsning individual fazilatlarining muhim rolini inkor etmaydi, lekin shu bilan ularni mutlaqlashtirmaydi, balki uni turli vaziyatlarga kirishda turli omillarning murakkab va ko‘p qirrali ta’sirning natijasi deb biladi (ya’ni, liderlik mohiyatini tushuntirishda ustunlikni vaziyatga beradi). Biroq, vaziyat nazariyasi uchun liderlikni shakllantirishda vaziyatning yetakchi roli haqidagi qarashlari to‘liq tasdiqlanmagan. Bizning fikrimizcha, mazkur kontseptsiya liderning faolligini, uning vaziyatni to‘g‘ri va o‘z vaqtida baholash va o‘zgartirish, o‘tkir muammolarga yechim topish qobiliyatini yetarli darajada aks ettirmaydi.

Liderlikning vaziyat nazariyasining ba’zi zamonaviy tarafdorlari bir qator qo‘shimchalar yordamida uni hayot haqiqatiga moslashtirishga harakat qilmoqdalar. Shunday, vaziyat nazariyasini quyidagi qoidalar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

a) shaxsning bir vaziyatda liderlik maqomini olishi uning boshqa vaziyatda liderlik imkoniyatlarini istisno etmaydi, balki oshiradi;

b) muayyan vaziyatda lider bo‘lgan shaxs avtoritetga ega bo‘lib, u shaxsning rahbarlik lavozimiga tayinlanishiga yoki saylanishiga yordam beradi va shu bilan liderligini ta’minlaydi;
v) idrok etish stereotipligi tufayli ma’lum bir vaziyatda lider bo‘lib qolgan shaxs, umuman olganda, guruh tomonidan lider sifatida qabul qilinadi;
g) liderlikka intiladigan, tegishli motivatsiyaga ega bo‘lgan shaxslar ko‘pincha liderlarga aylanadi.
Xartli tomonidan liderlikning vaziyat nazariyasiga kiritilgan qo‘shimchalar sezilarli darajada empirik tarzda tasdiqlanadi va odatda ushbu hodisaning mohiyatini ochishga yordam beradi.
XX asr 60-yillarning boshlarida F.Fidler va uning hamkasblari liderlikning har xil turlari har xil sharoitlarda samarali bo‘ladi degan xulosaga kelishdi. Masalan, ayrim vaziyatlarda odamlarga yo‘naltirilgan lider guruh faoliyati samaradorligini oshirishga, uning ma’naviy muhitini yaxshilashga, a’zolarning umumiy madaniyatini oshirishga yordam bergan. Biroq, boshqa guruhlarda samaradorlikning o‘sishiga faqat avtoritar, vazifani bajarishga yo‘naltirilgan faoliyatli lider erishgan. Ularning tadqiqotlari davomida ma’lum bo‘ldiki, faqat lider shaxsiy hislatlariga qarab guruh dinamikasidagi o‘zgarishlarni oldindan aytib bo‘lmaydi, ammo bir qator tashkiliy o‘zgaruvchilar ma’lum bo‘lsa, buni amalga oshirish mumkin.
Biroq, F. Fidlerning liderlikning operatsion modelini yaratishga urinishi zarur deb tan olinishi kerak, unda umuman olganda, liderlikni turli xil muammoli vaziyatlar (tasks) funktsiyasi sifatida talqin qilishning ancha soddalashtirilgan tendentsiyalari belgilangan. Muallif tomonidan taklif qilingan “samarali liderning ehtimollik modeli (the contingency of leadership effectiveness) shuni nazarda tutadiki, guruh samaradorligi lider uslubi u harakat qilayotgan vaziyatga qanchalik bog‘liqligiga qarab ehtimolli xarakterga ega bo‘ladi. Liderning samaradorligi guruhdagi vaziyatni o‘z ichiga olgan va rahbarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini beradigan erkinlik darajalari bilan belgilanadi.
F.Fidler fikriga ko‘ra, liderlik uslubining samaradorligi uning muayyan vaziyatga muvofiqligi bilan belgilanib, mazkur vaziyatda quyidagi o‘zgaruvchilar asosiy bo‘ladi:
A) lider va unga bo‘ysunuvchilarning munosabatlari (ishonch va hurmat darajasi guruhning o‘z liderini qanchalik sodiq va do‘stona qabul qilishiga ta’sir qiladi);
B) vazifaning strukturaviyligi (uning rasmiylashtirilganlik darajasi) to‘rtta xususiyat bilan belgilanadi: yechimning to‘g‘riligi; guruh tomonidan talablarni tushunishning aniqligi; harakat cheklovlari; muqobil variantlarning mavjudligi;
B) rahbarning vakolatlari doirasi.
Olim tomonidan aniqlangan o‘zgaruvchilar (masalan, liderlik uslubi, uni amalga oshirish vaziyati) liderning guruhdagi holatini ishonchli tavsiflaydi, ammo bizning fikrimizcha, bu o‘rganilayotgan hodisani adekvat tushunish uchun yetarli

emas. Olim tomonidan taklif etilgan modelda guruhning rivojlanish darajasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan yana bir muhim o‘zgaruvchi yo‘q (A.V. Petrovskiy ta’riflaganidek, “shaxslararo munosabatlarning faoliyatili vositachiligi”). Liderlikning doimo bir xil uslubi va bir xil vaziyat liderning xulq-atvori guruhning rivojlanish darajasi bilan qanday belgilanishiga qarab, liderlikning samaradorligiga (yoki samarasizligiga) olib keladi.

Bizningcha, F. Fidler tomonidan «rahbarlikning situatsion nazariyasi»ga kiritilgan tuzatishlar uning mohiyatini o‘zgartirmaydi, shuning uchun ham uning umumiy bahosini o‘zgartira olmaydi. Liderlik tipologiyasi modelining o‘zi, bizning fikrimizcha, ta’rif bilan bog‘liq uchta turli asoslarni ishlab chiqish sharti bilan tuzilishi mumkin:

• rahbar faoliyatining mazmuni (harakat dasturini taklif qiladi, uni amalga oshirishni rejalashtiradi va tashkil qiladi va hok.);

• liderning rahbarlik uslubi (avtoritar, avtoritar-demokratik yoki demokratik);

• mazkur faoliyatning tabiati (universal, ya’ni liderning o‘z hislatlarini doimiy ravishda namoyon qilishi; yoki vaziyatli – faqat ma’lum sharoitlarda).

Xulosa. Xulosa qilib aytganimizda, lider shaxsiga turli ta’riflar berib o‘tilgan. Masalan, lider bu- jamoani boshqarishga intilgan, qobiliyati bo‘lgan va shaxslarga ta’sir ko‘rsata oladigan o‘z fikri va qarashlariga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni tushunish mumkin. Bugungi kunda yoshlarda liderlik xususiyatlarini rivojlantirish uchun bugunda kunda mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Buni O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risda”gi qonuni, “Ta’lim to‘g‘risda”gi qonunlarda o‘z aksini topganligida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish yoshlarda liderlik xususiyatlarini namoyon bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘smirlarda liderlik xususiyatlari shakllanishi va rivojlanishi keyingi avlodning barkamol va o‘z fikriga ega shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday jamiyat, tashkilot, muassasa korxona bo‘lsin,uni boshqara oladigan va xodimlari bilan qanday munosabatga kirisha olishni biladigan inson albatta faoliyat ko‘rsatadi. Ammo, ba’zi liderlar borki, ular norasmiy lider hisoblanadi.Ya’ni o‘zini namoyon qilishdan qo‘rqadigan yoki buni istamaydigan bo‘ladi.Ularni yashirin liderlar deb ham atash mumkin. Liderlik xususiyatlaridan bir qatorlarini sanab o‘tishimiz mumkin. Qa’tiylik, o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik, faollik, mas’uliyatlilik, qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator xususiyatlar jam bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, liderlik xususiyatlari boshqaruv uslublari hisoblangan avtoritar, demokratik va liberal uslublarda yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqdik

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati

1.Madvaliyev A. (2003). O‘zbek tilining izohli lug‘ati (The Explanatory dictionary of the Uzbek language). Tashkent: O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi.
2. Mo‘minov N.A. Rahbarlik qobiliyati va boshqaruv malakalari. T. 2001
3. Zaynuddinov SH.N., Murakaev I.U. Menejemnt asoslari. Toshkent Moliya 2007

4. Isakova N. “Boshqaruv psixologiyasida liderlik masalasining zamonaviy muammolari” BMI,. Toshkent -2014
5. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabat psixologiyasi T. 1997 y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH VA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIKASI

Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich
ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.
Mirzabekova Go‘zal To‘ychiboyevna
ChDPU 2-kurs magistri
Murodova Ruxshona Muzaffar qizi
ChDPU Jismoniy madaniyat HQS 23/1guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va rivojlantirish pedagogikasi yuzasidan ko‘rsatma va takliflar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Pedagogika, inklyuziv ta’lim, o‘quvchi, rivojlanish, natija, kognitiv,nutq.

Ilk bolalik chog‘iga taalluqli bo‘lgan nutq o‘sishi va rivojlanishi bosqichlari turli sohalar olimlarini, jumladan pedagog-psixologlar, lingvistlarni, eng avvalo, bu nutq rivojlanishidagi o‘ziga xos davr bo‘lganligi uchun ham qiziqtiradi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, u nutqni o‘stirish va rivojlantirish uchun senzitiv hisoblanadi, bu davrda nutq muloqot vositasi sifatida paydo bo‘ladi va takomillashadi, u shunchalik jadal sur’atlarda rivojlanadiki, nutqning keyingi butun ontogenezi jarayonida ushbu holat boshqa kuzatilmaydi. K.D.Ushinskiyning ta’kidlashicha, «bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o‘rganib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o‘qigan taqdirda ham uning yarmini o‘zlashtira olmaydi».

Ilk yoshdagi bolalar nutqini o‘rganishga E.I.Tixeeva, M.M.Kolsova, N.M.Askarina, G.M.Lyamina, M.I.Lisina va boshqa ko‘plab taniqli olimlar, pedagoglar va metodistlar sezilarli hissa qo‘shishgan.

Ilk yoshda nutqni o‘stirish va rivojlantirish ikki yo‘nalish bo‘yicha ro‘y beradi:

1 – nutqni tushunishni takomillashtirish;

2 – bola nutqining faolligini shakllantirish.

Bolalar nutqini psixologiya-pedagogika nuqtai nazaridan tadqiq etishni F.A.Soxin va O.S.Ushakovalar tasnifiga ko‘ra, uchta yo‘nalishga ajratish mumkin:

- tarkibiy – til tizimining turli tarkibiy darajalari, fonetik, leksik, grammatik darajalarini shakllantirish;

- funksional – kommunikativ funksiyada tilni egallash ko‘nikmalarini shakllantirish;

- kognitiv – til va nutq hodisalarini eng oddiy usulda anglashni shakllantirish.

Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug‘atni o‘zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko‘rsatilgan:

atrofdagi olam lug‘atini (so‘z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish;
lug‘atni til birligi sifatida o‘zlashtirish.

Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig‘ida ham, til mantig‘i borasida ham so‘z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan. Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish ona tilining so‘z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o‘rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e’tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Logopediyaning bolalar nutqidagi kamchiliklarning oldini olish bilan bog‘liq masalalar doirasini ishlab chiquvchi profilaktik yo‘nalishi keng tarqalgan. Bolalar nutqini rivojlantirishga oid yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning tilni tizim sifatida, ya’ni tovush tomoni, lug‘at tarkibi va grammatik tuzilishni birgalikda o‘zlashtirishlarini o‘rganish sohasiga taalluqlidir.

Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta’minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o‘z ichiga oladi. U mazmunliligi, mantiqliligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o‘zlashtirganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estetik, emotsional jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari E.I.Tixeeva, E.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penevskaya va boshqalar bolalar og‘zaki nutq va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo‘lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

Monologik nutqni o‘stirish va rivojlantirish nazariyasi va metodikasining yanada rivojlanishi bolalar ravon nutq turlari va fikr bildirishning turli xillarini o‘zlashtirish xususiyatlarining chuqur tadqiq etilishi bilan tavsiflanadi. Izohlovchi nutqlar, mulohaza shaklidagi jumlalarning xususiyatlari o‘rganiladi va uning negizida bolalarga monologlarning turli xillarini o‘rgatish metodikasi yaratiladi.

Ravonlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida so‘zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o‘rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to‘g‘ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan.

Shunday qilib, inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni

bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala, ushbu holat shiddat bilan, sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanova, K.I. O'qituvchilarning tayyorgarligi ta'limdagi inklyuziv jarayon muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida [Elektron resurs]/ K.I. Ivanova // INFOYROK.

2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.

3. Ponikarova, V.N. Inklyuziv ta'limga o'tish davrida o'qituvchilarning professional hamkorlikdagi xatti-harakatlarini o'rganish / V.N. Ponicarova // Cherepovets davlat universitetining xabarnomasi. - 2011. - No 4 (35). - T. 1. - B. 179-182.

4. Penin, G. N. Inklyuziv ta'lim davlat siyosatining yangi paradigmasi sifatida / G.N. Penin // Inklyuziv ta'lim. – 2010. – No 9. – B. 41-47.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM SHAKLINI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

dotsenti, p,f,f,d(PhD) Teshabayeva Zamira Sobirovna

CHDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti

Chorshanbiyeva Sevinch Odil qizi

CHDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim tizimida keng tarqalgan multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari haqida bayon etiladi. Shunungdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiyaviy jarayonini tashkil etishda pedagoglardan innovatsion ta'limning shakli sifatida multimedia vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmarini shakilantirishga doir ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshidagi bolalar, intellektual salohiyat, mantiqiy fikrlash, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez, baholash, tizimli savollar, amaliy topshiriqlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu borada davlatimiz prezidenti Sh. Mirziyoevning 2016 yil 29 dekabr, "2017 - 2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son hamda 2017 yil 9 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son, kabi bir qaror va farmonlarida qator vazifalar belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning 53-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash vazifalari belgilangan bo‘lib, jumladan, ta’lim tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish ko‘zda tutilgan. [2;]

So‘ngi yillarda bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk shaxs etib voyaga yetkazish muhim masalalardan biridir ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli bilim olishlarida multimedia vositalaridan foydalanishning dolzarbligini alohida tafsiflash lozim.

Amaliyotchi-pedagoglarning ta’kidlashlaricha, ta‘lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish zamonaviy vizual va axborotga boy dunyoda bola rivojlanishining universal, ko‘p qirrali usuli hisoblanadi.

Bu ta’lim-tarbiyaning bir necha turlarining uyg‘unligiga asoslangan murakkab yaxlit jarayondir. Multimedia vositalaridan foydalanish jarayonida bolalar ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish bilan birga faoliyatning texnik tomoni bilan ham tanishadilar. Multimedia ta'limi bolaning ijodiy fikrlash va atrofimizdagi dunyoga o‘ziga xos tasavvurni taqdim etish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Ta'lim sohasida yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Hozirda ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ta'lim jarayonining muhim negizi bo'lib, yoshlarning yangi axborotlarga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda”. [3;].

Bolalarda intellektual salohiyatni shakllantirishning boshlang'ich davri aynan maktabgacha yosh davridan boshlanadi, shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta'limda multimedia ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yangi ta'lim muhiti shakllantirilmoqda, maktabgacha yoshdagi bolalarga sifatli ta’lim berish va rivojlantirish uchun yuqori texnologiyali axborot vositalari videomagnitafon, televizor, videokamera, multimediali kompyuter, proyektor, ekranlar, sensorli interaktiv doskalar va boshqalardan samarali foydalanilmoqda.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi sanoq sonni an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita)Mutimedia vositasida ko'rsatilganda sanoq son kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi, ya'ni rang barangliligi va

qòshimcha rasmlarga egaligi bilan ahamiyatga ega (dinamik vosita). [3;]. Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotkarida tayyorlov guruhida multimediali mashg'ulotlarni olib borish maktabga tayyorlash jarayonida tasavvurlarini boyitadi, ularning talim faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini shakilantiradi natijada ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun zamin tayyorlaydi, shu bilan birga bolalarning inovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi multimedia ta'limini tashkil qilish orqali shakilantirib boriladi.

Shunungdek, multimedia ta'limidan zamonaviy, inovatsion ta'limning bir shakli sifatida mashg'ulotlar jarayonida to'g'ri foydalanish maktabgacha ta'limda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ham innovatsion texnologyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakilantirishga xizmat qiladi.

Multimedia texnologiyalari kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini birlashtiradi, ular bolani idroki shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun muhitni ta'minlaydi.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

Multimedia vositalaridan samarali foydalanish ta‘limning zamonaviy integratsiyalashgan shakli sifatida quyidagilarga imkon beradi:

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi masalalarini hal qilish;

bilimlar chegaralarini kengaytirish;

bolalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish;

estetik baholash imkoniyatlarini shakllantirish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda hamda markazlar faoliyatidagi integratsiyalashuv tamoyilini amalga oshirishda, multimedia vositalaridan samarali foydalanish ko‘zlangan natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami-Toshkent 09.09.2017 y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonunning 53-moddasi. Mediasavodxonlik va u nima uchun kerak? – hurriyat (uzhurriyat.uz)

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INNOVATSION METODLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

To‘rayeva Gulnoraxon
Andijon viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda dars jarayonini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish va ularning ayrimlarini qo‘llash borasidagi ba’zi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion, metod, “Kamalak jilosi”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha”.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash murakkab jarayon sanaladi. Dastlab o‘quvchilarning xat savodi chiqarilsa, keyin mos ravishda turli fanlar o‘rgatila boshlanadi. Bularning hammasi osonlik bilan kechmay, o‘qituvchidan katta ma’suliyat, iqtidor va bilim ta’lab etadi. Qolaversa, o‘quvchilarni har bir darsga qiziqtira olish ham muhimdir.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o‘quvchilarga saboq berishda turli innovatsion metodlarni bilishi va ularni o‘z o‘rnida tadbiq etishi muhim hodisa sanaladi. O‘z o‘rnida qo‘llanmagan metodlar kutilgan natija bermay, o‘quvchilarning darsni o‘zlashtirishlariga aks ta’sir etishi ham mumkin. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan yuzlab metodlar mavjud. Ulardan tashqari o‘qituvchining ijodkorligiga qarab yangicha metodlar ham yaratish mumkin. Quyida anashunday o‘qituvchilar orasida keng ommalshgan innovatsion metodlarning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni ijodiy boyitishga harakat qilamiz.

Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishiab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘lash muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ma’lumki, bugungi kunda dars jarayonida **“Aqliy hujum”, “Krassvord”, “Sinkveyn”, “Muzyorar”, “Keys stady”, “Insert”, “Venn diagrammasi” va “BBB”** texnologiyalaridan o‘quv jarayonini tashkil qilishda foydalanib kelinmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonini samarali tashkil etish va sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz.

Jumladan,“Kamalak jilosi” metodini boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o‘qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda qo‘g‘irchoq, mashina, kuldi, yig‘ladi, sariq, katta, kichik, to‘qqiz kabi so‘zlarni turkumlarga ajratish va ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni ko‘k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu

metodni qo‘llash mumkin. Ya’ni, kamalakning birinchi rangini bir xonali son deb oladigan bo‘lsak, ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bo‘la oladi. “Kamalak jilosi” metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o‘quvchi ranglar orqali so‘zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi;
- o‘quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ladi, ularda atrofmuhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko‘nikmalari shakllanadi;
- o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jamlash, fikrlash, zehnlilik va topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Jumladan, «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi: O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega.

Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim). Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarn aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. 1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi. O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi. Uy hayvonlari: sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it. So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi

va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi. Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do‘sti. O‘quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o‘quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg‘otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

Yuqorida respublikamizda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan innovatsion metodlari haqida qisqacha to‘xtaldik. Ushbu metodlarni har qaysi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z darslarida qo‘llashi va o‘zlari ham unga ijodiy yondashgan holda qo‘shimchalar kiritishi mumkin.

O‘ylaymizki, boshlang‘ich sinflarda innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘tiladigan darslar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga va o‘qituvchi uchun ham darsni yaxshi tashkil etishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxima Mavlvanova, Nargiz Raxmankulova. Boshlang'ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya. Toshkent. 2013.

2. N.M.Qo‘chqorova. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion metodlarning ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal October 2020 / Volume 1 Issue 7

3.https://kun.uz/uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari

THE ROLE OF TEXTS IN THE PREPARATION OF ASSIGNMENTS IN THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM OF PISA.

Turanazarova Nilufar Rahmonqul qizi

Jizzakh State Pedagogical University, teacher

Annotation: This article aims to improve the assignments used in conducting PISA international assessment program research and provide effective support to the institutions and students involved in the program as well as the work on assignment texts.

Keyword: PISA international assessment, reading literacy, assignments, text, reader.

The fact that in recent years, as a result of the reforms carried out in our country, the indicators of tremendous economic growth are achieved further increases the demand for qualified personnel and mature specialists in all areas. It is in itself that the education of students increases all-round attention. In a time when our country is rapidly developing on the path of innovative development, it is necessary to comprehensively support the creative ideas and creativity of the future young people, to form their knowledge, skills and qualifications, to improve the assessment system based on advanced foreign experiences, international criteria and requirements, to study international experiences along the way, to conduct a comprehensive comparative analysis of, it is important to work closely with research institutions.

To this end, by the decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “on measures to organize international research in the field of assessment of the quality of education in the public education system” dated December 8, 2018, No. 997, the National Center for the implementation of international research on the assessment of the quality of Education under the state inspection At the same time, the tasks of participation in international research on the assessment of the quality of education were established:

PIRLS-assessment of the level of reading and understanding of the text of Elementary 4th graders;

TIMSS-assessment of literacy of 4th and 8th grade students in natural-scientific subjects;

TALIS-study of the environment of training and education and the working conditions of teachers in general secondary educational institutions of the leader and pedagogical personnel;

PISA is an assessment of the literacy rate of 15-year-old students in reading, mathematics and Natural Sciences.

EGRA and EGMA, on the other hand, give grades in elementary school reading and math skills. According to the results of the assessment, new training programs, teaching methods and approaches will be adapted for the good performance of the youth of Uzbekistan. Of particular importance in this place are the texts to be obtained for assignments in international assessment programs.

Large volumes of texts are organized from the beginning of several lines and separated into larger parts, such as sections, chapters and books. Small-scale texts, on the other hand, can be tabular in form, composed of several tables. These two texts are classified into types such as static or active. Mixed and complex format texts, on the other hand, are static in most cases in the form of active text. Static-looking texts depict images and graphs, which are an integral part of them. In active texts, videos, animations and audio files can be found, which is an integral part of them. The use of video and animation in current evaluation programs is limited to some extent, due to the fact that they require additional conditions, while audio materials are not used at all.

Currently, large-scale texts are widely used on the program scale. Examples of large-scale texts include newspaper news, essays, works, short stories, and letters. In large-scale texts, the structure of the text content is indicated using the title and content so that it is understandable to readers. The text also displays introductory words that represent sequence (order) (“first”, “second”, “third”, and so on), “therefore,” cause-and-effect relations between pieces of text such as “hence”, and a number of similar cues (e.g., from the sentence-end punctuation clause).

PISA studies suggest that the complexity of assignments in reading literacy is not an obstacle to student learning, but a necessary resource for them to generate competencies and skills in problem solving.

In recent years, there has been debate over whether assessment of students ' reading-comprehension skills based on memory, answering text-based questions after

their introduction to the text, is more effective than tests conducted in direct research. It is clear that working with the text you met a long time ago and responding will create difficulties for students, this aspect of Reading Literacy in the program was also taken into account. It was also found that if the reader was given a text assignment and the text was withdrawn after a short period of time, the reader's reading and comprehension skill would be confused with the memory retention skill. In fact, the read-and-understand skill is closely related to the memory retention skill, and the two cannot be learned separately from one another. With this in mind, the changes currently made regarding the PISA reading literacy assessment procedure have not justified themselves. In order to study this issue, it is envisaged that the time spent on reading the text given in the subsequent abstracts of PISA studies, the time allotted for repeating the text when answering questions and the total time set for completing the task will be taken into account.Based on the purpose and internal structure of the text, its type is determined.

Main text types:

- illustrative texts;
- narrative texts;
- expressive texts;
- proof.

Descriptive texts contain information about the nature of objects in space. What are such texts usually? there will be an answer to the interrogation. There are different forms of descriptive texts. Impressionistic descriptive texts are composed of subjective representations of directions, qualities, and relationships in space, while technical descriptive texts include spatial objective observations. Technical descriptive texts use formats such as diagrams and images.

Narrative texts refer to the characteristics of Jims despite the fact that the information is at no time. When are narrative texts usually?, in what sequence? and why? questions will be explained on the basis, they will also have different forms. Narrative texts define actions and events as being approached from a subjective side. Story-based material invites readers to independently reflect on what is happening or is happening. Narrative texts include works, short stories, plays, biographers, comic books, and events.

Expressive texts provide information on which complex or mental concepts can be analyzed. In this text, it is illuminated how elements enter into a relationship with each other and form a whole or cohesion in content, and how? responds to interrogation. Expressive texts have their own forms, in which mental concepts and experiences require interpretation from a subjective point of view. In expressive text, it is said how a concept is related to a word or term. To do this, the structure of the concept is understood in separate parts, and the relations in parts are obtained as a whole or integrity, which is analyzed separately. Examples of the type of expressive text include scientific articles, some diagrams, graphs, maps and entries.

The characteristic texts that prove indicate a connection between concepts or hypotheses. What are the characteristic texts that prove for? there will be an answer

to the interrogation. Characteristic types of proof include the feedback the speaker expresses and the texts that motivate him to show his worldview and think. To the footnotes of the provable characteristic text are attached such concepts as phenomena, bodies and concepts that make up a separate system of feedback, dignity and trust. From the scientific side, proof texts state that hypotheses that are true or false are a phenomenon of knowledge and thinking, composed of objects and ideas.

Instructional texts (instructional or programmatic texts) provide instructions on what to do, i.e. even if the instruction given on completing the task is said. It includes prescriptions, the first medical yodam instruction, and instructions for managing digital software data.

Agreement characteristic texts are those aimed at achieving a goal, such as organizing meetings or meetings, asking for what needs to be done. Agreement characteristic texts are usually personal in nature, which explains why they are not included in any other type of text, allowing us to understand. Texts on agreement are usually based on agreements in personal knowledge and understanding. An example of these visual texts would be daily electronic correspondence, asking for something, or creating text messages for the purpose of planning.

The international program for assessing reading literacy of students of PISA also uses texts and artistic texts that are not of one type or another based on specific facts. As such, PISA does not aim to assess the difference between students ' knowledge of fact-based and artistic texts in their research. In PISA studies, textual and artistic texts are classified as narrative texts.

Characteristic texts, instructive and agreement texts do not have the ability to classify real-life texts with a characteristic of different types of text. A section of a textbook can be constructed from certain definitions (expressions), instructions aimed at solving the problem (demonstrative), a summary of finding a solution (narrative), and an image (descriptive) of certain bodies associated with the solution.

Literature used.

1. Ismailov A. va boshqalar Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

2. Norboyeva D. 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan xalqoro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun daftari Toshkent, 2019-yil, 15 bet.

3. Nilufar, T. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF DARSLIKLARIDAN O ‘QUVCHILAR NUTQINI O ‘STIRISHDA IJODIY YONDOSHISH. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(8), 338-343.

4. Turanazarova, N., & Jazoirov, M. (2023). PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDA TOPSHIRIQLAR TAYYORLASHDA MATNLARNING O ‘RNI. Наука и технология в современном мире, 2(9), 80-83.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH TA’LIMNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi boshlig‘i, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ro‘zmatova Mahliyo Baxrom qizi
Urganch davlatvpedagogika instituti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizdagi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish ta’limning samarali vositasi ekanligi yoritiladi, hamda o‘yinli texnologiyalarning foydali jihatlari, ularni faoliyat maboynida qo‘llash orqali erishiladigan yutuq va kamchiliklar ko‘rsatib beriladi. Shuningdek maqolada o‘yinli texnologiyaga misollar keltirilib, uni ta’lim jarayonida qo‘llash(tajriba va amaliyot) uchun metodlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, o‘yin, o‘yinli texnologiya, faoliyat, metod, kommunikativlik, ijtimoiylashuv, jarayon.

Bizga ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin hisoblanadi.[1] Shu sababdan ham, bu yoshdagi bolalar ta’limida o‘yin o‘zining musthkam o‘rniga ega. Chunki o‘yin bilish va uning bir qismi bo‘lmish, “kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat” tarzida tashkil qilinadi. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi hamda ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llaniladi, O‘yinning maqsadlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka, ko‘nikmalarni qo‘llash va umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘yinning tarbiyaviy maqsadi esa mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik, dunyoqarashnmi shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizimni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalash ko‘zlangan bo‘ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshatishni topish, faraz, hayol, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.[2] Jamiyatning qadriyatlari va me’yorlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish psixoterapiyasi esa ijtimoiylashuv o‘yinlaridir.

Shuningdek, o‘yindan tushunchalar, mavzu, hattoki o‘quv predmeti bo‘limini ham o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish orqali ko‘p samarali yutuqlarga erishilayotgani bizga ma’lum. O‘yinli texnologiyalar asosini

o‘yin tashkil qiladi. O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirishning vositasi sifatida ta’riflaydi. Bizga ma’lumki, har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

-maftunkorlik;

-kommunikativlik;

-o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;

- tashxis;

-o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;

-ijtimoiylashuv.

Ma’lumki, o‘yinlar quyidagi to‘rt asosiy xususiyatga ega:

-erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;

-ijodiy xarakter, ya’ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

-emotsional ta’sir-bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

-asosiy va qo‘shimcha qoidalar o‘yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

Shunindek, *“o‘yin-bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas. U faqat ma’lum sharoitlardagina yuzaga kelishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va ma’lum darajada o‘quv materialining muammoli bo‘lishligini nazarda tutadi”*-deb hisoblaydi, S.M. Tyunnikova [3].

O‘yin ilmiy adabiyotlarda borliq fenomeni (yunoncha phainomenon - yuz beruvchi noyob hodisa) sifatida ko‘rilib, mehnat faoliyati va o‘rganish bilan bir qatorda turadi. O‘yin nafaqat bolalar va kattalarni, balki insoniyat turmushida muayyan hodisa sifatida hamda psixologiya va pedagogikada esa maxsus o‘rganilayotgan muhim muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik adabiyotlarda o‘yinga berilgan ta’riflarni ko‘plab uchratish mumkin, masalan, L.P.Borzova o‘zining izlanishlarida *“O‘yin-bu ta’lim oluvchi uchun tabiiy o‘qish usuli”* hamda *“Didaktik o‘yin esa - bu subyekt uchun ma’lum bir holatdagi o‘quv mashg‘ullik faoliyatidir”*-deya e’tirof etgan.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini maktabgacha yoshdagi bolalarning faollashtiruvchi hamda jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. Shuningdek, o‘yinli texnologiyalar (o‘yinli ta’lim)-bolalarning ijtimoiy tajribalarini o‘zlashtirishining bari ko‘rinishlari ya’ni bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga qaratilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan biri ya’ni pedagogik texlogiya hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli faoliyat shaklida qo‘llaniladi. Ushbu faoliyatlarda bolalarning bilim olish jarayoni

o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashganmashg‘ulotlar didaktik o‘yinli faoliyatlar deb ataladi. [2]

Inson hayotida o‘yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-o‘yin faoliyati orqali shaxsning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi;

-o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya’ni, kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;

-shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

-hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

-o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

-shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

-insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi;

-o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

O‘yin tuzilishiga-maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqod ishlari natijasi shuni ko‘rsatadiki, nazariy jihatdan o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qarash mumkin. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoni “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat o‘quv dasturidan foydalangan holda tashkil qilinadi. Ushbu o‘quv dasturida o‘quv yili va sog‘lomlashtiruvchi davr uchun mavzular belgilab berilgan.[4] Tarbiyachi asosan oy va hafta mavzusiga mos qilib o‘yinli texnologiya va metodlar tanlashi kerak.

Maktabgacha talim tashkilotida faoliyatlarni tashkil qilish jarayonida bu davrni qiziqarli kechishi uchun tarbiyachi-pedagog, turli xil o‘yinlar, o‘yinli texnologiyalar tayyorlab qo‘yishi zarur. Masalan tayyorlov guruhda elementar matematika faoliyati davomida yoki oxirida “ranglar” o‘yinli texnalogiyasini qo‘llashimiz mumkin. Ushbu o‘yinli texnologiyani o‘tkazish jarayonida dastavval bolalarni guruhlarga ajratib olishimiz darkor. Guruhlarga ajratishni ham o‘yin orqali amalga oshirishimiz mumkin. Demak, o‘yinli texnologiya ushbu bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich, “Guruhlanish bosqichi” bunda ishtirokchilar soniga qarab rangli qog‘ozlar (qizil, sariq, yashil) kerak. Mashg‘ulotgacha 2 yoki undan ko‘prok jetoncha tayyorlab qo‘yamiz bolalarning soniga qarab. Jetonchalar aralashtiriladi, har bir ishtirokchiga ya’ni tarbiyalanuvchiga beriladi. Guruhni bo‘lish zarur bo‘lganda,

ishtirokchilarga ma’lum qilish kerak, bir xil rangli jetonchalar-bu 1-guruhda, 2-xil rangli jetonchalar-bu 2-guruhda ekanligidan dalolat beradi.

2-bosqich, “Asosiy bosqich” deb ham atashimiz mumkin. Bunda biz har bir guruhga maxsus tayyorlangan” materiallarni ya’ni rangli geometrik figuralar va rangli qutichalar taqdim qilamiz va shartlarni tushuntiramiz. Shartlar quyidagicha, bolalarga taqdim qilingan materillar, rangli geometrik figuralarni rangli qutichalarga rangi va shaklini aytib, solishlari kerak bo‘ladi.

3-bosqich, “Yakuniy bosqichimiz” esa o‘yinli texnologiyalarni yakunlash hamda ishtirokchilarni rag‘batlantirish kabi qismlardan iborat.

Mazkur o‘yinli texnologiyani qo‘llash orqali bolalarni faoliyatdan olgan bilimlari mustahkamlab olinadi, o‘zaro do‘stlik, hamjihatlik tuyg‘ulari shakllanadi va kayfiyatlariga ham ta’sir qiladi.

Keyingi o‘yinli texnologiyamiz esa “Blits o‘yin” texnologiyasi ushbu o‘yinli texnologiyadan foydalanish orqali biz har bir bolalarda chaqqonlik, hozirjavoblik hamda jamoada ishlash va o‘zaro hurmat shakllanadi. Elementar matematika faoliyatida bu o‘yinli texnologiyani fasllar, ulardagi hodisalarni anglash va fazoga qarab mo‘ljal olish malakalarini mustahkamlash uchun qo‘llashimiz mumkin. Masalan, yil fasllariga doir qilib o‘tkazishda quyidagicha shartlardan foydalanishimiz mumkin:

Rasmda qaysi fasl tasvirlanganini topish va keyin fasllar yoniga bu davrda bo‘ladigan hodisalar, bayramlarni ajratib chiqishlari kerak bo‘ladi. Agarda faoliyat va o‘yin jarayoni yana ham qiziqarli tashkil qilinmoqchi bo‘linsa, oldin qarsaklar metodini qo‘llashimiz mumkin. Bunda tarbiyachi bir nechta marta qarsak chaladi, chalingan qarsaklar sonini bolalar aytishi kerak. Metod qo‘llanib bolalar diqqati jalb qilib olingan holda o‘yinli texnologiyani shartlarini bajarishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak hozirgi davrda bolalarga sifatli ta’lim berish uchun an’anaviy tarzda faqatgina ko‘rgazmalarni tushuntirib berishning o‘zi kamlik qiladi. Tarbiyalanuvchilar faoliyatlarda faol qatnashishlari, o‘z fikr-u mulohazalarini bayon qilishlari uchun tarbiyachi kreativ bo‘lishi darkor. Kreativlik bilan bir qatorda fasilitatorlikni ham uddalay olgan pedagog hozirgi zamonning eng zarur a’zosidir. Yuqorida sanagan sifatlarga ega tarbiyachi esa har bir faoliyat uchun qiziqarli o‘yin, o‘yinli texnologiya, interfaol metodlardan foydalansa maqsadga muvofiq. Ta’limda zamonaviy o‘yinli texnologiyalardan foydalanish orqali maktabgacha ta’lim tizimi uchun qabul qilingan davlat dasturlarini amalga oshirishda asosiy vosita sifatida foydalaniladi. “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida ko‘zlangan barcha maqsadlarga erishiladi.

Faoliyat davomida bitta o‘yinli texnologiyalarga erishish orqali bola har bir rivojlanish sohalari bo‘yicha yutuq erishishini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha Pedagogika” F.R. Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N. A’zamova “Tafakkur Nashriyoti Toshkent – 2019 313-b

2. N.M.Mamajonova, F.M.Bekchova, M.A.Durdiyeva. “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” “Bookmany print” Toshkent 2023. 169-bet
3. Тюнникова С.М. Использование игры в учебно-воспитательной работе мастера производственного обучения. Мет.реком-ции.М.: 1990.-60 с.
4. “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat o‘quv dasturi Toshkent 2022. 36-b

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA STEAM O‘QITISH TEXNOLOGIYASI-MATEMATIKADAN ERTA RIVOJLANISH (UZLUKSIZ TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH) OMILI SIFATIDA

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi boshlig‘i, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Saparova Bonu XXX
Urganch davlat pedagogika instituti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola sharhi maktabgacha ta’limda STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) dasturini qamrab oladi. STEAM ta’limi savollarga javob berish uchun mos yondashuv hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu maqolada STEAM ijodkorlikni, muammoni yechish malakasini oshirishning pedagogik usuli, ilmiy so‘rov, tanqidiy fikrlash va boshqa kognitiv imtiyozlarni ta’minlashda o‘rgatilishi borasida fikrlar bayon qilingan. STEAM orqali o‘rganish bolalarni faolroq va tashabbuskor bo‘lishiga undashiga doir namunalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM dasturi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, kognitiv fikrlash, o‘qitish texnologiyasi, loyiha, fan, uzluksiz ta’lim, yangicha yondashuv, innovatsion faoliyat.

Dunyo o‘zgarmoqda, yangicha shart-sharoitlar yuzaga kelmoqda, kelajak bizga noma’lum kasblarni va hal qilinmagan muammolarni tayyorlamoqda. Shu munosabat bilan yosh avlodda ijodiy fikrlash, muloqot, innovatsion ko‘nikmalarni, kreativlikni rivojlantirish, muammoni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, ijodkorlik, matematika zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab qilinadigan sohalarga aylanmoqda. STEAM ta’limi fanlararo yondashuvga asoslanadi va bu fanlarni birlashtiradi. STEAM an’anaviy o‘qitishga muqobil yondashuvdir. Shu bilan birga, bolalar fanlararo aloqalar va amaliy yondashuvlar asosida fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani o‘rganadilar . Bu bolalarga maktabgacha va undan tashqarida loyiha va tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga imkon beradi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyada ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, bolalarning mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish tarbiyachilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari dasturini o‘zlashtirish

natijasida talabalar *“bola turli faoliyatda-o‘yinda, muloqotda, kognitiv tadqiqot faoliyatida, dizayn va hokazolarda tashabbus va mustaqillik ko‘rsatishga qodir”* ekanliklarini bilib oladilar. STEAM inson kapitali sifatini yaxshilaydi, shuningdek, gender tengligini kengaytirishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning *“Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz”*,-degan fikrlari STEAM ta’limi fanlararo yondashuvida katta ahamiyat kasb etadi.[38]

Har qanday davrda bolalarni qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo‘lib ulg‘ayishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bilim olishga qiziqtirish va bilim berishni yangicha uslubiy yo‘llarini izlab topish lozim. Ta’lim berishda hozir noan’anaviy bir uslub ta’lim jarayoni samaradorligiga xizmat qilmoqda. Unda bolalar bir qancha fanlar va darsliklarni maxsus fan qilib o‘qishmaydi. Bu STEAM ta’lim tizimi hisoblanadi, ushbu qisqartmani keng qilib yoysak quyidagi mazmun kelib chiqadi: *“STEAM bu-S-science, T-technology, E-engineering, A-arts va M-math”* o‘zbek tilida buni shunday tahlil qilamiz tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo‘nalishlar bugungi zamonaviy dunyoda dolzarb, shuning uchun STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslanadi. “STEAM ta’limi” atamasi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalarida o‘qitish va o‘rganishni anglatadi. U odatda maktabgacha ta’limdan doktorlik bosqichigacha bo‘lgan barcha sohalardagi ta’lim faoliyatini o‘z ichiga oladi. STEAM ta’limi bolalarga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni (qattiq va yumshoq) birlashtira oladigan o‘rganish sifatida qabul qilinadi. STEAM atamasi STEM-dan kelib chiqqan bo‘lib, u bolalarni kuzatish, tekshirish va savollar berish orqali atrofdagi dunyo haqida bilimlarni shakllantirishga undaydi. STEM bolalar uchun qimmatli va mazmunli ta’lim beradi deb hisoblanadi. O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, bunday o‘rganish bilan o‘quvchilar o‘z bilimlarini shakllantirishda faolroq va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. “San’at” qo‘shilishi (STEAM qisqartmasi) bolalarga STEM kontsepsiyasini ijodiy va xayoliy usullarda tasvirlash imkoniyatini beradi[39]

Bu ta’lim Amerikada rivojlangan. Ba’zi maktablar o‘zlarining bitiruvchilarining keyingi faoliyatini kuzatish uchun tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik ko‘nikmalari va matematikani birlashtirishga qaror qilishdi, shu bilan STEM (fan, texnika, muhandislik va matematika) tizimi, keyinchalik unga san’at qo‘shildi va endi bu oxirigacha shakllandi. O‘qituvchilarning fikricha, ushbu fanlar

[38] SH.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi.” - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 216-b.
[39] H.B. Gonzalez and J. J. Kuenzi “ Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM) Education: A Primer” Congressional Research Service. (August 1, 2012) p. 5.

bo‘yicha olingan bilimlar bolalarning kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Bu yondashuvining asosiy g‘oyasi shundaki, amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Shu bilan birga, bolalar o‘quv jarayonida nafaqat aqllarini,balki qo‘llarini ham ishlatishlari kerak. STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, bolalar ko‘pgina fanlarni samarali va chuqurroq o‘rganish va bilimlarni mustaqil ravishda “egallash” uchun onglari va qo‘llaridan foydalanadilar. Bolalar experiment o‘rganish, dizayn modellari bilan tajriba o‘tkazadilar, musiqa va filmlarni mustaqil ravishda yaratadilar, robotlar quradilar, ya’ni, o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar va mahsulotlar yaratadilar.

Bu o‘rganish muhitida bolalar o‘sib ulg‘ayganlarida va atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va boshqa murakkab muammolar kabi turli xil hayotiy muammolarga duch kelganda o‘z bilimlarini amalda qo‘llashlari mumkin ular hal qilish uchun faqat o‘z bilimlariga tayanish va fanning turli sohalarida birgalikda ishlash kerakligini tushunishadi. Bitta intizomda bilimga tayanishning o‘zi yetarli emas. Shuning uchun bu yondashuvi ham fikrlash usulidir.

STEM ta’limining asosini *“Fridrix Frebelning didaktik tizimi”* o‘quv moduli tashkil etadi, chunki nazariy pozitsiyalar va amaliy ishlanmalarni o‘zida jamlagan. Bundan tashqari, F.Frebelning didaktik tizimi o‘zining universalligi tufayli STEM ta’limi (science-fan, technology-texnologiya, engineering-muhandislik, mathematics-matematika) uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki u bilimlarni tizimlashtiradi. Frebel hayoti davomida maktab va universitetlarda dars berdi, ta’lim muassasalarini boshqardi va ularni o‘zi yaratdi, shu bilan birga maqolalar va kitoblar yozdi. Ammo Frebel ilmiy faoliyatining asosiy qismida hali maktabga bormagan bolalar uchun ta’lim tashkilotlarini tashkil qildi. 1840-yilda Germaniyaning Blankenburg shahrida birinchi *“bolalar bog‘chasi”* ni ochadi. Bolalarni *“hayot gullari”* va g‘amxo‘rlik qiluvchilarni *“chiroyli bog‘bonlar”*-degan g‘oya gumanistik pedagogikada hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.[40]

F.Frebel bolalarni *“Olloh ekinlari”* deb hisoblagan, ya’ni ular g‘amxo‘rlik va parvarishga muhtoj o‘simliklar bog‘i hisoblanadi. Yana bir taxmin shundan iboratki, nemis pedagogi *“Saroy bog‘ida”* deb nomlangan sobiq mehmonxonada *“bolalarni parvarishlash bo‘yicha birinchi muassasa”* ni ochgan. Farzandlarini muassasaga olib borar ekan, shaharcha aholisi boqqa ketayapmiz, deb aytgan. Chunki bolalar bog‘chasi o‘zining dizayniga ko‘ra gullar va daraxtlarga o‘ralgan bog‘ bo‘lgan. Bolalar bog‘chasi tarbiyachilarini nemis pedagogi *“bog‘bon qizlar”* deb atagan, bu bilan u bolalarga bo‘lgan mehrini ifodalagan, pedagoglarni bolalarga voyaga yetishi va rivojlanishi uchun ko‘maklashishga da’vat etgan. Frebelning bolalar bog‘chalari shuningdek, vaqtincha oila o‘rnini bosish va ota-onalarga tarbiya ishlariga

[40] Т. В. Волосовец, В. А. Маркова, С. А. Аверин. STEM -образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Москва БИНОМ. Лаборатория знаний 2019. 16-b.

yordamlashish uchun tashkil qilingan, onalar bilan bolalar birga kelishi, ular bilan o‘ynashi va bog‘bon qizlardan o‘rganishi mumkin bo‘lgan.[41]

STEAM texnologiyasidan foydalangan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlardagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rivojlanish markazlarida bolalarning kommunikativ jarayonlarini shakllanishi, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan metodik imkoniyatlarni yaratilishi bolaning barkamol rivojlanishida qiziqarli va foydalidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlarida bolalar o‘zlarining ilk kommunikativ va sensor sifatlarini o‘zlari rivojlantirib borish ko‘nikmasiga egadirlar:

• Qurish-yasash,konstruksiyalash va matematika markazi;
• Til va nutq markazi;
• Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi;
• Ilm-fan va tabiat markazi;
• San’at markazi;
• Musiqa va ritmika markazi.

Yuqorida keltirilgan rivojlanish markazlarida har bir yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati, ta’limiy-tarbiyaviy jarayoni tarbiyachi tomonidan kuzatib boriladi va rivojlanish xaritasida qayd etiladi. Har bir rivojlanish markazi bolaning kommunikativ sifatlarini rivojlantiradi. Kommunikativ moslashuvchanligi, kompetentlik asta-sekin shakllana boshlaydi. Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi. Tarbiyachi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Bola rivojlanishining o‘ziga xosligini inobatga olishda, avvalo, shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma’lum bosqichlarini bosib o‘tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o‘xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta’kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o‘ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya’ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma’naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga,

[41] Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T-2019. 35- bet.

tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalarini tajribada sinab ko‘rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e’tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko‘p axborot bilan chalg‘itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo‘llarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning o‘zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o‘ylab topadiki, unda barchaga birdek ko‘rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o‘zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug‘ilib qolsa topshiriq va materiallami o‘zgartirishi yoki moslash-tirishi mumkin. Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib beradi. Masalan, san’at markazida bir bola qog‘oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog‘ozdan qaychi bilan ozi o‘ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar markazida bir bola to‘rtta yog‘och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bolakli karton qog‘ozli tasvirni tuzishni ma’qul ko‘radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so‘ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam beradi. Bunday yo‘l tutish tufayli bola yaxshi sur’atda o‘sib-ulg‘ayishi mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda har kuni yangi ish turlari shuningdek, ixtisoslashuvning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lmoqda, bu esa bugungi pedagoglarni o‘ylantirishi kerak. Ular o‘qitayotgan bolalarning bilim va ko‘nikmalari, kreativligi, kompetensiyaviy yondashuvlarini ko‘zdan kechirgan holda ularning bilim olishiga zamonaviy yondashishi kerak. Pedagoglar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM texnologiyalari ta’limi orqali bolalarni kuzatish, tekshirish va savollar berish orqali atrofdagi dunyo haqida bilimlarni shakllantirishga zamin yaratuvchi pedagogik jarayonni tashkil qilishi nazarda tutiladi. STEAM texnologiyalari erta yoshdagi bolalar ta’limida integratsiyalashgan ta’limda o‘qitilishi va bolalarning kundalik kuzatuvi orqali amalga oshirilishi shuningdek, STEAM ta’limining ta’siri bolalarni faolroq va o‘z bilimlarida tashabbus ko‘rsatishga qodir ekanliklarini muhokama qiladi. Pedagog-tarbiyachi har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko‘rishi lozim. Tarbiyalanuvchi bilan o‘zaro muloqotda bolaning o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda uning eng yaqin rivojlanish sohasi keng bo‘lgan belgilarni topish va asta-sekin yangi bilimlarni berish bilan to‘ldirib borish orqali kutilgan natijaga erishiladi. Bunda bolalarga nisbatan do‘stlik va o‘zaro hurmatda bo‘lish asosiy shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi.” - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 216-b.

2. H.B.Gonzalez and J.J.Kuenzi “Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM) Education: A Primer” Congressional Research Service. (August 1, 2012) p. 5.
3. Т.В.Волосовец, В.А.Маркова, С. А. Аверин. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Москва БИНОМ. Лаборатория знаний 2019. 16-b.
4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T-2019. 35-bet

STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Zulfiya Mahmudova
Namangan davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi
Ergasheva Muyassar Elyorbek qizi
2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Steam ta’lim texnalogiyasining hozirgi kundagi salohiyati tizimli xolatda o‘rganilyotganlik darajasini o‘rganish, uni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat jarayoni bilan bog‘lash va tatbiq etish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Steam, steam yondashuv, ta’lim, texnalogiya, muhandislik, san’at, fanlar, matematika.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda, har tomonlama rivojlantirishda Steam ta’lim texnologiyasining ahamiyati beqiyos katta. Bu ta’lim tizimi orqali bolalarni dunyo haqida bilimlarini mustaqi ravishda egallashga, o‘z fikr va mulohazalarini to‘liq bayon etishga, turli tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga o‘rgatadi. Bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi. Bolada qiziqucchanlik, mustaqil izlanish, turli tadqiqot yaratishga imkon beradi. Steam-tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubi. Agar bu qisqartmani yoyadigan bo‘lsak, quydagilarni olamiz. STAM- bu S-science, T-technology, E-engineering, A-art va M- math. Bular: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotgan ta’lim tizimi hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalar- dan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nlalishi va amaliy yondashuvini qo‘llash shuningdek, barcha 5 ta sohani yagona ta’lim tizimiga integartsiyalashuviga asoslangan.

STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli balki fikrlash tarzidir. STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib ulgayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarish bo‘ladimi, bunday murakkab narsalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinliginitushunadilar.

STEAM ta’lim texnologiyasi dastlab Amerikada paydo bolgan. Undan keyin boshqa mamlakatlarga tarqala boshladi. Jumladan, Rossiya, Koreya, Xitoy Turkiya, Yevropa, Filandiya va O‘zbekistonga ham kirib keldi. Ya’ni O‘zbekistonga bu ta’lim turi 2019- yildan kirib kela boshladi. Bundan tashqari Xalq ta’lim Vazirligining talabiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’lim Vazirligi va Osiyo taraqqiyotini banki (OTB) o‘rtasida $100 mln.lik loyihani amalga oshirish bo‘yicha shartnomalar imzolandi. Bundan tashqari O‘zbekistondagi maktablarda o‘qituvchilar bilimini baholash tizimi takomillashtirish ko‘zda tutilgan. Bu loyiha 2022-yilda oshiriladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga STEAM ta’lim tizimini joriy etish uni Science tabiiy fanlar tarkibiga singdirishdan boshlanadi. Bugungacha umumta’lim maktablarining 1-2-sinflarì uchun tabiiy fanlar darsligi yaratildi va ushbu fan 2022-o‘quv yilidan boshlab maktablarda o‘qitib kelinmoqda. Darslikka STEAM ta’limiga asoslangan mavzu va mashqlar kiritilgan. Endilikda umumta’lim maktablariga STEAM ta’limini joriy etish yo‘lga qo‘yilmoqda.

STEAM YONDASHUV- 2001-yilda AQSH milliy fondi olimlari tomonidan taklif qilingan. AQSH M.F.A. AQSH ning milliy jamiyat 1863- yil Vashington shahrida tashkil etildi.

STEAM tashabbusi asoschisi Georgetti Yakman Steam ta’lim tizimiga A-art ya’ni san’at qo‘shish g‘oyasini taklif etdi. Bundan tashqari, u 2006 -yildan beri STEAM EDUCATION asochisi, tadqiqotchisi va yaratuvchisidir. G YAKMAN STEAM ta’lim tizimini shunday ta’riflaydi: "Fan va texnika, muhandislik va matematika elamentlaiga asoslangan, san’ at bilan quvnoqlashgan ta’lim texnologiyasi’’- deya e’tirof etadi.

STEAM dan faol tarzda foydalanish 2011-yilda boshlangan. Shu davrda biolog JUDIT.A Ramali yangi Steam ta’lim dasturini ishlab chiqdi. Steam yondashuvi 2001-yilda AQSH milliy fan fondi olimlari tomonidan taklif qilingan. Steam yondashuvining qulay jihati shundan iboratki, bolala turl xil mavzularni muvafaqqiyatli o‘rganish uchun ham miyani ham qo‘llarni ishlatadilar.

Maktabgacha talimda Steam ta’lim texnologiyalarini afzalligini ko‘ramiz.

1. Steam ta’lim texnologiyalari bolalarni turli mavzularda tadqiqot, kashfiyot va izlanishga undaydi.

2.Ochiq savollar orqali tadiqotlarga rahbarlik qilinadi, muammoga yechim topish yo‘llari quvnoq bo‘ladi.

3. Steam fanlariga (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) integratsiyalashgan faoliyati tadbirlari amalga oshiriladi.

4. Bolalar va kattalar o‘rtasidagi hamkorlik, faol muloqot muhiti vujudga keladi.

2014- yilda Quddusda bo‘lib o‘tgan “STEAM FORWARD” xalqaro konferen- siyasida quydagi boyonotlar bildiriladi.

■ Bolalarni Steamga jalb qilish. Ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak. Shuning uchun dasturlarni bolalar bog‘chalariga kiritish kerak.

■ Fan tili ingiliz tilidir. Agar, ilm - fanni o‘rganish va olim bo‘lishni istasangiz , bu tilni bilishingiz kerak.

■ Qizlar uchun Steam ta’lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibliligi tufayli, o‘gil bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.

■ Scaince is fun! Ilm -fan quvnoq bo‘lishi kerak, u o‘quvchilar uchun qiziqarli va o‘ziga jalb qiluvchi bo‘lishi kerak.

STEAM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Unda qiziquvchanlik, qunt, aktyorlik mahoratlarini shakllantiradi. Tortinchoqlik, e’tiborsizlik kabi jarayonlari yo‘qolib boradi. Bolani har tomonlama rivojlantiradi. O‘z mustaqil fikriga ega bo‘ladilar. Steam texnalogiyalarining afzalliklari shundaki, bunda fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki bir-biriga integartsiyalashgan holda yuzaga keladi.

STEAMni bugungi kunda tutgan o‘rni.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra 2011- yildan buyon Steam kasblarga bo‘lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddly kasblarg bo‘lgan talab esa faqat 9,8 % ga oshdi. Bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talabni ko‘rsatadi. Demak shundan ko‘rinib turibdiki, Steamga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Butun dunyo shu ta’lim tizimini ma’qullamoqda va unga tayangan holda faoliyat olib bormoqda.

Al-Xorazmiy nomidagi IT maktabining ta’lim jarayonida ham Steam texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Bundan asosiy maqsad shundan iboratki, o‘quvchilarning darsda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va hayotga tadbiq etish imkonini yaratadi. Bundan tashqari maktabda robotatexnika, sexmatexnika xonalari bilan bir qatorda Steam xonasi ham mavjud bo‘lib,u zamonaviy interaktiv platforma ,ish qurollari, tikuv mashinalari, to‘quv moslamalari va 5 xil turdagi kesish va randalash uskunalaridan iborat. Qizig‘i shundaki, bu uskunalar o‘quvchilar tomonidan qayta yasalish, boshqa ko‘rinish va vazifani bajarish imkonini beradi. STEAM-dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiradi. Ular gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganadilar. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo‘ladilar. Bolalar bu jarayonda faol qatnashsalar mashg‘ulotlarni yaxshi eslab qoladilar.

AQSH mehnat statistikasi buyrosi ma’lumotlariga ko‘ra Steam kasblarida balandlik darajasi mavjud. Bu yildan-yilga sari oshib bormoqda va bu ko‘rsatkich hozir 79% ga oshdi.

Har bir narsani yangi, inavtsion texnalogiyalar va internet yordamida boshqarishning bosqichma bosqich o‘zgarishi har bir insondan Steam ta’limi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni egallashni talab qiladi. STEAM talablari yaxshilangan kognitiv afzalliklarga ega rivojlanish, o‘quvchilarni o‘tlashga va muammolarga ijodiy yechim topishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlashni istardikki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o‘rta maktabdagi Steam yondashuvi bolalarni har

tomonlama rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi: Steam ta’lim tizimi orqali bolalarda ixtirochilik, kreativlik, turli xil kashfiyotlatni yaratish ,muhandislik, loyihalash, rasomchilik kabi bir qancha fikr va g‘oyalar yuzaga keladi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. “STEAM ta’lim tizimi nima?” https:// www. integer.uz / Steam

2. "STEAM education for English learners" https://exclusive multi briefs.com/ content/ steam- education- for - english - learners/ education.

3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matanazarova, "Umumiy pedagokika" " Fan va texnologiya" nashriyoti T.: 2018

РЕЧ ДЕТЕЙ КАК ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

З.Х. Насирова

Чирчикский государственный педагогический университет, старщий преподователь

К.З.Жумакулова

Студентка 3-го курса, факультет “Дошкольного образование”

Аннотация: в статье рассматривается методы развитие правильной речи ребенка, возникающая во время деятельности и обращения. На протяжении дошкольного возраста изменяется у детей речь. Проявляются голосовые реакции, он издает разнообразные звуки, слоги, различные звукосочетания. Анализируется на подражение речи взрослых произнощение отдельных звуков, различие их сочетания, слоги и слова.

Ключевые слова: изложение, речь, контекст, практика, деятельность, ситуация, орфоэпия, эгоцентрика, фонематика, ритм.

Овладение речью — одна из самых сложных и таинственных проблем детской психологии и педагогики. Остается непонятным, как маленький ребенок, не умеющий ни на чем сосредоточиться, не владеющий интеллектуальными операциями, всего за 1—2 года практически в совершенстве овладевает столь сложной знаковой системой, как язык.

Речь, как исторически сложившаяся форма общения развивается в дошкольном детстве. Путь, который проходит ребёнок в первые годы жизни, поистине грандиозен. Ребёнок пользуется речью для того, чтобы выразить свои мысли, чувства, т.е. воздействовать на окружающий мир. Речь маленького ребёнка формируется в общении с окружающими его взрослыми, а в дошкольном учреждении и на занятиях по развитию речи. В процессе общения проявляются его познавательная и предметная деятельность. Овладение речью перестраивает психику малыша, позволяет воспринимать ему явления более осознанно и произвольно.

К.Д.Ушинский говорил, что родное слово является основой всякого умственного развития и сокровищницей всех знаний. Своевременное и правильное овладение ребенком речью является важнейшим условием полноценного психического развития и одним из направлений в

педагогической работе дошкольного учреждения. Без хорошо развитой речи нет настоящего общения, нет подлинных успехов в учении.
Развитие речи — процесс сложный, творческий и поэтому необходимо, чтобы дети, возможно, раньше хорошо овладели своей родной речью, говорили правильно и красиво. Следовательно, чем раньше (по мере возрастных особенностей) мы научим ребёнка говорить правильно, тем свободнее он будет чувствовать себя в коллективе.
Развитие речи — это целенаправленная и последовательная педагогическая работа, предполагающая использование арсенала специальных педагогических методов и собственные речевые упражнения ребенка.
В работе с детьми дошкольного возраста используются следующие средства речевого развития детей: общение взрослых и детей, культурная языковая среда, обучение родной речи и языку на занятиях, различные виды искусства (изобразительное, музыка, театр), художественная литература. Развитие речи в процессе ознакомления с художественной литературой занимает большое место в общей системе работы с детьми. Художественная литература является важнейшим источником и средством развития всех сторон речи детей и уникальным средством воспитания. Она помогает почувствовать красоту родного языка, развивает образность речи.
Традиционно в отечественной методике развития речи выделяется значение, которое объединяет большое разнообразие жанров произведения, сюда относятся сказки, рассказы, стихотворения, загадки и т.д. Воспитательные и образовательные возможности загадки многообразны. Особенности содержания и структуры загадки как литературного жанра позволяют развивать логическое мышление детей и формировать у них навыки восприятия.
Расширяя кругозор детей, знакомя их с окружающим миром, развивая и обогащая речь, загадки имеют неоценимое значение в формировании способности к творчеству: логического мышления (способность к анализу, синтезу, сравнению, сопоставлению), элементов эвристического мышления (способность выдвигать гипотезы, ассоциативность, гибкость, критичность мышления). К.Д.Ушинский сказал: «Загадку я помещал не с той целью, чтобы ребёнок отгадал сам загадку, хотя это часто может случиться, так как многие загадки просты; но для того, чтобы доставить уму ребёнка полезное упражнение; приладить загадку дать повод к интересной и полной классной беседе, которая закрепится в уме ребёнка именно потому, что живописная и интересная для него загадка заляжет прочно в его памяти, увлекая за собой все объяснения, к ней привязанные».
В настоящее время значительно возросли требования к речевому развитию детей дошкольного возраста. Они должны достигнуть определенного уровня развития речевой активности, словаря, грамматического строя речи, перейти от диалогической речи к связному высказыванию. Развивать не только навыки правильной речи, но и формирование речи выразительной, образной.
Значение развития речи детей дошкольного возраста.

Своевременное и полноценное овладение речью является первым важнейшим условием становления (появления) у ребенка полноценной психики и дальнейшего правильного развития ее. Своевременное – значит начатое с первых же дней после рождения ребенка; полноценное – значит достаточное по объему языкового материала и побуждающее ребенка к овладению речью в полной мере его возможностей на каждой возрастной ступени. Внимание к развитию речи ребенка на первых возрастных ступенях особенно важно потому, что в это время интенсивно развивается мозг, формируются его функции. Согласно исследованиям физиологов, функции центральной нервной системы легко поддаются тренировке именно в период их естественного формирования. Без тренировки развитие этих функций задерживается и даже может остановиться навсегда.

По данным Кольцовой М.М для функции речетворчества таким «критическим» периодом развития являются первые три года жизни ребенка: к этому сроку в основном заканчивается анатомическое созревание речевых областей мозга, ребенок овладевает главными грамматическими формами родного языка, накапливает большой запас слов. Если же в первые три года речи малыша не было уделено должного внимания, то в дальнейшем потребуется масса усилий, чтобы наверстать упущенное. [4, с.5].

Процесс усвоения родной речи – это закономерный процесс развития, совершенствования речетворческой системы организма отдельного человека. Закономерностью усвоения языка мы называем зависимость интенсивности образования речевых навыков от развивающего потенциала языковой среды – естественной (в домашнем обучении) или искусственной, т.е. языковой среды, специально подготовленной методическими средствами (в детских дошкольных учреждениях).

Закономерность усвоения речи: способность к восприятию родной речи зависит от натренированности мускулатуры органов речи ребенка. Родная речь усваивается, если ребенок приобретает способность артикулировать фонемы и моделировать просодемы, а также вычленять их на слух из комплексов звуков. Для овладения речью у ребёнка должны быть отработаны движения речевого аппарата (а затем при усвоении письменной речи – глаз и руки), необходимые для произнесения каждой фонемы данного языка и их позиционных вариантов и каждой просодемы (модуляции силы голоса, высоты тона, темпа, ритма, тембра речи), и движения эти должны быть скоординированы со слухом.

Речь усваивается, если ребенок, слушая чужую речь, повторяет (вслух, а затем и про себя) артикуляции и просодемы говорящего, подражая ему, т. е. если его речевые органы активно действуют.Закономерность усвоения родной речи, состоящая в необходимости тренировки органов речи для совершенствования произносительных навыков, действует не только в первый период овладения родной речью, при становлении артикуляционной базы, но и позже: в школе, в вузе. Даже самый образованный человек, чтобы говорить хорошо на новую для

него тему, должен предварительно проговорить свою речь хотя бы внутренне.

Литература:

1.Тихеева, Е.И. Игры и занятия малых детей [Текст] / Е.И. Тихеева. - М., 2011
2.Тихеева Е. И. Развитие речи детей раннего и дошкольного возраста . - М., 2012
3.Ушакова О. С. Методика развития речи детей дошкольного возраста : учеб.-метод. пособие для воспитателей дошк. образоват. учреждений / Ушакова О. С., Струнина Е. М. - М., 2018.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ГРАФИК САВОДХОНЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Таджибаев Азизбек Батирович
Наманган давлат педагогика институти, ART педагогика кафедраси, PhD, в.б.доценти

Таълим тизимида илгари сурилган ислоҳотлар ўқувчиларнинг билимли, саводли бўлиб шаклланишида муҳим аҳамиятга эга. Барча фанлар ўзининг специфик нуқтаи назаридан ёш авлодни истиқболдаги фаолиятида мақсадли фойдаланишни белгилаб беради. Чизмачилик фани шу мазмунда шахсни график саводли бўлиб шаклланишини тасдиқлайди.

Ўқувчиларнинг график саводхонлиги бир неча фанларнинг интегратив тарзда ўқитилиши натижасида шаклланиши ва бу ўқув фанлари “Чизмачилик”, “Технология”, “Математика”, “География”, “Физика” каби таълим соҳаларида алоҳида аҳамиятга молик эканлиги А.Умронхўжаев, А.А.Павлова, Г.Тубаев, А.Раҳимов, Н.Ҳурбоев, Н.Садриддиновларнинг илмий изланишларда муайян даражада ўрганилган [2]. С.И.Дембинский, В.И.Кузьменколар томонидан мактабларда ягона график режимни жорий этиш масаласи назарий жиҳатдан қисман асосланган. Чунончи, уларнинг ишларида ўқувчиларнинг график тайёргарлигини умумтаълим фанлари тизимидаги ўрни, график билимлардан интеграцион ёндашув асосида фойдаланиш йўллари ўрганилган.

XX асрнинг 60–70-йиллари педагогик талаблари нуқтаи назаридан илгари сурилган бу ғоялар, биринчидан, янги ижтимоий-педагогик талаблар асосида, иккинчидан, миллий таълим самарадорлигини ошириш концепциялари асосида мазкур муаммони комплекс тадқиқ этиш эҳтиёжи сақланиб қолмоқда. Шу билан бирга, мактабда аниқ ва табиий фанлар интеграциясига асосланган ягона графикавий тартиб таъминланган муҳитда ўқитиш билан график таълим самарадорлигини ошириш масалалари педагогика фанида етарлича ўрганилмаган. Айнан шунинг учун умумий ўрта таълим тизимидаги ўқув фанларини ўқитишда ягона графикавий тартибни таъминлаш технологиясини ишлаб чиқиш асосида график таълим самарадорлигини оширишнинг педагогик тизимини такомиллаштиришни долзарб педагогик муаммо сифатида эътироф этиш мумкин. Зеро, ягона графикавий тартибни таъминлаш омили нафақат чизмачилик ўқув фанини, балки аниқ ва табиий фанлар, хусусан, физика,

математика, информатика, география, кимё, технология фанларидан таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилиши мумкин.

Таълимнинг дидактик принциплари тизимида кўргазмалилик таълим сифатини таъминлашнинг асосий воситаларидан бири саналади. Шунинг учун ҳам ҳар бир фан ўқитувчиси ўзининг педагогик фаолиятида таълим сифати ва самарадорлигини оширишнинг муҳим омилларидан бири сифатида кўргазмали воситаларидан фойдаланади. Дарсга олиб кириладиган кўргазмали воситалар, буюмлар, плакатлар, турли тасвирлар, харита ва схемалар таълимнинг дидактик имкониятларини оширади ҳамда ўқувчиларга дарс мавзусини тўлароқ англаши учун қулай муҳитни юзага келтиради. Зеро, кўргазмали воситалар ўқувчиларга берилаётган ўқув материалини тушуниб олишга ёрдам беради, ўқитувчига эса шу материални тушунтиришни енгиллаштиради. Муҳими, кўргазмали қуроллар ўқув жараёнини фаоллаштиради, ўқувчиларнинг фанга бўлган қизиқишини оширади, ўқитувчи ва ўқувчи муносабатлари бевосита дарс мавзусига оид ўқув материалларини ўзлаштириш жараёнини онглилик даражаси, фаоллигини ошириши натижасида таълим сифати ортади.

Мактабда ўқитилаётган дарсларда қўлланиладиган тасвирлар, одатда, график тасвирлар жумласига киритилади. Чунки қалам, сиёҳ, тушь ва бўр ёрдамида бажарилган чизиқли, штрихли ва нуқтали тасвирлар график тасвирлар дейилади [3;146-б].

Мактаб таълими ўқувчиларни турли мақомдаги график тасвирлар билан таништиришни назарда тутади. Ўқувчиларга бундай тасвирлар фақат чизмачилик дарсларидагина эмас, балки математика, физика, геометрия, технология, кимё, география, информатика ва бошқа ўқув фанларига оид материаллар таркибида бериб борилади. Масалан, геометрия дарсларида, асосан, текис-планиметрик тасвирлар, алгебра дарсларида турли графиклар, тўғри бурчакли Декарт координаталар системасидаги чизмалар, физика дарсларида схема ва схематик расмлар ҳамда аксонометрик тасвирлар – қийшиқ бурчакли фронтал диметрия ва тўғри бурчакли изометрия тасвирлари учрайди. Булардан ташқари диаграммалар, стереометрик тасвирлар, жадваллар ва буюмнинг битта проекциясидан иборат бўлган тасвирлар учрайди. Кимё дарсларида, асосан, схемалар ва схематик расмлар кўп ўринни эгаллаган. Булар ҳамма тасвирларнинг 26,5%ни ташкил қилади. Улардан сал камроғи – турли буюмларнинг (колба, банка, ҳар хил асбоблар) перспектив тасвирлари ҳисобланади.

Айрим фанлар мазмунида буюмнинг битта проекцияси бўлган тасвирлар (қирқими билан) ҳам учрайди. Булар ёрдамида у ёки бу мавзуни тушунтиришда чизмачиликдаги давлат стандарти қоидаларига риоя қилиш ўқувчиларнинг чизмачиликдан олган билимларини мустаҳкамлаш ва уларнинг графикавий саводхонлик даражасини ошишига, шунингдек, уларга муайян қонуниятлар асосидаги график тасвирлар сифатида юклатилган таълимий мақсадни теранроқ англашига асос бўлади. Шунинг учун ҳам умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган фанлар мазмунидаги график тасвирларни таҳлил қилиш ва

уларнинг педагогик классификациясини ишлаб чиқиш ва таснифлаш муҳим педагогик аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ashirboyev A. Chizmachilik. – T. “YANGI NASHR” 2010. – 192 b.
2. Тубаев Г., Эминова Р. Единый графический режим в школе как средство повышения эффективности графической подготовки учашихся // В кн. Истиқлол ва фан тараққиёти. Тезисы докладов научно-теоретической конференции. НГПУ по итогам научно-исслед. работы за 1991. Наманган: НГПУ,1992.
3. Словарь иностранных слов. // 18-ое изд., стерь – М.: С 48 Рус. яз, 1989. – 624 с.

РОЛЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ШКОЛАХ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ГЛОБАЛЬНЫХ ВЫЗОВОВ СОВРЕМЕННОГО МИРА В БУДУЩЕМ

Юсупова Сугдиёна Умиджон кизи

Намаганский государственный педагогический институт, магистрант 1-курса специальности 70110501-Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование)

Аннотация: Эта статья исследует важность преподавания естественных наук в школах как ключевого фактора для решения глобальных вызовов в будущем. Анализируются основные аспекты преподавания естественных наук в школьной программе и их связь с современными глобальными проблемами, такими как изменение климата, экологические кризисы и научно-технологические инновации. Делается акцент на необходимости усиления преподавания естественных наук с целью подготовки будущего поколения к эффективному решению глобальных вызовов.

Ключевые слова: преподавание, естественные науки, школа, познавательные способности, образование, активное обучение, практические навыки, анализ, эксперимент, критическое мышление.

В настоящее время в системе высшего образования происходят глубокие изменения, обусловленные, прежде всего, особенностями развития общества, характеризующегося экономической глобализацией, высокими темпами развития технологий, прежде всего информационно-коммуникативных, проникновением знаний во все сферы жизни общества и экономики. Рассматривая изменения в современном обществе, большинство авторов (Р.Ф. Абдеев, Д. Белл, Н.Н. Моисеев, А. Тоффлер и др.) характеризуют его как постиндустриальное общество, и определяют «как общество, основанное на знаниях, информационное общество и обучающееся общество, реализующее стратегию обучения в течение всей жизни» [5].

Общество, основанное на знаниях, характеризуется ростом инвестиций в высокие технологии, развитием высокотехнологичных отраслей производства,

растущей производительностью в экономике, и, как следствие, растущей потребностью в высококвалифицированных работниках, «знаниевых работниках» (по П. Дракеру), способных быстро адаптироваться к изменениям. «Эпоха ученых-энциклопедистов и мыслителей универсалов безвозвратно ушла в прошлое. ... Главное не владеть информацией, а знать, и даже не столько знать, сколько знать как найти, как быстро добывать требуемые знания в современных энциклопедиях или в сети Интернета. Главное - уметь находить путь к знанию, путь поиска решения и уметь делать по этому пути первые шаги» [3].

Современное общество в последние годы находится в стадии инновационного развития. Создание современной экономики, экстенсивное развитие стран, прорыв в сфере информационно-телекоммуникационных технологий и технологий наносистем, разумное природопользование, предупреждение экологических катастроф, развитие энергетики и энергосбережения, перспективных направлений военной и специальной техники требуют получения принципиально нового знания, которое дают только фундаментальные естественные науки. Именно результаты фундаментальных исследований обеспечивают высокий темп развития производства, возникновение совершенно новых отраслей техники.

Преподавание естественных наук в школах играет важную роль в формировании будущих поколений их понимания мира и способности к анализу и решению сложных проблем. В свете современных глобальных вызовов, таких как изменение климата, угроза биоразнообразию и нестабильность экологической ситуации, роль преподавания естественных наук становится особенно актуальной. В этой статье мы рассмотрим важность преподавания естественных наук в школах и его потенциал для решения глобальных вызовов в будущем. Школьная программа по естественным наукам включает в себя изучение таких дисциплин, как физика, химия, биология, астрономия и геология. Каждая из этих наук обладает своим уникальным набором принципов, законов и методов исследования, что помогает учащимся понимать разнообразие природы и ее явлений.

Преподавание естественных наук в школах является не только передачей фундаментальных знаний о мире, но и развитием навыков критического мышления, научной грамотности и решения проблем. Школьная программа по естественным наукам должна быть разнообразной и интерактивной, включая лабораторные работы, полевые исследования и проектные задания. Такой подход стимулирует учащихся к активному участию в учебном процессе и формирует у них практические навыки, необходимые для успешного решения реальных проблем.

Актуальность курса естественных наук в школах заключается в формировании фундаментальных знаний навыков и компетенций учащихся, которые необходимы для успешной адаптации в быстро меняющемся мире современности. Хорошо построенная школьная программа по естественным

наукам способствует развитию критического мышления, научной грамотности и навыков решения проблем. Этот процесс не только способствует пониманию природы и функционирования окружающего мира, но и развивает у учащихся критическое мышление, умение анализировать сложные явления, принимать обоснованные решения и работать в команде **Формирование научной грамотности**

Преподавание естественных наук, таких как физика, химия, биология и география, обеспечивает учащихся базовыми знаниями о природе мира, его закономерностях и процессах. Ученики изучают основные принципы научного метода, экспериментальные методы и техники, а также способы обработки и интерпретации данных. Это помогает им развивать научную грамотность – способность осознанно ориентироваться в мире научных знаний, оценивать достоверность информации, выдвигать гипотезы и проверять их на основе эмпирических данных. С другой стороны преподавание естественных наук влияет на познавательные способности учащихся. огласно некоторым научным работам, преподавание естественных наук, таких как физика, химия и биология, может существенно повысить познавательные способности учащихся в сравнении с другими предметами.

Например, исследование, проведенное М.А. Холодной [10], показало, что интерактивные методы преподавания естественных наук оказывают положительное влияние на качество усвоения материала и познавательные способности учащихся. Было установлено, что использование экспериментальных заданий, практических работ и коллективного обсуждения учебного материала существенно повышает интерес и мотивацию учащихся к изучению естественных наук.

Другие исследования, такие как работа А. Шамова [11], подтверждают связь между преподаванием естественных наук и развитием аналитических навыков учащихся. Ученым обнаружено, что обучение с использованием методов исследования, анализа данных и критического мышления способствует развитию познавательных способностей учащихся, что в дальнейшем может положительно сказаться на их успехах в других областях их деятельности.

Важную роль в преподавании естественных наук играют также мотивация и самостоятельная работа учащихся. Исследование Леонтьева [1] показывает, что активное участие учащихся в учебном процессе, саморегуляция и внимание к собственному развитию имеют значительное влияние на развитие познавательных способностей ребят в области естественных наук. Тем не менее, некоторые исследования также указывают на недостатки в преподавании естественных наук в школе и необходимость пересмотра их методов и подходов. Например, работа Кима [2] выявила проблемы, связанные с недостаточным использованием практических экспериментов и интерактивных методов в преподавании естественных наук, что может ограничить возможности учащихся развивать свои познавательные способности.

Глобальное мышление

Данный курс способствует формированию глобального мышления у учащихся. Оно позволяет им понимать взаимосвязь и взаимозависимость различных явлений и процессов в природе и обществе, а также оценивать их влияние на окружающую среду и человеческое благополучие. Ученики изучают глобальные проблемы, такие как изменение климата, угрозы биоразнообразию, загрязнение окружающей среды и нестабильность экосистем, и анализируют возможные пути их решения с учетом научных знаний и методов.

Развитие ключевых навыков

Естественные науки в школах развивают у учащихся широкий спектр ключевых навыков, которые необходимы для успешной адаптации и самореализации в современном мире. Это включает в себя навыки наблюдения и описания, критического мышления и анализа, синтеза и интерпретации информации, коммуникации и сотрудничества, проблемного решения и принятия решений, а также использования современных информационных технологий.

Знания и навыки, полученные учащимися в школе, могут быть применены для анализа и понимания современных проблем, таких как изменение климата, загрязнение окружающей среды, угроза биоразнообразию и научно-технологические инновации. Чем лучше подготовлены учащиеся в области естественных наук, тем эффективнее они смогут вносить свой вклад в решение этих проблем в будущем.

В свете нарастающей необходимости в научно-техническом развитии и решении экологических проблем, усиление преподавания естественных наук

Список использованных литератур

1. Бобоназаровна Ф.С., Абдухамидович Н.А. Развитие математической грамотности на уроках химии // Европейский научный журнал. – 2021
2. Ким А.Н. Теоретические основы развивающего обучения и воспитания. − М., 2006
3. Князева Е.Н., Курдюмов С.П. Основания синергетики. Человек, конструирующий себя и свое будущее. -2-е изд., стереотип. - М.: КомКнига, 2007
4. Кузьмин С.Г. "Основы методики преподавания естественных наук" – 2015

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

X. Fayzullayeva, NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishning pedagogik shart-sharoitlari, bolaning ijtimoiylashuvidagi ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha yosh, ta’lim, tarbiya, rivojlanish, ijtimoiylashuv...

Maktabgacha yosh - bu shaxsning rivojlanishining muhim davri hisoblanib, tarbiyalanuvchining jismoniy, kognitiv, nutq, badiiy va estetik rivojlanishida poydevor sifatida hizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan[42].

Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, har bir yosh guruhlarining o‘quv-uslubiy, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar, rivojlantiradigan o‘yinlar va o‘yinchoqlar bilan ta’minlanishini, shuningdek ularning moddiy-texnika bazasi jihozlanishini hamda mustahkamlanishini tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartining sakkizinchi bobi rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish deb nomlanib, ushbu bobda Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi, rivojlantiruvchi muhit mazmuni sifatida esa maktabgacha ta’lim

---

[42] **Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида” ги Қонуни. 16.12.2019 йил. ЎРҚ-595-сон**

tashkilotining ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlarga: milliy va mintaqaviy an’analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo‘lishi, muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozimligi belgilab qo‘yilgan[43].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaxshi jihozlangan rivojlantiruvchi muhitsiz to‘laqonli ta’lim faoliyatini tashkil etish mumkin emas. Axir, uning asosiy poydevori – bolalar ta’lim oladigan “Rivojlanish markazlari”dir. Guruhda biron-bir narsa shunchaki joylashtirilgan bo‘lishi kerak emas. Guruhdagi barcha narsalar bolalarning bilimini oshirishga qaratilgan, pedagogik yoki tarbiyaviy (axloqiy, estetik) ta’sirini bajarishi kerak. Ya’ni, odatdagi oilaviy muhit bilan taqqoslaganda, MTTdagi muhit jadal rivojlanib boruvchi, bolaning bilim va qiziqishlari, ixtiyoriy fazilatlari, hissiyotlari paydo bo‘lishi va rivojlanishiga turtki bo‘lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi guruhda sub’ektiv rivojlanish muhitini tashkil qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: guruhdagi materiallar, jihozlar, inventarlar xilma-xilligi. Imkoniyati har xil bo‘ladigan jihozlar qismlaridan foydalanish (bolalar mebellari, matlar, yumshoq modullar, ekran va boshqalar); bolalarning yosh xususiyatlariga va “Ilk qadam” DO‘Dga muvofiqligi; atrof-muhitning o‘zgaruvchanligi (ta’lim sharoitiga, bolalarning o‘zgaruvchan qiziqishlariga qarab) sub’ektiv rivojlanish muhitdagi o‘zgarishlarni ta’minlaydi; sub’ektiv rivojlantiruvchi muhitning o‘zgaruvchanligi (o‘yin, qurishyasash, yolg‘izlik uchun muhitlar mavjudligi, o‘yin materialining davriy o‘zgarishi, bolalarning erkin tanlashni ta’minlash uchun turli materiallar va o‘yinchoqlar, bolalarning o‘yin, harakatli, bilim

[43] **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мактабгача таълим ва тарбия давлат стандарти” ни тасдиқлаш тўғрисидаги Қарори, 22.12.2020 йил. 802-сон**

olish va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiruvchi yangi narsalarning paydo bo‘lishi); foydalanish imkoniyati (ta’lim faoliyati olib boriladigan barcha xonalarning tarbiyalanuvchilar uchun ochiqligi, bolalar faoliyatining barcha turlarini ta’minlaydigan o‘yinlar, o‘yinchoqlar, qo‘llanmalardan bemalol foydalanish, materiallar va jihozlarning ishlashi va xavfsizligi); muhitning xavfsizligi (uning barcha elementlarining ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlashi). Bolalarning emotsional farovonligini ta’minlash uchun MTTda va guruhda muhit qulay, deyarli uyday bo‘lishi kerak.

Rivojlanish muhitini modellashtirish MTT muhitini tashkil etishga innovatsion yondashuvlarni, izlanishni, shuningdek, otaonalarning ushbu muammoga bo‘lgan qiziqishini va o‘zaro ta’sir qilish istagini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi (Grosheva I., 2020). Shunday qilib, guruhda to‘g‘ri jihozlangan rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish pedagogga bolalarni to‘g‘ri shakllanishiga, ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi:

- har xil shakllarda bolaning tashabbusi va mustaqilligi, tajriba o‘tkazish imkoniyati;

- qiziquvchanlik;

- rivojlantiruvchi markazlardagi hamkorlikdagi faoliyatda ishtirokchilarni, faoliyatni tanlash imkoniyati;

- o‘ziga ishonch, tashqi dunyoga ochiqlik, o‘ziga va boshqalarga ijobiy munosabat, o‘zini o‘zi qadrlash;

- rivojlangan tasavvur, ijodkorlik ko‘nikmasi;

- turli qoidalar va ijtimoiy normalarga bo‘ysunish ko‘nikmasi;

-o‘zining harakatlarini boshqarish ko‘nikmasi (yirik va mayda motorikani rivojlanish darajasi);

-turli faoliyatlarda ixtiyoriy harakatlar qilish ko‘nikmasi Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyat turlari bo‘yicha ijodkorliklari asosan san’at markazlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari bolalarning to‘laqonli ta’lim faoliyatlarini tashkil etish uchun rivojlantirish markazlari haqidagi tushunchalarini mustahkamlashi zaruriy shartlardan hisoblanadi. CHunki, tarbiyachi pedagoglar ta’lim va tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etishlarida rivojlanish markazlari va unda olib boriladigan faoliyatlar mazmuni haqidagi tushunchalarni puxta bilish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonuni. 16.12.2019 yil. O‘RQ-595-son

2.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonuni. 16.12.2019 yil. O‘RQ-595-son

3.Berdieva M.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish: Ped. fanl. bo‘yicha fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2020. –46 b

4. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotidagi o‘yin: maktabgacha ta'lim muassasalari Tarbiyachilari uchun qo‘llanma. ta'lim / E. A. Panko [va boshqalar]; ed. Ya. L. Kolominskiy, E. A. Panko. - 2-nashr. - Mazyr: Oq shamol, 2014-2016. - 184 b

5. Lobanova, E. A. Rivojlanayotgan muhitni yaratish maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini shakllantirish sharti sifatida: muallif. dis. … samimiy. ped. Fanlar: (13.00.01) / E. A. Lobanova. - Saratov, 2001. - 19 p.

AUTOKOMPETENTLI RAHBAR SIFATINING UMUMIY STRUKTURASI

F.M.Normirzayev, NamDU tayanch doktranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada autokompetentli rahbarga xos umumiy sifatlar, ularning mazmuni, MTT rahbarlarining boshqaruv madaniyati va funktsiyalari xususida so‘z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar. autokompetent, rahbar, sifatlar, boshqaruv, innovator, fasilitator, murabbiy, yetakchi...


Uzluksiz ta’lim tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Shu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta’limning yuqori ko‘rsatkichlariga erishib borishda ta’lim muassasalari rahbarlaridan “boshqaruv” — menejer malakalariga ega bo‘lib borishni talab qiladi.

Shuning uchun ham pedagogika sohasida rahbar-xodimlarning boshqaruvga doir malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, rahbarning xodimlarni samarali boshqarishi va ularni jipslashtirishi orqali jamoada ishchanlikni oshirish qobiliyatini rivojlantirish, boshqaruv funktsiyalarini professional darajada bajarishga tayyorlashga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiyaning samarasi va ta’sirchanligi boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning ma’suliyatliligi, boshqaruv qobiliyatiga egaligi, fidoyiligi, pedagogik mahorati, kompentetligi, pedagogik muloqoti, samimiyligi, adolatparvarligi hamda boshqaruv tizimiga qay tarzda yondashishiga bog‘liqdir.

Darhaqiqat, har bir ta’lim tashkiloti faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlashda boshqaruvchi-rahbarlarining yuksak ma’naviyati, aql-idroki, intellektual salohiyati, boshqaruv jarayoniga innovatsion yondashuvi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda autokompetentlikka ega bo‘lgan rahbar boshqaruvchilik faoliyatida turli sifatlarga ega bo‘ladi. Bu sifatlar esa unga maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruv va ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashda, jamoada iliq psixologik muhitni shakllantirishda, turli nizolalarni oldini olishida muhim o‘rin tutadi (*1-rasmga qarang*).



1-rasm. Autokompetentli rahbar sifatining umumiy strukturasi

Bugungi kunda MTT rahbarlari boshqaruv faoliyati ta’lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish va boshqarish, pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, pedagogik jarayon sub’ektlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jaaryonlarni tashkil etish va boshqarish, hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish va rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab

oladi. Bu yo‘nalishlar autokompetentli rahbarning faoliyat strukturasida: boshqaruvchi, diplomat, fasilitator, murabbiy, innovator va yetakchi vazifasini bajarishni taqozo etadi.

Boshqaruvchi – bu maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassis bo‘lib, alohida ijtimoiy qatlamga mansub bo‘ladi. Rahbarining boshqaruvchi sifatidagi faoliyati MTTda ta’lim-tarbiya jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, boshqarish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Boshqaruvchi – rahbarning bu funktsiyasi an’anaviy hisoblanib, boshqaruvchilik vazifasini bildiradi. Boshqaruvchi rahbar halol, o‘z so‘zidan chiqadigan: yuksak kasb mahoratiga ega bo‘lib, ish yuzasidan muomala qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan notiq, maslaxatchi, pedagog va o‘z navbatida menejerlik mahoratiga erishgan bo‘lishi lozim.

MTT rahbari lavozim vazifalariga muvofiq turli toifadagi pedagog-xodimlar jamoasini boshqaradi, keng jamoatchilik bilan hamkorlik qildai. Pedagog-xodimlar o‘ziga xos dunyoqarashga, fe’l-atvorga ega insonlar bo‘lib, ular bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish orqali yagona manfaatlar uchun birlashtirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Diplomat – rahbar so‘nggi o‘n yillar davomida, ayniqsa keng yoyilgan boshqaruv malakalari va ko‘nikmalari orasida bularning avvalo muzokaralar olib borish bilan bog‘liq xillarni tilga olib o‘tish lozim. O‘rta va oliy bo‘g‘in funktsional rahbarlari hozirgi kunda o‘zlarining ish vaqtlarini asosan odamlar bilan aloqa bog‘lash va bu aloqalarni kengaytirishga, ish sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, shartnomalar, bitimlar tuzish, bahslarni hal qilish, hukumat bilan o‘rnatilgan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga sarflaydilar. Hozirgi sharoitda har xil vositachilar ishlarida menejerlarning ishtirok etishi tobora ko‘proq zarur bo‘lib qoldi. Mana

shularning hammasi kishida alohida, ya’ni diplomatlarga xos qobiliyatlar shakllangan bo‘lishini talab etmoqda.

Diplomat deganda, o‘z qo‘l ostidagi xodimlar bilan ustalik bilan muomalada bo‘ladigan, o‘z ishining eng nozik tomonlarini, qonun-qoidalarini, har qanday kishilar bilan muzokara olib borish san’atini egallagan mutaxassis nazarda tutiladi. Autokompetentlik tarkibida rahbarning diplomatik xatti-harakatlari negizida har qanday nizolar, kelishmovchiliklarni oldi olinadi va bartaraf etiladi. Biroq amaliyotda ko‘plab rahbarlarda kuzatiladigan qo‘pollik, g‘azablanish, asabiylashish, jahldorlik kabi xususiyatlar o‘zaro munosabatlarda keskinlashish, urish-janjallar, kelishmovchiliklarga sabab bo‘ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun rahbarlar diplomatik munosabatlar ilmini mukammal egallashlari va yuqori darajada malakaga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Har bir rahbarning qo‘l ostidagi xodimlarga bo‘lgan iliq munosabati ularning o‘z ishlarini sidqidildan yuqori saviyada bajarilshlarini va ko‘tarinki kayfiyatda ishlashlarini ta’minlaydi. Diplomat rahbarlar xodimlar bilan ishlash jarayonida ularning holatlarini va shaxsiy xususiyatlarini inobatga oladilar, ularning qalbiga yo‘l topa biladilar, muomala madaniyatiga rioya qiladilar. Bu kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan rahbarlar o‘zlari boshqarib turgan jamoalar oldiga qo‘yilgan murakkab masalalarni to‘g‘ri hal qilishga va rejalarni yuqori samarali qilib bajarishga qodir bo‘ladilar.

Murabbiy rahbar – MTTda ta’lim va tarbiya jarayonlari murakkablashib borgani sari xodimlarga qo‘yiladigan talablarni oshiradi. Bir tomondan xodimlarning texnologik bilimlarini oshirish ehtiyoji paydo bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularda hayot faoliyatining ma’naviy tomonlarini kamolotga yetkazish zaruriyati tug‘iladi. Murakkablashib borayotgan texnika – texnologiya mutaxassislarga uzluksiz kasb – ta’lim berib borish zaruriyatini tug‘dirish hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Buning uchun bu ishga talaygina mablag‘larni sarflashga to‘g‘ri keladi. Lekin xodimlarni

ma’naviy tomondan kamolotga yetkazish borasida sustkashlik qilinganligi bois pedagogik jamoada salbiy holatlar kuzatiladi. Vaholanki, xodimlarning yaxshi tarbiya ko‘rganligi, yuksak ma’naviy axloqqa ega ekanligi MTTning taraqqiyoti uchun hal qiluvchi shart bo‘lib hisoblanadi.

Innovator – yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi mutaxassis rahbardir. Yangilik kiritish – bu yangilikning qo‘llanishini bildiradi. Innovator rahbar tomonidan yangiliklarni amaliyotda qo‘llash va ommalashtirishga kirishilgan vaqtda u yangi sifatga ega bo‘ladi va innovatsiyalar vujudga keladi. Yangilik kiritishni ommalashtirish va ularni tashkil etish MTTda innovatsion jarayonning tashkil etuvchi qismlari hisoblanadi.

Pedagog novator – kasbiy pedagogik mahorat bosqichlaridan biri bo‘lib, mahoratli pedagog faoliyati yangi shakl, usul, metod yoki vositalar hisobiga o‘sib, pedagogik jarayonning samaradorligi ortishini ta’minlovchi shaxs.

Fasilitator (inglizcha *facilitator*, lotincha *facilis* "oson,qulay")- muvaffaqiyatli guruh muloqotini ta’minlovchi shaxs .

"Fasilitator" so‘zi ingliz tilidagi " **facilitator** " so‘zidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan bo‘lib, ingliz tilidagi "osonlashtirish" fe’lining hosilasidir ("rag‘batlantirish, soddalashtirish"ning taxminiy ma’nosi bilan).

Yig‘ilish qoidalari, uning tartiblari va qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali MTT rahbari o‘z xodimlariga yig‘ilishning maqsadi va mazmuniga e’tiborni qaratish imkonini beradi. SHunday qilib, fasilitator qulay muhit va samarali muhokamaga hissa qo‘shib, ikki tomonlama muammoni hal qiladi. Ushbu atamaning etimologiyasi kontekstida shuni aytishimiz mumkinki, fasilitator - bu aloqa jarayonini uning barcha ishtirokchilari uchun qulay va oson qiladigan shaxsdir.

Boshqaruvchi nuqtai nazaridan fasilitator - bu jamoaga umumiy maqsadni tushunishga yordam beradigan va bir pozitsiya yoki tomonni himoya qilmasdan muhokama qilish orqali ushbu maqsadga erishish uchun ijobiy guruh dinamikasini

targ‘ib qiluvchi shaxs. Guruh mashg‘ulotlarida osonlashtiruvchi uslubda ishlaydigan murabbiy-rahbar ko‘pincha toastmaster sifatida ta’riflanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, autokompetentlilik rahbar kadrlarga hos barcha kompetentsiyalarni shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Rahbarlarning kasbiy va shaxsiy faoliyatini to‘g‘ri tashklil etishi, o‘z ustida doimo ishlashi, o‘zini o‘zi tahlil etishi maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruvida to‘g‘ri yondashishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1.Parpieva M.M. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining autopedagogik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. http://interscience.uz

2. Ernazarova G.O. Autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish mezoni. https://academiaone.org/index.php/2.

3.Yuldasheva N.A. Rahbar xulqi, odobi va samarali nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik-psixologik munosabatlarning ahamiyati. Zamonvaiy ta’lim. 2015. №-7.

4.Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Direktoring ish kitob (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya», 2007. – B. 19.

5. Sultonova G. Pedagogik mahorat. T.: 2001..

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,PhD Maxmudova Nodira Alisherovna

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta`lim tizimida dars jarayonlarida o‘quvchi-yoshlarga ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tushunchalari: xulq-odob,burch, vijdon, adolat kabilarni singdirish masalalari yoritilgan. Inson rivojlanishida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so`zlar: ta’lim-tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, o‘quvchi shaxsi, demokratiya, burch, majburiyat, axloq, odob, iqtidor, aql, e’tiqod, kamtarlik, halollik,vatanparvarlik, diyonat,poklik,komil shaxs.

Bugungi kunda biz huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyati asoslarini qurishga dadil kirishdik. Bunday sharoitda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Bugungi shidatli zamonda yoshlar oldidda yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda.Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitida biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak.Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”.

Bugun shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham hayotimizga kirib kelmoqda. Shu ma’noda turli ma’naviy tahdidlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalambor, sog‘lom g‘oyalar orqali, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo‘lishimiz lozim. Bunday bellashuvga kirishadigan shaxsning nafaqat bilimi, balki uning axloqiy qarashlari yuqori darajada shakllangan bo‘lishi lozim. Dunyodagi har bir xalqning tili, xarakteri va tafakkur-tarzi turli bo‘lgani kabi milliy xulq-atvori,odob-axloqi,muomala madaniyati, urf-odatlari ham farqlidir. Lekin umuminsoniy ahamiyatga molik bo‘lgan mehr-muhabbat, sharm-hayo, rahm-shavqat, hurmat-izzat va qadr-qimmat degan tuyg‘ular borki, bu barcha xalqlar uchun birdek go‘zal fazilat hisoblanadi.Bir so‘z bilan aytganda, odob millat tanlamaydi. Chunki, odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, shuningdek, jamoa, milliy urf-odatlarga asoslangan go‘zal xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bu xatti-harakatlarning barchasi insonni ezgu ishlarga, bunyodkorlikka yetaklaydi.

Davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’lim va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak”, deya ta’lim xodimlari oldiga vazifa qo‘ygan edi.

Darhaqiqat, tarbiya haqida gapirar ekanmiz, u inson ma’naviyatning ko‘zgusidir. Buyuk tarixga ega bo‘lgan xalqning ma’naviyati ham buyuk bo‘ladi. Chunki buyuk ma’naviyatga ega bo‘lmagan xalq, buyuk kelajak yarata olmaydi. Demak, ma’naviyat insonning barcha qarashlarining mezonidir.

Shu o‘rinda shaxsning ma’naviyatini shakllantirishda tarbiyaning o‘rniga to‘xtalish lozimdir. Tarbiya insonni inson qiladigan azaliy qadriyatdir. Aslida, та'lim ham, tarbiya ham ong mahsulidir, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma'naviyatni yuksaltirib bo‘lmaydi.

Qomusiy olimlarimizdan Al-Xorazmiyning ilmiy bilimlar sohasidagi kashfiyotlari, Abu Nasr Farobiyning fozil inson haqidagi talimoti, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilish yo‘llari, ilm-hunarni egallash, axloqlilikning belgilari va uni tarkib toptirishga oid qarashlari, Abu Ali ibn Sinoning aqliy, axloqiy, jismoniy kamolotga oid qarashlari barkamol inson tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.Shu sababdan milliy qadriyatlarimiz, xususan, “Avesto”, mutafakkirlarimiz Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiyning tarbiya sohasiga oid boy merosini o‘rganish va hayotiy faoliyatiga aylantirish o‘quvchi-yoshlarimizning vazifasidir.

Umuman olganda, bunday faoliyat asosida insonning kamoloti ilm-fanni egallab, yuksak axloqqa erishgandagina namoyon bo‘ladi degan g‘oya yotadi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta’kidlaganidek, Bolaning yetuk tarbiya topishida ijtimoiy muhit, oilaning o‘rni, shuningdek, sog‘lom insonni tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish, o‘quvchini fikrlashga o‘rgatish, yanada muhimi – axloq tarbiyasi – yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolada xulq-odob madaniyati tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalari, omillari, shuningdek, yoshlarda vatanparvarllik va yuksak ma’naviyatni shakllantirishning yo‘nalishlari o‘yoshlarda uchrayotgan g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘ qo‘ymaslik, mavjud odob-axloq qoidalarga to‘la amal qilish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan.

Shaxs ma’naviyatini rivojlantirishda ham, barkamol inson voyaga yetkazishda ham ularning ham ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxsdagi bundyodkorlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik g‘oyalarining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydigan;

yetuklikka, komillikka yetaklaydigan, aniq maqsadni o‘zida mujassam etgan jarayon hisoblanadi.

Barkamol shaxs, komil inson aql-zakovatli, axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori, zukko, ishbilarmon, tadbirkor, tashabbuskor, kishilardir.Huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini aql-zakovati past, sayoz bilimli, ishning ko‘zini bilmaydigan, o‘zgalarni o‘ziga ergashtira olmaydigan, tashabbussiz, ma’naviy-axloqiy saviyasi sust kishilar qurib bo‘lmaydi.Zero, o‘zbek tarbiyashunosligining asoschisi, buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy aytilganidek: “Alhosil, tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.

Demak, oldimizda turgan buyuk va ezgu maqsadlarimiz- huquqiy demokratik davlatni rivojlantirish va fuqorolik jamiyatini qurish, obod va ozod Vatan, erkin va farovon hayotini qurish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish uchun, avvalambor barkamol avlod, o‘sib-unib kelayotgan farzandlarimizni yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatli insonlar qilib tarbiyalash zarur.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshlang‘ich sinfdan boshlab “Tarbiyaviy soat” fanidagi mavzular va turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, targ‘ibot ishlari olib borilyotganda axloq qoidalari bilan “ma’naviyat”, “ma’rifat”, “madaniyat”, “ma’naviy meros manbalari”, “tarixiy voqelik” atamalari va tushunchalari mohiyat mazmunini ochish va kengaytirish, o‘quvchilarda ma’naviy meros, milliy qadriyatlarga hurmat e’tiborni, ularni asrash va ko‘paytirish his-tuyg‘usini tarbiyalsh, shuningdek, iymon –e’tiqod, sabr-bardosh, kamtarlik, diyonat, o‘zaro yordam, insonparvarli, vatanparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tushunchalarini singdirish hamda ularni amalda qo‘llay olish malakalarini shakllantirish lozim.

Shu o‘rinda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ayrim kategoriyalari mazmuni ustida to‘xtalib o‘tish joizdir. Aql-zakovat moddiy va ma’naviy dunyodagi narsa va hodisalarning mohiyat-mazmunini anglash omilidir. Inson o‘z aql –zakovati yordamida fan-texnika yutuqlarini, ijtimoiy tajribalarini o‘rganib, o‘zlashtirib ma’naviy-axloqiy hayotning tub mohiyatini tushunib boradi. Natijada o‘z hayotini, ma’naviy-axloqiy hayotning tub mohiyatini tushunib boradi.Oqibatda o‘z hayotini ma’naviy-ahloqiy fazilatlarini ongli boshqarishga odatlanadi.Aql-bilimlar yordamida charxlanib qarashlar, tasavvurlar, tajribalarni shakllantiradi.Ularning ijobiy, salbiy tomonlarini anglashga ko‘maklashadi.Aqlllilik ilm o‘rganish orqali takomillashib, insonlarning ongli hayoti va turmush tarzini tashkil etadi.Shuningdek, aql-idrokning tantana qilishini, ishonchga aylanishini ta’minlaydi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir omili xulq-odobdir.Xulq-odob ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida har bir insonnning o‘zida yoki jamoa bilan muloqotidagi o‘zini tuta bilishda, yurish turishda, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan, jamiyatning axloqiy me’yyorlaridir.

Xulq-odob bezagi, odob xulq ko‘zgusi deydi donishmand xalqimiz. Ular birgalikda yetuklik, ezgulik, insoniylik namunasini tashkil etadi. Xulq-odob aql bilan paydo qilinadi.Ular aqlning suyanchig‘i hisoblanadi. Shunga binoan “Odob bozorda sotilmaydi”, “Odobsiz aql-aqlsiz odob yo‘q”, “Odobi yo‘qning aqli yo‘q” naqllari xalq o‘rtasida keng tarqalgan.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadi-gan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi hamda yaxshilik va yomonlik, mehmondo‘stlik kabi ma`naviy axloqiy tamoyilni o‘zida namoyon etadi, yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmuidir.

Burch – muhim mezoniy tushuncha. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat.

Kundalik hayotimizda uchrab turadigan o‘zimiz bilib bilmaydigan, ammo ijtimoiy turmushda har doim qo‘llashimiz zarur bo‘lgan xulq-odob qoidalari mavjud.Ana shu qoidalarini o‘z faoliyatiga singdirish uchun o‘quvchi shaxsga aniq maqsadga qaratilgan harakat zarur.Oddiy voqeadan buyuk kashfiyotni kashf etish mumkin bo‘lmas, ammo oddiy harakat, chiroyli xulq-odob yordamida yirik muvaffaqiyatga erishish mumkin. Shuning uchun o‘quvchi xulq-odobiga e’tiborsiz bo‘lmasligi kerak.Mayda-chuydalarni ko‘zdan qochirmaslik har bir o‘quvchida hushyorlikni oshiradi. Xulq-odobda har bir narsa muhim hisoblanadi. Xulq-odob o‘quvchilarni qalban bir-birlariga bog‘laydigan ruhiy manba hisoblanadi.Shu bois xulq-odob madaniyatini umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish birlashmalari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va mahallalarda yoshlar o‘rtasida bosqichma-bosqich targ‘ib qilish shakllarni amalga oshirmoq kerak. Ular quydagi bosqichlardir:

Birinchi bosqich

Umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish birlashmalari, nodavlat-notijorat jamoat tashkilotlari va

mahallalarni ma’ruza matnlari, ma’ruzaning elektron shakllari va uslubiy yo‘riqnomalar bilan ta’minlash.

Ma’ruzaning asosiy yo‘nalishlari va unda ilgari surilgan g‘oya va fikrlarni yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlar jamoalar o‘rtasida “Ma’naviyat soati”, “davra suhbati”, seminar, jonli muloqot shakllarida chuqur va atroflicha o‘rganish.

Xulq-odob madaniyatini targ‘ib etishga doir videorolik, ko‘rsatuv va eshittirishlar, multimedia vositalarini yaratish.

Ikkinchi bosqich

Xulq-odob madaniyati targ‘ib etuvchi guruh a’zolarining mazkur yo‘nalishda ko‘tarilgan masalalarning milliy va umuminsoniy ahamiyatiga chuqur kirib borishi.

Ma’ruzaning asosiy yo‘nalishlarini keng targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil qilish va ularga soha mutaxassislarini, shoir, yozuvchi va mahalla faolllarini jalb etish.

Xulq-atvor madaniyatiga doir fazilatlar bo‘yicha targ‘ibot materiallaridan tizimli ravishda foydalanib, yoshlar ongida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usiga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish

Uchinchi bosqich

Vazirlik, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish birlashmalari, nodavlat-notijorat jamoat tashkilotlari va mahallalarda orttirilgan ilg‘or tajribalarni o‘zaro ommalashtirish va ular yuzasidan tajriba almashish.

Targ‘ibot va tashviqot ishlarining ta’sirchan usullarini keng qo‘llash va erishilayotgan yutuqlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borish.

Yoshlarda xulq-odob madaniyatini shakllantirishga doir muntazam ravishda mafkuraviy profilaktika va korrekцiya ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.

Bu bosqich ishlarini boshlang‘ich ta’limdan boshlab tog‘ri yo‘lga qo‘ya olsak o‘quvchilarda yuqorida ko‘rsatilgan odob qoidalarga amal qiladigan va yuksak fazilatli komil shaxslarni yetishtira olamiz.

Aks holda, ya’ni tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor bermaslik va boshlang‘ich sinfdayoq tarbiya nuqsoni bor o‘quvchilar bilan oila va mahallla hamkorligida

invidual ishlarni sayoz olib borish oqibatida keyinroq bu xato kattalashadi va oqibatda hali-hanuzgacha ayrim yoshlarimiz ma’naviyati va ruhiyatidagi G‘arb madaniyati ko‘p hollarda milliy ruhiyatimizdan ustunroq namoyon bo‘layotganini,ayrim yoshlarimiz bilib-bilmay vayronkor (jumladan diniy ekstremizim, terorizm) g‘oyalar ta’siriga duchor bo‘layotganini, yoshlarmizda siyosiy yetuklik yetishmayotganligini, nafaqat mamlakatda, balki jahonda yuz berayotgan o‘zgarishlarga befarq bo‘lish,loqaydlik holatlari mavjudligini, yoshlarimiz orasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlarini oldida vaqt o‘tkazish, mazmunan sayoz bo‘lgan turli xil janrdagi musiqalar eshitish, filmlar tomosha qilish odat tusiga kirib borayotganligini va hokazo holatlarini guvoxi bo‘lyapmiz.Shuning uchun birinchi o‘rinda oilada va ustoz-murabbiylar va eng asosiysi har bir o‘zbek xalqi fuqorosi loqayd, beparvo bo‘lmasligi kerak.

Aytadilar-ki, dushmanlardan qo‘rqma, nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma, nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq, ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi.Birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamdan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelin chiqib aytganda poklik, halol, iymonli kishining muhim fazilati ekanligini boshlang‘ich sinfdanoq bola ongiga tarbiyaviy soat va ma’naviy tadbirlar, turli ma’naviy merosimizni integratsion darslar orqali singdirib borish kerak.

Insonnning yaxshi va yomon odatlari uning pokligi va halolligiga bog‘liq ekanligi tog‘risidagi hadis, ertak, hikoya, masallar orqali tushuntirmoq ham zarur.Boshlang‘ich sinfalarda o‘qitiladigan o‘qish fani mazmunidan joy olgan rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, halollik, axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi, ayniqsa, uning asosiy burchini his qilishga o‘rrgatish huquqiy demokratik davlat va fuqoralik jamiyatini qurishdagi o‘z burchlarini teran anglaydi va shuning bilan birga komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash – odamzodning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezoni ekanligini teran anglaydi.

Qolaversa, boshlang‘ich ta’limda o‘tiladigan fanlar mazmuniga Vatan tuyg‘usi , milliy g‘urur, an’ana va milly qadiryatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirish hamda muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saranjom-sarishtalik,

odobli,mehnatsevar bo‘lish kabi insoniy sifatlarni shakllantirib borish lozim.Bundan tashqari tasviriy san’at, musiqa, odobnoma darslari hamda badiiy asarlar orqali o‘quvchilar qalbida xalqqa, ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg‘usi tarkib toptirishga e’tiborni kuchaytirish kerak.

O‘quvchilar ma’naviy tarbiya berishni uch yo‘nalishda olib borgan ma’qul:

1.O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga ijobiy ta’sirlar.

2. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga salbiy ta’sirlar va ularni bartaraf etish.

3. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga multimediali ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va undan amalyotda keng foydalanishga erishish.

4.Tarbiyaviy soat darslar mavzularni ko‘rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar:

–everistik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar, antomimika, sahna ko‘rinishlari, namunali qiroat bilan o‘qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish.

Shuningdek, multemediyali, integratsiyalshgan usullar ta’lim samaradorligi oshirishda quydagi ta’limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega:

-axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilimlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi.

-”Inson –kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo‘ladi va undan har tomonlama axborotni oladi;

-o‘quvchilarga ta’lim olishda ijodiy munosabat uyg‘otadi va bu o‘z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi;

-o‘quvchilar taffakkurini faollashtiradi;

-o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi;

-turli fikr va mulohazalarga diqqatini jalb qilishni o‘rganadi;

-yangi fikr-mulohazani bildirishga va o‘zgartirishga ruhan tayyor bo‘ladi;

-ta’lim-tarbiyani, odamiylik sifatlarini qunt bilan singdira boriladi;

-keng bilim saviyaga ega bo‘lish, turli bilimlardan xabardor bo‘ladi;

-o‘z ishiga ijodiy yondashadi;

-o‘quvchini invidividuallik qiyofasini shakllantiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish zarur. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko‘plab topsa bo‘ladi. Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi va ularni ta’lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o‘ziga xos innovatsion jarayon bo‘lib, bunda o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston xalq ta’limi vazirligi//Yoshlarda xulq-odob madaniyatini shkllantirish (uslubiy qo‘llanma).

2.Sayidaxmedov. N.K.Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari//Innovatsiya o‘quv jarayoni (tezislar to‘plami)-T:2009-106 b.

3.Yuldashev U.Y., Saidova M. ta’limda axborot texnologiyalarni muhiti va o‘quv muassasalarining yordamchi o‘quv bog;lari // Pedagogik mahorat.-Buxoro.2003№4-82 b.

4.Boyboyev X.va boshqalar.Milliy istiqilol mafkurasi va taraqqiyot.-T.:”Ijod dunyosi” nashriyoti uyi.2002.

5.http://www.bilimdon.uz.

ESTETIK TARBIYA -O‘QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL TARBIYALASHNING MUHIM OMILI

Yusupova Mohinur

“Universoty pf economics and pedagogy” NOTM

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada estetik tarbiya o‘quvchilar dunyoqarashida

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Estetik tarbiya, san’at, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabati, turmushdagi go‘zallik, idrok qilish, tushunish.

Estetik tarbiya keng tushuncha bo‘lib, voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, ijtimoiy va mehnat munosabatidagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish, tushunishga o‘rgatish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotga go‘zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Estetik tarbiya o‘z navbatida o‘quvchilarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liqdir. San’at va hayot go‘zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayoli va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to‘g‘ri tushunish, oliyjanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilarda go‘zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, qayg‘usini birga barham ko‘rish kabi xususiyatlar shakllanib boradi. Estetik rivojlanish shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Estetik tarbiya — ancha keng, faqat san’at vositasidagina emas, balki qayot, mehnat, kishilarning o‘zaro ta’siri vositasida go‘zallikni, anglashni tarbiyalaydi. San’atda esa estetikaning turli-tuman masalalari namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, kishining fikr- irodasi madh etiladi, uning tarbiyalovchi roli ham shunda namoyon bo‘ladi.

Estetik tarbiya xam umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, xis-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti- harakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘yadi.

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh va individual imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. O‘quvchilarni hayotdagi, voqelikdagi, tabiat va turmushdagi go‘zallikni tushunish, ko‘ra bilishga o‘rgatish. Ularda estetik his-tuyg‘u, did, estetik munosabatni tarbiyalash.

2. O‘quvchilarni badiiy ijodning turli janrlarida yaratilgan san’at Asarlarini tushunish, sevishga o‘rgatish, ularda estetik ong qirralarini shakllantirish.

3. O‘quvchilarni san’atning turli sohalariga qiziqishi, izlanishini tarkib toptirish.

Shuningdek, o‘quvchilarni borliqni va uning go‘zalligini tahlil etib borishga o‘rgatish lozim: “Seni ko‘ylagingga qaysi rangdagi tufli mos tushadi, deb o‘ylaysan?”, “Uyimiz devoriga ko‘proq qaysi rangdagi parda to‘g‘ri tushadi: ko‘kmi yoki yashil?”. Mazkur xolatda bolaning aynan javobining o‘zi muhim emas, asosiysi uning e’tiborini rangning mos kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go‘zallik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani xosil qilishga erishishdir. Estetik tarbiyaning eng muhim omili - tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo‘lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan go‘zallik manbai. U estetik xis-tuyg‘u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o‘zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi

Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri qo‘g‘irchoq teatridir. Qo‘g‘irchoq teatri dunyoning ko‘plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma’lum. U jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish - bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Tarbiyaviy faoliyatda ushbu vositalar qo‘llanilganda ular o‘quvchining estetik voqelikka munosabatini rivojlantirshga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday vositalari estetik tarbiya vositalari deb ataladi. Estetik tarbiya omillari va vositalari o‘rtasidagi chegara nisbiy hamda shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o‘tashi, aksincha, bo‘lishi xam mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalar asosida o‘quvchilarda estetik tarbiya berishning metodlari ishlab chiqiladi:

1. Ongni fikrlash qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlar.

2. Odatlantirish va mashq qildirish metodi (takrorlash, o‘rgatish, musobaqalar uyushtirish, ibrat, namuna, o‘git).

3. Rag‘batlantirish va jazolash metodi (ma’qullash, ko‘ngil ko‘tarish, namuna qilish, qatorning boshida turg‘azish, rahmatnoma e’lon qilish, ogohlantirish, tushuntirish, ota-onasiga murojaat etish).

Bolalar bog‘chasidagi estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- ijtimoiy muhit va turmush estetikasi;
- san’at asarlari;
- bolalarning ijodiy faoliyatlari;
- bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar;
- ma’lum maqsadga qaratilgan va reja asosida amalga oshiriladigan tizimli ta’lim.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya o‘quvchilarni har tomonlama barkamol tarbiyalashning muhim omili bo‘lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambar-chas bog‘langan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. “Pedagogik aksiologiya” T:, 201351 bet.
2. Skatkin, M. N. Metodologiya i metodika pedagogicheskix issledovaniy /M. N.Skatkin. - M. : Pedagogika,1986.–152s.–S.54.
3. SlasteninV.A.IsaevI.F.ShiyanovYe.N.Общаyapedagogika.–M.:Vlados,2002.–256s.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA AXLOQIY MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Bozorova Z

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: bo‘lajak tarbiyachilarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, axloqiy munosabat, individual va ijtimoiy ong, qadriyatlar.

Bo‘lajak tarbiyachilarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni rivojlantirish texnologiyasining pedagogik asoslarini o‘rganishda avvalo aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo'nalishlarni aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta'lim sifatida qaraydi. Alohida shaxs yoki jamiyat yaxlitlikda qadriyatlarni uzatuvchisi sifatida qaraladi, nihoyasi esa, insonning xulq-atvori va xatti-harakatini rag'batlaydi. Xulq-atvor va xatti-harakatlarning tavsifi shaxsning atrof-muhitga o'z-o'ziga munosabati haqida guvohlik beradi. Falsafadan farqli ravishda pedagogik aksiologiya «qadriyat» va ularni aksiologik ong, munosabat, xulq-atvor deb nomlash orqali «aksiologik» tushunchalarga alohida-alohida qaraydi. Uni tashkil etish va boshqarishga qadriyatli yondashuvning zaruriyat ekanligidan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim maqsadlarining o'zgarishi pedagogik aksiologiyaning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotining tarixiy rivojini tahlil etish;
- uning aksiologik yo'nalganligini aks ettiruvchi ta'limning aksiologik asoslarini aniqlash;
- milliy ta'lim mazmuni va rivojlanish strategiyasini aniqlashga doir aksiologik yondashuvni ishlab chiqish.

Aksiologik yondashuv –pedagogik voqelikni o'rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga

umumiy bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, valeologik va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi. Pedagogik hodisalarga ijtimoiy-sotsiologik yondashilgandavoqea va jarayonlar orasidagi o'zaro bog'liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog'lanishining ifodasi bo'lgan uzluksizlikning ahamiyati ortadi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ilmiy va amaliy natija beradi.Bunda pedagogik qadriyatlar tartibsiz namoyon bo'ladigan vabir-biri bilan bog'lanmagan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyekt va boshqalar bilan bog'langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlaming natijalariga tayanish yaxshi natija beradi. Ammo qadriyatlarni o'rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi. Balki reallik, uning namoyon bo'lish shakllari, voqea-hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funktsiyalari, o'ziga xos tashqi ta'siri anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarning ilmiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo'lish shakllari haqida to'g'ri ma'lumotlar olish mumkin. Bunda narsa, voqea-hodisaIar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadrning ahamiyati asosiy o'rin tutadi. Bunda qadr va baho bir-biriga mos kelmaydigan, narsa yoki obyektning qadri uning iqtisodiy qiymatidan bir necha marta salmoqliroq bo'lishi mumkin bo'lgan hollar ko'p uchraydi. Masalaning bu jihatini o'rganish axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik,

madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillari va ma'naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. Bunda, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Demak, olamni o'rganish va voqelikning qonuniyatlarini tavsiflashda gnoseologik, sotsiologik va aksiologik yondashuvlarning uyg'unligi, zarur bo'lganda ulardan foydalanishda kompleks munosabat lozim. Xususan, talabalarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni rivojlantirish, ularda odob-axloq me’yorlarini belgilab beruvchi mezonlarni aniqlashda qadiryatlarga asoslangan ta’lim alohida o‘rin egallaydi.

Aksiologik munosabat- shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasi. Hamda aksiologik munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan, o'zi, o'zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalaring haqiqiy qadrini anglayveradi. Bu foniy dunyoning o'tkinchiligi, umr mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o'rgana oradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi. Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatiam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual hamda ijtimoiy namoyon bo'lish darajalarining alohida, xususiy va umumiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Aksiologik baholash – **v**oqelikka, undagi narsa va hodisalarga isbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi sosida shakllangan hukm va xulosalar aksiologik bahoda aks etadi. Aksiologik baho iqtisodiy qiymatdan farq qiladi, unda qadrlash tuyg'usi asosiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan

olganda, aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning subyektma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi. Ikkinchi tomondan esa, aksiologik baholashni narsa va voqealarning iqtisodiy qiymati bilan mutlaqo aloqasi yo'q, deb bo'lmaydi. Aslida, voqelikni namoyon bo'lish shakllarining iqtisodiy qiymatini aniqlash, ularning ijtimoiy zarurligini, keraklilik darajasini belgilash, ularga axloqiy-estetik yondashish va aksiologik baholash bir-biri bilan uzviy bog'langan hodisalardir. Pedagogik voqelikni aksiologik baholash istalgan ijtimoiy voqelikni baholashdan o'ziga xos jihati bilan rarq qiladi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, pedagogika nazariyasi va amaliyotining so'nggi yutuqlari kabilar e'tiborga olinadi, voqelikni aholash va unga nisbatan munosabatni tahlil qilganda ta'lim oluvchi shaxsiga qadriyat nuqtai nazaridan yondashuv ustuvor bo'ladi. Muayyan pedagogik hodisaga aksiologik yondashuv asosida baho berilganida uning muayyan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati, qadr-qimmati nuqtai nazaridan ajralib turishi, o'ziga xosligiga e'tibor beriladi. Bunda mazkur davming yutuqlari, pedagogik fikrlar taraqqiyotidagi hissasi, ulaming keyingi davrlar uchun qay darajada qadrli bo'lgani hisobga olinadi. Bu ayniqsa, pedagogik fikrlar, nazariya va yondashuvlarga aksiologik baho berganda yaqqol ko'rinadi. Pedagogik jarayonni aksiologik baholashda nafaqat o'quvchining iqtidori, qobiliyati, iste'dodi, uning bilish imkoniyatlari, balki “noyob hodisa (fenomen)” sifatida qarash ustuvor bo'ladi. Bunda quyidagilar e'tirof etiladi:

- shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi;
- shaxs - qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi;
- har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli, ko'plab ta'lim oluvchilar iqtidorli;
- shaxsning muhim sifatlari sifatida yuksak'axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi;

- pedagogik muhabbat, ta'lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash;
- ta'lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash;
- hamkorlik, muloqot mahorati;
- to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish;
- ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;
- ta'lim oluvchi shaxsiga ta'lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat.

Yoshlik – jo‘shqin harakat, intilish, bunyodkorlikka va ertangi kun istiqboliga zamin hozirlaydigan ulkan imkoniyatlar davri. Ana shu imkoniyat qachon va qanday ko‘rinishda voqelikka aylanishi pedagog shaxsining kasbiy tarbiyaviy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Maqsadlarni aniq belgilab, unga erishish yo‘lida “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish, har bir malakali mutaxassis oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

4. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. “Pedagogik aksiologiya” T:, 201351 bet.
5. Skatkin, M. N. Metodologiya i metodika pedagogicheskix issledovaniy /M. N.Skatkin. - M. : Pedagogika,1986.–152s.–S.54.
6. SlasteninV.A.IsaevI.F.ShiyanovYe.N.Общayapedagogika.–M.:Vlados,2002.–256s.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA INDIKATORLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARINING AMALIY SHAKL, USUL VA VOSITALARI.

Satimboyeva Xurshida Anvarjon qizi

Universitiy of economis an pedagogy NOTM


Pedagogika kafedrasi assistent o‘qituvchisi


Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida epistmologik yonashuv asosida axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: epistmologik yonashuv, axloqiy tasavvur, “Round-robin texnikasi”, “5soat metodikasi”, "Kodlangan ma'lumotlar" metodi, Tushuntirish, Izohlash, Ishontirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, talabalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig'indisidir. Biz oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya to‘g‘risida qarashlarini epistemologik yondashuv asosida takomillashtirishning amaliy texnologiyalariga to‘xtalishga qaror qildik.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin (1-rasm):





Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari. Ma’naviy-axloqiy mavzudagi hikoya - axloqiy mazmundagi voqea-hodisalarni yorqin emotsional bayon etilishidir. Hikoya talabalarning his-tuyg‘ulariga ta’sir etib, ularga axloqiy me’yor va qoidalarni tushunish hamda o‘zlashtirishga yordam beradi. Yaxshi bayon tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalarning mohiyatini ochib berishgagina xizmat qilib qolmay, balki talabalarda madaniy xulq-atvor qoidalariga ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ma’naviy-axloqiy mazmundagi hikoya bir nechta vazifani bajaradi: bilimlar manbai bo‘lib xizmat qiladi, talabaning xulq-atvor tajribasini kattalarniki asosida boyitadi. Ushbu metodning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

talabalarda ijobiy axloqiy hislarni uyg‘ota olish, hikoya qahramonlariga hamdardlik bildirish – yutug‘idan quvonib, muvafaqqiyatsizligiga birgalashib achinish;

talabalarga tushunarsiz bo‘lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

ma’naviy-axloqiy mavzulardagi hikoyalardan amaliy mashg‘ulotlarda, talabalarning o‘z hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan joylarda ham foydalanish.

Ma’naviy-axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur: Hikoya talabaning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Hikoyaning qisqa, emotsional, tushunarli bo‘lishi maqsadga muvofiq.Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo‘rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta’minlaydi.Ma’naviy-axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.Hikoyadan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Tushuntirish metodi esa, talabalarga yangi axloqiy tushuncha, me’yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so‘zi va namunasiga asoslaniladi. Masalan, ro‘paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to‘xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab “Assalomu alaykum” deyish, keyin yo‘lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko‘rsatish tabiiy bo‘lmog‘i lozim.

Ma’naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar orqali talabalar axloq me’yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me’yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida talabalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida talabalar o‘z fikrlarmi erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me’yorlari va qoidalari asosida bajarishga urinadilar.

Izohlash - talabalarga og‘zaki-emotsional ta’sir ko‘rsatish metodi. Milliy tarbiyamizda mazkur metod «ta’birlamoq» tarzida ham ishlatiladi. Ta’birlamoq - talabada, talabalar guruhida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatlamoqdir.

Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda izohlashning muhim jihati bir guruh yoki alohida talabaga ta’sir etishga yo‘nalganligidadir. Mazkur metodni qo‘llashda talabalarning yosh va shaxsiy sifatlariga asoslaniladi.

Talabalarni axloqiy tarbiyalashda nasihat qilish muhim o‘rin tutadi.

Nasihat - sokin, xayrixoh vaziyatda talabani yaxshi yo‘lga solish, ta’lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur talabalar guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali talaba psixikasiga tizimli ta’sir ko‘rsatilib, unda ma’lum bir faoliyat motivlari va ustanovkalar hosil qilinadi. Shuningdek, talabalarning axloqiy ongini shakllantirishda ko‘rsatma berishdan ham foydalaniladi. Ko‘rsatmoq talabaga o‘rnak yoki ibrat olishlari shuningdek ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e’tiborlarini jalb qilishdir.

Ishontirish - talabalarni axloqiy tarbiyalashda kattayordam beradi. Ishontirish o‘z navbatida namuna ko‘rsatishni talab etadi. Namuna talabaning birinchi signal tizimiga faol ta’sir ko‘rsatib, harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o‘z navbatida tarbiyalanuvchida axloqiy ong, his-tuyg‘u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shaklantirish metodlari. Mashq - ma’naviy-axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta’sirli metodidir. Unga qoidalarni mashq qildirish - foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o‘rgatilgan tajribani yangilash, nazorat - o‘rgatilgan odatning to‘g‘ri va samarali ekanligini tekshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, talabani faollashtiruvchi bir qancha madaniyat turlarini egallashni mashq qildirish bunga misol bo‘la oladi. Mashq qildirish natijasida talabada sjakllangan malaka va odatlar takomillashadi.

Mashq metodining samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olishni talab qiladi: 1) mashqlar tizimi; 2) ularning mazmuni; 3) mashqning

tushunarli bo‘lishi; 4) hajmi; 5) takrorlash tezligi; 6) nazorat va tuzatish; 7) talabalarning individual o‘ziga xosliklari; 8) mashqni bajarish joyi va vaqti; 9) individual, guruhli va jamoaviy mashq shakllarini uyg‘unlashtirish; 10) motivatsiya hosil qilish va rag‘batlantirish. Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur’ati hamda kutiladigan natija o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko‘p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

Talab - tarbiyalash maqsadida talabadan biror narsani qat’iyat bilan so‘rash, talabaning ma’lum bir faoliyatini rag‘batlaydi yoki bartaraf etishga xizmat qiladi. Taqdim etish shakliga ko‘ra bevosita va bilvosita talab farqlanadi. Bevosita talab uchun qat’iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo‘lishi xos bo‘lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg'unligi aks etadi. Bilvosita talab (maslahat berish, yalinish, ta’kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda talabada qayg‘urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi. Maslahat berish orqali talabada ma’lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Talaba qachonki bildirilayotgan fikrni o‘zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi. **Ta’kidlash** - talabalar bilan o‘tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlashdir. **Qaytarish** - talaba jahli chiqib, qizishib biror korhol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko‘rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo‘ya ishdan, xatti-harakatdan o‘zini tutishga undash, tiyish. **O‘rgatish** - talabaga biror ish-harakat (masalan, turli joy va vaziyatlarda o‘zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo‘l-yo‘rug‘ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish. Mazkur metodni to‘g‘ri qo‘llash qoidalariga quyidagilar kiradi:O‘qituvchi va talabalar tarbiya maqsadiga doir aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Ayniqsa, talaba o‘rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib yetmasa, o‘qituvchining harakati zoe ketadi.

Ish-harakatni bajarishga o‘rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: “Tengdoshlaring bilan hiroyli muomala o‘rnatssang, ular seni yaxshi ko‘rishadi”, “Seni chiroyli fikrlaydi deyishlari uchun ko‘proq kitob o‘qishing kerak” va boshqalar.Talabalarga o‘rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma’lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab talabani harakatlarni to‘g‘ri bajarishi haqidagi qayg‘urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur.

Talabaga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko‘rsatib berish lozim. Masalan, toza va iflos poyabzal, silliq va g‘ijimlangan kiyimni taqqoslab ko‘rsatish orqali talabani bunday holatlami bartaraf etishga o‘rgatib borish mumkin.O‘rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko‘ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida bo‘lmasligi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan uyg‘unlikda olib borilishi lozim. O‘rgatish o‘yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O‘yinda talaba belgilangan qoidalarni boshqalarning majburlashisiz ham o‘z xohishiga ko‘ra bajaradi.

Muammoli vaziyat o‘zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqinturadi, ammo uning o‘ziga xos tomoni talabada faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, masalan birorta hikoya ma’lum bir yerida to‘xtatiladi. O‘qituvchi talabalarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Talabalarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Talabalariga avval o‘qituvchining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

Yoshlarni ma’naviy boy, jismoniy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab,ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash lozim. O‘qituvchilarning umumiy madaniyat va tarbiyalanganlik darajasini oshirish uchun optimal pedagogik-psixologik vaziyatlarni tashkil qilish,fanlararo integratsiyalashuv

jarayonini ta’minlashda taqdim qilinayotgan o‘quv materiallarning sifat ko‘rsatkichini oshirish lozim.

Bundan tashqari, talabalarning tarbiyalanganlik darajasini o‘stirish uchunularda: axloqiy kategoriyalarni anglash, idrok qilish va ijtimoiy hayotda amal qilish tarbiya maqsadining kafolatlagan natijasidir. Bu esa o‘z navbatida,mustaqilligimizni qadrlay oladigan,o‘zligini,jamiyat,davlat va oila oldidagi mas’uliyatni anglaydigan yetuk shaxsni shakllantirish kabi vazifalar bilan bog'liq jarayondir. Qanday odamni tarbiya qilish darkor,tarbiya natijasida inson qanday bo‘lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarar.

Shuningdek, biz olib borgan pedagogik faoliyatimiz davomida oliy ta’lim talabalarida ma’naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda quyidagi bir necha interfaol matodlardan foydalandik. Ushbu metodlar talabalardagi ma’naviy tarbiya mezonlarini aniqlashimizda yaqindan yordam berdi

“Round-robin texnikasi”

Texnika maqsadi: yozma bajarilgan ishni barcha o‘quvchilar bir-biri bilan solishtirishi va solishtirish jarayonida o‘z xatolarini topib, bir-birini to‘g'rilashi uchun foydalaniladi.

Guruh 4 yoki 5 ishtirokchidan iborat bo‘lgan kichik guruhlarga ajratiladi.

 mavzu yuzasidan berilgan topshiriqni har bir talaba o‘z daftarida bajarishi so‘raladi, vaqt belgilanadi.

 Vaqt tugagach, navbat asosida har bir guruhdan bittadan ishtirokchi o‘z guruhi oldida turib, o‘zi bajargan topshiriqni o‘qib berishi so‘raladi.

 Har bir ishtirokchi o‘z fikrini aytib bo‘lganidan so‘ng, boshqa talabalardan shu ishtirokchida xatolar bor yoki yo‘qligi so‘raladi.

 Yana, navbatdagi talaba o‘z daftarida yozilgan topshiriqni o‘zining kichik guruhiga o‘qib beradi, va uning xatolari ham kichik guruhda muhokama qilinadi.

Bu paytda o‘qituvchining vazifasi talabalarni kuzatish va ular berayotgan fikrlarni zarurat bo‘lsagina to‘ldirish hisoblanadi.

“5soat metodikasi”

Dunyoning eng muvaffaqiyatli odamlari kuniga hech bo‘lmaganda bir soatni o‘qish va o‘rganishga sarflaydi. Bunda "5 soat qoidasi" degan formula ishlatadiganlar ham bor.

Bu qoidaga ko‘ra, kuniga bir soatni, haftasiga esa kamida 5 soatni nimadir yangi narsa o‘rganib, rivojlanishga sarflashi lozim. Bir kun uchun bir soat kam ko‘rinishi mumkin, lekin har hafta 5 soatni doimiy o‘qish va o‘rganishga sarflash orqali individual tarzda ko‘p narsani o‘zlashtirib olish mumkin.

Bunda 3 ta bosqich bor:

o‘qish;

hazm qilish

amalda qo‘llab ko‘rish

"KODLANGAN MA'LUMOTLAR" METODI

Bu metodda oddiygina qutidan foydalanamiz. 2ta jamoa uchun 2ta quti. Yoki istalgan ko‘rinishda qo‘llasak bo‘ladi. Quti ichida yangi mavzuga doir ma'lumotlar bo‘ladi. Quti "kodlangan" bo‘ladi. Talabalarga yangi mavzuni tushuntirmasdan, yangi mavzuga oid test beriladi. Bu testni yechish uchun talabalar kodlangan qutini ochib, ma'lumotlarga ega bo‘lishlari kerak. Kodni ochish uchun esa o‘tilgan mavzu yuzasidan doskaga yopishtirilgan raqamli ma'lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini

topishlari kerak. To‘g‘ri ma'lumotlar qatoriga yopishtirilgan raqamlarni quti ustiga yozish orqali qutini "ochish" mumkin

Metodning afzalliklari:

✓Uyga vazifa so‘rab olinadi.

✓O‘tilgan mavzu takrorlanadi.

✓Yangi mavzuni mustaqil o‘zlashtirishadi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

✓Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi ortadi.

✓Ziyraklik salohiyatlari yuksaladi.

✓Guruhda super atmosfera hosil qiladi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.

3. Ismoilova Z.Q. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). Ped. fan. dokt. …dis. avtoref. – Toshkent.: O‘zPFITI, 2006. – 46 b.

4. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent 2017 yil 164-bet

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI

“University of economics and pedagogy” NOTM

Pedagogika kafedrasi

O‘qituvchisi: Shirinoy Mamasoliyeva Sirojiddin qizi

Annotatsiya: Maqolada qobilyatli talabalarning ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik va psixologik bilimlarning axamiyati, ta’lim-tarbiyaning sifatini oshirishda axamiyatli bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, qobilyat, talant, istedod .

Inson – murakkab dinamik tuzilishga egadir. U butun umri davomida o‘zgaradi, ammo u bilan yoshlik davrida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqiqatda ahamiyatli. K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek: “Biz inson hayotidagi 16 yoshdan 22-23 yoshgacha bo‘lgan davrni eng hal qiluvchi deb hisoblaymiz. Bunda aynan alohida tasavvurlar izchilligining davri yakunlanadi va agar ularning barchasi bo‘lmasa, unda insonning fikrlash tarzi va uning xarakteridagi muayyan yo‘nalishning ustuvorligini hosil qilish uchun ahamiyatli qismi yetarlicha keng bir tarmoqqa guruhlanadi”. Shuning uchun ham pedagogning roli bu qadar muhim bo‘lib, uning vazifasi bu davrni talabalarda mukamallikka intilishni uyg‘otish uchun foydalanishdan iborat bo‘ladi.

Shaxsni takomillashtirish – insoniyat ma’naviy hayotining azaliy muammosidir. Bu muammo ustida barcha davrlarning atoqli namoyondalari fikrlaganlar, ular orasida Sokrat, Platon, Aristotel, Mark Avreliy, J.J.Russo, Gelvesiy, Didro, G.Gyote, F.Bekon, I.Kant, Gegel, A.Kamyu, Sartr, Xaydegger, N.A.Berdyayev, F.M.Dostoyevskiy, V.V.Zenkovskiy, I.A.Ilin, V.O.Klyuchevskiy, N.I.Lobachevskiy, M.V.Lomonosov, N.O.Losskiy, B.S.Solovev, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, P.A.Florenskiy, S.L.Frank va boshqa buyuk mutafakkirlar, pedagoglardir.

Shaxsni takomillashirish atamasi pedagogikadagi tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi asosiy tushunchalar bilan bevosita o‘zaro bog‘liqlikda yotadi. Uzoq vaqt davomida mazkur ilmiy atamalar faqatgina maktab va avvalo maktab yoshidagi o‘quvchilarga taalluqli muammolarga aloqador ravishda foydalanildi. Ijtimoiy-psixologik va yoshga oid kategoriya sifatida talabalik muammosi B.G.Ananevning

psixologik maktabi tomonidan qo‘yilgan. Ammo boshqa mualliflarning ishlarida ham mazkur muammo bo‘yicha kuzatishlarning katta empirik materiallari, eksperimental va nazariy umumlashtirishlarning natijalari to‘plangandir.

Bu mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish sohasidagi muhim qadam bo‘ldi, chunki jamiyatning alohida kategoriyasi sifatida o‘zining maxsus psixofiziologik ma’lumotlari bilan talabalikning yuzaga kelgan dastlabki tavsifi talabalikning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini qo‘zg‘atish va rag‘batlantirishning samarali metodlari, usullarini izlash va ratsional foydalanish zaruratini ko‘rish imkonini berdi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan talabalik yuqori ta’limiy daraja, madaniyat mahsulotlaridan faolroq foydalanish, bilishga oid motivatsiyaning yuqoriroq darajasi bilan farqlanadi. Shu bilan birga – ko‘proq ijtimoiy faollik, yetarlicha uyg‘un ijtimoiy va intellektual yetuklikning umumiyligi bilan tavsiflanuvchi birlikdir. Bu xususiyatni inobatga olish o‘qituvchining har bir talabaga – pedagogik muloqot bo‘yicha hamkorga, o‘qituvchi uchun qiziqarli shaxsga hurmat munosabati asosida yotishi kerak. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvga ko‘ra talabaga o‘qitishning passiv obyekti sifatida emas, balki pedagogik muloqotning faol subyekti sifatida qaraladi. Talabalikka psixofiziologik tavsif berib, yoshlikning – 17 yoshdan 25 yoshgacha erta yetuklikning alohida davri ekanligini ta’kidlash lozim. Mazkur davr, o‘z navbatida V.Selivanovning fikriga ko‘ra, ikki davrga ajratiladi: 17 yoshdan 19 yoshgacha (odatda, 1- va 2- bosqich) hamda 19, 20 yoshdan 25 yoshgacha (yuqori bosqich talabalari).

«Ko‘pgina tadqiqotchilar insonning rivojlanishi jarayonini bu yoshda funksional ishlash qobiliyati va samaradorligining uzluksiz o‘sib borishi, biror-bir pasayish va funksiyalarning barqarorsiz progressiv harakatlanish dinamikasi sifatida tavsiflaydilar» .

Bu vaqtda egallanadigan bilimlarni tartibga solish, to‘plash, saqlash, mantiqiy qayta tasniflashtirish, ularni amaliy faoliyatga ko‘chirish jarayoni jadal sodir bo‘ladi.

B.G.Ananevning psixologik maktabining ma’lumotlariga ko‘ra, intellektning tuzilmasi butun yosh davrida rivojlanish jarayonida emas, balki talabalik yosh davrida ham dinamik ravishda o‘zgaradi. 18-21 yoshda turli xil psixik funksiyalarning korrelyatsion guruhi (xotira, tafakkur, idrok, diqqat) aloqalar zanjiri ko‘rinishida xizmat qiladi, 22-25 yoshda esa ikki – mnemologik (xotira – tafakkurning yagona tuzilishi) va diqqat omili markazlar atrofida guruhlanadigan murakkab tarmoqda kompleks hosil bo‘ladi .

Oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim olish intellektning tuzilmaviy hosil bo‘lishiga ko‘maklashib, shu bilan bir vaqtda uning ishlashining xususiyatlariga asoslanadi. Shunday qilib, talabalik yillarida diqqat omilining roli o‘sishi ko‘rsatilgan

(18-21 yoshda u korrelyatsion aloqalarning soni, kuchi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinni, 20-25 yoshda esa ikkinchi o‘rinni egallaydi). 18-21 yosh davri xotira hajmining eng kichik hajmi bilan, uning konsentratsiyasi darajasining oshishi bilan tavsiflanadi. 22 yoshdan boshlab diqqatning barqarorligining kuchayishi oshadi. Bu o‘quv jarayonida talabalarning diqqatlarini tashkil etish ustida maqsadga muvofiq ishlashning muhimligi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Tafakkur va xotiraning rivojlanishi yaqin va bilvosita bog‘liqdir. 19-24 yoshda xotira funksiyalari mantiqiylaridan ilgarilaydi, 20, 23, 25 yoshda esa aksincha holat kuzatiladi. 22 yoshda va 26 yoshda ikkala funksiyalarining sezilarli pasayishi kuzatiladi. 28-29 yosh davri fikrlash funksiyalarining nisbatan barqarorlashishi bilan tavsiflanadi.

B.G.Ananevning psixologik maktabi tadqiqotchilari tomonidan olingan ma’lumotlar talabalik yosh davri – bu intellektning murakkab tasniflash vaqti bo‘lib, u juda individual va variativligidan guvohlik beradi. Intellektning yoshlikda rivojlanishi esa, A.Yu.Kozo‘reva ta’kidlaganidek, ijodiy qobiliyatlar bilan bog‘liqdir. Yuqorida bayon etilgandan oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining o‘quv faoliyatining subyekti sifatida talabani shakllantirishdagi mas’uliyatli roli aniq namoyon bo‘ladi.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida yopiq imtiyozli jamoani tashkil etgan ruhoniylar o‘qituvchilar bo‘lganlar. Qadimgi Gretsiya davlatlarida o‘qituvchilar etib eng tajribali va hurmatga ega fuqarolar, faylasuflar va sofistlar tayinlanganlar. Suqrot o‘qituvchining ishini farzandni dunyoga keltirish san’ati bilan qiyoslagan, chunki tarbiyalanuvchi o‘qituvchiga o‘zining ikkinchi tug‘ilganligi bilan qarzdor. Rim pedagogi Kvintilian yuqori ma’lumotli inson va bolalarni sevadigan, ularni o‘rganadigan inson bo‘lishi mumkin deb yozgan. O‘qituvchi bosiq, odobli bo‘lishi, maqtov va jazolashning me’yorini bilishi kerak bo‘lgan. O‘rta asrlardan o‘qituvchilarni universitetlar tayyorlay boshladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga bolalarni maktabda o‘qitishning muvaffaqiyati qat’iylik va dangasa hamda quloqsizlarni jazolashni bilishga bog‘liqligi to‘g‘risidagi fikrni singdirganlar. Universitetni bitirishda o‘qituvchiga novdani taqdim etishgan.

Uyg‘onish davrida yaxshi o‘qituvchining namunasi insonparvar pedagog, donishmand ustozga aylandi. Vittorino da Feltrening (1378-1446) **“Quvonch uyi”**da shunday bo‘lgan. Hayotdan ajralgan va jismoniy jazolash bilan tarbiyalovchi o‘qituvchi-sxolastlarga satiralar – insonparvar yozuvchilarning asarlaridagi takrorlanuvchi motiv bo‘lgan.

O‘sha davrdagi ideal o‘qituvchining yorqin obrazi buyuk pedagog Ya.A.Komenskiyning ishlarida ifodalangan. U o‘qituvchi lavozimini “quyosh ostidagi boshqa hech bir kasbda bo‘lmaganidek eng yaxshi” deb hisoblagan. Bunda

o‘qituvchi tartib-intizomni “qat’iy saqlashi, ammo kulgi va nafrat emas, balki qo‘rquv va hurmat uyg‘otishi uchun hazilomus yoki g‘azabli bo‘lmasligi kerak. O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarni yaxshi namuna bilan jalb etishdan iborat».

XVIII asr ma’rifatparvarlari o‘qituvchining ideal obraziga o‘z tuzatishlarini kiritganlar. J.J.Russo **“Emil yoki tarbiya haqida”** nomli romanida o‘zining obrazi bo‘yicha o‘quvchining qiyofasini tasvirlayotgan ideal tarbiyachini ifodalaydi. Russoning fikriga ko‘ra, o‘qituvchi insoniy kamchiliklardan holi bo‘lishi va axloqi jihatdan jamiyatning barcha a’zolaridan yuqori turishi kerak bo‘lgan.

Shveytsariyalik pedagog I.G.Pestalotssi o‘z g‘oyalarini amaliy faoliyatda amalga oshirib, tarbiyada tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning mehrlari va hamjihatliliklari ustunlik qilishi kerakligini isbotlashga intilgan. Ortiqcha cheklashlar va bolaga zo‘ravonlik bilan avtoritar tuzumga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. O‘qituvchining zaruriy sifatlari orasida u topqirlik, quvnoqlik, kamtarinlik, axloqiy poklikni ta’kidlagan. Insonni shakllantirish ishiga “tarbiyasidan hunarmandlarni” kiritish mumkin emas, balki o‘qituvchilarni maxsus muassasalarda tayyorlash lozim.

O‘qituvchiga talablar nemis pedagogi A.Disterveg ishlarida ham bayon etilgan. Uning fikricha o‘qituvchi o‘z fanini mukammal bilishi, kasbini, bolalarni sevishi, mehribon, serg‘ayrat, irodali, qat’iy bo‘lishi, o‘z ustida doimiy ishlashi lozim. O‘qituvchi uchun qat’iylik, talabchanlik, adolatlilik muhimdir. U fuqaro bo‘lishga majbur, ilg‘or g‘oyalarga ega, ularni himoyalay olishni bilishi kerak.

Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy o‘qituvchi shaxsiga katta ahamiyat qaratgan: «O‘qituvchi shaxsining yosh qalbga ta’siri shunday tarbiyaviy kuchni tashkil etadiki, uni na darsliklar, na ma’naviy tushunchalar, na jazolash va rag‘batlantirish tizimi bilan almashtirib bo‘lmaydi» .

O‘qituvchi shaxsiga, uning axloqiy qiyofasiga qarashlarning rivojlanishidagi sifatli yangi bosqich A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy nomlari bilan bog‘liq. Insonni ijodiy takomillashtirishning beqiyos imkoniyatlariga, ya’ni shaxs sifatida o‘qituvchiga N.A.Berdyayev, B.S.Solovev, P.A.Florenskiylarning ishlari bag‘ishlangan. Shaxsga kasbiy-etik qarashlarni kelgusi ishlab chiqilishida A.S.Makarenko, keyinchalik V.A.Suxomlinskiy tomonidan o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga talablar aniqlashtirilgan.

A.S.Makarenko tarbiyachining tarbiyalanuvchilar jamoasi bilan hamkorligi g‘oyasini asoslab bergan, bunda o‘qituvchining maqsadga intiluvchanlik, pedagogik axloq, talabchanlik, shaxsga hurmat, do‘stona o‘zaro yordam, o‘zaro ishonch va mas’uliyat kabi shaxs sifatlari zarur deb hisoblagan.

V.A.Suxomlinskiy ijtimoiy ta’lim muassasasining tarbiyaviy faoliyatining muvaffaqiyati bolalar, tarbiyalanuvchilarga o‘z yuragini beruvchi, bolalarni sevuvchi va har bir boladan haqiqiy insonni, o‘z mamlakatining fuqarosini tarbiyalash mumkin deb ishonuvchi o‘qituvchiga bog‘liq deb hisoblagan. O‘qituvchi o‘z tarbiyalanuvchilarini jamoaviy o‘z-o‘zini tarbiyalash tizimiga jalb qilishni bilishi, ularni o‘z-o‘zlarini tarbiyalashga o‘rgatishi kerak – Suxomlinskiyning fikriga ko‘ra, maktab hayotining markaziy muammolaridan biri shundan iboratdir.

Pedagogik ta’lim nazariyasi rivojlanishining zamonaviy bosqichi o‘qituvchi muammosi bo‘yicha monografik tadqiqotlarning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Unda shaxs psixologiyasi va o‘qituvchini tayyorlashga bag‘ishlangan qator yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan (F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shyerbakov).

O‘qituvchi amalga oshiradigan tarbiyaning mazmuni turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda turlichadir. Ammo o‘qituvchi doim jamiyatning ma’naviy rivojlanishi tarixida muhim bo‘g‘in bo‘lgan. O‘qituvchining faoliyati – eng murkkab va qiyindir. O‘qituvchining mehnatiga bola bilimlar olamiga, mehnat va hayot olamiga qanday kirib borishi ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat o‘rgatish va tarbiyalash, balki ko‘pincha qayta tarbiyalash, oilada, bolaning atrofidagi muhitda orttirilgan kamchiliklarni tuzatishga ham to‘g‘ri keladi. Bunga bizni qamrab olgan turli xil axborotlar oqimi tufayli bolalar yildan-yilga yanada zakovatli, qiziquvchan bo‘lib borayotganliklari, ularning madaniy talablari ortib borayotganligini qo‘shimcha qilish lozim. Bularning barchasini inobatga olib, o‘qituvchi unga hayot tomonidan qo‘yilayotgan doimiy o‘zgarib boruvchi talablarga javob berishi borgan sari qiyinlashmoqda. Pedagogning ishi shaxsda katta kuch, katta imkoniyatlarni talab etadi, hech bir boshqa kasb o‘zida idealni amalga oshirish talablarini bunchalik yaqqol qo‘ymaydi.

A.Avazboyev tomonidan olib borilgan tadqiqot ko‘rsatdiki, oliy pedagogika o‘quv yurtlarida nazariy va ishlab chiqarish ta’limini integratsiyalash bir vaqtning o‘zida nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikma hamda malakani egallashni talab qilar ekan. Bunday aralash mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun quyidagi talablarni bajarish kerak:

1) muxandis-pedagoglarning nazariy va amaliy ishlab chiqarish ta’limi uslubiyotini egallashlari bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus tayyorgarligi;

2) aralash mashg‘ulotlar o‘tkazish talabiga javob beradigan moddiy-texnika bazasining mavjudligi .

Kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llari orqali “Assesment” texnologiyasi asosida kasbiy-ijodiy layoqatlikni ifodalovchi malakalarni baholash metodikasi takomillashgan. Mazkur baholash metodikasi kasbiy ta’lim hamda ijodiy

sifatlarning tasnifi asosida takomillashtirildi. Talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari (reproduktiv, produktiv, kreativ)ni kasbiy bilimlarni o‘qitishning variativ va invariativ didaktik funksiyalari “Assesment” texnologiyasi bo‘yicha ijodiy layoqatini ifodalash asosida takomillashtirilgan.

Variativlik nima? degan savolga variatsiya (lotincha – variation, variables – o‘zgarish, o‘zgaruvchan, vario – har xillashtirish, o‘zgartirish, beqaror bo‘lib o‘zgarmoq) bu asosiyga taalluqli bo‘lmagan, faqat xususiylari uchun tegishli bo‘lgan ko‘rinish, o‘zgarishdir deb javob berish mumkin. Variativlikni, bir tomondan, asosiy tamoyildan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan esa – zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning yo‘nalishi sifatida qarash mumkin .

Kasbiy-ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishda invariant va variativ didaktik funksiyalarni alohida o‘rganib chiqdik. Avvalambor, variativ didaktik funksiyalar deganda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarga ta’limda formal o‘qitishdan holi bo‘lgan holda, ta’lim mazmunini har xillashtirish va o‘zgartirishga erishish ekanligi anglanadi. Invariant didaktik funksiyalar variativ didaktik funksiyalar aksi bo‘lib, kasbiy-ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ta’lim mazmunini bir xillikka erishishi. Mazkur didaktik funksiyalar bo‘yicha ta’lim mazmuni hamda talaba individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot olib borganimizda ularning o‘xshash tomonlari va qarama-qarshiligi, kamchiligi va yutuqlariga e’tibor qaratdik.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida talabalarga variativ va invariativ topshiriqlar topshirildi. Mazkur variativ va invariativ topshiriqlarni tuzish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilindi:

1. Variativ va invariativ topshiriqlarni mazmunini anglash, uning samaradorligini oshirishining zarur sharti ekanligiga e’tibor beriladi.
2. Har qanday variativ va invariativ topshiriq o‘quv fanlari yo‘nalishi asosida loyihalashtiriladi.
3. Variativ va invariativ topshiriqlar turli-tuman bo‘lishi mumkin.
4. Variativ va invariativ topshiriqlar 2-4-bosqichlar uchun alohida tuziladi.

Talabalarda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mezonlari quyidagi kasbiy-ijodiy qobiliyatlar tuzilmasini hosil qiluvchi bloklar orqali ishlab chiqildi (2.2-jadvalga qarang):

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mezonlari

№	Mezon	Mezon mazmuni	Bloklar	Mezon asosida baholanuvchi bilim, ko‘nikma va malakalar

1	**Reproduktiv**	Kasbga oid axborot bilan ishlash ko‘nikmalarni hosil qilish uchun reproduktiv darajadagi topshiriqlarni bajarish talab etiladi	1-3	-ta’lim oluvchilarni birlashtirish, ularni mashg‘ul qilish, majburiyatlarni taqsimlash, ishni rejalashtirish, amalga oshirilganlarga yakun yasash; -o‘quv materialini, ko‘rgazmali materiallar, jihozlarni tanlash va tayyorlash, o‘quv materialini tushunarli, aniq, ifodali, ishonchli va izchil bayon etish, bilishga oid qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlarning rivojlanishini rag‘batlantirish, o‘quv-bilishga oid faollikni oshirish; -ta’lim oluvchilarning ma’naviy olamlariga kirib borish, ularning emotsional holatlarini ob’yektiv baholash, psixikalarining xususiyatlarini aniqlash hakidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.
2	**Produktiv**	Kasbiy muloqotni amalga oshira olishga qaratilgan topshiriqlar tuplamidan iborat bo‘lgan produktiv darajaga mansub vazifalarni barajarish talab etiladi.	4-6	-ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta’lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish; -ta’lim oluvchilarga emotsional-irodaviy ta’sir etish; -pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni bilish va ob’yektiv baholash xaqidagi bilim, ko‘nikma va malakalar

3	**Kreativ**	Kasbiy-pedagogik faoliyatga oid muammoli vaziyatlarni hal qila bilishga oid ijodiy yondashuvni talab qiladigan kreativ darajadagi topshiriqlar tizimidan iborat.	7-8	-tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish, taxlil qilish, xulosalar chiqarish; -kasbiy faoliyat mohiyatini o‘zlashtirish sohasida yuzaga kelgan muammoning o‘z noan’anaviy yechimini ko‘ra olish haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalaridan tashkil topadi

Kasbiy ta’lim tasnifi o‘z ichiga quyidagilarni kiritadi:

1) o‘qituvchi shaxsining xarakterologik xususiyatlari, bular:

a) o‘qituvchining fuqarolik va kasbiy yo‘nalganligi, yo‘nalganlik ostida “pedagogning kasbiy faoliyatga va uning asosiy obyekti – bolaga faol munosabatlari tizimini belgilovchi dunyoqarashi” tushuniladi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 76 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь. ЎРҚ-637-сон
3. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Президентининг ЎРҚ-406-сон қонуни. 2016 йил 14 сентябрь.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 102 б.

5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 14. // Халқ сўзи. 2016 йил 15 декабрь. – № 247. – 2 б.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR IJTIMOIY MOSLASHUVIDA AMALIY PSIXOLOGIK ISHLARNING O‘RNI.

(Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida)

Shamshiyev Muslimbek Rashidbek o‘g‘li O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Andijon viloyati boshqarmasi Bolalar bilan ishlash bo‘limi Buloqboshi tumani bo‘yicha Inspektor -psixolog leytenant

Annotatsiya: *mazkur maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoni to‘g‘ri olib borilmasa, bu uning ruhiy rivojlanishida sun’iy kamchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin va bolaning miya faoliyatida kamchiliklarni yuzaga kelishligi, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar bilan uzluksiz ravishda shug‘ullanish natijasida ko‘nikma, malakalarni to‘g‘ri shakllantirish, ruhiy jarayonlar sifatida takomillashtirish ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriluishi o‘z samarasini beraishligi haqida so‘z boradi*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro harakat jarayoni, bilim, pedagogik sabablar, -ota-onalar tomonidan bola tarbiyasida noto‘g‘ri xulq-atvorni namoyon qilishi, ijtimoiy-maishiy sabablar*

Ma’lumki, ta’lim tizimi o‘ziga xos murakkab jarayondir. Bunda asosan o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadga qaratilgan samarali faoliyati yuzaga keladi. Ta’kidlash joizki, o‘qitish o‘zida o‘quvchi va o‘qituvchilarning o‘quv maqsadlariga erishish, o‘quv rejalari va dasturlarida o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashgan qaratilgan birgalikdagi faoliyatini ifodalaydi. O‘qitish doimo o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro harakat jarayoni hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’lim tushunchasining mazmunini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim inson tomonidan madaniy ijtimoiy tajribani jamiyat hayoti uchun zarur bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasidir. Ta’lim jarayoni o‘qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi va boshqariladi. Bu jarayonda o‘qituvchi gohida boshqaruvchi ayrim hollarda ishtirokchi sifatida gavdalanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, umumta’lim maktablarida ta’limning asosiy shakli bu dars hisoblanadi. Har qanday darsning maqsadi o‘quvchilar tomonidan ma’lum bir bilimlarni o‘zlashtirilishi, ko‘nikma va malakalarni egallashi, egallangan

bilimlarni amaliyotda qo‘llash, qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ular tomonidan ijodiy faoliyat tajribasini to‘planishini ta’minlaydigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchisi bu o‘quvchi shaxsi sanaladi. O‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni maqsadga muvofiq o‘zlashtirishga harakat qilishi kerak. O‘quvchi uchun ta’lim qiyin muammoli vaziyat sifatida namoyon bo‘lmasdan balki uning shaxsi va kelajagini rivojlantiruvchi psixologik omil bo‘lishi lozim. Ta’limga nisbatan o‘quvchi shaxsida salbiy kechinmalarning mavjudligi, o‘quv faoliyatida qo‘yilayotgan talablar va uni bajarish bilan bog‘liq ravishda imkoniyatlarni mos kelmasligi natijasida ularda qiyinchiliklar uchrab turadi.

O‘quvchilar ta’lim olishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Pedagogik sabablar:

-fanlarni o‘qitish jarayonidagi kamchiliklar;

-bilim olishdagi uzilishlar;

-o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar;

-o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi shaxsiga nisbatan talablarning ortib

borishi;

-o‘qituvchi tomonidan avtoritart boshqaruvni o‘quv jarayonida me’yoridan

ortiq qo‘llanilishi.

Ijtimoiy-maishiy sabablar:

-bola hayotidagi nomaqbul sharoitlar;

-ota-onalar tomonidan bola tarbiyasida noto‘g‘ri xulq-atvorni namoyon

qilishi;

-oilaning past darajadagi moddiy ta’minlanganligi;

-kun tartibining mavjud emasligi;

-uy sharoitida bolani ta’lim olishi uchun etarli sharoitni yo‘qligi;

-bolaning nazoratsizligi va qarovsizligi.

Fiziologik sabablar:

-o‘quvchining turli xil kasalliklarga chalinishi;

-o‘quvchining umumiy salomatligi uning o‘quv faoliyatida samarali

o‘qishi uchun etarli emasligi;

-markaziy nerv tizimini harakat funktsiyalaridagi buzilishlar.

Psixologik sabablar:

-diqqat, xotira kabi bilish jarayonlarini etarli darajada

rivojlanmaganligi;

-berilayotgan materialni anglab olish va tushunishning sekinligi;

-nutqning etarli darajada rivojlanmaganligi;

-o‘quv-bilishga nisbatan qiziqishning yo‘qligi;

-dunyoqarashning torligi;

-o‘qishga nisbatan noto‘g‘ri munosabat;

-mehnat qila olmaslik;

-o‘quvchi shaxsida o‘quv faoliyati usullari va malakalarining noto‘g‘ri

shakllanganligi;

-aqliy rivojlanishdagi muammolar;

-xulq-atvordagi muammolar;

-hissiy va shaxsiy muammolar;

-atrofdagilar bilan munosabatga kirishishida yuzaga keladigan muloqotdagi qiyinchiliklar.

Ayrim o‘rinlarda o‘qituvchi tomonidan o‘qitishning metod va metodikalarini noto‘g‘ri qo‘llanilishi natijasida o‘quvchi shaxsida ta’limni qiyinchilik sifatida idrok qilishi shakllanadi. Bu borada psixolog B.G.Ananev tomonidan quyidagi fikr ilgari suriladi: “Shunday misollar va salbiy vaziyatlar ham mavjudki, unda o‘qituvchi o‘zining darsdagi muloqotini tashkil etishdagi tarbiyaviy o‘rinsiz asosi bilan o‘quvchilarni aqliy faolligini susaytiradi, ularda negativ salbiy kechinmalarni yuzaga keltiradi, irodani susaytiradi, o‘quvchilarda insonlarga nisbatan ishonchsizlikni, ular bilan muloqotga kirishishdan qo‘rqish, shaxsiy to‘liqsizlik hissini yuzaga keltiradi”.

Ta’limda qiyinchiliklarni his etuvchi bolalarda bunday holatlarni oldini olish uchun quyidagi vaziyatlar ochib berish mumkin.

1 guruh: Darsning “Optimistik start” vaziyati

2 guruh: Muammoli vaziyat, intellektual zo‘riqish vaziyati

3 guruh: Tanlov vaziyati

4 guruh: Muvaffaqiyat vaziyati

O‘z navbatida ta’limda qiyinchiliklarni his etuvchi bolalarda bunday holatlarni oldini olish uchun quyidagi vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanishi mumkin:

1. Darsning ―Optimistik start vaziyati

Dars boshlanishi bilan sinfda shunday vaziyatni yaratish lozimki, unda o‘z-o‘zidan mushohada yuritish, zo‘riqish, qo‘rquv, o‘ziga ishonmaslikni bartaraf etishga qaratilgan shart- sharoit yaratilsin. Bunda har qanday nuqtai nazarni qo‘llagan holda hamma narsani gapirish mumkin.

2. Muammoli vaziyat

Qaerda muammo bo‘lmasa, u erda tafakkur ham bo‘lmaydi. Muammo ta’lim orqali muammoni mustaqil ravishda qo‘yish va uning elementlari mustaqillik, faollik, o‘z o‘zini hurmat qilish, o‘z qadrini bilish hissini shakllanishiga yordam beradi.

3. Tanlov vaziyati

Bunday vaziyatlarni o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchida tashabbus va individuallikni namoyon qilishga hamda turli hodisalarni tushunishga nisbatan nuqtai nazarni shakllanishiga shuningdek, ularni mohiyatini tushunish, vaziyatga qarab muammoni qo‘ya olish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday vaziyatda

“nima bilan isbotlaysan?”savoli o‘rinlidir.

4. Muvaffaqiyat vaziyati

Bunday vaziyatlar o‘quvchilarni muvaffaqiyat kategoriyalari ustida fikrlashga o‘rgatadi ya’ni ―Voy, mening xolatimda mendan hech nima chiqmaydi? pozitsiyasidan ―Ko‘ramiz, darrov bo‘lmasada, lekin amalga oshishi mumkin variantiga almashishi kuzatiladi.

Amerikalik psixolog U.Glasser adolatli ravishda shuni ta’kidlaydiki, ―Ko‘plab o‘quvchilar omadsizlikdan azob chekadi. Avvalgi omadsizliklar miqdori, kechinmalar, insonning moddiy darajasidan qat’iy nazar agar u o‘zi uchun muhim narsada muvaffaqiyatga erishmasa, hech qachon hayotda ulgurmaydi.

Har bir o‘quvchi o‘quv bilish faoliyati tajribasini olishi kerak. Buning uchun o‘quvchi maksimal darajada bajarishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarni to‘plashi lozim.

O‘quvchilar darsda “nimadir joyida emas” deyishdan qo‘rqmasligi lozim. Bunday vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchilarni har qanday xatti-harakatini real, oqilona baholashi kerak hamda uning urinishlarini rag‘batlantirishi lozim.

Mazkur holatda maqtov va rag‘bat uchun har qanday real imkoniyatni qo‘llash mumkin:-Aqlligina, ―Yashavor, ―Zo‘r va boshqalar. Shuningdek, darslarda o‘quvchilarning ovozlari ko‘proq eshitilsin: ―Uddasidan chiqdik, ―Evrika.

5. Intellektual zo‘riqish vaziyati

Har qanday ishda muvaffaqiyatga doimiy, zo‘riqish va tizimli mehnatsiz erishib bo‘lmaydi. Asosida aqliy mehnat yotadigan o‘quv faoliyati ham bundan mustasno emas. K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek, “aqliy mehnat inson uchun eng og‘ir mehnat ekanligi, orzu qilish oson va yoqimli ekanligi, biroq o‘ylash qiyinligiga e’tibor qaratgan”.

Shuning uchun darsda muvaffaqiyat vaziyati o‘zida intelektual zo‘riqish elementlarini, intellektual zo‘riqish vaziyati esa-muvaffaqiyat elementlarini mujassamlashtirishi lozim. Faqat ana shu muvaffaqiyat zo‘riqishli mehnat evaziga erishiladigan haqiqiy quvonch va g‘urur xissini uyg‘otadi. Yutuqning “o‘z -o‘zidan” kelishi hech nimaga arzimaydi. Yutuqning o‘z-o‘zidan kelishi o‘quvchi shaxsida eng zarur narsa-o‘zidagi intellektual rivojlanishi, fikrlash doirasiini kengaytishi hamda faoliyatidan g‘ururlanish hissini bermaydi. O‘qituvchi o‘quvchining o‘quv materialidagi qiyinchiliklarini engib o‘tishga qanday undash mumkin? ―Bu usullardan biri- deb ta’kidlaydi,

Dj.Bruner uni o‘z kuchlarini sinab ko‘rishga o‘rgatish orqali to‘liq namoyon etishga majbur qilish, shuningdek, mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish unga quvonch bag‘ishlashini anglab etishiga o‘rgatishi kerak. Mahoratli o‘qituvchi bu qiziqtirishning ta’sirini juda yaxshi biladi, shu orqali o‘quvchi faoliyat bilan to‘liq mashg‘ul bo‘lishi hissini boshdan kechirish lozim.

O‘quvchilarni o‘qishga nisbatan qiziqishni yuzaga keltirishi va rivojlantirishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

1. Bilishga oid qiziqishlarni rivojlanishi uchun ta’lim shunday tashkil etish kerakki, bunda o‘quvchi yangi materiallarni o‘rganishga nisbatan barcha imkoniyatlaridan foydalanadi hamda muammoli xarakterdagi topshiriqlarni bajaradi.

2. O‘quv mehnati xilma-xil bo‘lganidagina qiziqish uyg‘otadi. Bir xil axborot va harakatlarning bir turdagi usullari tez zerikib qolishga olib keladi.

3. O‘rganilayotgan fanga qiziqishni yuzaga kelishi uchun ushbu fan va uning alohida bo‘limlarini o‘rganishning zarurligi, muhimligi, maqsadga muvofiqligini tushunish zarur.

4. Yangi ma’lumot avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan qancha ko‘p bog‘liq bo‘lsa, u o‘quvchilar uchun shunchalik qiziqarli bo‘ladi.

5. Unchalik qiyin bo‘lmagan hamda oson bo‘lmagan material o‘quvchida qiziqish uyg‘otmaydi. Ta’lim qiyin biroq etakchi bo‘lishi kerak.

6. O‘quvchi faoliyati qancha ko‘p tekshirilsa va baholansa, unga ishlash shunchalik qiziqarlidir.

O‘qituvchi ta’lim olishda qiyinchilikni his qiladigan o‘quvchilarga nisbatan qo‘llash uchun 10 qoidani ishlab chiqing. Shuningdek, o‘qituvchi ta’lim olishda qiyinchilikni his qiladigan o‘quvchilarga nisbatan quyidagi 10 qoidani qo‘llash samarali natijalarni berishi mumkin:

-agar o‘quvchining javobi mavhum ko‘rinishga ega bo‘lsa, uning javobiga qo‘shilmagan holda fikrlarini isbot qilishga imkoniyat berish lozim;

-hech qachon o‘quvchilarning bahs-munozarasini eng oson usul bilan, ya’ni ularga to‘g‘ri javob yoki echimning to‘g‘ri usulini aytib, hal qilmang;

-o‘z o‘quvchilaring fikrlarini diqqat bilan tinglang hamda ularning har bir fikrlarini mushohada qilgan holda qabul qiling;

-shuni doimo yodda tuting – ta’lim o‘quvchilarining qiziqishlari, motivlari va umidlariga tayanish lozim;

-darslar va maktab qo‘ng‘iroqlari jadvali o‘quv jarayonning belgilovchi omil bo‘lmasligi kerak;

-o‘quvchi shaxsining ―telba g‘oyalarini‖ hurmat qil va boshqalarga nostandart tafakkur uslubini singdiring;

-hech qachon o‘z o‘quvchingga ―sening ahmoqona g‘oyalaringni mushohada qilishga bizda aslo vaqt yo‘q deya ko‘rmang;

-ruhlantiruvchi so‘z, muloyim tabassum, do‘stona maqtovga uchmang;

-ta’lim jarayonida doimiy amal qilinadigan metodika va dastur bo‘lmaydi shuni unutmang;

-bu qoidalarni ular sening bir qismingga aylangunga qadar har kun qaytargin.

Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar o‘qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, «Uzluksiz ma’naviy tarbiya»konsepsiyasi g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’- minlash ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi va tarbiyachilaming m a’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega[44].

O‘qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar sha: bo‘lib. nafaqat m a’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o 't g bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olish yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlami tayyorlash ishiga o‘zinir munosib hissasini qo‘shishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo‘lish, o‘qituvchi uchun ta’lim-tarbn samaradorligini ta’minlovchi zamin bo‘libgina qolmasdan, ayni vaqtd uning jamiyatdagi obro‘-e'tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarga nisbatan hurmat vuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish

[44] / A. A. Xoliqov; Pedagogik mahorat. Darslik / Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -6 b.

vo‘lida amaliy harakatlami tashkil eti: pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan he bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabat, muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. A. Xoliqov; Pedagogik mahorat. Darslik / Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -6 b.
2. Айтжанова и др., Психолого-медико-педагогическое обследование детей дошкольного и младшего кольного возраста. – Алматы, 2000 г.
3. . http//www.ziyo.net
4. . www.edu.uz

OILADA AXLOQIY TARBIYA MUAMMOLARINI YECHISHDA MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIK MASALALARI

“University of economics and pedagogy” NOTM o‘qituvchisi Z.P.Komilova

Annotatsiya. Ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g‘oyat keng, ko‘p qirrali ishdir. Yosh avlodda Vatanga muhabbatni, ota-onaga xurmat ruhida tarbiyalashda “Oila, mahalla va maktab” hamkorligi masalasining ahamiyati haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: Oila, mahalla, maktab, ota-ona, konsepsiya, hamkorlik, ta’lim, tarbiya,

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy , jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan ma’lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Bolalarda tarbiyaning dastlabki kurtaklari oilada bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Oila-jamiyat hayotini olg‘a rivojlantiruvchi, uni yanada

yuksak bosqichlarga ko‘tarib ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas’ul bo‘lgan g‘oyat muhim o‘chog‘dir.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa’y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiyasi yoshlarni istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, ma’naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma’lum dasturilamal bo‘ldi.

Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo‘lib qolmasdan, balki barcha fuqarolarning ishi, keng ma’noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Respublikamiz ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish hamda ma’naviy muhitni yaxshilash chora- tadbirlarining negizida ham bevosita oila, mahalla va ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik masalalariga alohida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Gap shundaki, jamiyatimizdagi har bir to‘laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo‘lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim. Har bir yigit-qiz bo‘lajak ota-onalardir. Shu sababli jamiyatimiz ularning qanday oila qurishlariga befarq qarab turolmaydi. Shu maqsadda nikohga yoshlarni tayyorlash markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Respublikamiz farzandlarni barkamol inson qilib tarbiyalash vazifalarini, oilalarning mustahkamligi uchun qo‘yilayotgan talablar fuqarolarning, shu jumladan ota-onalarning tarbiyaviy ma’lumotini oshirish zaruriyatini ko‘tarib chiqmoqda. Bu masala hozirgi kunda har qachongidan ham muhim, har qachongidan-da dolzarbdir.

Atoqli pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish sharoitlaridan biri ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligida, deb hisoblagan edilar. Ota-onalarni tarbiyaga oid va psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib oilada

tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish mumkin emas. Olimlar ta’kidlaganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar amalga oshirilsa, uning samaradorligi yanada oshadi.

1. O‘qituvchilar jamoasi oila bilan o‘zaro hamkorligida o‘zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish;

2. Umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish;

3. Oila, maktab, mahalla tarbiyaviy hamkorlik masalalarida tizimlilik va uzviylikka amal qilish.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro‘liligi va hokazolar bilan ta’minlanadi. O‘z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog‘idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta’sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do‘stlikka, muhabbatga o‘rgata oladi! Oilaviy tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo‘yilgan.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanimizga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

•ta’lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

•tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;

•hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati;

•faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

•hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo‘lishi lozim..Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag‘ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo‘lishi mumkin. Zarurat tug‘ilganda o‘quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta’lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to‘g‘risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarni tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchidir. Axloqan pok, ma’naviy dunyosi boy oila deganda, biz katta va kichiklarning o‘zaro hurmati, bir-birlariga yordami, bir-birlariga izzat va hurmati tushuniladi. Xalqimizda yomonlikka qarshi kurash bo‘lmagan joyda yaxshilik tug‘ilmaydi, degan ma’noli gap bor. Bu gap yoshlar tarbiyasiga ham taalluqlidir. Ayrim yoshlarda ko‘rinadigan axloqiy nuqsonlarni yo‘qotish ularda ma’naviy go‘zallik hosil qilish uchun qunt va qat’iyat bilan kurashmoq lozim. Bu muhim vazifani bajarish faqat maktab va oilaning burchi bo‘libgina qolmay, balki keng jamoatchilikning ham asosiy vazifasi bo‘lmog‘i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.– T.: OPI,

2003.

2. R.Mavlonova, O.Xasanboyeva va boshq. Pedagogika. T., O‘qituvchi – 1998 y.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI TO‘GARAKLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

XUSANOVA FERUZA ZOXIDJONOVA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalari talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishni tugaraklar orkali amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar kursatib utilgan.

Kalit so‘zlar: tugarak, roboto-texnika, axborot kommunikasion texnologiyalar, «faollik», «ijtimoiy faollik»,

Bugungi kunda XXI asr talablariga javob beradigan kadrlar tarbiyasiga maxsus e’tibor talab etilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish umumiy pedagogik jarayonning eng muhim va ahamiyatli bo‘g‘inlaridan sanaladi. Talabalarda to‘garaklar orqali ijodiy faollik masalalari zamonaviy davr uchun dolzarb pedagogik talablardan biridir.

Pedagogik ilm nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning yaxlit pedagogik andozasi ishlab chiqish bugungi kunda talabalar zamonaviy jamiyat uchun ijodiy faolliklarini ko‘rsata olishlari zarur. Bu esa universitetlar istiqboliga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimiz bo‘yicha, mana shunday muammolarning oqilona yechimi keng ijtimoiy makonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydigan tamoyillardan biri – ta’lim-tarbiya jarayonda to‘garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishdir. So‘nggi yillarda mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy sohasining dunyo hamjamiyati bilan chuqur integratsiyalashuvi oqibatida mutaxassisliklar klassifikatorga juda katta o‘zgarishlar kiritildi, ammo bugungi kunda yangidan yangi mutaxassisliklar iqtisodiyotga, ayniqsa roboto-texnika, axborot kommunikasion texnologiyalar, gen muhandisligi va boshqa sohalarda kirib kelmoqda. Shunga ko‘ra, bugungi kunda oliy ta’limda mutaxasisliklarning jamiyat hayoti va uning iqtisodiyotiga kirib kelish jarayoni to‘garaklar orqali ijodiy faollikni rivojlantirish dolzarblik kasb etadi

Muammoga oid nazariy manbalar hamda uning amaliy holatini o‘rganish natijalari mazkur sohada bir qator kamchiliklarning mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan: demokratik jarayonda ijtimoiy- faolligiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko‘nikma va malakalari, mavjud ijtimoiy faollik kompetensiyalari o‘rtasidagi nomutanosiblik;

–talabalar ijtimoiy faolligining o‘z-o‘zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirilishi va bu jarayon tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqilmaganligi;

–talabalar ijtimoiy faollashuvining bir qator o‘ziga xos xususiyatlari va omillari mavjud bo‘lib, ular yetarlicha o‘rganilmaganligi;

–talabalar ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarini qo‘llanilishiga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Bu vazifani samarali amalga oshirishda xalq pedagogikasi vositasida faol shaxs xususiyatlari va shartlari tarkib toptiriladigan shakl, vosita, usul va metodlarni izlab

topish, o‘z navbatida «faollik», «ijtimoiy faollik» badiiy faollik tushunchalari mohiyatini chuqur tushunish, nazariy jihatdan ham, amaliy tomondan ham juda muhim masaladir.

Shu o‘rinda faoliyatning o‘zini ham izohlash talab etiladi. *Faollik* negizida paydo bo‘luvchi yangicha sifatni, o‘ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko‘rinishi, insongagina taalluqliligi tufayli u psixologiya fanida faoliyat deb yuritiladi. Faollikning o‘zbek millatiga xos ko‘rinishi sifatida faoliyat vujudga kelib, u o‘zining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan farqlanadi.

Har qanday faoliyat maqsad va natijalardan iborat jarayon ifodasi hisoblanadi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi va yashash sharti hisoblanadi.

Shaxs ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarning retrospektiv tahlili

Manbalar	Ijtimoiy faollik ko‘rinishlari
Avesto	Barchaga mehribon bo‘lish, muhtojlikva xavf-xatar ostida qolganlarga ko‘maklashishga tayyor, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun *faol kurashishga shay* bo‘lish ezgu odamlarga xosdir.
O‘rxun- Enasoy yozma yodgorliklarida	Ijtimoiy faollikni tarkibiy qismlari bo‘lgan − *jasurlik, vatanparvarlik, bilimlilikmardlik* ulug‘lanadi. Yoshlarni Vatan mustaqilligi uchun kurashish va xalqni arosat, tutqinlikdan qutqarishga undash ustuvor o‘rinegallaydi. Sarkardalar *xalqparvar,jonkuyar, o‘z xalqining kelajagini o‘ylaydigan* bo‘lishlari lozimligi ta’kidlangan.
«Qur’oni Karim» va «Hadisi-sharif»	Shaxsning faollikka asoslangan faoliyati va uni tashkil etish masalalariga e’tibor qaratilgan. Xususan, *«Ilmu hunarni Xitoyda bo‘lsa ham borib o‘rganinglar», «Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, xatto dengizdagi baliqlar ham», «Olloh aksirgan kishini*

	yaxshi ko‘radi, esnagan kishini esa yomon» kabi hadislarda ijtimoiy xatti-harakat, faoliyatning ahamiyati mukammal yoritib berilgan.
Abu Nasr Forobiy(873-950)	... ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi
Abu Ali ibnSino (980-1037)	Kamolotga erishishning mezoni ilm- fan sirlarini faol egallashda, deb biladi. Uning fikricha, bilimli kishi *jasur, qo‘rqmas* hisoblanadi, bilimsiz kishi johil bo‘ladi.
«**Politologiya»** **dan ensiklopedik lug‘atda**	Shaxs faolligi siyosiy faollik tarzida talqin etiladi. Ushbu lug‘atda faollik shunday izohlanadi: «Shaxs faolligi ob’yektiv voqelikka bo‘lgan munosabatda aniq namoyon bo‘ladi. Bu munosabat har bir shaxsning jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishi, o‘zining xilma-xil ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi ijtimoiy munosabatlarda qanchalik erkin ishtirok etsa, bu uning siyosiy faolligining o‘sishiga shunchalik ta’sir ko‘rsatadi», deyilgan
«**O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da**	Faollik- mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik deb ta’riflanadi. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan mazkur izoh mohiyatan e’tiborlidir.
Pedagogik ensiklopediyada	Ijtimoiy faollik – 1. ijtimoiy sub’yektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilabqo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha. 2. Sub’yektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma’lum ijtimoiy-ma’naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakatidir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi.

Burhoniddin Marg‘iloniy **(1123-1197)**	«Kitob ul-faroiz» («Majburiyatlar haqida kitob») asari ijtimoiy faollik taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.Uning asarlarida adolatlilik, o‘z davrining *huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat,mehr-oqibat* kabiijtimoiy-pedagogik tushunchalar ustivor o‘rin egallagan.
Amir Temur **(1336-1405)**	«Men sifatlarimning eng avvali debbeg‘arazlikni tushundim. Hammagaham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymadim». «Men har kimgaki, va’da bersam,unga vafo qildim. Hargix va’daga xilof ish qilmadim. Men doimova’dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo‘lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim»
Jaloliddin Davoniy **(1427 – 1502)**	Inson faqat jamiyatda, kishilar orasida ular bilan birgalikda tashkil etilgan munosabatlar jarayonida faollashadi, degan fikrni ilgari suradi. «Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so‘ng muallim ham javobgar sanaladi»
Afsona, ertak, rivoyat,doston, maqol, hikoya, dostonlar	«To‘maris», «Shiroq» kabi afsonalar,«Alpomish», «Qirqqiz», «Go‘ro‘g‘li»singari dostonlar,“Zumrad va Qimmat, „ Egri va To‘g‘ri“, “Ur to‘qmoq,“ „ Oltin tarvuz “, “Erali va Sherali“, „ Qo‘rqmas Botir“ kabi xalq og‘zaki ijodida insonni faollikka undovchi fenomenlar mavjud.
Xalq bayramlari	Navro‘zda ko‘cha va hovlilarni tartibga keltirish, atrof-muhitni tozalashda faol ishtirok etish, daraxtlarni oqlash, ko‘chat (kamida uchta), hamda gullar o‘tqazish,xushchaqchaq va shodumon yurish, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, arazlashgan kishilar bilan yarashish, halol va munosib hayot kechirishga intilish maqsadida ijtimoiy jihatdan faol bo‘lish kabilar.
Xalq xasharlari	Insonlarni faollikka, yurtni obod qilishga, go‘zallikkaintilishga undaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shaxs faolligini shunday izohlash mumkin: *ijtimoiy faollik* – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy

voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushuncha.

Hozirgi kunda tarbiya ilmida eng muhim vazifalardan biri har tomonlama barkamol, ijtimoiy faol shaxsni voyaga yetkazishdir. Bu vazifani samarali amalga oshirish tizimini qayta qurish, ijtimoiy faol shaxsni voyaga yetkazishdir. Bu vazifani samarali amalga oshirish tizimini qayta qurish, ijtimoiy faol shaxs xususiyatlari va sifatlari tarkib toptiriladigan vosita, shakl, uslublarni izlab topish kerak. Buning uchun esa “ijtimoiy faollik” tushunchasi mohiyatini chuqur tushunish, nazariy jihatdan ham, amaliy tomondan ham juda muhim masaladir. Sho‘ro davri faylasuf olimi E.A.Anufriyevning qayd qilishicha, keng ijtimoiy- falsafiy jihatdan jamiyatning rivojlanishiga yordam beradigan, ijtimoiy qadriyatlarga yo‘nalgan, inson hayotiga ma’no baxsh etadigan faollikgina “ijtimoiy faollik” bo‘laoladi. [2](sifatiga kiradi)

Ijtimoiy faollik me’yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. Qadim turkiy pedagogikamizning mumtoz vakili, donishmand Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” kitobida bolaning yoshlikdan ijtimoiy tarbiyaga, faollikkka jalb etishi haqida gapirib shunday satrlarni bitgandi:

Uquli-idrokli bo‘lsa qay odam,

Kishi deb atagin, maqtagin har dam.

Yovuzni ezgu tut, kichikni ulug‘,

Uquv-idrok, bilim bo‘lsa unda jam.

deyish bilan “aql yoshda emas- boshda” naqliga amal qilib, agar unda uquv-idrok, bilim bo‘lsa, kichikni ulug‘ tutib, boshga ko‘tarishni maslaxat beradi. Har

qanday jamiyatning oltin jamg‘armasi bo‘lgan uquvli, bilimli, tadbirkor odamlarni yoshligidan qadrlab, tarbiyalab, kamol toptirishga chaqiradi.

O‘rta asrlar qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino ham o‘z asarlarida bu masalaga alohida urg‘u beradi, mutafakkir bolalarni yakka-yakka emas, jamoa qilib, birgalikda o‘qitish tarafdori ekanligini bildiradi. Talabalarni ijtimoiy faollik ruxida tarbiyalashda muallim tanlashning ahamiyati haqida gapiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari.
3. Andreev V.I. Oliy ta'lim pedagogikasi. - Qozon, 2006 yil, 499 be
4. Kudryavtsev V.T. O'quv va ta'lim sohasidagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari. - M. 2008 yil

5. Stolyrenko ld Pedagogik psixologiya.-, 2008., 591 p

6. Markova A.K. Talabalarda bilim olishga qiziqishni shakllantirish.-B.17. - saytning elektron resursi http://www.koob.ru/age_psychology/

7. G.N.Ibragimova. Oliy ta’lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish // Zamonaviy ta’lim. 2017.№4. — B. 30-35

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI

Nuriddinova Diyora Isaqali qizi Boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o‘quvchilarida to`g`ri muloqot ko`nikmalarini shakllantirish. O‘zbekona urf-odatlarimizni tark etmagan holda milliy qadriyatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirish, ota-onasi bilan birgalikda o`qituvchi va murabbiylar ham bolaning muloqotga kirishuvchanligini shakllantirish uchun hamkorlikda harakat qilishlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, munosabat, muloqot, ta’lim, tarbiya, o`qituvchi, halollik, rostgo‘ylik**,** milliy qadriyatlar, odat, mehnatsevarlik, urf-odatlar.

“Biz yoshlarga bo‘lgan davlat siyosatini hech og‘ishmasdan qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz balki, bu siyosatni butun zamon talab qilayotgan yuksak darajalarga ko‘taramiz” davlatimiz raxbarining yoshlarga qarata so‘zlagan nutqilarida shu aks etib turibdiki, demak biz yoshlar bu ishonchga munosabatimiz yurtimizga munosib inson bo‘lib harakat qilishimiz muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lgandan so‘ng shaxsning har tomonlama, yaxlit rivojlanishiga yo‘l ochildi. Shubhasizki, davlatimizning qator farmon va qarorlari bilan mustahkamlanmoqda. Shakllanib kelayotgan yangi avlod kadrlar misolida ham ko‘rib turibmiz. Fuqorolik va huquqiy davlat bunyod etilayotgan hozirgi sharoitda jamiyatning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, madaniy –ma’rifiy ishlarni amalga oshirish asosida ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni o‘zida birlashtirgan yangi inson shaxsining shakllanishi ta’minlanadi. Avvalo, shaxs tushunchasining asl negiziga e’tibor beradigan bo‘lsak, shaxs bu idrok qila oluvchi, esda saqlay oluvchi va fikr yuritish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shaxs insonga taa’luqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakati bilan boshqalardan ajralib turadigan, mavjud xulqatvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli hamdir. Insonning falsafiy tafakkuri rivojida shaxs va jamiyat munosabati muhim o‘rinda turadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxslararo munosabatini shakllantirish masalalarini 2-sinf tarbiya darsligini ko‘radigan bo‘lsak darslikdagi Birovning haqi mavzusiga to‘xtalamiz. Sarvar va Nodir Baxromnikiga mehmonga borishdi. Baxrom avtomobillarga juda qiziqqani uchun ularning turli modelini to‘plagan edi. Uch o‘rtoq ularni birgalikda o‘ynashdi.

Ertasi kuni Sarvar maktabga o‘yinchoq ’’Neksiya‘‘sini olb kelib o‘rtoqlariga ko‘satdi. Bahrom g‘azab bilan: ’’ Kecha sizlar ketgandan keyin ’’Neksiya’’ni topa olmadim, demak, sen olgan ekansan-da?’’- deb uni o‘rtoqlari oldida izza qildi. Sarvar bu o‘yinchoq o‘ziniki ekanini unga kecha onasi olib berganini aytsa ham Bahrom uning gapiga ishonmaydi. Bu tortishuv oqituvchining

ham qulog‘iga yetib boradi va o‘qituvchisi bolalarning onalarini chaqirishga majbur bo‘ladi. Sarvarning onasi o‘yinchoqni rostan ham kecha o‘zi olib berganini aytadi.

Nodirning onasi esa uyida begona o‘yinchoq ko‘rmaganini aytdi. Nodirning onasi esa gap nima haqida ekanligini anglab, o‘yinchoq uyida ekanligini aytdi. Shu kuni kechqurun Nodir onasi bilan qo‘lida ’’Neksiyasi’’ bilan keladi.

Bu hikoyada uch o‘rtoq orasida chiqqan mojaroni hal etish jarayoni aks etgan. Bu mojaroni hal etish jarayonida o‘qituvchi va bolalarning onalari ham qatnashadilar.

O‘qituvchi bolalarning onalariga vaziyatni yotig‘i bilan tushuntirdi. Onalar esa o‘qituvchini to‘g‘ri tushunib, muammoni hal qilishga harakat qiladilar. Nodirni onasi esa hammani noqulay vaziyatga tushurib qo‘ymaslik maqsadida o‘yinchoq uyida ekanini anglashilimovchilik bo‘lganini aytdi. Kechqurun esa Nodir va uning onasi qo‘llarida o‘yinchoq bilan kelishdi.

Bu vaziyatda o‘qituvchining pedagoglik mahorati ham, onalarning muloqot madaniyati ham katta rol o‘ynadi. Agar onalar yoki o‘qituvchi qiziqqonlik qilganida vaziyat bundan ham og‘irlashib ketgan bo‘lardi. Bolalar orasidagi tortishuv ota-onalar orasidagi adovatga aylanib ketgan bo‘lar edi. Bu esa insonlar orasiga sovuqchilik tushiradi. Bolalarda shaxslararo munosabatni shakllantirish avvalo oiladan boshlanadi. Ular uchun birinchi o‘qituvchi uning ota-onasi bo‘ladi. Ular birinchi bilimlarni ota-onalardan o‘rganishadi. Ota-onalar bolalarga ijtimoiy bilimlarni berish orqali ularni tarbiyalaydilar.

O‘quvchilarda shaxslararo munosabatni shakllantirishning bir qancha uslublari mavjud. Masalan, guruhlarda va juftliklarda ishlash.

Ta’limning guruhlarda ishlash usuli ’’ta’lim beruvchi-ta’lim’’ oluvchi dialogidan voz kechib ’’ta’lim beruvchi-guruh- ta’lim oluvchi’’ ko‘rinishidagi munozraga o‘zgaradi. Guruh yoki sinf kichik guruhlarga bo‘linadi va harbiri mavzuni o‘zicha o‘zlashtiradi. Munozaraga kirishish jarayonida o‘quvchilarda o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

-kommunikativ kompetensiya;

-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi.

O‘quvchilarda shaxslararo munosabatlar birgalikda ish olib borganlarida guruhlardagi barcha o‘quvchilar:

● Ishtirok etishlari va o‘zlarini jarayonning bir qismi sifatida his etishlarini.

● Ko‘zlagan natijalariga erishish yo‘lida o‘z maqsadlari va rejalarini

kelishib olishlariga.

● O‘z natijalariga erishish uchun ularga ajratilgan bo‘limlar ustida

ishlashlariga.

● Birgalikda bajargan ishlarini qanday yaxshilash mumkinligi xususida birga bosh qotirishlari.

● O‘zlari bajargan ish xususida gapirishlari va fikr bildirishda bir-birlariga yordam berishlarini ta’minlashlari lozim.

Har qanday texnik va texnologik jihatan to‘g‘ri tashkil etilgan, shaxslararo munosabatlar asosida olib borilgan dars jarayoni natijasida:

- O‘quvchida o‘ziga va ishiga mas’uliyatli bo‘lish;
- Har qanday jarayonga moslasha olish ko‘nikmasini tarbiyalash bilan birga o‘ziga va boshqalarga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishishga intilish;
-Turli xil shakl va mazmundagi samarali og‘zaki, yozma va multimediaga asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va ijod qilish;
- Yangi g‘oyalar o‘ylab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalarga ham ma’lum qilish;
- Kutilmagan yangi va turli imkoniyatlarga tayyor turish;
- Masalani anglashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirish;
- Turli xil shakllarda va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baholash, boshqarish va yangi ma’lumotlar yaratish;
- Jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish;
- Turli xil rollar va mas’uliyatlarni qabul qila olish va boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish;

- Shaxsiy tushunish va o‘rganish ehtiyojlarini kuzatib borish;

- Topshiriqlarni hal qilishga yordam beruvchi va mos keluvchi manbalarni

aniqlash;

- Jamiyat foydasini nazarda tutgan holda mas’uliyat bilan harakat qilish;

- Shaxsiy hayotda, ish o‘rnida va jamiyat orasida odob va axloq bilan ish

tutish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Zero, bugungi ta’lim tizimi ham o‘quvchilarda shaxslararo munosabatni shakllantirishni ularni dunyoqarashini kengatirib, ijodiy fikrlashini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi, 2017 –yil 6- apreldagi 187- sonli qarori.
2. „L.Y.Olimov, L.S.Vigotskiy Nata Karlin, P.I.Ivanov “Bolalarning tengdoshlari bilan munosabati”, „Pedagogik mahorat”.
3. Выготский, Л. С. Проблемы общей психологии. Л.С.Выготский, В.В. Давыдов. -М.: Педагогика, 1982. - 360 с.
4. Turg‘unov Sobitxon Toshpo‘latovich, Maqsudova Lobar Akramovna, Umaraliyeva Muxoyyo Abdug‘affarovna,Tojiboyeva Hilola Maxmutovna. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. “sano – standart” nashriyoti, Toshkent – 2012

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYANING O‘RNI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, Nuritdinova Marjona Isog‘ali qizi University of business and science o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda axloqiy va estetik tarbiyaning o‘rni, maktab o‘quvchilarida tarbiya qonuniyatlari, tarbiya turlarini shakllantirish masalalari bayon qilingan bo‘lib, axloqiy va estetik tarbiya orqali ta’lim jarayonini yanada samarali tashkillashda foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Axloq, estetika, tarbiya, ta’lim, nafosat, o‘quvchi, muloqot, muhit.

Zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan bir qator talablar bu pedagog o‘zining shaxsiy xulq-atvori, hayotga, bolalarga bo‘lgan munosabati bilan ma’naviy hayotning namunasini ko‘rsatishi, bolalarga mehr berishi va ular bilan muloqot qilishdan zavqlana olishi kerak. O‘quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda ularda axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirish, mehnatsevarlik, o‘z vazifalariga halol munosabatda bo‘lish, o‘z ustida doimiy ishlashga o‘rgatishi lozim. Agar har bir o‘quvchida axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirilsa, o‘quvchilar hayotda ham har bir narsadan ilhomlanib, zavqlanib, faqat yaxshiliklar izlaydigan, o‘zini baxtli ekanligini xis qilib yashaydigan farzandlar bo`lib yetishadi. Bolalarda axloqiy tarbiyani qancha erta boshlasa, shuncha yaxshidir. Kishi tug‘ilibdiki uning voyaga yetishi, kamol topishi, yetuk bir komil inson bo‘lib yetishishi uchun ota-onasining tarbiyasi birinchi zarur omil bo‘lsa, ikkinchidan jamiyat a’zolaridir. Bugungi kunning talabi bugungi kunning rivoji uchun munosib shaxsni voyaga yetkazish, go‘zal odob-axloqli qilib tarbiyalash lozim. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy shunday deydilar: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo falokat, yo saodat masalasidir". Yani kishining tarbiyasi uchun butun jamiyat a’zolari mas’uldirlar. Har bir xalqning taraqqiy etishi, rivojlanishi va davlatning qudratli mustahkam bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga juda ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Tarbiya bu yosh avlodni har tomonlama kamol topib o‘sib ulg‘ayishi, komil inson bo‘lishida, ularning xulq-atvori dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo‘lgan jarayondir. Boshlang‘ich sinf tarbiya dasrliklariga nazar tashlanadigan bo‘lsa, har bir mavzu o‘quvchilarda turli xil tarbiya turlarini shakllantiradi. Masalan namuna keltiriladigan bo‘lsa, 2-sinf tarbiya darsligida berilgan ushbu matn o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalaydi.

Bu kichik matn orqali avvalo o‘quvchilarda aqliy tarbiyani, axloqiy tarbiyani, iqtisodiy tarbiyani, ekologik tarbiyani va estetik tarbiyani shakllantirish mumkin.

Aqliy va axloqiy tarbiyani ushbu matn orqali o‘quvchilarga singdirishda bu yaxshi ish emasligini doimo har bir narsani qadriga yetish lozimligini uqtirish lozim. Doimo yaxshi ishlar bilan shug‘ullanib jamoada o‘rnak bo‘lishga o‘rgatmoq kerak. Iqtisodiy tarbiyani ushbu matn orqali o‘quvchilarga singdirishda maktabning mulkini o‘z mulki singari asrab avaylashga, qadriga yetish lozimligiga, bu jihozlardan boshqa o‘quvchilar ham foydalanishi lozimligini misollar orqali tushuntirish kerak. Estetik tarbiyani ushbu matn orqali o‘quvchilarga singdirishda insonlar har bir nasradan zavq olib yashashga, bunyodkorlik g‘oyalarini asosida har bir joyni va har bir narsani gullatib yashnatishga yo‘naltirish lozim.

Estetik tarbiya - o‘quvchilarda estetik his-tuyg‘u, estetik ong va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo‘lgan inson shaxsini shakllantirish jarayonidir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo‘lgan inson shaxsini shakllantirishga mo‘ljallangan tarbiya sohasidir. Estetik tarbiyaning maqsadi: o‘quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik tuyg‘ularini, go‘zallikni ko‘ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Har bir oila a`zolarida xususan ota-onada pedagogik ichki imkoniyatlar mavjud. Ulardan har kim turli xil yo‘llardan foydalanib farzandlarini tarbiyalaydilar. Bu borada estetik tarbiya eng samarali yo‘llardan biridir. Oilada ham, mahallada ham, tanishlar orasida ham butun jamiyatda estetik tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, el ardog'idagi va xalq e’tiboridagi shaxslarni ibrat namuna qilib ko‘rsatish tarbiya samaradorligini oshirishga muhim g‘oyaviy asosdir. Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go‘zallik kategoriyasidir. Uning ma’nosini o‘quvchilarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyligini ta’minlashga katta yordam

beradi. Shu sababli go‘zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq:

• go‘zallik - bu kishining qalbi go‘zalligi;
• go‘zallik - bu kishining yuzi issiqligi;
• go‘zallik - bu kishining go‘zal xulqi;
• go‘zallik - bu yaxshi muomala madaniyatiga ega bo‘lishlik;
• go‘zallik - bu yaxshi fazilatlar egasi bo‘lishlik;
• go‘zallik - bu insonlarga yaxshilik qilish;
• go‘zallik – bu atrof muhitdan zavqlana olish;

Xulosa qilib aytganda insondagi go‘zallik - tabiat ato qilgan tashqi go‘zallik ya’ni husn-jamolidan tashqari yana ichki go‘zallikni ya’ni yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o‘z ichiga olgan insoniylikdan iborat. Demak, estetik tarbiya ya’ni nafosat tarbiyasi ham insoniylik tarbiyasi ham to‘la-to‘kis ahamiyatga ega bo‘lgan go‘zallik tarbiyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz" Toshkent-"O‘zbekiston"-2017.
2. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" "A.Qodiriy" nashriyoti T.1993-yil
3. M.X.To‘xtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyarova,A.Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov. "Pedagogika" Toshkent-2010-yil.
4. https://zamin.uz/uz/jamiyat/79038-zamonavij-talaba-uchun-kelazhak-ituvchisining-ideal-iefasiga-talablar.html

BOLALARNI OILADA TARBIYALASHDA AXLOQIY, ESTETIK TARBIYANING O‘RNI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi O‘rmonova Xosiyatxon Nosirjon qizi Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaning o‘rni, oilada ota-onaning farzandiga munosabati, axloqiy tarbiyani shakllantirish, tarbiyani tashkil etishning asosiy shartlari va vazifasi, barkamol shaxs jamiyatda katta o‘rin egallashi, tarbiyaviy maqsadga erishish yo‘llari haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, axloq, ta’lim, oila, shaxs, muhit, irsiyat, bola, ota, ona, o‘qituvchi.

Hozirgi kunda kelajak avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol toptirish ota-onalar va pedagoglarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan ota-onalar va pedagoglarning pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lishi juda ham muhimdir. Chunki bola asosiy tarbiyani oilada ota-ona qaramog‘ida oladi. Shuning uchun ham dono xalqimiz oila tarbiya maskanidir deb bejiz aytmaganlar. Tarbiya—shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisidir. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi. Yosh avlodni tarbiyalashda xalqning boy, milliy, madaniy, tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta’minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakat fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasining asosiy maqsadidir.[1] Tarbiya-inson umri davomida sayqallanib

boradi. Shu boisdan ham birinchi e’tibor ertangi kun dilbandlariga qaratiladi, zero o‘sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning salohiyatiga qarab yurtning kelajagini tasavvur qila olish mumkin. Bolaning tarbiya va ilm olishida faqatgina o‘qituvchi emas, ota-ona, mahalla, jamiyatning ham o‘rni bo‘lak. Bejizga dono xalqimiz: ”Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” deyishmagan. Bolalar tarbiyasida yon atrofidagi insonlarning ham ta’siri bor. Ota-ona o‘z bolasini ilmli, komil inson bo‘lishini istasa , bolasiga to‘g‘ri tarbiya beradi, o‘qishidan xabardor bo‘lib turadi, o‘qituvchi bilan doim aloqada bo‘ladi. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutishi mumkin. O‘z farzandini kamolotini ko‘rishni istagan ota-ona hamma mas’uliyatni o‘qituvchiga yuklamaydi, balki o‘qituvchi bilan doimo birga faoliyat olib boradi. Oila bu kichik vatan, birinchi tarbiya maskanidir. Farzand tarbiyasida oila mustahkamligi, ota-onaning o‘zaro munosabati, farzandlariga mehr-muhabbati, oila muhitidagi tartib-intizom asosiy o‘rinni egallaydi. Agar bola yoshligidan to‘g‘ri tarbiyalansa, kelajakda jamiyat uchun munosib shaxs bo‘lib yetishadi. Bolalar asosiy vaqtlarini uyda onalari bilan o‘tkazishadi va ko‘proq tarbiyani onalaridan olishadi. Sababi otalar uy-ro‘zg‘or tashvishlari bilan mashg‘ul bo‘lishadi. Bu vaqtda onalar vaqti kelsa ustoz, vaqti kelsa o‘rtoq bo‘lishadi. Har kim yaqinlari va yon atrofidagi insonlardan mehr-e’tibor kutib yashaydi. Shu sababli ham ota-onalar farzandlari bilan ko‘proq band bo‘lmog‘i lozim. Ota-ona obro‘si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi. Buyuk allomalarning mulohazalariga ko‘ra, tarbiyada hazilga yo‘l qo‘yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakallufga, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak. Shu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat, qonun-qoidalarga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya prinsiplari usullari vositalari bilan qurollantirilganda haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning iltimos, maslahat, ishontirish, talab qilish, buyruq berish, tanbeh berish, jazolash, rag‘batlantirish singari qator usullaridan o‘z o‘rnida va me’yorida foydalanilmasa ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Haddan tashqari erkalatib yubormaslik, ko‘p tanqid qilmaslik va asosiysi birovning bolasi bilan solishtirmaslik va oilada otani

farzandlar oldida behurmat qilmaslik, yomon koʻrsatmaslik muhim ahamiyatga ega. Bolalarga kichikligidan ertak aytib berish tafakkurini, xayolot olamini kengaytiradi. Bu xolat kichiklikdan kitobsevar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bolani yoshligidan mehnatga, hamma yutuqlarga oʻz halol mehnati, oʻz kuchi bilan erishishiga oʻrgatish, etik-estetik tomondan ham rivojlantirish, kiyimlarni ozoda saqlash, salom berish, dasturxon odobi, koʻcha odobi va turli xil odob-axloq qoidalariga rioya qilishni singdirish, kun tartibini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, toʻgʻri ovqatlanish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilishga odatlantirish bularning bari oiladan shakllanib boradi. Agar oilada ota oʻqimishli boʻlsa, bola 60 foiz aqlli boʻladi. Ona oʻqimishli boʻlsa, bola 90 foiz aqlli boʻladi. Bundan koʻrinadiki, bolalarning aqlli boʻlib rivojlanishida irsiyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ona ilmli boʻlsa, butun jamiyat ilmli boʻladi degan fikrlar mavjud.

Ibn Sino mutafakkir sifatida aql va ilmga juda katta e’tibor qaratadi. Hamda oʻz asarlarida bularning har ikkisiga ham juda katta oʻrin ajratadi. Shu oʻrinda ta’kidlash oʻrinliki, Ibn Sino ilmga egalik qilishni nafaqat aql bilan bogʻliq sanaydi, balki uni axloq va insoniylik bilan qattiq bogʻlangan deb hisoblaydi. Shu boisdan ham aql, axloq, insoniylik bir -birini toʻldirgan xolda insonni inson boʻlib shakllanishida tirgak vazifasini oʻtaydi. Agar oilada hamkorlik, oʻzaro yordam, bir-biriga ishonch... holati mavjud ekan, bunday oilada rostgoʻy, samimiy, mehribon, oʻrtoqlariga doimo yordam berishga harakat qiladigan inson kamol topadi. Kuzatishlar shuni koʻrsatmoqdaki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda boʻlish hissi kuchli boʻladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydigan oila bolalari ham shu oilada mavjud boʻlgan axloqiy xislatlar; xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga gʻamxoʻrlik qilish, oila a’zolari oʻrtasidagi oʻzaro hurmat, ayniqsa ayollarga nisbatan koʻrsatiladigan gʻamxoʻrlik kabi ijodiy fazilatlardan namuna olib, voyaga yetadilar[4]. Shu boisdan bolalarning oldida oʻrnak sifatida gavdalanish muhim sanaladi. Masalan, telefondan kamroq foydalanish yoki maqsadli foydalanish. Ota

yoki ona bolani oldida telefon o‘ynasa-yu, farzandidan kitob o‘qishi yoki dars tayyorlashini so‘ragan paytida bolaning xayolida onam yoki otamga telefon o‘ynash mumkinku, menga esa yo‘q degan fikr kelib, xayoli o‘sha telefon yoki o‘yinda turadi. Natijada tayyorlashi kerak bo‘lgan vazifani o‘z xohishi, qiziqishi bilan tayyorlamaydi va ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi. Bir ibratli hikoyada ota farzandiga bir kitobni beradi va agar shu kitobni o‘qib tugatsang, senga pul beraman, deb aytadi. Farzandi esa xursand bo‘lib kitobni oladi va ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng otasining oldiga borib, kitobni o‘qib tugatganini aytadi. Ota kulib,”Sen rostdan ham kitobni o‘qib tugatganingda ichidagi pulni ko‘rgan bo‘larding“, deydi.

Xulosa qilib aytganda, ko`zlarning quvonchi, ertangi kun egalari bo`lgan bolajonlarni komil inson etib tarbiyalash har bir oilaning, pedagoglarning vazifasidir. Bu esa har bir davlat taraqqiyotini belgilovchi omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva “Pedagogika nazariyasi”T:-2008 124-bet.

2.“Oila pedagogikasi”T:-2007.55-bet.

3.Fehrist kitab ash-shayx ar-ra’is. Rkp. IV AN UzSSR, inv. № 2385/ XI; Irisov A. Abu Ali ibn Sino. T., 1963

5.O‘.M.Asqarova,M.Xayitboyev,M.S.Nishonov“Pedagogika”T:”TALQIN”2008

6.https://cyberleninka.ru/article/n/bola-ta-lim-tarbiyasida-ota-onaning-tutgan-o-rni

MUNDARIJA

1.	So‘z boshi		3
2.	Xusanov Baxodir Ergashevich	MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	4
3.	Екатерина Евгеньевна Белан	ИНКЛЮЗИВНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ДЕТЕЙ С РАЗНЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ КАК УСЛОВИЕ ИХ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ	5
4.	Досматова Д.Н	ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ЛИРИКИ В ШКОЛЕ	11
5.	Ольшевская Л.А.	ФОРМИРОВАНИЕ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ	13
6.	Левонюк Алла Евгеньевна	РОЛЬ ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	18
7.	M.Mirqosimova	TA’LIM JARAYONINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH	23
1- yo‘nalish. Ta’limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirish: muammo va yechimlar			
8.	Asranbayeva Munojatxon Xalimjanovna	PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR SHAXSIYATI VA KASBIY FAOLIYATINING BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK TAMOYILLARI	27
9.	Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi	MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLA DUNYOQARASHINING YUKSALISHIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VOSITALARINING O‘RNI	33
10.	Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIY - HISSIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL PEDAGOGIK YORDAM KO‘RSATISH AMALIYOTI	36
11.	Abdullayeva Madinabonu Akmaljon qizi	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘RGATISHDA STORYTELLING (HIKOYA) METODINING AFZALLIKLARI	39

12.	Akramjonova Feruza	BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH	41
13.	1.Asranbayeva Munojatxon Halimjanovna 2.Aminova Muxtasar Jamoliddin qizi 3.Xusanova Sadoqat Akmaljon qizi	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH MUAMMOSI	44
14.	Azizova Ziroat Bahodirovna	MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN TABIAT HAQIDA TUSHUNCHA BERISH	46
15.	D.Xomidova	MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA’LIM BERISHNING AHAMIYATI	49
16.	Farhodov Fozilbek Bahrom o‘g‘li	OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY MUNOSABATLAR JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	52
17.	Farhodov Fozilbek Bahrom o‘g‘li	SHARQ ALLOMALARINING TARBIYAVIY MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARUVGA OID ILG‘OR QARASHLARI	55
18.	G.M.Nazirova	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNI TASHKIL ETISH	59
19.	Hakimov Abbosxon Oribjon o‘g‘li	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA YO‘NALTIRILGAN ESTETIK PEDAGOGIK JARAYONNIG O‘ZIGA XOSLIGI	62
20.	1.Ивницкая Анастасия 2.Абдукаримова Шахноза Набиевна	РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	65
21.	Ismailova Nozima Umaraliyevna	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLAR ASOSIDA BOLALARNI INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH	68
22.	Ismailova Nilufar	GLOBALLASHAYOTGAN JAMIYATDA	72

	Isroildjanovna Raimkulova Dildora Rustam qizi	TA’LIM-TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING DUNYO TAJRIBASI. MENTORLIK FAOLIYATI, MENTORGA MUROJAAT QILISHNING SAMARALARI.	
23.	Jumanyazova Muhabbat Xusinovna	BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINING O‘QUVCHI SHAXSINI TARBIYALASHDAGI O‘RNI	74
24.	Jo‘rayeva Zilola Sayfiddin qizi	MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS SHAKLLARI	77
25.	Komilova Sarvinoz Turdimatovna	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA BOLALAR BILAN ISHLASHDA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI	81
26.	Komilov Xusniddin Shamsiddin o‘g‘li	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH	85
27.	L.K.Narimbayeva	MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISHNING TUZILISHI VA MAZMUNI	87
28.	1.Metinqulov Javlon Tulqin o‘g‘li 2.Eshbo‘riyev Zokir To‘yli o‘g‘li	TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR	90
29.	Normurodova Sabina Laziz qizi	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI ISH SHAKLLARI	95
30.	Norova Nargiza Xalmamat qizi	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION TA’LIM-TARBIYA BERISHDA FANLARARO ALOQADORLIKDAN FOYDALANISH	97
31.	Oygul Ashurova Anvarjonovna	BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM MUTAXASSISLARINING AXLOQIY-EKOESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI	100
32.	О. Н.Насиров	ОБЩАЯ СИСТЕМА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	103
33.	Д.Ориббоева	ГЛОБАЛЛАШГАН ЖАМИЯТДА БОЛАЛАРНИ МАКТАБ ТАЪЛИМГА	105

		ТАЙЁРЛАШДА ОИЛАНИНГ ТУТГАН ЎРНИ	
34.	Raxmonova Dilnoza Raxmatxon qizi	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIGA RAHBARLIK QILISH	108
35.	Rustamova Manzura Ne'matjanovna	RESEARCHING THE PROBLEM OF CREATIVE THINKING IN THE WORKS OF EASTERN AND WESTERN THINKERS	111
36.	Roximova Nilufar Egamberganovna	BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNOLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH	113
37.	1.Рузиева Умида Абдуевна 2.Боборахимова Паризод	ФОРМИРОВАНИЕ МЕДИЙНОЙ И ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ СПЕЦИАЛИСТОВ	118
38.	Safarova Zarnigor Zohid’s daughter	COMPARATIVE ANALYSIS OF GENDER LINGUISTICS IN ARABIC AND ENGLISH: A STUDY OF LANGUAGE AND GENDERED EXPRESSION	122
39.	Sattorova Shaxlo Axadovna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY TARBIYA ASOSIDA MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH	125
40.	Tursunov Shavkat Sharibjonovich	UMUMTA’LIM MAKTABLARI TIZIMIDA BADIIY TA’LIM MUAMMOLARI	127
41.	Urmonova Toshxon Ibragimovna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISH VA IJODIY FIKRLASH LAYOQATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARDAN FOYDALANISH	130
42.	Xo‘jamberdiyeva Shaxnoza Ko‘paysinovna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	133
43.	Xurvalieva Tarmiza Latiovna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHI	140
44.	1.З.Х. Насирова 2.С.Б.Абдулхакимова	РОЛЬ ДИДАКТИЧЕСКОЙ ИГРЫ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ	143
45.	Zafar Abdullaev	UNVEILING ENVIRONMENTAL METAPHORS: EXPLORING THE SYNERGY OF LANGUAGE AND ECOLOGY THROUGH ECOLINGUISTICS	145
46.	Zulfiya Mahmudova	MTT TARBIYACHISINING RIVOJLANISH	146

		MARKAZLARIDA TA’LIMIY FAOLIYATGA RAHBARLIK QILISH METODLARI	
47.	Zulfiya Mahmudova 2.Hamroqulova Laylo Sanjarbek qizi	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR	160
48.	G‘afforova Zarnigor Abdumo‘min qizi	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IJODIY MASHQLAR BILAN ISHLASHNING SAMARADORLIGI	165
49.	Sh.Dosbayeva	MARIYA MONTESSORI PEDAGOGIKASINING G‘OYALARI VA TAJRIBASI	167
50.	Sharipova Nodira Botir qizi	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO‘NIKMALARI SHAKIIANTIRISH	171
51.	G‘afurova Gulbahor	BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHISINING ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNI EKSPERMENTAL O‘RGANISH	173
52.	Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	TARBIYA DARSLARIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI O‘YINLARDAN FOYDALANISH	177
2-yo‘nalish. Innovatsion va inklyuziv ta’lim-tarbiyani tashkil etish va rivojlantirish			
53.	1.Asranbayeva Munojat Halimzhanovna. 2.Badritdinova Madina Bakhromovna 3.Muminova, daughter of Surayyo Nuriddin	PSYCHOLOGICAL APPROACH TO INCLUSIVE EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	180
54.	1.M.Badritdinova 2.N.Maxmudova 3.M.Sodiqjonova	AUTIZMGA EGA BOLALARDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI	186
55.	Malikova Xurshida Ikramovna	RAQOBATBARDOSH SURDOPEDAGOG-MUTAXASSISNI TAYYORLASH-DAVR TALABI	188
56.	Mamarajabova Zulfiya Narbaevna	ADABIY TA’LIM JARAYONIDA ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH	191
57.	Malikaxon Mamanabiyeva	MAKTABLARDA INKLYUZIV TA’LIM MADANIYATI VA O‘QUVCHILARNING	193

	Axunjonovna	O‘ZARO MUNOSABATLARI	
58.	Muhitdinova Diyoraxon Ulug‘bek qizi	MAXSUS MAKTABDA O‘QISH DARSLARIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING IJOBIY SAMARASI	196
59.	Mirsalikhova (Mirsalixova) Robiya	INCORPORATION OF INCLUSIVITY IN EDUCATION SYSTEM AS A WHOLESOME INNOVATION OF 21 CENTURY	199
60.	Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna	INKLYUZIV TA’LIMDA ART PEDAGOGIKADAN VA ART TERAPIYADAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI	202
61.	Niyazaxunova Nargizaxon Boymirzayevna	IJTIMOIY-MAISHIY YO‘NALISHDAGI DARSLARDA ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING TARBIYALASH -TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA	204
62.	N.A.Valixanova	TURLI FANLARNI O‘QITISHDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLISH	206
63.	O.U.Rahmonaliyeva	ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR NUQSONINING KELIB CHIQISH SABABLARI	210
64.	S. O. Oripova	INKLYUZIV TA’LIMDA ALOHIDA TA’LIMGA EHTIYOJI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR OTA-ONALARI BILAN HAMKORLIKDAGI FAOLIYAT	212
65.	Roziqova Malika Olimovna	BOSHLANG‘ICH INKLYUZIV TA’LIM SINFLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	215
66.	1.Xabibullayev Samandar Xabibullayevich 2.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI	217
67.	Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi	MAKTABGACHA TA‘LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	220
68.	З.Х. Насирова	BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ	223

		KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA DIDAKTIK O‘YINLAR	
69.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	INKLYUZIV TA’LIMNING RIVOJLANGAN DAVLATLARDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI	225
70.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	INKLYUZIV TA’LIMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	229
71.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	INKLYUZIV TA’LIMNING MAZMUNI VA SOG‘LOM HAYOTGA INTEGRATSIYASI	231
72.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Safarova Maxbuba Erkinovna 3.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	RESPUBLIKAMIZDA INKLYUZIV TA’LIM VA TADBIQ	233
73.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Xamraboyeva Saodat Zokirjon qizi 3.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	INKLYUZIV TA’LIMNING MAZMUNI VA NUTQNI SOG‘LOMLASHTIRISH	236
3-yo‘nalish. Axloqiy-estetik tarbiyaning samarali va ta’sirchan usullari			
74.	Abdullayev O‘ktamjon Ergashivich	TARBIYANING YOSHLARIMIZ HAYOTIDAGI O‘RNI	238
75.	Abdulaxatov Akram Ro’zmamatovich	JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA YOSHLARNI MANAVIY – AXLOQIY TARBIYALASH MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	240
76.	Abdukarimova Shaxnoza Nabievna	MAKTABGACHA TARBIYACHINING IJODKORLIGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING	244

		ZARUR SHARTI SIFATIDA.	
77.	Abobakirova Zulayho Mirzohidovna	MTT TARBIYALANUVCHILARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI BOLALARNING AQLIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH	247
78.	Artikova Muhayyo Botiraliyevna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILADAGI OILA A’ZOLARI (KEKSA AVLOD VAKILLARI)NING O‘ZARO TA’SIRI	250
79.	Ashirova O‘g‘iloy Abduvali qizi	DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ERTAKLARDAN FOYDALANIB BOLALARNI AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASH VA AQLIY RIVOJLANTIRISH	254
80.	Azizova Zulfizar Fazilovna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA AXLOQIY SIFATLARNING NAMOYON BO‘LISHI	259
81.	1.Badritdinova Madina Baxromovna 2.Odiljonova Muslimaxon Jasurbek qizi, 3.Mamadrahimova Mohinur A’zamjon qizi	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IDROKGA XOS KOGNITIV USLUB SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	263
82.	1.Badritdinova Madina Baxromovna 2.Rustamova Madina Xurshidjon qizi, 3.Tursunboyeva Sevara Abdurahim qizi	KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT BUZULISHINING SABABLARI	265
83.	Джамолиддинова Дилноза Мирходжоддинова Азизова Ханзодабегим Акмалкизи	ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ	268
84.	Dadaboyeva Nazira	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI	270

	Axmadjonovna	TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING O‘RNI	
85.	Dadamirzayeva Ma’mura Shokirjon qizi	BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARIDA DIZAYN FIKRLASHNI BADIIY ASARLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	273
86.	1.Egamberdieva Turg‘unoy Axmadjonovna 2.Gafurova Nodira Ravshanovna	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASIDAGI TARBIYALASH SHAROITDA YO‘NALTIRILGAN TA'LIM	276
87.	Emamatova Sitora Tuyg‘un qizi	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI	281
88.	1.Hamzayev Akbarxon Ilash o‘g‘li 2.Choriyev Sanjar	KELAJAK AVLOD HAYOTIDA AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYANING SAMARADORLIGINI O‘RGANISH	284
89.	1.G. Sh. Ibrohimova 2.M.H. Asranbayeva	TEACHING AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEAM BASED ON STATE EDUCATIONAL PROGRAM “THE FIRST STEP”	286
90.	Ismatov Asliddin Fazliddin o‘g‘li	JAHON XALQLARI ERTAKLARI NUTQINING KOMMUNIKATIV STRATEGIYASI	287
91.	1.Ismoilov Turabjon, 2.Ismoilov G‘anisher 3.Tuxtaboyeva Burobiya	SOG‘LOM AVLOD TARBIYASIDA JISMONIY TARBIYA VA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANING AHAMIYATI	290
92.	Jamalova Kamola Shahobiddinovna	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	292
93.	Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING EMOTSIONAL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI	294
94.	1.M.A.Yakubova 2.Begimova Muxlisa	OILADA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA FARZANDLARNI TARBIYALASH	396
95.	1.M.Usmanova	BOLALARNI XALQ OG‘ZAKI IJODI	302

	2.Sh.Mamadaminova	NAMUNALARI VOSITASIDA TARBIYALASHNING MAZMUNI	
96.	1.Maripova Nodira Xamidovna 2.Shoraxmetova Dilshoda Qutbitdin qizi 3.Orifxo‘jayeva Mohiraxon Bahromxo‘ja qizi	O‘YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HISSIY HOLATIGA TA'SIRI	305
97.	1.Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna 2.Gafforova Zulayho Umarjanovna	O‘QUVCHI- YOSHLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI TARBIYALASHDA “MANAS” EPOSINING AHAMIYATI	307
98.	Muxtorova Umida Tolib qizi	AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY ADABIYOTNING O‘RNI	310
99.	Н.Ж.Абдусаматова	МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ	314
100.	Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi	HOZIRGI KUNDA O‘ZBEKISTONDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI	317
101.	1.Усманова Зулфия Мусаевна 2.Иванова Елена Владимировна	АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО И НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	321
102.	Qanoatova Nazokat	BADIIY ADABIYOT NAMUNALARI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH ASOSI SIFATIDA	325
103.	Qayipnazarov Nurlan Baxitbay o‘g‘li	YOSHLARNI TARBIYALASHDA SPORT, MA’NAVIYAT VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	327
104.	Qodirov Umidjon Lapas o‘g‘li	BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH DARSLARIDA SHE’R O‘QITISH METODIKASI	330
105.	Rahmatulla Barakayev	BOLALARNI UYG‘ONISHGA CHORLOVCHI SHE’RIYAT	332
106.	Rahmatullayeva	SHARQ MUTAFAKKIRLARINING	339

	Zamira Olimjonovna	QARASHLARIDA BOLA AXLOQIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI	
107.	Raxmonova Iroda Samijonovna	MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI	342
108.	1.Rustamova Go'zal Xolmuhammad qizi 2.Tursunpo'latova Odinaxon Umidjon qizi	KICHIK MAKTAB YOSH DAVRIDA MAKTABGA INTELLEKTUAL TAYYORGARLIK MUAMMOSI	346
109.	1.Sultonova Nurxon Anvaronva 2.Valiyeva Xosiyatxon, 3.Meliqo'ziyeva Kamola	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RIVOJLANISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	349
110.	Tursunboyeva Zuxra Umid qizi	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR ATROF-OLAM BILAN TANISHTIRISHDA YOSH XUSUSIYATLARIGA KO'RA TASHKIL ETISH SHAKLLARI	354
111.	Valixanov Saidjon Shoxobidinovich	JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH	360
112.	Xamidova Samida Abdulhakim qizi	6-7 YOSHLI BOLALARNI TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYAT JARAYONIDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASHNING SAMARALI USULLARI	363
113.	Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna	BOLALARNING ATROF-MUHITGA ESTETIK MUNOSABATLARINI TARBIYALASH	366
4-yo'nalish. Globallashayotgan jamiyatda ta'lim-tarbiyani rivojlantirishning dunyo tajribasi			
114.	Ashirova Sojida Baxramovna	BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK AHAMIYATI	370
115.	1.Asqarova Dilorom	BOLANING MAKTABDA	372

	Qurbonovna, 2.Qurbonova Xurshida Abdulboqi qizi	MUVAFFAQIYATLI O‘QIISHIDA JISMONIY TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI	
116.	1.Azamova Zarnigor Rustamjon qizi 2.Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi	IMPROVING READING SKILLS THROUGH EFFECTIVE READING STRATEGIES	375
117.	1.Bannayev Maxamadin 2.Sattibekmirzayeva Nozima	BARQAROR TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA SIFATLI TA’LIM MUHIM OMILDIR	379
118.	1.Begmatova Dilnoza Muxtarovna 2.Rashidova Oynisa Xusniddin qizi	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA LOYIHAGA ASOSLANGAN MUSTAQIL ISHLAR ORQALI TALABALARNING MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH	381
119.	1.Bo‘ronova Iroda Xolto‘ra qizi 2.B.X.Xodjayev	AXBOROTLI TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHINING MEDIA KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	385
120.	1.Ergasheva Madina Qahramovna 2.Pardayev O‘tkir Ismatullayevich	THE ROLE OF INTELLECTUAL YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TECHNOLOGY.	388
121.	1.Erjonova Saboxon 2.Durdiyeva Mohinur Adilbekovna	TIL VA NUTQ MARKAZLARIDA TURLI GURUH TARBIYALANUVCHILARINING “KVEST” TEXNOLOGIYALARI FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH	390
122.	Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi	DEVELOPMENT OF MORAL-AESTHETIC EDUCATION IN EDUCATION IN THE ERA OF DIGITAL TECHNOLOGIES	392
123.	Hasanova Sabohat Komil qizi	PIRLS TOPSHIRIQLARINI O‘RGATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (4K MODELI MISOLIDA)	395
124.	1.G. Sh. Ibrohimova 2.M.H. Asranbayeva	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	400
125.	Ismailova Nilufar Isroildjanovna	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN ISHLASHDA INNOVATSION SHAKLLAR, USULLAR,	402

		TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	
126.	Ismailova Nozima Umaraliyevna	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLAR ASOSIDA BOLALARNI INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH	407
127.	1.Ismoilov Turobjon 2.Salijanova Orzixon 3.G‘oyibova Yulduzxon	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘TKAZILADIGAN JISMONIY TARBIYA DAQIQALARI ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH	410
128.	Jabborova Maftuna Komil qizi	BOLALARNING DASTLABKI CHET TILI TA’LIMIDA INTELEKTUAL IJODIY YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH DASTURI	413
129.	1.Jiengalieva Sholpan 2.Aralova Ozoda 3.Artiqbaeva Beksuliw 4.Urinova Ayganim	TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA “AQLIY HUJUM” METODIDAN FOYDALANISH	416
130.	Jo‘rayeva Dilafro‘z Shuhrat qizi	MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI	418
131.	Lutfetdinova Ra’no Xusnetdinovna	O‘QITUVCHI TA’LIM JARAYONINING TASHKILOTCHISI SIFATIDA	421
132.	Ro‘ziboyeva Ma’mura Abdunabiyevna	PEDAGOGIK KOOPERATIV TA’LIM ASOSIDA O'QITISH USULLARI	424
133.	1.Murtazina Diana Rakhibovna 2.Murtazin Emil Rustamovich	NURTURING MORAL AND AESTHETIC VIRTUES: UNRAVELING THE TEACHER'S ROLE, CHALLENGES, AND SOLUTIONS	427
134.	1.Маъмурова Феруза Тоджиматовна 2.Абдуллаева Нозима Хошимовна 3.Дехканов Аброр Эркинбой угли 4.Муродиллаев Рахматилло	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОПЕРЕЖАЮЩЕЙ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ	430

	Носиржон угли		
135.	1.Mustafoev Abduvohid Abduhafiz o‘g‘li 2.Uralov Abubakr Azamat o‘g‘li	GLOBALLASHAYOTGAN JAMIYATDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR.	432
136.	Nosirova Ra'no Xamidovna	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	435
137.	Olimjonova O‘g‘ilxon Abdurasul qizi	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL O‘QISHGA PIRLS BAHOLASH TIZIMINI QO‘LLASH VOSITASIDA O‘RGATISH	439
138.	1.O‘razaliyeva Sojida Tojiboy qizi 2.Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi	TARBIYACHILARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI	442
139.	1.Qambarova Dilfuza 2.Fozilova Iltifot	SINGAPUR MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI	443
140.	Roximova Nilufar Egamberganovna	FACTORS OF ENSURING AND IMPROVING ORGANICITY AND CONTINUITY OF TECHNOLOGICAL SCIENCE	446
141.	1.N.Sh. Mullaboyeva 2.Mahsudaliyev Sherzod	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA LIDERLIK SIFATLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR	449
142.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Mirzabekova Go‘zal To‘ychiboyevna 3.Murodova Ruxshona Muzaffar qizi	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH VA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIKASI	455
143.	1.Teshabayeva Zamira Sobirovna 2.Chorshanbiyeva	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM	457

	Sevinch Odil qizi	SHAKLINI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	
144.	To‘rayeva Gulnoraxon	BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INNOVATSION METODLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI	460
145.	Turanazarova Nilufar Rahmonqul qizi	THE ROLE OF TEXTS IN THE PREPARATION OF ASSIGNMENTS IN THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM OF PISA.	462
146.	1.Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li 2.Ro‘zmatova Mahliyo Baxrom qizi	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH TA’LIMNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA	466
147.	1.Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li 2.Saparova Bonu XXX	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA STEAM O‘QITISH TEXNOLOGIYASI-MATEMATIKADAN ERTA RIVOJLANISH (UZLUKSIZ TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH) OMILI SIFATIDA	470
148.	1.Zulfiya Mahmudova 2.Ergasheva Muyassar Elyorbek qizi	STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	475
149.	1.З.Х. Насирова 2.К.З.Жумакулова	РЕЧ ДЕТЕЙ КАК ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА	478
150.	Таджибаев Азизбек Батирович	УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ГРАФИК САВОДХОНЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	481
151.	Юсупова Сугдиёна Умиджон кизи	РОЛЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ШКОЛАХ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ГЛОБАЛЬНЫХ ВЫЗОВОВ СОВРЕМЕННОГО МИРА В БУДУЩЕМ	483
152.	Fayzullayeva xavoxon	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	487
153.	Normirzayev Farxod	AUTOKOMPETENTLI RAHBAR	496

		SIFATINING UMUMIY STRUKTURASI	
154.	Maxmudova Nodira Alisherovna	BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH	501
155.	Yusupova Mohinur	ESTETIK TARBIYA -O‘QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL TARBIYALASHNING MUHIM OMILI	507
156.	Bozorova Z	BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA AXLOQIY MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	512
157.	Satimboyeva Xurshida Anvarjon qizi	BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA INDIKATORLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARINING AMALIY SHAKL, USUL VA VOSITALARI.	521
158.	Shirinoy Mamasoliyeva Sirojiddin qizi	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI	530
159.	Shamshiyev Muslimbek Rashidbek o‘g‘li	IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR IJTIMOIY MOSLASHUVIDA AMALIY PSIXOLOGIK ISHLARNING O‘RNI.	537
160.	Z.P.Komilova	OILADA AXLOQIY TARBIYA MUAMMOLARINI YECHISHDA MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIK MASALALARI	540
161.	Xusanova Feruza Zoxidjonova	OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI TO‘GARAKLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH	547

162.	Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI	551
163.	1.Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi 2.Nuritdinova Marjona Isog‘ali qizi	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYANING O‘RNI	554
164.	Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi	BOLALARNI OILADA TARBIYALASHDA AXLOQIY, ESTETIK TARBIYANING O‘RNI	561

“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI”
mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Сборник статей международной научно-практической конференции, посвященной теме:

“ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ В ДОШКОЛЬНОМ И НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ”

Ответственность за аутентичность и точность цитат, имен, названий и иных сведений, а также за соблюдение законов об интелектуальной собственности несут авторы публикуемых материалов.

Подписано в печать 03.06.2024 г
Бумага офисная
Формат: 60x90 ⅛
Тираж: 50 экз